

**Mo‘minov Abdulxay Rashidovich
Tillabayev Mirzatillo Alisherovich**

*Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi
qabul qilinganligining 65 yilligiga bag‘ishlanadi*

INSON HUQUQLARI

DARSLIK

Ikkinchi nashr

**Toshkent
“Adolat”
2013**

UO‘K: 341.231.14(075)

KBK 67.412.1

M-99

Mo‘minov, Abdulxay Rashidovich; Tillabayev, Mirzatillo Alisherovich.

Inson huquqlari: darslik / A.R. Mo‘minov, M.A. Tillabayev; mas’ul muharrir
A.X. Saidov. – 2-nashr. – T.: Adolat, 2013. – 504 b. – (Inson huquqlari umumjahon
deklaratsiyasi qabul qilinganligining 65-yilligiga bag‘ishlanadi)

ISBN 978-9943-394-69-8

UO‘K: 341.231.14(075)

KBK 67.412.1

Mas’ul muharrir:

A.X. Saidov, yu.f.d., professor

Taqrizchilar:

X. Boboyev, yu.f.d.,

Yuristlar malakasini oshirish

markazi professori, O‘zbekiston

Respublikasi Fan arbobi;

B. Toshev, yu.f.d.,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

universiteti professori;

B. Ismoilov, yu.f.d.,

Toshkent davlat yuridik

universiteti kafedrası mudiri;

F. Bakayeva, yu.f.n.,

Inson huquqlari bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi

Milliy markazi bo‘lim boshlig‘i.

Ushbu darslik “Inson huquqlari” fani predmetini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson huquqlari tushunchasi, tarixi va rivojlanish bosqichlari, inson huquqlari kategoriyalari, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va milliy huquqiy normalar va ularni amalga oshirish mexanizmlari, inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik kabi masalalar qamrab olingan.

Darslik inson huquqlari masalarini o‘rganuvchi talabalar, o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-394-69-8

© Mo‘minov A.R., Tillabayev M.A., 2010, 2013.

© O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
“Adolat” nashriyoti, 2013.

KIRISH SO‘ZI

2013-yilda xalqaro jamoatchilik inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash sohasidagi asosiy demokratik tamoyil va talablarni o’zida mujassam etgan, shuningdek, bu sohada butun xalqaro huquq tizimini shakllantirishning siyosiy, huquqiy asosiga aylangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 65 yilligini hamda inson huquqlari sohasidagi Vena deklaratsiyasi va harakat dasturining 20 yilligini nishonlamoqda.

Qayd etish lozimki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 400 dan ortiq tillarda nashr qilingan, dunyoda birorta ham hujjat bunchalik ko’p tillarga tarjima qilinmagan. Bu esa, uning universal xususiyati va ko’lamidan dalolat beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ko’plab demokratik mamlakatlar konstitutsiyalarining asosiga aylangan, u fundamental huquq va erkinliklarga hurmat va rag’batlantirishning mezonini bo’lgan etalon hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalari inson huquqlari bo’yicha BMTning yuzdan ortiq xalqaro konvensiya va deklaratsiyalari, inson huquqlari bo’yicha ko’p miqdordagi mintaqaviy shartnomalar, inson huquqlari bo’yicha milliy qonunchilik va davlatlar konstitutsiyalarining asosi hisoblanadi hamda ular inson huquqlarini himoya qilish va rag’batlantirishni ta’minlab berishga qaratilgan.

Demokratik huquqiy davlat qurish, ko’p jihatdan, huquqiy ta’lim darajasiga bog’liq. Ushbu masalaning yana bir e’tiborli tarafi shundan iboratki, BMT tomonidan 2009-yil – Inson huquqlari bo’yicha ta’lim xalqaro yili deb e’lon qilindi. BMT ilgari surgan “ta’lim – demokratiya asosi” degan da’vat hamda BMTning inson huquqlari sohasi ta’limining o’n yilligi hisoblangan 1995–2004-yillar doirasida 1996-yildan boshlab yurtimizning barcha ta’lim maskanlarida “Inson huquqlari” o’quv kursi tatbiq etildi.

Bu borada, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yilda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”¹ va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda qabul qilgan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o’rganishni tashkil etish to’g’risida”gi farmoyishining ahamiyati nechog’li yuksak ekanini e’tirof etish o’rinlidir. Mazkur Milliy dastur va farmoyishni ijro etish maqsadida bugungi kunda mamlakatimizning uzluksiz konstitutsiyaviy-huquqiy ta’lim tizimi yaratildi.

¹ Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi//O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 227-modda.

Inson huquqlari sohasiga oid ta'lim olish insonning eng asosiy huquqlaridan biridir. Shuning uchun ham, inson huquqlari ta'limi quyidagi manfaatlar nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, inson huquqlariga amal qilinishi;

ikkinchidan, inson huquqlari buzilishi hollarining kamayishi va buzilishining oldini olish borasida samarali tizim yaratish;

uchinchidan, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etish lozimki, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida davlat va jamoat nazorati turlarini belgilab beruvchi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o'rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi. Shuning uchun ham, har bir davlat tuzilmasining eng muhim vazifasi inson huquqlariga rioya qilishni haqiqiy ta'minlash uchun qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning harakatini ta'minlab berishdan iborat.

Davlatning ushbu ustuvor vazifasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni¹ asosida mamlakatimizda inson manfaatlarini ko'zlagan holda uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida demokratik sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida inson manfaatlari asosiy diqqat markazida turgan siyosiy va ijtimoiy muhit rivojlanib bormoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida aytganlaridek, "Hozirgi vaqtda O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergan yana ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin"².

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni//Xalq so'zi, 2008-yil 2-may.

2 Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 6.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, unda insonning asosiy huquqlari va erkinliklari o'z ifodasini topgan. Mazkur hujjat universal qadriyat – “Barcha odamlar erkin, qadriyat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladi” tamoyilini tatbiq etadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatda hayotimizning barcha soha va jabhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ularning samarasini oshirish maqsadida katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina qonun va qonunchilik normalari qabul qilindi, ular amalda samarali joriy etilmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning mazkur rivojlanish jarayonida 2010-yil 12-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, unda mamlakat rahbari davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish; sud-huquq tizimini isloh etish; axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash; saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish; fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish; demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib berdiki, bu yo'nalishlarda qo'yilgan vazifalarni bajarish asosida mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning yanada samaraliroq mexanizmlarini asoslangan fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning istiqbollarini ko'rsatib berdi¹.

O'tgan davr mobaynida mazkur Konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga oid qonunchilik bazasi va uni himoya qilishning milliy mexanizmi takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, “Konsepsiyada ko'zda tutilgan 50 dan ziyod qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish dasturi bo'yicha bugungi kunga qadar mamlakatimiz Parlamenti tomonidan 12 ta qonun qabul qilindi, 30 dan ortiq qonun loyihasi esa, keng jamoatchilik,

1 Qarang: Karimov I. K. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – 56 b.

jumladan, xorijiy ekspert tashkilotlarni jalb etgan holda ko'rib chiqish va muhokama etish bosqichida turibdi"¹.

Davlatimiz boshlig'i tomonidan 2013-yil mamlakatimizda "Obod turmush yili" deb e'lon qilindi hamda mazkur yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ustuvor sifatida: mamlakatda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni asrash va mustahkamlash hal qiluvchi vazifa ekanligi; aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini yechish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish; obod turmushning yana bir muhim sharti sifatida inson salomatligini yanada mustahkamlash uchun sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlarining mehnatini yanada rag'batlantirish; yangi uy-joylar, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, kommunal xizmat sohasidagi muammolarni yechish orqali xalqning hayot sifati va darajasini yanada yuksaltirish; aholi hayotini obod qilishning muhim sharti sifatida mahallani obod qilish, mahalla institutini yanada rivojlantirish; xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va rolini yanada oshirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish lozimligi ko'rsatib o'tildi².

Albatta, qo'yilayotgan maqsad va vazifalarga ta'lim tizimisiz erishib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz ta'lim tizimida barcha sohalar kabi yurisprudensiya sohasiga ham e'tibor kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi ta'limga ham katta e'tibor qaratilmoqdaki, bu sohadagi ta'lim sifatini oshirish fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat qurishda, fuqarolarning huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirishda asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlari masalasiga katta e'tibor qaratilishining amaliy natijalaridan biri sifatida shuni qayd etish mumkinki, mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlarini o'qitishning milliy tizimi shakllantirildi. Oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi tizimda inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus kafedralar tashkil etildi. Jumladan, Yuristlar malakasini oshirish markazidagi "Xalqaro huquq va inson huquqlari", Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetidagi UNESCONing "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrası, IIV Akademiyasidagi "Inson

1 Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 8.

2 Qarang: Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. –T.: O'zbekiston, 2012. – 32 b.

huquqlari nazariyasi va amaliyoti” kafedrası shular jumlasidandir. Bugungi kunda, mazkur kafedralarda inson huquqlari sohasida boy nazariy, amaliy bilim va ko’nikmalar shakllangan.

Mazkur kafedralarda o’qitiladigan fanlar bo’yicha o’quv dasturlari, darsliklar, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ilmiy monografiyalar chop etilmoqda. Umuman olganda, mamlakatda “Inson huquqlari” fanini o’qitish metodologiyasi bo’yicha boy tajriba to’plandi hamda ilmiy maktab shakllandi¹.

Yuridik fanlar nomzodlari A. Mo’minov va M. Tillabayevlarning mazkur boy tajribaga tayanib tayyorlagan “Inson huquqlari” darsligi (2010-yilgi nashr) keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etildi. Jumladan, darslik 2012-yilda bo’lib o’tgan “Yilning eng yaxshi darsligi va o’quv adabiyoti muallifi” respublika tanlovining g’olibligini qo’lga kiritdi hamda O’zbekiston Respublikasining Oliy va o’rta maxsus, xalq ta’limi vazirliklari hamda “Iste’dod” jamg’armasining I darajali diplomi bilan taqdirlandi.

Mazkur darslik o’tgan davr mobaynida mamlakatda hamda xalqaro maydonda yuz bergan o’zgarishlarni va yangilanishlarni hisobga olgan holda qayta ishlandi. Jumladan, unda mamlakatimizda mustaqillik davridan buyon hozirgi kungacha inson huquqlari sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning amalga oshirilishi asosida davlat-huquqiy, sud-huquq hamda fuqarolik jamiyati qurilishi sohalarida olib borilayotgan o’zgarishlar o’z aksini topgan.

Ushbu darslik talabalarga, tadqiqotchilar va inson huquqlari sohasi bilan qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.

A.X. Saidov,
yuridik fanlar doktori, professor

¹ Masalan, chop etilgan adabiyot va to’plamlar: Права человека. Учебник-хрестоматия. Под ред. А.Х. Саидова. – Т.: УМЭД, 2001; Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002; Саидов А. Общепризнанные права человека. – М.: 2004; O’zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar. To’plam/ Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2002; Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar: to’plam/ O’zbekcha nashrning mas’ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004; UNESCO xalqaro me’yoriy hujjatlari (to’plam)/ O’zbekcha nashrning mas’ul muharriri L. Saidova. – T.: Adolat, 2004; Saidov A.X. Inson huquqlari bo’yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006; Тиллабаев М. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика. Монография / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Adolat, 2008; Mo’minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik/ Mas’ul muharrir Saidov A.X. – T.: JIDU, 2010; G’afurov A., Mo’minov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O’quv qo’llanma. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2012; Inson huquqlari umumiy nazariyasi. IIV tizimidagi ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2012. – 304 b.; Общая теория прав человека: Учебник для высших образовательных учреждений системы МВД Республики Узбекистан. Отв.ред. А.Х. Саидов. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2012; Права человека и справедливое судопроизводство. Практическое пособие. – Т.: Baktria Press, 2012 va boshqalar.

UMUMIY QISM

INSON HUQUQLARI ASOSLARI

1-mavzu. “Inson huquqlari” fanining mavzusi, tizimi, usullari va ahamiyati

1. Mustaqillik va inson huquqlari.
2. “Inson huquqlari” fani tushunchasi, obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. “Inson huquqlari” fanini o‘rganish metodologiyasi.
4. “Inson huquqlari” fanining ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar tizimida tutgan o‘rni
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida “Inson huquqlari” fanining g‘oyaviy-nazariy asoslari.

1. Mustaqillik va inson huquqlari

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, ko‘p sohalarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda yuridik ta‘limning ko‘plab yangi tarmoqlari vujudga kelishiga hamda ularning rivojlanishiga ham imkoniyatlar yaratib berdi. Yangi ijtimoiy munosabatlar parlament huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, sug‘urta huquqi, inson huquqlari kabi ko‘plab yangi huquqiy fanlarning shakllanishiga olib keldi. Bu fanlar mustaqillikdan oldin O‘zbekistonda umuman o‘qitilmas, qolaversa, esga ham olinmas edi. Masalan, inson huquqlari o‘quv kursi XX asrning 90-yillarigacha ilg‘or xorijiy mamlakatlarda yuridik mutaxassisliklar tayyorlovchi o‘quv yurtlarining asosiy o‘quv kurslaridan hisoblangani holda, sovet tuzumi o‘quv yurtlarida esa, yuridik ta‘limda bunday o‘quv kursi borligini mutaxassislar ham bilmas edi.

Chunki, sovet tuzumi inson huquqlarini alohida o‘quv kursi, fan tarmog‘i sifatida butunlay inkor etar edi. Inson huquqlari qo‘pol va tizimli ravishda buziladigan ushbu davlatda, uning mafkurasiga ko‘ra, davlat tomonidan inson huquqlarining buzilishi holatlari umuman inkor etilib kelingan hamda alohida individlarning huquq va manfaatlari davlat manfaatidan keyingi o‘rinda, ya‘ni oxirgi o‘rinda deb hisoblangan. Birinchi o‘rinda – davlat, keyin esa – jamiyat va eng oxirida shaxs manfaati turar edi. Davlat manfaati yo‘lida jamiyat va shaxs manfaatlari poymol etilishi oddiy qonuniy holat hisoblangan, tabiiy huquqlar degan tushuncha esa, umuman inkor etilib kelingan.

Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan davlat va individ o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabatlarning buzilishi, ya'ni inson huquqlariga daxldor bo'lgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilinishi, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlarining bajarilmasligi, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi.

Mansabdor shaxslar, ayniqsa, sud va huquqni muhofaza qilish organlarining vakillari odil sudlovni yoki huquqni qo'llashni amalga oshirish vaqtida, ba'zan o'z vazifalarini suiiste'mol qiladilar yoki o'z vakolat doiralaridan chetga chiqadilar va oqibatda muayyan shaxslar yoki shaxslar guruhining huquqlari va erkinliklarini poymol etadilar.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida bu organlarga faqat jazolovchi organ sifatida qaralgan bo'lib, ularning faoliyati orqali minglab fuqarolarimiz nohaq qamalib, repressiyaga duchor bo'lishgan edi. Masalan, mustabid davr sudlari faqat jazolovchi organ sifatida namoyon bo'lib, mustaqil holatda faoliyat yurita olmaganliklari va faqat siyosiy partiya hamda yuqori lavozimdagi amaldorlar tazyiqi ostidagina ish olib borganliklari, buning oqibatida inson huquqlari poymol bo'lib kelganligiga misollar juda ham ko'p. Hatto, nosudlov organlari tomonidan ham insonlarga jazo berilish holatlari yuz bergan. Buning yaqqol isboti sifatida 1930–1950-yillarni olib qarasak, sobiq SSSR davrida nosudlov organlari tomonidan 3778234 shaxs asossiz jinoiy javobgarlikka tortilib, shundan, 786098 nafari hatto o'lim jazosiga mahkum etilgan¹. Shuningdek, O'zbekiston SSRning sobiq SSSR prokuraturasi tergovchilari, Gdlyan va Ivanovlar guruhining qonunsizlik va o'zboshimchaliklariga yetarlicha qarshilik ko'rsata olmaganligi sabab, 1983–89-yillarda "Paxta ishi" bo'yicha 4,5 ming kishi javobgarlikka tortilgan va keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 3,5 ming kishi oqlangan².

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "bizga zarba bo'lib tushgan eng og'ir tanglik iqtisodiy emas, balki ma'naviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni g'oyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan ko'ra ancha

1 Mingboyev U. Sud – fuqarolar himoyachisi. – Toshkent, 2001. – B.21.

2 Rustamboyev M., Nikiforova Ye. Huquqni muhofaza qilish organlari. – T.: Adolat, 2006. – B.52.

mashaqqatli bo'ladi. Axir, yaqindagina emasmidi, kommunist, ayniqsa, u yuqoriroq lavozimda bo'lsa, o'z yaqin kishilari bilan oxirgi marta vidolashish uchun qabristonga ham borolmasdi. Dafn marosimida ishtirok etish eng katta ayb sanalib, bunday odamni partiyadan o'chirib, ishdan bo'shatishardi. Vijdon azobidan sal bo'lsa-da, qutulish, ayni paytda yillar bo'yi mehnat qilib erishgan imtiyozlardan mahrum bo'lmaslik uchun odamlar qarindosh-urug'lari, hatto, ota-onasi vafot etganda kasalxonaga yotib olishar yoki "shoshilinch komandirovka"ga ketib qolishar edi. Ana shundan keyin ham biz, odamlar hech nimaga ishonmay qo'yishgan, ularda hech qanday muqaddas narsa yo'q, deb aytishga qanday tilimiz borar edi?"¹.

Iqtisodiy muammolar demografik holatlarda yuzaga kelgan ahvol bilan qo'shilib, ijtimoiy masalalarni hal etishni g'oyat dolzarb qilib qo'ydi. O'zbekistonda aholining turmush darajasi sobiq Ittifoqdagi respublikalar ichida eng past bo'lib qoldi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1990-yilda respublika aholisi 70 foiziga yaqinining jami daromadi tirikchilik o'tkazish uchun zarur bo'lgan eng quyi darajadan ham past edi. Ayni paytda Rossiya va Ukrainada aholining 30 foizga yaqiniga shunday ahvolda kun kechirgandi. Mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash ham murakkab muammo bo'lib qoldi².

Mustabid tuzumning bunday oqibatlaridan to'g'ri xulosa chiqargan O'zbekiston Respublikasi rahbariyati, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlab berishga, bu sohadagi islohotlarga katta e'tibor qaratdi. Mustaqillik sari qo'yilgan eng muhim siyosiy, huquqiy qadamlardan biri – bu 1990-yil 20-iyundagi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi bo'ldi. Yana bir muhim hujjat 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun davlat bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qonuniy prinsiplarini to'la tikladi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq, mamlakatimizda inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida yondashila boshlandi. Bunga, 1991-yilning 30-sentabrida O'zbekistonning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga a'zo bo'lishining o'ziyoq yaqqol misol bo'la oladi. Chunki, mustaqilligining birinchi kunlaridanoq erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston bu yo'lda jahon hamjamiyati tomonidan

1 Karimov I.A.. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 263.

2 Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston, 1993. – B.18.

e'tirof etib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini e'tirof etgan edi. Bunday maqsadni e'lon qilgandan so'ng ikkinchi qadam – respublikamizning 1992-yil 8-dekabrda o'z Konstitutsiyasini e'lon qilishi bo'ldi. Konstitutsiyada Deklaratsiyaning barcha qoidalari mustahkamlab qo'yilishi O'zbekistonning demokratik, huquqiy davlat qurishga bo'lgan maqsadining konstitutsiyaviy poydevori bo'ldi.

Mamlakat Konstitutsiyasida hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili asosida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining vakolatlari aniq belgilab olindi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning doimiy ravishda isloh qilinishi natijasida, mamlakatda professional parlament, ya'ni ikki palatali – Senat va Qonunchilik palatasidan iborat Oliy Majlis shakllantirildi. Mazkur parlament tomonidan mustaqillik yillarida 600 dan ortiq qonunlar qabul qilindi va ular doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ularning 120 dan ortig'i bevosita inson huquqlariga taalluqlidir. O'zbekiston bugungi kunda inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilgan.

Mamlakatda sud hokimiyati va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tubdan, demokratik tamoyillar asosida o'z faoliyatini qaytadan tashkil etdilar. Ushbu organlarning avvalgi jazolovchi organ sifatidagi mohiyati o'zgarib bormoqda va ularning oldiga endi birinchi darajali vazifa sifatida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish vazifasi qo'yilmoqda. Sud-huquq sohasida tubdan islohotlar o'tkazilmoqda. Sud tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar, birinchidan, sudlarning professionalligini oshirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan esa, sud hokimiyatining mustaqilligini to'la ta'minlashga qaratildi. Sud tizimi ixtisoslashtirildi. 2008-yilga kelib, qamoqqa olishga sanksiya berish sudlarga o'tkazilishi bilan sudlarning mustaqilligi va odil sudlov faqat sudlar orqali amalga oshirilishi kerak, degan tamoyil ta'minlandi, desak adashmaymiz. Jinoyat qonunchiligi liberallashtirildi. Endi jinoyat qonunchiligida repressiv jazolar nafaqat kamaytirildi, balki jazolarning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor kuchaytirildi, ular yanada insonparvarlashtirilib borilmoqda. Bu sohadagi yana bir eng katta yutuq – 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab o'lim jazosining jinoyat qonunchiligidan chiqarib tashlanganligi bo'ldi.

Inson huquqlarini himoya qilishda sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda, mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishning suddan tashqari tizimi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kabi demokratik davlatlar uchun xos bo'lgan in-

son huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura tizimlarida inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi maxsus tuzilmalar shakllantirildi.

Mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatda 6 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbek jamiyati uchun xos bo'lgan mahalla instituti o'zining huquqiy maqomini topdi. To'rtinchi hokimiyat hisoblangan ommaviy axborot vositalari ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish sohasida o'zining mustaqil o'rmini topa boshladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqillik yillarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslari hamda samarali mexanizmlarini yaratish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish davlat siyosatining bosh maqsadiga aylandi. Inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyatga aylandi.

2. "Inson huquqlari" fani tushunchasi, obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Keyingi yillarda ijtimoiy fanlar tizimida "Inson huquqlari" fani degan yangi ilmiy bilimlar sohasi shakllanmoqda. Uning paydo bo'lishi to'g'risidagi g'oyalar xorijda XX asrning 70 – 80-yillarida, bizning mamlakatimizda esa, 90-yillarda paydo bo'lgan edi. 1973-yili Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institut "Universitetlarda inson huquqlarini o'rganish" mavzusida ma'ruza tayyorlagan edi. Ushbu ma'ruzada bu fan milliy yoki xalqaro huquqiy tartib bilan cheklanib qolmagan va yuridik fan emas, deb ko'rsatib o'tilgan edi. U "ham ijtimoiy, ham tabiiy bo'lgan barcha fanlarni qamrab oladi"¹. 1982-yili ushbu pozitsiyani fransuz olimi K. Vasak asoslab bergan edi².

Professor F. Rudinskiyning 1992-yili Rossiyaning "Gosudarstvo i pravo" jurnalida chop etilgan "Istoriya, teoriya i praktika prav cheloveka" nomli o'quv kursi dasturida e'lon qilingan inson huquqlari to'g'risidagi tezislari nafaqat o'quv kursi sifatida, balki insonning ijtimoiy turmush tarzini bir butun holda ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan mustaqil fan sifatida asoslab berildi³. Uning shakllanishi zarurligi insonning milliy va xalqaro ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-huquqiy maqomi to'g'risidagi bilimlarning dolzarbligi, zamonaviy gumanitar muammolarni hal etishda yangicha ilmiy yondashuvlarni qidirish, shuningdek, inson

1 Human Rights Studies in Universities. P., 1973. – P. 76 – 77.

2 Vazak K. A 30-year struggle /UNESCO Sourier. 1977, Nov. – R. 19.

3 Программа курса "История, теория и практика прав человека"//Государство и право. 1992. № 10. – С. 39 – 53.

huquqlari bo'yicha muassasalar faoliyatining samaradorligini o'rganishga bo'lgan hayotiy ehtiyoj bilan ham asoslangan edi.

1995-yili yana bir rus olimi B.L. Nazarov inson huquqlari to'g'risidagi fanni, ushbu huquqlar paydo bo'lishining nisbatan umumiy qonuniyatlari va tarixi, nazariyasi va tarixi to'g'risidagi ta'limot sifatida e'tirof etishga chaqirdi¹. U o'z tezislari quyidagicha asosladi: ushbu sintezlashtiruvchi ilmiy va o'quv fani barcha yuridik fanlarda inson huquqlari muammolarini rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lishi kerak². Ushbu fanni "Inson huquqlari nazariyasi" deb nomlab, Ye.A. Lukasheva ijtimoiy fanlar tizimida uning mustaqilligi to'g'risidagi tezisni asoslab dalillar keltiradi³.

Bugunga kelib, bizning mamlakatimiz huquqshunosligida ham inson huquqlari alohida fan sifatida shakllanib ulgurdi. Jumladan, mamlakat huquqiy adabiyotida, "Inson huquqlari" fani bo'yicha birinchi darslik 1997-yilda chop etilgan edi. Toshkent davlat yuridik institutida tayyorlangan mazkur darslik⁴ O'zbekistonda "Inson huquqlari" fanini o'qitishning ilk nazariy asoslariga zamin yasadi. Keyinchalik esa, inson huquqlari bo'yicha qator darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlandi va shu asnoda mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha o'quv-uslubiy baza shakllana boshladi.

Ayniqsa, inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan kafedralarning tashkil etilishi bu boradagi ishlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Chunonchi, mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov, UNESCO Ijroiya qo'mitasining Toshkentda 1998-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan 155-sessiyasida ta'kidlab o'tganidek, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida UNESCOning Inson huquqlari, tinchlik, demokratiya, bag'rikenglik va xalqaro tushunish kafedrasini (2007-yildan boshlab UNESCOning "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasini) tashkil topishi bilan inson huquqlari sohasidagi o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini yanada kengaytdi. Mazkur kafedra doirasida inson huquqlari bo'yicha kitoblarning yangi avlodlari chop etila boshladi⁵.

Inson huquqlari to'g'risidagi yangi fanning shakllanishi nazariyaning yanada rivojlanishi zaruriyati va amaliyot ehtiyojlari bilan ham bog'liq edi.

1 Права человека. История, теория и практика /Организатор авторского коллектива Б. Назаров. – М.: 1995. – С. 17.

2 O'sha joyda. – B. 24.

3 Права человека. Учебник для вузов /Отв. редактор Е.А. Лукашева. – М.: 1999. – С. 5–11.

4 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1997.

5 Qarang: Права человека. Учебник-хрестоматия. Под ред. А.Х. Саидова. –Т.: УМЭД, 2001; Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002; Саидов А. Общепризнанные права человека. – М.: 2004; O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Adolat, 2002; Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam. / O'zbekcha nashrning mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004.

XX asrning oxiriga kelib, dunyoda ijtimoiy va gumanitar fanlar – huquqshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, tarix, iqtisodiy fanlar va boshqalarning roli hamda ta'siri kuchaydi. Huquqiy fanlar ichida o'zining alohida va ahamiyatli o'rini "Inson huquqlari" fani egalladi.

Bilimlarning ushbu sohasida konseptual apparatni takomillashtirish, yangi nazariy bilimlar va tajribalarni yig'ish, ta'lim tizimi va yosh avlodni inson huquqlari ruhida tarbiyalash uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalarining ishlab chiqilishi – bularning hammasi inson huquqlarining izchillik bilan ilmiy bilimlarning muhim sohasida shakllanayotganligini ko'rsatmoqda.

Inson huquqlarining fan (grekchada – episteme, lotinchada – scientia) sifatidagi vazifasi borliq to'g'risidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tizimlashtirishga bo'lgan insoniyat faoliyatining sohasi tushuniladi¹. Fan, ijtimoiy institut sifatida, insonlarning tabiat va jamiyat voqealari to'g'risidagi ilmiy bilimlarni ishlab chiqaruvchi va tizimlashtiruvchi faoliyat sohasi hisoblanadi.

"Inson huquqlari" fanini o'rganishning **obyekti** – bu davlat bilan individ o'rtasidagi individning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Davlat ushbu munosabatlarda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilishi, shuningdek, o'zining bu sohadagi qonunchiligini shakllantirishi hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi maxsus mexanizmlarni yaratish yo'llari bilan individning huquq va erkinliklarini ta'minlab beradi.

Fan predmeti² – u o'rganadigan muayyan masalalar doirasi hisoblanadi. Yuridik fan (yurisprudensiya) huquq, huquqni qo'llash faoliyatining turli jihatlari, ya'ni huquq bilan tartibga solinadigan muayyan ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. O'zaro bog'langan fanlar predmetining boshqa fanlar predmetidan aniq farqlanib turishi bilimlarning sohalari va akademik fanlarning ilmiy yetukligi hamda ularning nisbatan mustaqilligi va potensial samaradorligidan guvohlik beradi³.

"Inson huquqlari" fanining **predmeti** – shu fan doirasida o'rganiladigan quyidagi masalalardan iborat: inson huquqlari va erkinliklari tushunchasi, ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, inson huquqlariga oid xalqaro normalar va ularning turli davlatlarning milliy qonunchiligiga implementatsiya qilinishi masalalari, inson huquqlari va erkinliklari kafolatining xalqaro va milliy mexanizmlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklariga ta'sir

1 Философский словарь. – М.: 2004. – С. 387.

2 Predmet – bu fikrni o'rganishga qaratilgan har qanday moddiy voqelikdir.

3 Марченко М.Н. Проблемы теории государства и права: Учебник. – М.: Проспект, 2001. – С. 5.

qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar kabi inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish va ularni himoya qilishni ta'minlab berish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar.

"Inson huquqlari" fanining **maqsadi** – inson huquqlari va erkinliklari hamda majburiyatlarini o'zaro chambarchas va bir-biriga bog'liq holda tushunish, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish hamda ularni himoya va muhofaza qilish muammolarini ularning turfa xilligidan kelib chiqqan holda o'rganish asosida insonning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, o'z majburiyatlariga ongli ravishda rioya etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Shuningdek, "Inson huquqlari" fani yana quyidagi maqsadlarni ham ko'zlaydi:

talabalarning, ya'ni kelgusida davlat va tijorat tuzilmalarida tegishli mansabni egallaydigan va davlatning huquqiy tizimi, xususan, inson huquqlarining ahvoli, ularning kafolatlanishi va amalga oshirilishi bilan bevosita shug'ullanuvchi bo'lajak mutaxassislarining huquqiy ongini yuksaltirish;

talabalarga har bir erkin inson ega bo'lishi kerak bo'lgan sifatlar – insoniy dunyoqarash, demokratik ko'nikmalar, insoniy qadr-qimmat, o'zini o'zi hurmat qilish, fuqarolik mas'uliyati tuyg'usini singdirish;

talabalarda ta'limning butun jarayonida, ushbu fanni chuqur o'rganish uchun hamroh bo'lishi kerak bo'lgan o'z huquqlari va erkinliklari kabi, boshqa insonlarning ham shunday huquqlari va erkinliklarini chuqur tushunish va hurmat qilish hissini shakllantirish.

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

- *birinchidan*, fuqarolarning inson huquqlari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishida malakali pedagogik yordam ko'rsatish;
- *ikkinchidan*, inson huquqlari madaniyatini targ'ib qilish va rivojlantirish;
- *uchinchidan*, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

"Inson huquqlari" fanining vazifalari. Har bir fanning o'ziga xos vazifalari bo'lgani kabi, "Inson huquqlari" fanining oldiga ham qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

birinchisi

fuqarolarni inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi bilimlar bilan tanishtirish;

ikkinchisi

fuqarolarda insonlarga, ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissini oshirish;

uchinchisi

huquqni qo'llovchi mansabdor shaxslarda inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish bo'yicha mas'ullikni oshirish;

to'rtinchisi

jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirishga ko'maklashish;

beshinchisi

jamiyatda yuqori darajada fuqarolik mas'uliyatini his eta oladigan huquq subyektini shakllantirish.

“Inson huquqlari” fani tizimi. Mazkur fanning tizimi ikki qismdan iborat bo'lib, u umumiy va maxsus qismga bo'lingan. Umumiy qismda inson huquqlarining nazariy masalalari hamda xalqaro huquqiy masalalari, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilishi ko'zda tutilgan. Maxsus qismda esa, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga yondashuv, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish, ularni ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslari, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning institutsional tizimi, shuningdek, bu sohadagi xalqaro va milliy faoliyatni amalga oshirish masalalari o'rganiladi.

3. “Inson huquqlari” fanini o'rganish metodologiyasi

Fan metodologiyasi¹ deganda, fan asoslanadigan umumiy tayanch tamoyillar, obyektiv-haqiqiy bilimlarni olish jarayonida qo'llaniladigan usullar, qoidalar va yo'llarning majmui tushuniladi.

“Inson huquqlari” fanining o'rganish metodologiyasi deganda, inson huquqlari tushunchasi, ularning belgilari va xususiyatlari, ularning qonunda mustahkamlanishi va amalga oshirilishining shakllari va usullarini har

¹ Metodologiya (uslubiyat) – bu tadqiqot, nazariya, ta'limot yo'li, biror-bir maqsadga erishish, muayyan vazifani hal etish usuli, borliqni texnikaviy yoki nazariy o'zlashtirishning usullari yoki operatsiyalari demakdir.

tomonlama o'rganishga yordam beruvchi qoidalar va usullar tushuniladi. Odatda, ular universal va xususiy usullarga bo'linadi.

"Inson huquqlari" fanini o'rganish metodologiyasi:

Universal usullar

Xususiy usullar

*Tabiat, tafakkur va jamiyatning
umumiy qonuniyatlari*

Tizimli usul

Qiyosiy usul

Tarixiy usul

Sotsiologik usul

Mantiqiy usul

Tizimli usulda inson huquqlari va erkinliklari muammolari hamda uning shaxsiy huquq va erkinliklari o'zaro bog'liq holda yagona bir butun fan o'rganiladi. Masalan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni hech qachon fuqarolik va siyosiy huquqlardan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi, zero 1968-yilgi Inson huquqlari bo'yicha Birinchi Butunjahon konferensiyasi yakunlari bo'yicha qabul qilingan rezolyutsiyada ham bu huquqlar bo'linmas huquqlar sifatida e'tirof etilgan.

Qiyosiy usulda tushunchalar va holatlar ular o'rtasidagi umumiy tomonlar va farqlarni solishtirish asosida o'rganiladi. Masalan, turli mamlakatlarning inson huquqlariga oid qonunchiligini, turli mintaqalarning inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini, universal va mintaqaviy standartlarni ularning milliy qonunchilikda aks etishini taqqoslash mumkin.

Tarixiy usulda inson huquqlari tarixiy taraqqiyot rivojlanishida o'rganiladi. Masalan, inson huquqlari bo'yicha birinchi avlod huquqlari, ikkinchi avlod huquqlari yoki G'arb va Sharqda inson huquqlari rivojlanishining o'ziga xos tendensiyalari va hokazolar.

Sotsiologik usulda axborotlar yig'iladi va tahlil etiladi. Bularning birinchisiga turli shakldagi so'rovlar (ommaviy anketa so'rovlari, intervyu, ekspert so'rovlari, ijtimoiy tajriba, kuzatuv va boshqalar) kiradi. Ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi dolzarb muammolar bo'yicha anketa so'rovlarini o'tkazish orqali aholining fikrini o'rganish odatda, ushbu muammolarni

Nizomiy nomli

T D P U

925048

to'g'ri hal etishga va qabul qilingan qarorning aholi orasida xayrixohlik bilan qabul qilinishiga yordam beradi.

Mantiqiy usulda inson huquqlari va erkinliklari muammolarini mantiqiy nuqtayi nazardan o'rganishning vositalari va usullari tushuniladi. Muammolarni o'rganishda mantiqiy usullardan foydalanish, ushbu muammoni o'rganish asosida qabul qilinadigan qarorlar va qonun hujjatlari ziddiyatlardan xolis bo'lishiga yordam beradi.

Biz sanab o'tgan usullarni "Inson huquqlari" fanini o'rganishning barcha usullari deb hisoblab bo'lmaydi va ushbu fan doirasidagi muammolarni o'rganishda bilish nazariyasining boshqa usullaridan ham foydalanish mumkin.

4. "Inson huquqlari" fanining ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar tizimida tutgan o'rni

"Inson huquqlari" fani inson huquqlari tarixi, nazariyasi va amaliyoti muammolarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shu bilan bir qatorda, har bir ijtimoiy fan inson huquqlarining muayyan jihatlarini uning o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan va o'zining usullari bilan tushunadi. Masalan, davlat va huquq nazariyasi – shaxsning subyektiv huquqlari muammosini va bu huquqlarni ta'minlab berishda davlatning vazifalarini, shuningdek, inson huquqlari huquqiy tizimning elementi sifatidaligi va boshqalarni o'rgansa, xalqaro ommaviy huquq fani esa – inson huquqlarini belgilab beruvchi xalqaro huquq normalari va tamoyillari hamda ularning kafolatlarini, xususan, xalqaro tashkilotlarning bu sohadagi faoliyatlarini o'rganadi.

"Inson huquqlari" fanining boshqa fanlardan o'ziga xos tomoni shundaki, uning rivojlanishida falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, yuridik fanlar va boshqa ijtimoiy fanlar, shuningdek, tabiiy fanlar ham muhim rol o'ynab kelgan va bugungi kunda ham mazkur fan hamon ularning ta'siri ostida rivojlanmoqda. Shunisi ham borki, endilikda bunday ta'sir ikki tomonlama munosabat xususiyatini kasb etmoqda, ya'ni, nafaqat bu fanlar "Inson huquqlari" faniga ta'sir ko'rsatmoqda, balki, "Inson huquqlari" fani ham, o'z navbatida, bu fanlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda¹. Shuning uchun ham "Inson huquqlari" fani ko'pincha tarmoqlararo fanlar qatoriga kiritiladi.

Falsafa va inson huquqlari. Falsafa tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining fundamental qonuniyatlari to'g'risidagi, shuningdek, borliq va turmush asoslari haqidagi fandir. Inson, uning mohiyati, jahondagi o'rni

¹ Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 64.

va qismati falsafiy tahlilning muhim obyektlaridan biridir. Ayni falsafiy antropologiya (inson falsafasi) doirasida insonning bor holicha mustaqil va bor holicha qadrlı mavjudot ekanligi tariqasidagi tushuncha asta-sekin rivojlanib borgan¹. Busiz biron-bir “inson huquqlari” to‘g‘risida ham va umuman, ana shu huquqlarning sohibi tariqasida “insonning o‘zi” haqida ham so‘z yuritish qiyin².

Aksiologiya (falsafaning qadriyatlarni o‘rganuvchi tarmog‘i) hamda etika (axloq falsafasi) ilmida asrlar mobaynida inson turmushining qadriyatlari – hayot, ozodlik, erkinlik, adolat va shu singarilar to‘g‘risidagi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari haqidagi tasavvurlar shakllanib keldi. “Inson huquqlari” fanida ham ushbu masalalar to‘liq o‘z aksini topgan.

Va nihoyat, ijtimoiy falsafa, eng avvalo, huquq falsafasi falsafaning antropologiya, aksiologiya va etika bobidagi g‘oyalarining sintez qilinishini ta‘minlaydigan zamin bo‘lib qolgan. Bu sintez esa, tabiiy huquqning birlamchi konsepsiyasi sifatida, keyinroq, yangi davrda esa, “inson huquqlari konsepsiyasi” tarzida huquqiy jihatdan sobitlashgan.

Shunday qilib, falsafa inson huquqlari g‘oyalarining rasmiy-huquqiy, mazmundor va har yoqlama ishonchli manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Binobarin, inson huquqlarini qandaydir mutlaq huquq sifatida, aqidaparastlarcha tushunish yo‘liga ayni falsafa g‘ov bo‘ladi. Negaki, bu narsa falsafaning dialektik va tanqidiy usullariga ziddir³.

Siyosatshunoslik va inson huquqlari. Siyosatshunoslik siyosiy tashkilotlar va jamiyatning siyosiy hayoti to‘g‘risidagi, ichki va tashqi siyosat muammolari haqidagi ilmlararo fan bo‘lib, uning inson huquqlari bilan naqadar chambarchas bog‘liq ekanligi ana shu ta‘rifning o‘zidan ham yaqqol ko‘rinib turibdi. Siyosatshunoslar, xususan, siyosiy nuqtayi nazardan inson huquqlarining normativ jihatlaridan ham ko‘ra ko‘proq funksional jihatlarini idrok etish va asoslash taqozo etilishini ta’kidlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy hamjamiyatlar ravnaq topishi va samarali faoliyat olib borishi uchun inson huquqlarining mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini idrok etish va asoslash talab etilishiga urg‘u beradilar. Mazkur masala bo‘yicha fikrlar va yondashuvlar esa, tabiiyki, har doimgidek xilma-xildir. Buni siyosiy keskinlik, yuzaga kelayotgan muammolarning an’anaviy qolipga sig‘masligi bilan ham izohlash mumkin. Biroq, ana shu tafovutlarga qaramay, ham nazariy, ham amaliy ma’noda umume’tiborga molik, deb e’tirof etilgan

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 65.

2 Qarang: Ковлер А.И. Антропология права. – М.: 2002.

3 Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 66.

bir turkum masalalar ham bor¹. Ular jumlasiga, aytaylik, siyosiy hamjamiyat a'zosining huquqlari bilan majburiyatlari o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish muammosini kiritish mumkin: bular o'tmishda, qadimgi dunyodagi shahar-davlat demokratiyasi sharoitida ajralmas deb tasavvur etilgan².

Xalqaro munosabatlar va inson huquqlari. Xalqaro munosabatlar xalqaro huquq subyektlari, ya'ni davlatlar, xalqaro tashkilotlar, o'z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar, davlat tipidagi tuzilmalar o'rtasidagi, yana shu bilan birga, ushbu subyektlar bilan, xalqaro huquqning to'la huquqli bo'lmagan aktorlari, ya'ni xalqaro nodavlat tashkilotlari, individlar, transmilliy kompaniyalar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa yo'nalishlardagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan bo'lib, keyingi paytlarda ushbu munosabatlarda inson huquqlari asosiy obyektlardan biriga aylanib qolmoqda. Xalqaro munosabatlarning demokratik va insonparvarlik xususiyatini kasb eta borishi inson huquqlarining tan olinishi va himoya qilinishidagi muhim omil hisoblanadi.

Sotsiologiya va inson huquqlari. "Ijtimoiy fikrning vazifalaridan biri inson huquqlari sohasidagi ishlarning haqiqiy ahvolidan odamlarning xabardorligi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Gap ularning o'z mamlakatidagi inson huquqlari bo'yicha bilimi to'g'risida, inson huquqlariga oid hujjatlarni bilishi haqida, shuningdek, boshqa mamlakatlardagi inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatlardan voqif bo'lishi xususida bormoqda"³.

Sotsiologiya jamiyatning qaror topishi, rivojlanishi hamda faoliyat olib borishi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganadi. Inson huquqlariga boshqa fan yo'nalishlariga nisbatan ko'proq bog'langan soha huquq sotsiologiyasidir. Sotsiologiyaning bu tarmog'i huquq institutining boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro hamjihatlikda faoliyat olib borishini, shuningdek, huquqiy normalar genezisi va dinamikasini hamda bu normalarning ijtimoiy sababi va ularning jamiyatda egallagan mavqeini o'rganadi. Shu bois, sotsiologlar inson huquqlariga huquqning tarmog'i sifatida emas, balki, "insonning ijtimoiy mavjudot tariqasidagi kamolotini ko'rsatuvchi, tavsiflovchi tushunchalar kodeksi"⁴ sifatida qaraydilar.

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 66.

2 Qarang: Права человека// Политология: Энциклопедический словарь/ Общ. ред. и сост. Ю.И. Аверьянов. – М.: 1993. – С. 310.

3 Qarang: Савин М.С. Общественное мнение и вопросы международного сотрудничества в области прав человека //Права человека в истории человечества и в современном мире. – М., 1989. – С. 142–143.

4 Qarang: Права человека// Социологический энциклопедический словарь/ Под ред. акад. РАН Г.В. Осипова. – М.: 1998. – С. 254.

Huquq sotsiologiyasi sotsial psixologiya va etnologiya bilan birgalikda inson huquqlariga oid normalarning mamlakatda amalga oshirishi masalalarida zarur ilmiy-tahliliy asos yaratadi. Sotsiologik so'rovlar o'tkazish yo'li bilan inson huquqlarining u yoki bu normalariga (masalan, o'lim jazosiga sanksiyaning sudlarga berilishiga taalluqli normalar) fuqarolar qay darajada tayyorgarligi aniqlanadi. Mamlakatimizda o'lim jazosini jazo turi sifatida jinoyat qonunchiligidan chiqarib tashlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilingan 2005-yilning 1-avgustidan o'lim jazosini bekor qilish kuchga kirgan 2008-yil 1-yanvariga qadar mamlakat aholisining turli qatlamlari orasida ko'plab so'rovlar o'tkazilib, bu masaladagi aholining fikri o'rganildi. Chunonchi, 2008-yilda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan aholi o'rtasida so'rov o'tkazilganida, aholining aksariyat qismi, ya'ni 92,8 foizi o'lim jazosining bekor qilinishini, 90 foizdan ortig'i esa, sanksiyaning sudlarga berilishini qo'llab-quvvatlagan¹.

Yuridik fanlar va inson huquqlari. "Inson huquqlari" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi to'g'risida fikr yuritilganda, yuridik fanlar muhim o'rin tutadi. Chunki, inson huquqlarining shakllanishida davlatlarning milliy huquqi va uning asosiy tarmoqlari, ya'ni konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy va jinoyat huquqi birinchi darajali manba sifatida baholanib kelgan.

Inson huquqlarini o'rganishda uning boshqa yuridik fanlar – davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi bilan, qolaversa, yurisprudensiyaning barcha tarmoqlari, ya'ni konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, ma'muriy huquq va boshqa huquqlar bilan, shuningdek, jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual, ma'muriy-protsessual singari protsessual bilim tarmoqlari bilan kesishuvi va o'zaro ta'siri muqarrardir. Chunonchi, shaxsning huquqiy maqomi, huquqiy qobiliyati, muomalaga layoqatsizligi muammolari huquqning umumiy nazariyasida ham, tarmoq yuridik fanlarida (tarmoq huquqiy maqom sifatida) ham o'rganilmoqda.

Inson huquqlarining qaror topishi va rivojlanishi xususida ham shunday deyish mumkin: bu narsa chet el hamda milliy davlat va huquqi tarixida, shuningdek, siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixida o'rganiladi. Tarmoq yuridik fanlari shaxsning konstitutsiyaviy, fuqarolik, ekologik va boshqa huquqlarini o'rganib boradiki, bu huquqlar jamlangan holda inson va fuqaroning huquqiy maqomini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy,

1 "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2008-yil 15–25-mayda "Insonning yashash va shaxsiy daxlsizligi huquqini ta'minlash" mavzusida o'tkazgan sotsiologik so'rovining tahliliy ma'lumotnomasi.

jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual, ma'muriy-protsessual huquq orqali inson huquqlarini himoya qilish tartib-taomillari va mexanizmlari, buzilgan huquqlarni tiklash usullari o'rganiladi¹. Chunki, insonning buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilish tartibi protsessual normalarda belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaviy huquq va inson huquqlari. Konstitutsiyaviy huquq milliy huquqiy tizimning yetakchi tarmog'idir². Konstitutsiyaviy huquq normalari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hududiy tuzilishining asosiy tamoyillarini, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlari tartibini, inson va fuqaroning asosiy huquqlari va erkinliklari amalga oshirilishini tartibga soladi hamda davlat hokimiyati organlari tizimini aniqlab beradi. Bir qancha mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquq davlat huquqi deb ham yuritiladi³.

Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyaviy huquqi shu mamlakat qabul qilgan asosiy tamoyillar negizida tashkil topadi. Ana shunday tamoyillardan biri ichki davlat va xalqaro huquq munosabati masalasini hal etishdan iboratdir. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda xalqaro huquq milliy huquqqa nisbatan ustunlikka ega bo'lgani uchun ham inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq normalari konstitutsiyaviy huquq tuzilishini bevosita belgilab beradi. Ayni ana shu xalqaro normalar (ichki davlat huquqida ular qay tarzda aks etganligidan qat'i nazar) shaxsning u yoki bu huquqlarini mustahkamlab beradi, ularni xalqaro ko'lamda va ichki davlat miqyosida himoya etish mexanizmini belgilaydi⁴.

Fuqarolik huquqi va inson huquqlari. Fuqarolik huquqi milliy huquqning yana bir muhim tarmog'idir. Mulkiy munosabatlar va ular bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlar fuqarolik huquqining predmeti hisoblanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda fuqarolik huquqi boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlarni, masalan, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish huquqini tartibga soladi.

Inson huquqlari normalari fuqaroning muhim huquqlarini belgilab beradi: ular davlatning fuqarolik huquqida aks etadi, ularni himoya qilish mexanizmlari esa, inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarga muvofiq fuqarolik-protsessual huquqida belgilab qo'yiladi⁵. Chunonchi, fuqarolik huquqida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 6-moddasidagi

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 70.

2 Qarang: Tadjixanov U., Odilqoriyev H., Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. – T.: 2001.

3 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 70.

4 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 71.

5 O'sha joyda.

(“Har bir inson, qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining huquq subyekti sifatida tan olinish huquqiga egadir”), 12-moddasidagi (“Hech kim insonning... or-nomusi va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emas. Har bir inson... ana shunday tajovuzdan qonun yo‘li bilan himoya qilinish huquqiga egadir”), 15-moddasidagi (“Har bir insonning grajdanlik (fuqarolik) huquqi bor”) qoidalar va boshqa qoidalar mustahkamlab qo‘yilgan.

Fuqarolik-protsessual huquqida esa, mazkur Deklaratsiyaning 8-moddasida berilgan qoida (“Har bir inson, mabodo uning konstitutsiya yoki qonun berib qo‘ygan asosiy huquqlari buzilgudek bo‘lsa, nufuzli milliy sudlar tomonidan o‘z huquqlarining samarali tarzda tiklanishi huquqiga egadir”) va boshqa normalar mustahkamlab qo‘yilgan¹. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi 4-moddasida “fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etishdan iboratdir”², deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta‘minlashga ko‘maklashishi lozim.

Ma‘muriy huquq va inson huquqlari. Ma‘muriy huquq davlat boshqaruvining tashkil etilishi hamda uning ijro va idora etilishi bilan bog‘liq faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog‘idir.

Ma‘muriy huquq normalarida davlat boshqaruvi bilan, eng avvalo, iqtisodiyot va ijtimoiy-madaniy sohadagi boshqaruv bilan inson huquqlari nuqtayi nazaridan bog‘liq mexanizmlar ko‘proq aks etadi. Bunga, jumladan, ta‘lim tizimini tashkil etish, ta‘limni boshqarish va ta‘lim muassasalari faoliyati ustidan davlat nazoratini olib borish; sog‘liqni saqlash ishini boshqarishni tashkil etish, davlat sog‘liqni saqlash boshqaruvi tizimini, sanitariya-epidemiologiya nazoratini tashkil etish; fan, madaniyatni boshqarish; fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv kiradi. Shunday qilib, ma‘muriy normalar insonning iqtisodiy, ijtimoiy

1 Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill// Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: Adolat, 1992. – B. 12–13.

2 O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-songa ilova; 2001-yil, 1–2-son, 11-modda; 2004-yil, 1–2-son, 18-modda, 9-son, 171-modda.

va madaniy huquqlarini amalga oshirishning davlat ichki mexanizmini ta'minlaydi.

Ma'muriy huquq normalari milliy huquqning boshqa tarmoqlarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari shaxs tomonidan qay tarzda amalga oshirilishi mumkin ekanligini belgilab beradi¹. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 3-moddasida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari quyidagicha belgilab qo'yilgan: "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarining o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek, bunday huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu Kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanaqa ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi"².

Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi umumjahon konferensiyasida 1993-yil 25-iyunda qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturida bu borada, masalan, anchagina keng tavsiyalar berilgan. Unda, jumladan, davlatlarga qaratilgan shunday ko'rsatma bor: "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon konferensiyasi hukumatlarni ichki qonun hujjatlariga inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalardagi standartlarni kiritishga hamda inson huquqlarini rag'batlantirib borish va himoya etish ishida muayyan rol o'ynaydigan milliy tuzilmalarni, institutlar va jamiyat organlarini mustahkamlashga qat'iyat bilan davlat etadi"³.

Jinoyat huquqi va inson huquqlari. Jinoyat huquqi jinoyatchilikni hamda ijtimoiy munosabatlarning mazkur tizimi uchun xavfli qilmishlar jazolanishini belgilaydigan yuridik normalarning majmuidan iborat huquq tarmog'idir.

Jinoyat huquqining asl maqsadi jinoyatchilikka qarshi kurashdir. Bu huquq qaysi qonunbuzarliklar ijtimoiy xavfli ekanligini, ya'ni alohida olingan

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 72–73.

2 O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 3-son, 6-modda.

3 Венская декларация и Программа действий// Права человека: Учебник-хрестоматия. – Т.: УМЭД, 2001. – С. 260.

bir shaxsning va umuman jamiyatning huquqlarini buzishga qaratilganligini aniqlab beradi. Bunda jinoiy jazo belgilanadigan qilmishlarning obyektlari – huquqlar va ijtimoiy munosabatlar aniqlab olinadi. Mazkur obyektlar insonning eng muhim huquqlaridan iboratdir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 2-moddasida "Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir"¹, deb ko'rsatib o'tilgan.

Protsessual huquq inson huquqlarini xalqaro himoya etish mexanizmini shakllantirishga yordam berdi va bunda milliy sud ishini yuritish tamoyillarini BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi singari inson huquqlariga oid xalqaro normalar asosida faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar faoliyatiga asos qilib belgilab qo'ydi.

Ayni vaqtda, aks aloqani kuzatish ham qiyin emas. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bill, BMT konvensiyalari, inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy konvensiyalar va bitimlar singari muhim xalqaro hujjatlar, ishtirokchi-davlatlarga ushbu hujjatlarning normalarini milliy huquqqa singdirish majburiyatini yukladi. Bundan tashqari, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqda hibsga olinganlarning, sudlanuvchilarning huquqlari hamda boshqa bir qancha normalar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ular milliy jinoyat-protsessual huquqqa ham kirdi².

Tabiiy fanlar va inson huquqlari. Umuman olganda, inson huquqlari boshqa fanlar, ya'ni tabiiy fanlar, ayniqsa, biologiya, tibbiyot, genetika kabi insonning jismi va uning daxlsizligi bilan bog'liq fanlar bilan ham uzviy bog'langandir. Masalan, tibbiyot sohasida bevosita shaxsiy huquqlar bilan daxldor bo'lgan evtanaziya muammosi keyingi paytlarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, evtanaziya, ya'ni insonning o'z roziligi bilan shifokorlar tomonidan uni yashashdan mahrum qilish, yashash huquqi tabiiy huquq ekanligiga zid hisoblanadi. Chunki, bir tomondan, inson o'z hayotiga o'zi xo'jayin bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, unga ushbu hayot tabiiy huquq nazariyasiga ko'ra, tabiatan, ya'ni Xudo tomonidan beriladi va bu hayotni faqat U (Xudo)gina qaytarib olishi mumkin. Uchinchidan esa, ko'p hollarda ba'zi shifokorlar yoki bemorlarning yaqinlari tomonidan nopok maqsadlarda

1 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 1-son, 1-modda.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 74.

ham inson hayotdan mahrum qilinishi mumkin. Yoki genetika sohasini bunga misol qilish mumkin. Shuning uchun ham, inson huquqlari, tibbiyot, genetika sohalarini kesishgani holda fanning “Bioetika” degan yangi o‘ziga xos yo‘nalishi paydo bo‘lmoqda.

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari

Dunyodagi har bir davlatda ham inson huquqlariga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllangan. Bu qonunchilikning negizini, avvalambor, konstitutsiyalar tashkil etadi. Barcha davlatlar konstitutsiyalarida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga maxsus bo‘lim, boblar ajratilgan. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o‘z aksini topgan.

Konstitutsiya har bir davlatning asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Uning me‘yorlari nafaqat davlat tuzumi, davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil etish tamoyillarini, balki ijtimoiy hayot me‘yorlarini ham belgilab beradi. Konstitutsiyaviy huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, konstitutsiya o‘zining asosiy qoidalarini hayotga to‘liq tatbiq etish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Asosiy konstitutsiyaviy qoidalar, tamoyillar yuridik bazani tashkil qiladi. Ushbu yuridik baza negizida esa, huquqning barcha – moliyaviy, fuqarolik, jinoiy, mehnat va boshqa sohalarining normalari mujassam. Har qanday me‘yoriy-huquqiy hujjat (qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqalar) konstitutsiyaga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, konstitutsiya barcha qonun hujjatlarining asosi, manbai hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, inson, uning hayoti, sha‘ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Insonning huquq va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning asosiy majburiyatidir. Mazkur tamoyil konstitutsiyaviy qurilish asoslari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, insonning huquq va erkinliklari boshqa barcha ijtimoiy munosabatlar shakllanishining, jumladan, davlat qurilishining oliy qadriyatidir. Davlat tan oladigan va himoya qiladigan inson huquqlari va boshqa qadriyatlar o‘zaro muvofiq kelmasa, inson huquqlariga ustunlik beriladi;

ikkinchidan, ushbu tamoyilning mohiyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklari tizimi orqali ochiladi. Konstitutsiyada belgilangan huquq va

erkinliklar ro'yxati to'liq hisoblanmaydi hamda shaxs va fuqaroning boshqa umume'tirof etilgan huquq va erkinliklari tan olinmasligi yoki kamsitilishini bildirmaydi;

uchinchidan, davlat hokimiyatining shakllanishi va xalq irodasiga muvofiq holda amalga oshirilishini bildiruvchi hokimiyatning qonuniyligi. Hozirgi demokratik davlatlarda hokimiyat qonuniyligiga saylovlar jarayonida erishiladi, aholi ma'lum shaxslarga davlat hokimiyati vakolatlarini topshirib, o'z siyosiy irodasini ifoda etadi;

to'rtinchidan, davlat hokimiyatining demokratik tartibda shakllanishi va amalga oshirilishi. Ushbu tavsif davlatda umumiy va teng saylov huquqi amalga oshirilishini kafolatlovchi demokratik saylov qonunchiligining mavjudligini, doimiy ravishda erkin, haqiqiy saylovlar o'tkazilishini bildiradi. Shuningdek, qonun hujjatlarida, avvalo, Konstitutsiyada davlat hokimiyatini amalga oshirish tartiblari, jumladan, qonunlarni qabul qilish tartibi, davlat idoralarining vakolatlari, hujjatlar qabul qilish tartibi, huquqiy tizimda turli xil hujjatlarning o'zaro mutanosibligi kabilar mustahkamlangan bo'lishi lozim;

beshinchidan, hokimiyatni konstitutsiyaga zid bo'lgan yo'llar bilan egallashning taqiqlanganligi va bunday egallash (bosib olish) qonun bo'yicha ta'qib etilishi. Hokimiyat vakolatlariga egalik qilish ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'lga kiritilgan taqdirdagina, qonuniy hisoblanadi. Davlat hokimiyatining saylab qo'yiladigan organlari – demokratik saylovlar yo'li bilan, boshqa organlar esa – qonun bilan belgilangan tayinlash, tanlov va boshqa usullar yordamida shakllantiriladi.

Inson huquqlarining ustuvorligi demokratik davlatchilik tamoyili sifatida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asoslariga kiritilgan va uning natijasida yuzaga keladigan boshqa tamoyillar, ya'ni hokimiyatning bo'linishi, g'oyaviy va siyosiy hurfiylik, ko'ppartiyaviylik, ijtimoiy adolat, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi kabilar bilan uzviydir¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi dunyoning 100 ga yaqin konstitutsiyalarini o'rganish asosida, ularning eng ilg'or tajribalarini hisobga olib, umuminsoniy nuqtayi nazardan e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga asosan, shuningdek, xalqimizning boy o'tmishi va tarixini e'tiborga olgan holda, azaliy urf-odatlarimiz, va an'analарimizdan kelib chiqib qabul qilingan va u xorijiy mutaxassislar tomonidan dunyoning eng demokratik konstitutsiyalaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik/ H.T. Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – B. 191–192.

Konstitutsiyada inson huquqlariga oid quyidagi muhim xalqaro-huquqiy qoidalar mustahkamlab qo'yilgan:

birinchidan

inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish – davlatning majburiyati;

ikkinchidan

inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustunligi;

uchinchidan

inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqli ekanligi, ya'ni tabiiy huquq g'oyasi va nazariyasining e'tirof etilishi;

to'rtinchidan

hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;

beshinchidan

inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishi;

oltinchidan

fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

yettinchidan

inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarining buzilmasligi zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga asos bo'lgan omil, ya'ni rahbariy g'oyalar yig'indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan:

1) shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquq normalarining ustunligi;

2) asosiy huquq va erkinliklarning ajralmasligi;
3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi;
4) huquq va erkinliklarni majburan cheklashga yo'l qo'yilmasligi;
5) shaxs va fuqaro huquq va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanganligi;

6) teng huquqlilik;

7) shaxsning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart ekanligi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham zamonaviy demokratik davlatlar konstitutsiyalaridagi singari barchaning qonun oldida tengligi, shaxsning davlatga nisbatan ustuvorligi, davlatning inson va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish majburiyati kabi insonparvarlik tamoyillariga katta ahamiyat berilgan. Chunonchi, Konstitutsiyamizning 14-moddasida "davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi," deb qayd etilgan. Ushbu g'oyalarni jamoatchilik ongiga singdirish har bir fuqaroda qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini shakllantirishga ko'maklashadi.

Darhaqiqat, har bir demokratik davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil qiladi. Shu ma'noda, mamlakatimiz Konstitutsiyasidan "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limi alohida o'rin egallagani bejiz emas. Shuningdek, Bosh qo'musimizning "Asosiy tamoyillar" bo'limida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini qayd etuvchi asosiy g'oyalar mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning qolgan barcha bo'limlarida o'zining ijtimoiy yo'nalishi bo'yicha jamoat va davlat tuzilmalarining shaxs hamda jamiyat oldidagi vazifalari bayon etilgan. Sobiq sho'ro tuzumi davrida davlatning manfaatlari shaxs manfaatlaridan ustun ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lsa, ushbu masala mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida adolatli hal etilgan. Ya'ni, shaxs manfaatlarining ustunligi, uni "oliy qadriyat" deb e'tirof etish nuqtayi nazaridan hal etilgan (13-modda). Shuningdek, Konstitutsiyamizda "fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi" tamoyilining mustahkamlab qo'yilgani bunday nuqtayi nazarning izchilligini ta'minlaydi (19-modda).

O'zbekistonni konstitutsiyaviy rivojlantirish tarixida ilk marta davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekani

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik/ H.T. Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – B. 192–194.

belgilab qo'yilgani xalqimiz barpo etayotgan adolatli fuqarolik jamiyatining ma'no-mohiyatini anglatadi¹.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan demokratik qoidalar ichida siyosiy plyuralizm, ya'ni siyosiy institutlar va fikrlar xilma-xilligining e'tirof etilganini alohida qayd etib o'tish joizdir. Bundan tashqari, hokimiyatlarni taqsimlash g'oyasining amalga oshirilgani, qonun ustuvorligining e'tirof etilgani, biron-bir shaxs tomonidan davlat hokimiyati vakolatlarining o'zlashtirilishiga yo'l qo'yilmasligi, Konstitutsiya va qonunlar tomonidan vakolat berilgan organlarning davlat hokimiyatini xalq manfaatini ko'zlab amalga oshirishi – ularning barchasi huquqiy-demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda shakllantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan holda, ijtimoiy rivojlanishning asosini tashkil etadigan muhim va asosiy konstitutsiyaviy tamoyillardir.

Konstitutsiya asosli ravishda amaldagi deb nomlanadi, uning mamlakatning Asosiy qonuni sifatidagi o'rni muhim va samarali. Ushbu o'rnini saqlab qolish uchun konstitutsiyaning dinamik rivojlanishi muhim. Urushdan so'ng qabul qilingan va yarim asrligi nishonlangan Yevropa konstitutsiyalarining misolida shuni ko'rishimiz mumkinki, ularning dinamik rivojlanishi davlatning barqaror huquqiy rivojlanishining muhim omili. O'zbekiston uchun ham konstitutsiyaviylik bugungi kunda muhim qadriyat hisoblanadi. Konstitutsiya ustuvorligi, uning dinamik rivojlanishi va barqarorligi, uni hurmat qilish asosidagina liberallashtirish va modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarning konstitutsiyaviy huquqiy doirasini ta'minlashning ustuvor vazifalarini hal qilish mumkin.

Qabul qilingan paytdan boshlab, ya'ni 1992-yil 8-dekabrda boshlab Konstitutsiyaga 6 marotaba o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, ularning oxirgisi 2011-yil 12-dekabrda kiritilgan. Konstitutsiyaning 128 moddasidan 31 tasiga 41 ta o'zgartish kiritilgan, ya'ni 23 ta moddaga bir marotaba, 6 ta moddaga ikki marotaba, 2 ta moddaga uch marotaba o'zgartish kiritildi².

Mamlakatimizda Konstitutsiya tufayli fuqarolar va millatlararo totuvlik ta'minlandi, turmush farovonligi yildan-yilga ortib bormoqda, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, ta'lim, ilm-fan sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, shuningdek, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan.

1 Qarang: Саидов А., Бакаева Ф. Конституция Республики Узбекистан и права человека: от норм к реализации. – Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2010.

2 Саидов А.Х. Конституция Республики Узбекистан: правовая основа независимого развития. – Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2012. – С. 31.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini himoya qilish mustaqilligimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyaning bosh tamoyillaridan biri, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi hamda yakuniy maqsadidir.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida "Inson huquqlari" fanining g'oyaviy-nazariy asoslari

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, ko'plab fanlar qatori "Inson huquqlari" o'quv kursi ham barcha oliy o'quv yurtlari, hatto maktablarga ham majburiy o'quv kurslaridan biri sifatida kiritildi. Sabab, barcha fuqarolar o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, bu sohadagi muammolar to'g'risida tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Huquqiy demokratik davlat qurish uchun aholi yetarli darajada huquqiy savodxon va huquqiy madaniyatli bo'lishi kerak. Shularni e'tiborga olgan holda, 1996-yilning 29-avgustidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov o'z ma'ruzasida "Inson huquqlari" o'quv kursini barcha oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritish g'oyasini ilgari surgan edi.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki, aksariyat mamlakatlarda bo'lgani kabi, bizning mamlakatimizda ham inson huquqlari va erkinliklari sohasida olib borilayotgan islohotlarda davlat boshlig'ining hissasi kattadir. Zero, har qanday siyosatning olib borilishida mamlakat rahbarining o'rni va roli beqiyos hamda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Uning ilgari surgan har qanday tashabbusi, avvalambor, mamlakat aholisi manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Negaki, u xalqning eng ishongan Vakili hamda Himoyachisi hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti "fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili" hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'z chiqishlarida va asarlarida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlab berish va ularni himoya qilish davlatning eng oliy vazifasi ekanligini doimiy ravishda qayd etib kelgan. U bunda barcha hokimiyat organlarining faoliyatini birinchi o'rinda inson huquqlarini ta'minlab berishga qaratishga chaqiradi. "Inson huquqlari g'oyasi Oliy Majlis faoliyatida doimiy o'rinni egallashi kerak. Har qanday qonun, harakat sohasidan qat'i nazar, ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu tamoyillarga og'ishmay rioya etgan holdagina, biz chin ma'nodagi huquqiy, adolatparvar davlat qurishga

erisha olamiz. Inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak. Davlat va davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo'riqlash ishiga safarbar qilgandagina, o'z vazifasini to'g'ri ado etgan hisoblanadi. Bu qoidani hamma tan olishi, bu qoidaga hamma itoat qilishi shart"¹.

Prezident I.A. Karimov Oliy Majlisning yuqorida qayd etilgan VI sessiyasidagi "Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari"² mavzusidagi ma'ruzasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim va ajralmas qismi, bu – inson huquqlari va erkinliklariga e'tibor ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. Yurtboshimiz inson huquqlari va erkinliklari huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy boyligi ekanligini ta'kidlab, bundan keyin ham bu masalaga katta e'tibor qaratish, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni kuchaytirish, buning uchun esa, nazorat olib boruvchi muassasalar tizimini takomillashtirish zarurligi hamda bu borada faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash masalalariga alohida urg'u berdi.

Prezidentimiz ushbu ma'ruzasida kundalik hayotda insonning, fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ko'p sonli holatlar uchrashi, huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslari tomonidan inson huquqlarining buzilish hollari, inson huquqlarini himoya qilishda sud organlarining vazifalari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlari bo'lgan inson huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini shakllantirish va ularning ishini takomillashtirish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston qo'shilgan xalqaro standartlarga milliy qonunchilikni moslashtirish, sudlar, prokuratura, militsiya sohasidagi qonunchilikni inson huquqlarining ustuvorligi asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini, inson huquqlari sohasida monitoring olib borish kerakligi, inson huquqlari sohasida xalqaro va inson huquqlari sohasidagi tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida gapirib o'tdi. Ma'ruzada, shuningdek, milliy darajada inson huquqlariga rioya qilish va hurmat qilishga qaratilgan tadbirlar orqali aholining huquqiy madaniyatini oshirish lozimligi ta'kidlandi³.

Prezident ma'ruzasida, "Biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zgartirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirmog'imiz lozim. Shunday bo'lsinki, har bir kishi inson erkinliklari – ayni vaqtda, muayyan burch,

1 Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 17.

2 Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 118 – 148.

3 O'sha joyda.

majburiyat va mas’uliyat ekanligini chuqur his etib tursin. Barcha o‘quv yurtlarining tahsil dasturlariga “Inson huquqlari” maxsus kursini kiritish, shuningdek, ta’lim va tarbiyaning butun jarayonini insonparvarlik g‘oyasiga bo‘ysundirish zarur”¹, deb “Inson huquqlari” o‘quv kursini o‘quv jarayoniga kiritishning ahamiyatini alohida ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlisning VI sessiyasida, Konstitutsiyamizning to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda va Vazirlar Mahkamasining O‘zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisida qilgan ma’ruza va nutqlarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi besh strategik yo‘nalish belgilab berilgan:

birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta’minlash;

ikkinchidan, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va me’yorlari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

uchinchidan, qabul qilingan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta’minlash;

to‘rtinchidan, sudlov islohotini amalga oshirish yo‘li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;

beshinchidan, aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

Umuman olganda, davlat boshlig‘ining har bir nutqi va asarlarida inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari siyosatimiz bosh maqsadi ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. Agar biz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘p jildli asarlari to‘plami hamda ularga kirmagan boshqa asarlarini, jumladan, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”² nomli asarini o‘rganar ekanmiz, ularning markazida inson va uning manfaatlari yotganini ko‘rishimiz mumkin. “Bizning hamma ishlarimizda bu iqtisodiy siyosatimizni shakllantirish yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini hayotga tatbiq etish bo‘ladimi, ijtimoiy soha, ta’lim sog‘liqni saqlash tizimida ertangi va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olish bo‘ladimi – bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala

1 Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. –T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 136.

2 Qarang: Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B. 173.

eng ustun va hal qiluvchi o'rinda turadi. U ham bo'lsa, inson manfaatlarining ustunligidir"¹.

2008-yilda boshlanib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab olgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi deyarli barcha davlatlar iqtisodiyotiga, oxir-oqibatda jahon iqtisodiyotiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur inqiroz jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimining tarkibiy qismi sifatida O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz Prezidenti "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli risolasi², "Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarish, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi"³, deya ta'kidlab o'tadi. Shundan kelib chiqqan holda, Yurtboshimizning mazkur kitobida barcha sohalar kabi fuqarolarning huquqlari, ayniqsa, ularning iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarini inqiroz davrida qanday himoya qilish va ular uchun farovon hayot darajasini ta'minlab berishning amaliy choralari ko'rsatib berilgan.

Yurtboshimizning asarlarini o'rganish davlat va jamiyat qurilishining, ichki va tashqi siyosatning va umuman, davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida olib boriladigan islohotlarning g'oyaviy asoslarini, mazmun va mohiyatini tushunishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inson huquqlari sohasida amalga oshirgan yana bir muhim va o'ziga xos qadamlaridan biri, bu – Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining 2008-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 60 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi chaqirig'iga javoban 2008-yilning 1-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jahonda birinchilardan bo'lib "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligini nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmonini e'lon qilishi bo'ldi. Mamlakatimiz Prezidenti bu bilan O'zbekistonning inson huquqlari va demokratiya tamoyillariga sodiqligini yana bir bora e'lon qildi.

O'zbekiston tomonidan Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligini nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturining qabul qilinishi keng darajada xalqaro e'tirof etildi. Ushbu holat xorijiy siyosiy

1 Karimov I.A. Inson manfaatleri ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 43.

2 Qarang: Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 56.

3 O'sha joyda. – B.11.

va ekspert-tahliliy doiralarda, xususan, yirik siyosiy va jamoat arboblari, xalqaro konferensiyalar va seminarlar ishtirokchilari tomonidan, shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarligi boshqarmasida, O'zbekistonning Bryusseldagi, Berlindagi, Qohiradagi, Londondagi, Tokiodagi, Moskvadagi, Varshavadagi va boshqa shaharlardagi diplomatik vakolatxonalarda o'tkazilgan brifinglaridagi ishtirokchilar tomonidan keng muhokama qilindi va xorijiy ekspertlar tomonidan ijobiy sharhlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inson huquqlari va erkinliklari to'g'risida ilgari surgan g'oyalari orasida Yurtboshimizning 2010-yilning 12-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisida **“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”** mavzusida qilgan ma'ruzasi juda ham muhim o'rinni egallaydi. Mazkur ma'ruzada davlat boshlig'i tomonidan mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlarning natijalari sarhisob qilingani holda, mamlakatdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha eng muhim yo'nalishlar ko'rsatib berilgan:

- davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish;
- sud-huquq tizimini isloh etish;
- axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash;
- O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

Davlat boshlig'ining mazkur yo'nalishlarda ilgari surgan tashabbuslari, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat qurish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining yanada samaradorligini oshirishga va mamlakatni dunyodagi eng demokratik rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qaratilgandir. Mazkur ma'ruzada mamlakatni yanada rivojlantirish bosqichlari to'g'risida fikr yuritilar ekan, barcha sohalar kabi inson huquqlari sohasida ham yanada muhim islohotlarni amalga oshirish orqali dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga chiqishning yo'llari ko'rsatib berildi. Prezident o'z g'oyalarini ilgari surar ekan, unda ko'tarilgan yuksak maqsadlarga erishish avvalambor jamiyatimiz a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksakligi darajasiga bog'liq ekanligini qayd etgan holda, shunday deydi: “Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga

bog‘liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko‘rsatkichidir”¹.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti konstitutsiyaviy vakolatlaridan kelib chiqqan holda, o‘z chiqishlari va asarlarida davlat siyosatini belgilab bermoqda hamda normativ-huquqiy hujjatlarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini shakllantirish va uni doimiy ravishda takomillashtirishning huquqiy poydevorlarini yaratib bermoqda. Uning bu sohadagi olib borayotgan faoliyati davlatimiz rahbarining mamlakatda mustaqillik yillaridan buyon olib borilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarning tashabbuskoriga hamda mamlakat fuqarolari huquq va erkinliklarining haqiqiy kafolatchisiga aylanganligini ko‘rsatmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Nima uchun O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng “Inson huquqlari” o‘quv kursini o‘qitish dolzarb masalaga aylandi?*
2. *“Inson huquqlari” deganda nimani tushunasiz?*
3. *“Inson huquqlari” o‘quv fanining maqsadi nimaga qaratilgan?*
4. *“Inson huquqlari” o‘quv fanining obyekti va predmetini tushuntirib bering.*
5. *“Inson huquqlari” o‘quv fanining vazifalari nimalardan iborat?*
6. *“Inson huquqlari” o‘quv fanini o‘rganish usullarining ahamiyati nimada?*
7. *“Inson huquqlari” o‘quv fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro munosabatlari xususida nima deya olasiz?*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi “Inson huquqlari” fanining konstitutsiyaviy-g‘oyaviy asoslarini ko‘rsatib bering.*
9. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi “Inson huquqlari” o‘quv fanining g‘oyaviy asoslarini ko‘rsatib bering.*
10. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida qilgan ma‘ruzasida ilgari surilgan g‘oyalarni tushuntirib bering.*

¹ Batafsil ma‘lumotlar uchun qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B. 56.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – 56 b.
2. Саидов А.Х. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Т.: ЖИДУ, 2001.
3. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: "Konsau-ditinform-Nashr", 2006.
4. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.
5. Саидов А., Бакаева Ф. Конституция Республики Узбекистан и права человека: от норм к реализации. – Т.: Национальный центр РУз по правам человека, 2010.
6. Права человека. Учебник для вузов. /Под. ред. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2010.
8. Общая теория прав человека. – М.: НОРМА, 1996.

2-mavzu. Inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

1. Qadimgi dunyoda inson huquqlari g'oyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. O'rta asrlar Yevropasida inson huquqlari g'oyasining rivojlanishi.
3. Uyg'onish davrida inson huquqlarining rivojlanishi.
4. Yangi davrda inson huquqlarining rivojlanishi va inson huquqlari avlodlarining shakllanishi.

1. Qadimgi dunyoda inson huquqlari g'oyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi

“Inson huquqlari” fan sifatida “Konstitutsiyaviy huquq”, “Jinoyat huquqi”, “Fuqarolik huquqi” kabi fanlarga nisbatan yangi fandır. Lekin uning predmeti bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi g'oya va tamoyillar qadimdan shakllanib kelgan va bugungi kunda u o'zining normativ shaklini olgan bo'lsa ham, doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Insonning yashash huquqi, shuningdek, ozod, erkin bo'lish huquqi, tenglikka bo'lgan huquq, oilali bo'lish huquqi, mulk huquqi kabi qator fundamental huquqlar to'g'risidagi g'oyalar va bu g'oyalarni amalga oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlar insoniyat tarixining ilk quldorlik davrlarigacha borib taqaladi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu esa, o'z navbatida, inson huquqlarining tabiiy va universal xarakterga ega ekanligini isbotlab turibdi. Zero, bunday huquqlar, u yoki bu darajada barcha davrlarda barcha xalqlar va millatlarga xos bo'lib kelgan va turli jamiyatlarda bo'lgan kurashlar ham bunday huquqlarga ega bo'lish uchun, ya'ni, ozodlik va erkinlikka erishish uchun olib borilgan.

Demak, aksariyat fanlarda bo'lgani kabi “Inson huquqlari” o'quv fanining rivojlanish bosqichlarini ham davrlarga bo'lib o'rganish bugungi inson huquqlari konsepsiyasini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Shuning uchun ham, inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalar va normativ-huquqiy hujjatlarning rivojlanishini va umuman olganda, inson huquqlari tarixini:

- qadimgi dunyoda inson huquqlari g'oyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi;
- o'rta asrlarda inson huquqlari g'oyasining rivojlanishi;
- uyg'onish davrida inson huquqlari g'oyasining rivojlanishi;
- yangi davrda inson huquqlari g'oyasi va inson huquqlariga oid normativ jarayonning rivojlanishi, deb shartli ravishda davrlashtirishimiz,

bugungi inson huquqlari genezisini to'g'ri tushunishimizga hamda yaxshiroq anglashimizga yordam beradi.

Inson huquqlarining zamonaviy konsepsiyasi sivilizatsiya tarixining o'tmish tajribalariga, birinchi o'rinda, insonlarning ijtimoiy hayotini tashkil etishning huquqiy shakllari sohasiga, ular faoliyatini tartibga solish uslublariga tayanadi. Qayd etish lozimki, inson huquqlari konsepsiyasining yaratilishi uzoq davom etgan jarayon hisoblanib, insoniyatning rivojlanish tarixi bilan bevosita bog'liqdir. Uning boshlanishi, insonlarning atrof-muhitdagi faoliyatini tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqargan bo'lib, mazkur jarayon ijtimoiy hayotning ibtidoiy shakllariga borib taqaladi. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson huquqlari konsepsiyasi falsafiy qarashlar va huquqiy reglamentlash ta'siri ostida shakllanib bordi. Olimlar o'rtasida inson huquqlarining falsafiy-huquqiy tabiati masalalarida hanuzgacha yagona fikr mavjud emas.

Inson huquqlari insonning davlatda o'z qobiliyatlarini amalga oshirish ehtiyoji uchungina vujudga kelib qolmadi (masalan, mashg'ulot turini tanlash imkoniyati), balki, hali eramizdan avvalgi IV–III ming yillarda paydo bo'lgan davlat mashinasi prototipiga muvozanat sifatida ham paydo bo'la boshladi. Bizga ma'lumki, ilk sinfiy shahar-davlatlar ko'pchilik ozchilikka, kuchsizlar kuchlilarga bo'ysunishiga asoslangan; kuchlilar huquqi, odat, an'ana va urf-odatlar hukmronlik qilgan.

Shu tariqa, urf-odatlarining sirlari va dohiylarga xizmat qilish zaruriyati avloddan-avlodga o'tib kelgan. Ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tish natijasida va uning davomidan "demografik portlash"dan so'ng sivilizatsiya paydo bo'la boshlagan. Dehqonchilikning ilg'or shakllari (o'rmonni ochish orqali, sug'orish, lalmi va irrigatsiyaviy) ishlab chiqarishni sezilarli darajada murakkablashtirdi va yangi boshqaruv hamda tashkiliy funksiyalarning paydo bo'lishiga, shuningdek, mehnat faoliyatining oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan yangi turlarining yaratilishiga va ortiqcha mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash va taqsimlashni tartibga solish zaruratining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu asnoda, jamiyat har bir a'zosining mehnatga qo'shgan ulushini hisobga olish zarurati yuzaga keldi. Iqtisodiyot ibtidosi mehnat taqsimotini yanada kuchaytirdi. Boshqaruvchilar, nazoratchilar, ishchilar sinfi paydo bo'ldi. Hozirgi paytgacha mavjud bo'lib kelayotgan davlat huquqiy shakllarining asosiy belgilari tug'ila boshladi. Jamiyat har bir a'zosi uchun o'zini tutishning qattiq qoidalari, majburiyatlari, mumkin bo'lgan ishlar va taqiq(tabu)larni o'rnatish zarurati paydo bo'la boshladi.

Inson huquqlari masalalarini tahlil qila borib, qayd etish lozimki, dastlab ular huquqlar va erkinliklarning asosiy manbalari tabiiy huquqdan paydo

bo'lgan odat huquqi (harbiy demokratiya, jamoa o'zini o'zi boshqarishi) asosida shakllangan an'ana va odatdan iborat bo'lib, u insonning biror urug'ga tegishliligi bilan bog'liq bo'lgan. Antik polisidagi insonning ajralmas huquqlari inson huquqlarining birinchi yuridik shakllari bo'lib, keyinchalik ular rim huquqida mustahkamlangan. Inson huquqlarini tushunish uchun juda ham muhim bo'lgan insonlarning tabiiy tengligi g'oyasi qadimgi grek sofistlari va xitoylik mutafakkirlar tomonidan ko'p bora aytilgan. Fuqarolik erkinliklarining taraqqiyotiga ma'lum darajada rimliklar ham o'z hissalarini qo'shdilar, ya'ni ular hokimiyat bo'linishi tushunchasini kiritdilar, shuningdek, tabiiy huquq g'oyasi va "huquq subyekti", "qonun oldida barchaning tengligi" singari tushunchalar ham rimliklar tomonidan ishlab chiqildi. Shuni qayd etish lozimki, falsafiy g'oyalar Qadimgi Gretsiya va Rim davlatlaridagi ijtimoiy sharoitlarga asoslangan qonunchilikda o'z aksini topmadi. Inson huquqlari, qullarni istisno qilgan holda, faqat quldorlarning imtiyozli sifatidagi qonun deb ko'rilar edi.

O'rta asr uchun shu narsa xarakterli ediki, shaxsiy erkinliklarni alohida korporatsiyalar va qatlamlarning vakillari oldilar. Ushbu davrda huquqning quyidagi yo'nalishlari paydo bo'ldi: asriy qonun (eexaeterna), sakral huquq (jus divinum), tabiiy huquq (jus naturale), insonlar qonuni (eex humana yoki jus huminum), u o'z navbatida fuqarolik qonunida (eex civilis) va pozitiv huquqida (jus positivum) o'z aksini topa boshladi. O'rta asrlarda inson huquqlari insonning tabaqaviy tegishliligi bilan belgilana boshladi. Turli ijtimoiy maqomlar feodal tizimning umumiy piramidasida turli darajadagi doiralarning huquq-imtiyozlari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Huquqiy tenglik tamoyili oldingiga nisbatan kengroq doiradagi insonlarga qo'llana boshladi va bu o'rinda mazkur tamoyil qo'llanishida ularning tabaqaviy farqlanishi (differenziatsiyasi) va cheklanganligi hisobga olingan, albatta.

Shu munosabat bilan, rus huquqshunos olimasi Ye.A. Lukasheva shunday deydi: "Antik davrdagi qul ibtidoiy jamoaning yovvoyi odamdand erkinroq. O'rta asrlardagi krepostnoy esa, antik davr qulidan ko'ra erkinroqdir. Burjua jamoati esa, jamiyatning barcha a'zolariga formal erkinlik uchun sharoitlar yaratib berdi"¹.

Akademik V. Nerseslyans esa, inson huquqlari tarixi mavzusini rivojlantira borib, bu haqda shunday deydi: "Huquq va davlat tarixiy rivojlanishining har bir bosqichi uchun huquq subyekti bo'lmish inson konsepsiyasi va uning huquq hamda majburiyatlari, erkinligi va erksizligi haqidagi tasavvurlar xosdir. Shu ma'noda, huquq tarixi, ayni mahalda, inson huquqlari to'g'risidagi

1 Права человека. Учебник для вузов / Отв. ред. Е.А. Лукашева. – М.: 1999. – С. 14.

ibtidoiy, cheklangan va rivojlanmagan tasavvurlardan tortib, hozirgi davrdagi tasavvurlarning shakllanishi va evolutsiyasi tarixi hamdir. Inson huquqlari – bu, eng avvalo, insonning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasidagi huquqiy layoqatini va huquqiy subyekt ekanligini e'tirof etishdir. Yoki, huquqshunos olim V. Nersesyansning ta'biri bilan aytganda, turli davrlardagi huquqiy layoqatning hajmi tegishli huquqiy tizimda, mazkur huquq tizimi subyektlarining qanchalik darajadagi huquqqa ega bo'lgan inson sifatida e'tirof etilishi bilan o'lanib kelingan¹.

Biroq, ta'kidlash kerakki, insoniyat rivojlanishining dastlabki davrlarida, shuningdek, quldorlik tuzumi davrida, o'rta asrlarda, hatto bir, ikki asr oldin ham hozirgi ko'rinishdagi, ya'ni umumlashtirib, muayyan tizimga solingan, qonunchilik asosida mujassam etilgan hamda ilmiy asoslantirilgan inson huquqlari konsepsiyasi, tabiiyki, mavjud bo'lishi mumkin emasdi. Buning uchun nafaqat huquqiy yo'nalishdagi, balki falsafa, sotsiologiya, siyosat, etika va diniy yo'nalishdagi tafakkurning tarixan uzoq tadrijiy rivoji talab etilar edi.

“Inson huquqlari tarixi – bu odamlarning insonlashishi tarixi, munosabatlarning biron-bir doirasi uchun u yoki bu odamlarni inson sifatida huquqiy e'tirof etishning avj olib boruvchi kengayishidir”, – deb yozadi V. Nersesyans².

Inson huquqlari konsepsiyasining shakllanishi ming yillab davrni o'z ichiga oladi va turli vaqtlarda bu muammo yo diniy, yoki axloqiy, yo bo'lmasa, falsafiy tushunchalarda qamrab olingan. Barcha insonlar uchun teng bo'lgan normalar tizimi to'g'risidagi tasavvurlar Qadimgi dunyodayoq shakllana boshlagan va bu tasavvurlar ko'pincha ularning mifologik ongida xudoning haqiqati adolat shaklida vujudga kelgan (masalan, maat – misrliklarda, rita – hind oriylarida, dao – qadimgi xitoy mifologiyasida). Ushbu xudoning haqiqatiga esa, tabiat va jamiyat bo'ysunadi va undan kishilik qonunchiligi vujudga keladi (masalan, rimliklarda – Femida xudosi), davlatlarning hukmdorlari esa, Xudoning muxtor vakillari sifatida ko'rilar edi.

Agar, sivilizatsiya o'choqlaridan hisoblangan Qadimgi Gretsiyani o'rganadigan bo'lsak, “Homer Yunonistoni” davridayoq (miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri) **Homerning** “Iliada” va “Odissey” dostonlarida (miloddan avvalgi VIII asr) tasvirlangan ellinlar, jumladan, dike (haqiqat, adolat), temis (yoki femis – odat, odat huquqi), time (or-nomus, faxriy huquq – da'vo), nomos (qonun) kabi tushunchalarni ishlatishgan³.

1 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 113.

2 O'sha joyda.

3 O'sha manba. – B. 177.

Gesiod (e.a.VII asr) adolat va qonunning ildizlari hamda asoslari yagonaligini o'zining "Teogoniya" va "Mehnatlar va kunlar" dos-tonlarida quyidagicha tasvirlagan: Adolat (Dike) va Ezgu qonunchilik (Evnomiya) Olimpiya oliy xudosi Zevs va odil sudlov xudosi Femidaning qizlari bo'lgan ikki opa-singil ma'budalardir. "Dike" Oliy xudo (barcha ilohiy mukammallikning timsoli) Zevsning va (abadiy, tabiiy tartibning ramzi) Femidaning qizi sifatida ilohiy adolatni muhofaza qilgan va undan chekinganlarni jazolagan¹.

Inson huquqlariga oid g'oyalar tarixiy rivojining uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchisi, urug', jamoa, davlatdan ajralib chiqayotgan alohida shaxs sifatidagi, huquqning mustaqil subyekti sifatidagi inson g'oyasining shakllanishi.

ikkinchisi, qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda o'z huquqiy tizimining rivojlanishi, qonunlarning mujassamlashuvi va yuridik institutlarning qaror topishi.

uchinchisi, huquqlar va qonunlarning universallik g'oyasi, ularning barcha odamlarga nisbatan beistisno qo'llanish g'oyasining ishlab chiqilishi².

Shuni ham unutmaslik kerakki, G'arbda ham, Sharqda ham qat'iy shajaraviylik va tabaqaviy mahdudlikka asoslangan qadimgi va o'rta asrlar jamiyatlarida inson huquqlari g'oyasi, odatda, haqiqiy huquqiy amaliyot xususiyatiga deyarli bog'liq bo'lmagan, aqlan o'ylab topilib, zehn bilan sayqallangan hosila xususiyatiga ega edi. Bu esa, ko'pgina tadqiqotchilarning qadimgi va o'rta asrlarda inson huquqlari mavjud bo'lganligi faktiga tanqidiyroq, shubha bilan qarashga asos bo'ladi³.

Masalan, senegallik huquqshunos K. Mbayening fikricha, "Qadimgi davrlardagi inson huquqlari tizimi izlarini izlab topishga zo'r berayotganda shuni yodda tutish kerakki, ular nari borsa izlar, xolos, bundan ortiq emas"⁴. Vengriyalik akademik I. Sabo bu borada yanada keskinroq fikr aytadi: "Inson huquqlari kelib chiqishini inson huquqlari mavjud bo'lishini ta'minlovchi asosiy shartlar, xususan, erkinlik va tenglik g'oyalaridan yiroq ijtimoiy tuzumlarga olib borib taqashga urinish xato bo'ladi"⁵. V.S. Nersesyans ham

1 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 177.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 24.

3 O'sha joyda.

4 Mbaye K. Human Rights and Rights of Peoples //International Law: Achievements and prospects. Yed. By M Bedjaoui. Paris, UNESCO, 1992. – R. 1043.

5 Szabo I. Historial Foundations of Human Rights //The International Dimensions of Human Rights. Paris, UNESCO, 1982. – P. 12.

inson huquqlari g'oyasining G'arbda shakllanishini faqat Uyg'onish davriga nisbat beradi¹.

To'g'ri, Arastu asarlaridan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidagi ta'riflarni izlashning o'zi kulgilidir. Lekin, inson huquqlari g'oyasi muayyan bir davrda, aytaylik, Uyg'onish yoki Ma'rifat davrida, biron-bir xalqda – fransuzlar yoki inglizlarda yo'q yerdan paydo bo'lib qolgan, deb o'ylash ham xatodir. Bu bilan inson huquqlari universalligi g'oyasi bilvosita rad etilib, tarixiy o'tmish “huquqsiz” va “shafqatsiz” deb badnom etilgan bo'ladi. Yana shuni ham unutmash zarurki, “vahshiy qadimgi davrda” emas, balki, ayni XX asrda, “ma'rifatli xalqlarning xalqaro huquqi” e'lon qilingan bir pallada Yevropa hududining kattagina qismida insonning eng oddiy huquqlarini ham nazar-pisand qilmaslikda na qadimgi davrlarda, na o'rta asrlarda ko'rilmagan tuzum o'rnatildi. Shu sababli, bizning nazarimizda, o'tmishdan inson huquqlarining “izlari”ni emas, balki, inson huquqlari g'oyasi tushunchasining ko'tarinkilik va tushkunlik holatida bo'lsa ham izchil rivojini izlash kerak². “Barcha ashyolarning mezoni – insondir”³ degan edi qadimgi buyuk yunon faylasufi Protagor.

Ilk sinfiy jamiyatda huquqning dastlabki ko'rinishlari erkinlik va inson vakolatining nima ekanligini bilmaydigan kishilik jamiyati sifatida paydo bo'la boshladi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qoidalarining qaror topishi hamda asta-sekin universallashtirib borishi jarayonida ularning ajralmas, tug'ma xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlar alohida rol o'ynadi. Ma'lumki, bu g'oyalarning yuzaga kelishi qadimgi davrlarga, aniqroq qilib aytganda, Qadimgi Yunoniston huquqshunosligidagi tabiiy (ya'ni, tug'ma) inson huquqlari g'oyasiga borib taqaladi. Shu ma'noda, J. Tenekidesning mana bu fikriga qo'shilish mumkin: *“Inson huquqlarini muhofaza qilish ko'hna Yunoniston institutlarida o'zining olis ona makoniga ega”*⁴.

Eng avvalo, bu narsa oliy qadriyat sifatida inson g'oyasi shakllanishida o'z ifodasini topgan. Xususan, yuqorida qayd etilgan Protagorning insonga bergan ta'rifi bugungi kunda ham ulkan umumbashariy salohiyatga egadir. K. Mbaye ta'kidlab aytganidek, *“Protagor insonni barcha ashyolarning mezoni deb e'lon qilish bilan inson huquqlari g'oyasini yuzaga keltirishi mum-*

1 Мартышин О.В. Политическая и правовая мысль древней Индии // История политических и правовых учений: Древний мир /Отв. ред. В.С.Нерсисянц. – М., 1985. – С.154

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 25.

3 Платон. Соч. – М.: 1970. Т. 2. – С. 238.

4 Qarang: Tenekides G. L'action des Nations Unies contre la discrimination raciale // R.C.A.D.I., 1984. Vol.168. – P. 303

kin bo'lgan jamiki fikrlarning silsilasini qamrab oldi, zotan, bu hikmatomuz ta'rif zahirida muayyan gumanizm, insonparvarlik yotadi"¹.

Antik demokratik polis va keyinchalik, Rim respublikasi a'zolari erkinlik va ozodlikka asoslangan to'la huquqli kishilik jamiyatini qurishda o'ziga xos tajriba maydoniga aylandi. Ammo bu to'la huquqlilik ham tabaqaviy xarakter kasb etar edi, ya'ni, jamiyatning qullar, chet elliklar va ayollar kabi qismlari ushbu jamiyatning to'la huquqli a'zolari hisoblanmas edi. Antik davrlardayoq qullikni va tengsizlikni tanqid qiluvchilar paydo bo'la boshladi. Masalan, sofist Antifont (taxminan e.a. 400 yil) shunday fikrni o'rtaga tashlaydi: *"Hammamiz – varvarlar ham, ellinlar ham barcha munosabatlarda tabiatan tengmiz. (Bu o'rinda) tabiatga ko'ra barcha odamlarning ehtiyoji bir xilda ekanligiga e'tiborni qaratish joizdir"*². Antifont kabi falsafaning sofizm oqimi tarafdorlari, xususan, Likofron, Alkidam ham *barcha kishilarning tabiatan tengligi* g'oyasini ilgari surdilar³. Odamlar orasidagi tengsizlik, shuningdek, ularning hur, ozod kishilar va qullarga bo'linishini sofistlar sun'iy insoniy qurilmalar oqibati sifatida sharhladilar va bu o'sha davr uchun juda ham ilg'or g'oya edi.

Ideal davlat va oqilona, adolatli qonunlar Platon tomonidan g'oyalarning amalga oshirilishi va g'oyalar olamining dunyoviy, siyosiy va huquqiy hayotda eng ko'p ifodalanishi sifatida talqin qilingan. Platon ideal davlatdagi adolatni tavsiflab bunday deb yozgan: *"Har bir kishining o'z ishi bilan shug'ullanishi adolatli bo'lur edi"*; *"adolat har kimning o'z ishi bo'lishidan va o'z ishini bajarishidan iboratdir"*. Adolat *"hech kim o'zganing molini egallab olmasligini va o'z molidan mahrum bo'lmasligini"* talab etadi⁴.

Adolat masalasi, ayniqsa, qadimgi dunyo mutafakkirlari g'oyalarida eng muhim o'rinni egallar edi. Jamiyatda kishilik munosabatlarini tartibga solib turuvchi adolat masalasini Aristotel (e.a. 384–322-yillar) ham chuqur o'rganib chiqdi. Aristotel adolatning ikki turini farqlaydi: tenglashtiruvchi va taqsimlovchi.

Tenglashtiruvchi adolat arifmetik tenglik tamoyiliga, ya'ni, "tengga teng" tamoyiliga asoslanadi. Tenglashtiruvchi adolatning ta'sir qiluvchi doirasi – fuqarolik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi (savdo ishlari, zararni qoplash, jazo va shu kabilar). Tenglashtiruvchi adolat, jamiyatning barcha a'zolariga nisbatan, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, bir xil qonun normasi

1 Mbaye K. Human Rights and Rights of Peoples //International Law: Achievements and prospects. Ed. By M Bedjaoui. Paris, UNESCO, 1992. – R. 1042–1043.

2 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 181.

3 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 26.

4 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 184.

tatbiq qilinishi kerak, degan tushunchani beradi. Taqsimlovchi adolat esa, geometrik tenglik degan tushuncha asosiga quriladi. Unga ko'ra, jamiyat farovonligi va imtiyozlari insonlarning qadr-qimmati bo'yicha, jamiyatning u yoki bu a'zosining qo'shgan hissasiga qarab taqsimlanishi kerak.

Taqsimlovchi adolat insonlarning ijtimoiy munosabatlarning mustaqil subyektlari ekanligini e'tirof etgan holda, ularning ijtimoiy munosabatlardagi individuallashuvini boshlab beradi.

Aristotelning fikricha inson – “siyosiy mavjudot” hisoblanadi va u jamiyatdagina o'zining to'liq taraqqiyotiga erishadi. Siyosiy adolat, Aristotelning fikriga ko'ra, faqat erkin hamda teng odamlar o'rtasida bo'lishi mumkin va o'zida, hokimiyatning siyosiy hamda huquqiy shakllari bo'lmagan despotizmdan farqli ravishda, hukm yuritishning siyosiy shakli tamoyilini ifodalaydi¹. Shundan kelib chiqqan holda, Aristotel uchun polis tashkilotini bilmaydigan varvarlar va qullar – bular to'liq huquqqa ega bo'lmagan insonlar hisoblanadi.

Aristotel, shuningdek, tabiiy huquq va shartli huquq (ya'ni, insonlar tomonidan o'rnatiladigan huquq)ni farqlaydi. Uningcha, tabiiy huquq tabiatidan kelib chiqib, insonlar tomonidan o'rnatilmasa, ham mavjud bo'ladigan huquq hisoblanadi. Tabiiy huquq ham, shartli huquq ham teng ravishda “siyosiy huquq”, ya'ni kishilik jamiyati bo'lgan – polis normasi hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farq shundan iboratki, tabiiy huquq hamma joyda bir xil hisoblanib, joy va vaqtning sharoitiga yoki insonlar tomonidan e'tirof etilishiga bog'liq emas. Undan tashqari, shartli huquq (insonlar tomonidan o'rnatilgan qonun) tabiiy huquqqa muvofiq kelishi kerak. Aristotelning fikricha, qonunlar “to'g'ri” va “noto'g'ri” bo'lishi mumkin. Ya'ni, huquq g'oyasiga noto'g'ri keladigan qonun “noto'g'ri” qonun bo'ladi. Shu bilan birga, Aristotel davlat qonunlarining tabiiy qonunlarga mos kelishi yoki kelmasligini ko'rib chiqishga chaqiradi. Aristotelning g'oyasini yuz yil o'tgandan so'ng rim davlat arbobi, faylasuf, yurist, notiq Mark Tulliy Sitseron (e.a. 106–43 yillar) rivojlantirdi.

Sitseron uchun davlat – bu “manfaatlar umumiyligi” asosidagina birlashgan insonlarning birlashmasi bo'lib qolmasdan, balki, “huquq masalasida o'zaro bog'liq bo'lgan” insonlar yig'indisidir. Shunday qilib, davlat Sitseron tomonidan kishilarning huquqiy muomalasi, huquqiy ittifoq sifatida tushuniladi. Huquqiy va siyosiy ta'limotlarning tarixchilari bu qoidada huquqiy davlat g'oyasining kurtaklarini ko'rishi mumkin. Sitseronning fikricha, to'g'ri tashkil etilgan davlatda, teng ravishda “huquqlar, majburiyatlar va

¹ Nersesyans V.S. Huquq falsafasi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 186.

vakolatlarning taqsimlanishi” amalga oshiriladi. Huquqning asosida tabiatan adolat yotishi kerak. Shu bilan birga, adolat abadiy, o‘zgarmas va tabiatning (insoniyat tabiatini ham qo‘shib aytganda), ajralmas qismi hisoblanadi. Ayni paytda, adolat va huquq manbasi bo‘lgan “tabiat” (tabiatan huquq, tabiiy huquq) deganda, Sitseronning fikricha, butun koinot, insonni o‘rab turgan jismoniy va ijtimoiy dunyo, kishilik muomalasi shakllari va turmush tarzi, shuningdek, uning tanasi va ruhini, tashqi va ichki hayotini o‘rab turgan inson hayoti tushuniladi¹.

Sitseron tabiiy huquqqa shunday ta’rif beradi: “Haqiqiy qonun – bu tabiatga muvofiq bo‘lgan, barcha insonlarga tegishli, doimiy, abadiy bo‘lgan, buyruq bergan, taqiqlagan holda burchni ado etishga chaqiruvchi, qo‘rqitgan holda jinoyatdan qaytaruvchi oqilona qonundir, biroq, bu qonun kerak bo‘lmaganda halol odamlarga hech buyurmaydi va taqiqlamaydi hamda vijdonsiz odamlarga biror narsani buyurib yoki taqiqlab ta’sir ko‘rsatmaydi. Bunday qonunni to‘liq yoki qisman bekor qilishni taklif etish – kufrdir; uning amal qilishini biror darajada cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi; uni to‘liq bekor qilish mumkin emas va biz na senatning qarori bilan, na xalqning qarori bilan ushbu qonundan ozod bo‘la olmaymiz”. Insoniy qonunlarning tabiatga (va tabiiy huquqqa) muvofiqligi yoki nomuvofiqligi ularning adolatliligi yoki adolatsizligining mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Sitseron, jumladan, miloddan avvalgi 404–403-yillarda Afinada hukmronlik qilgan o‘ttiz mustabid qonunlarini hamda Sullaga rimlik fuqarolarga nisbatan cheksiz vakolatlar, shu jumladan, tirik qoldirish va o‘ldirish huquqini bergan miloddan avvalgi 82-yildagi Rim Qonunini adolat va huquqqa zid bo‘lgan qonunlar misoli sifatida qayd etgan².

Yunon stoiklari **Zenon** va **Xrissip** davlat to‘g‘risidagi asarlarida, ularning izidan rimlik izdoshlari (Seneka, Mark Avreliy, Epiktet) tabiiy huquqning universal xususiyatga ega ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlarga (va tegishlicha – tabiat bo‘yicha adolatga) tayanib, barcha odamlar (o‘z tabiatiga ko‘ra va umuman olam qonuni bo‘yicha) – yagona jahon davlatining fuqarolari ekanligi va inson olamining fuqarosi ekanligi to‘g‘risidagi kosmopolitik g‘oyalarga asos solganlar³.

Lutsiy Anney Seneka ana shu yo‘nalishning eng yirik namoyandalaridan biridir (miloddan avvalgi 4 – milodiy 65 yillar). Uning aytishicha, barcha insoniy qonunlar va davlat “taqdir qonuniga” (tabiat huquqiga) bo‘ysunadi. “Biz, – deb ta’kidlagan edi, Seneka, – xayolan ikkita davlatni ko‘z oldimizga

1 Qarang: Права человека. Учебник для вузов./ Под. ред. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999.

2 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi./ Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 192–193.

3 O’sha joyda. – B. 190.

*keltirmog'imiz lozim: ulardan biri ma'budlar va odamlardan iborat bo'ladi; unda bizning nazarimiz yer yuzining muayyan go'shasi bilan cheklanib qolmaydi, zero, davlatimiz sarhadlari quyosh harakati bilan o'lchanadi; ikkinchisi esa, bizni tasodif ro'baro' qilgan davlatdir. Ana shunisi, ikkinchisi Afina yoki Karfagen yoxud boshqa biror-bir shahar bo'lishi mumkin; u barcha kishilarga emas, balki ularning muayyan guruhlaridan biriga taalluqlidir, xolos. Shunday odamlar ham borki, ular ayni bir vaqtda ham katta, ham kichik davlatga xizmat qilaveradilar, shu bilan birga, ayni chog'da faqat katta davlatga xizmat qiladiganlar ham, faqat kichik davlatga xizmat qiladiganlar ham bor'''¹. Senekaning fikricha, oqillik (tabiiy huquq) shundan iboratki, odatda, bir davlatga mansub kishilar umumdunyoviy qonunlar amal qilishini e'tirof etishlari va bunday qonunlarga amal qilishlari lozim. **Stoik Mark Avreliy Antonin** (161–180 yillarda Rim imperatori bo'lgan) “qonunlari barcha uchun teng bo'lgan, barchaning tengligi va teng huquqliligiga muvofiq boshqariladigan hamda tabaaning erkinligini hamma narsadan ortiq ulug'lagan podsholik davlati” to'g'risidagi tasavvurni rivojlantirgan².*

Shunday qilib, ayni stoitsizmning yunonistonlik va rimlik tarafdorlari sa'y-harakatlari bilan odamlarning yagona kosmopolitik davlatning hamfuqarolari sifatidagi tengligi g'oyasi tor davlatchilik va etnik doiradan tashqari chiqib, butun bashariyatga tarqalgan.

Inson huquqlari falsafiy xususiyat kasb etib, yuridik amaliyot xususiyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan Qadimgi Yunonistondan farqli ravishda, Qadimgi Rimda yuridik asarlarda aniq-ravshan, baralla ifodalana boshlagan. Rimlik yuristlar tomonidan tabiiy huquq mavjudligi e'tirof etilishi va ayni vaqtda, rimliklarning huquqiy tushunchasida tabiiy huquqni rad etish tariqasida, ijobiy (pozitiv) huquq, degan maxsus tushuncha yo'qligi shundan dalolat beradiki, rimlik yuristlarning sharhlarida tabiiy huquq amaldagi huquq jumlasiga kiritiladi va uning tarkibiy maxsus qismi deb qaraladi³. Binobarin, bu huquq shunchaki mavhum tuzilma va kategoriya emas, haqiqatda mavjud bo'lib turgan huquqning norma va tamoyillari uchun shunchaki “sof”, tashqi tushuncha ham emas, balki amaldagi huquqning o'ziga xos tarkibiy qismi hisoblanadi⁴.

Rimlik Ulpianning fikricha, ommaviy huquq “Rim davlati qoidasiga tegishlidir”, xususiy huquq esa, “alohida shaxslar foydasiga” tegishlidir. Xususiy huquq, o'z navbatida, quyidagi uch qismni o'z ichiga olgan:

1 Антология мировой философии. – М.: 1969. Т.1. ч.1. – С. 507.

2 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 192.

3 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 29.

4 Нерсисянц В.С. Политические и правовые учения Древнего Рима //История политических и правовых учений: Древний мир. – М.: 1985. – С. 296.

tabiiy huquq (ius naturae, ius naturale);
xalqlar huquqi (ius gentium);
sivil huquq (ius civile).

Tabiatning huquq nuqtayi nazaridan barcha ahamiyatli ko'rsatmalari tabiiy huquqqa tegishli edi. Ulpian shunday deb yozgan edi: *"Tabiiy huquq – bu tabiat barcha jonli narsaga o'rgatgan huquqdir: chunki, bu huquq faqat inson qavmiga emas, balki, yerda va dengizda tug'iladigan barcha hayvonlarga hamda parrandalarga ham xosdir"*. Ulpian tabiiy huquq institutlariga, jumladan, nikoh va bolalar tarbiyasini ham kiritgan, "hayvonlar, hatto yovvoyi hayvonlar ham ushbu huquq to'g'risidagi bilimlarga ega" ekanligini qayd etadi¹.

Xalqlar huquqini rim huquqshunoslari insoniyat foydalanadigan huquq sifatida tushunganlar. Uning tabiiy huquqdan farqini, tabiiy huquq jonzoqlar uchun umumiy bo'lgan huquq, xalqlar huquqi esa – odamlar uchun (ularning o'zaro munosabatlarida) amalda bo'lgan huquqdir, deb tushuntiradi Ulpian. Xususi huquqning bir qismi bo'lgan sivil huquq deganda, aslida, Rim huquqi tushunilgan. *"Sivil huquq, – deb izohlagan Ulpian, – tabiiy huquq yoki xalqlar huquqidan tamomila ajratilmaydi va barcha narsada unga amal qilavermaydi; agar biz umumiy huquqqa nimadir qo'shsak yoki undan nimanidir chiqarib tashlasak, biz o'z huquqimizni, ya'ni sivil huquqini yaratamiz. Bizning huquqimiz yozilgan yoki yozilmagan huquqdan iboratdir"*. Rim huquqshunoslarining huquqni tushinishiga muvofiq, tabiiy huquq adolat talabini ifodalaydi va huquq umuman adolatlidir, degan asos g'oyani ifodalaydi².

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimgi dunyoda inson huquqlariga oid g'oyalar va tushunchalar shakllana borgan va u buyuk mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan bo'lsa-da, ammo bu g'oya va tushunchalar o'sha davrdagi turmush tarzi, atrofda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va ular o'sha davrda asosan g'oyaligicha qolib ketgan. Ammo ularning g'oyalari o'rta asrlarda va keyinchalik ham inson huquqlariga oid ilg'or g'oyalar, qarashlar, huquqiy asoslarning yaratilishi va ularning bugungi kunga kelib normativ jihatdan sobitlashuvi (qaror topishi) va amaliy tatbiq etilishi uchun o'ziga xos tamol toshi sifatida xizmat qildi.

2. O'rta asrlar Yevropasida inson huquqlari g'oyasining rivojlanishi

O'rta asrlarga kelib inson huquqlariga oid g'oyalarning rivojlanishi va ularning normativ shakllanishida G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davri namoyandalari katta hissa qo'shdilar.

1 Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003. – B. 194.

2 O'sha joyda.

Inson huquqlariga oid g'oyalar nasroniylik ilohiyotchisi, nasroniy falsafasi va tarixining asoschisi **Avgustin Avreliy** (354–430) asarlarida rivojlantirilgan.

Avgustin insonni Xudoning marhamati bilan erkin irodaga (*liberum arbitrium*) ega bo'lgan mavjudot deb hisoblagan. Bu holat inson erkinligi uning huquqlari kabi hurmat qilinmog'i zarurligini anglatadi. Avgustin "Ilohiy shahar haqida" nomli asarida tinchlik, tinch-totuv yashash g'oyasini xalqning eng asosiy boyligi, qadriyati va huquqi sifatida ilgari surgan. Shu bilan birga, u huquqning ijtimoiy turmushning asosiy quroli tariqasidagi mavqeiga shubha bilan qaragan. U Sitseronning xalqni "huquqqa (*jus*) nisbatan rozilik va umumiy naf yo'lida birlashgan ko'plab odamlar" sifatida ta'riflaganiga qo'shilmagan va nafaqat Rim davlati, balki, umuman hech bir davlat hech qachon chinakam huquqni bilmagan¹, deb baralla aytgan. Avgustin majburlovni ham, quldorlikni ham o'zicha insoniylik mohiyatidan kelib chiqadigan narsa deb hisoblamagan va ularni insonning kufr ketishi, gunoh qilishi, gunohga botishining oqibati, xolos, deb bilgan. Ana shundan kelib chiqib, Avgustin hokimiyatning dunyoviy va diniy tarmoqlarga bo'linishi g'oyasini hamda ularning bir-birining ishiga aralashmaslik g'oyasini asoslab bergan².

Nasroniy huquqiy tafakkurning yana bir yorqin namoyandasi rohib **Foma Akvinskiy** (1226–1274)dir. Nasroniylikda o'ziga xos iz qoldirgan bu ilohiyotchi qadimgi dunyo mutafakkirlarining, eng avvalo, Arastuning siyosiy va falsafiy g'oyalarini qayta ishlash hamda ularni katolik cherkovi ehtiyojlariga moslashtirish yuzasidan juda katta ishlarni amalga oshirgan. Foma, tabiiy huquq jamiki jonli mavjudot uchun umumiy va mushtarakdir, deb hisoblagan. Bu huquq xohish-iroda bilan o'rnatiladigan huquq bilan mos bo'lmasligi ham mumkin. Shu sababli faqat o'z foydasi tashvishini qiladigan hokimiyatga qarshi xalq qo'zg'alishi va uni ag'darib tashlashi mumkin. Inson, agar qonun hujjatlari tabiiy huquq tamoyillarini buzadigan bo'lsa, bunday qonun hujjatlariga bo'ysuna olmaydi.

Oilani saqlab qolishning talab-ehtiyojlariga, tarbiyaga, odamlarning qadr-qimmatiga zid bo'lgan yo'l-yo'riqlarni Foma Akvinskiy qonun sifatida tan olmagan. Uningcha, pozitiv huquq, agar u tabiiy huquqqa zid bo'lmasagina, huquq bo'lishi mumkin bo'lgan³.

1 Майоров Г.Г. Формирование средневековой философии. – М., 1979. – С. 336.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 31–32.

3 O'sha joyda. – B. 32.

O'rta asrlarga kelib, g'oyalar endi o'zining normativ shaklini ola boshladi, unga birinchi hujjat sifatida, XIII asrda Angliyada parlamentarizmni rivojlantirishdagi anchagina o'zgarishlarga sabab bo'lgan hujjat – 1215-yilgi *Erkinliklarning buyuk xartiyasi (Magna Charta)*ni ko'rsatish mumkin. Mazkur hujjatda qonun ustunligi tamoyili e'lon qilingan hamda quyi tabaqadagilar (tujjorlar va dehqonlar) uchun muayyan erkinliklar, ma'murlarning bedodligidan himoyalaniishning huquqiy mexanizmlari nazarda tutilgan edi. Buyuk xartiyaning 39-moddasida shaxsning daxlsizligi kafolatlanib, unga ko'ra, erkin shaxsga jazo tayinlash, faqat mamlakat qonuniga asosan, tenglar tomonidan qonuniy hukmga asosan mumkinligi e'tirof etilgan. Shuningdek, 1555 yilda Augsburg tinchlik shartnomasida ham german feodal davlatlarida katolik va lyuteran mazhablariga oid shaxslarning tengligi aks ettirilgan edi.

O'rta asrlardagi inson huquqlariga oid g'oyalar va qarashlarning rivojlanishida o'sha davr mutafakkirlarining xizmatlari beqiyosdir. Shu bilan birga, yuqorida tilga olganimizdek, inson huquqlariga oid g'oyalar normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topishi, bu davrda inson huquqlari masalasi o'zining yangi bir bosqichiga ko'tarilganligini tasdiqlaydi.

Uyg'onish davrida shaxsning, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, jinsi va hokazolardan qat'i nazar, huquq subyekti sifatidagi maqomi to'g'risida ilgari mavjud bo'lmagan tushuncha yuzaga kelgan va shakllangan¹. Boshqa jihatdan qaraladigan bo'lsa, ayni Uyg'onish davrida nasroniy huquqiy falsafasida ilohiy qonunlarga nisbatan pastroq nazar bilan qarab kelingan qonun, huquq tushunchalari oqlangan va tiklangan².

Ana shu g'oyalarni florensiyalik mutafakkir va davlat arbobi **K. Salyutati** (1331–1406) asarlarida uchratamiz. "*Qonunlarning maqsadi, – deb yozgan edi u, – inson harakatlarini boshqarishdan iborat. Binobarin, ularning predmeti – bir ne'mat, lekin bu shunchaki ne'mat emas, balki, umum uchun kerakli, bizlarni yaxshilikka boshlovchi muqaddas ne'matdir. Birinchisi – tabiiy ne'mat bo'lib, uning uchun bizni maqtash o'rinsizdir*". "*Xalqning e'tiboriga yetkaziladigan qonunlar, – deb hisoblagan Salyutati, – xato va yanglishishlarni yo'q qiladi hamda xalqqa xos tabiiy oqillikni o'ziga jo etgan bo'ladiki, buni har qanday aqli salim kishi ko'radi yoki fikrlash va bahslashish asnosida aniqlab olishi mumkin*"³. Salyutati ko'klarga ko'tarib

1 Баткин Л.М. Итальянское Возрождение в поисках индивидуальностей. – М., 1989. – С. 5.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 33.

3 Гарен Э. Проблемы итальянского Возрождения. Изб. Работы. /Вступит. статья и ред. Л.И. Брагиной. – М.: 1986. – С. 53.

maqtayotgan qonunlar ma'naviy hayotning tamoyillari, ijtimoiy hayot, kishilik jamiyatining qalbidir, ular insoniy muloqotning bor go'zalligi bilan namoyon bo'lishida asos bo'lib qoladi.

*"Qonunlarni hech qachon yetarli darajada maqtamaydilar; ular dehqonlarni, shaharliklarni, boyu-badavlatlarni tizginlab turishdan tashqari, sudyalalar va magistratlarni cheklab va izmida tutib turadi, podshohlarni boshqaradi, sinorlar ustidan hukmronlik qiladi, imperatorlar uzra o'z hukmini namoyon etadi... kuchsizlarni kuchlilardan himoya qiladi, tenglar o'rtasida totuvlik va kelishuvni saqlab turadi..."*¹.

Biroq, ayni Uyg'onish davriga kelib, yuridik qonunlarga nisbatan boshqacha, tanqidiy munosabatlar ham yuzaga keldi, qonunlar olomonning o'ziga kerak, hukmdorlar va hokimlar uchun ular shart emas, degan fikrlar ham ko'rinib qoldi. Salyutatining shogirdi **L. Bruni** (1370–1444) ham ayni shunday nuqtayi nazar tarafdorlaridan biri edi. Bruni huquqning faqat majburlov jihatini ro'kach qilib, unga yaxshi, xayrli emas, balki nuqsonli narsa sifatida qaragan va uni o'rni hamda vaqtiga qarab o'zgarib turadigan serqusur narsa deb baholagan: *"Chunki, Ferrarada qoralanadigan narsalar ko'pincha Florensiyada qonuniy deb hisoblanadi"*².

L. Brunining zamondoshi **P. Brachholini** (1380–1459) huquq to'g'risida istehzo va kinoya bilan fikr bildirib, buyuk voqealar va xatti-harakatlar, asosan, alohida olingan bir inson irodasi ko'pchilikning qonunlarini barbod etgan taqdirda sodir bo'ladi, degan xulosaga kelgan³. *"Faqat past tabaqali va qora xalq sizlarning qonunlaringiz bilan bog'langan, huquq rishtalari faqat shundaylar uchun mavjud. O'z qadrini biladigan, donish kishilar qonunlarga muhtoj emas. Ular o'z tabiati va bilimiga ko'ra xayrli ishlarga va yaxshi xulq-atvorga moyil bo'lib, o'zlari uchun hayot qonunini ularning o'zlari belgilaydilar... Kuchli kishilar kuchsizlarga, yollanma xodimlarga, qashshoqlarga, dangasalarga, cho'ntagi quruq kishilarga moslashtirilgan qonunlarni rad etadilar va xohlagancha o'zgartiraveradilar... Haqiqatda barcha ulkan va xotirada saqlanib qoladigan qilmishlar adolatsizlik va zo'ravonlik tufayli, ya'ni qonunlarni buzish oqibatida sodir etilgan"*⁴.

1 Гарен Э. Проблемы итальянского Возрождения. Изб. Работы. /Вступит.статья и ред. Л.И. Брагиной. – М.: 1986. – С. 56.

2 Ракитская И.Ф. Леонардо Бруни Аретино (1370–1444) и политико-правовая мысль Кватроченто // Правоведение. – 1980. – № 5. – С. 105.

3 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 34.

4 Qarang: Гарен Э. Проблемы итальянского Возрождения. Изб. Работы. /Вступит. статья и ред. Л.И. Брагиной. – М.: 1986. – С. 55–56.

Umuman olganda, Uygʻonish davrining dastlabki paytlari mutafakkirlarining inson huquqlari boʻyicha gʻoyalari hamda Erkinlikning buyuk xartiyasi oʻrta asrlarning keyingi bosqichlarida Yevropada inson huquqlariga oid gʻoyalarning yanada rivojlanishiga va gʻoyalardagi inson huquqlarining meʼyoriy hujjatlarda mustahkamlanishiga hamda jamiyatning keng qatlami tomonidan qabul qilina boshlashiga katta turtki boʻldi.

3. Uygʻonish davrida inson huquqlarining rivojlanishi

Uygʻonish davrining navbatdagi bosqichida tabiiy huquq gʻoyasi yanada rivojlanib bordi va bu jarayon feodalizmning umumiy tangligi sharoitida kechgan. Bu holat jamiyatda feodalizm tartiblariga qarshi noroziliklarning kuchayishiga va ilgʻor gʻoyalarning keng tarqalishiga yordam berar edi. Shu bilan bir vaqtda, Yevropada tabiiy huquqning oqilona nazariyasi uzil-kesil shakllandi. Bu nazariya taniqli mutafakkirlar G. Grotsiy, B. Spinoza, J. Lokk, Sh. Monteske, D. Didro va boshqalarning asarlarida oʻz aksini topdi. Tabiiy huquq nazariyasi feodalizmni tanqid qilish hamda shaxs va davlat oʻrtasidagi munosabatlarda huquq hukmronlik qilishi zarurligini asoslash bilan, shaxs huquqlari va erkinliklari toʻgʻrisidagi yangicha tasavvurlari bilan feodalizmga qarshi qaratilgan va milliy-ozodlik yoʻnalishidagi inqiloblarni gʻoyaviy tayyorlashga va ularning natijalarini yuridik jihatdan mustahkamlashga katta ulush qoʻshgan. Xususan, davlat faoliyatining kelib chiqish manbai va huquqiy asosi sifatida ijtimoiy shartnoma konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega boʻlgan¹. *“Davlat, – deb yozgandi gollandiyalik huquqshunos G. Grotsiy (1583–1645), – erkin kishilar tomonidan qoidalariga rioya etishni va umumiy foydani koʻzlab tuzilgan ittifoqdir”*².

G. Grotsiyning vatandoshi faylasuf, **B. Spinoza** (1632–1677) “davlatning maqsadi aslida erkinlikdir”³ deb taʼkidlagan, soʻngra “har kimning fuqarolik holatidagi tabiiy huquqi tugamaydi”⁴, deb uqtirgan. Zotan, inson tabiiy holatda ham, fuqarolik holatida ham oʻz tabiati qonunlari boʻyicha harakat qiladi: oʻz foydasini koʻzlab, fikr yuritadi, qoʻrquv va umid izmida yashaydi. Insonni uning tabiiy huquqlaridan mahrum etish zulmga asoslangan boshqaruv usuliga olib boradi⁵.

1 Saidov A.X. Inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 48.

2 Гроций Г. О праве войны и мира. – М.: 1956. – С. 74.

3 Спиноза Б. Избранные произведения. Т.2. – М.: 1957. – С. 261.

4 Oʻsha joyda. – С.300

5 Saidov A.X. Inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 48.

Ingliz mutafakkiri **J. Lokk** (1632–1704) har kim fuqarolik manfaatlari: hayoti, sogʻligʻi, erkinligi taʼminlanishi, saqlanishi va amalga oshirilishi imkoniyatiga ega boʻlishi “hamda pul, yer, uy-joy, roʻzgʻor ashyolari va shu kabi tashqi neʼmatlarga egalik qilishi” uchun qancha vakolat zarur boʻlsa, davlat odamlardan xuddi shuncha vakolat oladi, deb hisoblagan. J. Lokkning fikricha, xalqning suvereniteti uning oʻzi tomonidan barpo etilgan davlatning suverenitetidan yuqoriroqdir. Shu sababli, zolim hukmdorlarga nisbatan xalq “arshi aʼlo”ga iltijo etishi va kuch qoʻllashi shart. “Bosh va buyuk maqsad” – hurriyat tuzumiga davlatdagi hokimiyat vakolatlarini teng taqsimlash yoʻli bilan erishish mumkinligi xususida Lokk aytgan fikr, ayniqsa, muhimdir¹.

Hokimiyatning tarmoqlarga boʻlinishi va bunday taqsimotning tamoyillari toʻgʻrisidagi gʻoya fransuz mutafakkiri **Sh.L. Monteske** (1689–1755) tomonidan qoʻllab-quvvatlangan va rivojlantirilgan. U oʻzining “Qonunlarning ruhi toʻgʻrisida” degan asarida shuni taʼkidlaganki, har bir davlatda hokimiyatning uchta tarmogʻi, yaʼni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati boʻlmogʻi lozim. Monteskening fikricha, “qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bitta shaxs yoki birgina muassasa timsolida birlashadigan boʻlsa, ozodlik va erkinlik boʻlmaydi, chunki ana shu hukmdor yoki senat zolimlikka asoslangan qonunlarni zolimona yoʻl bilan qoʻllash uchun yarataverishidan qoʻrqsa boʻladi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan ajratib qoʻyilmas ekan, bunda ham erkinlik boʻlmaydi. Agar sud hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan birlashgudek boʻlsa, fuqarolarning hayoti va erkinligi oʻzboshimchalik, bedodlik hukmi ostida qoladi, zotan, qonun chiqaruvchi uning, yaʼni sudyaning oʻzi boʻladi. Bordini, sud hokimiyati ijro etuvchi hokimiyat bilan birlashib ketadigan boʻlsa, sudyaning – zulm oʻtkazuvchiga, binobarin, zulmkorga aylanish ehtimoli yuzaga keladi. Ana shu uchala hokimiyat bitta shaxs yoki muassasa timsolida birlashadigan boʻlsa, hamma narsa halok boʻldi deyavering: hokimiyat qonunlar yaratadi, hokimiyat umumdavlat tusidagi qarorlarni ijro etadi va hokimiyat jinoyatlar ustidan hukm chiqaradi yoki xususiy shaxslar bilan sudlashadi”².

Tabiiy huquq nazariyasiga **J.J. Russo** (1712–1778) katta hissa qoʻshgan. Uning fikricha, tabiiy holatda barcha kishilar tengdir. Faqat sogʻliq holati va yoshiga koʻra tengsizlik mavjud, xolos.

Ijtimoiy tengsizlik, Russoning eʼtiqodicha, mehnat qurollarini takomillashtirish jarayonida, xususiyl mulkchilik va madaniyat yuzaga

1 Qarang: Lokk Дж. Избранные философские произведения. – М.: 1960. Т.2. – С. 116; История политических и правовых учений: Учебник/ Под ред. О.Э. Лейста. – М.: 1997. – С. 185–190.

2 Монтескье Ш. Избранные произведения. – М.:1955. – С. 289.

kelishi asnosida kelib chiqadi. Buning oqibatida boylar va qashshoqlarga bo'linish sodir bo'ladi. Shu munosabat bilan Russoning aytishicha, odamlar o'z huquqlarini boy bermaydigan va erkinliklarini saqlab qoladigan siyosiy tuzilmagina qonuniy va vakolatlidir. Uning mo'ljaliga ko'ra, ijtimoiy shartnoma davlat hokimiyatining asosidir. Bunday shartnoma amal qilganida har bir odam o'zini umum xohish-irodasining oliy rahbariyatiga bag'ishlaydi va bu bilan uning (xohish-irodaning) qatnashchisiga aylanadi, negaki, hokimiyat shartnoma qatnashchilaridan tarkib topadigan suveren ixtiyoriga o'tadi. Suverenitetning o'zi xalqqa tegishlidir. J.J. Russo xalqning zolimlarga qarshi o'zgarmas huquqi borligini e'tirof etgan¹.

Tabiiy huquq g'oyasini fransuz qomusiy allomasi **D. Didro** (1713–1784) ham qo'llab-quvatlagan. U ham insonga oliy qadriyat tariqasida qaragan. *“Faqat ikkita chin boylik mavjud, – deb ta'kidlagan edi u, – bu inson va zamindir”*². D. Didro ham davlat hokimiyatini ijtimoiy shartnoma mahsuli deb bilgan. *“Hech kimga tabiat boshqa kishilar ustidan hukmronlik qilish huquqini bermagan, – deb yozgandi u. – Erkinlik samoviy in'omdir va har bir shaxs undan aqlini ishlata boshlashi bilanoq foydalanish huquqiga ega”*. Tabiat hukmronligi xususida fikr yuritib, u shunday deb ta'kidlagan: *“... boshqa har qanday hukmronlikning kelib chiqishi tabiatga borib taqalmaydi”*³. Diqqat bilan, sinchiklab o'rganilsa, tabiat hukmronligining manbai hamisha quyidagi ikki holatdan biri ekanligi ayon bo'ladi: hokimiyatni o'zlashtirib olgan shaxsning zo'ravonligi va shafqatsizligi yoxud o'zlari tuzgan yoki tuzishni mo'ljallayotgan shartnoma bo'yicha muayyan shaxsga bo'ysunganlar bilan hokimiyat kimga ishonib topshirilgan bo'lsa, o'sha kimsa o'rtasidagi rozilikdan iborat.

Tabiiy-huquqiy tartib g'oyasidan feodal-mutlaq tuzumlarni oqlash uchun foydalanilganligini ham, albatta, aytib o'tish kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan, Germaniya tabiiy huquq nazariyasining yirik namoyandasi **S. Pufendorfning** (1632–1694) qarashlari ham ibratlidir⁴.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi to'g'risidagi ta'limot bilan chambaras bog'lanib ketadigan insonning bo'linmas, tabiiy huquqlari xususidagi nazariy tasavvurlar burjua inqiloblarni g'oyaviy jihatdan tayyorlashda juda muhim rol o'ynaganligidan tashqari, ilk burjua konstitutsiyaviy qonunchiligiga va davlat-huquq amaliyotiga ham katta ta'sir o'tkazgan.

1 История политических учений /Под ред. О.В.Мартышина. – М.: 1996. Вып.2. – С.61 – 74; Руссо Ж.Ж. Трактаты. – М.: 1990.

2 Права человека: Учебник-хрестоматия. /Под ред. А.Х. Саидов. – Т.: УМЭД, 2001. – С. 17.

3 O'sha joyda. – С. 18.

4 История политических и правовых учений: Учебник /Под ред. О.Э.Лейста. – М.: 1997. – С. 195–196.

4. Yangi davrda inson huquqlarining rivojlanishi va inson huquqlari avlodlarining shakllanishi

Yangi davrda inson huquqlarining rivojlanishi, uning normativ shakl kasb etishi va ko'proq shu asnoda rivojlanishi bilan ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu xususiyat esa, odatda, "Inson huquqlari" fanida "inson huquqlari avlodlari" nomi bilan mashhur. Ijtimoiy hayotning turli sohalari bo'yicha insonga tegishli bo'lgan moddiy huquqlarning turlarini inson huquqlari kategoriyalari sifatida tushunamiz. *"Qayd etish kerakki, – deydi K. Vasak, – inson huquqlari va erkinliklari inson hayotining turli sohalarini: shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini ta'minlab beradi. Shu munosabat bilan, ular guruhlar va nomlanish bo'yicha turlarga bo'linadi. Biroq, bu huquqlar nafaqat hayotiy faoliyatning turli sohalariga taalluqlidir, balki, ular paydo bo'lish vaqti bo'yicha ham farqlanadi. Shu yerdan esa – inson huquqlari avlodlari paydo bo'lgan"*¹. Demak, inson huquqlari avlodlari deganda, insonning muayyan huquqlarining unga tegishliligini va bu huquqlarning ta'minlab berilishi va ularga rioya etilishi lozimligi to'g'risida normativ-huquqiy hujjatlarda mustahamkamlana boshlanishi hamda ularni himoya qilish uchun huquqiy mexanizmlar yaratilishi bilan bog'liq davrlarni tushunamiz. Inson huquqlarining normativ-huquqiy asosda rivojlanib borishini bunday avlodlarga bo'lib o'rganish ularni tizimlashtirishga, mohiyati va huquqiy kuchini to'g'ri tushunishga imkon beradi. Shunga ko'ra, fransuz olimi K.Vasak inson huquqlarini uch avlodga bo'lish konsepsiyasini ilgari surgan edi².

Ushbu tartibga ko'ra, inson huquqlarining kategoriyalari quyidagi avlodlarga bo'linadi:

Inson huquqlari avlodlari		
1-avlod huquqlari (XVII asrdan boshlangan)	2-avlod huquqlari (XIX asr 2-yarmi va XX asr 1-yarmidan boshlangan)	3-avlod huquqlari (XX asrning 2-yarmidan boshlangan)
fuqarolik va siyosiy huquqlar:	iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar:	jamoaviy (kollektiv) huquqlar:

¹ Vasak K. A 30-year struggle //UNESCO Courier. – 1977. – Nov. – P. 19.

² O'sha joyda.

- yashash huquqi; - soʻz erkinligi; - fikr erkinligi; - aybsizlik prezumpsiyasi; - odil sudlovga oid huquq; - shaxsiy daxlsizlik huquqi; - eʼtiqod erkinligi; - saylash huquqi; - saylanish huquqi kabi taʼminlab berilishi lozim boʻlgan huquqlar.	- mehnat qilish huquqi; - mehnati uchun adolatli haq olish huquqi; - kasb tanlash huquqi; - dam olish huquqi; - taʼlim olish huquqi; - kasaba uyushmalariga birlashish huquqi; - ijod qilish huquqi; - ijtimoiy himoya huquqi; - madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kabi taʼminlab berilishi lozim boʻlgan huquqlar.	- tinch osmon ostida yashash huquqi; - toza atrof-muhitga boʻlgan huquq; - xalqlar va millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi huquqi; - kiber kenglikdagi axborotlardan foydalanish huquqi kabi jamoa boʻlib foydalanishi mumkin boʻlgan huquqlar.
---	---	---

Inson huquqlari bo'yicha birinchi avlod huquqlarining shakllanishi.

XVII–XVIII asrlarning inson huquqlarining rivojlanishi sohasidagi roli, bu davrda oʻziga xos birinchi avlod inson huquqlarining shakllanishidan iborat boʻldi. Yaʼni, mazkur davrda fuqarolik va siyosiy huquqlarga oid qonunchilik shakllana boshlandi. 1215-yilgi ***Erkinliklarning buyuk xartiyasi*** ham ushbu davrga kirsada, birinchi avlod huquqlarining boshlanishi 1642–1649 yillardagi ingliz inqilobi natijalari bilan bogʻlanadi. Chunki, ushbu inqilob natijasida inson huquqlarini taʼminlashga qaratilgan bir qancha muhim yuridik hujjatlar qabul qilingan. 1679-yilning 26-mayida “Raiyatning erkinligini eng yaxshi tarzda taʼminlash hamda dengiz ortiga surgun qilishlarning oldini olish haqida”gi hujjat (Habeas Corpus Act)¹ qabul qilinganligi oʻsha davrdagi eng muhim voqealardan biri boʻlgan. Mazkur hujjat sudgacha boʻlgan tartib-taomillarni izga solgan. Bunday tartib-taomilning asosiy maqsadi hibsdagi shaxsni sudgacha (dastlabki qamoqdaligida) himoya qilishdan iborat boʻlgan. 1679-yilgi hujjat har bir muayyan holatda sud tomonidan belgilanadigan pul garovini kiritishi mumkin boʻlgan “shaxs huquqlarini taʼminlovchi” murakkab yuridik mexanizmni uzil-kesil tartibga solgan. Mazkur hujjatga binoan hech kim sudning qarorisiz ushlanishi yoki hibsga olinishi mumkin emas².

1689-yil 13-fevralda Taʼsis parlamenti konvent Huquqlar deklaratsiyasini qabul qilgan, bu deklaratsiya oʻsha yilning kuzida ***Inson huquqlari toʻgʻrisidagi billga*** aylantirilgan. Bill, davlat organlari tizimida parlamentning mavqeini belgilab bergan edi. Bill, qonunchilik hokimiyati va moliya siyosati sohasida parlamentning ustunligini tasdiqlab berar ekan, birinchidan,

1 Международное сотрудничество в области прав человека: Документы и материалы. – М.: 1993. Вып. 2. – С. 72–79.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 55.

qonunlarning amal qilishini yoki ularning ijrosini parlamentning roziligi-siz to'xtatib qo'yishni; ikkinchidan, soliqlar va yig'implarning taxt egasi foydasiga parlamentning roziligisiz undirib olinishini g'ayriqonuniy deb e'lon qilgan. Bill, parlamentda so'z va muzokaralar erkinligini, parlamentga saylov erkinligini belgilab bergan. Billda ko'rsatib o'tilishicha, *"... qiroлга iltimosnoma bilan murojaat etish raiyatning huquqi bo'lib, bunday iltimosnoma uchun har qanday yo'sinda ushlab turish va ta'qib qilish qonunga xilofdir"*¹.

Huquqlar to'g'risidagi billning ayrim bo'limlari parlament faoliyatining huquqiy kafolatlariga taalluqli bo'lgan. Xususan, unda aytilishicha, "parlamentdagi so'z, muzokaralar erkinligi va unda sodir bo'layotgan jamiki narsalar ta'qib qilish uchun vaj yoki biron-bir sudda yoxud parlamentdan bo'lak bir yerda ko'rib chiqish uchun mavzu bo'lishi mumkin emas". Unda, shuningdek, haddan ziyod soliq to'lash, haddan ziyod jarima solish yoki shafqatsiz va g'ayriodatiy jazolar belgilash talabiga yo'l qo'yilmasligi ham nazarda tutilgan. Huquqlar to'g'risidagi bill, xolislar sudining huquqlarini anchagina kengaytirgan hamda xolislar sudi tarkibining hukumat tomonidan o'zboshimchalik bilan almashtirilishiga qarshi kafolatlarni belgilagan.

Birinchi avlod huquqlarining rivojlanishida, muhim va hal qiluvchi bosqichlardan biri Buyuk fransuz inqilobi bo'ldi. 1789-yil 26-avgustda inqilob girdobidagi Fransiyada olamshumul-tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan hujjat – **Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi** qabul qilingan. Unda aytilishicha, "odamlar erkin bo'lib tug'iladilar va huquq bobida erkin hamda teng bo'lib qolaveradilar. Ijtimoiy tafovut faqat umumiy foydaga asoslanishi mumkin" (1-modda)². Mazkur Fransuz deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati shundan iboratki, unda insonning borliq, tabiatning o'zidan kelib chiqadigan "tabiiy, ajralmas va muqaddas huquqlari" mavjud, deya e'lon qilingan. Fransuz deklaratsiyasida yana shu narsa ta'kidlandiki, "Har bir davlat uyushmasining maqsadi insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashdan iborat. Erkinlik, mulk, xavfsizlik hamda zulmga qarshilik shunday huquqlardir" (2-modda). 3-moddada "Suverenitetning manbai mohiyatan millatga asoslanadi. Birona ham korporatsiya, birona ham shaxs kelib chiqishi ayni ana shu manbadan bo'lmagan hokimiyatga ega bo'la olmaydi", degan qoida ta'riflab berilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Fransuz deklaratsiyasi mualliflari inson huquqlari muammosining ikki yoqlama xususiyati borligiga e'tibor

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 55.

2 Декларация прав человека и гражданина /Международное сотрудничество в области права человека. – М.: 1993. Вып. 2. – С. 84.

berganlar. Tabiat in'om etganligi sababli, inson huquqlari tabiiy huquqdir, shu sababli ular boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va binobarin, ular ajralmasdir. Ana shu huquqlarga tajovuz bo'lgan taqdirdagina, ularni himoya qilish zaruriyati yuzaga keladi. Tabiiy holatda bunday tahdid yo'q. Bunday tahdid inson fuqarolik jamiyatiga o'ta boshlagan paytdan e'tiboran yuzaga keladi. Shu sababli, inson huquqlarini hukmronlik qiluvchilardan va boshqa shaxslardan himoya qilish to'g'risidagi masalaning faqat jamiyat doirasida, bu jamiyat qabila, shahar yoki davlat ko'rinishida bo'lishidan qat'i nazar, ko'ndalang qo'yilishi o'rinlidir. Davlatning ravnaq topishi siyosiy ittifoq barpo etish va Konstitutsiyani tasdiqlash vositasida amalga oshiriladi. Zotan, asosiy maqsadi tabiiy huquqlarni ta'minlash bo'lganligi uchun ham, mazkur Konstitutsiya "siyosiy ittifoq" asoslariga zamin yaratadi¹.

Fuqarolik jamiyati doirasida inson huquqlarini himoya qilishning butun zalvorini ko'tarish qonunga yuklatilgan. Binobarin, Fransuz deklaratsiyasining 6-moddasida ta'kidlanganidek, ushbu qonun "umum xohish-irodasining ifodasidir". Shu sababli, barcha fuqarolar qonunni yaratishda shaxsan yoki o'z vakillari orqali qatnashish huquqiga ega. Qonun muhofaza etayotganligi yoki jazolayotganligidan qat'i nazar, hamma uchun bir bo'lmog'i kerak. Barcha fuqarolar qonun oldida teng va shu bois, qobiliyatlariga mutanosib ravishda barcha vazifa va mansab lavozimlarini egallash, ish, kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatidan teng bahramand bo'lmoqlari lozim. Ularning fazilatlar va qobiliyatlariga bog'liq tafovutlar bundan mustasno, albatta. Fransuz deklaratsiyasining 7-, 9-, 10- va 11-moddalari shaxs erkinligini, vijdon, so'z va matbuot erkinligini (yig'ilishlar va uyushmalarga birlashish erkinligi nazarda tutilmagan) tasdiqlab bergan; 13- va 14-moddalar soliqlarni erkin kelishuv asosida barcha fuqarolar o'rtasida teng me'yorlarda taqsimlash, ularni undirib olish tartibi hamda ulardan foydalanishni nazorat qilish qoidasini belgilab bergan; 15-moddada jamiyatning har bir mansabdor shaxsdan "boshqaruvning uning o'ziga ishonib topshirilgan qismi yuzasidan" hisobot talab qilish huquqi e'lon qilingan. 16-moddada ko'rsatilishicha, "huquqlardan foydalanish ta'min etilmagan va hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi amalga oshirilmagan jamiyatning Konstitutsiyasi bo'lmaydi". Oxirgi, 17-moddada e'lon qilinganidek, "mulk bo'linmas va muqaddas huquq bo'lganligi uchun ham undan hech kim qonunda shak-shubhasiz jamoat zarurati deb belgilanganidan hamda zarar-chiqimlarining o'rni adolatli tarzda va oldindan qoplanganidan bo'lak hollarda mahrum etilishi mumkin emas"².

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 56.

2 O'sha manba. – B. 57.

Inson huquqlari 1791-yilgi Fransiya Konstitutsiyasida ham mustahkamlab berilgan. Unda, xususan, ta'kidlab o'tiladiki, "qonun bundan buyon tabiiy huquq yoki Konstitutsiyaga zid bo'lgan diniy ahd, qasamyod qilishni ham, boshqa biron-bir majburiyatlarni ham tan olmaydi". Konstitutsiya quyidagi tabiiy va fuqarolik huquqlarini kafolatlagan:

1. Barcha fuqarolarning "ish joylari va lavozimlarni, ularning fazilatlarini va qobiliyatlaridan kelib chiquvchi tafovutlarni istisno etganda, biron-bir tafovutsiz erkin egallashi".

2. Soliqlarning fuqarolar o'rtasida "ularning qudratiga mutanosib ravishda" teng miqdorda taqsimlanishi.

3. "Biron-bir shaxsiy ixtilof va qarama-qarshiliklardan qat'i nazar, ayni bir xil huquqbuzarlik uchun ayni bir xil jazo bilan jazolanishi".

Konstitutsiya "tabiiy va fuqarolik huquqlari sifatida" quyidagilarning ta'minlanishini ham kafolatlagan:

har kimning "faqat Konstitutsiyada nazarda tutilganidan bo'lak tartibda ushlab turilishdan yoki hibsga olinishdan cho'chimay, bir joydan ikkinchisiga ko'chish, o'z joyida qolish yoki bu joyni tark etish" erkinligi;

har kimning "o'z fikrini e'lon qilingunga qadar oldindan hech qanday senzura qilinmay yoki tekshirishdan o'tkazilmay, og'zaki va yozma ifodalash, matbuotda chop etish va oshkora uzatish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan diniy e'tiqod rasm-rusumlari va ibodatlarini ado etish" erkinligi;

fuqarolarning "jamoat joylarida osoyishtalikni saqlagan holda va qurol-yarog'siz, politsiya qonunlariga rioya etgan holda yig'ilish" erkinligi;

"ayrim fuqarolar tomonidan imzolangan petitsiyalar bilan hokimiyatning belgilangan organlariga murojaat etish erkinligi".

*"Qonun chiqaruvchi hokimiyat, – deb ta'kidlangan Konstitutsiyada, – mazkur bo'limda sanab o'tilgan va Konstitutsiyada ta'minlangan tabiiy va fuqarolik huquqlarining amalga oshirilishiga monelik qiluvchi qonunlar chiqarishi yoki bu huquqlarni buzishi mumkin emas"*¹.

Fransiya Konstitutsiyasi, shuningdek, "mulk daxlsizligini hamda, agar qonun tomonidan belgilangan jamoat zarurati mulkiy qurbonliklarni taqozo etadigan bo'lsa, oldindan adolatli tarzda qoplab berilishi"ni ham kafolatlagan. Bu hujjatda yana shu narsa ko'rsatib o'tiladiki, "barcha fuqarolar uchun umumiy, qisman bepul, barcha odamlarga zarur bo'lgan xalq ta'limi ta'min etiladi va tashkil qilinadi..." hamda "butun qirollik uchun mushtarak fuqarolik qonunlari kodeksi chop etiladi".

1 Конституция 3 сентября 1791 г. //Права человека: Учебник-хрестоматия. /Под ред. А.Х. Саидова – Т.: УМЭД, 2001. – С. 155.

Inson huquqlari va erkinliklariga oid tasavvurlarning tadrijiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan 1793-yil 24-iyunda Milliy konvent tomonidan yangi Konstitutsiya bilan birgalikda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasiga alohida e'tibor berish to'g'ri bo'ladi. Mazkur Deklaratsiyaning 1-moddasida qayd etilishicha, "jamiyatning maqsadi umum baxt-saodatidir". Inson o'zining "tabiiy va ajralmas huquqlari"dan foydalanishini ta'minlash davlat hukumatining asosiy vazifasi sanaladi. "Bu huquqlarning mohiyati: tenglik, ozodlik, xavfsizlik, mulk" (2-modda). Ushbu Deklaratsiyada yana shu narsa bayon etilganki, "barcha odamlar tabiatan va qonun oldida tengdirlar" (3-modda) hamda "qonun hukmronlik qiluvchilar tomonidan bo'ladigan zulmga qarshi jamoat va shaxs erkinligini muhofaza etmog'i va qo'riqlamog'i lozim" (9-modda). Hujjatda "ozodlik" tushunchasi ham ochib berilgan: "Ozodlik boshqalarning huquqlarini kamsitmagan tarzda insonga hamma ishni qilish imkoniyatini berishdir; ozodlikni ta'minlash qonun demak..." (6-modda)¹.

Xulosa qilib aytganda, XVII–XVIII asrlardagi Yevropadagi voqealar, nafaqat Yevropani yangi sivilizatsiyaviy bosqichga olib chiqdi, balki shu bilan birga, insoniyatning davlatchilik paydo bo'lgan davridan beri muhim muammolaridan biri bo'lgan insonning tabiiy huquqlari hamda barchaning davlatni boshqarishda ishtirok eta olish huquqi kabi huquqlarini amaliyotga kiritish uchun huquqiy zamin yaratib berishni boshlagan davr sifatida tarixda qoldi. Ingliz Xabeas Korpus akti, Inson huquqlari billi hamda Fransuz Konstitutsiyasi va Deklaratsiyasi ana shu davrga qadar Yevropada shakllangan falsafiy va siyosiy tafakkurning eng ilg'or yutuqlariga tayanganligi hamda ingliz va fransuz inqiloblari yakunlarini o'zida mujassam etganligi tufayli inson huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish tarixida muhim bosqich bo'lib qoldi.

AQSh Konstitutsiyasi va inson huquqlari. Shimoliy Amerika mustamlakalarini ozod etish uchun olib borilgan muvaffaqiyatli kurash natijasida 1776-yil 10-mayda ularni Angliyadan ajratib chiqarish haqida qaror qabul qilingan. Shu munosabat bilan, T. Jefferson (1743–1826) boshchiligidagi besh kishidan iborat komissiya tuzilib, uning zimmasiga *Mustaqillik deklaratsiyasi* matnini tayyorlash vazifasi topshirilgan. Asosan T. Jefferson tomonidan yozilgan ana shu hujjat 1776-yil 4-iyulda qabul qilingan.

Mazkur Mustaqillik deklaratsiyasining tarixiy ahamiyati unda yangi davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari dunyoga kelganligi e'lon qilinganligidan tashqari, inson erkinliklarining umumfalsafiy tamoyillari yuridik jihatdan

¹ Декларация прав человека и гражданина 24 июня 1793 г. //Права человека: Учебник-хрестоматия. / Под ред. А.Х. Саидова. – Т.: УМЭД, 2001. – С. 164–165.

ta'riflab berilganligi bilan ham belgilanadi. Deklaratsiyada ta'kidlanishicha, quyidagi haqiqatlar kundek ravshan: barcha odamlar teng qilib yaratilgan va ularning barchasiga Yaratganning o'zi tomonidan ayrim ajralmas huquqlar, xususan, yashash huquqi, erkinlik huquqi va baxt-saodatga intilish huquqi in'om etilgan. Ana shu huquqlarni ta'minlash uchun odamlar o'rtasida hukumatlar ta'sis etilgan bo'lib, ular o'z izmidagilarning roziligiga tayangan holda adolatli hokimiyatni yo'lga qo'yadilar. Hukumatning bunday shakli ana shu ko'zlangan maqsad uchun halokatli tusga aylanayotgan bo'lsa, xalq uni o'zgartirish yoki yo'q qilish, nazdida uning xavfsizligi va baxt-saodatini imkon qadar ko'proq ta'minlay oladigan yangi hukumatni muayyan tamoyillar asosida va tashkiliy jihatdan ayni shu yo'sinda ta'sis etish huquqiga ega¹.

Yana bir muhim tarixiy hujjat – AQSh Konstitutsiyasining qabul qilinishi ham inson huquqlari rivojining yorqin qadamlaridan biri bo'ldi. 1787-yili qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasini tayyorlash va qabul qilish juda murakkab sharoitlarda kechgan edi. Mustaqillik uchun olib borilgan va 1783-yili nihoyasiga yetgan urush natijasida Amerika iqtisodiy va siyosiy jihatdan og'ir vaziyatga tushib qolgan. Bu vaziyat shtatlarning siyosiy aloqalarini mustahkamlashni hamda mamlakatning keskin ichki va tashqi muammolarini hal etishga qodir bo'lgan hukumat tuzishni taqozo etgan. Shu maqsadda 1787-yili Ta'sis konventi tuzilgan. Unga federal Konstitutsiyani ishlab chiqish topshirildi. Konstitutsiyaning Konvent tomonidan tayyorlangan loyihasini shtatlarning maxsus shu maqsad uchun saylangan konventlari ratifikatsiya qilishi lozim bo'lgan.

Biroq, loyiha keskin tanqid qilingan, xususan, ko'pchilik shtatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlari va erkinliklarining kafolati mavjud bo'lgani holda, mazkur loyihada huquqlar to'g'risida bo'lim (bill) yo'qligi tanqid ostiga olingan. Pirovard natijada, 1789-yili *Huquqlar to'g'risidagi bill* AQSh Kongressi tomonidan ratifikatsiya qilingan. 1791-yilning dekabriga qadar uni (Konstitutsiyaga birinchi o'nta tuzatish) shtatlar ratifikatsiya qilgan². Ushbu o'nta tuzatish yoki Huquqlar to'g'risidagi bill quyidagilarni o'z ichiga olgan edi:

Birinchi tuzatish cherkovning davlatdan ajratilganligini, diniy e'tiqod erkinligini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, "xalqning tinch yo'l bilan yig'ilishlar o'tkazish hamda suiiste'molliklarni bartaraf etish to'g'risidagi arznomalar bilan hukumatga murojaat etish huquqini" e'lon qilgan.

Ikkinchi tuzatish "xalqning qurol saqlash va olib yurish huquqi"ni tasdiqlaydi.

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 52.

2 Билль о правах //Конституции государств Американского континента: В 3 т. Т.3. – М.: 1959. – С. 245–254.

Uchinchi tuzatish tinch davrda qo'shinlarni xonadonlarga majburiy tartibda joylashtirishni taqiqlagan.

To'rtinchi tuzatish xalqning shaxsni, uy-joyini, qog'oz-yozishmalarni hamda mol-mulkni "asossiz ravishda tintuv qilinish yoki xatlanishdan" muhofaza qilishga bo'lgan huquqini belgilab bergan.

Beshinchi tuzatish "og'ir jinoyat yoki isnod keltiruvchi, sharmandali boshqa jinoyat uchun" javobgarlikka tortishda qonuniylikka rioya etilishini kafolatlaydi. Unda yana shu narsa ta'kidlanadiki, "hech kim qilgan ayni bitta jinoyati uchun o'z hayoti yoki tan daxlsizligi bilan ikki bora javob bermasligi lozim; hech kim jinoyat ishida o'ziga o'zi qarshi guvohlik berishga majbur qilinmasligi lozim; hech kim qonuniy sud muhokamasisiz hayotidan, erkinligi yoki mol-mulkidan mahrum etilmasligi lozim; hech bir shaxsiy mulk adolatli haq to'lanmay turib, jamoat foydalanishiga olib qo'yilmasligi lozim".

Oltinchi tuzatish "beg'araz va betaraf xolislarining oshig'ich va ommaviy sudi"ga bo'lgan huquq hamda ayblanuvchilarning shunga bog'liq huquqi kafolatlarini o'z ichiga olgan. Ularning orasida "ayblov xususiyatlari va sabablarini o'ziga ma'lum qilishni talab etish hamda unga qarshi guvohlik berayotganlar bilan yuzlashtirishni talab qilish huquqi bor; ayblanuvchi o'z guvohlari majburiy tarzda chaqirtirilishini talab qilishi va himoya uchun advokat yordamidan foydalanishi mumkin".

Yettinchi tuzatish "umumiy huquqqa asoslangan, da'vo qiymati yigirma dollardan oshuvchi sudlov ishlari bo'yicha" xolislar sudiga bo'lgan huquqni kafolatlagan.

Sakkizinchi tuzatish "shafqatsiz va g'ayriodatiy jazolar"ni taqiqlaydi, shuningdek, haddan ziyod katta garov talab etilmasligi va haddan ziyod katta jarima undirib olinmasligini kafolatlagan.

To'qqizinchi tuzatish "Konstitutsiyada muayyan huquqlarning aytib o'tilishi xalq tomonidan saqlanib kelayotgan boshqa huquqlarni inkor etish yoki kamsitish sifatida talqin etilmasligi lozim"ligini kafolatlagan.

O'ninchi tuzatish orqali e'lon qilinishicha, "Qo'shma Shtatlarning ushbu Konstitutsiyasida berilmagan hamda ayrim shtatlar tomonidan foydalanish taqiqlanmagan vakolatlar shtatlarning o'zi uchun yoki xalq uchun kuchini saqlab qolaveradi"¹.

Keyingi yillarda AQSh federal Konstitutsiyasiga yana bir qancha tuzatishlar kiritilgan (hammasi bo'lib, 27 tuzatish kiritilgan)². AQSh Konstitutsiyasi zahirida hokimiyatning tarmoqlarga bo'linish g'oyasi, federalizm

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 52–53.

2 Qarang: Соединенные Штаты Америки: Конституция и законодательные акты. – М., 1993.

tamoyili, shuningdek, Konstitutsiyaning oddiy huquqdan ustunligi yotganligi e'tiborga olinadigan bo'lsa, ayni AQShda jahonda birinchi bo'lib fuqarolik erkinliklari instituti o'zining eng mukammal va to'liq huquqiy ifodasini topgan¹.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ingliz Habeas korpus akti va Inson huquqlari billi, Fransuz deklaratsiyasi va AQShning Huquqlar to'g'risidagi billi hozirgi zamon inson huquqlari standartlarini shakllantirishda katta rol o'ynadi. Chunki, 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda mazkur Deklaratsiya qoidalarini rivojlantiruvchi boshqa xalqaro hujjatlarni ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan hujjatlarning normalari o'ziga xos retsepsiya qilindi. Shu o'rinda biz professor A.X. Saidovning quyidagi fikriga to'la qo'shilamiz: "...ana shu hujjatlarning qabul qilinishiga bashariyat sivilizatsiyasining bunga radar bo'lgan butun kechmish tarixi, huquqiy, diniy va falsafiy tafakkur taraqqiyoti asos solganligi kundek ravshan. Bunda, xususan, quyidagi omillar muhim rol o'ynagan:

- 1) yunon falsafasida tabiiy huquq g'oyasining yuzaga kelganligi;
- 2) Rim huquqida xalqlar huquqi g'oyasining rivojlantirilganligi;
- 3) sharq diniy-huquqiy tizimlarida inson huquqlari g'oyasining rivojlantirilganligi;
- 4) o'rta asrlardagi nasroniy va islom huquqida barcha odamlarning Xudo oldida tengligi g'oyasi tasdiq topganligi;
- 5) Amerika va Fransiya konstitutsiyalarida tenglik g'oyasi sekularizatsiya qilinganligi va inson huquqlari yuridik jihatdan rasmiylashtirilganligi"².

Inson huquqlari bo'yicha ikkinchi avlod huquqlarining shakllanishi. Inson huquqlarining "ikkinchi avlodi" bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va ishchilar (kasaba uyushmalari) harakati rolining oshishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar o'zining davlat-huquqiy ifodasini topa boshladi. XIX asrning yarmidan boshlab, qator Yevropa mamlakatlarida mehnat vaqtini kamaytirish, ish haqini oshirish, dam olish vaqti kabi ijtimoiy huquqlarni talab qilish boshlandi. Bunga birinchi o'rinda kapitalistik ishlab chiqarishning tobora rivojlanib borishining natijasi sifatida qaraldi. Yevropa mamlakatlarida mehnat qilish huquqi, munosib hayot sharoitiga bo'lgan huquq, ilm olish

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq.Darslik. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. - B.58

2 O'sha joyda. - B. 63.

huquqi va bir qator ijtimoiy kafolatlar: mehnat qobiliyatini to'la, qisman va vaqtincha yo'qotganda nafaqa olish, pensiya olish huquqi, ishsizlik nafaqasi va boshqa shu kabi huquqlar mustahkamlab qo'yilgan qator qonunlar qabul qilina boshlandi. XX asrning birinchi yarmida esa, bunday huquqlarga qator konstitutsiyalar, jumladan, 1919-yildagi Germaniyaning Veymar Konstitutsiyasi, 1931-yildagi Ispaniya Konstitutsiyasi, 1936-yildagi SSSR Konstitutsiyasi, 1937-yildagi Irlandiya Konstitutsiyasi va boshqalarda katta e'tibor qaratilgan edi¹. Shu bilan bir qatorda, bu sohalarda xalqaro shartnomalar tuzila boshlandi, ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tashkil topdi. Masalan, 1919 yilda Xalqaro Mehnat Tashkilotining tashkil topishi mehnat sohasida ko'plab xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishga yordam berdi. XX asrning yarmiga kelib esa, ikkinchi avlod huquqlari bo'lgan *iqti-sodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar* ko'plab demokratik davlatlarning kons-titutsiyalarida va qonunlarida o'z aksini topdi.

Inson huquqlari bo'yicha uchinchi avlod huquqlarining shakllanishi. Nihoyat, inson huquqlarining "uchinchi avlodi" – "hamjihatlik huquqlari" deb atalib, ular ko'proq davlat chegaralaridan chetga chiqib ketgan va jamoaviy xususiyatga ega, bunday huquqlar har bir insongagina taalluqli bo'lmasdan, balki, insonlarning guruhlariga, ya'ni, butun jamoaga tegishli huquqlardir. Ushbu xususiyati bilan ham, birinchi va ikkinchi avlod huquqlaridan farq qiladi. Oldingi avlod huquqlari esa, har bir insonga taalluqli bo'lgan huquqlar edi. Bu avlod huquqlari asosan Ikkinchi jahon urushining tugashi va BMTning tashkil topishi bilan boshlangan. Umumiy e'tirof etilgan qoidaga ko'ra bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof-muhitga bo'lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar. Uchinchi avlod huquqlari, avvalambor, xalqaro hujjatlarda aks ettirilishi bilan ham ko'proq ta'minlab beriladi.

Shuni qayd etish lozimki, globalizm davridagi yangi xavflarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda, inson huquqlarining yangi "to'rtinchi avlodlari" ham shakllanmoqdaki, ular yangi huquqlarning vujudga kelishiga va mavjud huquqlar turining o'zgarishiga hamda ularga rioya etilishi bilan bog'liq nazorat mexanizmlarining takomillashtirilishiga olib keladi. Ko'p tadqiqotchilar, to'rtinchi avlod huquqlari XXI asrda shakllanadi, deyishmoqda. Bu, birinchi navbatda, yangi axborot texnologiyalari bilan, qolaversa, tibbiyot, biologiya, genetika va qishloq xo'jaligidagi kashfiyotlar bilan bog'liq bo'lgan huquqlardir.

F.M. Rudinskiyning fikriga ko'ra, bu huquqlar insonni shaxsning genetik irsiyati sohasidagi eksperimentlar (imliy-amaliy tajriba va sinovlar), ya'ni, insonni klonlashtirish va biologiya sohasidagi boshqa kashfiyotlar

1 Права человека. Учебник /Отв. ред. Е.А.Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 474.

natijasida vujudga keladigan xavflardan himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan inson huquqlaridir¹. Biroq, boshqacha fikrlar ham mavjud. Masalan, Yu.A. Dmitriyev to'rtinchi avlod huquqlari o'z ichiga faqat axborot huquqi va texnologiyalarini qamrab olishini aytadi.

A.B. Vengerov esa, to'rtinchi avlod huquqlari sifatida insoniyat huquqlari (tinchlikka bo'lgan huquq, yadroviy xavfsizlik, kosmos, ekologik, axborot huquqlari va boshqalar)ni ko'rsatib o'tadi².

O.Yu. Malinova esa, o'zining "Inson huquqlari avlodlari: huquqiy g'oya va huquqiy institutlar rivojining asosiy bosqichlari" nomli o'quv qo'llanmasida "kelgusida – beshinchi yoki oltinchi avlod huquqlarining paydo bo'lishi"ni ko'zda tutadi³. U buni himoyatalab huquqlar korpusining ilojsiz kengayishi bilan asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari masalasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, hozirgi XXI asrda mavjud bo'lgan juda katta miqdordagi inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar bazasi va milliy qonunchilikni shakllantirdi. Demak, "Inson huquqlari" fani fan sifatida yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa-da, huquqlari va erkinliklari masalasi qadimdan g'oyalar va qarashlar kurashi davri hisoblanib, o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. Shuning uchun ham, ushbu fanni o'rganishda, uning tarixiy kelib chiqish shart-sharoitlari bilan birgalikda o'rganish inson huquqlari har bir kategoriyasining tub mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *"Inson huquqlari" o'quv fanining shakllanishi va rivojlanishining davrlarga bo'linishini izohlab bering.*

2. *Inson huquqlariga oid g'oyalar tarixiy rivojining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib bering.*

3. *Qadimgi Gretsiya va Rim mutafakkirlarining inson huquqlariga oid g'oyalar rivojlanishiga qo'shgan hissasini tushuntirib bering.*

4. *Rimning tabiiy huquq (ius naturae, ius naturale), xalqlar huquqi (ius gentium) va sivil huquqi (ius civile)ning mazmuni va ularning farqlarini qiyoslab bering.*

1 Рудинский Ф.М. Гражданские права человека: общетеоретические вопросы // Право и жизнь. – 2000. – № 31.

2 Венгерова А.Б. Теория государства и права: Учебник. – М.: 2004.

3 Поколения прав человека: основные этапы развития правовой идеи и правового института: Учебное пособие // Институт Уполномоченного по правам человека в субъекте РФ /Под ред. А.Ю. Сунгурова. – СПб., 2003. – С. 80–91.

5. O'rta asrlarda Yevropada nasroniylik dini ilohiyotchilarining inson huquqlari borasidagi g'oyalari va qarashlarini sharhlab bering.

6. O'rta asrlardagi inson huquqlariga oid dastlabki qonunlar va ularning ahamiyatini tushuntirib bering.

7. Uyg'onish davrida inson huquqlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlar asarlarida ko'tarilgan g'oyalarning mohiyatini qanday tushunasiz?

8. "Inson huquqlari avlodlari" tushunchasiga ta'rif bering.

9. Angliya "Habeas Corpus Act"i, Fransuz "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" va AQSh Konstitutsiyasiga qo'shimcha "Huquqlar to'g'risidagi bill"ning mazmuni va ularning inson huquqlariga oid hozirgi zamon huquqiy normalarining shakllanishida tutgan o'rnini tushuntirib bering.

10. Inson huquqlarining ikkinchi va uchinchi avlod huquqlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Билль о правах (десять поправок к Конституции США приняты в 1791 г. в целях обеспечения прав граждан и штатов)/Права человека: основополагающие принципы. – Вена, 1997.

2. Глушкова С.И. Права человека в России: теория, история, практика. Учебное пособие. – М.: Права человека, 2003.

3. История политических учений/Под ред. О.В. Мартышина. – М.: 1996. Вып.2.

4. История политических и правовых учений: Учебник/Под ред. О.Э. Лейста. – М.: 1997.

5. Nersesyan V.S. Huquq falsafasi. /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2003.

6. Общая теория права и государства: Учебник (Под. ред. В.В. Лазарева. – М.: Юрист, 1994.

7. Саидов А.Х. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Т.: ЖИДУ, 2001.

8. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: "Konsau-ditinform-Nashr", 2006.

9. G'afurov A., Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2012.

10. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek, huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2012.

3-mavzu. Sharq va inson huquqlari

1. Qadimgi Sharqda inson huquqlari.
2. Sharq mutafakkirlari inson huquqlari to'g'risida.
3. Islom ta'limotlarida inson huquqlari g'oyasi.

1. Qadimgi Sharqda inson huquqlari

Inson huquqlari masalasi to'g'risida bahs ketganda, uning beshigi qayerda, inson huquqlariga oid g'oyalar qayerda keng rivojlangan, bugungi kunda inson huquqlari masalasiga kim ko'p hissa qo'shmoqda, degan savollar va bahslar bu sohadagi g'arblik va sharqlik olimlar o'rtasidagi qizg'in tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham, bu sohadagi, ya'ni, inson huquqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bo'yicha yevropatsentrik (ya'ni, bu sohada Yevropa dastlab markaz bo'lgan va u yerdan tarqalgan) va osiyosentrik (ya'ni, bu sohadagi g'oyalar Osiyoda dastlab paydo bo'lgan va bu g'oyalarning keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan) qarashlar o'rtasidagi o'zaro ilmiy bahs-munozaralar hali-hamon davom etib keladi. Shu maqsadda, oldingi mavzuda inson huquqlariga oid g'arb dunyosi tomonidan erishilgan yutuqlar va ularning hissasiga to'xtalib o'tgan bo'lsak, ushbu mavzuda e'tiboringizni sharqning bu boradagi roliga jalb etamiz. Bunday taqqoslashdan maqsad, inson huquqlariga oid g'arbona va sharqona tushunchalarni qarama-qarshi qo'yish emas, balki, ularni o'zaro qiyosiy taqqoslash va o'zaro bog'liqlikda o'rganishdan iborat, xolos.

Yunon-Makedoniya, Rim, Vizantiya va Usmon imperiyalarida yevropaliklar ham, osiyolik va afrikaliklar ham yashagani bois, ular o'rtasida madaniy almashinuv jarayoni uzluksiz kechgan. Chunonchi, "g'arbiy" Rim huquqi "sharqiy" yahudiylar huquqiga, qolaversa, "g'arbiy" nasroniylar huquqiga ta'sir etgan, ana shu nasroniy huquq esa, mustamlaka bosqinlari davrida ko'pgina "sharqiy" huquqiy an'analarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shu sababli ham, inson huquqlari Sharqda qanday shakllanganligini tahlil etmay turib, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning kelgusi rivojini anglab olish qiyin¹.

Zardushtiylik dinida inson huquqlari. Qadimgi Sharqda inson huquqlari to'g'risida fikr yuritilganda, birinchi o'rinda zardushtiylik dini ning muqaddas kitobi "Avesto"ga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Inson huquqlari muammolari Markaziy Osiyoning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy

1 Batafsil qarang: Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: Inson va huquq. – T.: Adolat, 2005.

ta'limotlarida o'z aksini topdi. Bunga qadimgi va o'rta asrlardagi Markaziy Osiyoning diniy-falsafiy va huquqiy tizimlarining tahlili guvohlik bermoqda, xususan, e.a. VIII asrda paydo bo'lgan zardushtiylik dinini misol qilib olishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, bu din falsafasining markazida yaxshilik xudosi Ahuramazda va yomonlik xudosi Axriman o'rtasidagi kurash yotadi.

Zardushtiylikda markaziy o'rinlardan birini qonun, shartnoma va tanlash kategoriyalari egallaydi. Zardushtiylikning muqaddas kitobining uchdan bir qismini qonunlar tashkil etib, ularning maqsadi mukammal, barcha munosabatlarda uyg'unlashgan, gullab-yashnaydigan jamiyatni qurishdir.

Shartnomaga ishonch alohida qadriyat hisoblangan (shartnoma, og'zaki va yozma bo'lgan). Shuning uchun ham, zardushtiylikdagi asosiy xudolardan biri Mitra shartnoma xudosi bo'lganligi bejiz emas.

Shartnoma boshqalar hayotiga va mulkiga hurmat tamoyillariga rioya etish tushunchasi asosiga qurilgan bo'lib, u "Avesto"da markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Tabiiyki, fozil hukmdor nafaqat qonunga amal qilishi, balki, shu bilan birga, zo'ravonlikka ham yo'l qo'ymasligi kerak.

Zardushtiylik islomga qadar bo'lgan o'z rivojining necha ming yillik davrida o'ziga xos diniy-falsafiy tizim sifatida shakllandi hamda Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining aksariyati uchun huquqning universal manbai sifatida xizmat qilib keldi. Huquqshunos N.Safo-Isfixoniyning ta'kidlashicha, "qonun tushunchasi zardushtiylikning ilk bosqichlaridanoq uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Zardushtiylikka xos muqaddas kitobning uchdan bir qismi turli bosqich va sohadagi qonunga taalluqli edi", zardushtlarning "amaliy qonunlar"ni o'zida mujassam etgan muqaddas kitobi – "Avesto"ning maqsadi esa, "har jihatdan va hamma munosabatlarda uyg'unlikka erishiladigan, uyushgan, gullab-yashnayotgan jamiyat barpo etish"dan iborat bo'lgan. Zardushtiylik huquqining diniy xususiyatiga qaramay, etnik mansubligi, dini, yoshi, jinsi va qaysi tabaqaga mansubligidan qat'i nazar, shaxs huquqlari unda Rim huquqidan kam bo'lmagan darajada shakllangan va qaror topgan. Shu bois, tadqiqotchilar zardushtiylik qonunlari "odamlarning xohish-irodasi erkinligiga e'tibor beradi"², deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Huquqshunos olim A.G. Perixanyan zardushtiylik huquqida "xotin-qizlar emansipatsiyasining ayrim unsurlari"³ namoyon bo'lganligiga e'tiborni qaratadi. Ayol kishi shaxsiy mulk huquqiga ega bo'lib, uni xayriya maqsadlarida mustaqil tarzda ishlatishi, shuningdek, mustaqil tarzda

1 Safa-Isfahani N. Rivayat-i Hemat-i Asawahistan: A Study in Zoroastrian Law (Harvard Iranian Ser). – Cambridge, 1980. Vol. 2. – P. I.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B.36.

3 Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М., 1983. – С. 87.

da'vogarlik qilishi va guvohlik ko'rsatmalari berishi mumkin bo'lgan. Zardushtiylik huquqida nikoh, ahdlashuvchi tomonlar – nikohlanuvchilarni ikki taraflama tanlovining samarasi, deb hisoblangan va faqat shundan keyingina ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan¹ (shu bilan bir qatorda, bu narsa hozirgi kunda bo'lganidek, ota-onalar va vasiylar tomonidan majburlov hollari bo'lishini istisno etmagan). Nikoh shartnomalari muayyan muddatga, odatda, o'n yil muddatga tuzilgan, ana shu muddat tugaganidan keyin har ikki tomonning azmu qarori bilan nikoh yangidan tuzilgan. Oila monogam, ya'ni bir nikohli asosda qurilgan. To'g'ri, er o'z xotinini uning roziligisiz boshqa erkakka muvaqqat nikohga berishiga yo'l qo'yilgan, lekin bunda u xotini ana shu muvaqqat nikohdan orttirgan bolalarni ham o'zining qonuniy bolalari va vorislari deb e'tirof etishi shart bo'lgan². Bu hol, tabiiyki, er kishi uchun jiddiy tushov bo'lib xizmat qilgan.

Ayollarning huquqi, er sudda xotinini o'ziga bo'ysunmaganlikda, itoatsizlikda ayblagan taqdirda ham, inobatga olinavergan. Shuni ta'kidlash joizki, o'sha davrdagi boshqa diniy tizimlarda bo'lgani kabi, zardushtiylikda ham xotinning itoatsizligi, bo'ysunmaganligi eng og'ir gunohlardan biri, deb hisoblangan. *"Erining izmiga yurmaydigan, uning buyrug'ini bajarmaydigan ayolni xotin deb hisoblamaslik kerak"*, – deyiladi o'rta asrlarda yozib qoldirilgan forsiy nasihatlardan birida³. Shunga qaramay, bunday qilmish uch marta sodir etilib, sud tartibida ommaga e'lon qilingan taqdirdagina, er *"Itoatsizlik, bo'ysunmaslik to'g'risidagi rasmiy hujjat"*ni olar va shundan keyingina xotiniga nisbatan da'vo qo'zg'ashi mumkin bo'lgan. Ammo ana shunday bo'lgan taqdirda ham, ayol kishi o'ziga qo'yilayotgan ayblovni omma oldida rad etish va o'zining aybsizligini isbotlash huquqini saqlab qolgan. Aks holda u o'ziga tegishli bor mol-mulk erining foydasiga o'tib ketishiga qarshi hech narsa qila olmagan⁴.

"Avesto", – deydi S.G. Ganbarov, – *tug'ilgan va hali dunyoga kelmagan bolalarning huquqlarini qat'iy muhofaza etgan"*⁵. Voyaga yetmagan bolalarni ota-onasidan olib ketib qolish, ularni vasiyliksiz qoldirishga og'ir jinoyat

1 Ганбаров С.Г. Политические и правовые идеи в Авесте: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Баку, 1992. – С. 12.

2 Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М., 1983. – С. 87–88.

3 Изведать дороги и пути праведных: Пехлевийские назидательные тексты /Введение, транскрипция текстов, перевод, комментарий, глоссарий и указатели О.М. Чунаковой. – М.: 1991. – С. 84.

4 Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М.: 1983. – С. 88.

5 Ганбаров С.Г. Политические и правовые идеи в Авесте: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Баку, 1992. – С. 12–13.

sifatida qaragan¹. Bolalarni go‘dakligidanoq o‘qitish, ilmi qilish tavsiya etilgan. *“Agar o‘g‘ling bo‘lsa, – deyiladi “Adurbadning o‘gitlari”da, – uni bolaligidanoq maktabga ber, zotan, bilim ko‘z nuridir”².*

Garchi, o‘sha davrdagi boshqa dinlarda bo‘lgani kabi, zardushtiylikda ham quldorlik qoralanmagan bo‘lsa-da, zardushtiylik huquqiga ko‘ra, qul muayyan huquqlarga ega bo‘lgan. Ayrim hollarda u o‘z xo‘jayiniga qarshi da‘vo qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan. Ana shunday hollardan biri zardushtiylikning “Taqdir” kitobida eslatib o‘tilgan³.

Umuman olganda, zardushtiylik huquq manbai bo‘lib xizmat qilishdan tashqari, jamiyat hayotining huquq bilan bog‘liq barcha sohalarini o‘zida to‘liq jamlashga intilgan. Zardushtiylik dinining ana shu xususiyati uni yahudiylik (iudaizm) va nasroniylik bilan bir qatarga olib chiqqan. Shu bois, o‘z huquqiy tizimini yaratish u yoqda tursin, huquqiy munosabatlarga kirishishdan umuman o‘zini chetga oladigan majusiylar – gnostiklar, buddaparastlar va manixeylardan farqlash uchun zardushtiyalar, yahudiylar va nasroniylarni musulmon ilohiyotchilari “qonun kishilari” (aftidan “o‘z qonunlari bor kishilar”) deb hisoblashlari bejiz emas. Gnostiklar, buddaparastlar va manixeylar o‘z huquqiy tizimlarini yaratishga intilmaslik bilan birgalikda, umuman, huquqiy munosabatlarga kirishishdan o‘zlarini olib qochganlar, buni faqat zarurat bo‘lgan hollardagina bajarganlar⁴.

2. Sharq mutafakkirlari inson huquqlari to‘g‘risida

Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o‘tmaganlar. Somoniylar davrida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar va o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ular o‘z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga, qimmatli g‘oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to‘g‘risida ham o‘z fikrlarini yozib qoldirganlar.

Inson huquqlari g‘oyasi diniy va huquqiy asarlardagina emas, falsafiy tafakkurning eng sara mevalarida ham o‘z aksini topgan. Markaziy Osiyoning eng yirik mutafakkirlaridan biri **Abu Nasr Forobiy** (873–950) o‘zining “Fozil odamlar shahri” degan asarining “Fozillar shahri hokimining fazilatları”

1 Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М.: 1983. – С. 248.

2 Изведать дороги и пути праведных: пехлевийские назидательные тексты /Введение, транскрипция текстов, перевод, комментарий, глоссарий и указатели О.М. Чунаковой. – М.: 1991. – С. 78.

3 Периханян А.Г. Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды. – М., 1983. – С. 37.

4 Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: Inson va huquq. – T.: Adolat, 2005. – B. 31.

bo'limida "Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi, avvalo, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zodidagi nuqson xalal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. Ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi va shu sohadagi umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur. To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur. Oltinchidan, u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur. Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur. Sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur. To'qqizinchidan, u o'z qadrini biluvchi va ornomusli odam bo'lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma olihimmat bo'lish va ulug', oliy ishlarga intilishi zarur. O'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. O'n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi, haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur. O'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur"¹.

Forobiy taklif etayotgan ushbu o'n ikkita xislat bir odamda jamlanishi qiyin va kamdan-kam uchraydigan holat bo'lgani uchun ham, uning kitobida bunday xislatlarning to'liq barchasiga ega bo'lmagan bo'lsa ham, "... unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql

1 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. – B. 159–160.

va zakovatda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi”¹, deb ko‘rsatiladi.

Ulug‘ olim o‘z fikrini yanada rivojlantirib, avvalgi fozil hokim o‘rniga kelishi mumkin bo‘lgan hokim (imom)da quyidagi olti fazilat bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi:

“Birinchi – donishmandlik.

Ikkinchi – avvalgi imomlar o‘rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirasida yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilish uchun quvvai hofizaga ega bo‘lish.

Uchinchi – agar avvalgi imomlar davridan biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo‘lsa, bunday qonunni o‘ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo‘lish.

To‘rtinchi – hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko‘zda tutmagan voqealarni oldindan ko‘ra bilish uchun bashoratgo‘ylik xislatiga ega bo‘lish. Bu xislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo‘lida kerak bo‘ladi.

Beshinchi – avvalgi imomlar o‘rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilardan ibrat olib, o‘zi to‘qib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg‘in so‘zlash – notiqlik xislatiga ega bo‘lishi.

Oltinchi – zarur hollarda harb ishlariga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo‘lish; ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jangu jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san‘atni yaxshi bilish”².

Forobiy o‘zining fozil inson to‘g‘risidagi ta’limotini rivojlantira borar ekan, mamlakatni jamoaviy boshqarish masalasini ham ilgari suradi. Ya’ni, qayd etilgan xislatlar bir kishida emas, bir necha kishida mavjud bo‘lgan taqdirda, jamoaviy boshqaruv maqsadga muvofiq, degan fikrni bildiradi: *“Mabodo shu xislatlarning barchasini o‘zida jamlagan bir odam topilmasa, lekin ikki kishi birgalashib, shu xislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni, biri – donishmand, ikkinchisi – qolgan xislatlar sohibi bo‘lsa) shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo‘yish zarur. Mabodo, bir guruh odamlar birgalikda ana shunday xislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa xislatlar bo‘lsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo‘yish zarur. Shu guruh a‘zolari birgalashib, o‘zaro kelishib harakat qilsa, har biri fozil hokim bo‘lishi mumkin. Mabodo, biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur*

1 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. – B. 160.

2 O‘sha joyda. – B. 160–161.

xislatlar bo'lsa-yu, ammo donishmandlik bo'lmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunda shahar halokatga yuz tutadi"¹.

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy merosi juda boy bo'lib, u o'zining bir qator asarlarini muhim ijtimoiy masalalarga bag'ishlagan. Mutafakkirning jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat haqidagi g'oyalari va qarashlari uning "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Urush va tinch turmush haqida kitob", "Jamiyatni o'rganish haqidagi kitob", "Davlat arbobining hikmatlari", "Ilmlarni tasniflash va ular tartibi haqida kitob", "Fozil shahar aholisining maslagi haqida kitob", "Fozil, johil, fosiq, o'zgartirilgan va adashganlar shaharlari haqida kitob", "Shaharlar xususida siyosat yuritish", "Siyosat haqida to'plamlarning qisqacha kitobi" kabi asarlarida o'zining chuqur ifodasini topgan. "Ilmlarni tasniflash va ular tartibi haqida kitob"ning shaharga taalluqli fan (yoki shaharni boshqarish haqidagi, ya'ni, siyosiy yoki siyosat haqidagi fan), huquqshunoslik va kalom (islom aqidalari)ga bag'ishlangan "Ilmi madaniyat" nomli V bo'limida axloq, tarbiya va davlat boshqaruvi masalalari bayon etilgan.

Abu Nasr Forobiy ko'pincha siyosat fani to'g'risida emas, balki, oliy hokimiyatni boshqarish san'ati (qadimgi yunonlar siyosat – "politika") deganda, davlatni – "polisni" boshqarish san'atini tushunganlar haqida gapiradi, zero, uning fikricha, oliy hokimiyat, oliy hukmdor davlatning ijodkori bo'lib, uning faoliyatini yo'naltirib turadi. Shu bois, u ko'proq davlatni boshqarishning umumiy (universal) qonunlarini ishlab chiqadigan siyosat haqidagi fan to'g'risida emas, balki, davlat arbobi oldida turgan maqsadni hayotga joriy etishda va baxtga erishish uchun sharoit yaratishda ifodalanuvchi "davlatni boshqarish san'ati"; "boshqaruv san'ati" haqida yozadi.

Abu Nasr Forobiy o'zining siyosiy idealidan kelib chiqib, ushbu fikrga aniqlik kiritadi. U boshqaruv san'atini har bir kishi va ijtimoiy guruhning o'z tabiiy maqsadiga mos tarzda, uyg'un rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat, deb hisoblaydi. Arastu, kishilar birligining eng oliy shakli – fuqarolardan iborat polis (shahar), deb hisoblagan. Arastudan boshqacha sharoitlarda, ya'ni o'rta asrlardagi "kosmopolitik" tafakkur sharoitida yashagan Abu Nasr Forobiy kishilar birligining ancha yuksak shakllari – xalq, insoniyat haqida yozgan va davlat boshqaruvining shaklini fuqarolardan mustaqil, oliy va suveren, deb tasavvur qilgan.

Abu Nasr Forobiy siyosat haqidagi fanda ikkita asosiy siyosiy maqsadni qo'yadi: birinchisi – ideal hukmdorga ega bo'lgan fozil davlat qurish; ikkinchisi – barcha xalqlar va barcha zamonlar uchun yaraydigan ijtimoiy tu-

1 Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1993. – B. 160–161.

zum yaratish. Bu uni Aflotun bilan yaqinlashtiradi, uning siyosiy g'oyalariga mavhum, xayoliy tus beradi. Abu Nasr Forobiy tasnifida ijtimoiy fanlarning tarkibiy qismini huquqshunoslik va aqidaviy ilohiyot tashkil etadi. X asrda islom huquqi tarixi, musulmon olimlarining fikricha, o'zining eng muhim "chegara ustuni"ni o'rnatdi: Qur'on va hadislarni talqin etish asosida mustaqil va hadsiz huquq ijodkorligi davriga chek qo'yildi; huquq ijodkorligi sohasidagi eski manbalar eng to'g'ri qonun darajasiga ko'tarildi. Fiqhni Abu Nasr Forobiy ikki qismga bo'ladi: *birinchidan*, barcha masalalar bo'yicha huquq ijodkorligi erkinligini tan oladigan va asoslaydigan fiqh; *ikkinchidan*, islom dinining asoschisi tasdiqlagan qarashlar va xatti-harakatlarga rioya qiladigan va ularni huquq ijodkorligining asosi deb qabul qiladigan aqidaviy ilohiyot. Uning fikricha, ushbu qismlarning ikkalasi birgalikda islom huquqini tashkil etadi.

Forobiy asarlari XII asrda Toledo tarjimonlik maktabida va Ispaniyaning boshqa shaharlarida XII–XIV asrlarda lotin va yahudiy tillariga o'girilgan. Olimning ilmlar tasnifi haqidagi risolasi XII asrdayoq lotin tiliga ikki marotaba tarjima qilingan, keyinchalik esa, bir necha bor ko'chirib tarqatilgan. Bu davrda Abu Nasrning "Aqlning mazmuni", "Baxt-saodatga erishish haqida risola", "Masalalar manbai", "Isbot kitobi" kabi bir qator asarlari lotin hamda yahudiy tillariga tarjima qilingan. Toledoda kansler Raymundo to'plagan Herardo, Dominik Gundesalinus, sevilyalik Xuan, olmoniyalik Herman kabilar Abu Nasr asarlarining tarjimonlari bo'lganlar.

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy merosi juda boy bo'lib, u o'zining bir qator asarlarini muhim ijtimoiy masalalarga bag'ishlagan. Xususan, allomaning tabaqalarga bo'lish va diniy mutaassiblik hukmron bo'lgan davrda siyosat haqidagi fanning vazifasiga ideal jamiyat va davlatni o'rganishni kiritishi, shubhasiz, taraqqiyparvar va jasoratli qadam bo'lgan. Uning fan oldiga muayyan narsalar bilan belgilangan umumiy qonunlarni o'rganish va aniqlash vazifasini qo'yishi juda muhim yangilik edi.

Abu Nasr Forobiyning o'z davrining vakili sifatida boshqaruvning avloddan-avlodga meros bo'lib o'tuvchi monarxiya hokimiyati shaklini tan olganligi, ammo uning podsho ma'rifatli va komil inson bo'lishi kerak, degan fikri ushbu qoidaning amal qilishini toraytiradigan fikrdir.

Forobiy asarlari Sharqning boshqa allomalari, ayniqsa, Ibn Sino, Ibn Ro'shd asarlari bilan bir qatorda, o'rta asrlar Yevropasida keskin tus olgan mafkuraviy kurashda har ikkala tomon vakillari uchun g'oyaviy qurol bo'lib xizmat qilgan. Shu bois, allomaning ta'limotini o'rganish, bebaho g'oyalarini to'g'ri tushunish, asarlarida belgilangan maqsad-muddaosini anglash uchun

mazkur manbalarni yaxshi bilish, yodda tutish va Abu Nasr Forobiy ijodi bilan tanishish jarayonida ularni inobatga olish lozim¹.

Sharq renessansining yana bir yirik namoyandasi **Abu Ali ibn Sino** ham o'z asarlarida adolat, insonparvarlik tushunchalariga keng to'xtalib o'tar ekan, bunday masalalarga bag'ishlangan fanlar tasnifini berib, falsafani ikki qismga, ya'ni: nazariy va amaliy qismlarga ajratadi. O'z navbatida, falsafaning amaliy qismini uchga bo'lib, shulardan ikkitasida, xususan: a) inson haqidagi ilm va b) insonlarning o'zaro munosabatlari haqidagi ilm qismlarida inson to'g'risidagi ilmlar haqida so'z yuritadi. "Risolatu tadbiri manzil" asarida Ibn Sino insonning shaxsiy talab-ehtiyojlari, ularni qondirish usullari, insonning jamiyatda tutgan o'rni va vazifalari bilan bog'liq masalalar to'g'risida fikr yuritadi. U inson huquqlari va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar zarurligini va qonunshunoslar ularga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini berishlari lozimligini aytadi.

Ibn Sino jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizliklarni qoralaydi, norozilik bildiradi. U hukmdorlar, amiru beklarni insof va adolatga chaqirar ekan, birinchi o'ringa insonni, uning huquq va erkinliklarini qo'yadi. Alloh oldida barchaning teng ekanligini ta'kidlab, u har qanday jamiyat, davlat adolatni himoya etuvchi huquqiy qonunlar asosida idora etilishini talab qiladi.

U "Ishorat va tanbihat" asarida insonning shaxsiy talablari orasida uning mehnat qilish huquqidan foydalanish, shaxsiy daxlsizligi, diniy e'tiqodi singari huquqlari to'g'risidagi fikrlarni bayon qilgan².

Abu Rayhon Beruniyning insonparvarlik va adolatlilik to'g'risidagi g'oyalari. Beruniyda xalqparvarlik, vatanparvarlik, izchil insoniylik, haqiqiy ilmiy qarash va xulosalash uzviy ravishda chambarchas bog'liq. Bu uning oliyanob xislati va fazilatidir.

Beruniy "Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va uning ahvoli, uning yerdagi burchi, oliyanobligi, shuningdek, jamiyatning paydo bo'lishi, tillarni o'rganishning muhimligi, iqtisod, axloq va odob to'g'risida qimmatli fikrlarni bayon etgan. U ushbu asarida ijtimoiy adolat to'g'risida fikr yuritadi. *"Mag'ribning uzoq o'lkalarining birida yashaydiganlar haqida hikoya qilishlaricha, u yerlarda o'lkani idora qilish a'yonlar va yer egalari o'rtasida navbatma-navbat bir-biriga o'tib turarmish, kimga navbat kelsa, o'sha uch oy hukm yuritarmish. Muddati tugashi bilan o'z-o'zidan o'lkani idora qilish amalidan tushib, minnatdorchilik uchun sadaqa berar va o'z ahli*

1 Qarang: O'zbekistonda huquq fanini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari: Ilmiy maqolalar to'plami / Mas'ul muharrir prof. U. Tadjixanov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – B. 78–84.

2 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston., 1997. – B. 42.

*orasiga qaytar, bu bilan u go'yo kishandan bo'shaganday xursand bo'lar va o'z ishi bilan band bo'lar emish. Bu shuning uchunki, idora qilish va boshqarish rohatdan mahrum bo'lish, degan so'zdir. Bunda u o'sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qilaman, deb holdan toygan bo'ladi. Bu degan so'z, ularni qo'riqlash (u yer egalarini) ... mol-mulki, hayotini himoya qilaman, deb tinkasini quritish deganidir"*¹.

*"Odamlardan, – deb o'z so'zini davom ettiradi Beruniy, – u (hokim) uchun yig'iladigan to'lov pullari ham mahalla qorovuliga beriladigan haq misolidir, bu xuddi yo'lovchilar karvonboshi bo'lgan kishining mahorati va darajasining qadriga yarasha unga o'zaro pul yig'ib berishiga o'xshashdir. Uning vaqti o'tishi bilan bularning hammasi tugaydi. Har bir zamonning o'ziga xos odatlari bor. O'z ahli orasida bularga rioya qilish kerak, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi"*².

Ushbu parchadan ma'lum bo'lishicha, Beruniyning mamlakatni demokratik usulda idora qilish tushunchasi qadimgi davrdagi Afina, O'rta Osiyo va Shimoliy Italiya shaharlarida ko'ringan davlat tuzilishini o'rganish tufayli hosil bo'lgan, desa bo'ladi³.

Ijtimoiy tengsizlik g'oyasi Beruniy qarashlarida insonning shaxsiy huquq va erkinliklari g'oyasi bilan bog'liq ravishda asoslab beriladi. Bunda insonning shaxsiy huquq-erkinliklarga ega ekanligidan uning jamiyat hayotining iqtisodiy-siyosiy va madaniy sohalarida teng huquqlilik asosida faoliyat ko'rsatishi zarurligi nazarda tutiladi.

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiylik, axloq va odobning asosiy masalalari bo'yicha qarashlari insoniylik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. U xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yoqlab, hukmdorlarning o'zaro urushlariga qarshi chiqadi. Uning ijtimoiy qarashlari markazida inson, insoniy jamiyat turadi.

Beruniyning "Oq kiyimliklar" va karmatlar haqida hikoyalar"i, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya" kitobiga so'z boshi, "Mineralogiya" kitobiga kirish so'zi, "Hindiston" kabi asarlaridagi falsafiy qarashlari inson va uning jamiyatdagi roli, mehnati, kasbi, bilimi, ijtimoiy rivojlanishi kabi masalalarga qaratilgandir.

Beruniy xalqlar orasidagi do'stlikni ta'riflab, bu do'stlikka raxna soluvchi milliy va irqiy cheklanishlarni tanqid qiladi. U podshohlarning bosib olgan mamlakatlar madaniyatini toptaganliklariga dalillar keltiradi. Masalan, Doro

1 Бируни. Минералогия. – М.: 1963. – С. 30.

2 O'sha joyda.

3 To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy: ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1992. – B. 16.

ibn Doro xazinasida “Avesto” kitobining 12 mingta qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasigina bor edi. Iskandar uni kuydirib yuborishi natijasida kitobning 3/5 qismi butunlay yo‘q qilingan. Bu dalil ayrim shohlarning inson mehnatiga va ilm ahlining ijodiga yovuzona munosabatini tasdiqlaydi¹.

Amir Temurning “Temur tuzuklari”da adolat to‘g‘risida fikr yuritilishi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur tarix sahifalarida, nafaqat jangu-jadallar orqali 20 dan ortiq davlatlarni birlashtirib, buyuk saltanat barpo etgan ulug‘ sarkarda sifatida, balki, oqil va adolatparvar davlat boshlig‘i sifatida ham o‘chmas nom qoldirgan. Uning “Kuch adolatdadir” degan bosh g‘oyani ilgari surishining o‘zi ham, Amir Temur birinchi galda adolatli boshqaruvga asoslangan davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olganligidan dalolat beradi. Amir Temur saltanatni idora qilish to‘g‘risidagi tuzugida aytadiki, “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e‘tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta‘zim bajo keltirdim va hurmatladim. Ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlarni va bolalarini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo‘l berdim. Raiyatini o‘zimga qaratib oldim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafs yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larini va sharaf-e‘tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo‘lini to‘sdim”². U yana, “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak”³, deb ta‘kidlaydi.

“Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo‘lsa, ularning roziligi bilan ish tutsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig‘sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘sinlar”⁴. Amir Temurning bunday adolatli, insonparvar siyosat yuritishi mamlakatning ham siyosiy, ham iqtisodiy va ham ijtimoiy jihatdan kuchayishiga va o‘z davrining eng qudratli saltanati darajasiga ko‘tarilishiga yordam berdi.

1 To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy: ruhiyat va ta‘lim-tarbiya haqida. – T.: O‘qituvchi, 1992. – B. 78.

2 Temur tuzuklari. /Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarj.; B. Ahmedov tahr. ostida. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashr., 1996. – B. 119.

3 O‘sha joyda. – B. 122.

4 O‘sha joyda. – B. 123.

Alisher Navoiy asarlarida odillik xususida fikr yuritilishi. Buyuk mutafakkir shoir o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida, Iskandar misolida bir ideal shohni tasvirlab, uning tilidan o'z siyosiy va ijtimoiy g'oyalarni ifodalaydi. Uningcha, insonlar haq-huquqlarini oyoq osti qilishga zulmu sitam va adolatsizlik sabab bo'ladi. Iskandar uning shohlik vazifasini qabul qilishga rozilik berishini so'rab kelgan xalq namoyandalarga odil sulton quyidagi sifatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Birinchidan, davlat arboblari tomonidan raiyatga zulmu sitamning oldini olish, ikkinchidan, yo'llar xavfsizligini ta'minlab, qaroqchilar guruhiga barham berish, uchinchidan, o'g'rilar va ulus mulkiga ko'z olaytiradiganlarning damini qonun-qoidalar orqali to'sish, to'rtinchidan, yaratguvchining buyrug'iga binoan, har doim millat tomonida bo'lib, ularni himoya qilish, beshinchidan, zolimlar elgini xalq yoqasidan uzib, ularning osoyishtaligini ta'minlash¹.

Alisher Navoiy "Hayratul-abror" asarining uchinchi maqolatini sultonlarga va ular tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan adolat va insofga bag'ishlaydi. U sultonga xitob aylab, insoniy jihatdan u bilan oddiy fuqarolar orasida hech qanday farq yo'qligini ta'kidlaydi. O'sha davrda insonlar uchun chin ko'ngildan qayg'urib, ularning huquqini himoya qilish uchun iqtidorli shohlarga qarab, "Ey, sulton, sen ham oddiy odamlar kabi qora tuproqdan yaratilgansan. Ko'rmaysanmi, badaningdagi barcha a'zolaring, surating ham va moddiy mohiyating ham, oddiy insonlarnikidan farqi yo'q, shuning uchun ham inson sifatida ular bilan tengsan va ulardan hech qanday afzallikka ega emassan", deb, sultonni adolat va insofga chorlaydi. Alisher Navoiy sultonni shariat qonunlarini tatbiq etish orqali odamlarga xizmat qilishga targ'ib etadi. U, insonlarning ijtimoiy o'rni, mansab va rutbasidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lishini istaydi. Uchinchi maqolatining oxirgi qismida sulton Husayn Boyqaro bir kampir ayolning da'vosi asosida, u bilan sudga borib, qozi huzurida turgani haqida hikoyat qiladi².

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy Temuriylar davri fani va madaniyatining yirik va ilg'or vakillari sifatida o'zlari qoldirgan barhayot asarlar bilan jahon tamadduniga katta hissa qo'shib o'tganlar.

Turkistonda jadidchilik. Sharq mutafakkirlari to'g'risida, ularning inson huquqlari, demokratiya masalalariga oid g'oyalari to'g'risida fikr yuritganimizda jadidchilarning faoliyatiga, ularning asarlarida ko'tarilgan Turkistonda yangicha boshqaruv shakllari, demokratik islohotlar to'g'risidagi fikrlariga alohida to'xtalib o'tish lozimdir.

1 Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: Inson va huquq. – T.: Adolat, 2005. – B. 195.

2 O'sha joyda. – B. 196.

Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Turkistondagi mustamlakachilik siyosati, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, o'lkaning jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongdagi turg'unlik jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasini o'rganish orqali, bunday mushkul vaziyatdan qutulish yo'llarini izlashga undadi. Vujudga kelgan muammolarni hal etishdagi dastlabki yo'l sifatida ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi.

Turkistonni yangi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan kuchli qilish va rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib olgan jadidlar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Turkistonning eng ilg'or qatlami edi. Ular ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zgalarni ham shunga da'vat etdilar. Jadidlar xorijga chiqib, turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'rish bilan birga, ularni taqqoslash orqali jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirishni niyat qilgan edilar. Natijada jadidlarning diqqat markazida birinchi bosqichda ta'limni isloh etish vazifasi turardi. Ular bunday islohotlarni o'tkazish zaruratini nafaqat nazariy jihatdan isbotlab berdilar, balki, yangi usuldagi maktablar, kutubxonalar, o'quv zallari ochib, darsliklar yozib, o'z g'oyalarini amalga oshirishga katta kuch sarfladilar.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "jadidlarning rahbari" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo'ldi. Jadidlar mafkurasida hozirgi kunda jamiyatni tashvishga solayotgan:

- dinning inson ma'naviy kamolotidagi o'rmini to'g'ri tushunish;
- bozorni shakllantirish jarayonlarini faollashtirish;
- taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish;
- inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va muhofaza etish tizimini yaratish;
- o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni shakllantirish kabi tarixiy vazifalar jamlangan edi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan muhim shartlar esa, islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, fan yutuqlari va ilg'or texnologiyani egallash muammolarini hal etishdan iborat edi. Biroq, bu g'oyalardan jadidlar islomning butun ta'limotini qayta yozishga intilganlar, degan xulosaga kelmaslik kerak. Sababi, ular o'z faoliyatlarida Qur'onni ham va umuman, butun islom ta'limotini ham to'g'ri izohlab berishga intilganlar.

Ular o'z asarlarida (A. Fitratning "Hind sayyohi qissasi", M. Behbudiyning "Muxtasari tarixi islom" kabi asarlari) ayrim ruhoniylarning o'z manfaatlari yo'lida islom mohiyatini buzib ko'rsatganliklarini tanqid qiladilar va dindan

foydalanilgan siyosiy tadbirlar qanchalar og‘ir oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatib beradilar. Jadidlar islomning taraqqiyparvar rolini tushuntirish bilan bir vaqtda ta‘lim, iqtisod, madaniyat va umuman, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etish zaruratini tushuntirishga intilganlar. Qur‘on va uning tafsirini juda yaxshi bilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalaridan birida Qur‘on oyatlari va hadislardan namunalar keltirish bilan islom xalq ta‘limi va barcha fanlarga, shu jumladan, tarix faniga qay darajada katta ahamiyat berganligini isbotlab bergan. U islom tarixini bilmasligi oqibatida, aksariyat hollarda, o‘ng‘aysiz vaziyatga tushib qoladigan din peshvolarini tanqid qiladi¹.

Jadidlar Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar, vujudga kelayotgan rus siyosiy partiyalari dasturlarini o‘rgandilar. Ular tinchlik yo‘li bilan, jamoatchilik murojaatlari asosida, Davlat Dumasidagi ommaviy bahslar va boshqa qonuniy vositalar bilan o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida podsho hokimiyatining yon berishiga erishishga intildilar.

Chorizm ma‘muriyati Davlat Dumasida turkistonlik vakillar bo‘lishini man etgan edi. Bu, bir tomondan, o‘lka xalqining huquqlari va qadr-qimmatini poymol qilish bo‘lsa, ikkinchidan esa, ularning siyosiy ongining o‘sishi Rossiya imperiyasi davlatchiligiga xavf tug‘dirar edi. O‘sha davrdayoq jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1906-yil 11-oktabrda “Xurshid” ro‘znomasida chop etilgan maqolasida o‘z aksini topgan xulosaga, ya‘ni, birlashib, yagona musulmon partiyasi tuzish va Butunrossiya musulmonlari ittifoqi tarkibiga kirish zarurligi haqidagi fikrga keldilar². Shu bilan ular Rossiyadagi barcha turkiy xalqlar orasidagi ilg‘or kuchlarga tayanishga intildilar. Ushbu maqolasida Behbudiy sotsial-demokratlar partiyasiga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini bildiradi. U bu partiyaning dasturini musulmonlarning hayotiy normalariga muvofiq kelmaydigan xayoliy bir narsa (utopiya) deb hisoblagan.

Markaziy Osiyo jadidchiligiga Turkiya va 1905–1911-yillardagi Eron inqiloblari sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bu mamlakatlardagi ziyolilarning vakillari monarx hokimiyatining konstitutsiyaviy tarzda cheklanishi va milliy burjuaziyaning iqtisodiy qudratini mustahkamlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishni o‘z oldilariga maqsad qilib olgan edi. Biroq, ularning tajribalari Turkiston jadidlari tomonidan mexanik tarzda ko‘chirib olinmadi. Ular Sharq va Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilikka qarshi kurash hamda demokratik harakat amaliyotidan o‘lka sharoitlariga muvofiq keluvchilarini tanlab oldilar, sharoitga to‘g‘ri kelmaydiganlaridan voz kehdilar yoki ularni o‘zgartirishlar bilan qabul qildilar.

1 Behbudiy M. Tarix va jug‘rofiya // Oina. – 1914. – № 27. – B. 502–505..

2 Behbudiy M. Xayr ul-umuri avsatuxo // Xurshid. 1906-yil 11-oktabr.

Rossiya fevral demokratik inqilobi arafasida, Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar, Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral inqilobidan keyin esa, Turkiston jadidlarning "taraqqiyparvarlar" oqimini tashkil qilgan qismi yanada keng qamrovli siyosiy talablarni ilgari surdi. Bu talablar qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirishni ko'zda tutuvchi o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasida aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsiyaviy tuzum bilan almashtirish kabi masalalar kirgan. Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi.

Ayni paytda milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan "Sho'roi Islomiya", "Ittifoq" kabi tashkilotlar tuzildi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olishi uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy hujjatlaridagi e'tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari – Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruv va sud mexanizmlarini ishlab chiqish, o'z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlanishi lozim bo'lgan demokratik jamiyatni shakllantirish ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta'sis majlisini chaqirish bilan bog'laganliklari ham diqqatga sazovor.

Jadidlar ta'limoti o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki, u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki, fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni ham o'z ortidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni tadrijiy (evolutsion) islohotchilik tamoyillari asosida hal etish yo'llari ishlab chiqilganligi, ularda formatsiyaviy-institutsiyaviy o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumini tubdan yo'qotishning samarali yo'llarini bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning g'oyalari hozirgi o'zgarishlarning ma'naviy

darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlar kursining genetik asosi bo'lib xizmat qildi. "Tarixdan yaxshi ma'lumki, – deb yozadi Behbudiy, – haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm, tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q"¹.

O'tmishga nazar solib, uni o'rganib, o'z davrini tahlil qilgan jadidlar o'z Vatani kelajagining loyhasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo'llarini rejalashtirdilar. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olganlari, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she'riyati, qadimgi Sharq mutafakkirlarining falsafiy asarlari ruhida tarbiyalanganlari holda, o'z bilimlarini chet el madaniyati, jumladan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar².

Jadidlar Turkistonning siyosiy holatini qanday baholaganlar? Masalan, Behbudiy o'z xalqining taraqqiyotini nafaqat ma'rifat bilan, balki, siyosiy o'zgarishlar bilan ham bog'lash zarurligini uqtiradi.

Behbudiy boshqa ko'plab jadidlar kabi mustamlakachilikka qarshi qon to'kishlarsiz kurash tarafdori bo'lib, har qanday ko'rinishdagi inqiloblarga qarshi edi. U Duma ishini muntazam ravishda diqqat bilan kuzatib borgan va parlament kurashi orqali ko'p narsalarga erishish mumkin, deb hisoblagan. U Rossiya federativ tuzumini va unda Turkistonning o'rni qanday tasavvur qilgan? Uning fikricha, har bir shahar va uyezd dan bir nechtadan vakil saylash kerak va Toshkentda Turkiston uchun yaroqli amaliy natija beradigan soliq qonunlari va farmonlar chiqara oladigan katta markaz va majlis (parlament ko'zda tutilayapti) tashkil etish kerak. Bu majlis Rossiya hukumati va musulmonlar o'rtasida vositachi bo'ladi. Bu Turkistonning farovonligiga xizmat qiluvchi Turkiston uchun saylangan ma'murlarni mustahkamlaydi³.

Biroq, haqqa erishish uchun qaysi millatga mansubligiga qaramay, barcha aholi ijtimoiy kurashga faol kirishishi kerak va rus aholisi bilan birlashib, har bir uyezd dan vakil saylangan "Turkiston musulmonlari sho'rosi"ni tashkil etish lozim. Demokratik davlat doirasida muxtoriyat sifatida shakllanish – ichki qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklarni bartaraf etishning bosh shartidir.

Behbudiy o'zining "Qonuni Ovrupo", "Haq olinur, berilmas!", "Loyiha", "Qozi va biylar haqida loyiha" maqolalarida Turkistondagi huquq

1 Behbudiy M. Bayoni haqiqat // Ulug' Turkiston. 1917-yil 12-iyun.

2 Jadidlarning aksariyati o'z bilimlarini chet ellarda davom ettirdilar. Masalan, Ishoqxon Ibrat Jidda, Istanbul, Sofiya, Afina, Rimda ishlab, o'qigan. Hindistonda ham uzoq vaqt yashagan. U fransuz, ingliz, urdu, fors, ivrit, arab va boshqa yana bir qator tillarni o'rgangan.

3 Behbudiy M. Bizga islohot kerak // Najot. 1917-yil 7-noyabr.

sohasida vujudga kelgan og'ir vaziyat haqida yozadi. Shuningdek, huquqiy masalalarni hal etish butunlay ellikboshi va qozilar ixtiyoriga topshirib qo'yilganligi oqibatida, ular nafaqat diniy, balki, maishiy masalalarni ham poraxo'rlik asosida hal qilayotganliklari uchun rus hukumatini tanqid qiladi. Behbudiy islom qonunchiligiga oid chuqur bilimlarga ega bo'lib, sodir etilayotgan qonunbuzarliklarni, qozilar tomonidan shaxsiy manfaatlari yo'lida shariat normalarining soxtalashtirib talqin etilishini qoralaydi.

Odil sudlov sohasidagi vaziyatni sinchiklab tahlil etish orqali Behbudiy qozilik sudlari tizimini bekor qilish zarurligi, ularning o'rni Turkistondagi 5 ta viloyatning har birida apellyasiya komissiyasini tashkil etgan davlat sudlarini tuzish, okrug sudlarini nazorat qilish uchun rais, o'rinbosar va uchta sud a'zosidan iborat Oliy sud palatasi ochish kerakligi to'g'risidagi xulosaga keladi. Volost saylovlarida, muallifning fikricha, 20 yoshga yetgan har bir turkistonlik qatnashishi lozim¹.

Fitrat Qur'on talqini asosida mamlakat rivojining yaxlit konsepsiyasini yoritib beradi. Uning fikricha, tadbirkorlik va savdoning rivoji bilimlar va millatning birligi, jipsligiga asoslanishi lozim. Katta daromad uchun bir-biri bilan raqobatlashish emas, balki, fabrika kabi korxonalar qurish, asbob-uskunalar sotib olish uchun mablag'larni birlashtirish, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojiga qulaylik yaratish lozim, deydi: "Dini mubiyimiz islomda har xususda ham ittifoq va birlikni amr etgan". "Buning asosiy shart-sharoiti esa, uning fikricha, bolalarni tadbirkorlik va boshqa fanlarga o'rgatish lozim. Zero, Qur'onda aytilganidek, "Bilmaganlar bilganlarga tenglasha olmaydilar".

Fitrat taraqqiyotdan orqada qolmaslik zarurligi, aks holda buning oqibatlari qanday bo'lishi va kelgusi avlodlar oldidagi mas'uliyat haqida shunday yozadi: "Agar siz, buxoroliklar... bu xudo bergan ne'matdan foydalanmasangiz, albatta, xayal o'tmay begonalar bu boyliklarga ega bo'lib, ularning har birlarining ustidan fabrika va mashinalar o'rnatadilar. Dunyo-dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar qilinadi. U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, ularning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar"². Fitrat bu fikri bilan, iqtisodiy qoloqlik mamlakatni Rossiyaga iqtisodiy va siyosiy tobelikka olib kelishi mumkinligiga ishora qilgan edi.

Jadidlarning yana bir namoyandasi F. Xo'jayev muxolif ziyolilar sa'y-harakati bilan boshlangan jarayon milliy taraqqiyot harakatiga aylanganligini o'z maqolalari va 1926-yilda chop etilgan Buxoro inqilobi

1 Behbudiy M. Qozi va biylar haqida loyiha / Oina. – № 5. – B. 106–107.

2 Fitrat A. Amir Olimxonning hukmronlik davri. – T.: 1992. – B. 30.

tarixiga doir” nomli kitobida asoslab beradi. F. Xo‘jayevning fikriga ko‘ra, Buxoroda jadidchilikning yuzaga kelishiga xonlikning iqtisodiy negizi, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib turgan “g‘ayritabiiy va dahshatli tartibsizliklar” sabab bo‘lgan. Shuningdek, O‘rta Osiyoni egallay boshlagan rus kapitalizmi “tobora kuchayib, jamiyatning ilg‘or qismini o‘ylantirib qo‘ydi, jadidchilikka sabab bo‘ldi”. U savdogarlar savdo kapitalini rivojlantirishi uchun Buxoro taraqqiyotini yevropalashtirish va u yerda oddiy huquqiy normalarni qaror toptirish zarurligini tushunar edi. O‘sha davrdagi Buxoro amirligidagi ahvol bunga imkon berdi. Shuning uchun savdogarlar muxolifatga moyil bo‘lib, jadidlar harakatiga qo‘shildilar va uni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatladilar. F. Xo‘jayevning fikricha, jadidchilik Turkistonga qaraganda Buxoroda kechroq yuzaga kelgan bo‘lsa-da, jamiyat hayotidagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi va bu harakat 1915-yildan boshlab madaniyatdan siyosatga qarab yo‘l tutdi.

Jadidchilar tashkilotlarining maqsadlari kengayib, siyosiy tus olganligining sababi ikkita edi:

birinchidan, 1914–1915-yillarda jadidchilik boshidan kechirgan inqiroz – gazetalar va yangi usul maktablarining berkitilish hollari, hokimiyatning jadidlarning bilimsizlik va g‘aflatga qarshi kurash faoliyatining kengayishiga qarshilik ko‘rsatishi bunday harakatsiz jamiyatda hech qanday o‘zgarishlarga erishib bo‘lmasiligini ko‘rsatdi;

ikkinchidan esa, jadidchilik harakatiga xorijda o‘qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o‘rganib qaytgan yoshlarning kuchli oqimi kelib qo‘shildi. Ular madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, muayyan qadamlar qo‘yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yengillashtirish – ana shunday talablar jumlasidan edi.

Jadidlar o‘zlarining inson huquqlari borasidagi fikr-mulohazalarini adabiyot orqali ommaga yetkazganlar. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon shu mavzuda fikr yuritib, she‘rlaridan birida xalqqa qarata: “Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!”, deb da‘vat qilgan. Abdurauf Fitrat esa, o‘z da‘vatlaridan birida shunday deydi: “Baqiribroq aytamankim, o‘z xalqlarini yana boshqalarning oyoqlari ostinda qo‘ymoqchi bo‘lmagan musulmonlar! Saylov kuni g‘ofil qolmanglar, ko‘pchilik bo‘lib kelurga tirishinglar”¹.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o‘lkasini mustaqil qilish va aholining huquq va erkinliklarini ta‘minlab berish jadidchilik harakati

¹ Abdurauf Fitrat. “Musulmonlar, g‘ofil qolmang!”. / Hurriyat, 1917 yil 25-avgust, 33-son.

namoyandalarining asosiy maqsadlaridan biri edi. Bu maqsadga erishishning asosiy vositasi sifatida esa, ular ma'rifatchilikni, ya'ni, xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini ilg'or g'oya va bilimlar yordamida o'zgartirishni tanlagan edilar.

3. Islom ta'limotlarida inson huquqlari g'oyasi

Islom huquqi o'z zaminida normativ tizim sifatida VII–X asrlarda arab xalifaligida feodal jamiyat qaror topayotgan bir davrda shakllangan bo'lib, islom diniga asoslangandir. Islom mavjud huquq Alloh tomonidan yuborilganligiga asoslanadi. Sarvari koinot tarixning muayyan bir davrida bashariyatga o'zining rasuli – Muhammad payg'ambar (taxminan 570 – 632-yillar) orqali islom ta'limotini ayon etdi. Alloh tomonidan in'om etilgan huquq insoniyatga bir yo'la va abadul-abad berilgan. Shu bois, jamiyat bu huquqqa amal qilmog'i lozim. Islom huquqi nazariyasi ilohiy kashfiyot tushuntirish va sharhlashga muhtoj ekanligini e'tirof etadi. Islom huquqshunoslarining necha asrlik sermashaqqat ishlari aynan ana shunga, ya'ni, tushuntirish va sharhlashga ketgan. Biroq, ularning bu sa'y-harakatlari yangi huquq yaratishga emas, balki, Alloh tomonidan nozil bo'lgan huquqni faqatgina amaliy jihatdan foydalanish uchun moslashtirishga qaratilgan, xolos.

Islom huquqida Rimning keyingi davriga oid bo'lgan huquqdagi, qolaversa, G'arb huquqiga xos bo'lgan qonun tushunchasi yo'q. Nazariy jihatdan yolg'iz Alloh qonunchilik hokimiyatiga ega. Amalda esa, huquqshunos olimlarning asarlari Islom huquqining birdan-bir manbaidir. Islom huquqi mutaxassislar tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Davlat emas, balki, fiqh – huquq ilmi qonun chiqaruvchilik rolini o'ynaydi¹. Huquq muayyan normalarning majmui sifatida islom amal qila boshlagan dastlabki ikki asr mobaynida shakllandi. Keyingi asrlar amalda bu borada hech bir yangilik kiritmagan. Ana shu turg'unlikni ijthod eshiklarining yopilishi bilan bog'laydilar. XIX asrga qadar Islom huquqiy ongining tadrijiy rivoji diniy-huquqiy sharhlar hamda fatvolar majmuida o'z ifodasini topgan. Bu sharh va fatvolar esa, shariatning an'anaviy qoidalari va tamoyillarini yangicha tarzda talqin etar ekan, hech qachon ularni ochiqdan-ochiq rad etmagan va ularning odatiy jarangini o'zgartirmagan².

1 Schacht J. Introduction to Islamic law. Oxford, 1966. – P.5; Batafsil ma'lumotlar uchun: Сюкияйнен Л.Р. Доктрина как источник мусульманского права //Источники права. – М.: 1985. – С. 65–83.

2 Хайдарова М.С. Основные направления и школы мусульманского права //Мусульманское право. – М.: 1984. – С. 47.

Islomda ham nasroniylikdagi kabi ruh abadiyligi g'oyasiga e'tiqod qilinadi. Unda bani bashar Odam Atoning teng huquqli farzandlari sifatida qaraladi. Musulmonlar o'z qavmlaridagi kofirlarga, bedinlarga hamisha sabr-murosa bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglik fazilatini namoyon etib kelganlar. Nomusulmon jamoalarga, odatda, o'z ichki ishlarini boshqarish huquqi berilgan.

Arablarning islomgacha bo'lgan urf-odatlar va udumlariga nisbatan islomda qashshoqlar, yetim-yesirlar va ayollarga munosabatda anchagina ilg'or tamoyillar ko'zga tashlanadi. Garchi, quldorlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, qullarga huquqlar berilgan, ular, xususan, ishlab topgan mablag'lari asosida haq to'lab, ozod bo'lish huquqini olganlar. Majburiy tusda bo'lmasa ham, harqalay qullarning ozod qilinishi din sharofati bilan sodir bo'ladigan harakat sifatida qo'llab-quvvatlab kelingan. Ilgari keng tarqalgan qiz bolalarni go'dakligidayoq nobud etish, yo'q qilishdek vahshiy odat taqiqlangan. Qotillik uchun shaxsiy o'ch olganlik yoki boshqa jinoiy qilmishlar yuzasidan javobgarlik kuchaytirilgan. Odil sudlov din peshvolari tomonidan Qur'on oyatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirilgan. Muqaddas kitob – Qur'onda er-xotin ajralishi to'g'risidagi normalar, nikoh bekor bo'lishi oqibatida bolalarga nisbatan keltirib chiqadigan qoidalar ham qamrab olingan.

Shu sababli, E. Mayer ta'kidlab aytganidek, "islom tafakkur olami inson huquqlarining rivojlangan nazariyasiga ega bo'lmaganligi fakti musulmon dunyosining an'anaviy jamiyatlarida davlat repressiv namunada tuzilganligini anglatmaydi; aksincha, tarixan bunday jamiyatlarda ijtimoiy va madaniy masalalarga hukmdorlarning aralashmasligidek umumiy namuna mavjud bo'lgan. O'tmishda qaror topgan an'analar, urug'-aymoq va jamoalar singari nohukumat institutlari shaxs erkinligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida hukmdorlarga nisbatan muhimroq rol o'ynagan. Davlat bilan shaxs huquqlari o'rtasida muttasil nizo va mojarolar keltirib chiqaradigan yoki islom mutafakkirlarini bunday erkinliklarni hukmdorlar egallab olishidan himoya etish bilan, inson huquqlarining hozirgi normalari rivoji zahirida yotgan tashvish-anduhlar bilan bog'liq masalalar ustida ish olib borishga undaydigan shart-sharoitlarning o'zi yo'q edi"¹.

Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Abulqosim Zamaxshariy singari hadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandalari inson huquqlari va uning ijtimoiy mohiyatini Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda qo'yilgan islom hamda shariat talablari asosida ko'rsatib berishga harakat qilganlar.

¹ Qarang: Mayer A.E. The Dilemmas of Islamic Identity //Human Rights and the World's Religions. Ed. By L.S. Rouner Boston University studies in philosophy and religion. Notre Dame, 1988. – P. 94–95.

Islomning bu muqaddas manbalarida insonning taqdiri va hayoti Alloh nomi bilan bog'liq holda ifodalab beriladi. Bunda yer yuzidagi barcha insonlarning Alloh oldidagi tengligi g'oyasi, har bir insonga Alloh tomonidan berilgan ne'matlardan ularning baravar foydalanishi zarurligi g'oyasi bilan chambarchas bog'lanib ketganini ko'ramiz¹.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda insonning Alloh va shariatdagi haq-huquqlari inson foydalanishi zarur bo'lgan alohida huquqlar misolida ko'rsatib berilgan. Masalan, Qur'oni Karimning "Baqara surasi"dagi 220-oyatda yetimlarning haqlari to'g'risida, 223-, 228–229-, 230-oyatlarida erkak va ayolning nikohga kirishi yoki nikohdan chiqish huquqi, "Oli imron surasi"ning 20-oyatida islom diniga e'tiqod qilish huquqi va insonning boshqa huquqlari shariat talablari asosida bayon qilingan. 256-oyatda islom dinining adolatligi quyidagicha bayon etiladi: "Dinda zo'rlash yo'q, zero, to'g'ri yo'l yanglish yo'ldan ajrim bo'ldi. Bas, kim shayton (yoxud butlar) ni inkor etib, Allohga imon keltirsa, demak, u mustahkam halqani ushlabdi. Alloh eshituvchi va bilguvchidir"².

Inson huquqlarini shariat talablari asosida ko'rsatib berishga doir bunday yondashish hadislarida ham o'zining aniq ifodasini topgan. Har bir hadisda jamiyat hayotining alohida bir masalasiga doir talablar ilgari surilganligi uchun ham, ularda insonning xilma-xil haq-huquqlari ularning alohida huquqlari misolida bayon qilib beriladi. Masalan, Imom Buxoriyning "Al-adab, al-mufrad" (Adab durdonalari) asarida ota-ona haqini ado qilish, farzandning ota-onasi oldidagi va ota-onaning farzandi oldidagi haq-huquqlari, ziyorat qilish, turar joyga ega bo'lish va boshqa shular singari haq-huquqlarning har biri alohida hadislarida berilganki, bunday holni hadislar to'g'risida yozilgan har bir asarda uchratish mumkin.

Turli masalalardagi singari inson huquqlari masalasiga doir hadislarida ham inson huquqlari masalasi uning haq-huquqlari misolida beriladi. Bunda insonning kimningdir oldidagi haqi (Allohnig, uning rasuli Muhammad Payg'ambarning yoki jamiyatning) uning huquqi ekanligini ham anglatadi.

Masalan, bordi-yu, bir kishi ikkinchi bir kishidan biror narsa bilan qarzдор bo'lib qolgan bo'lsa, bu qarzni qaytarib olish shariatda ikkinchi kishining huquqi hisoblanadi va shu ikkinchi kishi o'zining qarzini qaytarib olish huquqidan foydalanishi mumkin bo'ladi. Qarz olgan kishining uni qaytarib berishi esa, uning huquqi hisoblanmaydi. Shunga ko'ra, islomda va uning manbalarida insonning huquqlari uning haqi misolida berilganligini

1 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 44.

2 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimai. Abdulaziz Mansur tarjimai va izohlari. – T.: Islom universiteti, 2001.

ko'ramiz. Jumladan, Imom Buxoriy farzandlar ota-onalarini rozi qilish huquqiga ega ekanligini quyidagi bir hadisda shunday bayon qiladi: "Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannat) nasib bo'lib, Alloh Taolo uning um-rini ham ziyoda qiladi"¹. Bunda farzandning ota-onasini rozi qilishi kerakligi Alloh nomi bilan har bir insonning u foydalanishi mumkin bo'lgan huquqi ekanligi nazarda tutilgan.

Inson huquqlari va uni himoya qilish masalasi at-Termiziy qarashlarida ham o'zining chuqur ifodasini topganligini ko'ramiz. Ul zot to'plagan ko'pchilik hadislarda hamda Muhammad payg'ambar alayhissalomning siyratlari madh etilgan asarlarida janob Rasulullohning inson huquqlarini himoya qilish borasida qilgan amallari va yo'l-yo'riqlari to'g'risida qimmatli fikrlar bayon qilinadi. Chunonchi, At-Termiziy tomonidan yozilgan "Ash-shamoyil an-nabaviya" (Payg'ambarning alohida fazilatleri) asarida Rasulullohning inson huquqini himoya qilish borasidagi amallaridan biri quyidagicha ta'riflab beriladi: "Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.)...qachon bir kishining haqiga tajovuz qilinsa, ul holda g'azablarini hech bir narsa bosolmas erdi. Andin intiqom olmay qo'ymas erdilar"². Imom Buxoriy, at-Termiziy va boshqa ko'plab hadis ilmining fidoyilari inson, uning sha'ni, obro' va martabasi muqaddas ekanligini, uning haq-huquqlari Alloh taolo va uning rasuli Muhammad payg'ambar (s.a.v.) tomonidan shariat yo'li bilan himoya qilinishi zarurligi haqida ta'lim berganlar. Bu mutafakkirlarning har biri o'zlarining butun hayotini hadis ilmini o'rganishga bag'ishlash bilan birga, mo'min-musulmonlarni birovga zulm o'tkazmaslikka, bironing haqini yemaslikka, bironing haq-huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslikka undab keldilar.

Hadisi Shariflarda insonning qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, uning sha'ni va obro'siga tajovuz qilmaslik, har kimning sir saqlashi, erkin fikr yuritishi, erkin so'zlashishi singari shaxsiy huquqlari bilan birga, uning mulkka ega bo'lishi, turar joyli bo'lishi va uning daxlsizligi singari turli xildagi ijtimoiy huquqlari ham shariat talablariga va qonunlariga muvofiq tarzda himoya qilinishi zarurligi o'z ifodasini topgan³.

Masalan, insonning sir saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligini Imom Buxoriy, Muhammad payg'ambarning xotinlari Oysha ona qizlari Fotimadan "janob Rasululloh senga qanday sir aytdilar?" deb so'raganlarida Fotima "o'z onalariga otalari aytgan gapni oshkor qilmasliklarini aytdilar", degan hadisni keltiradi⁴.

1 Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-Mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – B. 20.

2 Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoyil an-nabaviya. – T.: Cho'lpon, 1993. – B. 61.

3 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X. Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 46.

4 Ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi' as-Saxix. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 159.

Imom Buxoriy, at-Termiziy, al-Mavraziy, al-Barakatiy, an-Nasafiy va boshqa ko'plab hadisnavis allomalar to'plagan hadislarda ham insonning huquqlari va ularni himoya qilishning zarurligi bilan bog'liq masalalar haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Inson huquqlari masalasining hadislarda berilishi bejiz emas. Chunki, islom dinida insonning sha'ni, qadr-qimmati yuksak darajaga ko'tarilgan bo'lib, uni tahqirlashga qaratilgan har qanday urinish qoralanadi. Islomda barcha mo'min-musulmonlar Allohning bandalari ekanligi va ular Alloh taolo oldida teng huquqqa ega ekanligi, Alloh taolo o'z bandalarini ularning qilmishlariga yarasha himoya qilib turishi to'g'risida muhim g'oyalar ilgari suriladi¹.

Islomda Alloh taolo har bir mo'minning haq-huquqini kamsitmaslik va uni oshirib ham yubormaslikni buyurishi haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Ulamolarning ta'biriga qaraganda, islomda insonning haq-huquqlari o'nta bo'lib, ular:

1. Alloh taoloning haq-huquqlari;
2. Payg'ambar alayhissalomning haq-huquqlari;
3. Ota-onaning haq-huquqlari;
4. Farzandlarning ota-onalardagi haq-huquqlari;
5. Qarindosh-urug'larning haq-huquqlari;
6. Er-xotinning haq-huquqlari;
7. Hokimiyat va raiyatning haq-huquqlari;
8. Qo'shnining haq-huquqlari;
9. Musulmonlarning haq-huquqlari;
10. G'ayridin xalqlarning haq-huquqlaridan iborat².

Bu haq-huquqlarda insonning jamiyatdagi huquq va burchlari islom va shariat qonun-qoidalari asosida ko'rsatib beriladiki, ulardan foydalanishda har bir inson to'la erkinlikka egadir. Bunday erkinlik insonlarga Alloh taolo tomonidan berilgan bo'lib, uni tahqirlashga qaratilgan har qanday urinish inson huquqlarini kamsitishdan boshqa narsa emas.

Islom ulamolari tomonidan tasnif qilingan haq-huquqlar orasida eng muqaddasi – bu Alloh taoloning haq-huquqlaridir. Alloh taolo tomonidan insonlarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari, ularning o'ziga va bir-birlariga yaxshi munosabatda bo'lishlari, hech kimning haq-huquqini kamsitish mumkin emasligi to'g'risidagi vahiy-lari Qur'oni Karim oyatlari orqali nozil qilingan.

Musulmonchilik haq-huquqlari orasida Payg'ambar alayhissalomning haq-huquqlari ham Alloh taolo haq-huquqlaridan keyingi oliy haq-

¹ Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 46.

² O'sha joyda. – B. 47.

huquq hisoblanadi. Chunki, payg'ambarimizning barcha amallari va pand-nasihatlari, ul zotning yo'riqlari insonning haq-huquqlarini hurmat qilish va uni kamsitishga yo'l qo'ymaslikdan iborat¹.

Inson huquqlari masalasi islomda shuhrat qozongan tasavvuf ilmi-ning asosini tashkil etadi. Ilmning bu turi Sharqda keng tarqalgan bo'lib, O'rta Osiyoda uning vujudga kelishi va rivojlanishiga Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror singari buyuk siymolar katta hissa qo'shdilar. Ularning ta'limoti islomda tariqat (Tariqat – islomda yo'l-yo'riq, yo'nalish degan ma'nolarni anglatadi) deb atalib, bu tariqatlarda falsafiy, diniy-axloqiy, huquqiy masalalar to'g'risidagi muhim g'oyalar ilgari suriladi. Bu tariqatlardagi g'oyalar uzoq yillardan buyon insonning jamiyatdagi o'z haq-huquqlarini anglab olishlarida va uni himoya qilishlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda².

Yassaviy, G'ijduvoni, Naqshbandiy tariqatlarida insonning shaxsiy va ijtimoiy huquqlari masalasi insonning Alloh taolo va uning rasuli Muhammad alayhissalom oldidagi tengligi misolida bayon qilinadi. Islom tariqatlarida har bir kishining dinga e'tiqod qilishi, uning foydali mehnat bilan shug'ullanishi, ilm olishi, aybsiz jazolanmasligi, qiynoqqa solinmasligi singari masalalar bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar muhim ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida mo'min-musulmonlarning dinga e'tiqod qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida Naqshbandiya tariqatida berilgan fikrlarga yuqori baho beradi. Uning yozishicha, Bahouddin Naqshband islom shariatiga va uning talablariga rioya qilish ixtiyoriy ekanligini qayd qiladi va bu talablarning ijrosida insonning qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi zarurligini ta'kidlaydi³.

Tasavvuf ilmida bir qancha yo'nalish bo'lib, ularning islomda birmuncha keng tarqalgan yo'nalishlaridan biri Naqshbandiya tariqatidir. Unda ilgari surilgan "dil ba yorn dast ba kor" (dil – Allohda, qo'l – ishda) mavzusidagi g'oya insonni mehnat qilishga undash bilan birga, uning mehnat qilish huquqiga ega ekanligini ham bildiradi. Haqiqatan ham, Naqshbandiya ta'limotiga amal qilgan kishilar halol mehnat bilan kun kechirish, Allohning marhamatlaridan bahramand bo'lish, o'z oilasini obod qilish, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va boshqa shular singari shaxsiy va ijtimoiy huquqlardan foydalanishga harakat qilganlar.

Tasavvuf ilmida musulmonlik haq-huquqlariga doir masalalar o'zining chuqur ifodasini topgan. Alloh oldida barchaning tengligi g'oyasi tasavvuf il-

1 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston. 1997. – B. 47.

2 O'sha joyda.

3 Ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi' as-saxix ("Ishonchli to'plam"). – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. – B. 156.

ining asosini tashkil qilganligi uchun ham unda Alloh taolo va uning rasuli Muhammad alayhissalomning haq-huquqlari juda keng va chuqur ifodalab berilgan.

Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Abduxoliq G‘ijduvoniyning “Vasiyatnoma”, Imom G‘azzoliyning “Oxiratnoma” asarlarida inson zoti Alloh buyurgan amallarni bajarish bilan uning oldidagi o‘z haqini ado etishi, Alloh va uning payg‘ambari Muhammad alayhissalomning inobati bilan berilgan shariat huquqlaridan foydalanishi va shu yo‘l bilan har bir mo‘min komil inson bo‘lib hayot kechirishi mumkinligi to‘g‘risida qimmatli fikrlar yozilgan. Shuningdek, ularning asarlarida ota-onalarning, farzandlarning, qarindosh-urug‘larning, eru xotinning, davlat rahbarlari va raiyatning, qo‘shnilarning haq-huquqlari o‘zining aniq ifodasini topgan¹.

Insonning erkin bo‘lishi g‘oyasi tasavvuf ilmining asosini tashkil etadi. Chunki, tasavvufda insonning xatti-harakatlari, uning jamiyatdagi mavqei qanday bo‘lishi mumkinligi Alloh taoloning irodasiga bog‘liq ekanligi bilan asoslab beriladi. Har bir insonning Alloh taolo visoliga yetishi g‘oyasi tasavvuf ilmida uning insonga xos bo‘lgan haq-huquqlaridan biri sifatida qaraladi. Bu huquq islomda shariat talablariga asoslangan bo‘lib, unga to‘sqinlik qilish Alloh taolaga shak keltirish bilan barobardir. Shuning uchun ham, tasavvuf ilmining namoyandalari o‘zlarining asarlarida musulmonlik haq-huquqlari orasida insonning Alloh taolaga iymon keltirishi zarurligini ta’kidlaydilar.

Tasavvuf ilmining yetuk namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviy o‘zining “Hikmatlar” asarida har bir inson Alloh taoloning visoliga yetish huquqiga ega ekanligini ko‘plab hayotiy misollar asosida tushuntirishga harakat qilgan. Shuning bilan birga, Yassaviyning tasavvuf ilmidagi qarashlari uning har bir insonning kiyim-kechakka, uy-joyga ega bo‘lish singari huquqlarga ega ekanligi g‘oyasi bilan ham chambarchas bog‘lanib ketgan. Insonga zulm qilmaslik, tazyiqqa duchor etmaslik, shaxsiy hayotiga aralashmaslik singari insonparvarlik g‘oyalari Yassaviy hikmatlarida o‘zining chuqur ifodasini topgan.

Sharq olamida mashhur bo‘lgan “Fiqh” ilmi inson huquqlari va ularni himoya qilishni shariat qonunlari asosida yoritib berishdagi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Fiqh ilmi o‘rta asrlarda sharq mamlakatlarida shariat me’yorlari va tartib-qoidalarini qonuniy yo‘l bilan tartibga solib turish zarurati asosida vujudga kelgan².

Fiqh ilmi islom olamida juda keng tarqalgan bo‘lib, uning ijodkorlari Qur’oni Karim, Hadisi Shariflar, Ijmo hamda Qiyosdagi huquqiy ko‘rsatmalar,

1 Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 48–49.

2 O‘sha joyda. – B. 49.

yo'l-yo'riqlar, qonun-qoidalarini o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish bilan shug'ullanganlar. Ular islom va uning qoidalarini mukammal o'rganganlar, bu qoidalar orasida huquqshunoslikka oidlarini tanlab olganlar va tartibga keltirganlar. Bu ish bilan shug'ullangan mutafakkirlar turli davrlarda va turli xil sharoitlarda yashaganlar. Bu hol, shubhasiz, ularning masalaga turlicha yondashishlariga sabab bo'lgan. Ularning ayrimlari boshqalarining ishlaridan xabardor bo'lganlari holda, ba'zilar esa, mutlaqo bexabar holda ish olib borganlar. Shu bois, islom olamida fiqh ilmi bilan shug'ullanuvchi ko'plab mazhablar yuzaga kelgan. Bu mazhablar uning asoschilari nomi bilan atalib kelingan. Fiqhi Hanifiy, Fiqhi Molikiy, Fiqhi Shofiy, Fiqhi Xanbaliy singari mazhablar bularning eng asosiylari bo'lgan. Islom huquqshunosligi qoidalarini, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda berilgan ta'limotlarga asoslanganligi uchun ham bu mazhablarda huquqiy masalalarni tahlil qilishga yondashishlarda umumiy, o'xshash tomonlar ko'p bo'lgan¹.

Islom olamida fiqh ilmi qozilar, mirshablar va ko'plab hukmdorlar uchun dasturilamal vazifasini bajargan. Ular jinoyat va jazoni tasnif qilishda, aybdorlarni jazolash va begunohlarni afv etishda fiqh ilmi va uning turli mazhablari tomonidan yaratilgan kitoblardan keng foydalanganlar.

Sharqda fiqh ilmining yaratilishi va uning rivojiga Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Moturidiy, Abu Hanifa, Imom Molik, Muhammad ibn Idris Shafoiy, Imom Ahmad ibn Xanbal singari huquqshunoslar katta hissa qo'shganlar. Bularning har biri islomni, uning qoidalarini, islom shariatida amalda bo'lgan huquqiy masalalarni va bu haqda mavjud bo'lgan ta'limotlarni juda yaxshi bilganlar. Ular Sharq olamida o'ziga xos maktab yaratib, bunda shariatda amalda bo'lgan qonun-qoidalarini huquqiy jihatdan asoslab berishga harakat qilganlar. Ularning bu sohada qilgan buyuk ishlari, yaratgan asarlaridan musulmon mamlakatlaridagi qozilar va huquqning boshqa himoyachilari hozirgi kungacha ham foydalanib kelmoqdalar.

Inson huquqlari va ularga amal qilishning yo'llari hamda shart-sharoitlarini ko'rsatib berish borasida Sharq mutafakkir olimlari, davlat va jamoat arboblari tomonidan yaratilgan ta'limotlar o'z davri uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ular o'zining ahamiyatini bizning davrimizda ham yo'qotgani yo'q². Bu ta'limotlar hozirgi kunda mamlakatimizda insonparvar, demokratik jamiyat qurish sharoitida yanada chuqur ma'no kasb etmoqda. Buning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

1 Inson huquqlari. O'quv qo'llanma. /X.Boboyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 50.

2 Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

I.A. Karimov tomonidan juda aniq ta'riflab berilgan: "Buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga munosib o'rinni egallashda al-Beruniy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Hoja Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, xalqimizning kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat, ishonchiga-ishonch qo'shadi"¹.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Inson huquqlariga oid g'oyalarning vujudga kelishi bilan bog'liq yevropasentrik va osiyosentrik qarashlarning mohiyati va sabablarini tushuntirib bering.*
2. *Inson huquqlari masalasida Sharq va G'arbning o'zaro farqi va o'ziga xosliklarini izohlang.*
3. *Zardushtiyluk dinida inson huquqlari masalasi qanday o'rin tutgan?*
4. *Sharq Renessansi davri mutafakkirlarining inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalari va qarashlari hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.*
5. *Amir Temurning inson huquqlariga oid qarashlari va ularning "Temur tuzuklari"da aks ettirilishi haqida so'zlab bering.*
6. *Alisher Navoiy asarlarida inson huquqlari g'oyalari qanday aks ettirilgan?*
7. *Turkiston jadidlarining inson huquqlari bilan bog'liq g'oyalari va qarashlarini tushuntirib bering.*
8. *Islom dinining inson huquqlari rivojidadagi tarixiy ahamiyati nimada?*
9. *Islom huquqi manbalarida berilgan inson huquqlariga oid normalarni sharhlab bering.*
10. *Buyuk hadisshunos olimlar, tasavvuf ilmi namoyandalari asarlaridagi inson huquqlariga oid g'oyalar va qarashlarni tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoyil an-nabaviya. – T.: Cho'lpon, 1993.

¹ Karimov I.A. Istiqolol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994. – B. 97.

3. Imom Ismoil al-Buxoriy, Al-Adab al-Mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekiston, 1990.
4. Ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-Saxix. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
5. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. X. Boboyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston, 1997.
6. Саидов А.Х. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Т.: УМЭД, 2001.
7. Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: inson va huquq. – T.: Adolat, 2005.
8. Сюкияйнен Л.Р. Доктрина как источник мусульманского права// Источники права. – М.: 1985.
9. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика/ Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008.
10. To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy: ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. – T.: O‘qituvchi, 1992.
11. Temur tuzuklari. /Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarj.; B.Ahmedov tahr. ostida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1996.
12. G‘afurov A., Muminov A., Tillabayev M. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2012.
13. Inson huquqlari umumiy nazariyasi. IIV tizimidagi ta’lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek, huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. – T.: IIV Akademiyasi, 2012.

4-mavzu. Inson huquqlari va xalqaro huquqning rivojlanishi

1. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning ahamiyati.
2. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli.
3. Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari.
4. Globallashuv va XXI asrda inson huquqlari rivojlanishining dolzarb masalalari.

1. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning ahamiyati

XX asrga kelib inson huquqlari muammosi bir davlat yurisdiksiyasidan tashqariga chiqqa boshladi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarini inson huquqlarini himoya qilish sohasida maxsus xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmni yaratishni xalqaro hamjamiyat oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bu esa, o'tgan davr mobaynida, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslari hamda mexanizmlari shakllanishiga olib keldiki, natijada, hozirgi zamon xalqaro huquqida inson huquqlarining xalqaro himoyasi tushunchasi paydo bo'ldi.

Inson huquqlarining xalqaro himoyasi – bu inson huquqlari va erkinliklarini, ushbu huquq va erkinliklarning davlatlar tomonidan amalda hayotga tatbiq etilishi bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab beruvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisi, shuningdek, ushbu huquq sohasi bo'yicha davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishi ustida xalqaro nazorat mexanizmi va alohida shaxsning buzilgan huquqlarini bevosita himoya qilishdir¹.

Demak, xalqaro huquqning turli sohalari kabi bugungi kunda **xalqaro huquqda inson huquqlari** (“Международное право прав человека”, “International human rights law”) nomida alohida ham inson huquqlari, ham xalqaro huquqning o'zaro tutashgan maxsus sohasi vujudga keldi².

Xalqaro huquq – davlatlar, milliy-ozodlik harakatlari, xalqaro tashkilotlar, davlatlarning tuzilmalar o'rtasidagi va ba'zi hollarda shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar tizimidir. Inson

1 Международное право. /Под. ред. Бекяшева К.А. – М.: Проспект. 1999. – С. 200.

2 Qarang: Саидов А.Х. Международное право прав человека /Отв. ред. Б.Н. Топорнин. – М.: МЗ-Пресс, 2002.

huquqlari bo'yicha xalqaro huquq ayni xalqaro huquqning shunday tarmog'iki, unda davlatlardan tashqari muayyan bir shaxs va shaxslar guruhi ham xalqaro huquq subyekti sifatida qaraladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq xuddi shu jihati bilan xalqaro huquqning boshqa ko'pgina tarmoqlaridan farq qiladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning xalqaro huquq tizimida tutgan o'rni haqida, shuningdek, uning xalqaro huquqning boshqa sohalari bilan munosabatlari to'g'risida hozirgi kunga qadar bahs-munozara yuritib kelinayotganligi bejiz emas, albatta¹.

Shunga qaramay, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, umuman olganda, xalqaro huquq bilan bir xil ko'rsatkichlarga ega. Har ikkala huquqning, xususan:

birinchidan, manbalari bir bo'lib, bular xalqaro shartnomalar, xalqaro odatlar, xalqaro konferensiya yoki kengashlarning hujjatlari va shu singari hujjatlardir;

ikkinchidan, maqsadlari bir bo'lib, bu tinchlik va hamkorlikni ta'minlashdan iborat;

uchinchidan, tamoyillari bir bo'lib, bu suverenitet tamoyili, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi va shu kabi tamoyillarda namoyon bo'ladi;

to'rtinchidan, norma yaratish usullari bir xil bo'lib, ular xalqaro muhoqot subyektlarining o'z xohish-irodalarini erkin bildirishlariga asoslanadi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari uni xalqaro huquqning boshqa tarmoqlari bilan qiyoslaganda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi².

Inson huquqlariga oid xalqaro huquqning rivojlanishida yana bir omil, ya'ni, xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan ustuvorligi omili ham muhim rol o'ynamoqda. Chunki, davlatlar bu sohada o'zaro kelishish orqali majburiyatlar olar ekan, bu majburiyatlarni bajarishni o'z tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etmoqdalar.

Xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan ustuvorligini e'tirof etadi va bu bilan inson huquqlari sohasida o'zi qo'shilgan xalqaro huquq normalari va tamoyillariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada e'lon qilgan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddimasida: "...xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda..." – deb ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek,

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 76.

2 O'sha joyda.

Konstitutsiyaning 2-bo'limi, 18–52-moddalari to'liq inson huquqlari va erkinliklari masalasiga bag'ishlangan.

Inson huquqlari xalqaro huquqning turli sohalari bilan chambarchas bog'liq ravishda, ya'ni, o'zaro ta'sir ko'rsatish yo'li bilan rivojlanib bormoqda. Bu sohalarga xalqaro odat huquqi, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro gumanitar huquq kabi xalqaro huquq sohaslarini kiritish mumkin.

Inson huquqlari va xalqaro odat huquqi. Xalqaro odat huquqi davlatlarning huquqiy majburiyati tushunchasidan kelib chiqadi hamda qat'iy rioya etiladigan umumiy va doimiy amaliyotdan tashkil topadi.

Xalqaro odat xalqaro huquqning manbaidir. Xalqaro huquqning odat normasi xulq-atvor va yurish-turishning barchaga bab-baravar qoidalari, ya'ni, xalqaro huquq subyektlari yuridik jihatdan majburiy deb e'tirof etadigan qoidalar bir xil amal qilishida ko'rinadi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq davlat bilan uning fuqarolari o'rtasidagi fuqarolarning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Boshqa davlatlar, odatda, bunday huquq monitoringiga faqat oddiy diplomatik amaliyot vositasida tasodif tufayli jalb etilib qolishi mumkin. Shunday qilib, davlatlar tomonidan inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqni hosil etish sifatida qabul qilingan amaliyot, umuman olganda, xalqaro odat huquqini tashkil etuvchi xulq-atvor va yurish-turishning ayrim shakllaridan farq qiluvchi shakllarni o'z ichiga oladi, ular, xususan, quyidagilardan iborat:

birinchidan, BMT Nizomiga va uning inson huquqlariga doir qoidalariga yalpi tarafdorlik;

ikkinchidan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi universal tarzda va tezda tasdiq etilgan holda qabul qilinganligi;

uchinchidan, inson huquqlarining umume'tirof etilgan tamoyillarini qabul qilish yoki ayrim huquqlarning o'zini qabul qilish to'g'risida xalqaro bitimlarni tayyorlash hamda qabul qilish ishida davlatlarning yalpi ishtiroki;

to'rtinchidan, inson huquqlari tamoyillarining Yevropa, Lotin Amerikasi va Afrikadagi mintaqaviy tashkilotlarda davlatlar tomonidan qabul qilinishi;

beshinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro tamoyillarning xalqaro huquq normalari deb e'tirof etilishi;

oltinchidan, davlatlarning o'z milliy huquqiy tizimlari yoki amaliyotlarini xalqaro standartlarga yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq holga keltirish borasidagi faoliyati hamda inson huquqlari to'g'risidagi qoidalarning milliy konstitutsiyalar va qonunlarga bevosita yoki bilvosita kiritilishi;

yettinchidan, milliy siyosatda, diplomatik amaliyotda, xalqaro tashkilotlarning faoliyati va harakatlarida inson huquqlari tamoyillariga muntazam murojaat etib turilishi;

sakkizinchidan, davlatlarning inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqni buzish bilan bog'liq amaliyotni, shu jumladan, boshqa davlat tomonidan qonunbuzarlikka javob tariqasida ko'rilayotgan qamoqqa olish choralari va sodir etilayotgan boshqa nomatlub harakatlari aks etgan boshqa munosabatlari yoki harakatlari¹.

Xalqaro odil sud hamda Xalqaro huquq komissiyasi tomonidan inson huquqlari bo'yicha xalqaro odat huquqi mavjudligi e'tirof etilgan. Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha xalqaro odat huquqi, asosan, birinchi avlod (turkum) huquqlari deb yuritiladigan fuqarolik va siyosiy huquqlarga taalluqli bo'lib, ikkinchi va uchinchi avlod huquqlariga, eng avvalo, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarga amalda daxl etmaydi².

Inson huquqlari va xalqaro shartnomalar huquqi. Xalqaro shartnomalar huquqi davlatlar bilan xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi xalqaro shartnomalar tuzish, bunday shartnomalarning amal qilishi va ularni bekor qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidan iborat. Ushbu xalqaro shartnomalarni tuzish, amalda qo'llashni xalqaro huquqiy tartibga solish bo'yicha maxsus xalqaro shartnomalar ham qabul qilingan bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

1. 1969-yilda qabul qilingan Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi;

2. 1986-yilda qabul qilingan Davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlararo shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi;

3. 1978-yilda qabul qilingan Davlatlarning shartnomalarga nisbatan huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasiga jamlanib, muayyan bir tizimga solingan.

Hozirgi paytda, xalqaro shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi mazkur xalqaro shartnomalarning qoidalarga rioya qilingan holda, inson huquqlari masalalarini qamrab olgan maxsus xalqaro hujjatlar bazasi shakllantirilgan bo'lib, mazkur baza 1000 ga yaqin xalqaro hujjatlarni tashkil etadi.

Bu xalqaro hujjatlarda inson huquqlariga oid xalqaro standartlar belgilab qo'yilgan va ularning milliy qonunlarda ustuvorligi tamoyili aksariyat

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 77.

2 O'sha joyda.

davlatlar tomonidan tan olingan. Bu hujjatlarning qabul qilinishida xalqaro tashkilotlarning hissasi kattadir. Hozirgi kunda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 100 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan 160 dan ziyod, UNESCO da – 70 dan ortiq, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 200 dan ziyod, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan 30 dan ko'proq va boshqa turli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma, konvensiya, deklaratsiya va paktlar qabul qilingan.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq normalari hozirgi zamon xalqaro huquqida yuridik kuchlari nuqtayi nazaridan ikki turga: xalqaro majburiy (imperativ) xarakterdagi, yoki boshqacha qilib aytganda, "xalqaro qattiq huquq" (international hard law) va majburiy (deklarativ) xarakterga ega bo'lmagan, boshqacha qilib aytganda, "xalqaro yumshoq huquq" (international soft law)larga bo'linadi. Imperativ normalar deganda davlatlar tomonidan qo'shib, bajarilishi shart bo'lgan va uning bajarilishi bo'yicha alohida mexanizmlarga ega bo'lgan hujjatlar, konvensiyalar, paktlar va boshqa majburiy xalqaro shartnomalar tushunilsa, deklarativ hujjatlarda esa, davlatlarni bunday hujjatlar qoidalariga majburlovchi mexanizmlarga ega bo'lmagan va davlatlarni bunday hujjatlarni bajarishga undovchi chaqiriqlar bayon qilingan. Imperativ normalarni o'zida qamrab olgan hujjatlarga 1966-yilda qabul qilingan, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi hujjatlar kiradi.

Jamlanib, tartibga solinganligi bois, inson huquqlarining ana shu qismi xalqaro shartnomalar huquqi bilan mos keladi. Biroq, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, aytish joizki, xalqaro huquqning shu tarmog'i bilan cheklanib qolmaydi, binobarin, uning ko'pgina hujjatlari, masalan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1965-yilda qabul qilingan Yoshlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va xalqlararo xayrixohlik g'oyalarini tarqatish to'g'risidagi deklaratsiya shartnomaviy emas, tavsiyaviy xususiyatga, shuningdek, xalqaro rusum va odat xususiyatiga egadir¹.

Inson huquqlari va xalqlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Xalqlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquq deganda, odatda, mustaqillik uchun kurash olib borayotgan davlatlar hamda xalqlar maqomini tartibga soluvchi huquq tushuniladi. Bu huquq BMT Nizomida, 1970-yilda qabul qilingan Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiyada, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarda o'z aksini topgan. Keyingi vaqtlarda, xalqlarning huquqi deganda, xalqlarning rivojlanishga bo'lgan huquqi ham

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 78.

tushunilmoqda. Lekin bu huquq ayni chog'da xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan yuzaga kelgan hosila hamdir¹.

Biroq, inson huquqlari o'z ko'lamiga ko'ra xalqlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquqdan anchagina keng bo'lib, bunday huquqlarni muayyan qism sifatida o'z ichiga oladi. Zotan:

birinchidan, inson huquqlari tushunchasi xalqlarning huquqlariga nisbatan birmuncha universalroq xususiyatga ega; "xalq" alohida shaxslar, ya'ni, individlar birlashmasi shakllaridan biri va u, qoida tariqasida, tarixiy jihatdan "davlat" degan tushunchaga mos keladi;

ikkinchidan, xalqlarning huquqlari tushunchasi tarixan cheklangan xususiyatga ega. Bu tushuncha XX asrning 50 – 60-yillarida mustamlakachilik tizimi tanazzuli avjiga chiqqan bir pallada shakllangan bo'lib, shundan keyin u o'z ahamiyatini sekin-asta yo'qota bordi;

uchinchidan, xalqlarning huquqlari siyosat hamda o'zgaruvchan mafkura "bozori" bilan ancha keng tarzda chambarchas bog'liq. Bu hol Yugoslaviyaning parchalanib ketishi hamda turli qaynoq nuqtalardagi qurolli mojarolar bilan bog'liq voqealarda yana bir karra namoyon bo'ldi.

Shunga qaramay, yuqorida aytib o'tilgan fikrlar xalqlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquq ahamiyatini aslo kamaytirmaydi².

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa qilib aytish mumkinki, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalasi bugungi kunda milliy davlat chegaralaridan chetga chiqqan va jahon hamjamiyatining dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, inson huquqlari masalasini, ham davlatlar o'z tashqi siyosatining ustuvor masalalaridan biriga, ham xalqaro munosabatlarning obyektiga aylantirmoqda.

2. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq subyektlarining biri hisoblanadi. Bugungi kunda, xalqaro hayotning biror sohasi yo'qki, unda xalqaro tashkilotlarning ishtiroki bo'lmasa. Professor A.X. Saidovning yozishicha, xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining oqilona shakllaridan biri sifatida muhim rol o'ynaydi³. Shuning uchun ham, bugungi

1 "Rivojlanishga bo'lgan huquq, – deb ta'kidlaydi jazoirlilik alloma M. Bedjaou, – o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqadi". Qarang: Bedjaoui M. The Right to Development // International Law: Achievements and Prospects/Ed. By M. Bedjaoui. UNESCO, 1992. – P. 1184.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsaudinform-Nashr, 2006. – B. 80.

3 Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: Adolat, 2001. – B. 64.

davlatlararo munosabatlarni xalqaro tashkilotlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu bilan birga, qayd etish kerakki, bugungi kunda birorta ham xalqaro tashkilot bilan hamkorlik qilmaydigan birorta davlatni topib bo'lmaydi. Hozirgi paytda dunyoda 300 dan ortiq turli xalqaro hukumatlararo tashkilotlar mavjud. Xalqaro nohukumat tashkilotlarining aniq sonini esa, aniqlashning o'zi juda ham mushkul bo'lib, ular yigirma mingdan ortiqroqdir.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar – bu, a'zo-davlatlar irodasi bilan belgilanadigan hajmda mustaqil irodaga va davlatlarning huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadigan hosilaviy huquq va majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan organlarga ega bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalarida hamkorlikni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida va xalqaro huquqqa muvofiq tuzilgan davlatlarning birlashmasidir¹.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida xalqaro tashkilotlar huquqi degan alohida xalqaro huquq sohasi vujudga kelganki, ularni o'rganish inson huquqlari nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. **Xalqaro tashkilotlar huquqi** – xalqaro ommaviy huquqning mustaqil tarmog'i bo'lib, uning tamoyillari va normalari xalqaro tashkilotlarning tuzilish tartibi va ish faoliyatlarini, shuningdek, ularning xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Ya'ni, xalqaro tashkilotlar faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi xalqaro tashkilotlar huquqini tashkil etadi va u hozirgi zamon xalqaro huquqining mustaqil tarmog'i hisoblanadi².

Xalqaro tashkilotlarning o'zi xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlariga bo'linadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni ham, odatda, ularga a'zolik nuqtayi nazaridan universal, mintaqaviy, mintaqalararo xalqaro tashkilotlarga bo'lish qabul qilingan.

Inson huquqlarini xalqaro ko'lamda himoya qilishning:

- universal xalqaro tashkilot sifatida, BMT va uning UNESCO, Xalqaro mehnat tashkiloti kabi ba'zi ixtisoslashgan tashkilotlari doirasidagi universal;

- mintaqalararo tashkilot sifatida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasidagi mintaqalararo;

- mintaqaviy tashkilot sifatida Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, Amerika davlatlari tashkiloti, Afrika birligi tashkiloti singari xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasidagi mintaqaviy mexanizmlari shakllangan.

1 Международное публичное право. – М.: 1999. – С. 250.

2 Шибаева Е. Поточный М. Правовые вопросы структуры и деятельности международных организаций. – М.: Изд.-во МГУ, 1988. – С. 94.

Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish sohasida Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, "Xalqaro amnistiya" kabi mingdan ortiq xalqaro nohukumat tashkilotlari faoliyatlari doirasida inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro nohukumat tizimi shakllangan. Bu tizim, ayrim holatlarda "xalqaro fuqarolik jamiyati tizimi" deb ham ataladi.

Umuman olganda, XXI asrda inson huquqlari rivojlanishi jarayonining o'ziga xos xususiyati sifatida bu jarayondagi xalqaro tashkilotlarning faol ishtirokini e'tirof etish kerak. Shuning uchun ham, inson huquqlarini xalqaro tashkilotlar huquqi bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Inson huquqlarini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning roli turlichadir. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar inson huquqlari sohasida norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirishlari orqali muayyan davlatlarda va mintaqalarda inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar loyihalarini yaratadilar va ularning qabul qilinishi bo'yicha tashabbuslar bilan chiqishlari mumkin. Ular, yana shuningdek, xalqaro shartnomalarga davlatlar tomonidan rioya qilinishi bo'yicha tegishli nazorat funksiyasini ham olib boradilar. Muayyan davlatlarga inson huquqlari sohasida moliyaviy va texnik yordamni amalga oshirishlari mumkin. Xalqaro nohukumat tashkilotlari esa, faoliyat turiga ko'ra, muayyan inson huquqlari sohalari bo'yicha xalqaro norma ijodkorligi jarayonida takliflar bilan chiqishi mumkin, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasida davlatlarning inson huquqlari bo'yicha ma'ruzalari ko'rilayotgan paytda o'z hisobotlari bilan ishtirok etishi va muayyan davlatlar bilan bu sohada hamkorlik qilishi mumkin. Inson huquqlari masalalari va erkinliklarini himoya qilish va rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar to'g'risida qisqacha xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonda inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutsional mexanizm shakllandi.

3. Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari

Inson huquqlari va xalqaro huquqning o'zaro rivojlanishida inson huquqlari bo'yicha xalqaro konferensiyalarning ahamiyati juda muhimdir. Chunki, dunyoning barcha davlatlaridan davlat va jamoat arboblari, olimlar va mutaxassislar ishtirok etadigan bunday konferensiyalar turli mavzularda tez-tez o'tkazilib turadi. Xalqaro konferensiyalar ishtirokchilarining doirasi va soni unda ko'tariladigan mavzularga qarab turli xil bo'lishi mumkin.

Bunday konferensiyalar orasida inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu konferensiyalarda inson huquqlarining eng dolzarb muammolari muhokamaga qo'yiladi. Shu

paytgacha ikki marotaba inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi o'tkazilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 20 yilligi Xalqaro inson huquqlari yili deb e'lon qilingan 1968-yilda nishonlandi. O'sha yilning eng asosiy voqeasi 22-aprel – 13-may kunlari Eronning Tehron shahrida bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konferensiya bo'ldi. Bu – hukumatlarning faqat yagona mavzuga bag'ishlangan Birinchi Butunjahon konferensiyasi edi. Ushbu Konferensiya yakunida qabul qilingan Da'vatnomada fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bo'linmas huquqlar sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, ushbu anjumanda qabul qilingan Tehron deklaratsiyasida shunday deyilgan: *"Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi jahon xalqlarining, xususan, har bir insonning ajralmas va mustahkam huquqlari bo'yicha umumiy bitimni o'zida namoyon qilib, xalqaro hamjamiyatning barcha a'zolari uchun majburiydir"*¹. Anjuman Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillariga chuqur ishonch bilan qarash lozimligini qayd etib, jahondagi barcha xalqlar va davlatlarni ana shu tamoyillarni amalga oshirish uchun kuch-g'ayrat sarflashga chaqirdi. Anjumanda insonni jismoniy barkamollikka, aqliy va ruhiy yetuklikka, ijtimoiy ro'shnolikka olib keluvchi shart-sharoitlarning huquqiy asoslarini ta'minlovchi omillar bu tarixiy hujjat mazmunining asosiy jihatlaridan biri ekanligi to'g'risida muhim fikrlar ilgari surildi.

Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi Butunjahon konferensiyasi (Vena, 1993) Tehronda bo'lib o'tgan Birinchi Butunjahon anjumanidan buyon inson huquqlarini himoya etish borasida amalga oshirilgan ishlarga yakun yasadi. Dunyoning ko'pgina joylarida inson huquqlari himoyasi va unga amal qilish xavf-xatar girdobida qolgan damlarda Deklaratsiyaning universalligi va inson huquqlari muammosining markaziy roli yana bir bor tasdiqlandi. Misli ko'rilmagan miqyosdagi hukumatlar delegatsiyalari va inson huquqlari bo'yicha nohukumat tashkilotlarining vakillari ishtirok etgan konferensiya 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan damlardan boshlab birmuncha taraqqiyot ko'zga tashlanganligini ta'kidladi, u mavjud to'siqlarni aniqladi va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilab berdi.

Konferensiya a'zo-davlatlar, inson huquqlari bo'yicha nohukumat tashkilotlari va boshqa tizimlarning mavjud inson huquqlari bo'yicha qonunlar majmuasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti yordamida faol hayotga tatbiq etilishini talab qilishiga a'zo-davlatlarning ishonchi mustah-

1 Воззвание Тегеранской конференции. <http://www.un.by/documents/humrights/tegeran/>

kamlanayotganligini namoyish etdi. Ikkinchi Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturida inson huquqlarining universal xususiyati hamda irqchilikning, kamsitish, ksenofobiya va murosasizlikning har qanday shakllariga qarshi kurash olib borish zarur ekanligi yangicha tarovat bilan ta'kidlangan. Xotin-qizlar, bolalar, kam sonli va tub yerli xalqlar huquqlariga alohida ahamiyat berilgan¹. Vena deklaratsiyasida "inson huquqlari – xalqaro hamjamiyatning qonuniy tashvishiga aylandi", deb ta'kidlandi. Keyinroq Vena deklaratsiyasida "demokratiya, taraqqiyot, inson huquqlarini hurmatlash va ozodlik bir-birini to'ldiradi va yaqindan o'zaro aloqada bo'ladi", deya e'lon qilindi.

Deklaratsiya inson huquqlarining umumiy xarakterini ta'kidlab o'tadi: *"Barcha odamlar mushtarak, o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador bo'lgan huquqlarga egadir. Xalqaro hamjamiyat huquqqa bir butun hujjat sifatida va yer yuzidagi barcha odamlarga bir xil qoida va tamoyillar bilan adolat va tenglik asosida qo'llaniladigan manba sifatida qarashi kerak. Milliy va hududiy o'ziga xosliklarni, tarixiy, madaniy va diniy an'analarni hisobga olib, har bir mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzumdan qat'i nazar, davlat inson huquqlari va asosiy ozodlikka amal qilishi va ularni himoya etishi zarur"*. Shuningdek, Vena konferensiyasi ta'kidlaydiki, qaysi sohada inson huquqlari himoya etilsa, bu hol yana ham o'ziga xos xususiyatlar kasb eta boshlaydi: bular – genotsidga barham berish, qullikni yo'qotish, qiynoqqa solishga qarshi kurash, kamsitishlarning barcha shakllarini, ayniqsa, irqiy va jinsiy jihatdan, diniy mansubligi va e'tiqodi tufayli kamsitishlarga barham berishdan iborat².

Bundan tashqari, huquqlari himoyaga muhtoj bo'lgan insonlarning toifalari aniq belgilab berilgan. Bular – ayollar, tub xalqlar, qochoqlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, bolalar, nogironlar, noqonuniy qamoqda tutib turilganlar va zo'rlik bilan yo'qotish qurbonlari, shuningdek, mehnatkash-migrantlar va ularning oilalari. Bularning barchasi mavjud muammoga yana ham jiddiy e'tibor bilan qarashga undamoqda. Konferensiyada 171 davlat tomonidan bir ovozdan qabul qilingan Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi inson huquqlariga amal qilish va inson huquqlarini himoya etish ishida yangi tarixiy qadamlar tashlanganini ta'kidladi. Bu haqda quyidagilar asosida munosib baho berish mumkin:

birinchidan, insonlarning barcha huquqlarining umumiyligi, mushtarakligi, o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligi e'lon qilindi;

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 137.

2 Qarang: Венская декларация и Программа действий: Сб. документов. – М.: 1998.

ikkinchidan, shaxsning rivojlanish huquqi va inson huquqlari bilan taraqqiyot o'rtasidagi uzviy aloqa mavjudligi yana tasdiqlandi;

uchinchidan, inson huquqlari to'g'risidagi shartnomalarni umumiy ratifikatsiya qilish jarayoni tezlashdi.

Ushbu Konferensiyada ko'tarilgan yana bir muhim masala, bu inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyati va ularni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Rahbariy tamoyillarni qabul qilish bo'ldi. Konferensiya inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish masalalari bo'yicha milliy institutlarning, shu jumladan, mo'tabar vakolatli organlar huzuridagi maslahat tuzilmalarining muhim rolini, ularning buzilgan inson huquqlarini tiklashdagi, inson huquqlari to'g'risidagi axborotlarni tarqatishdagi va inson huquqlari bo'yicha ta'limdagi o'rni yana bir marotaba e'tirof etdi. Milliy institutlar faoliyatini kuchaytirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish masalalariga oid yana bir eng muhim katta tadbirlardan biri 2000-yildagi *BMTning Mingyillik sammitidir*. Mingyillik sammiti eng kechiktirib bo'lmaydigan global tahdidlarga e'tiborni jalb etish uchun 189 davlatning yetakchilarini to'pladi. Sammitga to'plangan davlat yetakchilari o'zlariga ushbu olamni butun insoniyat uchun yanada yaxshiroq qilish majburiyatini oldilar. Davlatlarda qashshoqlikka qarshi kurashish, xizmatlarning asosiy turlaridan foydalanishni yaxshilash, kasalliklar tarqalishini kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirishning noyob imkoniyati yuzaga keldi. Sammitda qabul qilingan Mingyillik deklaratsiyasi XXI asrning global kun tartibini belgiladi va Mingyillik taraqqiyoti maqsadlari (MTM) sifatida mashhur bo'lgan sakkizta aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan vazifalarni oldinga qo'ydi¹. Mingyillik taraqqiyoti maqsadlari sifatida belgilab olingan va insoniyat 2015 yilgacha erishishi kerak bo'lgan taraqqiyot maqsadlari quyidagilardir:

birinchi maqsad: haddan ortiq qashshoqlik va ocharchilikni bartaraf etish;

ikkinchi maqsad: yalpi boshlang'ich ta'limga erishish;

uchinchi maqsad: ayollar va erkaklarning tengligini rag'batlantirish hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

to'rtinchi maqsad: bolalar o'limini kamaytirish;

¹ Mingyillik taraqqiyoti maqsadlari – amalda. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma'rifiy jurnal. 3-son, 2010. – B. 2.

beshinchi maqsad: onalar salomatligini yaxshilash;

oltinchi maqsad: OIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurash;

yettinchi maqsad: ekologik barqarorlikni ta'minlash;

sakkizinchi maqsad: taraqqiyot maqsadlarida global sheriklikni shakllantirish.

BMT Mingyillik deklaratsiyasida shakllantirilgan taraqqiyot maqsadlari inson huquqlarini, ayniqsa, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda kuchli rag'batlantiruvchi imkoniyat omili hisoblanadi. Mingyillik taraqqiyoti maqsadlari va inson huquqlarini himoya qiluvchi standartlar ancha darajada bir-birini to'ldiradi, ammo inson huquqlari undan ham kengroq tushunchadir. Birinchi o'rinda, davlat o'z zimmasiga oladigan majburiyatlari xususiyati bilan farq qiladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni qo'shgan holda inson huquqlari bo'yicha majburiyatlar majburiy yuridik kuchga ega, MTM esa, siyosiy xarakterdagi majburiyat hisoblanadi. MTM majburiy yuridik kuchga ega bo'lmagan Mingyillik deklaratsiyasida kelishib olingan vazifalarni aks ettirish uchun ishlab chiqilgan qator nazorat ko'rsatkichlar hisoblanadi. Biroq qayd etish kerakki, Mingyillik deklaratsiyasi so'zsiz inson huquqlari bo'yicha normalar va andozalarni e'tirof etishga qaratilgan. Shunga muvofiq ravishda, Mingyillik maqsadlariga har bir davlat inson huquqlari bo'yicha normalar va standartlarga muvofiq ravishda o'z zimmasiga olgan huquqiy majburiyatlariga mos tarzda erishishi kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik taraqqiyoti maqsadlari monitoringi jahon miqyosida va milliy darajalarda amalga oshiriladi. Jahon darajasida bu yo'nalishda qilingan ishlar to'g'risida BMT Bosh kotibi har yili Bosh Assambleyaga hisobot beradi. Milliy darajada Mingyillik maqsadlari ijrosi bo'yicha hisobotlar e'lon qilinadi.

2010-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida BMTning sammiti o'tkazilib, unda Mingyillik taraqqiyoti maqsadlariga belgilangan muddatda – 2015-yilgacha erishish bo'yicha harakat rejalari belgilab olindi. BMT Bosh kotibining mazkur sammitga tayyorlagan "Va'dalarning bajarilishi" ma'ruzasida MTM maqsadlariga faqat xalqaro hujjatlarda inson huquqlari sohasida belgilab qo'yilgan standartlarga rioya etish orqali erishish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Bu norma va qadriyatlar "o'zaro hamkorlik asoslarini, jumladan, kamsitish, samarali ishtirok etish va mas'uliyatga taalluqli inson huquqlari tamoyillarini ta'minlaydi".

Sammitda dunyoda xalqaro miqyosda e'tirof etilgan kambag'allik darajasi kuniga 1,25 AQSh dollaridan kam haq oluvchi insonlarning soni 1990-yildan 2005-yilgacha 1,8 milliard kishidan 1,4 milliard kishiga kamaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda juda ham nochor ahvolda yashaydiganlarning foizi 46 foizdan 27 foizga kamaydi. Iqtisodiy inqiroz natijasida 2010-yilda taxminan 64 million kishi qashshoqlik darajasiga tushib qolishi qayd etilgan edi¹.

Boshlang'ich ta'limni qamrab olish o'sib bormoqda va rivojlanayotgan mamlakatlarda 2008-yilda 89%ni tashkil etdi. 1999-yildan 2008-yilgacha bo'lgan davrda o'quvchilarning soni Afrikaning Sahroi Kabiridan janubda joylashgan mamlakatlarda 18 foizga, Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrikada esa, tegishli ravishda 11 va 8 foizlarga oshdi.

Biroq, 2015-yilga borib, barcha o'g'il va qiz bolalarning boshlang'ich maktab ta'limini olishi uchun rivojlanish ko'rsatkichlari yetarli emas. 2008-yilda 69 million maktab yoshidagi bolalar maktabga borishmagan. Bu ko'rsatkich 1999-yilda 106 millionni tashkil etgan. Bu bolalarning qariyb to'rt dan uch qismi Afrikaning Sahroi Kabiri janubida (31 million) yoki Janubiy Osiyoda yashaydi.

1990-yildan buyon taxminan 1,7 milliard atrofidagi aholi xavfsiz ichimlik suvi ta'minotiga ega bo'ldi. Shunga qaramay, jahonda 884 million kishi xavfsiz ichimlik suvi ta'minotiga muhtoj, 2,6 milliard kishi esa, hojatxona va tozalovchi kabi oddiy sanitar-texnikaviy qulayliklarga ega emas.

Sammitda 2010-yilga kelib, jahonda bioturfaxillikni asrash bo'yicha vazifa hal qilinmaganligi, hozirgi tendensiyalardan kelib chiqib, bioturfaxillikni yo'qotish XXI asrda ham davom etishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan edi.

2011-yil 19-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi o'zining yalpi majlisida bir ovozdan Inson huquqlari sohasida ta'lim va o'qitish to'g'risidagi BMTning deklaratsiyasini qo'llab-quvvatladi va bu bilan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi doirasida 2007-yilda boshlangan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi yangi xalqaro standartni ishlab chiqish jarayoni tugadi.

Deklaratsiyada inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorlov hech bir yosh yoki malakaviy guruhlar nuqtayi nazaridan cheklanishi mumkin emas. Matnda bunday ta'lim – maktabgacha, maktab, o'rta va oliy ta'limni qo'shgan holda (3-modda, 1, 2-qism) ta'limning barcha bosqichlarida va butun hayot mobaynida davom etuvchi hamda jamiyatning barcha yoshdagilari va barcha qatlamlarini qamrab olishi lozimligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib qo'yildi. Pedagog xodimlar – instruktorlar, o'qituvchilar va davlatning mansabdor shaxslarini tayyorlashning muhimligi alohida ko'rsatib qo'yildi (3-modda, 3-qism).

¹ BMTning Mingyillik taraqqiyot maqsadlari bajarilishi to'g'risida batafsil ma'lumotlarni BMTning rasmiy saytidan olish mumkin: www.un.org.

Deklaratsiyaning 4-moddasiga muvofiq, inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tayyorlov quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- inson huquqlari va erkinliklari sohasida bilimlar, tushunishlarning hamda huquqni himoya qilishning universal normalar va prinsiplar, shuningdek, bu huquq va erkinliklarni himoya qilish maqsadida xalqaro, mintaqaviy va milliy darajadagi kafolatlar qabul qilishning darajasini oshirish;

- har bir insonning boshqalarning huquqlariga nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini tushunishini qayd etgan holda inson huquqlarining universal madaniyatini rivojlantirish, insonning erkin, tinch, plyuralistik va inklyuziv jamiyatning mas'uliyatli a'zosi sifatida rivojlanishiga ko'maklashish;

- barcha inson huquqlarining samarali amalga oshirilishiga, bag'rikenglik, kamsitilmaslik va tenglikni rag'batlantirishga erishish;

- kamsitishlarsiz inson huquqlari bo'yicha sifatli ta'lim va tayyorlovga imkoniyatni taqdim etish yo'li bilan barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlab berish;

Inson huquqlarining buzilishi va ularni suiiste'mol qilishni bartaraf etishga qo'maklashish hamda kamsitishlar, irqchilik, bid'atchilik va boshqalarga nisbatan nafratni qo'zg'atuvchilikning barcha shakllariga qarshi kurash.

Inson huquqlari sohasida ta'lim va o'qitishning prinsiplari orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va bu sohadagi universal xalqaro shartnomalarga suyanish (4-modda), kamsitilmaslik (5.1-modda), imkonlilik (5.2.), jamiyat va barcha manfaatdor tomonlarning davlatning boshqaruvchilik rovida ishtirok etishi (7-10-moddalar), shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar va og'zaki madaniyat vositalarini joriy qilishning zaruriyatini (6-modda) alohida ko'rsatib o'tish zarur.

Inson huquqlari sohasida ta'limda "inson huquqlarining universal-ligida qanday aks etgan bo'lsa", tamaddunlar, dinlar, turli mamlakatlarning madaniyatlari va an'analarning turfa xilligi prinsipining qo'llanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda (5.3-modda). Shu bilan bir qatorda nafaqat inson huquqlarining universallik xususiyati tasdiqlanmoqda, balki, universallik ko'rinishi ostidagi muayyan davlatlar yoki tamaddunlar uchun xarakterli bir tomonlama talqin qilinishlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ham bilvosita xulosa qilinmoqda. Inson huquqlari sohasida ta'lim va o'qitishni rag'batlantirish va ta'minlashda bosh rolni, keng ishtirokchilik, ochiqlik va mas'uliyatlilik

ruhida faoliyatini amalga oshirishi lozim bo'lgan davlatga yuklanadi (7-moddaning 1-qismi).

Davlat, birinchi navbatda jarayonga ishtirokchilarning iloji boricha keng qamrovini – ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususiy sektor va boshqa subyektlarni jalb etish uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishi lozim (7-moddaning 2-qismi). Milliy inson huquqlarini himoya qiluvchi muassasalar ham o'z rollarini o'ynashi lozimligi ko'rsatib o'tilgan (9-modda).

Inson huquqlari sohasida ta'limning muhimligi huquqni qo'llash faoliyatiga bevosita jalb etilgan mansabdor shaxslar (sudyalalar, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari va shu kabilar) uchun alohida qayd etilgan. Davlat nomidan harakat qiluvchi xususiy tuzilmalarning tarkibini tegishli tashkilotlarning zaruriyatiga alohida urg'u berildi (7-moddaning 4-qismi). Bu davlat buyurtmasini bajaruvchi xususiy korxonalarning xodimlari tomonidan sodir etilayotgan inson huquqlari buzilishi va suiiste'molliklarga nisbatan xalqaro hamjamiyatning o'ziga xos javobi bo'ldi.

Deklaratsiyada xalqaro darajada qilinishi lozim bo'lgan qator qadamlar belgilab qo'yildi. Xususan, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarga o'z tarkibiga inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tayyorlovni taqdim etish tavsiya etildi (11-modda). Davlatlar va xalqaro hamkorlikning boshqa subyektlariga barcha darajalarda tegishli dasturlarni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarga ko'maklashish taklif etildi (12-modda 1, 2-qismlari). Deklaratsiyada, shuningdek, davlatlarning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini bajarishi ustidan xalqaro nazoratining muammosi ham o'z aksini topdi. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro va mintaqaviy mexanizmlarga, o'z faoliyatida inson huquqlari sohasidagi ta'limning muammolarini hisobga olishi, davlatlarga bu sohadagi chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarni o'z hisobotlariga qo'shishi (birinchi o'rinda Universal davriy tahlil va inson huquqlari sohasida universal xalqaro shartnomalar doirasidagi hisobotlar ko'zda tutilmoqda) tavsiya etildi.

Deklaratsiya inson huquqlari sohasida xalqaro huquqni rivojlantirish jarayonida muhim voqea bo'ldi. Unda, inson huquqlarini rag'batlantirish va ilgari surishning muhim instrumentlaridan biri sifatida – inson huquqlari sohasida ta'lim va tayyorlovning asosiy parametrlari belgilab olindi va konseptual rivojlantirildi. Undan tashqari, davlatlarga, nodavlat subyektlar va xalqaro tashkilotlarga harakat uchun kompleksli va shu bilan bir vaqtda predmetli tavsiyalar berildi.

4. Globallashuv va XXI asrda inson huquqlari rivojlanishining dolzarb masalalari

XXI asrga kelib, inson huquqlari masalasi xalqaro hamjamiyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Uning dolzarb muammoga aylanishiga sabab, birinchidan, hali davlatlar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari qo‘pol va tizimli ravishda buzilishlari davom etayotgani bo‘lsa, ikkinchidan esa, inson huquqlari masalasi ko‘pincha ba‘zi davlatlar tashqi siyosatining quroliga aylanib qolmoqda. Buning natijasida esa, inson huquqlari bo‘yicha “ikki tomonlama standartlar”, “gumanitar intervensiya” degan tushunchalar paydo bo‘lmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi ikki tomonlama standartlarda, ba‘zi davlatlar (ayniqsa, AQSh, ayrim Yevropa mamlakatlari) va xalqaro tashkilotlar kabi subyektlar, ayrim hollarda boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro munosabatlarda inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalarini qo‘llashda bir xil bo‘lmagan siyosat yuritishmoqda. Misol uchun, bunday holatlar, saylov to‘g‘risidagi xalqaro normalarni qo‘llashda, xalqaro kuzatuvchilikda, shuningdek, saylov natijalarini tan olishda, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Aksariyat hollarda, yangi rivojlanish yo‘liga o‘tgan, ayniqsa, ushbu g‘arb davlatlariga xayrixoh bo‘lmagan sobiq sotsialistik lagerda bo‘lgan davlatlardagi saylov natijalarini, saylov qanday tarzda o‘tishidan qat’i nazar, e‘tirof etmaslik, xalqaro standartlarga muvofiq emas, deb topish va ayni shu vaqtning o‘zida, boshqa davlatlarda esa, ya‘ni Yevropa mamlakatlarida yoki ularga xayrixoh davlatlarda saylov qonunchiligi normalari ommaviy buzilgan hollarda ham demokratik va qonuniy o‘tdi, deb e‘tirof etish hollari bunday davlat va xalqaro tashkilotlarning faoliyatiga ishonchsizlik bilan qarashga va o‘z navbatida, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarning turli xil talqin qilinishiga olib kelmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirishda xalqaro hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi. Bu jabhada Inson huquqlari bo‘yicha II-Butunjahon konferensiyasi (Vena, 1993-y.) mamlakatlar uchun muhim voqelik va yo‘l-yo‘riq bo‘ldi, uning yakuniy hujjatlarida inson huquqini rag‘batlantirish va himoyalash ishida asosiy mas‘uliyat davlatlar zimmasida ekanligi, ya‘ni, xalqaro institutlar va mexanizmlar yordamchi rol o‘ynashi haqidagi qoida qayd etilgan. Har bir mamlakatdagi huquqni himoya qilish bilan bog‘liq vaziyat xalqaro hamjamiyatni so‘zsiz tashvishga solishini e‘tirof etib, O‘zbekiston, ayni vaqtda, unga nisbatan inson huquqlari mavzusini siyosiylashtirishga intilishlar va “ikki tomonlama standartlar” siyo-

satiga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasligi lozim, deb hisoblaydi va inson huquqlari bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishda universallik, beg‘arazlik, xolislik va bir xillikni ta‘minlashga chaqiradi.

Ta‘kidlash lozimki, BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasida qabul qilingan “Inson huquqlari bo‘yicha teng huquqlilik va o‘zaro hurmat qilish munosabatlarini rag‘batlantirish” to‘g‘risidagi 61/166-sonli Rezolyutsiyani qabul qilishda O‘zbekiston tashabbuskorlardan biri bo‘ldi, unda “ayrim mamlakatlarda inson huquqlari sohasidagi holat haqida siyosiy asoslanmagan va shoshma-shosharlik bilan qarorlar qabul qilishdan, bir-biriga qarshilik qilish uslublari, inson huquqlaridan siyosiy maqsadlarda foydalanish hollaridan voz kechish zarurligi”ga alohida urg‘u berilgan hamda “inson huquqlari bo‘yicha xalqaro uchrashuvlarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy xilma-xillik mamlakatlar o‘rtasida barqaror va do‘stona munosabatlarni rivojlantirish hamda xalqaro uchrashuvlarda teng huquqlilik va o‘zaro hurmat qilish” zarurligi e‘tirof etilgan.

Hozirgi zamon inson huquqlaridagi yana bir muammo, bu masalan, *“gumanitar intervensiya”* nazariyasi kabi xalqaro huquqda normativ asosda e‘tirof etilmagan doktrinalardan ayrim davlatlar tomonidan o‘z tashqi siyosatida foydalanishdir. Ushbu muammo, ya‘ni, “gumanitar intervensiya”ni qo‘llashning haqqoniyligi turli xil xalqaro konferensiyalarda, shu jumladan, Butunjahon Xalqaro huquq assotsiatsiyasi konferensiyalarida ham muhokama qilingan¹.

Hozirgi zamon xalqaro huquq fanida ayrim olimlar tomonidan gumanitar intervensiyani qo‘llash mumkinligiga oid turli xil mezonlar ilgari surilmoqda va ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) inson huquqlari qo‘pol ravishda buzilishi sodir bo‘lishining xavfi muayyanligi yoki uning sodir bo‘lishi;

2) mumkin bo‘lgan tinch vositalarning barchasidan foydalanib bo‘linishi va natija chiqmaganligi;

3) davlatga inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishini to‘xtatishni talab qilib ultimatum taqdim etilgan bo‘lishi kerakligi;

4) agar vaqt yetarli bo‘lsa, davlat gumanitar intervensiya davomida erishiladigan maqsadlari to‘g‘risida xabar berishi kerakligi;

5) agar Xavfsizlik kengashi harakatsizlik qilayotgan bo‘lsa, gumanitar intervensiya qo‘llanilishi mumkin;

6) imkoniyati boricha, uning hududiga qo‘shin kiritilishi uchun davlatdan taklifnoma olish maqsadga muvofiq;

¹ Law and Force in the New International Order. 1991. Boulder. – P. 113–142.

7) harbiy kuchni faqat qo'pol ravishda inson huquqlarining buzilishiga barham berish maqsadida qo'llash lozim va davlatning boshqa maqsadlarida ishlatilishi mumkin emas;

8) harbiy kuchni qo'llashda davlatning siyosiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy tuzumini o'zgartirishni, hukumatni ag'darish maqsadlarini ko'zlamaslik kerak;

9) "gumanitar intervensiya" vaqtida faqat maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan miqyosda cheklangan qo'shin kontingentini ishlatish lozim;

10) qurolli kuchlarni cheklangan vaqtda qo'llash mumkin va "gumanitar intervensiya" o'z maqsadiga erishgandan so'ng, qo'shin ajnabiy hududdan chiqarilishi lozim¹. Ammo, shuni alohida ta'kidlash lozimki, "gumanitar intervensiya" tushunchasi biror-bir xalqaro huquqiy hujjatda o'zining aniq ta'rifi va huquqiy maqomini olmagan. Bu faqat ayrim davlatlarda doktrina shaklida ishlatilmoqdaki, mazkur holat ana shu davlatlarning muayyan davlatlarga nisbatan siyosatida jiddiy qurolga aylanmoqda. Masalan, gumanitar intervensiya nazariyasi sobiq Yugoslaviya, Iroq kabi davlatlar hududlariga bostirib kirishda AQSh boshchiligidagi davlatlar uchun tayanch-asos vazifasini o'tadi.

XXI asrda inson huquqlari rivojida yana bir muhim nazariy va amaliy muammolardan biri, bu "madaniy relyativizm" muammosidir.

Madaniy relyativizm – bu shunday metodologik ko'rsatmaki, u ayrim mahalliy (lokal) madaniyatlarga xos, ko'zga yaqqol tashlanib turadigan tafovutlarga asoslangan holda, universal, umumbashariy qadriyatlar va tamoyillarni rad etadi. Madaniy relyativizm inson huquqlariga tatbiqan bu huquqlar G'arb madaniyati mahsuli va shu sababli ularni universal deb hisoblab bo'lmaydi, degan tasdiqda namoyon bo'ladi².

Inson huquqlari talqinidagi madaniy relyativizm tarafdorlari orasida Osiyo mamlakatlari, xususan, Xitoy hamda Eron huquqshunoslari va siyosatshunoslari ko'pchilikni tashkil etadilar. Ular mazkur metodologik ko'rsatmadan mamlakatlarda inson huquqlari buzilayotganligi borasida, odatda, xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan tanqidga qarshi dalil sifatida foydalanadilar.

Inson huquqlarini milliy psixologiya va mahalliy xususiyatlarga qarab talqin qilishning har xil usullarini rad etadiganlarning fikriga qo'shilish mumkin. Bunday talqinlar inson huquqlarini buzish hollarini oqlashga xizmat qila boshlagunga qadar ularga yo'l qo'ysa bo'ladi. Binobarin, bunday talqinlar kerak, aks holda, madaniy relyativizmdan boshqa tarafga – **huquqiy idealizm** tarafiga butunlay og'ib ketish mumkin, deydi A.X. Saidov³.

1 Права человека. Учебник для вузов. /Под. ред. Лукяшева Е.А. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 504.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 179.

3 O'sha joyda. – B. 180.

XXI asrdagi inson huquqlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, bu uning universalligidir. Turli-tuman madaniyat va an'analar inkishof etilgan bu azaliy dunyoda inson huquqlarining universalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, inson huquqlari sohasida norma ijodkorligi izchil davom etayotgan va hali poyoniga yetmagan jarayondir. Inson huquqlari va bu sohadagi xalqaro normalar kelajakda qanday rivojlanishi, avvalambor, davlatlarning o'ziga bog'liq. Shu sababli inson huquqlarining universalligiga oldindan belgilab qo'yilgan qandaydir mezon deb qaramaslik kerak. Ya'ni, inson huquqlari tabiatan barcha insonlarga va xalqlarga tegishli bo'lsa-da, ular xalqaro norma ijodkorligiga asoslangan, shu bilan bir qatorda, milliy va mintaqaviy xususiyatlarning ahamiyatini hamda turli tarixiy, madaniy va diniy kontekstlarning mohiyatini inobatga olgan holda ko'rib chiqilmog'i kerak.

Ikkinchidan, inson huquqlari siyosiy taraqqiyotning muayyan bir davri yoki bosqichiga taalluqli bo'lmaydi. Ya'ni, bu faqat sof G'arbning mahsuli bo'lib qolmasdan, boshqa madaniyatlar, an'analar va dinlarda ham inson huquqlari to'g'risidagi qoidalarni o'zida aks ettirgan g'oyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu g'oyalar zamonaviy inson huquqlarining, ya'ni, bu sohadagi xalqaro hujjatlarning ishlab chiqilishi, qabul qilinishi va takomillashtirilishida katta va asosiy rol o'ynamoqda¹.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, XXI asrda, ya'ni, globallashuv yanada jadal rivojlanib borayotgan bir jarayonda, davlatlarning inson huquqlari bo'yicha hamkorligi masalasi ularning ham ichki siyosati, ham tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur holat bu masalada ham nazariy va shu bilan bog'liq holda amaliy muammolarni ham keltirib chiqarmoqdaki, bu muammolarni hal etish "Inson huquqlari" fanining va mazkur fanning alohida sohasi sifatida ajralib chiqayotgan inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bugungi globallashuv asrida eng muhim muammolardan biri **terrorizmga qarshi kurashdir**. Terrorizm o'z oldiga inson huquqlari, demokratiya va qonuniylikni yo'q qilishni maqsad qilib qo'ygan. U BMT Ustavi va boshqa xalqaro shartnomalar asosida bo'lgan qadriyatlarga, inson huquqlarini hurmat qilishga, huquqning ustuvorligiga, fuqarolar, aholini himoya qiluvchi urush olib borish qoidalariga; xalqlar va mamlakatlar

¹ Qarang: Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 180–181.

o'rtasidagi bag'rikenglikka, mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga zarba beradi.

Terrorizm ayrim inson huquqlari, xususan, yashash huquqi, erkinlik va jismoniy daxlsizlikni amalga oshirish imkoniyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Terroristik xurujlar hukumatni nobarqarorlashtirishi, fuqarolik jamiyatini, tinchlik va xavfsizlikni buzishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonini xavf ostiga qo'yishi hamda aholining ayrim guruhlariga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bularning hammasi insonning asosiy huquqlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir qiladi.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarda davlat o'z yurisdiksiyasi ostidagilarni terroristik xurujlardan himoya qilishga huquqli va majbur ekanligi aniq belgilab qo'yilgan. Bu qoida o'z yurisdiksiyasi ostidagi shaxslarning inson huquqlariga tajovuz qilinishidan himoya qilishi bilan bog'liq bo'lgan davlatning umumiy majburiyatlaridan kelib chiqadi. Agar, yanada aniqroq qilib aytilsa, bu majburiyat davlat tomonidan insonning yashash huquqi hamda xavfsizligining hurmat qilinishini kafolatlash bo'yicha majburiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

2005-yili Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan Butunjahon Sammitining Yakunlovchi hujjatida terrorizm bilan kurash olib borishda inson huquqlarini hurmat qilish masalasi ko'rib chiqildi va terrorizmga qarshi kurash borasidagi xalqaro hamkorlik BMT Ustavi, tegishli konvensiya va protkollarni qo'shgan holda xalqaro huquq normalariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim, deb xulosa qilindi.

Cheklangan hollarda, misol uchun, millat hayoti xavf ostiga tushib qoladigan davlatdagi favqulodda holat qoidalaridagina davlat Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning ayrim normalaridan cheklanishi to'g'risida choralar ko'rishi mumkin. 4-moddada ishtirokchi-davlat Paktda ko'zda tutilgan ayrim majburiyatlaridan qonuniy asoslarda orqaga qaytishi uchun bajarishi shart bo'lgan formal va mavjud talablarni bajarishi lozimligi bayon etilgan. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan ayrim inson huquqlaridan voz kechishga hattoki, favqulodda holatlar davrida ham yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 4-moddasi 2-qismida chekinish mumkin bo'lmagan huquqlar sifatida yashash huquqi, qiynoqqa yoki shafqatsiz, noinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoga mustahiq bo'lmaslik huquqi, qullik va tobelik holatini taqiqlash, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganligi asos qilingan holda ozodlikdan mahrum qilishga duchor bo'lmaslik huquqi, sodir etilgan paytida jinoyat

hisoblanmagan harakat uchun jazoga tortilmaslik huquqi, huquq subyektiligi e'tirof etilishiga bo'lgan huquq, shuningdek, fikrlash, vijdon va din erkinligi ko'rsatib o'tilgan.

XXI asrga kelib, inson huquqlari va biznes o'rtasida o'zaro bog'liqlik yanada keskinlashib bormoqda. Bu bog'liqlik ishlab chiqarishda, savdoda va umuman samarali biznesni amalga oshirishda, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bilan yanada kuchaydi.

Savdoning ko'p tomonlama tizimi va uning asosiy prinsiplari inson huquqlarini amalga oshirishning majburiy sharti hisoblanadi. Ikki tizim ham xalqaro tinchlik saqlab turish va yanada barqaror xalqaro munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Savdoning ko'p tomonlama tizimi asosiy prinsiplari hisoblanmish muomalaning milliy rejimi va millatlarning nisbatan qulayroq rejimi shaxsiy erkinlikka, kamsitishlardan xoli, teng imkoniyatlar va qonuniylikka rioya etilishi bilan bog'liq inson huquqlari masalalari o'rtasida qandaydir umumiylik borligini bildiradi.

Jahon savdo tashkilotiga (JST) ko'ra ochiq savdo iqtisodiy farovonlikni oshirish va bandlik yoki ta'limga imkon beruvchi inson huquqlarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish orqali inson huquqlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash ishida muhim rol o'ynaydi. Mehnat va savdoning bo'linishi orqali yaratiladigan iqtisodiy foydalarsiz inson qadri va daxlsizligini ko'zda tutuvchi inson huquqlari maqsadlarini kafolatlab bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda, bu o'z o'zidan bo'ladigan jarayon hisoblanmaydi, mavjud qoidalar global tarzda adolatli hisoblanadi va bunga rioya qiluvchi barchaning manfaatlariga mos keladi.

Savdoning ko'p tomonlama tizimi sharoitlarining o'zgarishiga hamda JSTning mandati bilan qamrab olinuvchi rivojlanish omilining ustuvorligiga moslashish maqsadlarida JST a'zolari 2001-yilda rivojlanish sohasida Doha kun tartibini amalga oshirishni boshlashdi. O'zgarish uchun juda muhim bo'lgan argument iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitlarning o'zgarishi hamda rivojlanish va kambag'allik muammolarini hal etishning zaruriyati bo'ldi.

Globallashuv va umumjahon tendensiyalari sharoitlarida oxirgi o'n yilliklarda transmilliy korporatsiyalar (TMK) va boshqa korxonalar kabi nodavlat tuzilmalarning ham xalqaro miqyosdagi ham milliy va mahalliy miqyoslardagi ahamiyati oshib bormoqda. Mazkur subyektlarning o'sib borayotgan ta'siri tijorat tashkilotlarining inson huquqlariga nisbatan roli va mas'uliyati to'g'risidagi bahs, munozarani kuchaytirib yubordi.

Davlat va alohida shaxslar, shaxslar guruhlarini o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga

rioya etilishi bo'yicha mas'uliyat an'anaviy ravishda hukumatlar zimmasida bo'lgan. Biroq, tijorat tuzilmalarining milliy va xalqaro darajadagi roli oshib borishi bilan BMT biznesning inson huquqlari amalga oshirilishiga ta'siri masalasini o'zining kun tartibiga qo'ydi. Oxirgi o'n yilliklar davomida BMTning inson huquqlari bo'yicha mexanizmi biznesning inson huquqlariga nisbatan mas'uliyat doirasini hamda tijorat tashkilotlarining inson huquqlarini amalga oshirishga ta'sir qiluvchi faoliyatining oqibatlarini uchun javobgarlikka tortish usullarini o'rganish bilan shug'ullandi. Natijada bugungi kunda inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish sohasida ham hukumatning, ham biznesning roli va majburiyatlari to'g'risida aniqroq tasavvur shakllandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitlarida ko'plab kompaniyalar o'zining ishlab chiqarish quvvatini yopishga, shtatdagi xodimlarini, ishchi kuchini, oylik ish haqini, ijtimoiy himoyani qisqartirishga majbur bo'ldilar. Kimdir bunday majburiy choralarni mas'uliyat bilan va har tomonlama o'ylagan holda qilishga harakat qilmoqda, kimdir esa, qonunchilikka rioya etmasdan, jabr ko'rayotgan shaxslarni o'ylamasdan bunday harakatni amalga oshirmoqda. Bunday muomalaga duch kelgan xodimlar mehnat huquqlari qo'pol ravishda buzilishini his qildilar va mas'uliyatsiz kompaniyalardan huquqlari buzilmasligini talab qila boshladilar.

Qator mamlakatlar yoki TMKlarda korporativ ombudsman lavozimi – fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan va biznes tuzilma xodimlari huquqlari buzilishining oldini olish, shuningdek, inson huquqlari buzilishi natijasida vujudga keluvchi nizolarni sudgacha hal qilish uchun tegishli vakolatlar berilgan mansabdor shaxs lavozimi ta'sis etildi. Biznes-madaniyatda inson huquqlari masalalarini kundalik ishbilarmonlik operatsiyalar muammolarining qismi sifatida ko'rib chiqish konsepsiyasi paydo bo'ldi. Bu davrda kompaniyalarda inson huquqlari, xususan, yollanma xodimlar va biznes bo'yicha hamkorlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muomala va maxsus qoidalarini o'zida jamlagan korporativ kodekslar paydo bo'ldi.

Bu masalada inson huquqlari va biznes sohasidagi **“Himoya, rioya etish va himoya vositalari”** konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Uni muhim tadqiqotlar natijalari hamda barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, davlatlar, fuqarolik jamiyati va ishbilarmon hamjamiyat bilan keng ko'lamda maslahatlashgandan so'ng BMTning inson huquqlari, transmilliy korporatsiyalar va boshqa korxonalar to'g'risidagi masalalar bo'yicha Maxsus vakili ishlab chiqdi. 2011-yil 16-iyun kuni BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi BMTning **“Himoya, rioya etish va himoya vositalari”** konsepsiyasini bajarish uchun tadbirkorlik faoliyatining inson huquqlari

jihatlarni ko'zda tutuvchi Rahbariy prinsiplarni tasdiqladi. Bu bilan o'tgan barcha davr uchun korporatsiyalar faoliyatining inson huquqlariga salbiy ta'siriga barham berish va ularni tugatishga qaratilgan umumiy standartlar belgilab olindi.

BMTning global shartnomasi biznesning ijtimoiy mas'uliyati sohasida ilg'or ixtiyoriy loyiha hisoblanadi. U ishbilarmon davralarning pesh-qadamlaridan o'z faoliyatlarida inson huquqlari, mehnat me'yorlari, atrof-muhit, korrupsiyaga qarshi kurash sohalariga taalluqli 10 ta prinsipni tarqatishi va qo'llanishiga erishish maqsadida BMT Bosh kotibi tomonidan 2000-yili ilgari surildi. Bugungi kunda ko'plab transmilliy korporatsiyalarni qo'shgan holda dunyoning barcha mintaqalaridan minglab kompaniyalar Global shartnomaga qo'shildi.

Bu qadam Rahbariy prinsiplarni biznes va inson huquqlari sohasidagi amaliyotda jahon standarti sifatida belgilab berdiki, uning o'zaro muvofiq kelishi barcha davlatlar va korporatsiyalardan kutiladi. Ular yuridik jihatdan majburiy xarakterda bo'lmasa-da, Rahbariy prinsiplar davlat va biznes munosabatlarida mavjud standartlar va amaliyotga asoslanadi, o'zida xalqaro va milliy huquqda keng tartibga solingan masalalarni qamrab oladi.

Mazkur hujjat uchta shart-sharoitni o'zida qamrab oladi:

- davlatning inson huquqlari himoyasini ta'minlab berish majburiyati;
- inson huquqlariga rioya qilish bo'yicha korporatsiyalarning mas'uliyati;
- huquqi buzilgan shaxslarning huquqni himoya qilish vositalariga yanada keng imkoniyatlar yaratib berilishining zarurligi.

Rahbariy prinsiplar 31 prinsipni qamrab olgan. Umuman olganda, rahbariy prinsiplar davlatning biznes tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishiga ko'maklashishi uchun inson huquqlarining buzilishiga tahdidlarni nazorat qilish bo'yicha kompaniyalarga model sifatida taqdim etiladi. Unda manfaatdor tomonlarning korporatsiyalar tomonidan inson huquqlariga rioya qilinayotganligini baholashi uchun mezonlar taklif etiladi.

Rahbariy prinsiplar tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbariy prinsiplarni o'z standartlarida aks ettirdilar va bu jarayon davom etmoqda. Jahondagi ko'plab kompaniyalar rahbariy prinsiplarni o'z faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash masalalari
1996-yildagi Davlat mansabdor shaxslari xulqi xalqaro kodeksi, 1996-yildagi Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash to'g'risidagi BMT Deklaratsiyasi, 2003-yildagi Korrupsiyaga qarshi BMT

konvensiyasi¹, 2000-yildagi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi² kabi hujjatlarida ko'rib chiqiladi.

Yana bir keskin muammolardan biri sifatida jinoiy odil sudlov tizimida qamoqxonalardagi mahkumlarning soni tezlik bilan o'sib bormoqda. Qamoqxonalar tadqiqotlari bo'yicha xalqaro markazning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning barcha mamlakatlari penitensiar muassasalarida saqlanayotganlarning soni, mahkum etilgan va sudgacha hibsdan saqlanayotganlarni qo'shgan holda 9,8 mln kishidan ortib ketdi. Mazkur markaz tomonidan tayyorlangan World Prison Brief (Dunyodagi qamoqxonalar to'g'risidagi ma'lumotlar) hujjatida o'rganib chiqilgan mamlakatlarning 71 %ida (Afrikaning 64 % mamlakatlarida, Amerikaning 83 % mamlakatlarida, Osiyoning 76 % mamlakatlarida, Yevropaning 68 % mamlakatlarida va Okeaniyaning 60 % mamlakatlarida) qamoqda saqlanayotganlarning soni o'sgan. 100000 aholiga nisbatan qamoqdagilarning soni bo'yicha o'lchanadigan qamoqda saqlanayotganlar sonining ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning turli mintaqalari va bir mintaqaning turli qismlari, mamlakatlar ichidagi turli qamoqxonalar bir-biridan farq qiladi. World Prison Brief ma'lumotlariga qaraganda, ma'lumotlar olingan 191 mamlakatning 114 tasida qamoqxonalarning to'lganligi 100 %dan oshib ketadi (bu ularning to'lib-oshib ketganligini bildiradi). Bu mamlakatlarning 16 tasida qamoqxonalarning to'lganligi 200 %dan oshadi va 25 mamlakatda 150 %dan 200 %gachani tashkil etadi.

“Xalqaro qamoqxona islohoti” tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, Yevropadagi qamoqda saqlanayotganlarning soni qamoqxonalar rasmiy sig'imidan o'rtacha 30 foiz oshganligini, Amerika Qo'shma Shtatlarida qamoqxonalarning o'rtacha to'ldirilganligi esa, 107 foizni tashkil etadi. Bangladeshda qamoqda saqlanayotganlarning soni qamoqxonalar rasmiy sig'imidan 288 foiz ortiq bo'lib, Janubiy Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichga ega. Qamoqxonalarda mahbuslarning ko'pligi bo'yicha Keniya birinchi o'rinni egallaydi, u yerda bu ko'rsatkich 337 foizni tashkil etadi.

BMT 50 yil mobaynida inson huquqlari sohasidagi asosiy standartlarga javob beruvchi jinoiy odil sudlov tizimining shakllanishiga yordam beruvchi standartlar va normalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda.

1 O'zbekiston Konvensiyani 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan ratifikatsiya qilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2008-yil, 7-son, 349-modda.

2 O'zbekiston Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 30-avgustdagi 536-II-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilgan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003-yil, 9-10-son, 150-modda.

Bunday standartlarga rioya qilish qamoqda saqlanayotganlar, ularning oilalari, qamoqxonalar tizimi va butun jamiyat uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarish mumkin bo'lgan qamoqxonalarning to'lib-toshib ketishi holatining oldini olishi mumkin. Bundan tashqari, odil sudlov tortishuviga bo'lgan huquqqa rioya qilmaslik dastlabki saqlash joylarida bo'lganlar va mahkum etilgan shaxslar va shu bilan birga, qamoqxonalarda barcha saqlanayotganlarning umumiy soni o'sib ketishiga olib kelishi mumkin.

BMTning birinchi standartlari va normalari qamoqda saqlanayotganlar bilan muomala qilishning minimal standartlari hisoblanadi. Mazkur standartlarda qamoqda saqlanayotganlarning huquqlari to'g'risidagi qoidalar va qamoqda saqlash sharoitlariga minimal talablar o'z aksini topgan bo'lib, qamoqxona muassasasining haddan tashqari to'lib ketganligi bilan ularga rioya qilish muammolarni tug'dirishi mumkin. Mazkur standartlar qanday shaklda bo'lishidan qat'i nazar ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslar himoyasining prinsiplari majmuini (Bosh Assambleyaning 43/173-rezolyutsiyasi, ilovasi) va Qamoqda saqlanayotganlar bilan muomalaning asosiy prinsiplarini (Bosh Assambleyaning 45/111-rezolyutsiyasi, ilovasi) to'ldiradi. BMTning boshqa hujjatlarida qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan choralarning muhimligi hamda qamoqqa olish va sudgacha qamoqqa olishni qo'llashning imkoniyati faqat oxirgi chora sifatida qo'llanishi, qamoqxonada saqlanayotganlarning sonini qisqartirishga yordam berishi qayd etib o'tiladi. (BMTning qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari ("Tokio qoidalari") (Bosh Assambleyaning 45/110-rezolyutsiyasi, ilovasi).

Butun dunyoda qamoqda saqlanayotganlarning soni o'sishi turli mintaqalar va turli mamlakatlarda ko'p sonli va bir xil bo'lmagan sabablarga bog'liqdir. Qamoqda saqlanayotganlarning soniga ijtimoiy-iqtisodiy omillar va choralar, sog'liqni saqlash bo'yicha ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va kommunal xizmatlarning borligi yoki mavjud emasligi, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha choralar va jinoyatchilik bilan kurashda qamoqda saqlash bilan bog'liq choralarning roli qanday ekanligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Qamoqda saqlanayotganlarning soniga boshqa omillar, misol uchun qamoqqa olish amaliyotining haddan tashqari ko'proq qo'llanishi, korrupsiya, samarasiz ijtimoiy siyosat va daromadning tengsiz o'sib borishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qamoqxonalarning to'lib ketishi qamoqxonalarning xavfsizligiga, huquqbuzarlarning o'zini samarali rehabilitatsiya qilishiga va BMTning qamoqda saqlanayotganlarning inson huquqlariga oid hujjatlari

va standartlariga rioya qilinishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Bunday muassasalarning to'lib ketishi sog'liqni himoya qilishga imkoniyat, me'yordagi ovqatlanish va sanitar-gigiyenik xizmatlar ko'rsatilishga bo'lgan huquq kabi ko'plab hollarda inson huquqlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Axloq tuzatish muassasalari muammolarini hal etish bo'yicha choralarning samaradorligi aniq vaziyat va har bir davlat jinoiy odil sudlovining aniq tizimiga bog'liq bo'lsa-da, bunday choralar har qanday holatda ham davlatdagi jinoyatchilikning oldini olish hamda jinoiy odil sudlov sohasida kompleksli strategiyaning tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Inson huquqlarining xalqaro himoyasi deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning nima uchun xalqaro huquqning alohida tarmog'i ekanligini tushuntirib bering.*
- 3. Inson huquqlari va xalqaro odat huquqining o'zaro bog'liqligi nimada?*
- 4. Inson huquqlari va xalqaro shartnomalar huquqining o'zaro bog'liqligini izohlab bering.*
- 5. Inson huquqlari va xalqlarning huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning o'zaro bog'liqligini qanday tushunish mumkin?*
- 6. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning o'rni va rolini tushuntirib bering.*
- 7. Inson huquqlariga oid butunjahon konferensiyalari va ularning ahamiyati nimada?*
- 8. Inson huquqlari muammosining XXI asrga kelib jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biriga aylanish sabablarini tushuntirib bering.*
- 9. "Gumanitar intervensiya" nima va u qanday talqin qilinmoqda?*
- 10. "Madaniy relyativizm" nima?*
- 11. Biznesning inson huquqlari masalalari bo'yicha vazifalari nimalardan iborat?*
- 12. Inson huquqlarining universalligi deganda nimani tushunasiz?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Глушкова С.И. Права человека в России: теория, история, практика. Учебное пособие. – М.: Права человека, 2003.
2. Мюллерсон Р. Права человека: идеи, нормы, реальность. – М.: 1991.
3. Бюргенталь Т. Международные права человека. – Алматы, 1999.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. –T.: "O'zbekiston", 2010. – 368 b.
5. Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып.2.
6. Общая теория прав человека. – М. НОРМА. 1996.
7. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
8. Saidov A.X.. Xalqaro huquq. – T.: "Adabiyot jamg'armasi", 2001.
9. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.
10. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С 312.

5-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'рни va roli

1. BMTning inson huquqlari sohasidagi umumiy faoliyati.
2. BMTning inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlari.
3. BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funksiyasi.
4. BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari.
5. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida inson huquqlari masalasi.

1. BMTning inson huquqlari sohasidagi umumiy faoliyati

Xalqaro universal tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson huquqlarini himoya qilishda tutgan o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Tashkilot o'z faoliyatining dastlabki paytidanoq inson huquqlari masalasiga katta e'tibor qaratib boshladi. Bugungi kunda ham dunyodagi tinchlik va xavfsizlikning asosiy kafolati va jahondagi barcha sohalarda davlatlarning hamkorligi uchun asosiy muvofiqlashtiruvchi bo'lib qolayotgan BMT faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish masalasi mazkur Tashkilot faoliyatining asosiy jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning eng yorqin misoli bo'lgan mazkur tashkilot to'g'risida mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov uning 48-sessiyasida shunday degan edi: *"BMT – bu xalqlarning tinch-totuv yashashga bo'lgan ezgu irodasining buyuk ramzi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir"*¹.

1945-yil 25-apreldan 26-iyungacha Amerika Qo'shma Shtatlarining San-Fransisko shahrida 50 ta davlat vakillari ishtirokida Birlashgan Millatlar konferensiyasi bo'lib o'tadi. 1944-yil avgust oyida Xitoy, SSSR, Angliya va AQSh davlatlari vakillari tomonidan qabul qilingan loyiha asosida ushbu Konferensiyada Tashkilotning Nizomi tasdiqlandi.

50 ta davlatdan so'ng 1945-yil 24-oktabrda Polsha davlatining BMT Nizomini tasdiqlashi munosabati bilan 51 ta davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sischilari bo'ldilar. BMT Nizomi 1945-yilning 24-oktabrida ta'sis etgan ko'pchilik davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ldi, ya'ni amal qila boshladi. Shundan buyon 24-oktabr har yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topgan kuni sifatida dunyoning barcha mamlakatlarida nishonlanadi.

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston. 1996. – B. 47.

Muqaddima va 111 ta moddaga bo'lingan 19 ta bobdan iborat bo'lgan BMT Nizomida uning maqsad va tamoyillari, a'zolari, tarkibi, vazifa va vakolatlari, ovoz berish tartibi va shartlari, asosiy organlari, ularning vazifa va vakolatlari, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va boshqa tashkilot faoliyatiga doir masalalar alohida moddalarda bayon qilib berilgan.

BMT Nizomining Muqaddimasi. Muqaddimada barcha xalqlar va davlatlarning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga birlashish sabablari, tamoyillari va maqsadlari bayon etilgan.

Unda BMTga birlashayotgan xalqlar insoniyat tarixida bo'lgan urushlar insoniyatga qanchadan-qancha ofatlar olib kelishini ko'rganligi va bundan buyon bu xalqlar ham ushbu Tashkilot a'zolari bilan birgalikda urushga qarshi kurashajaklari bayon qilingan. Shuningdek, inson va uning huquqi, erki uchun kurashish, erkak va xotin-qizlar huquqlarining tengligi, katta va kichik millatlarning tengligi, demokratiya va gumanizm g'oyalari-ni targ'ib etish, erkinlik, ozodlik, tenglik munosabatlarini davlatlar o'rtasi-da rivojlantirish singari maqsad va tamoyillar ham Muqaddimada o'zining aniq ifodasini topgan. BMT o'z Nizomining Muqaddimasi orqali turli xalqlar va davlatlarning umumiy taraqqiyot uchun olib boradigan kurashini butun dunyoga ma'lum qildi. Binobarin, unda ana shu ezgu ishlarni, g'oyalarni amalga oshirish uchun kurashga jahondagi barcha xalqlar va davlatlar da'vat etildi.

Muqaddimada davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni e'tirof etish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, turli davlatlar va xalqlarning yaxshi qo'shnilar kabi totuv va ahil yashashlari, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yo'lida birlashishlari lozimligi qayd qilindi¹.

BMT Nizomida e'lon qilingan *maqsad* va *tamoyillar* sifatida quyidagilar e'lon qilindi:

Maqsadlar:

- xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash va shu maqsadda tinchlikka tahdidning oldini olish, uni bartaraf etish va tajovuzkorona harakatlar yoki tinchlikka raxna soluvchi boshqa harakatlarni bostirish uchun birgalikda samarali choralar ko'rish hamda adolat va xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan holda tinchlik vositalaridan foydalanib, tinchlikning buzilishiga olib keluvchi xalqaro nizo yoki vaziyatlarni tinchitish yoki hal etish;

- xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyilini hurmat qilish asosida millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni

¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud Statuti. – T.: BMTning O'zbekistondagi axborot markazi, 2002. – B. 3.

rivojlantirish hamda yalpi tinchlikni mustahkamlash uchun boshqa tegishli choralarni ko'rish;

- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlariga va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;

- shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini muvofiq-lashtirish markazi bo'lish.

Tamoyillar:

- Tashkilot o'zining barcha a'zolarining suveren tengligi tamoyiliga asoslanishi;

- Tashkilotning barcha a'zolari ularning hammalarini Tashkilot a'zolari tarkibiga mansublikdan kelib chiqadigan barcha huquq va imtiyozlar bilan ta'minlash uchun ushbu nizom bo'yicha zimmlariga olgan majburiyatlarini vijdonan bajarishi;

- Tashkilotning barcha a'zolari xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni tahdid ostiga qo'ymaslik uchun o'zlarining xalqaro nizolarini tinchlik vositalari bilan hal qilishi;

- Tashkilotning barcha a'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, BMT maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzda harakatlardan o'zlarini tiyishlari kerakligi;

- Tashkilotning barcha a'zolari unga ushbu nizomga muvofiq amalga oshirayotgan barcha harakatlarida har tomonlama yordam berishlari va BMT tomonidan qaysi davlatga qarshi ogohlantiruvchi yoki majburlovchi xarakterdagi harakatlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunday davlatga yordam ko'rsatishdan o'zlarini tiyishlari kerak;

- Tashkilot o'ziga a'zo bo'lmagan davlatlarning ana shu tamoyillar asosida harakat qilishlarini ta'minlashi kerak, zero, bu xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun zarurdir;

- Nizom BMTga har qanday Davlatning aslida ichki vakolatiga kiradigan ishlariga aralashish uchun aslo huquq bermaydi va BMT a'zolaridan bunday ishlarni ushbu nizom doirasida hal etishga kiritishni talab etmaydi.

BMT a'zolari. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga har qanday tinchliksevar davlat o'z ixtiyoriga binoan uning Nizomini tan olgan va BMTning olib borayotgan ishlarini qo'llab-quvvatlagan taqdirda, a'zo bo'lishi mumkin.

A'zolikka yangi davlatlar Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga ko'ra Bosh Assambleya tomonidan qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston

1992-yil 2-martda Bosh Assambleya tomonidan BMTga a'zo etib qabul qilindi. Nizomda BMTning tamoyillariga amal qilmagan davlatlarning huquqlarini cheklab qo'yish yoki uni umuman a'zolikdan mahrum etish belgilangan. Ammo, bugunga qadar hali biror-bir mamlakat undan chiqarilgan emas.

BMT tizimi. BMT Nizomining 7-moddasiga ko'ra, BMTning organlari asosiy organlar va yordamchi organlarga bo'linadi. Uning asosiy organlari va ularning vazifa va vakolatlari Nizomda ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, BMTning oltita asosiy organi mavjuddir: Bosh Assambleya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik kengashi (hozirgi paytda faoliyatini to'xtatgan), Xalqaro sud, Kotibiyat. BMT faoliyatini muvofiqlashtirishda bu organlarning roli va ahamiyati kattadir. BMT o'zining butun faoliyatini ana shu idoralar yordamida amalga oshiradi. Ular bir-birlarining ishlarini aynan takrorlamagan holda ish yuritadilar. Mazkur organlar o'z faoliyatlaridan kelib chiqqan holda, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish hamda ularni himoya qilish masalalari bilan tegishlicha shug'ullanadilar. BMTning yordamchi organlariga esa, uning asosiy organlari faoliyatiga ko'maklashuvchi ko'p sonli turli qo'mitalar, komissiyalar va boshqa nomdagi turli organlarni kiritish mumkin.

BMT tizimiga uning Nizomida ko'rsatib o'tilgan asosiy va yordamchi organlaridan tashqari, BMTdan mustaqil bo'lgan, ammo Nizomning 57-moddasida ko'rsatib o'tilgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar¹ ham kiradi². Umuman olganda, BMT tizimi bu organlar, jamg'armalar, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar kabi turli nomlardagi 50 ga yaqin murakkab tuzilmalardan iborat hisoblanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT faoliyati to'g'risida gapirilganda, avvalambor, BMTning bu sohadagi xalqaro huquqiy hujjatlariga to'xtalib o'tish lozimdir.

BMTning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlarining katta qismi uning xalqaro-huquqiy normalar yaratish borasidagi norma ijodkorligi faoliyatida o'z ifodasini topadi. Tashkilot doirasida inson huquqlarini himoya etishga qaratilgan deklaratsiya, konvensiyalar, xartiya va bitimlar qabul qilingan bo'lib, ularda inson huquqlarini himoya qilish tamoyillari va me'yorlari mustahkamlangan.

¹ BMTning "ixtisoslashtirilgan tashkilotlari", ko'pincha, adabiyotlar va xalqaro hujjatlarda "ixtisoslashtirilgan muassasalar" deb ham yuritiladi. Ammo, bunday ikki xil nomlanish ularning maqomi, mazmuni va mohiyatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

² Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud Statuti. – T.: BMTning O'zbekistondagi axborot markazi, 2002. – B. 31–32.

BMTning bunday xalqaro hujjatlari 80 dan ortiq bo'lsada, ularning ichida inson huquqlarining umumiy masalalarini tartibga soluvchi quyidagi eng muhim hujjatlarni ko'rsatib o'tish joizdir:

- 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
- 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt;

- 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt;

- 1948-yilda qabul qilingan Genotsid jinoyatlarining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya;

- 1951-yilda qabul qilingan Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiya;

- 1965-yilda qabul qilingan Irtiq kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya;

- 1979-yilda qabul qilingan Ayollarni kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya;

- 1984-yilda qabul qilingan Qiynoqlarga va boshqa insoniylikka yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi konvensiya;

- 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya¹.

BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati mazkur xalqaro hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, BMTning asosiy organlari Bosh Assambleya, Xavfsizlik kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) hamda Xalqaro sud inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda mazkur xalqaro hujjatlarga tayanib ish ko'radi. Masalan, Bosh Assambleya inson huquqlari sohasida rezolyutsiyalar qabul qilish orqali a'zo-davlatlar e'tiborini ushbu muammolarga qaratadi va bu borada hamkorlik qilishga da'vat etadi.

BMT tashkil topishi va uning Nizomining qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari sohasida keng xalqaro hamkorlikka asos solgan birinchi universal xalqaro shartnoma edi.

1945-yilda BMT Nizomining qabul qilinishi bilan inson huquqlarini hurmat qilish xalqaro huquqning asosiy tamoyili sifatida rivojlandi. Biroq, BMT Nizomida mazkur tamoyil aniq ko'rsatib o'tilmagan edi. Shunday bo'lsa-da, inson huquqlarini hurmat qilish tamoyili Nizomning 1-moddasi mohiyatidan kelib chiqadi.

Xalqaro-huquqiy adabiyotlarda inson huquqlarini hurmat qilish tamoyilini rivojlantiruvchi va aniqlashtiruvchi xalqaro-huquqiy qoidalar,

¹ Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002. – С. 98.

odatda, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar deb yuritiladi. Mazkur xalqaro-huquqiy majburiyatlar insonga muayyan huquq va majburiyatlar beribgina qolmay, balki bu huquqlarni bergan davlatning o'zi ham bunday huquq va erkinliklarni buzmaslik majburiyatini olganligini anglatadi.

BMT va uning ixtisoslashgan muassasalarining faoliyati shuni ko'rsatmoqdaki, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorlik quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, insonning har qanday huquqlari, uning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha davlatlar tomonidan hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishi lozimligi borasida umumiy tavsiyalar ishlab chiqish;

ikkinchidan, davlatlar zimmasiga yuridik majburiyat yuklovchi xalqaro universal shartnomalar ishlab chiqish;

uchinchidan, davlatlar tomonidan xalqaro majburiyatlarning bajari-lishini nazorat qilish mexanizmini yaratish.

Ma'lumki, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va tamoyil-lari davlatlarning milliy qonunlari orqali amalga oshiriladi. XX asrning ikkinchi yarmigacha xalqaro normalarning bajarilishini nazorat qilish amalda davlatlarning o'zlari tomonidan amalga oshirilgan. BMT Nizomi qabul qilingandan so'ng bu holat o'zgardi. Davlatlar tomonidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni kuzatish bo'yicha xalqaro nazorat mexanizmi barpo etildi.

2. BMTning inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlari

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, BMT tizimi juda ham murakkab bo'lgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, organlar, qo'mitalar, komissiyalar va boshqa tuzilmalardan iboratdir. Ammo, ularning barchasi ham inson huquqlari va erkinliklari masalasi bilan bevosita shug'ullanmaydi. Biroq, mazkur tizim ichida inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlar tizimi shakllangan.

BMTning asosiy organlari ham, yordamchi organlari ham u yoki bu darajada inson huquqlarini himoya etishga taalluqli masalalar bilan shug'ullanadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, BMT Nizomining 13-moddasiga binoan, Bosh Assambleyaning vazifasi asosan o'rganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar berishdan iborat. Insonning huquqlari va erkinliklari muammolarini o'rganish hamda tadqiq etish ishlarini, odatda, Bosh Assambleyaning topshirig'iga binoan Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda uning yordamchi organlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar va BMT Bosh kotibi bajaradi.

Bosh Assambleya inson huquqlari sohasidagi o'z vazifalarini bajarish uchun, BMT Nizomining 22-moddasiga binoan, zaruratga qarab turli yordamchi organlarni ta'sis etish vakolatiga ega.

Bosh Assambleyaning ijtimoiy va gumanitar masalalar hamda madaniyat masalalari mutasaddisi bo'lgan *Uchinchi qo'mitasi* va boshqa ba'zi qo'mitalar ham inson huquqlari muammolari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Ular tomonidan qabul qilingan qarorlar Bosh Assambleyaning yalpi majlislarida muhokama etilishi va tasdiqlanishi lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, BMTning inson huquqlari sohasidagi vazifalari bajarilishi uchun Bosh Assambleya bilan bir qatorda Iqtisodiy va ijtimoiy kengash ham mas'uldir. Insonning huquqlari va erkinliklari bilan bog'liq masalalar, odatda, BMT Bosh Assambleyasining kun tartibiga aynan Iqtisodiy va ijtimoiy kengash ma'ruzalarining tegishli bo'limlari hamda Bosh Assambleyaning avvalgi sessiyalarida qabul qilingan qarorlar asosida kiritiladi. Bunday masalalar BMTning boshqa organlari, shuningdek, mazkur Tashkilotga a'zo-davlatlar va BMT Bosh kotibi tomonidan ham tavsiya etilishi mumkin¹.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash o'z faoliyatini sessiyalar davrida ishlaydigan qo'mitalar Iqtisodiy, Ijtimoiy va Muvofiqlashtiruvchi qo'mitalar yordamida olib boradi. Inson huquqlari masalalari bo'yicha hujjatlarni Ijtimoiy qo'mita tayyorlaydi. Ijtimoiy qo'mitaning ma'ruzalari Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning yalpi majlislarida tasdiqlanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, bundan tashqari, o'z faoliyatining talaygina qismini inson huquqlari bilan bog'liq masalalarga bag'ishlaydigan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan, xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va boshqalar bilan BMT nomidan bitimlar tuzadi. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash maslahatlashuvlar o'tkazish va tavsiya-nomalar ishlab chiqish yo'li bilan bu boradagi ishlarni umumiy tarzda muvofiqlashtirib boradi.

Shunisi e'tiborliki, BMT Nizomining 68-moddasida Iqtisodiy va ijtimoiy kengash o'z ishiga taalluqli masalalar, shu jumladan, inson huquqlarini rag'batlantirish masalalari bo'yicha komissiyalar tuzishi mumkinligi nazarda tutilgan. Shunga muvofiq, 1946-yilda bir yo'la ikkita komissiya, ya'ni, Inson huquqlari bo'yicha komissiya (2006-yildan keyin Inson huquqlari bo'yicha kengash) va Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya tuzilgan. Bu komissiyalar BMT Bosh Assambleyasining Uchinchi qo'mitasi bilan birgalikda inson huquqlariga taalluqli masalalar yuzasidan asosiy ishlarni olib bormoqda.

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B.149.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlari sohasini o'rganish va tadqiq etish ishlarini o'tkazib, bu sohadagi ishlarni yanada yaxshilash va inson huquqlari va erkinliklarini yanada samaraliroq ta'minlash va himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar bergan, axborotlar tarqatgan bo'lsa, 2006-yildan uning o'rniga tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha kengashga yanada kengroq vakolatlar berildi. Qayd etish kerakki, Inson huquqlari bo'yicha komissiya Iqtisodiy va ijtimoiy kengash doirasida tashkil etilib, uning topshiriqlarini bajarib kelgan bo'lsa, Inson huquqlari kengashi esa, Bosh Assambleyaning yordamchi organiga aylantirildi. Bu organning vakolati va faoliyati to'g'risida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya ko'pgina xalqaro hujjatlarni, shu jumladan, Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarni ishlab chiqishda ham faol ishtirok etgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Inson huquqlari bo'yicha komissiya tomonidan 1947-yilda, o'z navbatida, Kamsitishlarning oldini olish va kam sonli millatlarni himoya etish bo'yicha kichik komissiya tuzilgan.

Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Komissiya Inson huquqlari bo'yicha komissiya kabi, rezolyutstiyalar chiqarishga, shuningdek, qabul qilishi uchun ularni Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga va u orqali Bosh Assambleyaga tavsiya etishga vakolatli hisoblanadi¹.

Inson huquqlari masalalarini Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda uning yordamchi organlari bilan bir qatorda Xavfsizlik kengashi, Vasiylik kengashi va BMT Xalqaro sudi singari BMTning asosiy organlari ham o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar va muhokama etadilar.

BMT qarorlarini hamda uning inson huquqlari sohasidagi organlari vazifalarini amalga oshirishda BMT Kotibiyatining muayyan o'rni bor. BMT Kotibiyati tarkibida inson huquqlari bo'limi tashkil etilgan va u BMTning asosiy hamda yordamchi organlariga zarur hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan xizmat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur bo'linma zimmasidagi vazifalar jumlasiga inson huquqlari bo'yicha nashrlarni tayyorlash va boshqa qator masalalar ham kiradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Bosh Assambleyaning 1955-yil 14-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq, Bosh kotib hukumatlarning iltimosiga javoban inson huquqlarini himoya etish borasida quyidagi shaklda yordam ko'rsatish vakolatiga ega:

- a) ekspertlar ko'magida maslahat yo'nalishidagi xizmatlar ko'rsatish;
- b) seminarlar o'tkazish;

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 150–151.

d) inson huquqlariga taalluqli masalalar bo'yicha ixtisoslashishni rag'batlantiruvchi stipendiyalar berish.

Vena deklaratsiyasiga asosan, BMTning Bosh Assambleyasi 1993-yilda Insonning barcha huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha Oliy komissar lavozimini ta'sis etish to'g'risida rezolyutsiya qabul qildi. Ana shu rezolyutsiyaga muvofiq, Oliy komissar BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanadi va uning o'rinbosari hisoblanadi. Oliy komissar bevosita Bosh kotibga bo'ysunadi, o'z faoliyati haqida Bosh Assambleya oldida hisobot berib boradi.

BMTning organlari xususida xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda BMT doirasida, inson huquqlari bo'yicha murakkab institutsional tizim shakllangan.

3. BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funksiyasi

Hozirgi davrda BMT tizimidagi o'nlab turli organlar xalqaro shartnomalarga rioya qilish yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Ular davlatlarning o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan taqdim qiladigan ma'ruzalarini hamda xususiy shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Inson huquqlarini himoya qilish BMT faoliyatidagi eng muhim muammo bo'lib, uning yechimining samarali yo'llarini izlab topishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Ushbu dolzarb muammoning yechimi universal va mintaqaviy darajada xalqaro hamkorlikning rivojlanishi, davlatlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, xalqaro-huquqiy normalarni takomillash-tirish va ularning samarali bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq. BMT inson huquqlari va erkinliklari sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

birinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, davlatlar tomonidan inson huquqlari borasidagi o'z majburiyatlarini bajarishlari yuzasidan nazorat olib borish;

uchinchidan, texnikaviy-gumanitar yordam bo'yicha axborotlar berish.

Inson huquqlari bo'yicha BMT mexanizmlari uning Nizomi asosida (nizomiy) ishlaydigan mexanizmlarga va xalqaro shartnomalar asosida ishlaydigan mexanizmlarga bo'linadi. Birinchisi BMT Nizomi qoidalari asosida tashkil etilgan bo'lsa, ikkinchisi esa, inson huquqlari bo'yicha turli xalqaro shartnomalarga muvofiq tashkil etilgan. Nizom bo'yicha tashkil etilgan organlarga quyidagi organlar kiradi: Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Inson huquqlari bo'yicha kengash va ular qoshida tashkil etilgan yordamchi organlar.

Nizomiy mexanizmlar – bu, BMT a'zo-davlatlarining hukumatlari vakillaridan iborat bo'lgan siyosiy organlar hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida bir necha muammoli sohalarini o'ziga jamlovchi va butun jahonda inson huquqlari bo'yicha holatni o'rganadigan keng qamrovli mandatlarga egadir. BMTning barcha a'zo-davlatlari – ularning mumkin bo'lgan "mijozlari" hisoblanadi.

Bosh Assambleya. BMT Nizomini 13-moddasiga muvofiq, Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridan biri "... iqtisodiy, ijtimoiy, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini irqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko'maklashish" maqsadida inson huquqlari masalalarini o'rganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. BMT Bosh Assambleyasi inson huquqlariga taalluqli masalalarning kattagina qismini ko'rib chiqish va muhokama etishda ixtiyorni Bosh Assambleyaning ijtimoiy, gumanitar va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi Uchinchi qo'mitasiga o'tkazishni lozim topgan¹.

Bosh Assambleya inson huquqlari bo'yicha konvensiyalar, deklaratsiyalar va turli rezolyutsiyalar qabul qiladi. Masalan, Bola huquqlari bo'yicha konvensiya 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. Deklaratsiya va rezolyutsiyalar mamlakatlarga huquqiy majburiyatlar yuklamaydi, ammo ular bir ovozdan qabul qilingan bo'lsa, muayyan davlatlarga qattiq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday rezolyutsiyalar keyinchalik xalqaro odat huquqi sifatida shakllanishi mumkin. Undan tashqari, Bosh Assambleya BMT boshqa organlarining hisobotlarini qabul qiladi va ko'rib chiqadi: masalan, Bola huquqlari bo'yicha qo'mita.

BMTning barcha a'zo-davlatlari ishtirok etadigan Bosh Assambleya sessiyasi, odatda, har yili bir marta o'tkaziladi, sessiya Nyu-York shahrida sentabr oyining uchinchi haftasida boshlanadi va dekabrgacha davom etishi mumkin. Assambleyada ko'rilishi kerak bo'lgan masalalar juda ko'p bo'lgani uchun ham, bir qator masalalar uning oltita Asosiy qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Ushbu qo'mitalar turli xil muammolar bilan shug'ullanadilar, inson huquqlari masalalari esa, uning uchinchi qo'mitasiga – ijtimoiy, gumanitar va madaniy masalalar bilan shug'ullanuvchi qo'mitasiga tegishlidir.

Bosh Assambleyaning sessiyalarida, inson huquqlarining turli masalalari to'g'risida rezolyutsiyalar qabul qilinadi. Masalan, Bosh Assambleyaning 1997-yildagi 52-sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyasida quyidagi masalalar qamrab olingan edi: Bola huquqlari bo'yicha konvensiyani amalga

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 152.

oshirish; bola huquqlari; invalid bolalar; bolalar savdosi va ularni seksual ekspluatatsiya qilish (jumladan, bolalar bilan fohishabozlik va bolalar pornografiyasining ham)ning oldini olish va bunga barham berish; qurolli mojarolardagi bolalar; qochoq-bolalar va ichki repatriantlar; bolalar mehnati va ko'cha bolalari.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) BMTning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Bosh Assambleyaga bo'ysunuvchi xalqaro hukumatlararo organ sifatida ta'sis etilgan. U ixtisoslashtirilgan 14 ta muassasa, funksional komissiyalar va 5 ta mintaqaviy komissiya faoliyatini muvofiqlashtiradi. EKOSOS quyidagi masalalar uchun mas'ul hisoblanadi:

- yuqori turmush darajasini, to'liq ish bilan bandlikni, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash;

- xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish yo'llarini aniqlash;

- madaniy va ta'lim sohalarida xalqaro hamkorlikka ko'maklashish;

- asosiy inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini rag'batlantirish¹.

Kengash iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ta'lim, tibbiyot va unga aloqador masalalarda tadqiqotlar olib boradi, xalqaro konferensiyalar chaqiradi, loyihalar tayyorlaydi va Bosh Assambleyaga taqdim etish uchun konvensiyalar loyihalarini tayyorlaydi. U, shuningdek, ushbu masalalarda Bosh Assambleyaga, BMTning a'zo-davlatlariga va ixtisoslashgan tashkilotlariga tavsiyalar beradi. BMT Nizomiga binoan EKOSOS inson huquqlari va asosiy erkinliklariga rioya etishni va hurmat qilishni ta'minlab beradi.

BMT Nizomining 62-moddasiga binoan, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash inson huquqlari va asosiy erkinliklari hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishini rag'batlantirish maqsadida tavsiyalar berishi mumkin. Mazkur Kengash Bosh Assambleyaga taqdim etish uchun konvensiyalarning loyihalarini tayyorlashi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro konferensiyalar chaqirishi mumkin. BMT Nizomining 68-moddasiga muvofiq, Kengash "iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida hamda inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha komissiyalar tuzadi". Iqtisodiy va ijtimoiy kengash inson huquqlari masalalarida yordam ko'rsatishni ko'zlab Inson huquqlari bo'yicha komissiya, Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha komissiya, Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita ta'sis etgan².

1 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B.252

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 152.

O'z faoliyatini (ya'ni, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda) olib borishi uchun EKOSOS yordamchi organlar – qo'mitalar va komissiyalar tuzishi mumkin. Ularning ichida inson huquqlari sohasida eng muhimi – 1946-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha komissiyadir. Ushbu organ bugungi kunda o'z faoliyatini tugatib, uning o'rniga 2006-yilda Inson huquqlari bo'yicha kengash sifatida qayta tashkil etilgan.

Yildan-yilga EKOSOS o'zining inson huquqlari sohasida muhim organ ekanligining ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Boshida u inson huquqlari sohasida faol rol o'ynadi, ammo keyinchalik muvofiqlashtirish va nazorat sohasida ko'proq mayda masalalarga murojaat qilib bordi. Bugungi kunda EKOSOS Inson huquqlari bo'yicha kengash (avvalgi Inson huquqlari bo'yicha komissiya)ning Bosh Assambleya oldida hisobdorligi sababli, uning hisobotini muhokama qilish va tasdiqlash uchun xizmat qiladigan oraliq organ bo'lib qoldi.

Inson huquqlari bo'yicha kengash (2006-yilgacha – Inson huquqlari bo'yicha komissiya¹). Mazkur organ yuqorida ta'kidlaganimizdek, Inson huquqlari bo'yicha komissiya shaklida Iqtisodiy va ijtimoiy kengash tomonidan 1946-yilda ta'sis etilgan bo'lib, 53 ta a'zo-davlat vakillaridan tashkil topgan. Komissiya o'z sessiyasini har yili olti hafta mobaynida o'tkazgan. Komissiya o'rganish va tadqiq etish ishlarini olib borgan, inson huquqlari bo'yicha tavsiyalarni hamda xalqaro hujjatlarning loyihalarini tayyorlagan, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi hamda Iqtisodiy va ijtimoiy kengashning maxsus topshiriqlarini bajargan.

Inson huquqlari Kengash, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda BMT Bosh Assambleyasi o'zlarining har yilgi sessiyalarida inson huquqlarini qo'pol tarzda va muntazam ravishda buzish hollari bilan bog'liq voqealar va amaliyotni muhokama etib boradilar. Agar muayyan bir mamlakatdagi yoki muayyan bir amaliyotdagi ahvol tashvish uyg'otayotgan bo'lsa, bu organlar mustaqil va xolis ekspertlar guruhi (ishchi guruhi) yoki alohida shaxs (maxsus ma'ruzachi) tomonidan bu borada tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ana shu maxsus organlarga Inson huquqlari bo'yicha kengash va BMT Bosh Assambleyasiga ma'ruzalar taqdim etish va tavsiyalar ishlab chiqishdan tashqari, alohida shaxslar, guruhlar yoki jamoalarning huquqlari buzilgan taqdirda, choralar ko'rish vakolati ham berilgan. Masalani darhol, sira kechiktirmay o'rganib chiqish va tekshirish talab etiladigan alohida

¹ BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi isloh qilinib, 2006-yildan boshlab BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga aylantirilgan. Mazkur Kengash to'g'risida quyida batafsilroq to'xtalib o'tamiz va Kengash faoliyatini to'laroq tushunish uchun Komissiya olib borgan faoliyatni ham tahlil qilib o'tish kerak bo'ladi.

hollarda maxsus ma'ruzachi yoki ishchi guruhi xavf tahdid solayotgan ayrim shaxs, guruh yoki jamoani muhofaza etish maqsadida tegishli hukumatlar bilan hatto bevosita uchrashishi va muloqotga kirishishi mumkin.

Janubiy Afrikada inson huquqlari bo'yicha maxsus ishchi guruh (1967-yilda tuzilgan) ana shunday dastlabki organ bo'ldi. Mazkur guruh, shuningdek, bosib olingan hududlarning aholisiga nisbatan Isroil harakatlarning inson huquqlariga taalluqli jihatini tekshirish bo'yicha maxsus qo'mita (1968-yilda tashkil etilgan) hozirga qadar faoliyat ko'rsatib turibdi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya ayrim mamlakatlarda ta'sis etgan inson huquqlari bo'yicha maxsus organlar faoliyatini, o'sha mamlakatlarda inson huquqlari sohasida ahvol yaxshilangach, tugatgan.

1980-yildan keyin Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlarini qo'pol tarzda buzish bilan bog'liq amaliyotni butun jahon miqyosida o'rganish hamda shu munosabat bilan tegishli choralar ko'rish maqsadida bir nechta maxsus organlar ta'sis etgan. Bu organlarga, ta'bir joiz bo'lsa, yo'nalish mavzusiga qarab vakolat berilgan edi. Hozirgi vaqtda shunday guruhlardan ikkitasi ishlab turibdi. Bularning birinchisi – g'ayriixtiyoriy ravishda yoki zo'rlik ishlatish natijasida shaxslarning g'oyib bo'lib qolishi to'g'risidagi masala bilan va ikkinchisi esa – shaxslarni o'zboshimchalik bilan ushlab turish to'g'risidagi masala bilan shug'ullanuvchi ishchi guruh.

Yo'nalish mavzusiga qarab ko'plab maxsus ma'ruzachilar tayinlangan bo'lib, quyidagi masalalar doirasi ularning o'rganish sohasi deb belgilangan edi:

1) suddan tashqari va o'zboshimchalik bilan hamda lozim darajada sud muhokamasi o'tkazmay turib qatl etishlar to'g'risidagi masalalar bo'yicha;

2) qiynoqlarga solish hamda muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlari bo'yicha;

3) bolalarni sotish, bolalar bilan bog'liq fohishabozlik va bolalar pornografiyasi bo'yicha;

4) mamlakat ichkarisida ko'chib yurgan shaxslar to'g'risidagi masala bo'yicha;

5) diniy murosasizlik bo'yicha;

6) irqchilik, irqiy kamsitish va ksenofobiya bo'yicha;

7) fikrlash va so'z erkinligi bo'yicha;

8) xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishga qarshilik ko'rsatish vositasi sifatida yollangan kishilardan foydalanish bo'yicha.

Inson huquqlari bo'yicha kengash va BMT Bosh Assambleyasiga yuqorida zikr etib o'tilgan maxsus organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'ruzalar ochiq sessiyalarda muhokama qilinadi hamda bu ma'ruzalar shu

masalalar yuzasidan Inson huquqlari komissiyasi qaror qabul qilishida asosiy omil bo'ladi.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'z ishini yanada samaraliroq amalga oshirish uchun 1947-yilda *Kamsitishlarning oldini olish va kam sonli millatlarni himoya etish bo'yicha kichik komissiya* ta'sis etgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'rganish va tadqiq etish ishlarini Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini inobatga olgan holda olib borish hamda Inson huquqlari bo'yicha komissiya uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga nisbatan har qanday shakldagi kamsitishlarning oldini olish, shuningdek, kam sonli millatlarni irqiy, milliy, diniy va til jihatidan himoya etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan¹.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya BMT tizimida inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi bosh siyosiy organ hisoblanar edi. Uning vakolatiga inson huquqlariga kiruvchi barcha masalalarni ko'rib chiqish kirgan. Komissiya tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan standartlarni ishlab chiqish, turli masalalar bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilish, xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish va kodifikatsiya qilish bilan shug'ullangan.

Komissiya har yili Jeneva shahrida mart-aprel oylarida bir marta olti haftalik sessiyaga yig'ilib turgan. Komissiyaning har bir sessiyasida turli rezolyutsiyalar muhokama qilingan. Ushbu rezolyutsiyalar keyinchalik Bosh Assambleyaga berilishi mumkin bo'lgan. Assambleyada qabul qilinadigan rezolyutsiyalarga solishtirganda, Komissiyaning rezolyutsiyalari ko'proq va chuqurroq ta'sir ko'rsatgan. Biroq Bosh Assambleya rezolyutsiyalari nisbatan yuridik kuchli hisoblanadi, chunki ularni ko'p sonli a'zo-davlatlar qabul qiladi va u BMTning bosh vakolatli organi hisoblangan.

Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning vakili hisoblanmagan davlatlar uning sessiyalarida kuzatuvchilar sifatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Sessiyalarga, shuningdek, BMTning ixtisoslashgan muassasalari, hukumatlararo organlar vakillari, maslahatchi maqomiga ega bo'lgan xalqaro nodavlat tashkilotlarining vakillari, EKOSOS vakillari va jurnalistlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan. Misol uchun, 1997-yildagi sessiyada 53 ta a'zo-davlat, 95 ta kuzatuvchi-hukumatlar, 37 ta taklif etilgan ma'ruzachilar va taxminan 200 ta nodavlat tashkilotlaridan 2.200 nafar ishtirokchilar qatnashdi. Hisoblarga qaraganda, 70 ta plenar sessiyalarda 1100 marta so'zga chiqildi. 78 ta rezolyutsiya va 26 ta qaror qabul qilinishi Komissiyaning 1997-yildagi ishlarining natijasi bo'ldi.

EKOSOS maslahatchilari maqomiga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkilot (bundan buyon NNT)lari yozma yoki og'zaki murojaat qilish bilan

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 152–154.

Kengash ishiga bevosita ishtirok etishi mumkin bo'lgan. NNT vakillariga besh minut davomida nutq so'zlashiga ruxsat beriladi. Ko'plab NNTlar Kengashga ta'sir qilishning o'ziga xos yondashuviga egadirlar. Ular yozma va og'zaki murojaat qilish bilan birga, sessiya davomida ular "koridorda ta'sir ko'rsatishlar"ni amalga oshirish imkoniyatiga ham ega. Kengash sessiyalari bilan parallel ravishda turli hukumatlar delegatsiyalari va boshqa NNTlar vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etadi, nashr materiallarini tarqatadi va OAVga intervyular beradi.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi, yuqorida qayd etilganidek, siyosiy organ hisoblangan, ya'ni unda qarorlar qabul qilinishida siyosiy iroda, odatda, hal qiluvchi rol o'ynagan. Ko'rilayotgan masalalar bo'yicha muayyan qarorlar qabul qilishga ko'pincha davlatlarning birgalikda (ayniqsa, siyosiy manfaatlar asosida) harakat qiluvchi bloklari to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan. Shuning uchun ham, muayyan rezolyutsiyani Komissiyadan o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qilingan. Kun tartibidagi muhokamalar ko'pincha ancha vaqtgacha cho'zilishi hamda rejadagi harakatlar keyinga qolishi mumkin bo'lgan. Bu holatlar Komissiyani yanada siyosiylashtirib, uning obro'sini tushirib yuborgan.

Shuning uchun ham, 2005-yilning martida BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan o'zining "Katta erkinlik oldida" mavzusidagi ma'ruzasida Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'rniga a'zolarining soni jihatidan kichikroq, ammo doimiy ishlovchi Inson huquqlari bo'yicha kengashni tashkil etishni taklif etdi¹. BMT Bosh Assambleyasining 2006-yil 15-martdagi 60/251-rezolyusiyasi² bilan Komissiyaning o'rniga Inson huquqlari bo'yicha kengash Bosh Assambleyaning yordamchi organi sifatida ta'sis etildi. Kengash tarkibi, Bosh Assambleya tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yopiq ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 47 ta a'zodan iborat bo'lib, ular 3 yilga BMT a'zo-davlatlaridan saylanadi. Kengashga a'zolik BMTning barcha a'zo-davlatlari uchun ochiqdir va Kengash a'zolari adolatli geografik taqsimot tamoyili asosida saylanadi.

Kengash biror-bir farqlarsiz va adolatli hamda tenglik asosida barcha uchun barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini umumhurmat qilish va himoya qilishga ko'maklashish masalalariga javob berishga yo'naltirilgan va inson huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni ko'rib chiqishi va ular bo'yicha o'zining tavsiyalarini ishlab chiqishi kerak.

1 Доклад Генерального секретаря "При большой свободе: к развитию, безопасности и правам человека" // Док. ООН. А/59/ 2005 от 21 марта 2005 года.

2 Резолюция Генеральной Ассамблеи "Совет по правам человека" № 60/251 от 15 марта 2006 г. // Док. ООН. А/60/251.

Kengash Jeneva shahrida joylashgan bo'lib, yil davomida doimiy ravishda majlislarga yig'iladi hamda asosiy sessiyani qo'shgan holda bir yilda 3 marotaba sessiya o'tkazadi. Ushbu sessiyalarning umumiy davomiyligi kamida to'qqiz haftani tashkil etadi, Komissiya esa, bir yilda olti hafta majlis o'tkazgan edi, xolos. Kengash, shuningdek, Kengash a'zolarining uchdan bir qismining qo'llab-quvvatlashi asosida Kengash a'zolaridan birining talabi bo'yicha maxsus sessiyalar o'tkazishga ham haqlidir.

Kengash o'z faoliyatini bir necha yo'nalishda amalga oshiradi:

- universal davriy ko'rib chiqish protsedurasini;
- maxsus protseduralar;
- shikoyatlar bo'yicha protseduralar.

Maxsus protseduralar, ekspert maslahatlari va shikoyatlarni berish tartib-qoidalari bilan bog'liq ishlarni takomillashtirish maqsadlarida 2007-yil 18-iyunda Kengashning "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashining institutsional qurilishi" nomli 5/1-sonli rezolyusiyasi qabul qilindi¹. Unda, jumladan, *Universal davriy hisobot* protsedurasini o'tkazishning asoslari, tamoyillari va maqsadlari, jarayoni va tartiblari tasdiqlangan. Ko'rib chiqishning maqsadlari quyidagilar hisoblanadi: joylarda inson huquqlari sohasidagi ahvolni yaxshilash; inson huquqlari sohasida davlatlarning o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarishlari hamda ijobiy o'zgarishlar va davlat oldida turgan muammolarni baholash; tegishli davlat bilan, uning roziligi asosida, davlat imkoniyatlarini mustahkamlash va maslahatlashuv uchun texnikaviy ko'makni amalga oshirish; davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida yaxshiroq bo'lgan tajribalarni almashish; inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish sohasida hamkorlikni qo'llab-quvvatlash; Kengashning inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi boshqa organlar va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi bilan har tomonlama o'zaro hamkorligini rag'batlantirish.

Universal davriy ko'rib chiqish protsedurasini – bu yangi protsedura va tasdiqlangan jadvalga muvofiq, BMTning barcha 192 a'zo-davlatlari 2008-yildan boshlab har 4–5 yil ichida undan o'tishi mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi o'z ma'ruzasini taqdim etgan va u 2008-yil dekabr oyida Inson huquqlari kengashining III sessiyasida Universal davriy hisobot protsedurasini asosida ko'rib chiqildi².

¹ Резолюция Совета по правам человека 5/1 от 18 июня 2007 года. // Док. ООН. A/HRC/5/21, глава III пункты 60–62

² Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 253.

Undan tashqari, Kengashning mazkur rezolyusiyasiga muvofiq, uning *maxsus protseduralari (tartibotlari)* isloh qilindi, xususan, tematik bo'ladimi yoki mamlakatlar bo'yicha bo'ladimi, muayyan mansabga bo'lgan mandat vakolati olti yildan oshib ketmaydigan (ikki marotaba uch yillik muddat tematik mandatga ega bo'lganlar uchun) qilib belgilab qo'yildi. Tematik mandatga ega bo'lgan (mandatariy)lar muddati – uch yil, mamlakatlar bo'yicha mandatga ega bo'lganlar uchun esa – bir yil. Kengash o'zining 5/2-sonli rezolyutsiyasi bilan, axloqiy va malakaviy yurish-turish standartlarini belgilab olish yo'li bilan maxsus protseduralar tizimining samaradorligini oshirish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha kengashning maxsus protseduralari mandatiga ega bo'lganlarning Xulq-atvor kodeksini qabul qildi. Hozirgi paytda 29 mavzuga oid va 10 ta mamlakat bo'yicha mandatlar mavjud.

Mamlakatlar bo'yicha mandatlar hisoblanuvchi maxsus protseduralarning mandatlarini mandat egalariidan muayyan mamlakatda yoki muayyan hududlarda inson huquqlarining buzilishi bo'yicha, tematik mandatlar bo'yicha holatlarda esa, butun dunyoda muayyan asosiy huquqlar buzilishi holatlari bo'yicha omma uchun ochiq bo'lgan axborotlarni o'rganishni, monitoring qilishni, maslahatlashish va taqdim etishni talab etadi.

Maxsus protseduralar, alohida shaxslarning shikoyatlariga javoblar berish, tadqiqotlar olib borish, milliy darajada texnik hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatlar berish, shuningdek, umumiy rag'batlantiruvchi faoliyatda ishtirok etish kabi turli harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Maxsus protseduralar ikki turda bo'lishi mumkin – individual (“Maxsus ma’ruzachi”, “Bosh kotib huzuridagi maxsus vakil”, “Bosh kotib huzuridagi vakil”, “Mustaqil ekspert”) yoki, odatda, 5 nafar kishidan iborat ishchi guruh (har bir mintaqadan 1 nafardan vakil). Maxsus protseduralar mandatlarini o'zi tuziladigan va belgilanadigan maxsus rezolyutsiya bilan ta'sis etiladi. Mandat egalari shaxsiy sifatida faoliyat olib boradi.

Maxsus protseduralarning aksariyati o'z faoliyati davomida inson huquqlarining ayrim buzilishlariga oid ma'lumot oladi va hukumatlarning murojaatlari bo'yicha tezkor so'rovnomalar hamda xatlar yuborib, davlatlardan izoh talab qiladi.

Mandat egalari inson huquqlari sohasida milliy darajadagi vaziyatni tekshirish uchun mamlakatga tashrif buyurishi mumkin. Odatda, mandatariylar mamlakatga tashrif buyurishga ruxsat so'rab hukumatga xat yuborishadi. Misol uchun, O'zbekiston hukumati Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning maxsus protseduralari bilan, xususan, muayyan mavzu bo'yicha ma'ruzasi bilan hamkorligini 2002-yilda boshladi. O'zbekiston

Respublikasi hukumatining taklifiga binoan ilk bor 2002-yil noyabr oyida Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning maxsus ma'ruzachisi Teo Van Boven mamlakatimizga tashrif buyurdi. Uning tashrifi davomida davlat organlarining yuqori martabali xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, xalqaro tashkilotlar va chet el elchixonalarining vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Shuningdek, Teo Van Boven ozodlikdan mahrum etilganlar saqlanadigan muassasalarni borib ko'rdi.

Kengash o'zining 5/3-sonli rezolyusiyasi bilan, shaxsiy sifatda (ya'ni, davlat vakili sifatida emas) faoliyat ko'rsatuvchi va Kengashning tahlil markazi sifatida ishlaydigan 18 ekspertdan iborat tarkibda Inson huquqlari bo'yicha kengashning Maslahat qo'mitasi (Inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha kichik komissiya o'rniga)ni ta'sis etdi. Maslahat qo'mitasi a'zolari o'z vazifalarini uch yil davomida bajaradilar. Ular bir marta qayta saylanishi mumkin. Maslahat qo'mitasining vazifasi, tadqiqotlarga hamda tadqiqotlarga asoslangan maslahatlarga asosiy e'tiborni qaratgan holda, Kengash talab qilgan mazmunda va shaklda Kengashga ekspert bilimlarini taqdim etishdan iborat hisoblanadi. Maslahat kengashi rezolyutsiyalar yoki qarorlar qabul qilmaydi. Maslahat kengashi yilda ko'pi bilan 10 ish kunidan iborat ikkita sessiyasini o'tkazadi.

Kengash doirasida, dunyoning har qanday hududida va har qanday holatda bo'lishidan qat'i nazar, sodir etilgan va tizimli hamda ishonchli ravishda tasdiqlangan inson huquqlari va asosiy erkinliklarining barcha qo'pol buzilishi holatlarini ko'rib chiqish maqsadida shikoyatlarni ko'rib chiqish tartiboti o'rnatildi.

Shikoyatlar protsedurasi – boshqacha qilib aytganda, **“1503-protsedura”**. Ma'lumki, EKOSOSning 1970-yil 27-maydagi 1503 (XLVIII)-sonli Rezolyutsiyasi asosida ta'sis etilgan ushbu Shikoyatlar protsedurasi yanada xolislik, obyektivlik hamda jabr ko'rganlar manfaatlarini hisobga olgan holda va tezkorlik bilan amalga oshirilishining ta'minlab berilishi maqsadida 2000-yil 19-iyundagi 2003/3-Rezolyutsiyada qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirildi.

Tegishli davlat bilan yaqindan hamkorlik qilish maqsadida protsedura o'zining konfidensiallik xususiyatini saqlab qoldi. Tizimli va ishonchli ravishda tasdiqlangan inson huquqlari va asosiy erkinliklarining qo'pol buzilishiga oid axborotlarni ko'rib chiqish va Kengashni xabardor qilish mandatlari bilan ikkita alohida ishchi guruhlar tashkil etildi. Shikoyatlarni ko'rib chiqish protsedurasi jabr ko'rganlar manfaatlarini hisobga olishi, samarali va tezkor bo'lishini ta'minlash uchun shikoyatning tegishli davlatga

jo‘natilish vaqtidan uning Kengashda ko‘rib chiqilishigacha bo‘lgan davr 24 oydan oshmasligi kerakligi belgilab qo‘yildi¹.

Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha komissiya Iqtisodiy va ijtimoiy kengash tomonidan 1946-yilda ta‘sis etilgan. Komissiyaning vazifalari doirasiga xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ijtimoiy sohalar va ta‘lim sohasidagi huquqlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida Iqtisodiy va ijtimoiy kengashga tavsiyalar va ma‘ruzalar tayyorlash, shuningdek, erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqliligi tamoyilini amalga oshirish maqsadida xotin-qizlar huquqlari sohasidagi eng muhim muammolar bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilish to‘g‘risida tavsiyalar va takliflar tayyorlash vazifalari kiradi. Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha komissiyaga 1985-yil Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha umumjahon konferensiyasida qabul qilingan xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash sohasidagi istiqbolga mo‘ljallangan Nayrobi strategiyasining amalga oshirilishini nazorat qilish va shu yo‘nalishdagi ishlarning ahvoliga baho berib, tahlil qilib borish vazifasi topshirildi. Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha komissiya xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlar to‘g‘risida alohida shaxslardan ham, bir guruh shaxslardan ham olingan xabarlarni ko‘rib chiqishi mumkin. Yakka tartibdagi shikoyatlar bo‘yicha choralar ko‘rilmaydi. Buning o‘rniga mavjud muammolarni hal etish uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida xotin-qizlarni kamsitish sohasidagi tamoyillarni aniqlashga qaratilgan taomildan foydalanish bilan cheklanadilar².

“BMT – ayollar” tuzilmasi. 2010-yil 2-iyulda BMT Bosh Assambleyasi gender tengligi va ayollar imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo‘yicha BMTning yangi tuzilmasini tashkil etdi va u “BMT – ayollar” deb nomlandi. Uning vakolatiga gender masalalari va ayollar ahvolini yangilash bo‘yicha Maxsus maslahatchi devonxonasi, Kotibiyat, ayollar ahvolini yaxshilash bo‘yicha bo‘lim, shuningdek, Ayollar manfaatlarini rivojlantirish uchun BMT Jamg‘armasi va ayollar ahvolini yaxshilash bo‘yicha xalqaro o‘quv va ilmiy-tadqiqot instituti mandatlari va vazifalari kiritildi. Mishel Bachelet – Chilining birinchi ayol Prezidenti BMT Bosh kotibi o‘rinbosari va yangi “BMT – ayollar” tuzilmasining rahbari etib tayinlandi va u 2011-yil 1-yanvardan boshlab o‘z faoliyatini boshladi.

“BMT – ayollar” tuzilmasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- global standartlar va me‘yorlar siyosatini ishlab chiqishda Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha komissiya kabi hukumatlararo organlarni qo‘llab-quvvatlash;

1 Qarang: Тиллабаев М.А. Всеобщая декларация прав человека и правозащитный механизм ООН: опыт сотрудничества Узбекистана// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2008. – № 4. – Б. 106–112.

2 Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 155.

- mazkur standartlarni amalga oshirishda a'zo-davlatlarga ko'maklashish, ko'mak so'ragan mamlakatlarga tegishli texnikaviy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni taqdim etish, shuningdek, fuqarolik jamiyati bilan samarali hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;

- gender tengligi sohasidagi majburiyatlariga nisbatan, shuningdek, taraqqiyot umumiy tizimining doimiy monitoringini amalga oshirishda BMT tizimining mas'uliyatli munosabatlarini ta'minlash.

“BMT – ayollar” tuzilmasi ikki yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi. U gender tengligini ta'minlash bo'yicha xalqaro darajadagi kelishilgan standartlarni ishlab chiqish bo'yicha xalqaro siyosiy muzokaralarni qo'llab-quvvatlaydi. U yana, shuningdek, BMTning a'zo davlatlariga bu standartlarni amalga oshirishda ekspertli hamda moliyaviy ko'makni taqdim etish bilan ham yordam beradi. Undan tashqari, “BMT – ayollar” BMT tizimidagi boshqa bo'linmalarga, inson huquqlari va inson imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarda gender tengligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha sa'y-harakatlarida yordam beradi.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi. Turli organlar va muassasalarga xizmatlar ko'rsatish hamda har xil taomillar bilan bog'liq xizmatni keng yo'lga qo'yish vazifalari BMT Kotibiyati xodimlari zimmasida bo'ladi. Inson huquqlari bo'yicha kotibiyat BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasida, ya'ni sobiq Inson huquqlari bo'yicha markazda ish olib boradi.

Bu boshqarma Jenevada joylashgan bo'lib, aloqa uchun Nyu-Yorkda kichikroq byurosi, jahonning turli joylarida esa, bir nechta muvaqqat vakolatxonalari bor. Hozirgi vaqtda mazkur boshqarmaning qarorgohida yuzdan ortiq mutaxassis, asosan, xalqaro masalalar bo'yicha ixtisoslashgan yuristlar va siyosatshunoslar ishlamoqda.

Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

birinchidan, Inson huquqlari bo'yicha kengashga xizmatlar ko'rsatish;

ikkinchidan, tekshirish, nazorat qilish va o'rganib, tadqiq etish ishlarini o'tkazishning Bosh Assambleya tomonidan belgilangan turli taomillarini qo'llab-quvvatlash;

uchinchidan, shartnomalar ijro etilishi ustidan monitoring qiluvchi organlarga xizmatlar ko'rsatish;

to'rtinchidan, inson huquqlari sohasi doirasidagi turli masalalar yuzasidan Inson huquqlari bo'yicha kengashning so'roviga binoan o'rganish va tadqiq etish ishlarini olib borish;

beshinchidan, inson huquqlariga oid normalarni milliy darajada singdirish sohasida davlatlarga texnik masalalarda yordam ko'rsatish dasturini

amalga oshirish, shu jumladan, mutaxassislarni o'qitish, yuridik yordam berish va axborot tarqatish.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar Boshqarma rahbari hisoblanadi¹.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar. Inson huquqlari bo'yicha 1993-yilgi umumjahon konferensiyasi Bosh Assambleyaga BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni birinchi navbatdagi vazifa sifatida tavsiya etdi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar lavozimining ta'sis etilishi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilishning mavjud mexanizmlarini ancha mustahkamlabgina qolmasdan, balki BMT Nizomida qayd etilgan muhim maqsadlarning biriga – BMTning inson huquqlari hurmat qilinishini rag'batlantirishda va ularni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik qilishga erishishga qaratilgan faoliyatini maqbullashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi².

1993-yili Inson huquqlari bo'yicha II Butunjahon konferensiyasida uzoq vaqt davom etgan munozaralardan keyin Vena hujjatining II bo'limida Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar mansabi ta'sis etildi. Qayd etish lozimki, ushbu lavozimning ta'sis etilishi ko'pchilik davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Aytib o'tish lozimki, hali 1947-yilda – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish paytida fransuz Rene Kassen birinchi marotaba inson huquqlarini hukumat oldida himoya qilish uchun mas'uliyatli bo'lgan Bosh Attorney³ lavozimini tashkil etishni taklif qilgan edi, ammo ushbu taklif qo'llab-quvvatlanmadi.

1993-yil 20-dekabrda Bosh Assambleya "Barcha inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha Oliy komissar" to'g'risidagi 48/141-sonli rezolyutsiyani qabul qildi⁴, unga ko'ra, Oliy komissar BMT Bosh kotibi tomonidan to'rt yil muddatga tayinlanadi va u Bosh Assambleya tomonidan geografik asosda davriy o'rin almashishni hisobga olib, uzaytiriladi va tasdiqlanadi. Rezolyutsiyaning 2-bandiga asosan, Oliy komissar lavozimiga nomzod yuqori axloqiy obro'ga va inson huquqlari

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 156.

2 Tixonov A. Inson huquqlari bo'yicha BMT Oliy komissari: Inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish. //Demokratlashtirish va inson huquqlari. – № 2/2003. – B. 21.

3 Qarang: The High Commissioner for Human Rights: An Introduction. Making Human Rights a Reality. – United Nations. New York and Geneva, 1996. – P. 1–10; Лукьянцев Г.Е. Две системы защиты прав человека – Два комиссара по правам человека. // Московский журнал международного права. – 2000. – № 2. – С. 247–248.

4 Резолюция ГА ООН 48/141 от 20 декабря 1993 г. "Верховный комиссар по поощрению и защите всех прав человека". // Международные акты о правах человека. Сборник документов. – М.: НОРМА-ИНФРА, – М.: 1998. – С. 96–98.

sohasida bilimlarga ega bo'lgan shaxs bo'lishi kerak bo'lib, uning o'rni BMT Bosh kotibining o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Bosh Assambleya 1994-yilda qabul qilgan rezolyutsiyaga muvofiq bunday lavozim ta'sis etildi va dastlabki Oliy komissarlik lavozimi ekvadorlik Xose Ayyala Lassoga nasib etdi. Bosh Assambleya bayonot berib aytdiki, Oliy komissar BMTning mansabdor shaxsi bo'lib, BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati uchun asosiy mas'uliyat yukini Bosh kotibning rahbarligi va rahnamoligi ostida tortadi. Oliy komissar o'z vazifasini bajarar ekan, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda Inson huquqlari bo'yicha komissiya (hozirda Kengash)ning umumiy vakolatlari, vazifalari doirasida va qarorlari asosida ish olib boradi. Oliy komissar keng vakolatlarga ega bo'lib, bu vakolatlar unga amalda inson huquqlari sohasidagi har qanday muammoni ko'rib chiqish va inson huquqlarini buzish hollarining oldini olishga qaratilgan dunyo miqyosidagi faoliyatda faol ishtirok etish imkonini beradi. Ayni vaqtda, unga insonning barcha huquqlarini to'la-to'kis amalga oshirish yo'lidagi hozirgi mavjud to'siqlarni bartaraf etish va shu yo'nalishdagi yangidan-yangi vazifalarni hal etish ishida, qolaversa, butun jahonda inson huquqlarini buzish hollari davom etishiga yo'l qo'ymaslik ishida yetakchi rol o'ynash imkoniyati berilgan. 1997-yilning oxirlarida BMT Bosh Assambleyasi Irlandiyalik Meri Robinsonni ikkinchi Oliy komissar sifatida tasdiqlagan bo'lsa, 2008-yili tasdiqlangan Janubiy Afrika Respublikasilik Navanetxem Pillay beshinchi Oliy komissar hisoblanadi.

2012-yilgacha Oliy komissar sifatida quyidagilar faoliyat yuritishgan:

1. Joze Ayyalo-Lasso, Ekvador, 1994 – 1997.
2. Meri Robinson, Irlandiya, 1997 – 2002;
3. Serjio Viyera de Mello, Braziliya, 2002 – 2004;
4. Luiza Arbur, Kanada, 2004 – 2008;
5. Navanetxem Pillay, JAR, 2008-yil sentabridan boshlab.

BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi.

BMT tashkil topgan davridan boshlaboq qochoqlarning, qadrdon go'shasidan ko'chishga majbur bo'lgan shaxslarning, apatrid va repatriantlarning ahvoli bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor berib keladi. Ularning huquqlarini himoya qilish hamda ular bilan bog'liq muammolarni lozim darajada va uzil-kesil hal etish yo'llarini izlash maqsadida bir qancha amaliy choralar ko'rildi. Bosh Assambleya o'zining 1949-yilda o'tkazilgan to'rtinchi sessiyasida BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasini ta'sis etgan. Mazkur boshqarma Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan Qochoqlar ishlari bo'yicha xalqaro tashkilot o'rnini egallagan. BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari Nizomining 1-bandiga muvofiq,

Oliy komissar Bosh Assambleya rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatar ekan, mazkur Nizomning ta'sir doirasidagi qochoqlarga BMT rahnamoligi ostida xalqaro himoyani ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bunday himoya qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1951-yilgi Konvensiyaga¹ hamda shu Konvensiyaga oid 1967-yilgi Protokolga² muvofiq ta'min etiladi.

BMTning Bolalar fondi (UNICEF) va inson huquqlari. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropada va Xitoyda bolalarning oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechakka bo'lgan kundalik zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida 1946-yilda BMT Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasida UNICEF ta'sis etilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi mazkur Fond faoliyatining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar bolalarining manfaatlarini ko'zlangan dasturni amalga oshirishdan iborat, deya qaror qabul qildi. Uch yildan keyin BMT Bosh Assambleyasi UNICEFning faoliyatini nomuayyan muddatga uzaytirishga qaror qilgan.

UNICEF insonparvarlik, muruvvat yordami ko'rsatgan holda rivojlanishga hamkorlik qilar ekan, bolalarni himoya etish va ularning barcha qobiliyatlarini o'stirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik doirasini kengaytirishga harakat qilib kelmoqda. Bunday hamkorlik bolalarni kamol toptirish sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda. Ana shu hamkorlik mohiyatan jahondagi har bir bolaga uning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada e'lon qilingan tayanch huquqlari hamda imtiyozlari imkon qadar ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy va Sharqiy Yevropada, shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqi hududida bolalarning eng zarur talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida UNICEF ba'zi davlatlarga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda.

UNICEF bola huquqlarini rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Bola huquqlari qo'mitasi bilan jips hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, ayni vaqtda Konvensiyaning amalga oshirilishini kuzatish hamda Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki bu hujjatga qo'shilgan davlatlarga ular zimmasidagi vazifalarini bajarishlarida yordam ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda. UNICEF o'z faoliyatida Bolalarning omon qolishini ta'minlash, ularni himoya etish va kamol toptirish to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar rejasiga amal qiladi. Mazkur deklaratsiya bolalarning manfaatlarini ko'zlab, 1990-yilning sentabrida Nyu-Yorkda ko'pgina davlatlar va hukumatlarning rahbarlari

¹ Международные акты о правах человека: Сб. документов. – М.: 1998. – С. 432–444.

² O'sha manba . – B. 445–447.

hamda oliy martabali boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazilgan oliy darajadagi umumjahon uchrashuvida qabul qilingan¹.

BMTning Taraqqiyot dasturi (BMTTD). BMTTD Bosh Assambleyasining 1965-yil 22-noyabrdagi rezolyutsiyasiga asosan BMTning Kengaytirilgan texnikaviy yordam dasturi va Maxsus jamg'armasini birlashtirish natijasida tashkil topgan. Dasturning asosiy maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlarga milliy rivojlanish borasida yordam ko'rsatish. BMTTDning asosiy vazifalaridan biri – samarali boshqaruvni ta'minlashga ko'maklashish. BMT tomonidan qabul qilingan Mingyillik deklaratsiyasida ta'kidlanishicha, samarali boshqaruv inson taraqqiyotiga erishishda, turmush darajasini yuksaltirishda, gender tengligi va tinchlikni saqlab qolishda asosiy omildir.

BMTTD inson huquqlariga oid milliy qonunchilik va xalqaro standartlar sohasida bilimlarni oshirish, gender tenglik, shuningdek, aholiga, ayniqsa, uning ijtimoiy nochor qatlamlariga ko'rsatilayotgan huquqiy xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida yuristlar salohiyatini oshirish ustida faol ish olib bormoqda².

4. BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson huquqlari bo'yicha BMT tomonidan ko'plab normativ hujjatlar qabul qilingan. Bizga ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi yuridik kuchga ega emas. Lekin, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va konvensiyalar ularni ratifikatsiya qilgan davlatlarga muayyan majburiyat va vazifalarni yuklaydi. Ushbu majburiyatlar va vazifalarning a'zo-davlatlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish uchun hujjatlarning o'zida nazorat organlari tuzish to'g'risida ko'rsatib o'tiladi.

Konvensiyaviy organlar muayyan xalqaro shartnoma asosida tuziladi va mazkur shartnoma qoidalarining bajarilishini nazorat qilib boradi. Aynan tashkil qilish asoslaridan kelib chiqib, ular "shartnomaviy organlar", "implementatsiyaviy organlar", "konvensiyaviy organlar" kabi nomlar

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 158–159.

2 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 270.

bilan ham yuritiladi¹. Yoki B. Ismoilovning fikricha, inson huquqlarini tatbiq etishda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida xalqaro hamkorlik asosida yaratilgan bu shartnomaviy organlar turlicha: xalqaro mexanizmlar, xalqaro nazorat, implementatsiyaviy mexanizmlar qabilida nomlanadi². Inson huquqlari bo'yicha BMTning to'qqizta (izoh: 2006-yildan oldingi adabiyotlarda oltita) asosiy shartnomasi bor. Bu shartnomalarning har biri uchun maxsus qo'mita tuzilgan bo'lib, mazkur qo'mitalar shartnomalarning qatnashchi davlatlar tomonidan bajarilish samaradorligini nazorat qilib boradi. Mazkur shartnomalar, xususan, quyidagilardan iboratdir:

Xalqaro shartnoma nomi	Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan vaqti va kuchga kirgan vaqti	A'zo-davlatlar soni (2013-yilgacha)
Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	1966 1976	167
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	1966 1976	160
Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya	1965 1969	175
Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya	1984 1987	153
Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya	1979 1981	187
Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya	1989 1990	193
Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha konvensiya (<i>O'zbekiston a'zo emas</i>)	1990 2003	46
Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (<i>O'zbekiston imzoladi, hali ratifikatsiya qilinmagan</i>)	2006 2008	123
Barcha shaxslarni zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya (<i>O'zbekiston a'zo emas</i>)	2006 2010	36

1 Общая теория прав человека / Отв. ред. Е.А. Лукашева. – М.: НОРМА, 1996. – С. 121.

2 Ismoilov B. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlarini ta'minlashdagi xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarish amaliyoti //O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T.: TDYuI, 2006. – B. 76.

Inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarning asosiy funksiyalaridan biri davlatlarning taqdim etgan ma'ruzalarini o'rganib chiqishdir. Ular tashkil etilgunga qadar, 1965-yilda EKOSOSning qaroriga ko'ra, BMTning inson huquqlari bo'yicha komissiyasining tavsiyasiga ko'ra (rezolyutsiya 624 V (XXII) BMT a'zolari u yoki bu huquqlarni amalga oshirganliklari to'g'risidagi har yilgi ma'ruzalarini BMT Bosh kotibiga taqdim etar edilar.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, shuningdek, fuqarolik va siyosiy huquqlar, axborot erkinligi to'g'risidagi ma'ruzalar taqdimoti tizimi Inson huquqlari bo'yicha paktlar kuchga kirgandan so'ng qator xalqaro shartnomalarda ko'rib chiqilgan yangi jarayon tartiblari bilan almashindi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, xalqaro konvensiyalar asosida tashkil etilgan nazorat organlarining birinchisi – Inson huquqlari bo'yicha qo'mitadir. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro kelishuvlarni sharhlash borasidagi cheklanishlardan kelib chiqqan holda, bu qo'mitalar, avvaliga, ularga berilgan axborot bo'yicha a'zo-davlatlarning ma'ruzalarini muhokama qildilar. Biroq, nazorat organlarining ishi shuni yaqqol ko'rsatib qo'ydi, amalda inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarning ishtirokchilari haqiqiy ahvolni bo'rttirib ko'rsatishgan va aksariyat hollarda obyektiv bo'lmagan axborotlarni taqdim etganlar. Shuning uchun ham, turli qo'mitalarning a'zolari asta-sekinlik bilan nafaqat davlatlardan kelayotgan axborotlar, balki, ulardan tashqari boshqa ma'lumotlarni ham o'rganish kerak, degan xulosaga kelishdi.

Undan tashqari, o'nlab davlatlar inson huquqlari sohasidagi asosiy shartnomalarni ratifikatsiya qilganlari yo'q va shuning uchun ham ular shartnomaviy organlarga ma'ruzalarni taqdim etish bo'yicha hech qanday majburiyatga ega emas. BMT Bosh Assambleyasi o'zining bu to'g'ridagi tashvishi xususida bir necha bor fikr bildirdi va har bir sessiyada davlatlarni Inson huquqlari bo'yicha paktlarni va bu sohadagi boshqa asosiy hujjatlarni ratifikatsiya qilishga chaqirib, rezolyutsiyalar qabul qilmoqda.

Shartnomaviy organlar ishining yetarli darajada samarali ishlamayotganligining sabablaridan biri shundaki, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar ularga davlatlarga nisbatan faqat "umumiy mulohaza" yoki "umumiy tavsiya" berish huquqini berdi, xolos. Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda "Inson huquqlari bo'yicha qo'mita ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar taqdim etadigan ma'ruzalarini o'rganadi. U ishtirokchi-davlatlarga o'z ma'ruzalarini va maqsadga muvofiq deb hisoblaydigan fikr va mulohazalarini yuborib turadi", deyilgan. Qo'mitaning bunday formulada bildiradigan fikri

Qo'mita a'zolari ichida ham, shuningdek, xalqaro huquqshunoslar ichida ham turli talqin qilinishiga olib kelmoqda¹.

Qo'mitalarning vakolati BMT Nizomi asosida faoliyat yurituvchi organlarga qaraganda tor doirada olib boriladi. Chunki, ular konvensiyalarga a'zo-davlatlar monitoringi bilan shug'ullanadilar va inson huquqlariga oid konvensiyalarning moddalariga aloqador masalalarni ko'rib chiqadilar, xolos. Umuman, ular siyosiy organlar emas, vaholanki, qo'mita ekspertlari davlat vakillaridan emas, balki alohida shaxslardan saylanadi.

Konvensiyalarga a'zo-mamlakatlardan ular a'zo bo'lgan muayyan konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarishi yuzasidan qo'mitalarga Milliy hisobotlarni taqdim etish talab qilinadi. A'zo-davlatlar ma'ruzalarini boshida birinchi hisobot, keyinchalik esa, davriy hisobotlari sifatida topshirib boradi. Bu hisobotlar konvensiyalardagi huquqlarning bajarilishini amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan qonunchilik, sudlov, ma'muriy va boshqa chora-tadbirlarni qamrab oladi. Hisobotlar davriy majlislarda ko'rib chiqiladi va u ochiq bo'ladi. Qoidaga binoan, bunday majlislarda, hisobdor bo'lgan hukumatning vakili ishtirok etadi va hisobot bo'yicha savollarga javob beradi.

Qo'mitalar siyosiy organ emasdir, chunki qo'mitalarga ekspert sifatida hukumatlarning vakillari emas, balki alohida shaxslar saylanadi va ular o'zlarining shaxsiy sifatleri bo'yicha ish olib boradilar hamda o'z davlatlari oldida hisobdor emaslar. Ular inson huquqlari sohasida tan olingan obro'-e'tiborga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar hisoblanadi.

Ayollar huquqlari bo'yicha qo'mita (CEDAW)ning tarkibi boshqa qo'mitalardan farq qiladi, chunki, uning a'zolarining deyarli barchasi ayollar hisoblanadi. Ekspertlar konvensiya a'zolari hisoblangan mamlakatlar tomonidan tavsiya etiladi va saylanadi, ammo yuqorida aytganimizdek, ular o'z vazifalarini xususiy shaxslar sifatida bajaradilar.

Ekspertlar to'rt yil muddatga saylanadi, tanlov jarayoni adolatli geografik taqsimot hamda turli ijtimoiy va huquqiy tizimlarning vakilligi tamoyili asosida amalga oshiriladi. Qo'mitalarning a'zoligiga ko'pincha siyosiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ishtirokchi-davlatlarning faol ta'sir ko'rsatishi va ovozlarni almashish orqali saylaniladi. Shuning uchun ham, Nyu-Yorkda bo'lib o'tadigan saylovlar ko'proq siyosatchilarga bog'liqdir.

Barcha qo'mitalarda Qo'mita majlislari sessiyadan oldingi uchrashuvlar (ishchi guruhlar) bilan boshlanadi, ular sessiyadan oldin yoki oldingi sessiyaning oxirida o'tkaziladi. Maqsad davlatlar vakillari bilan muhimroq

1 Права человека. /Учебник. Отв. ред. Е.А. Лукашева. – М.: Норма-Инфра, 1999. – С. 506.

masalalarni oldindan belgilab olishdir. Masalalar ro'yxati majlislarda ishlab chiqiladi va manfaatdor a'zo-mamlakatlar o'rtasida tarqatiladi. Nodavlat tashkilotlari va BMT organlari ishchi guruhlar uchun mamlakatlar bo'yicha maxsus axborotlar taqdim etish maqsadida taklif etiladi (ular yig'ilishlarda ishtirok etishi mumkin).

A'zo-mamlakatlar hisobotlari ko'rib chiqilgandan so'ng qo'mitalar o'z ishlarining xulosalarida, "Xulosaviy kuzatish" nomli yakuniy tavsiyalarini qabul qiladilar. Ularni yopiq majlislarda tuzadilar, ammo keyin nashr etadilar. Qo'mitalarning hisobotlarni qabul qilish jarayoni o'z muammolariga egadir. Qo'mitalar hamisha ish bilan to'lib-toshganligi bois, ularda har doim hali ko'rib chiqilmagan hisobotlar mavjud bo'ladi, ya'ni ular o'z vaqtida ulgura olmaydilar. Boshqa muammo esa, tugallanmagan va talablarga to'liq javob bermaydigan hisobotlardir. Milliy hisobotlarni ko'rib chiqishdan tashqari, aksariyat shartnomaviy qo'mitalar inson huquqlarining buzilishi bo'yicha shikoyatlarni ham ko'rib chiqadilar.

Shartnomaviy qo'mitalar "Xalqaro shartnomalarning qoidalariga oid umumiy tavsiyalar" nomli umumiy sharhlarni tayyorlab, ularga mos keluvchi konvensiyalarning mustaqil interpretatsiyasini amalga oshirdilar. Sharhlar (tavsiyalar) konvensiya normalarini tushuntiradilar va moddalarni amaliyotda qanday interpretatsiya qilishni belgilab boradilar. Ular huquqni himoya qilishning rivojlantirilishiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, mazkur sharhlar davlatlarga va milliy darajada ishlovchi nodavlat tashkilotlariga ularning hisobotlarini yozishida o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, milliy qonunchilikka qiyoslaganimizda, konstitutsiyaviy sud funksiyalariga o'xshash vazifani bajaradilar.

BMT tarkibida shu yo'nalishda tuzilgan qo'mitalarning har biri o'zi nazorat etadigan konvensiya yoki pakt nomi bilan yuritiladi (birinchi pakt bundan mustasno):

Qo'mita nomi	A'zolari soni	Yildagi majlislari va ularning davomlilik soni	Majlislarni o'tkazishning vaqti va joyi Jeneva (J) Nyu-York (N)	Milliy hisobotlarni taqdim etish a) boshlang'ich b) davriy
Inson huquqlari qo'mitasi	18	Yilda 3 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Mart-aprel (N)- iyul (J)-oktabr- noyabr (J)	a) bir yildan so'ng b) har 4 yilda

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita	18	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	April-may (J) Noyabr-dekabr (J)	a) 2 yildan so'ng b) har 5 yilda
Irqiy kamsitishlarni tugatish bo'yicha qo'mita	18	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Mart (J)-avgust (J)	a) 1 yildan so'ng b) har 2 yilda
Qiynoqlarga solishga qarshi qo'mita	10	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Mart (J) Noyabr (J)	a) 1 yildan so'ng b) har 4 yilda
Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita	23	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Yanvar (J)-iyul (N)-oktabr (J)	a) 1 yildan so'ng b) har 4 yilda
Bola huquqlari bo'yicha qo'mita	18	Yilda 3 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Yanvar (J) May-iyun(J) Sentabr-oktabr (J)	a) 2 yildan so'ng b) har 5 yilda
Mehnatkash-migrantlar va ularning oilalari a'zolari huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita	10	Yilda 1 ta majlis, 3 hafta davom etadi	April (J) Noyabr (J)	a) 1 yildan so'ng b) har 5 yilda
Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita	12	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	Mart (J) Noyabr (J)	a) 2 yildan so'ng b) har 4 yilda
Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita	10	Yilda 2 ta majlis, 3 hafta davom etadi	April (J) Noyabr (J)	a) 2 yildan so'ng

Barcha qo'mitalar o'z faoliyati bo'yicha Bosh Assambleyaga hisobot beradi. Biroq, bu protsedurali farq amaliyotda hech qanday oqibatlariga olib kelmaydi. Qo'mitalarga BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi tomonidan xizmat ko'rsatiladi. CEDAW qo'mitasiga esa, Nyu-Yorkda joylashgan Ayollar rivojlanishi bo'yicha BMT bo'limi (DAW) tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Ana shu qo'mitalarning har birini tashkil etishda tegishli pakt yoki konvensiya yuridik asos bo'ldi.

Shartnomalarning bajarilishi yuzasidan nazorat organlarining boshqa mexanizmlar va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorligi. Qo'mitalar o'rtasida hamkorlik cheklangan edi. Biroq, keyingi paytlarda ular birmuncha kengaydi va u yanada kengayishi uchun doimiy ravishda sa'y-harakatlar qilinmoqda. Qiyinchiliklardan biri, qo'mitalar bir vaqtda va bir joyda uchrashmaydilar. Biroq, 1994-yildan boshlab, qo'mitalar raislari Jenevada har yili uchrashishadi va u yerda majlis o'tkazishadi. So'ngra ular o'zaro manfaatli masalalarni muhokama qiladilar, o'z ishlarini muvofiqlashtiradilar va hukumatlarga, shartnomalarga muvofiq tashkil etilgan organlarga, BMTning ixtisoslashgan muassasalari va organlariga hamda nodavlat tashkilotlariga tavsiyanomalar beradilar. Uchrashuvlarda BMTning turli organlari va ixtisoslashgan muassasalari hamda nodavlat tashkilotlarining vakillari ham ishtirok etishi mumkin.

Keyingi yillarda qo'mitalar ishini Inson huquqlari bo'yicha kengash, kichik komissiyalar va konvensiyadan tashqari mexanizmlarning ishlari bilan qanchalik darajada yaxshiroq muvofiqlashtirish kerakligi muhokama qilinmoqda. Raislarning har yilgi uchrashuvlarida har safargidan ko'proq bu organlarning vakillari ishtirok etishmoqda. Shartnomaviy organlarning raislari ham BMTning Bosh Assambleyasi, Inson huquqlari bo'yicha kengash va boshqa mexanizmlarining turli majlislarida ishtirok etishmoqda.

Qo'mitalar bilan nodavlat tashkilotlarining hamkorliklariga oid misollar ham mavjuddir. Ulardan biri – nodavlat tashkilotlari va Bola huquqlari bo'yicha qo'mita va CEDAW o'rtasidagi hamkorlikdir. 1998-yilning yanvarida ayollar va bolalar huquqlari bo'yicha maslahat tashkil etildi. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita va CEDAW a'zolari Alyans, Ayollar huquqlarining bajarilishi bo'yicha xalqaro nazorat (IWRW), BMTning Ayollar rivojlanishi bo'limi va UNICEF kabi maslahat tashkilotchilari bilan birga maslahatlarda ishtirok etdilar. Maslahatning maqsadi Bola huquqlari bo'yicha qo'mita va CEDAW o'rtasidagi o'zaro aloqalar, shuningdek, ushbu konvensiyalarda ko'rsatib o'tilgan huquqlarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi hamjamiyat faollari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish edi.

BMT shartnomaviy organlarining faoliyati.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mita. Inson huquqlari qo'mitasi 1977-yilda ta'sis etilgan. Qo'mita 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning amalga oshirilishini kuzatib boradi. Qo'mita tarkibi 18 a'zodan iborat bo'lib, qatnashchi davlatlar ularni o'z fuqarolari orasidan saylaydilar. Qo'mita a'zolarining o'z vazifalarini amalga oshirishi ularning shaxsiy fazilatiga asoslanadi¹.

¹ Qarang: Гражданские и политические права: Комитет по правам человека. Женева, ООН, 1992.

Odatda, Qo'mita yil davomida har biri uch haftaga cho'ziladigan sessiyalar o'tkazadi va bu sessiyalar, qoidaga ko'ra, bahorda Nyu-Yorkda, yoz va kuzda – Jenevada o'tkaziladi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning bajarilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiruvchi Inson huquqlari bo'yicha qo'mita inson huquqlari masalalari bo'yicha muhim qo'mitalardan hisoblanadi. Pakt fuqarolik va siyosiy huquqlarning keng doirasini o'z ichiga olgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning ratifikatsiya qilgan barcha davlatlar inson huquqlarining hayotga tatbiq etilishi yuzasidan ko'rilayotgan choralar haqida Qo'mitaga ma'ruzalar taqdim etishi lozim. Birinchi ma'ruza tegishli davlatga Pakt kuchga kirgandan so'ng bir yil ichida taqdim qilinishi lozim. Keyingi o'zgartirishlar haqidagi ma'ruzalar har besh yilda taqdim qilinadi. Davlat tomonidan taqdim etilgan ma'ruza, avvalo, qo'mitaning besh kishidan ortiq bo'lmagan a'zolaridan tashkil topgan ishchi guruhi tomonidan o'rganib chiqiladi. Ishchi guruh tegishli davlat vakillari bilan muhokama qilinadigan muammolarni aniqlaydi. Masalalarni Qo'mitada eshitishdan oldin tegishli davlat vakillariga savollar tayyorlanadi. Undan so'ng Qo'mita to'liq tarkibda ma'ruzani ikki kun mobaynida o'rganib chiqadi. Bu jarayonlardan so'ng tegishli davlat vakillari ishtirokida ochiq majlis o'tkaziladi. Unda nohukumat tashkilotlaridan va matbuotdan ishtirokchilar kuzatuvchi sifatida qatnashishlari mumkin. Majlis davomida davlat vakillari Qo'mita a'zolarining savollariga javob beradilar. Majlisda tegishli davlat vakillari o'z hukumatidan kerakli ma'lumotlar bo'yicha maslahat olishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Agar Qo'mita a'zolarida o'rtaga tashlangan savollarga javob yetarli bo'lmasa, tegishli davlatga ushbu masalalar yuzasidan yozma shaklda javob yo'llash imkoniyati beriladi.

Ma'ruzani ko'rib chiqish mobaynida Qo'mita a'zolari ko'plab manbalarga: BMTning boshqa inson huquqlari organlari, maxsus ma'ruzachilar, ishchi guruh va nohukumat tashkilotlari ma'ruzalariga tayanadilar. Tajriba shuni ko'rsatdiki, ma'ruzalarning ochiq majlislarda ko'rilishi inson huquqlarining amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish uslubini o'zida to'la namoyish qiladi. Har bir ma'ruzaning ko'rilganligi yuzasidan yakuniy "umumiy mulohaza"lar qabul qilinadi. Ushbu "mulohaza"larda tegishli davlatning Paktning amalga oshirishi bilan bog'liq holatlar to'g'risida Qo'mitaning fikri aks ettiriladi.

Mulohazalarda Paktning bajarishni qiyinlashtiradigan obyektiv omillar, ijobiy jihatlari, asosiy muammolar ko'rsatiladi. Umumiy mulohazalar yuridik kuchga ega bo'lmasa ham, o'zida yagona ekspert organi xulosasini aks ettiradi. Bunday xulosalarning inkor etilishi yoki ularga rioya qilinmasligi davlatning Paktga hurmatsizlarcha qarashini bildiradi.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning ikkinchi muhim funksiyalaridan biri – bu Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga sharh berishdir. Agar davlatlar tomonidan ushbu Paktning moddolari yuzasidan noto'g'ri talqin qilish holatlari kuzatilsa, shunda Qo'mita izoh beradi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokolga binoan, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita alohida shaxslardan kelib tushgan shikoyatlarni olish va ko'rib chiqish vakolatiga ega. "Qo'mita, mazkur protokolga binoan, olingan xabarlarni ko'rib chiqadi, bunda u o'ziga alohida shaxs tomonidan va qatnashchi bo'lgan manfaatdor davlat tomonidan taqdim etilgan barcha yozma hujjatlarni e'tiborga oladi"¹.

Qo'mita xabarlarni ko'rib chiqishi uchun quyidagi talablar bajarilgan bo'lishi kerak:

xabarda Paktga ko'rsatilgan huquqlar buzilgan bo'lishi kerak;

xabar Paktga va unga qo'shimcha Protokolga a'zo-davlat yurisdiksiyasidagi shaxs yoki shaxslar tomonidan berilgan bo'lishi kerak; agar shikoyat yo'llovchi shaxs bevosita inson huquqlari buzilishining qurboni bo'lmasa, unda qurbon nomidan berilayotgan xabarning aniqligini tasdiqlovchi isbot keltirishi kerak;

xabar anonim bo'lmasligi kerak;

agar xabar boshqa xalqaro jarayonda ko'rilyotgan bo'lsa, unda Qo'mita tomonidan ko'rilmaydi.

Qo'mitaga xabar yo'llanishidan oldin jabrlangan shaxs o'z davlatining barcha imkoniyatlaridan (milliy sudlovning barcha tegishli instansiyalari tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lishi kerak) foydalangan bo'lishi kerak; bu hollar agar bunday vositalar sababsiz uzaytirilishi oldindan aniq bo'lsa yoki natijasiz bo'lgan hollarda istisnolidir.

Bundan tashqari, xabar yaroqliligini tekshirib ko'rish maqsadida Qo'mita tavsiya etilayotgan jabrlangan shaxsdan yoki tegishli davlatdan qo'shimcha ma'lumotni so'rab olishi mumkin. Agar ushbu bosqichda davlat olingan xabarga javob yo'llasa, shikoyat egasi ushbu javobga qo'shimcha mulohaza qilish uchun javob nusxasini oladi. Shundan so'ng Qo'mita xabar yaroqli yoki yaroqli emasligi haqida qaror qabul qiladi. Agar Qo'mita bu xabarni yaroqli deb topsa, tegishli davlatga ushbu masala yuzasidan tushuntirish yoki ariza taqdim qilishni so'rab murojaat qiladi.

Davlat tomonidan javobni yo'llash muddati uzog'i bilan olti oydir. Bundan keyin shikoyat muallifiga davlat javobiga fikr bildirish imkoniyati beriladi. Keyin Qo'mita yakuniy mulohaza qabul qiladi va tegishli davlatga

¹ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004. – B. 56.

hamda shikoyat muallifiga bu haqda xabar beradi. Shikoyatni ko'rib chiqishning har bir bosqichida huquqi buzilgan shaxsga ham, tegishli davlatga ham bir xil shart qo'yiladi. Har bir tomon boshqa tomon daliliga nisbatan o'z fikrini berish imkoniyatiga ega.

Odatda, shikoyatlarning yaroqlimi yoki yaroqsizligini tan olish uchun bir yilcha vaqt ketadi. Ishni ko'rib chiqishning keyingi bosqichi bir yildan ikki yilgacha tomonlarning tayyorligiga qarab cho'zilishi mumkin. Ushbu vaqt oralig'ida shaxs himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin. Shunda Qo'mita ayrim holatlarda tegishli davlat tomonidan majburlov choralari qo'llashni to'xtatib turishni iltimos qiladi. Shunday holatlar bo'lganki, Qo'mita davlatni o'lim jazosi ijrosini kechiktirib turishga chaqirgan. Qo'mita sud organi hisoblanmaydi va uning qarorlari "qaror" emas, "mulohaza" shaklida ishlab chiqiladi.

Qo'mita vakolatini tan olgan har qanday davlat boshqa bir xuddi shunday davlat ustidan Paktdagi majburiyatlarini bajarmayapti, deya shikoyat berishi mumkin. Ushbu jarayon 1979-yildan kuchga kirgan bo'lsada, lekin amaliyotda bunday holat hali kuzatilmagan.

Quyida Qo'mitaga ariza va shikoyat bilan murojaat qilish taomili (protsedurasi) berilmoqda:

ishtirokchi-davlatlar tomonidan Qo'mita vakolatining e'tirof etilganligi (Fakultativ protokolning 1-moddasi);

davlat miqyosida amalda bo'lgan barcha vositalardan foydalanib bo'linganlik (Fakultativ protokolning 2-moddasi, 5-moddasi 2-qismi b-bandi);

ariza, shikoyat bilan murojaat qilish huquqining suiiste'mol qilinmaganligini tekshirish va ularning anonim tarzda berilmasligi (Fakultativ protokolning 3-moddasi);


muvofiglik (ratione temporis, personae, loci, materiae) (Fakultativ protokolning 3-moddasi);

ayni shu masala boshqa xalqaro muhokama yoki tartibga solish tartib-qoidalariga binoan ko'rib chiqilayotgan yoki ko'rib chiqilmayotganligi (Fakultativ protokolning 5-moddasi 2-qismi b-bandi);

huquq buzilishlarining muhim elementlarini o'rganib chiqish (Fakultativ protokolning 2-moddasida nazarda tutilgan holatlar)

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita 1966-yilda qabul qilingan muhim xalqaro hujjat – Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt amalga oshirilishini kuzatib boradi. Qo'mitaning dastlabki sessiyasi 1987-yilda o'tkazilgan. Mazkur Qo'mitada ham a'zolar soni

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (FSHXP)ning Birinchi Fakultativ protokoli misolida



Ishning ko'rib chiqilishi va muhokama qilinishi (maxfiy)

18 ekspertdan iborat. Ularning hammasi ham inson huquqlari sohasida tan olingan obro'-e'tiborga ega va shaxsiy fazilatlarini asosida ish olib boruvchi kishilardir¹. Qo'mita a'zolari mustaqil maqomga ega bo'lib, Qo'mita ishlarida mustaqil ishtirok etadi. Ular EKOSOS tomonidan 4 yil muddatga saylanadilar va qayta saylanishlari mumkin. Qo'mita har biri 3 haftaga cho'ziladigan ikkita sessiya o'tkazadi, bu sessiyalar may va noyabr-dekabr oylarida Jenevada bo'lib o'tadi.

¹ Qarang: Комитет по экономическим, социальным и культурным правам. Женева, ООН, 1996.

Qo'mitaning asosiy vazifasi a'zo-davlatlarning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga amal qilishini kuzatadi. Paktning 16–17-moddalariga binoan, a'zo-davlatlar ushbu Paktda o'rnatilgan huquqlarini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar yuzasidan Qo'mitaga davriy ma'ruzalarni taqdim etishlari shart. Bundan tashqari, davlatlar ushbu Paktdagi huquqlarning amalga oshirilishi yuzasidan to'liq ma'lumotni Qo'mitaga taqdim qilishlari lozim. A'zo-davlatdan tegishli ma'ruza kelib tushganidan so'ng, Qo'mita uning ko'rib chiqilishi uchun standart jarayonni amalga oshiradi. Ma'ruza olinib, qayta ishlanib va Kotibiyat tomonidan tarjima qilinganidan so'ng uni Qo'mitaning 5 kishidan iborat ishchi guruhi ko'rib chiqadi. Ma'ruzani Qo'mita to'liq tarkibda ko'rib chiqishidan 6 oy oldin ishchi guruh o'zining majlislarini o'tkazadi. Ishchi guruh dastlab ma'ruzani ko'rib chiqadi va a'zolaridan biriga uni chuqur tahlil qilishni topshiradi. Shundan so'ng ma'ruzani o'rganishda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan yozma ravishda savollar tuzib chiqiladi. Tegishli davlat ushbu savollar yuzasidan ishchi guruhga kerakli javoblarni yuborishi shart. Tegishli davlat vakillari Qo'mita majlislarida ishtirok etishi tavsiya etiladi. Odatda, davlat delegatsiyasi 2 kunga cho'ziladigan ushbu jarayonda qatnashib, ish yuzasidan sharh va savollarga o'z javoblarini taqdim etadi.

Shundan so'ng ma'lumot ushbu ma'ruzaga aloqador bo'lgan BMTning maxsus muassasasiga taqdim etiladi. Keyin Qo'mita a'zolari majlisda ishtirok etayotgan davlat vakillariga o'zlarining mulohaza va savollarini beradilar. Ana shundan so'ng davlat vakillariga berilgan savol va mulohazalar yuzasidan juda ham aniq javoblar tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Kamdan-kam holatlarda Qo'mita yetarli javoblar va qo'shimcha ma'lumotlar bo'lmaganligi bois, ushbu ishning ko'rib chiqilishini keyingi sessiyaga qoldiradi. Ko'rib chiqilgan ma'ruza yuzasidan Qo'mita o'zining yakuniy mulohazalarini taqdim etadi. Yakuniy mulohazalar 5 qismdan iborat bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Kirish.
2. Ijobiy jihatlar.
3. Paktning amalga oshirishda to'sqinlik qilayotgan omillar va qiyinchiliklar.
4. Tashvish tug'diradigan asosiy muammolar.
5. Takliflar va tavsiyalar.

Yakuniy mulohazalar yopiq majlisda qabul qilinadi va sessiyaning oxirgi kunida e'lon qilinadi.

Ayrim holatlarda Qo'mita Paktning buzilishini qayd qiladi va a'zo-davlatni bunday huquq buzilishini boshqa takrorlamaslikka chaqiradi. Qo'mita mulohazasi yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, u yagona ekspert

organining fikrini ifodalaydi. Ba'zan esa, Qo'mita mulohazalari davlatning milliy qonunchiligi o'zgarishiga sababchi bo'lgan holatlar ham uchrab turadi.

Qo'mitaning ikkinchi asosiy vazifalaridan biri – bu uning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga sharh berishidir.

Qo'mita mulohazalari davlatlarga Paktning to'g'ri qo'llashda va ma'ruzalarni tayyorlashda yordam beradi. Hozirgi paytda Pakt bo'yicha huquqlari buzilgan deb hisoblangan alohida shaxs yoki guruh qo'mitaga shikoyat qilish imkoniyatiga ega emas. Shu kunlarda ushbu imkoniyatni amalga oshiruvchi qo'shimcha protokol ishlab chiqilyapti.

Qo'mita nohukumat tashkilotlariga alohida davlatlarda Paktga ko'rsatilgan huquqlar buzilishi yuzasidan yozma yoki og'zaki xabar taqdim etish imkoniyatini yaratgan birinchi shartnomaviy organ hisoblanadi. Qo'mita og'zaki xabarlarini: bevosita Pakt qoidalariga bog'liq bo'lsa; qo'mita tomonidan ko'rib chiqilayotgan masalalarga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lsa; shuningdek, ular ishonchli va haqoratomez mazmunga ega bo'lmagan hollarda ko'rib chiqadi.

BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 2008-yil dekabrda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Fakultativ protokoli 2013-yil 5-may kuni kuchga kirdi. Protokolning kuchga kirishi alohida shaxslarga Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga kafolatlangan huquqlari buzilgan shaxslarga maxsus tashkil etilgan Qo'mitaga murojaat qilishiga imkon berdi. Murojaatlar a'zo-davlat yurisdiksiyasidagi Paktga bayon qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari buzilgan shaxs yoki shaxslar guruhi yoki ularning nomidan, mazkur huquqlarni buzgan a'zo-davlat ustidan taqdim etilishi mumkin.

Irqiyl kamsitishlar bo'yicha qo'mita. Irqiyl kamsitishlarni tugatish bo'yicha qo'mita Irqiyl kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya amalga oshirilishini kuzatib boradi. Qo'mita, konvensiyaning 8-moddasiga binoan, 1970-yilda tashkil etilgan. Bu Qo'mitaning a'zolari ham 18 kishidan iborat bo'lib, ular Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan to'rt yillik muddatga saylanadilar¹.

Qo'mita a'zolari tashqaridan hech qanday topshiriql olmay, mustaqil ravishda harakat qiladilar. Ular o'z majburiyatlarini bajarishdan chetlatilmaydi va ularning roziligisiz o'rniga boshqa kishi tayinlanmaydi. Konvensiyaga a'zo-davlatlar to'rt yilda bir marta Qo'mitaga Konvensiya qoidalariga o'sha davlat milliy qonunchiligida qanday aks ettirilayotganiligi

¹ Qarang: Комитет по ликвидации расовой дискриминации. Женева, ООН, 1992.

to'g'risida ma'ruza taqdim etishi lozim. Ikki yilda bir marta esa, mamlakatdagi yangi ma'lumotlarning qisqacha ma'ruzasini taqdim qilishlari zarur bo'ladi.

Qo'mita tomonidan ma'ruzaning ko'rib chiqilish jarayonida tegishli davlat vakili qatnashishi, so'zga chiqishi, savollarga javob berishi va qilingan mulohazalar ustidan sharhlar berishi mumkin. Qo'mita Bosh Assambleyaning yillik ma'ruzasida ko'rilgan ma'ruzalar natijalarini umumlashtiradi hamda o'zining taklif va tavsiyalarini beradi.

Qo'mita faoliyatining birinchi kunlaridanoq, ushbu ma'ruzalarning maqsad va xarakteriga zid keladigan noto'g'ri qarashlarni rad etib keladi. Agar a'zo-davlat o'z hududida irqiy kamsitishlar mavjud emas, deb hisoblasa ham, Qo'mitaga umumlashtiruvchi va boshqa ma'ruzalarni taqdim etishlari shart. A'zo-davlatlarning o'z hududlarida irqiy kamsitishlar mavjud emas, shuning uchun ham Konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishi shart emas, deb hisoblaydigan fikrlari noto'g'ridir.

Qo'mitaning bir a'zo-davlatning boshqa bir a'zo-davlat ustidan Konvensiya qoidalarini bajarmayapti, degan shikoyatlarini qabul qilish va kerakli choralar qo'llash vakolati mavjud. Konvensiyaga a'zo-davlatlar ushbu vakolatni tan oladilar. Ammo, haligacha hech bir a'zo-davlat bu jarayondan foydalangan emas.

Alohida shaxs yoki bir necha shaxs o'zini irqiy kamsitish qurboni deb hisoblasa, o'z davlati ustidan Qo'mitaga shikoyat bilan murojaat etishi mumkin. Bu holat faqat tegishli davlat Qo'mitaning shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini tan olgandagina amalga oshiriladi.

Qo'mita yashirin tartibda huquq buzilganligini tasdiqlovchi shikoyatini uni yo'llovchi shaxsning ismi-sharifini ko'rsatmasdan tegishli davlatga yo'llaydi. Shundan so'ng, davlat ushbu holat bo'yicha o'z fikrini bildirgach, Qo'mita bu masalani ko'rib chiqadi va tegishli taklif hamda tavsiyalarni beradi.

Qiynoqlarga qarshi qo'mita. Qiynoqlarga qarshi qo'mita 10 nafar ekspertdan tashkil topgan. Ekspertlarning har biri to'rt yil muddatga saylanadi. Qo'mita Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlarning mazkur Konvensiya bo'yicha zimmaga olgan majburiyatlarini bajarishi yuzasidan ma'ruzalarini ko'rib chiqadi. Qoidaga ko'ra, qo'mita har yili navbatdagi ikkita sessiyasini o'tkazadi.

Konvensiyaga a'zo bo'lgan har bir davlat Qo'mitaga Konvensiyadan kelib chiqadigan majburiyatlarining bajarilishi to'g'risida ma'ruza taqdim etadi. Birinchi ma'ruza tegishli davlatga Konvensiya kuchga kirgandan so'ng bir yil ichida taqdim qilinishi shart. Keyingi ma'ruzalar 4 yilda bir

marotaba taqdim etiladi. Har bir ma'ruzadan so'ng Qo'mita maqsadga muvofiq deb topsa, o'z mulohazasini bildiradi. Qisman o'sha davlatga Konvensiyada ko'rsatib o'tilgan majburiyatlarni bajarmaganligini ham aytib o'tishi mumkin. Qiynoqlarga qarshi qo'mitaning mulohazalari yuridik kuchga ega bo'lmasa-da, lekin ular yagona ekspert organining fikrini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, bunday xulosalarning inkor etilishi yoki ularga rioya qilinmasligi muayyan davlatning Konvensiyaga hurmatsizlarcha qarashini bildiradi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaga muvofiq, qiynoqlarga qarshi qo'mita a'zo-davlatlarda tizimli qiynoqlar to'g'risidagi arizalarga tegishli ma'lumotlar olish va tekshirishlar o'tkazish vakolatiga egadir¹. Bu jarayon ikkita element bilan xarakterlanadi: ishonarliklik va tegishli davlat bilan hamkorlik. Qo'mita vakolati qo'shimcha hisoblanadi. Konvensiyani ratifikatsiya qilayotgan davlat ushbu vakolatni tan olmasligini bayon etishi mumkin. Bunday hollarda Qo'mita tegishli davlatga nisbatan o'z vakolatlarini qo'llay olmaydi. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaning 20-moddasiga muvofiq, Qo'mita har qanday davlatdan konvensiyada buzilgan huquqlar yuzasidan xabarlarini olish va ko'rib chiqish huquqiga ega². Agar olingan ma'lumot ishonarli bo'lsa, unda Qo'mita tegishli davlatni ushbu masala yuzasidan hamkorlik qilishga chaqiradi. Qo'mita qo'yilgan masalaga aniqlik kiritish maqsadida hukumat vakillaridan yoki nohukumat tashkilotlaridan qo'shimcha ma'lumot so'rab olishi mumkin. Qo'mita olingan ma'lumotni tekshirib ko'rish maqsadga muvofiq, deb hisoblasa, unda o'zining bir yoki bir nechta a'zosini ishonchli tekshiruv o'tkazish uchun tayinlaydi. Bunday hollarda qo'mita tegishli davlatdan ishonchli tekshiruv o'tkazish uchun vakil tayinlashni so'raydi. Tegishli davlatning roziligi ushbu davlatga bo'rib, bevosita guvohlarning ko'rsatmalarini tinglashni ham o'z ichiga oladi. Ishonchli tekshiruv o'tkazish uchun tayinlangan Qo'mita a'zolari tegishli davlatda o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha xulosalar taqdim etadi. Ushbu davlatdan esa, olingan mulohazalarning bajarilishi yuzasidan Qo'mitani habardor qilib turish so'raladi.

Qo'mita a'zo-davlat bilan maslahatlashgandan so'ng, tekshirish bilan bog'liq ishlarning yakuni bo'yicha o'zining yillik ma'ruzasiga tekshiruv

1 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004. – B. 76.

2 O'sha manba. – B. 76–77.

natijalari bo'yicha hisobotini kiritish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Faqat shu holatdagina Qo'mita faoliyati e'lon qilinadi; boshqa holatlarda esa, tekshiruv bilan bog'liq bo'lgan butun faoliyat va hujjatlar maxfiy hisoblanadi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaning 21-moddasida ko'rsatilgan davlatlarning shikoyat qilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon ushbu davlatlar tomonidan Qo'mitaning vakolati tan olingandagina amalga oshiriladi. Qo'mitaning vakolatini tan olgan davlatlar bir-birlari ustidan Konvensiyadagi majburiyatlarini bajarmayotganliklari yuzasidan Qo'mitaga xabar berishi mumkin.

O'zini Konvensiya buzilishining jabrdiydasi deb hisoblagan shaxslar Qo'mitaga shikoyat bilan murojaat qilishi mumkin. A'zo-davlat Qo'mitaning vakolatini tan olgan bo'lishi kerak. Agar mazlumning o'zi xabarni taqdim etish holatida bo'lmasa, uning ota-onasi yoki vakili taqdim etishi mumkin.

Avvalo, Qo'mita xabarning ko'rib chiqishga yaroqliligini tekshiradi. Shundan so'ng masalaning mohiyatini o'rganishga kirishadi. Xabarning ko'rib chiqishga yaroqli bo'lishi uchun talab qilinadigan holatlar quyidagilardan iborat:

- anonim va Konvensiya qoidalariga zid bo'lmasligi kerak;
- taqdim etilgan xabarda shaxsning o'zi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lmasligi kerak;
- xabar boshqa xalqaro tekshiruv jarayonida ko'rib chiqilgan yoki ko'rilayotgan bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari, davlatning milliy himoya vositalaridan foydalanilgan bo'lishi kerak. Masalani aniqlashtirish yuzasidan Qo'mita tegishli davlatdan yoki mazlumdan qo'shimcha ma'lumot so'rab murojaat qilishi mumkin. Xabar yaroqli yoki yaroqsiz deb topilsa, tomonlar bundan xabardor qilinadi. Konvensiya shartlarini buzgan a'zo-davlatdan olti oy ichida ko'tarilgan savol yuzasidan tushuntirish yoki bayonot talab qilinadi. Tushuntirishda davlatning ushbu holatni tuzatish yuzasidan qanday choralar ko'rganligi aks ettiriladi. Xabar muallifi ham Qo'mitaga o'zining mulohazalarini yoki qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qilishi mumkin.

Agar Qo'mita maqsadga muvofiq deb hisoblasa, mazlum shaxsan o'zi yoki vakili orqali Qo'mitaning yopiq majlislarida qatnashishi mumkin. Qo'mita tegishli davlat vakillarini ham taklif qilishi mumkin.

1981-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan, uning 36/151-rezolyutsiyasi asosida, qiynoqlarga solish holatlarining jabrdiydalariga yordam berish uchun BMTning Ko'ngilli badallar jamg'armasi ta'sis etildi. Fondni tashkil etishdan maqsad ixtiyoriy badallar to'plash va bu badallarni

qiynoqlarga duchor etilgan shaxslar hamda ularning oila a'zolariga muruvvat yordami, yuridik va moliyaviy yordam ko'rsatish uchun taqsimlashdan iboratdir. Fond o'z faoliyatini hukumatlar, xususiy tashkilotlar, muassasalar va ayrim shaxslar tomonidan berilayotgan ko'ngilli badallar asosida amalga oshirayotir. Fondni boshqarish bilan BMT Bosh kotibining o'zi shug'ullanmoqda. Unga bu borada inson huquqlari sohasida katta tajribaga ega bo'lgan rais va to'rt nafar a'zodan iborat tarkibdagi Vasiylar kengashi yordam bermoqda. Mablag'larning kattagina qismi, ruhiy, tibbiy yordam ko'rsatish va salomatlikni tiklash, reabilitatsiya qilishga oid loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadi. Ana shu xildagi loyihalar, asosan, qiynoqlarga solishning jabrdiydalari hamda ularning oilalariga to'laqonli va rasamadli hayot kechirishlarini ta'minlaydigan sharoit yaratib berishga qaratilgan.

Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarni tugatish bo'yicha qo'mita.

Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning amalga oshirilishini nazorat etib borish maqsadida Konvensiyaning 17-moddasiga binoan ta'sis etilgan. Qo'mita 23 ekspertdan tashkil topadi. Ular yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, xotin-qizlarning huquqlari sohasida bilim va tajribasi bilan ajralib turadigan nomzodi Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan shaxslardan tarkib topgan ro'yxatdagi nomzodlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi¹.

Qo'mita a'zolari to'rt yillik muddatga saylanadilar va o'z davlatlarining vakillari sifatida emas, balki mustaqil faoliyat yuritadilar. 1982-yilda tashkil etilganidan boshlab Qo'mita a'zolari, bir nafar a'zosini (F. Kornelli, Niderlandiya) istisno qilmasa, butunlay ayollardan tashkil topgan. Ular turli kasb vakillaridir (jins (gender) bo'yicha yuristlar, muallimlar, diplomatlar, ekspertlar). Qo'mita o'zining majlislarini yilda bir marotaba Jenevada yoki Nyu-Yorkda o'tkazadi. Har yili o'z faoliyati to'g'risida EKOSOS orqali Bosh Assambleyaga ma'ruzalar taqdim etadi.

Konvensiyaning 17-moddasiga binoan, Qo'mitaning asosiy vazifasi Konvensiya qoidalari bajarilishi yuzasidan a'zo-davlatlarning qonunchilik, sud, ma'muriy yoki boshqa choralari to'g'risidagi ma'ruzalarini ko'rib chiqishdir. Davlatlarning birinchi ma'ruzasi Konvensiyaning ratifikatsiya qilgach yoki unga qo'shilgach bir yil ichida taqdim etiladi. Keyingi ma'ruzalar to'rt yilda bir marta taqdim etilishi shart yoki Qo'mitaning tegishli iltimosiga binoan, oldinroq ham taqdim etilishi mumkin.

¹ Qarang: Дискриминация в отношении женщин: Конвенция и комитет. Женева, ООН, 1995.

Sessiyadan oldin tashkil etilgan ishchi guruhlar Qo'mitaning besh a'zosidan tashkil topib, ular savollar ro'yxatini va ko'tarilgan muammolar tartibini tayyorlaydi. Ushbu muammolar tegishli davlatlarga sessiya mudatidan ilgari jo'natiladi, bu esa, davlatlarga sessiyadan oldin javoblarni tayyorlash imkoniyatini beradi. Tegishli davlat vakillari ma'ruza ko'rilishida qatnashishi mumkin. Qo'mita sessiya boshida ma'ruza shakli va mundarijasiga qiyosiy mulohazalar va sharhlar beradi. Keyin Konvensiyaning aniq, muayyan moddalariga bog'liq savollar beradi. Davlat vakillari ayrim savollarga o'sha paytning o'zidayoq, boshqalariga esa, bir-ikki kundan so'ng javob berishi mumkin. Ushbu bosqichda Qo'mita ma'ruza yuzasidan qo'shimcha savollar berishi va to'la ma'lumot so'rashi mumkin. Shundan so'ng Qo'mita yakuniy mulohazalar tayyorlaydi, bu esa, Bosh Assambleyaning ma'ruzalarida aks etishi mumkin. Yakuniy mulohazalarda davlat vakillari bilan o'tkazilgan muzokaralarda ko'tarilgan savollar, Qo'mitaning xavotirlanishi sabablari ko'rsatiladi. Davlat ma'ruzalarining Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilishi munozarali jarayon emas. Qo'mita u yoki bu davlatni Konvensiyani buzyapti, deb e'lon qilmaydi. Buning o'rniga Qo'mita e'tiborni tegishli savollar va mulohazalar orqali davlat siyosatining kuchsiz tomonlariga qaratadi. Konvensiyaning 21-moddasiga binoan, Qo'mita ma'ruzalar va ma'lumotlarni o'rganish asosida umumiy xarakterdagi taklif va tavsiyalar berishi mumkin.

Qo'mita uchun qimmatli ma'lumotlar manbai – bu huquqni himoya qiluvchi va ayollar nohukumat tashkilotlaridir. A'zo-davlatlar tomonidan ayollarga nisbatan qilinayotgan ma'ruzalar har doim ham davlatdagi aniq holatni ifodalayvermaydi. Mustaqil tashkilotlardan Qo'mitaga taqdim etiladigan ma'lumotlar vaziyatni to'g'ri baholashda katta yordam beradi. Ko'rilayotgan masalalar yuzasidan jo'natilayotgan ma'lumotlar Konvensiyaning aniq, muayyan moddalariga havola etilishi kerak.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita Bola huquqlari bo'yicha konvensiyaning 43-moddasiga binoan 1991-yilda tashkil etilgan. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo'lib o'tgan. Qo'mita o'n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag'batlantirish uchun kurashayotgan, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlash vazifasi topshirilgan. Ular mustaqil faoliyat yuritadilar. Qo'mita majlislari har yili Jenevada bo'lib o'tadi. Qo'mita faoliyati to'g'risida ma'ruza ikki yilda bir marta EKOSOS orqali Bosh Assambleyaga taqdim qilinadi.

Qo'mita Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiyaning 44-moddasiga

binoan, a'zo-davlatlar Qo'mitaga Konvensiyada tan olingan huquqlarni mustahkamlash yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishlari shart bo'ladi. Davlatlar ma'ruzasida Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar aks etgan bo'lishi kerak. Birinchi ma'ruza tegishli davlatga Konvensiya kuchga kirganidan so'ng ikki yil ichida taqdim qilinishi shart. Keyingilari esa, keyingi har besh yil ichida bir marta taqdim etiladi. Konvensiyaga muvofiq, a'zo-davlat o'z hududida ma'ruzalari oshkoraligini ta'minlab berishi lozim. Qo'mita ma'ruzalarni o'rganib, umumiy xarakterdagi taklif va tavsiyalar berishi mumkin. Agar ma'ruza yuzasidan mulohazalar qilinsa, bu haqda Bosh Assambleyaga xabar qilinadi¹.

Qo'mitaning mulohazalari yuridik majburlov kuchiga ega emas. Lekin, Qo'mita mulohazalarini inobatga olmaslik Konvensiyaga hurmatsizlarcha qarashni bildiradi. Qo'mitada Konvensiyada ko'rsatilgan huquqlar bo'yicha ekspertlar faoliyat yuritadilar. Ekspertlar o'z davlati manfaatidan kelib chiqib emas, balki mustaqil ekspert sifatida ish olib boradilar. Bu esa, ularning adolatli mulohaza chiqarishini ta'minlaydi.

Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita. Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha konvensiyaning 72-moddasiga binoan tashkil etilgan. Qo'mita o'zining doimiy sessiyasini Jenevada o'tkazadi. Uning rasmiy hujjatlari CMW/C/- belgisi bilan belgilanadi.

Konvensiyaning 73-moddasiga binoan, Konvensiyaning a'zo-davlatlari Konvensiyada belgilangan normalarni bajarganliklariga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi birinchi ma'ruzasini Konvensiyaga qo'shilgandan so'ng, kuchga kirgan vaqtdan boshlab bir yil ichida taqdim etishlari lozim. Keyingi ma'ruzalarini har besh yilda bir marotaba topshiradilar.

Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita. Nogironlar huquqlari bo'yicha Qo'mita – a'zo-davlatlar tomonidan Konvensiya implementatsiya qilinishini monitoring qiluvchi mustaqil ekspertlar organi.

Barcha a'zo-davlatlar Qo'mitaga huquqlar qay darajada ta'minlanayotgani to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishi shart. Davlatlar konvensiyaning qabul qilgandan keyin ilk ma'ruza ikki yil davomida taqdim etilishi, keyingilari – har 4 yilda taqdim etilishi kerak. Qo'mita ma'ruzalarni ko'rib chiqadi va ma'ruza bo'yicha lozim deb hisoblagan takliflar va tavsiyalarini tayyorlaydi va davlatlarga taqdim etadi.

¹ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam. /O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004. – B. 237–239.

Konvensiyaga Qo'shimcha protokol Qo'mitaga protokolga a'zo bo'lgan davlatlar tomonidan Konvensiya normalari buzilgan taqdirda individual shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini beradi.

Qo'mita Jeneva shahrida joylashgan va odatda, bir yilda 2 ta sessiya o'tkazadi.

Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita. Barcha shaxslarni zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya qoidalarini nazorat qilish maqsadida, inson huquqlari sohasida vakolatli sifatida e'tirof etilgan va yuqori axloqiy sifatlarga ega bo'lgan o'n nafar ekspertdan iborat Zo'rlik ostida g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita ta'sis etiladi. Ular to'liq xolislik tamoyili asosida davlat vakillari sifatida emas, balki shaxsiy sifatlari bo'yicha faoliyat yuritadi.

Konvensiyaning har bir a'zo-davlati BMT Bosh kotibi orqali, mazkur Konvensiya bu davlat uchun kuchga kirgandan so'ng, uning qoidalarini bajarishi to'g'risida ma'ruzalar taqdim etadi.

Yo'qolgan shaxsning qarindoshlari, ularning qonuniy vakillari, advokatlar yoki boshqa har qanday vakolatli shaxs, shuningdek, qonuniy manfaatdor bo'lgan har qanday shaxs yo'qolgan shaxsning qidiruvi hamda uning joyini aniqlash to'g'risida tezlik bilan Qo'mitaga murojaat qilishi mumkin.

Umuman, qo'mitalarning faoliyatini 1-jadvalda keltirilgan tartibda berish maqsadga muvofiq.

5. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida inson huquqlari masalasi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) va inson huquqlari. UNESCO, necha yildirki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida e'lon qilingan madaniy hayotda ishtirok etish huquqini amaliy tarzda turmushga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat o'tkazib kelmoqda. Chunonchi, 1966-yilda UNESCOning Bosh konferensiyasi Xalqaro madaniy hamkorlik tamoyillari deklaratsiyasini qabul qilgan va e'lon qilgan. Hukumatlar, ma'murlar, madaniy faoliyat uchun mutasaddi tashkilotlar, uyushmalar va muassasalar bundan buyon ana shu Deklaratsiyaga amal qilishlari lozim, deb topilgan.

Mazkur hujjatda mujassam topgan tamoyillarning ayrimlarini sanab o'tamiz.

Birinchi: har bir madaniyat hurmat qilinishi va asrab-avaylanishi lozim bo'lgan qadr hamda qimmatga ega.

1-jadval

Shartnomaning nomi (ingliz tilida)	Qabul qilingan va kuchga kirgan sana	Shartnomaviy organning nomlanishi	A'zolar soni	A'zolarning kimlar tomonidan saylanishi	Milliy ma'ruza taqdim etish	Davlatlararo murojaat qilish taomili	Shaxslarning murojaat qilishi taomili	Suo moto tekshirishlar o'tkazish taomili
CCPR	1966-y, 16-dekabr/ 1976-y, 23-mart	Inson huquqlari bo'yicha qo'mita	18	Ishtirokchi-davlatlar tomonidan	40-moddaga ko'ra majburiydir	Ixtiyoriy 41- va 42-moddalar	Birinchi Fakultativ protokol	
CESCR	1966-y, 16-dekabr/ 1976-y, 3-yanvar	Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita	18	Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash tomonidan	16- va 17-moddalarga ko'ra majburiydir		Fakultativ protokol	
CERD	1965-y, 21-dekabr/ 1969-y, 4-yanvar	Irqiylarni kamситitishlarga barham berish qo'mitasi	18	Ishtirokchi-davlatlar tomonidan	9-moddaga ko'ra majburiydir	11-, 12-, 13-moddalarga ko'ra majburiy	Ixtiyoriy, 14-moddasi	
CAT	1984-y, 12-dekabr/ 1987-y, 26-iyun	Qiyinoqlar bo'yicha qo'mitada	10	Ishtirokchi-davlatlar tomonidan	19-moddaga ko'ra majburiydir	Ixtiyoriy 21-moddasi	Ixtiyoriy, 22-moddasi	Majburiy bo'lsada, davlatlar 20- va 28-moddalarga ko'ra, qo'mita vakolatini tan olmaslikka haqlidir

CEDAW	1979-y, 18-dekabr/ 1981-y, 3-sentabr	Ayollarga nisbatan huquqiy kamitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita	23	Ishtirokchi- davlatlar tomonidan	18-moddaga ko'ra majburiydir		Fakultativ protokol 8- va 10- moddalariga muvofiq davlatlar qo'mita vakolatini tan olmaslikka haqlidir
CRC	1989-y, 20-noyabr/ 1990-y, 2-mart	Bola huquqlari bo'yicha qo'mita	18	Ishtirokchi- davlatlar tomonidan	44-moddaga ko'ra majburiydir	Uchinch fakultativ protokol	
CMW	1989-y, 18-dekabr/ 2003-y, 1-iyul	Mehnatkash- migrantlar bo'yicha qo'mita	10	Ishtirokchi- davlatlar tomonidan	73-moddaga ko'ra majburiydir	76-modda (hali kuchga kirmagan) 77-modda (hali kuchga kirmagan)	
SRDP	2006-y, dekabr/ 2008-y, 3-may	Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita	12	Ishtirokchi- davlatlar tomonidan	35-moddaga ko'ra majburiydir	Fakul-tativ protokol	Fakultativ protokol
SED	2006-y, 20-dekabr/ 2010-y, 23-dekabr	Zo'rluk orqali g'oyib bo'lganlar bo'yicha qo'mita	10	Ishtirokchi- davlatlar tomonidan	29-moddaga ko'ra majburiydir	32-modda (xali kuchga kirmagan) 31-modda (xali kuchga kirmagan)	33-modda

Ikkinchi: o'z madaniyatini rivojlantirish va yuksaltirish har bir xalqning huquqi hamda burchidir.

Uchinchi: xalqlar bashariyatning texnikaviy va ma'naviy-intellektual taraqqiyoti o'rtasida uyg'un muvozanatni ta'minlash maqsadida madaniyatning barcha tarmoqlarini muvoziy tarzda va ehtimolki, bir vaqtning o'zida rivojlantirish bilan bog'liq ishlarni davom ettirishga intilishlari zarur.

To'rtinchi: xalqaro madaniy hamkorlik ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi aqliy va ijodiy faoliyatning barcha turlarini qamrab olishi kerak.

Beshinchi: madaniy hamkorlik barcha xalqlar va mamlakatlarning huquqi hamda burchi ekanligi sababli ular (xalqlar va mamlakatlar) bir-birlari bilan bilim hamda tajribani baham ko'rishlari zarur.

Oltinchi: barcha madaniyatlarga yaxshi ta'sir o'tkazib kelayotgan va ularning o'zaro boyishiga imkon yaratayotgan xalqaro madaniy hamkorlik amalga oshirilayotganda madaniyatlarning har biri o'ziga xos ekanligi hurmat qilinmog'i lozim.

UNESCO o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanmish ta'lim sohasida savodsizlikka qarshi kurash dasturlarini izchil amalga oshirib kelmoqda. Majburiy yalpi boshlang'ich ta'lim tamoyilini amalga oshirish bu dasturlardagi muhim bo'g'in bo'lib, mazkur tamoyilning ro'yobga chiqarilishi savodsizlikning asosiy sabablarini bartaraf etishga yordam berishi tabiiy. UNESCOning vakolat doirasiga o'qituvchilarni hamda ta'limni rejalashtirish va rivojlantirish uchun mutasaddi bo'ladigan shaxslarni tayyorlash masalalari ham kiradi. Buning zahirida joylarda maktablar qurilishini rag'batlantirish hamda ularni tegishli ashyo va asbob-uskunalar bilan ta'minlash maqsadi yotganligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ana shu yo'nalishdagi faoliyatda 1974-yili Bosh konferensiya tomonidan qabul qilingan muhim bir hujjatga asoslanadilarki, bu hujjat Xalqaro xayrixohlik, hamkorlik va tinchlik ruhida hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklari ruhida tarbiyalash to'g'risidagi tavsiyanomadir.

Tabiiy fanlar sohasida UNESCOning "Inson va biosfera" dasturi singari tashabbusini alohida ta'kidlash kerak. Ijtimoiy fanlar sohasiga kelganda, UNESCO urushni keltirib chiqarish va avj oldirish sabablari, irqchilik muammolari, taraqqiyot hamda insoniyat bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari singari masalalar bo'yicha o'rganish va tadqiq etish ishlarini olib boradi. Aloqalarni saqlab turish xususiga kelganda, aytish mumkinki, mazkur Tashkilot bu sohada mavjud talab-ehtiyojlarni o'rganib boradi hamda o'zining aloqalarini rivojlantirishga

qaratilgan xalqaro dasturlari orqali mazkur jabhada infratuzilmani vujudga keltirish ishida rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatadi¹.

Hozirgi kunga qadar UNESCO tomonidan 70 ga yaqin xalqaro shartnomalar qabul qilingan bo'lib, ularning aksariyati inson huquqlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir. Shuningdek, UNESCOning Konvensiyalar va tavsiyalar bo'yicha qo'mitasiga ham shikoyatlar bilan murojaat qilish mumkin. Murojaatlar alohida shaxslar yoki nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan quyidagi masalalar yuzasidan berilishi mumkin: ta'lim olish huquqi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etish, san'atdan bahramand bo'lish, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish huquqi, axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan izlash, olish va tarqatish erkinligi, vijdon va so'z erkinligi.

Qolaversa, bu tashkilot BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim o'n yilligi (1995–2004)ni nishonlashda hamda Inson huquqlari bo'yicha ta'lim butunjahon dasturini amaliyotga tatbiq etish va inson huquqlari hamda tinchlik madaniyatini umumjahon miqyosida targ'ib etishda o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi 2010-yilni Madaniyatlarni yaqinlashtirish yili deb e'lon qildi va UNESCOni "mamlakatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro bilimlar almashish va o'zaro tushunish"ni rag'batlantirish bo'yicha 60 yillik tajribasiga tayangan holda "Xalqaro yilni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda muhim rol o'ynashga" chaqirdi. UNESCO mandati bo'yicha bu Xalqaro yil bir vaqtning o'zida Tinchlik madaniyati va planetada bolalar manfaatlarida zo'ravonliklarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro o'n yillik (2001–2010-yillar)ning cho'qqisi va yangi strategiyaning boshlang'ich nuqtasi hisoblandi.

UNESCO xalqaro vaziyatdagi o'zgarishlarni hisobga olib, bu masalaga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur muammo 2008–2013-yillarga mo'ljallangan "Hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri va bir vaqtning o'zida Tashkilotning ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan madaniy turfa xillik va muvofiq ravishda muloqotni rag'batlantirish" hisoblangan o'rta muddatli strategiyasining maqsadlariga asoslanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bu maqsad jahon madaniyatlarining ko'p turfaligi va ularni birlashtiruvchi aloqalarning butun spektrini e'tirof etishdan iboratdir.

Xalqaro mehnat tashkiloti. Xalqaro mehnat tashkiloti Millatlar ligasi bilan bir paytda Versal shartnomasi asosida 1919-yilda tashkil topgan. Xalqaro mehnat tashkiloti Birinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy sohadagi islohotlarni jadallashtirish va ularni xalqaro darajada muvofiqlashtirish

¹ UNESCO tashkiloti bo'yicha batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Mo'minov A. O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.

maqsadida ta'sis etilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining birinchi yig'ilishi 1919-yilning oktabr-noyabr oylarida Vashington shahrida bo'lib o'tdi. Unda Xalqaro mehnat tashkilotining oltita konvensiyasi va oltita tavsiyasi (Ish kuni-ning davom ettirilishi to'g'risidagi 1-konvensiya bilan birga) qabul qilingan.

1946-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkiloti-ning birinchi ixtisoslashgan tashkiloti sifatida tashkil topdi. 1969-yilda XMTning 50 yilligi munosabati bilan unga xalqaro Nobel mukofoti berildi.

XMT to'rtta asosiy strategik maqsadga ega va ular quyidagilardan iborat:

birinchi maqsad – mehnat sohasi bo'yicha normalar va asosiy tamoyillar hamda huquqlarni rivojlantirish va amalga oshirish;

ikkinchi maqsad – ayollar va erkaklar uchun yanada kengroq va qulay ish sharoitini yaratish;

uchinchi maqsad – barcha uchun ijtimoiy himoya samarasini oshirish va ko'lamini kengaytirish;

to'rtinchi maqsad – uch tomonlama tuzilmani mustahkamlash va ijtimoiy muloqotni qo'llab-quvvatlash.

Bu maqsadlarga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

birinchidan, eng asosiysi, inson huquqlarining amalga oshirilishiga ko'maklashish, mehnat va hayot sharoitini yaxshilash, ish bilan ta'minlash sohasidagi imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha xalqaro chora-tadbirlar va dasturlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishida milliy hokimiyat organlari uchun dasturilamal tamoyillar bo'lib xizmat qiluvchi xalqaro mehnat normalarini ishlab chiqish;

uchinchidan, ushbu choralarni hayotga tatbiq etishda mamlakatlarga yordam sifatida ta'sischi bilan birgalikda hamkorlik asosida jadal ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan har tomonlama xalqaro texnikaviy hamkorlik dasturi;

to'rtinchidan, barcha mazkur sa'y-harakatlarning amalga oshirilishini ta'minlab beruvchi tayyorlov, o'quv va nashriyot faoliyati¹.

XMTning konvensiya va tavsiyalari mehnatni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy aktlardir. Xalqaro mehnat tashkiloti BMTning ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, xalqaro mehnat standartlari ishlab chiqish uning asosiy maqsadidir. XMTning norma ijodkorlik faoliyati asosan konvensiya va tavsiyalarni qabul qilishda namoyon bo'ladi. Xalqaro mehnat byurosi turli davlatlardagi qonunchilik va uning amaliyotdagi ijrosi to'g'risidagi

1 Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashri uchun mas'ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – B. 11–12.

umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga oluvchi ma'ruzalar tayyorlaydi hamda ularning muhokamasi natijasida konvensiya va tavsiyalar qabul qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiya va tavsiyalari, o'z navbatida, a'zo-davlatlarga mo'ljallangan, ya'ni ular XMTning milliy qonunchilikka tegishli normalarini kiritish lozimligi to'g'risidagi xohishni aks ettiradi.

XMTning konvensiya va tavsiyalari o'z mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga tasniflanadi:

- insonning mehnat sohasidagi asosiy huquq va erkinliklari to'g'risidagi aktlar;

- ish bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoya qilish to'g'risidagi aktlar;

- mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi aktlar;

- texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha aktlar;

- alohida kategoriyali mehnatkashlarni yuqori darajada huquqiy himoyalash to'g'risidagi aktlar;

- davlat, ish beruvchilar va mehnatkashlar tashkilotlarining hamkorligi to'g'risidagi hamda mehnat nizolarini tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi aktlar.

Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiya va tavsiyalarining davlat va xalqaro miqyosda mehnatni huquqiy tartibga solishga oid mazmunini har tomonlama baholash mumkin:

- *birinchidan*, ularda barcha mamlakatlarning qonunchiligiga eng maqbul darajada mos kelishi kerak bo'lgan standartlar mavjud;

- *ikkinchidan*, XMTning konvensiya va tavsiyalari mehnat borasidagi qonunchilikni bir xillashtirish (baynalmilallashtirish)ga ko'maklashadi.

XMTning konvensiya va tavsiyalari umume'tirof etilgan mehnat huquqlari doirasidan tashqarida bo'lgan masalalarni ham o'z ichiga oladi. Ular ijtimoiy ta'minot, mehnatkashlarga maishiy xizmat ko'rsatish, mehnat statistikasi, mehnatni boshqarish bo'yicha davlat organlarining faoliyati hamda kasb-hunar va texnik ta'limga tegishlidir. XMTning ba'zi aktlari faqatgina ish beruvchilarga va yollanib ishlovchilarga emas, balki aholiga ham tegishlidir. XMTning konvensiya va tavsiyalari mehnatni xalqaro barcha darajada tartibga solishning asosiy mazmunini tashkil ettiradi.

Samarali ixtiyoriy tanlangan mehnat XMT mandatining mohiyatidir. Samarali mehnatsiz munosib turmush darajasiga erishish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, o'zidan qoniqish hissigacha ega bo'lishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Shu o'rinda, bugungi kunda butun jahonni o'z iskanjasiga olib ulgurgan globallashtirish jarayonining, bir tomondan, iqtisodiyotni ravnaq toptirishga, boshqa tomondan esa – jamoaviy mas'uliyat chegarasini sinab, tengsizlikka sabab bo'layotganligini ham e'tiborda tutish lozim. Lekin,

mazkur holda ham, XMT butun dunyoda yalpi bandlikka erishish uchun intiladi.

XMTning missiyasi butun dunyoda insonlarga erkinlik, tenglik, xavfsizlik va insoniy qadr-qimmat, hurmat qilinadigan sharoitda o'zlariga ma'qul bo'lgan ish topishiga yordam berishdan iborat. XMT bu faoliyatni yangi o'quv dasturlarini, mehnat bozarlarini va bandlikning mukammal turlarini yaratishga yordamlashish orqali, mehnatkashlar, ish beruvchilar va XMT ta'sisчилari bo'lgan hukumatlar bilan olib boriladigan doimiy muloqotlar orqali amalga oshiradi.

Xalqaro mehnat tashkilotining bandlik sohasidagi maqsadlari quyidagilardan iborat:

- *birinchidan*, ta'sisчилarga iqtisodiyotda va mehnat bozorlarida o'zgarishlarni tadqiq etishda hamda xalqaro va mintaqaviy darajada bandlikni rivojlantirish bo'yicha samarali dasturlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

- *ikkinchidan*, kichik korxonalarni rivojlantirish orqali bandlikka ko'maklashish;

- *uchinchidan*, ayollarni yanada ko'p turli va qiziqarli ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;

- *to'rtinchidan*, norasmiy tarmoqdagi faoliyat darajasini ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar va dasturlarni samarali amalga oshirish;

- *beshinchidan*, markazlashtirilgan rejalashtiriladigan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida maslahatlar berish, asosan, bandlik sohasidagi siyosat, mehnat bozori va ish kuchi resurslari bo'yicha maslahatlar berish;

- *oltinchidan*, maqsadli dasturlarni, ya'ni, yosh mehnatkashlar, nogironlar, mehnatkash-migrantlar va tub aholi qatoriga kiruvchi odamlarga munosib ish topishlarida yordam beruvchi dasturlar ijrosini jadallashtirish yoki qabul qilish¹.

XMT konvensiyalari ularni ratifikatsiya qilgan davlatlarga xisobotlarni taqdim etish majburiyatini yuklasa, tavsiyalar esa, milliy siyosat, qonunchilik va amaliyot uchun yo'nalishlarni belgilab beradi.

Ushbu jarayonlar ustidan nazorat konvensiya va tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi 20 nafar yuristdan iborat mustaqil ekspert qo'mitasi va Konferensiyalarning konvensiya va tavsiyalarning bajarilishi bo'yicha uch tomonlama qo'mitasi tomonidan olib boriladi.

XMTning o'ziga xosligi uning organlaridagi uch tomonlama vakillik

¹ Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashr uchun mas'ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – B. 14–15.

hisoblanadi: hukumatlar, ish beruvchilar va mehnatkashlar (kasaba uyushmalar). XMTni tashkil etuvchilarning fikriga ko'ra, ushbu shakldagi vakillik hukumatlar vositachiligida ish beruvchilar bilan mehnatkashlar o'rtasidagi muloqotga yordam beradi (ijtimoiy hamkorlik g'oyasi).

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) BMTning ixtisoslashgan tashkiloti bo'lib, insonning ijod qilish huquqi va uning ijodi natijalariga qaratilgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bilan shug'ullanadi. BIMTning shtab-kvartirasi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. BIMT 1967-yil 14-iyul kuni Stokgolm shahrida imzolangan, "Butunjahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish haqidagi konvensiya" asosida tashkil etilgan. Konvensiya 1970-yilda kuchga kirgan.

BIMTning vazifalaridan biri butun dunyoda davlatlar o'rtasida kelishuv va bitimlar asosida intellektual mulkni himoya qilishni muvofiqlashtirish va turli shartnoma hamda konvensiyalarning ma'muriy boshqaruvini ta'minlashdan iborat. BIMTning mablag'lari va faoliyati asosan rivojlanib kelayotgan, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari, Yaqin sharq mamlakatlari va boshqa davlatlarning rivojlanishiga qaratilgan. Bu tashkilot 1974-yil dekabr oyida BMTning ixtisoslashgan tashkiloti degan maqomni olgan.

BIMT dunyoda intellektual mulk himoyasini ta'minlash va rag'batlantirish borasida yangi va har tomonlama zarur bo'lgan xalqaro shartnomalarning yuzaga kelishida vositachilik qiladi. Shuningdek, bu tashkilot barcha davlatlarda intellektual mulkka oid milliy qonunchilikning yaratilishida har tomonlama amaliy yordam ko'rsatadi, a'zo-davlatlarning bir-biri bilan aloqalar o'rnatishida ko'maklashadi.

1976-yilda BIMT Konferensiyasi tomonidan Doimiy dastur ishlab chiqilgan. Bu Dasturning asosiy vazifasi ijod bilan shug'ullanuvchi shaxslarni har tomonlama rag'batlantirish, adabiy va badiiy asarlarni tarqatish, rivojlanayotgan davlatlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda shu soha bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar ishiga amaliy yordam berishdan iboratdir.

BIMT tashkil topgandan so'ng harakatda bo'lgan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qator xalqaro konvensiyalar normalarini butun dunyo mamlakatlari milliy qonunchilik normalari orqali ijroga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha davlatlarda mualliflik huqqini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik asoslari yaratilgan. Shuningdek, BIMT mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid qonunlar loyihalarini o'rganib chiqish va tavsiyalar berish bilan shug'ullanib kelmoqda. Qabul

qilingan yangi qonunlar, huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

BIMTning 1996-yil 2–20-dekabr kunlari Jeneva shahridagi shtabkvartirasida chaqirilgan diplomatik konferensiyasida qariyb o'n yil davomida tayyorlangan "BIMTning Mualliflik huquqiga oid shartnomasi" va "BIMTning Ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi" qabul qilindi. Bu shartnomalar eng so'nggi texnologiya natijalari hisoblangan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar, axborotlar bazasi, "Internet" tizimi, kinematografiya asarlari, fonogrammalardan foydalanish, ularga nisbatan bo'lgan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq bir qator xalqaro huquqiy tizimlarni belgilab berdi. Ijrochilar huquqlarini yanada kengaytirish, fonogramma ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini huquqiy shakllarda mustahkamlanganligi amalda bo'lgan soha xalqaro huquqiy normalari ijrosini yanada kengaytirdi. Ayniqsa, ijrochilarning shaxsiy nomulkiy va shaxsiy mulkiy huquqlari yanada kengaytirildi¹.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti insonning sog'liqqa bo'lgan huquqining targ'ib etilishi va himoya qilinishidagi asosiy ixtisoslashgan tashkilot hisoblanadi. JSST insonning sog'lom rivojlanishiga oid ko'plab xalqaro hujjatlar, shu jumladan, OIV/OITS dasturining butunjahon miqyosida qabul qilinishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga o'ziga xos hissa qo'shib kelmoqda. JSST BIMTning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti ixtisoslashgan idoralar orasidagi eng yirik tashkilot hisoblanib, qashshoqlikka qarshi butunjahon miqyosida kurashishning muhim elementi va oziq-ovqatga bo'lgan huquqning targ'ib etilishi va himoya qilinishidagi eng ta'sirchan ishtirokchi sanaladi. Taraqqiyot yo'lida qashshoqlikka qarshi kurashish borasida 2000-yil sentabrda o'tkazilgan Mingyillik Sammiti davomida 150 ga yaqin davlat boshliqlari va hukumat rahbarlari kelishuvga erishgan edilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. *BMTning tashkil topish tarixi, maqsadlari va tamoyillari haqida so'zlab bering.*
2. *BMT tizimi nimalardan iborat?*
3. *BMTning inson huquqlarini himoya qilishdagi faoliyati qanday shakllarda olib boriladi?*

¹ Qarang: Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi. – T.; "Voriz-Nashriyot", 2007. – B.47–51

4. *BMTning inson huquqlari sohasidagi norma ijodkorligi faoliyatini tushuntirib bering.*

5. *BMTning inson huquqlari bilan shug'ullanadigan organlarini tasniflab bering.*

6. *BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funksiyasi haqida nimalarni bilasiz?*

7. *BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining vazifalari nimalardan iborat?*

8. *BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy bosh komissarligi boshqarmasi va uning vazifalarini tushuntirib bering.*

9. *BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy bosh komissarligi boshqarmasi va uning vazifalari nimalardan iborat?*

10. *BMTning Bolalar fondi (UNICEF)ning inson huquqlari sohasidagi vazifalarini tushuntirib bering.*

11. *BMTning inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy (nazorat) organlari va ularning vakolati haqida nimalarni bilasiz?*

12. *UNESCOning inson huquqlari sohasidagi faoliyati haqida so'zlab bering.*

13. *XMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyatini tushuntirib bering.*

14. *BIMT insonning qanday huquqlarini himoya qilishini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – 368 b.

2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. To'plam./O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004.

3. Mo'minov A. O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T.: "Yangi asr avlodi", 2003.

4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

5. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: "Adabiyot jamg'armasi", 2001.

6. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.

7. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика/Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: "Адолат", 2008. – С. 312.

8. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. / O‘zbekcha nashr uchun mas’ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.

9. Хакимов Р. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. -3-е изд., доп. – Т.: “Zar Qalam”, 2006.

10. Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi. – T.: “Voriz-Nashriyot”, 2007.

6-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujjatlar

1. Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning zarurligi, ularning turlari va ahamiyati.
2. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy xalqaro hujjatlar.
3. BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar.

1. Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning zarurligi, ularning turlari va ahamiyati

Inson huquqlari – bu insoniyat tarixiy taraqqiyotining umumiy yutug'i bo'lishi bilan birga, hozirgi kunda jahon hamjamiyatining dolzarb muammolaridan biriga ham aylandi. Chunki, xalqlar va millatlarning erkin taraqqiyoti hamda inson huquqlari totalitar tuzumlarning mavjudligi va urush ofatlari tufayli poymol etilib kelmoqda. Shuning uchun ham, inson huquqlarining xalqaro miqyosda hurmat qilinishini ta'minlash BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda davlatlar faoliyatlarining asosiy maqsadiga aylandi. Bu maqsad BMT Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topib, inson huquqlari rivojlanishining yangi bir davrini boshlab berdi.

Bu sohaning shakllanishi va rivojlanishida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlar katta ahamiyatga egadir. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarning o'rni yana shu bilan ham belgilanadiki, unda umumjahon manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy me'yorlar mujassamlashgandir. Hozirgi kungacha inson manfaatlari himoyasiga qaratilgan ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular universal va mintaqaviy xarakter kasb etadi.

Davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari xalqaro hayotning barcha sohalari kabi inson huquqlari sohasida ham keng hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. Xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi ushbu hamkorlikning huquqiy asosini aynan shu sohadagi, ya'ni inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlar tashkil etadi. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga, ya'ni shartnomalarga quyidagicha umumiy ta'rif berish mumkin:

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjat – davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida inson huquqlari borasidagi

munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan va bir, ikki yoki bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha hujjatlarda ifodalanganidan hamda uning aniq nomidan qat'i nazar, yozma shaklda tuziladigan xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi.

Shu sohadagi xalqaro hujjatlarni tasniflaganda, ularni xalqaro shartnoma huquqi bo'yicha, ya'ni a'zoliciga ko'ra, universal, mintaqaviy, mintaqalararo va submintaqaviy shartnomalarga bo'lish mumkin. Umuman, inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlarni xalqaro va milliy hujjatlarga, o'z navbatida, xalqaro hujjatlarni universal, mintaqaviy, mintaqalararo va submintaqaviy hujjatlarga ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Universal xarakterga ega bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlar qatorida BMT Nizomini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti hamda ushbu paktga qo'shimcha protokollar kabi bir qator xalqaro hujjatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Jumladan, 1965-yilgi Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, 1984-yilgi Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, 1953-yilgi Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 1986-yilgi Xalqlarning tinchlikka bo'lgan huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya, 1986-yilgi Rivojlanish huquqi to'g'risidagi deklaratsiya, 1981-yilgi Din yoki e'tiqodlar zamiridagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi deklaratsiya, 1979-yilgi Huquq-tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi, 1985-yilgi Sud organlari mustaqilligining asosiy tamoyillari, UNESCO xalqaro-huquqiy hujjatlari, xususan, 1960-yilgi Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya bilan 1989-yilgi Texnikaviy va kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi konvensiya kabi hujjatlar ham ana shular qatoriga kiradi.

Mintaqaviy va mintaqalararo xalqaro shartnomalar. Mintaqaviy hujjatlarga misol sifatida 1950-yil 4-noyabrda qabul qilinib, 1953-yilda kuchga kirgan "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi" va unga qo'shimcha 14 ta Bayonnomalarni, 1961-yil 18-oktabrda qabul qilinib, 1965-yilda kuchga kirgan va 1991-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Yevropa ijtimoiy xartiyasini, 1969-yil 22-noyabrda qabul qilinib, 1978-yilda kuchga kirgan Inson huquqlari to'g'risida Amerika konvensiyasini, 1981-yil iyul oyi-

da qabul qilinib, 1988-yil yanvarda kuchga kirgan Xalqlar va inson huquqlari to'g'risida Afrika xartiyasini, 1990-yil 5-avgustda qabul qilingan Islomda inson huquqlari Qohira deklaratsiyasini, 1995-yilda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha MDH konvensiyasini, 2004-yil 22-mayda qabul qilinib, 2008-yil 15-martda kuchga kirgan Inson huquqlari to'g'risida Arab xartiyasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mintaqalararo hujjatlariga esa, 1975-yil 1-avgustda Xelsinkida qabul qilingan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashining Yakuniy aktini, 1989-yil 15-yanvarda qabul qilingan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashining Vena uchrashuvi Yakuniy hujjatini, 1990-yilda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, 1990-yilgi Kopengagen hujjati (YeXHT insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiya Kopengagen kengashining hujjati) insoniylik mezonlari bo'yicha birinchi to'liq hujjat bo'lib, u YeXHT doirasida insoniylik mezonlari bo'yicha qabul qilingan siyosiy majburiyatlarning muhim to'plami hisoblanadi. Unda ta'kidlab ko'rsatilishicha, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash ishtirok etuvchi davlatlarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi bilan bir paytda, ularni e'tirof etish erkinlik, adolat va tinchlikning asosi bo'lib hisoblanadi. Hujjatda ilgari YeXHT doirasida rasmiy tasdiqlanmagan bir qancha inson huquqlari va asosiy erkinliklari (masalan, tinchlik yo'li bilan majlislar va namoyishlar o'tkazishga oid huquq, o'z mulkidan tinchlik yo'li bilan foydalanish huquqi, bola huquqlari, ozchilikni tashkil qilgan millatlar huquqlari) qayd etiladi. Kopengagen hujjati insoniylik mezonlari qamrovini ularga saylovga oid majburiyatlar kiritish orqali kengaytirdi.

Amal qilish vaqtiga qarab inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning turlari. Umuman olganda, amal qilish vaqtiga qarab inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Tinchlik paytida inson huquqlariga oid asosiy me'yor va tamoyillarni belgilovchi hujjatlar.

Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga oid xalqaro hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ilova qilingan birinchi va ikkinchi protokol.

2. Urush paytida inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar.

1899 va 1907-yillardagi "Urush qonunlari va udumlari to'g'risida"gi Gaaga konvensiyalari, 1949-yilgi "Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risida"gi to'rtta Jeneva konvensiyasi va ularga 1977-yilgi 2 ta qo'shimcha protokol kabi gumanitar huquq normalarini tashkil etuvchi xalqaro hujjatlar.

3. *Urush va tinchlik paytida ham bab-baravar inson huquqlariga tajovuz uchun javobgarlikni belgilovchi xalqaro hujjatlar.*

1. Alohida ahamiyatga ega bo'lgan harbiy tribunallar (Nyurnberg (1945-yil), Tokio (1947-yil), Ruanda (1994-yil) va sobiq Yugoslaviya (1998-yil) tribunallari).

2. 1948-yildagi Genotsid jinoyatlarining oldini olish va uni sodir etganlarni jazolash to'g'risidagi konvensiya.

3. 1965-yildagi Irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini bekor qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya.

4. 1973-yildagi Aparteid jinoyatlarining oldini olish va uni sodir etganlarni jazolash to'g'risidagi konvensiya.

5. 1979-yildagi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya.

6. 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya.

7. 1984-yil 10-dekabrda Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya va boshqalar.

2. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy xalqaro hujjatlar

BMT tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlar qatoriga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda ushbu Paktga qo'shimcha protokollar kabi bir qator xalqaro hujjatlarni sanab o'tishimiz mumkin. Umuman, inson huquqlariga oid keng ko'lamdagi muammolar bo'yicha BMT doirasida 80 dan ortiq xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Ular orasida quyidagi hujjatlar bor.

Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo choralari to'g'risida konvensiya (1948-yil) – Ikkinchi jahon urushi jinoiy harakatlariga berilgan to'g'ridan-to'g'ri javob bo'ldi va bu hujjat genotsid jinoyatini qandaydir milliy, etnik, irqiy va diniy guruhlarini yo'qotib yuborishni mo'ljallab amalga oshirilgan muayyan harakat sifatida baholadi. Konvensiya mamlakatlar zimmasiga aybdorlarni sudga berish vazifasini yuklaydi.

Qochoqlar maqomi to'g'risida konvensiya (1951-yil) – qochoqlarning huquq va majburiyatlarini, xususan, ularning hayotlari uchun xavf-xatar mavjud bo'lgan mamlakatlarga majburan qaytarib yubormaslik huquqini

belgilab berdi. Konvensiya qochoqlarning, kundalik hayotning mehnat qilish huquqi, xalq ta'limi, jamoatchilik yordami, ijtimoiy ta'minot va hujjatlar jo'natish huquqi kabi turli jabhalardagi huquqlarini e'lon qildi. Konvensiya, aslida Ikkinchi jahon urushidagi qochoqlarning huquqlarini himoya qilish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, 1967-yilda unga qo'shimcha ravishda qabul qilingan *Qochoqlar maqomi to'g'risida protokol* – Konvensiyani barcha qochoqlarning huquqlarini himoya qilish uchun qo'llanishini belgilab berdi.

Irqiy kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1965-yil) – ko'p sonli ishtirok etuvchi mamlakatlar ratifikatsiya qilgan shartnomalarning biridir. Mazkur hujjatning kirish qismi “Irqiy tafovutga asoslangan har qanday irqiy ustunlikka erishish siyosati g'ayriqonuniy, g'ayriilmiy bo'lib, axloqiy va rasmiy jihatdan qoralanadi”, degan so'zlar bilan boshlanadi. Konvensiya “irqiy kamsitish” atamasiga ta'rif beradi va unga imzo chekkan mamlakatlar zimmasiga qonunchilik va amaliyotda bunday kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini qabul etish vazifasini yuklaydi. Konvensiya ishtirok etuvchi davlatlar hisobotlarini va agar masala uning vazifasi doirasiga kiradigan bo'lsa, konvensiya shartlari buzilayotgani to'g'risidagi alohida shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqadigan nazorat organi – Irqiy kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita tashkil etishni ko'zda tutadi.

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979-yil). Bu – ayollarga qonun oldida erkaklar bilan teng huquqlilikni kafolatlaydi va masala siyosiy va ijtimoiy hayotga, millat, maorif, ishga joylashish, sog'liqni saqlash, nikoh va oiladagi mavqega taalluqli bo'lganda ayollarni kamsitishni taqiqlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilaydi. Konvensiyada bu boradagi vazifalarning davlatlar tomonidan qanday bajarilayotganini kuzatib boruvchi nazorat organi vazifasini bajaruvchi Xotin-qizlarni kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mitani ta'sis etish belgilab qo'yildi. Shuningdek, u ishtirok etuvchi mamlakatlarning hisobotlarini ko'rib chiqadi. 1999-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Konvensiyaga Fakultativ protokol qabul qilindi. Bu – alohida shaxslarga, agar ularning Konvensiya tomonidan belgilangan huquqlari buzilayotgan bo'lsa, Qo'mitaga o'zlarining murojaatlarini topshirish imkoniyatini beradi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-yil). Bu – qiynoqlarni xalqaro jinoyat sifatida belgilab beradi, ishtirok etuvchi davlatlar zimmasiga qiynoq, insoniylikka zid muomala va jazo turlarini qo'llash amaliyotini bartaraf etish masalasini ularning milliy qonunchiligida aks ettirish majburiyatini yuklaydi.

2002-yil dekabrda ko'p yillik munozaralar, muhokamalar va muzokaralardan so'ng BMT a'zo-mamlakatlari Qiynoqqa qarshi konvensiyaga fakultativ protokolni ma'qulladilar. Fakultativ protokol 2002-yilning 1-yanvaridan ratifikatsiya uchun ochiq deb e'lon qilindi va 2006-yil 22-iyunda kuchga kirdi. Mazkur Protokol ozodlikdan mahrum etish joylarida qiynoqlarga qarshi kurashning o'ziga xos tizimini tuzishni ko'zda tutadi va har qanday ozodlikdan mahrum etish joylariga doimiy va nazoratli tashriflar o'tkazish shart ekanligini ko'zda tutuvchi tizimni tashkil etish yo'li bilan qiynoqlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan xalqaro va milliy mexanizmlarni o'rnatishni ko'zda tutadi.

Qurolli mojarolar paytida qo'llaniladigan inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro hujjatlar. Mazkur guruhga kiruvchi xalqaro hujjatlar qatorida 1899 va 1907-yillarda bo'lib o'tgan Gaaga tinchlik konferensiyalarida qabul qilingan xalqaro hujjatlarni hamda 1949-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyalari va ularga 1977-yilgi qo'shimcha protokollar'ni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

I Gaaga Tinchlik konferensiyasida (1899-yil 18-may – 29-iyun) “*Munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risida*”, “*Quruqlikdagi urush qonunlari va odatlari to'g'risida*”, “*Dengiz janglarida yaradorlar va kasallar to'g'risidagi Jeneva konvensiyalarining qo'llanishi haqida*”gi uchta Konvensiya imzolandi va tegishli deklaratsiyalar qabul qilindi. Rossiya bilan AQSh tashabbuskori bo'lgan 1907-yildagi II Gaaga Tinchlik konferensiyasida 44 davlatning vakillari qatnashdi va 10 ta yangi konvensiya qabul qilindi. 1899-yilda I Gaaga Tinchlik konferensiyasi tomonidan qabul qilingan “*Quruqlikdagi urush qonunlari va odatlari to'g'risida*”gi konvensiya gumanitar huquqni rivojlantirishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Keyinchalik u 1907-yilda bo'lib o'tgan II Gaaga Tinchlik konferensiyasi tomonidan qayta ko'rib chiqildi va to'ldirildi.

1949-yilning avgust oyida Jeneva Diplomatik konferensiyasi bo'lib o'tdi, u 21-apreldan 12-avgustgacha davom etdi. Konferensiya qatnashchilari – hukumatlar vakillari unda qator konvensiyalarni, shu jumladan, 1907-yil 18-oktabrdagi Gaaga konvensiyasining va 1929-yil 27-iyuldagi Jeneva konvensiyasini qayta ko'rib chiqdilar va quyidagi to'rtta shartnomani yaratishga muvaffaq bo'ldilar: *Harakatdagi armiyalarda yaradorlar va bemorlarning qismatini yaxshilash to'g'risida Jeneva konvensiyasi (I Jeneva konvensiyasi)*, *Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidagi yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning qismatini yaxshilash to'g'risida Jeneva konvensiyasi (II Jeneva konvensiyasi)*, *Harbiy asirlar*

1 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Jeneva konvensiyalari to'plami. / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2002.

bilan muomalada bo'lish to'g'risida Jeneva konvensiyasi (III Jeneva konvensiyasi), Urush vaqtida tinch aholini himoya qilish to'g'risida Jeneva konvensiyasi (IV Jeneva konvensiyasi).

“Harakatdagi armiyalarda yaradorlar va kasallarning qismatini yaxshilash to'g'risida”gi konvensiya yaradorlar, kasallar, sanitar tuzilmalari va muassasalariga, shuningdek, kasallar va yaradorlarni parvarish qilayotgan shaxsiy tarkibga hamda sanitar transportiga nisbatan qo'llanadi.

“Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidagi yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning qismatini yaxshilash to'g'risida”gi konvensiya faqat harbiylarga emas, balki tibbiy yordam va parvarishga muhtoj fuqaro shaxslar, dengizda yoki boshqa suvlarda xavf-xatarga duchor bo'lganlarga nisbatan ham qo'llanadi.

“Harbiy asirlar bilan muomalada bo'lish to'g'risida”gi Jeneva konvensiyasi harbiy asirlar bilan muomalada bo'lish qoidalarini o'zida aks ettirgan. Misol uchun, Konvensiyaga muvofiq, harbiy asirlar har qanday zo'ravonlik va qo'rqitish harakatlaridan, olomonning haqoratlashlari va ortiqcha qiziqishlaridan himoyalani, o'z shaxsini hurmatlash, muayyan sanitariya va gigiyena talablariga javob beradigan lagerlarda ushlab turilish va boshqa huquqlarga ega¹.

“Urush vaqtida tinch aholini himoya qilish to'g'risida”gi Jeneva konvensiyasi, asosan, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilib, har qanday sabablar bilan bosib olingan hudud aholisini haydab ketish yoki deportatsiya qilishni taqiqlaydi. Konvensiyaga binoan, fuqaro shaxslarga nisbatan: har qanday zo'ravonlik harakatlari, ayollarni fohishalikka majburlash yoki ularning or-nomusi va axloqiga har qanday ko'rinishda daxl qilish, jismoniy va ma'naviy ko'rinishlardagi majburlashlar, jamoaviy jazo berish, garovga olish taqiqlanadi².

Jeneva konvensiyalariga muayyan tuzatishlar kiritish maqsadida 1977-yildagi Diplomatik konferensiyada Jeneva konvensiyalariga ikkita Qo'shimcha Bayonnoma qabul qilindi. *I Bayonnoma* – xalqaro qurolli mojarolarning jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor. *II Bayonnoma* – xalqaro tusda bo'lmagan qurolli mojarolarning jabrdiydalarini himoya qilishni nazarda tutadi. Bayonnomalarning “qo'shimcha” deb nomlanishining o'ziyoq konvensiyaviy qoidalarini boshqasi bilan o'zgartirish emas, balki zamon ruhiga, uning o'zgarib borayotgan ehtiyojlari va talablariga muayyan

¹ “Harbiy asirlar bilan muomala qilish to'g'risida”gi Jeneva konvensiyasi. 13-, 14-, 19-moddalar. //Jeneva konvensiyalari to'plami. /A. Saidov tahriri ostida. – Toshkent, Adolat, 2002.

² “Qurolli mojarolar vaqtida fuqarolarni himoya qilish to'g'risida”gi Jeneva konvensiyasi. 27-, 31-, 33-, 34-moddalar. //Jeneva konvensiyalari to'plami. /A. Saidov tahriri ostida. – T.: Adolat, 2002.

tuzatishlar va yangiliklar kiritish orqali mazkur qoidalarini to'ldirish, chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadiningina ko'zlashidan dalolat beradi.

Urush va tinchlik paytida ham bab-baravar inson huquqlariga tajovuz uchun javobgarlikni belgilovchi xalqaro hujjatlar. Ushbu guruhga quyidagi hujjatlarni kiritishimiz mumkin:

- Alohida ahamiyatga ega bo'lgan Nyurnberg Nizomi, Nyurnberg va Tokio harbiy tribunallarining hukmlari;
- Sobiq Yugoslaviya bo'yicha va Ruanda harbiy tribunallarining nizomi, Xalqaro Jinoyat sudi Statuti;
- Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo choralari to'g'risidagi konvensiya;
- Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlar uchun da'vo muddati qo'llanmasligi to'g'risidagi konvensiya;
- Aparteid jinoyatining oldini olish va jazo choralari to'g'risidagi konvensiya va boshqalar.

Bosqinchi davlatlarning ham, jismoniy shaxslarning ham javobgarlik darajasini belgilovchi hujjatlar qabul qilinishi bilan Ikkinchi jahon urushiga yakun yasaldi. Xalqaro hamjamiyatning birgalikda kuch-g'ayrat sarflashi natijasida urushni boshlagan jismoniy shaxslar tarixda birinchi marotaba jazolandilar. Tinchlik va insoniyatga qarshi xalqaro jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligi qoidasi Nyurnberg (1945–46-yillar) va Tokio (1946–48-yillar) tribunallari hujjatlarida birinchi marotaba o'z aksini topdi. Mutaxassislar Nyurnberg va Tokio tribunallari umuman davlatlarni ham, alohida shaxslarni ham sodir etgan harbiy jinoyatlari uchun javobgarlikka tortish maqsadida BMT doirasida qator hujjatlarning ishlab chiqilishi uchun asos bo'lib xizmat qilganligi munosabati bilan ularning alohida ahamiyatini ta'kidlaydilar, zero, hozirgi zamon xalqaro huquq doiralarida urushning keltirilib chiqarilishi *jus cogens* normalarining buzilishidir. Zamonaviy xalqaro huquq tinchlik va insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun, shu jumladan, jismoniy shaxslarning ham jazolanishi muqarrarligidan kelib chiqadi. Bunda jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligida farqlanish bo'ladi. Chunonchi, *birinchi guruhga* o'z jinoiy qilmishlari uchun ham, ularning jinoyatkorona buyruqlarining ijrochilari amalga oshirgan xatti-harakatlar uchun ham javobgar bo'lgan asosiy harbiy jinoyatchilar kiritiladi. Bu guruhga davlat arboblari, harbiylar, diplomatlar, moliyachilar va boshqalar ham kiradi. *Ikkinchi guruhni* o'z shaxsiy tashabbuslari bilan harbiy jinoyatlarning bevosita ishtirokchilari bo'lgan yoki boshqalar tomonidan bu jinoyatkorona ishlarga aralashtirilgan va shu jinoyatlarning ishtirokchilari

hisoblangan jinoyatchilar tashkil etadi. Chunonchi, Nyurnberg xalqaro harbiy tribunali Nizomining 6-moddasi fashist harbiy jinoyatchilari ustidan sudlovni amalga oshirish uchun jinoyatlarning quyidagi tarkibini belgilagan edi: *tinchlikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar, insoniyatga qarshi jinoyatlar* (bu tasnif yapon harbiy jinoyatchilari ustidan olib borilgan sudda ham takrorlangan edi). Shu tasnifga asosanib, Nyurnberg tribunali 12 asosiy harbiy jinoyatchini osib o'ldirishga, 3 kishini umrbod qamoq jazosiga, 4 kishini – 10 yildan 20 yilgacha qamoq jazosiga hukm qildi, 3 kishini oqladi (davosiz kasallikka chalingan bir jinoyatchi sudda qatnashmadi, boshqasi – sud boshlangunicha o'zini o'zi o'ldirdi). Tokio tribunali asosiy harbiy jinoyatchi deb hisoblangan yetti kishini osib o'ldirishga, olti kishini – umrbod qamoq jazosiga, bir kishini – yigirma yil, ikki kishini – yetti yil qamoq jazosiga hukm qildi. Sud jarayonida ikki kishi o'ldi, bir kishi esa, ruhiy kasal deb topildi va ularga nisbatan jinoiy ish to'xtatildi.

Tribunallarning asosiy qoidalari keyingi yillarda BMT va boshqa xalqaro anjumanlar doirasida o'z tasdig'ini topdi, ularda tinchlikka qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlar uchun shaxsiy jinoiy javobgarlik qoidalarini nazarda tutuvchi rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar, konvensiyalar qabul qilindi. Bunday xalqaro hujjatlar qatorida quyidagi konvensiyalarni sanab o'tishimiz mumkin: *“Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo choralari to'g'risidagi konvensiya”*, *“Apartheid jinoyatining oldini olish va jazo choralari to'g'risidagi konvensiya”*, *“Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlar uchun da'vo muddati qo'llanmasligi to'g'risidagi konvensiya”*.

Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo choralari to'g'risidagi konvensiya 1948-yil qabul qilingan bo'lib, Ikkinchi jahon urushidagi jinoiy harakatlarga berilgan to'g'ridan-to'g'ri javob bo'ldi va bu hujjat genotsid jinoyatini qandaydir milliy, etnik, irqiy va diniy guruhlarini yo'qotib yuborishni mo'ljallab amalga oshirilgan muayyan harakat sifatida baholadi. Konvensiya mamlakatlar zimmasiga aybdorlarni sudga berish vazifasini yukladi.

“Apartheid jinoyatining oldini olish va jazo choralari to'g'risidagi konvensiya” 1973-yil qabul qilingan bo'lib, ushbu turdagi jinoyatning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilish va unga qarshi kurashish hamda jinoyatchilarni jazolashni nazarda tutadi. 1966-yili apartheid jinoyati – BMTda uning Nizomiga hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga to'g'ri kelmaydigan “insoniyatga qarshi jinoyat” sifatida qoralandi va bu masala 1948-yildan boshlab mazkur tizim 1994-yilda o'z faoliyatini tugatgan daqiqalarga qadar

Bosh Assambleyaning kun tartibida bo'ldi. 1994-yilda Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Nelson Mandela aparteid ustidan qozonilgan g'alabani ta'kidlab, shunday dedi: "Aparteidning insoniyatga qarshi jinoyatlariga barham berish imkoniyatlarini yaratgan bu tarixiy o'zgarishlar BMT tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar tufayli sodir bo'ldi"¹.

3. BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjatlari

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hujjatlari. 1998-yili Xalqaro mehnat konferensiyasida "Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat sohasidagi asosiy tamoyillari va huquqlari deklaratsiyasi hamda uni amalga oshirish vositalari" qabul qilindi. Deklaratsiyada XMT 8 ta konvensiyani asosiy deb tan olishni e'lon qildi. Uning asosiy deyilishiga sabab shuki, barcha a'zo-davlatlar o'sha konvensiyalarni ratifikatsiya qilmagan bo'lsalar ham, Tashkilotga a'zolik majburiyatidan kelib chiqqan holda, konvensiyada keltirilgan majburiyatlarni bajarishlari va undagi qoidalarning amalga oshirilishiga ko'maklashishlari shart hisoblanadi. Asosiy konvensiyalar quyidagilardir:

1. 1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-konvensiya;
2. 1948-yilgi Birlashish erkinligi va tashkil etish huquqining himoyasi to'g'risidagi 87-konvensiya;
3. 1949-yilgi Jamoaviy muzokaralarni olib borish va birlashish huquqi to'g'risidagi 98-konvensiya;
4. 1951-yilgi Teng haq to'lash to'g'risidagi 100-konvensiya;
5. 1957-yilgi Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi 105-konvensiya;
6. 1958-yilgi Mehnat va ish turlari sohasidagi kamsitish to'g'risidagi 111-konvensiya;
7. 1973-yilgi Ishga qabul qilishdagi minimal yosh to'g'risidagi 138-konvensiya;
8. 1999-yilgi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi 182-konvensiya².

Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalari mehnat huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mazkur hujjatlarga qo'shilgan davlatlar insonning mehnat huquqlarini ta'minlash bo'yicha tegishli qonun hujjatlari qabul qilish va amaliy chora-tadbirlar ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1 BMT – asosiy omillar. – Toshkent. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi, 2001. – B. 68.

2 Maxamatov M. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan muassasi sifatida Xalqaro mehnat tashkiloti/ "O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007. – B. 204–205.

Bu majburiyat esa, xalqaro hamjamiyat tomonidan shaxsning ijtimoiy-huquqiy himoyasiga qaratilgan minimal standartlar sifatida baholanadi.

Hozirga qadar, XMT tashkiloti tomonidan 300 dan ortiq konvensiyalar va tavsiyalar qabul qilingan¹ bo'lib, ularning 187 tasi konvensiyani tashkil etadi. Aytish mumkinki, bugunga kelib, XMTning normativ hujjatlari mehnat huquqi bo'yicha o'ziga xos xalqaro huquqiy bazani tashkil etadi².

UNESCO hujjatlari. UNESCO tashkiloti tomonidan ham 70 ga yaqin xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi konvensiya (1954-yil), Mualliflik huquqi bo'yicha umumjahon konvensiyasi (1955-yil), Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risida konvensiya (1960-yil), Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1972-yil), Xalqaro hamjihatlik, hamkorlik va tinchlik ruhida hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish ruhida tarbiyalash to'g'risidagi tavsiya (1974-yil), Irq va irqiy bid'atlar to'g'risidagi deklaratsiya (1982-yil), Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi (1995-yil), Inson genomi va Inson huquqlari bo'yicha universal deklaratsiya (1997-yil) va boshqalar³.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ham BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari qatoriga kirgan holda fuqarolarning mualliflik huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro huquqiy hujjatlar ishlab chiqqan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida"gi 1886-yilgi Bern konvensiyasi; "BIMTning mualliflik huquqi bo'yicha 1996-yilgi shartnomasi"; "Ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va efir orqali uzatuvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish haqida"gi 1971-yilgi Jeneva konvensiyasi; "Yerning sun'iy yo'ldoshi orqali uzatiladigan dasturlarni tashuvchi signallarni tarqatish to'g'risida"gi 1974-yilgi Bryussel konvensiyasi; BIMTning "Ijrochilar va fonogrammalar bo'yicha" 1996-yilgi Shartnomasi; "Ikki tomonlama soliqqa tortishning ol-dini olish haqida"gi 1979-yilgi Madrid konvensiyasi va boshqalar⁴.

1 Хакимов Р. Узбекистан и Организация Объединенных Наций. -3-е изд., доп. – Т.: Zar Qalam, 2006. – С. 87.

2 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – Т.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 240-b.

3 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: UNESCOning xalqaro me'yoriy hujjatlari. To'plam. /Mas'ul muharrir L. Saidova. – Т.: Adolat, 2004. – 304-b.

4 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Toshev B. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqiga oid aktlarining huquqiy maqomi. – Т.: "Voriz-Nashriyot", 2007. –254-b.

4. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat qurishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'ydi. Demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun oliy qadriyatlar sifatida belgilab olindi. *"Inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar Respublikamizning milliy davlatchilik marifaatlariga to'la mos keladi"*¹, – degan edi Yurtboshimiz Islom Karimov. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi zahirida ham xalqaro huquqning umumiy qoidalari asosida insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish maqsadi turibdi. Demokratik-huquqiy davlat barpo etishning eng asosiy shartlaridan biri inson huquqlariga rioya etish va ularning huquqiy himoyasini ta'minlashdan iboratdir. *"Huquqiy davlat va inson huquqlari – bu haqiqat, ezgulik va adolat sari yagona yo'lning uzviy tarkibiy qismlaridir. Inson huquqlari – huquqiy davlatchilikning insoniylik mezonidir. Inson huquqlarini ta'minlashning realligiga qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatining sa'y-harakatlarini baholovchi, jamiyatning axloqiyligini va davlatning maqbulligini ko'rsatib beruvchi alomat sifatida qaralmog'i zarur. Inson himoyasini ishonchli tarzda ta'minlamay turib, huquqiy davlatchilikning huquq ustuvorligi, hokimiyatning huquq bilan cheklab qo'yilishi va tiyib turish kabi asosiy tamoyillarini amalga oshirish mantiqsizdir"*². Inson huquqlari himoyasini amalga oshirishda nafaqat milliy qonunlarimiz, balki inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga qadar respublikamiz tomonidan 70 ga yaqin inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar imzolangan. Ushbu xalqaro hujjatlar mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklari muhofazasiga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishida asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ham alohida tasniflash mumkin. Mamlakatimiz qo'shilgan xalqaro shartnomalarni mazmunan 4 ta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – odatdagi tinchlik-osoyishtalik sharoitida amal qiladigan inson huquqlari bo'yicha universal va mintaqaviy mazmundagi xalqaro shartnomalarni qamrab oladi. Ushbu hujjatlar qatorida 1948-yil

1 Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996, – B. 78–79.

2 Saidov A.X. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2002. – B. 6.

10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga qo'shimcha I Bayonnoma, 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya kabi hujjatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Ikkinchi guruh – Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro-huquqiy hujjatlaridan iborat. XMT tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarning aksariyati mehnat munosabatlariga oid iqtisodiy, ijtimoiy huquqlarni muhofaza qilishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar quyidagilardan iborat: 1935-yilgi Ish vaqtini haftasiga 40 soatgacha qisqartirish to'g'risidagi 47-konvensiya, 1936-yilgi Haq to'lanadigan yillik ta'tillar to'g'risidagi 52-konvensiya va hokazo.

Uchinchi guruh – mazmun va hajm jihatidan anchayin keng qamrovli hujjatlar turkumidan iborat bo'lib, qurolli mojarolar davrida inson huquqlariga rioya etishga doir xalqaro hujjatlarni o'z ichiga oladi. Bu o'rinda, xususan, 1949-yil 12-avgustda qabul qilingan to'rtta – Harakatdagi qurolli kuchlardagi yaradorlar va bemorlarning qismatini yengillashtirish to'g'risidagi, Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidan bo'lmish yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslarning qismatlarini yengillashtirish to'g'risidagi, Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risidagi hamda Urush vaqtida fuqaro aholini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyalari, shuningdek, 1977-yilda imzolangan ikkita Qo'shimcha Bayonnoma – Xalqaro qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli I Bayonnoma va Xalqaro tusda bo'lmagan qurolli mojarolar qurbonlarini himoya qilishga taalluqli II Bayonnoma haqida gap bormoqda.

To'rtinchi guruh – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, MDH doirasida qabul qilingan shartnomalar. Bundan tashqari, O'zbekistonning ikki tomonlama shartnomalarida ham inson huquqlari masalasi o'z aksini topgan, xususan, huquqiy yordam, vizasiz tashriflar va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasi ham yuqorida sanab o'tilgan Jeneva konvensiyalari va Qo'shimcha Bayonnomalarga qo'shilgan bo'lib, ular bo'yicha bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi hamda ularda belgilab qo'yilgan qoidalarining himoyasini milliy qonunchilik hujjatlari bilan ta'minlab beradi. Jeneva konvensiyalarini buzishga yo'l qo'ymaslik va ularni buzish hollarining oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasi boshqa a'zodavlatlar singari o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni olgan:

- konvensiyalarni biror-bir tarzda jiddiy buzgan yoki buzishni buyurgan shaxslarga samarali jinoiy jazo berishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan normalarni amalga kiritish;

- jiddiy buzilishlarni sodir etganlikda yoki sodir etishni buyur-
ganlikda ayblanayotgan shaxslarni qidirish va o'z sudiga topshirish;

- konvensiyalarning qoidalariga zid bo'lgan barcha boshqa harakat-
larning oldini olish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish.

*"Harakatdagi armiyalarda yaradorlar va bemorlarning qismatini yaxshilash to'g'risida"*gi 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda 946–XII raqami ostida imzolangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiya bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyat boshqa tomonning yaradorlari va bemorlari, shuningdek, tibbiyot xodimlari hukmiga tushib qolgan mojaroda qatnashuvchi tomon ularga hech qanday kamsitishlarsiz insoniy muomalada bo'lish va parvarishlashni ta'minlab berishini e'tirof qilishdan iborat.

*"Dengizdagi qurolli kuchlar tarkibidagi yaradorlar, bemorlar va kema halokatiga uchragan shaxslar qismatini yaxshilash to'g'risida"*gi 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda 946–XII raqami ostida imzolangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiya bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatning qisqacha mazmuni shundan iboratki, hukmida yaradorlar, bemor shaxslar bo'lgan nizolashuvchi tomon ularga hech qanday kamsitishlarsiz insoniy muomalada bo'lishni va g'amxo'rlik qilinishini ta'minlab berishi lozim.

*"Harbiy asirlar bilan muomalada bo'lish to'g'risida"*gi 1949-yil 12-avgustda tuzilgan Jeneva konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda (946–XII-son) imzolangan. O'zbekiston Respublikasi o'z zimmasiga olgan majburiyat harbiy asirlar bilan insonparvarlarcha muomalada bo'lishni nazarda tutadi. Asirlikda ushlab turgan davlat tomonidan qo'l ostidagi asirning o'limiga sabab bo'luvchi yoki harbiy asirning sog'lig'ini jiddiy xavf ostida qoldiruvchi g'ayriqonuniy harakat sodir qilish taqiqlanadi.

*"Urush davrida tinch aholini himoya qilish to'g'risida"*gi 1949-yil 12-avgustda tuzilgan Jeneva konvensiyasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda (946–XII-son) imzolangan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaning qurolli nizo yuz bergan joylarda ushlab qolingani tinch aholi bilan insonparvarlik munosabatida bo'lish to'g'risidagi talabiga amal qilish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Konvensiya qoidalariga ko'ra, tinch aholi, ya'ni harbiy bo'lmagan shaxslarning hayotiga va jismoniy daxlsizligiga, qadr-qimmatiga tajovuz qilish, ularni haqoratlash, kamsitish, dastlabki sud qarorisiz ularga nisbatan jazo qo'llash taqiqlanadi.

1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga doir 1977-yil 8-iyunda qabul qilingan *Qo'shimcha Bayonnoma (I Bayonnoma)* xalqaro qurolli mojarolarning jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 3-sentabrda (946–XII-son) qo'shilgan. *I Qo'shimcha Bayonnoma* rioya etish majburiyatini zimmasiga olar ekan, O'zbekiston Respublikasi yaradorlar va bemorlarga nisbatan, ular qaysi tomonga mansubligidan qat'i nazar, hurmat bilan munosabatda bo'linishini hamda ular himoya qilinishini e'tirof etadi. Tibbiyot xizmati xodimlari har qanday paytda ham hurmatga sazovor va himoya ostidadirlar, ular hujum qilish obyekti bo'lishi mumkin emas. Dushman tomonning hukmi ostida bo'lgan yoki qurolsizlantirilib, nazorat ostiga olingan, hibsga olingan shaxslar sog'lig'ining jismoniy yoki psixologik holatiga va daxlsizligiga asossiz xatti-harakatlar yoki nuqsonlar tufayli ziyon yetkazilishi mumkin emasligi ham O'zbekiston tomonidan tan olingan. 1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalariga doir 1977-yil 8-iyunda qabul qilingan *II Qo'shimcha Bayonnoma* xalqaro bo'lmagan qurolli mojarolarning jabrdiydalarini himoya qilishga daxldor bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 3-sentabrdagi 946–XII-son qarori bilan qo'shilgan. O'zbekiston o'z zimmasiga olgan majburiyatda harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etmagan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslar, ularning erkinligi cheklanganmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z shaxsi, qadr-qimmat, e'tiqodi va o'zining diniy urf-odatlarini hurmat qilinishini talab qilish huquqiga ega ekanligi nazarda tutilgan. Barcha vaziyatlarda ham ular bilan insonparvarlik munosabatida bo'lib, biror-bir nomaqbul farqlashga yo'l qo'yilmaydi. Hech kimni tirik qoldirmaslik to'g'risida buyruq berish man etiladi.

1980-yil 10-oktabrda BMT tomonidan "*Oddiy qurollarning xaddan ortiq jarohat yetkazadigan va (nishon) tanlamaydigan xarakterda deb hisoblanuvchi muayyan turlarini taqiqlash yoki qo'llashni cheklash to'g'risida*"gi konvensiya qabul qilindi. Ushbu Konvensiyaga to'rtta Bayonnoma ilova qilingan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: Ilg'ab bo'lmaydigan oskolkalar to'g'risidagi I bayonnoma (I Bayonnoma), Minalar, tuzoq-minalar va boshqa qurilmalarni taqiqlash yoki qo'llashni cheklash to'g'risidagi bayonnoma (II Bayonnoma), Yondiruvchi qurollardan foydalanishni taqiqlash yoki cheklash to'g'risida bayonnoma (III Bayonnoma), Ko'r qiluvchi lazer quroli to'g'risida bayonnoma (IV Bayonnoma). Ushbu hujjatlarga O'zbekiston 1997-yil 30-avgustda qo'shilgan (Oliy Majlis qarori, 500–I-son). Ushbu hujjatlar O'zbekiston tomonidan 1997-yil 29-sentabrda ratifikatsiya qilingan.

Gumanitar huquqning yuqorida sanab o'tilgan manbalarida belgilab qo'yilgan normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish bu huquqning jiddiy vazifalaridan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lib, jinoyat qonunchiligi normalari ana shunday tadbirlar jumlasiga kiradi. Xususan, milliy qonunchilikda tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar uchun yuridik jinoyiy javobgarlik nazarda tutilgan: urushni targ'ib qilish (O'zRning JK 150-moddasi), agressiya (O'zRning JK 151-moddasi), urushning qonun va udumlarini buzish (O'zRning JK 152-moddasi), genotsid (O'zRning JK 153-moddasi), yollanish (O'zRning JK 154-moddasi) va terrorizm (O'zRning JK 155-moddasi) jinoyat deb tavsiflangan hamda ularga nisbatan jinoyiy javobgarlik sanksiyalari belgilab qo'yilgan.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya 1989-yil 20-noyabr kuni Nyu-Yorkda qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatga 1992-yil 9-dekabrda Oliy Kengashning 757–XII-son qaroriga asosan qo'shildi. Mazkur Konvensiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bolalarning sog'lig'i, o'sishi va yashashi uchun sharoit yaratish, bolalar uchun g'amxo'rlik qilish, ularni himoya qilish, ularning o'z qarashlari bo'yicha erkin tasavvur qilishi uchun imkoniyatlar yaratib berish kabi bir qator majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'zining 1995-yil 6-mayda bo'lib o'tgan 2-sessiyasida inson huquqlarini himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shilish haqida qarorlar qabul qildi. Ushbu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iborat: 1935-yil 21-iyunda Jenevada qabul qilingan Ish vaqtini haftasiga 40 soatgacha qisqartirish to'g'risidagi 47-konvensiya, 1936-yil 24-iyunda Jenevada qabul qilingan Yillik haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risidagi 52-konvensiya, 1919-yil Jenevada qabul qilinib, 1952-yil 28-iyunda qayta ko'rib chiqilgan Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 103-konvensiya, 1964-yil 9-iyulda Jenevada qabul qilingan Bandlik sohasidagi siyosat to'g'risidagi konvensiya, 1974-yil 18-dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf qilish to'g'risidagi konvensiya. Mazkur xalqaro hujjatlar yuzasidan O'zbekiston ish vaqtini 40 soatdan oshirmaslik tamoyiliga rioya qilish, har bir ishlovchi fuqaroning haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqini ta'minlash, ayolga o'ziga va bolasiga yetarli miqdorda mablag' ajratish, har bir shaxsning o'z mutaxassisligiga qarab erkin kasb tanlash huquqini ta'minlash, erkaklar va ayollarning tengligi tamoyiliga rioya qilish, bu tamoyilni Konstitutsiya va qonunlarda aks ettirish, ayollarga nisbatan kamsitishlarni ko'zda tutuvchi turli cheklov-

larni taqiqlash yuzasidan choralar ko'rish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1995-yil 31-avgustdagi 129-I-son qaroriga binoan Irqiy kamsitishning barcha shakllarini bekor qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shildi. Ushbu xalqaro hujjat 1965-yil 21-dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan edi. Mazkur Konvensiya yuzasidan O'zbekiston Respublikasi irqiy kamsitish bilan bog'liq har qanday harakatlarning alohida shaxsga, guruhga yoki muassasalarga nisbatan amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Davlat organlari va muassasalari, jamoat tashkilotlari mazkur qoidadan kelib chiqqan holda harakat qilishlari lozim.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya 1984-yil 10-dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan. O'zbekiston mazkur xalqaro hujjatga 1995-yil 31-avgustda Oliy Majlisning 130-I-son qarori asosida qo'shildi. Ushbu Konvensiya bo'yicha O'zbekiston jazo tayinlangan shaxslarga nisbatan og'ir, g'ayriinsoniy qiynoqlarni qo'llashni taqiqlash majburiyatini olgan.

Bolalarning yashashi va rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasiga O'zbekiston 1995-yil 19-dekabrda Oliy Majlisning 189-I-son qarori bilan qo'shilgan. Ushbu Deklaratsiyada davlatning bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, har bir bolaga o'z oilasi yoki tarbiyalovchilari tomonidan o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sharoitini yaratib berish kabi vazifalari o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi BMTning inson huquqlari bo'yicha tegishli qo'mitalariga mamlakat parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilingan BMTning 6 ta asosiy hujjati bo'yicha ular yuzasidan mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, mavjud kamchiliklar hamda ularni tugatish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oluvchi milliy ma'ruzalarini taqdim etib kelmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi mamlakatda huquqiy-demokratik davlat barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xalqaro hujjatlar inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishida va ularni takomillashtirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda, ya'ni mamlakatda jahon andozalariga mos keladigan tegishli huqu-

qiy me'yorlar qabul qilinmoqda va ushbu xalqaro hujjatlarning me'yorlari milliy qonunchiligimizda o'z ifodasini topmoqda. Bu borada Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill hujjatlarining normalari yetakchi o'rin tutadi.

Respublikamiz qo'shilgan xalqaro shartnomalarni hayotga tatbiq qilish yuzasidan mamlakatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Bola huquqlari to'g'risida konvensiya yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Ushbu Konvensiya normalari milliy qonunchilikda qo'llanishining yana bir misoli sifatida 2008-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunini keltirish mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishni davom ettirish, zo'rlab ishlatishga yoki majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik, shuningdek bolalar mehnatining og'ir shakllarini yo'qotish bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish va qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-martdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyani hamda Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Konvensiyani 2012–2013-yillarda amalga oshirish bo'yicha Qo'shimcha tadbirlar rejasi tasdiqlangan. Ushbu reja 4 ta yo'nalishdan iborat bo'lib, bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, XMT konvensiyalarini amalga oshirish, ushbu masalalar bo'yicha keng axborot berish-tushuntirish ishlari olib borish hamda xalqaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan.

Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlardan yana biri – Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasidir. Ushbu hujjat 1990-yil 21-noyabrda Parijda YeXHTga a'zo-davlatlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi uni 1993-yil 27-noyabr kuni Parij shahrida imzoladi. Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi har bir inson tengligini ta'minlovchi huquqlarga rioya qilish, demokratiyani rivojlantirish, shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish kabi majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

Quyida O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan (ratifikatsiyalagan) BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalari ro'yxati keltirilmoqda:

T/r	Hujjat nomi	Hujjat imzolangan sana va joy	Ratifikatsiya qilish, qo'shilish va boshqa ma'lumotlar	Ratifikatsiya yorliqlari, qo'shilish, kuchga kirish, denonsatsiyalash to'g'risidagi ma'lumotlar
1	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi	10.12.1948-y. Parij	O'zR OK 30.09.1991-y. 366–XII-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	
2	Bola huquqlari to'g'risida konvensiya	20.11.1989-y. Nyu-York	O'zR OK 09.12.1992-y. 757–XII-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirgan
3	Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya	18.12.1979-y. Nyu-York	O'zR OM 06.05.1995-y. 87–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 18-avgustdan kuchga kirgan
4	Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt	16.12.1966-y. Nyu-York	O'zR OM 31.08.1995-y. 126–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrden kuchga kirgan
5	Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt	16.12.1966-y. Nyu-York	O'zR OM 31.08.1995-y. 127–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrden kuchga kirgan
6	Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shimcha Fakultativ protokol	16.12.1966-y. Nyu-York	O'zR OM 31.08.1995-y. 128–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-dekabrden kuchga kirgan
7	Irqiyl kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiya	21.12.1965-y. Nyu-York	O'zR OM 31.08.1995-y. 129–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 28-oktabrden kuchga kirgan
8	Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya	10.12.1984-y. Nyu-York	O'zR OM 31.08.1995-y. 130–I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1995-yil 8-oktabrden kuchga kirgan

9	Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida konvensiya	20.12.1952-y. Nyu-York	O'zR OM 30.08.1997-y. 501-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1997-yil 28-dekabrda kuchga kirgan
10	Din yoki e'tiqodlar zahiridagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida deklaratsiya	25.11.1981-y. Nyu-York	O'zR OM 30.08.1997-y. 505-I-sonli Qarori bilan ma'qullangan	Ma'qullash to'g'risida 15.10.1997-y. 05/11735-sonli xat
11	Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning axloq kodeksi	17.12.1979-y. Nyu-York	O'zR OM 30.08.1997-y. 507-I-sonli Qarori bilan ma'qullangan	Ma'qullash to'g'risida 15.10.1997-y. 05/11735-sonli xat
12	Sud organlari mustaqilligining asosiy tamoyillari	26.08.1985 – 06.09.1985-y. Milan	O'zR OM 30.08.1997-y. 508-I-sonli Qarori bilan ma'qullangan	Ma'qullash to'g'risida 15.10.1997-y. 05/11735-sonli xat
13	Genotsid jinoyati-ning oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiya	09.12.1948-y. Nyu-York	O'zR OM 20.08.1999-y. 835-I-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 1999-yil 8-dekabrda kuchga kirgan
14	Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya	15.11.2000-y. Nyu-York	O'zR OM 30.08.2003-y. 536-II-sonli Qaroriga muvofiq ratifikatsiya qilingan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2004-yil 8-yanvardan kuchga kirgan
15	Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya va Yakunlovchi bayonnoma	02.12.1949-y. Nyu-York	O'zR OM 12.12.2003-y. 576-II-sonli Qaroriga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2004-yil 27-fevraldan kuchga kirgan
16	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi	31.10.2003-y. Nyu-York	O'zR 07.07.2008-y. O'RQ-158-sonli Qonuniga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2008-yil 28-avgustdan kuchga kirgan

17	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokol	15.11.2000-y. Nyu-York	O'zR 08.07.2008-y. O'RQ-160-sonli Qonuniga muvofiq ratifikatsiya qilingan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2008-yil 11-sentabrdan kuchga kirgan
18	Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir, o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan ikkinchi Fakultativ protokol	15.12.1989-y. Nyu-York	O'zR 10.12.2008-y. O'RQ-185-sonli Qonuniga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2009-yil 23-martdan kuchga kirgan
19	Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokol	25.05.2000-y. Nyu-York	O'zR 11.12.2008-y. O'RQ-188-sonli Qonuniga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2009-yil 23-yanvardan kuchga kirgan
20	Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokol	25.05.2000-y. Nyu-York	O'zR 12.12.2008-y. O'RQ-190-sonli Qonuniga muvofiq qo'shilgan	O'zbekiston Respublikasi uchun 2009-yil 23-yanvardan kuchga kirgan

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning zaruratini asoslab bering.*
- 2. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatning mohiyatini tushuntirib bering.*
- 3. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni yuridik kuchi bo'yicha tasniflab bering.*

4. *Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni amal qilish vaqti bo'yicha tushuntirib bering.*

5. *Inson huquqlariga oid universal, mintaqaviy va mintaqalararo hujjatlarning o'zaro bog'liqligi nima bilan izohlanadi?*

6. *Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy xalqaro hujjatlarning mohiyati va o'ziga xosligini tushuntirib bering.*

7. *Inson huquqlariga oid XMT hujjatlarining mohiyati va o'ziga xosligini izohlab bering.*

8. *Inson huquqlariga oid UNESCO hujjatlarining mohiyati va o'ziga xosligini qanday izohlash mumkin?*

9. *O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalarning asosiy mazmunlarini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT – asosiy omillar. – Toshkent. 2001.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining nizomi va Xalqaro Sud Statuti. – Toshkent, 2002.

3. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam / O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004.

4. Гулямова И. Основные деятельности ООН в области прав человека. – Т.: НЦПЧ, 2002.

5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2010.

6. Mo'minov A. O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T.: Yangi asr avlodi. 2003.

7. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

8. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.

9. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика / Отв.ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 312.

10. UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari: to'plam / L. Saidova tahriri ostida. – T.: Adolat. 2004.

7-mavzu. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati.
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati.
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokollar.
4. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill.

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmui bo'lib, u bu sohada keyinchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill o'z ichiga inson huquqlari sohasidagi BMT tomonidan ishlab chiqilib, qabul qilingan asosiy hujjatlarni birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil);
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil);
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda unga ilova qilingan I Fakultativ Bayonnoma (1966-yil) va O'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan II Fakultativ Bayonnoma (1989-yil).

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. 2008-yilda ushbu Deklaratsiya qabul qilinganligining 60 yilligi butun dunyoda keng nishonlanishi to'g'risida BMT Bosh kotibining murojaati e'lon qilindi. Ushbu murojaatga javoban, 2008-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yillicini nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

Inson huquqlari to'g'risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan oldin bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. BMTning tashkil to-

pishi va uning Nizomining qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi davlatlararo munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko'tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo'yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan birinchi ko'p tomonlama shartnoma bo'ldi. Ammo, BMT Nizomini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlatlar turlicha yondashuvda ekanliklari namoyon bo'lib qoldi.

1946-yilda BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi tashkil etildi, unga inson huquqlari sohasida universal hujjat, ya'ni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Komissiya huzurida Deklaratsiya loyihasi bo'yicha ishchi guruh tuzildi. Bu ishchi guruh 1947–1948-yillar mobaynida Deklaratsiya loyihasi ustida ishlashdi va Deklaratsiya loyihasi 1948-yili 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi a'zolari tomonidan qizg'in tortishuvlardan keyin qabul qilindi. 1950-yil Bosh Assambleya 10-dekabrni "Xalqaro inson huquqlari kuni" deb e'lon qildi.

Alohida qayd etish kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 400 dan ortiq tillarga va dialektlarga tarjima qilingan va Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Shuning uchun ham Deklaratsiya eng ko'p tilga tarjima qilingan hujjat bo'lib, haqiqatan ham jahondagi eng "universal" hujjat hisoblanadi.

Deklaratsiya loyihasi barcha mintaqalar va huquqiy an'analarning vakillari tomonidan tayyorlangan. Vaqt o'tishi bilan u mamlakatlarning hukumatlari hamda xalqlari o'rtasidagi o'ziga xos shartnoma sifatida ko'rilishi lozim. Deklaratsiya, shuningdek, aholining barcha qatlamlarini ham qamrab olgan inson huquqlarini himoya qiluvchi infratuzilmani kengaytirish uchun asos bo'lib qoldi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi Muqaddima va 30 modddadan iborat bo'lib, unda insonning asosiy huquqlari, qadr-qimmat, inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligi o'z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va birbirlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur" deyilgan.

Deklaratsiyaning bu moddasi uning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Unga ko'ra, birinchidan, inson o'zining erk, huquq, tenglik singari ajralmas huquqlaridan mahrum qilinmasligi va ikkinchidan, inson aql va vijdon sohibi sifatida yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan farq qilib, o'z taqdiri va hayotini o'zi erkin belgilashi lozim.

2-moddada har bir inson huquq va erkdan foydalanishda teng bo'lishi, u Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi quyidagicha bayon etilgan: "har bir inson, biror-bir ayirmachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlaridan qat'i nazar, mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak".

3-moddada har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bu modda 4, 21-moddalarga kirish bo'lib, bularda fuqarolik va siyosiy huquqlar ifodalangan: qullik yoki qaramlikdan saqlanish huquqi; azob-uqubatga yoki vahshiylarcha jazoga mustahiq bo'lmaslik huquqining qonun tomonidan bab-baravar muhofaza etilishi; o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishdan, ushlab turish va quvg'in qilinishdan saqlanish huquqi; qo'yilgan aybning asoslanganligini aniqlash uchun tenglik asosidagi ijtimoiy adolatning barcha talablariga rioya qilish va uning sud tomonidan xolisona ko'rib chiqilish huquqi; shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishdan muhofaza qilinish; uy-joy va xatlardagi sirlarning daxlsizligi huquqi; davlat hududida erkin yurish va o'ziga istiqomat joyini tanlash erki; boshqa mamlakatda boshpana olishdan foydalanish huquqi; fuqarolik huquqi; nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi; erkin fikr, vijdon va din erkinligi huquqi; maslak erkinligi va uni ifodalash huquqi; tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzishda qatnashish huquqi; mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi va boshqa huquqlardan foydalanish shular jumlasidandir.

Deklaratsiyaning 23–27-moddalari insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini muhofaza qilishga bag'ishlangan. Bu moddalarda har bir insonning mehnat turini o'z erki bilan tanlashi, ishsizlikdan muhofaza qilinishi, oilani ta'minlaydigan darajada adolatli daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishi singari huquqlari o'zining aniq ifodasini topgan.

Deklaratsiyaning 28–30-moddalarida esa, Deklaratsiyadagi huquqlarni amalga oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tuzilishiga ko'ra deklarativ hujjat bo'lsa-da, uning normalari o'ziga xos xalqaro odat normalari darajasigacha ko'tarilmoqda. Buni quyidagi misollar tasdiqlaydi.

BMTning 1968-yilda Eronda bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha birinchi umumjahon anjumanida qabul qilingan Tehron konferensiyasi hujjatlarida Deklaratsiyaning ahamiyatiga alohida baho berilar ekan, shunday

deyilgan: “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi jahon xalqlarining, xususan, har bir insonning ajralmas va mustahkam huquqlari bo'yicha umumiy bitimni o'zida namoyon qilib, xalqaro hamjamiyatning barcha a'zolari uchun majburiydir”¹.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida shakllangan g'oyalar keyinchalik xalqaro maydonda qabul qilingan ko'plab xalqaro hujjatlarda o'zining huquqiy va mantiqiy rivojini topdi. 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, unga fakultativ protokollar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1965-yilgi, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, 1984-yilgi Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risida konvensiya kabi inson huquqlari bo'yicha BMTning asosiy hujjatlari, shuningdek, 1951-yilgi Qochoqlar to'g'risidagi konvensiya, 1951-yilda qabul qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining teng taqdirlov to'g'risidagi konvensiyasi, 1974-yilda qabul qilingan “Qurolli to'qnashuvlar davrida va favqulodda holatlarda xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya”, 1975-yilda e'lon qilingan “Ilmiy-texnikaviy yutuqlardan tinchlik va insoniyat farovonligi manfaatlarini yo'lida foydalanish to'g'risidagi deklaratsiya”, 1981-yilda e'lon qilingan “Din yoki e'tiqod uchun kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi deklaratsiya” kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

“Barcha davlatlar va xalqlar erishishga harakat qilishi lozim bo'lgan andoza” sifatida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar tomonidan konstitutsiyalarining, inson huquqlariga oid turli qonunlari va hujjatlarining alohida qoidalarini ishlab chiqish uchun asosiy huquq manbalaridan biri bo'lib qolmoqda². 1948-yildan keyin qabul qilingan 110 dan ortiq milliy konstitutsiyalarda Deklaratsiya qoidalari yoki uning ta'siri ostida kiritilgan fundamental huquqlar ro'yxati mavjud. Unda huquqiy yo'nalishlar belgilangan bo'lib, u mezon (etalon) sifatida barcha hukumatlarga inson huquqlarini himoya qilishdagi taraqqiyot darajasini o'lchashga imkon beradi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalari aks ettirilgan va u Deklaratsiyaga to'la mos keladi.

1 Inson huquqlari. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanmasi. Boboyev H.B. va boshqalar. – T.: O'zbekiston, 1997. – B. 77.

2 Права человека. Учебник. /Отв. ред. Е.А.Лукашева. М., Норма-Инфра, 1999. – С. 471.

2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng BMTga a'zo-davlatlar tasdiqlashi zarur bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning imperativ xususiyatga ega bo'lgan shartnomaviy shaklini ishlab chiqishga kirishildi.

Paktlar deyarli 18 yilda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Dastlab bitta hujjat ishlab chiqish va qabul ko'zda tutilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi o'zining Rezolyutsiyasida fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarga hamda madaniyat sohasidagi huquqlarga ega bo'lish o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi huquqlar ekanligini e'lon qildi. 1951-yilda Komissiya maxsus muassasalarning fikrlari va hukumatlarning takliflari asosida iqtisodiy, ijtimoiy huquqlar to'g'risida 14 ta moddani tuzdi. U, shuningdek, bu huquqlarni amalga oshirish yuzasidan chora ko'rish to'g'risidagi 10 ta moddani shakllantirdi. Shunga muvofiq, Paktning ishtirokchi-davlatlari bu masala bo'yicha o'zlarining ijodiy ma'ruzalarini topshirishlari lozimligi qayd qilindi. 1951-yilda uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Bosh Assambleya Komissiyaga inson huquqlari to'g'risidagi ikkita paktning loyahasini ishlab chiqishni va ulardan birida fuqarolik va siyosiy huquqlar, boshqasida esa – iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar yoritilishi lozimligini topshirdi. 1966-yilda oldindan belgilangan bitta pakt o'rniga ikkita Xalqaro pakt ishlab chiqildi: Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol ham qo'shimcha ravishda ishlab chiqilib, unda alohida shaxslarning paktda ifodalangan huquqlarining buzilishiga doir xabarlari ko'rib chiqilishi o'z ifodasini topishi zarurligi qayd etildi.

Inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning huquqiy mohiyati va mazmuni. Har ikkala Paktning Muqaddimasi, 1-, 3- va 5-moddolari aynan bir xildir. Har bir Paktning Muqaddimasida BMT Nizomiga muvofiq ravishda davlatlarning majburiyatlari qayd etilgan. Unga ko'ra, har bir inson bu huquqlarga rioya qilishi va har bir davlat inson huquqlarini himoya qilishga doir amalga oshiriladigan ijobiy tadbirlarni rag'batlantirib turishi zarur.

Har ikkala Paktning 3-moddasida ishtirokchi-davlatlar insonga berilgan barcha huquqlardan erkaklar va ayollarga teng huquqni ta'minlash majburiyatini oladilar. Har ikkala Paktning 5-moddasida biron-bir davlat, guruh yoki alohida shaxs paktda e'tirof etilgan har qanday huquq yoki

erkinliklarni cheklashga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bor deb qarashi va buni targ'ib qilishi mumkin emasligi hamda insonning huquqlari biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6–15-moddalarida mehnat qilish huquqi (6-modda), adolatli va qulay mehnat sharoiti (7-modda), kasaba uyushmalari tuzish va unga kirish (8-modda), ijtimoiy ta'minot huquqi (9-modda), oilani, onalik, bolalik va o'smirlikni keng himoya qilish va yordam berish huquqi (10-modda), yetarli hayotiy darajaga ega bo'lish huquqi (11-modda), jismoniy va ruhiy sog'lomlikning eng yuqori darajasiga erishish va ma'lumot olish huquqi (12–13-moddalar), madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (15-modda) va boshqa huquqlar qayd etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6–27-moddalarida insonning yashash huquqi himoyalaniishi nazarda tutiladi. Bu moddalarda hech kim azob-uqubatga solinmasligi yoki zulmlik bilan, insonlikka isnod keltiruvchi bir tarzda yoki uning qadr-qimmatini xo'rlab muomala qilinmasligi yoki jazoga mustahiq etilmasligi kerak (7-modda); hech kim qullikda saqlanishi mumkin emas; qulchilik va qul savdosi, bular qanday shaklda bo'lmasin, taqiqlanadi; hech kim majburiy yoki shart bo'lgan mehnatga majbur qilinishi mumkin emas (8-modda); hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi yoki hibsdan saqlanishi mumkin emas (9-modda); ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga insonlarcha muomalada bo'lish kerak (10-modda); hech kim biror shartnoma majburiyatini bajarishga qodir bo'lmagan asosdagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas (11-modda); har bir odam davlat hududida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egadir (12-modda).

Ushbu Paktda ishtirok etayotgan biron-bir davlatning hududida qonuniy tarzda turgan chet ellik shaxs qonunga binoan chiqarilgan qaror asosidagina chiqarib yuborilishi mumkin (13-modda).

Paktda barcha shaxslar odil sudlar va tribunallar oldida tengdirlar, jinoyat va fuqarolik jarayonlarida kafolatga egadirlar, deb e'tirof etilgan (14-modda); shuningdek, jinoyat sodir etilgan paytda qo'llanilishi lozim bo'lgandan og'irroq jazo tayinlanishi mumkin emas (15-modda); qayerda bo'lishidan qat'i nazar, har bir inson o'zining huquq subyekti ekanligining e'tirof etilishi huquqiga egadir (16-modda); hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan yoki g'ayriqonuniy tarzda aralashish, uy-joy daxlsizligi yoki maktublari sirining daxlsizligiga o'zboshimchalik bilan yoki g'ayriqonuniy tusda yoki uning or-nomusi va sha'niga g'ayriqonuniy tusda tajovuz qilish mumkin emas (17-modda).

Bundan tashqari, mazkur Paktda qayd etilishicha, har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir (18-modda); har bir inson bemalol o'z fikrida sobit bo'lish huquqiga egadir (19-modda); urushni har qanday yo'sinda targ'ib etish qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak; dushmanlik, zo'ravonlik, gij-gijlash, milliy, diniy yoki irqiy g'animlikni yoqlab qilinadigan har qanday yo'sindagi harakat qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak (20-modda); ular osoyishta yig'ilishlar o'tkazish (21-modda) va uyushmalar tuzish erkinligini e'tirof etadi (22-modda). Ular nikoh yoshiga yetgan erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish huquqi va oila qurish huquqi, nikohda bo'lgan davrda va nikoh bekor qilinayotganida er-xotinlarning huquq va majburiyatlari tengligini e'tirof etadi (23-modda); ular bolalar huquqini muhofaza qilish tadbirlarini belgilaydi (24-modda); va o'z mamlakatining davlat ishlarida qatnashishdan iborat har bir fuqaroning huquqini nazarda tutadi (25-modda). Ular barcha odamlarning qonun oldida tengligi va ularning hech bir kamsitishlarsiz qonun tomonidan bab-baravar himoya qilinishi tadbirlarini nazarda tutadi (26-modda). Va nihoyat, 28-moddada Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tuzish ko'zda tutilgan. Bu Qo'mita Paktda qayd etilgan huquqlarni hayotga tatbiq etilishini nazorat qilib boradi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qatnashuvchi davlatlar huquqdan foydalanishda cheklashlar o'rnatishi mumkin. Cheklashlar shu davlatning qonunida belgilanib, ular umumiy farovonlik maqsadlariga va mamlakatda amalda bo'lgan tartib-qoidalar tabiatiga mos bo'lishi shart.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qattiq talablar belgilangan: faqat favqulodda holat rasmiy ravishda e'lon qilingandagina ishtirok etuvchi davlatlar o'z majburiyatlaridan chekinishlari mumkin. Cheklashlarning Paktda alohida qayd etilgan huquqlarga ta'siri bo'lishi mumkin emas. Bular: yashash huquqiga ega bo'lish, qiynoqni taqiqlash, qulchilik, odil sudlov va hokazo. Qabul qilingan cheklashlar to'g'risida ishtirok etuvchi davlatlar BMTning Bosh kotibi orqali Paktning boshqa ishtirokchi-a'zolarini xabardor qilishi lozim. Paktda qayd etilgan ayrim huquqlardan foydalanishda davlat cheklash o'rnatishi mumkin. Bu cheklashlar qonunda o'z ifodasini topishi shart. Ular davlat xavfsizligini va ijtimoiy tartibini, aholining sog'lig'i yoki axloqiy udumlarini, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, Paktda qabul qilingan boshqa huquqlarga mos bo'ladi.

Har bir Paktda unda ko'rsatilgan me'yor va tamoyillarni amalga oshirishga qaratilgan bir qancha qoidalar keltirilgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq, unda qatnashuvchi har bir davlat BMT Bosh kotibiga Paktga e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda erishilgan yutuqlar va tadbirlar to'g'risida ma'ruza berib turishni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash vaqti-vaqti bilan Bosh Assambleyaga umumiy tusdagi tavsiyanomalar bilan mazkur Paktga ishtirok etayotgan davlatlardan va ixtisoslashgan tashkilotlardan olingan ma'lumotlarning bayoni to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishi mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash BMTning boshqa organlari ularning yordamchi organlari hamda texnikaviy yordam berish bilan mashg'ul bo'lgan va ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning diqqat-e'tiborini mazkur Paktning ushbu qismida eslatib o'tilayotgan ma'ruzalar munosabati bilan paydo bo'layotgan har qanday masalalarga qaratishi mumkinki, bu ana shu organlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida ushbu Paktni tadrijiy yo'sinda amalga oshirishga yordam berishi mumkin bo'lgan xalqaro tadbirlarning nechog'lik maqsadga muvofiqligi xususida qarorlar chiqarishda foydali bo'lishi mumkin (22-modda).

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokollar

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi Fakultativ Protokol 1966-yilning 16-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Fakultativ protokolning birinchi moddasiga binoan, Paktga qatnashuvchi davlatlar Protokolning qatnashuvchilari bo'lib, ular Inson huquqlari to'g'risidagi qo'mita vakolatini oladi. Protokolda ishtirok etuvchi davlatda inson huquqlarining buzilish hollari ro'y bersa, u Qo'mitaga olti oy ichida yozma tushuntirish xati yuborishi kerak. Bu Protokolga muvofiq, alohida shaxslar o'z huquqlari buzilgan hollarda, o'z davlatlari ustidan Qo'mitaga murojaat qilishlari mumkin. Qo'mita o'zining yopiq majlislarida alohida shaxslardan hamda manfaatdor davlatlardan kelgan yozma axborotlarni ko'rib, o'z mulohazasini ishlab chiqadi va uni alohida shaxslarga, davlatlarga yuboradi. Bu sohada qilingan ishlar bo'yicha qisqartirilgan axborot har yili Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va ijtimoiy kengash ma'ruzasi orqali yuboriladi. Ushbu protokol 14 moddadan iborat bo'lib, ushbu moddalarda, yuqoridagilardan tashqari, shikoyatni taqdim etish tartibi (1-3-moddalar), qo'mitaning shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi (4-5-moddalar), Protokolga qo'shilish (8-modda) yoki uni denonsatsiya qilish (12-modda) tartibi, protokolning kuchga kirishi (9-10-moddalar), unga o'zgartirishlar kiritish tartibi (11-modda), BMT

Bosh kotibi tomonidan imzolash, ratifikatsiya, denonsatsiyalar, protokolning kuchga kirishiga doir masalalar bo'yicha a'zo-davlatlarga xabar berish tartiblari (13-modda) ko'rsatib o'tilgan.

1989-yil 15-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ikkinchi Fakultativ protokolni qabul qildi. Unda o'lim jazosidan voz kechish ko'zda tutilgan. Protokol 1991-yil iyul oyidan kuchga kirdi. Bu Protokolga muvofiq, qatnashuvchi davlatlar o'z qonunchiligida va amaliyotda o'lim jazosini qo'llashdan voz kechishlari shart. Protokol 1991-yil iyul oyidan kuchga kirdi. Ushbu Protokol Muqaddima va 11 moddadan iboratdir. Protokolning 1-moddasida "Ushbu protokolga a'zo-davlat yurisdiksiyasi ostidagi hech bir kishi o'lim jazosiga tortilmasligi kerak" deb qayd etib o'tilgan. 2-moddaning 1-bandida protokolga hech qanday qo'shimcha shart qilishi mumkin emasligi va urush vaqti bundan mustasno ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ya'ni, umumiy gumanitar huquq xarakteridan kelib chiqib, urush qoidalarini qo'pol ravishda buzib, qurolli mojaro vaqtida jiddiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosi saqlanib qoladi. 3-, 4-moddalarda esa, a'zo-davlatlarning ma'ruzalari va xabarlarining Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan qabul qilinishiga oid masalalar ko'rib chiqiladi. I fakultativ protokol asosida tashkil etilgan Qo'mita ushbu protokol bo'yicha taqdim etiladigan ma'ruza va xabarlarni ham ko'rib chiqish huquqiga egadir.

4. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill

O'zbekiston davlati o'z mustaqilligini mustakamlab borish bilan birga, o'zining ichki va tashqi siyosatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan demokratik tamoyillar va normalarga har tomonlama yondashishini bayon etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining Oliy Majlisning navbatdagi I chaqiriq VI sessiyasida so'zlagan nutqida shu to'g'risida fikr yuritib, jumladan, shunday dedi: *"...navbatdagi muhim masala respublikaning qonun hujjatlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiq holga keltirishdir"*¹.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro hujjatlarga qo'shilar ekan, bevosita ularda mavjud qoida va me'yorlarni bajarish hamda o'z ichki qonunchiligida ushbu me'yorlarni aks ettirish va ularni samarali ravishda amalga oshirish majburiyatini oladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I chaqiriq, VI sessiyasida so'zlagan nutqidan. //Xalq so'zi. 1996-yil 29-avgust.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (bundan buyon Deklaratsiya) 1-moddasida barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'ilishi to'g'risidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Jinoyat kodeksida fuqarolarning teng huquqliligini bu-zish jinoyat hisoblanib, javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi ko'rsatilgan. Deklaratsiyaning 5-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (bundan buyon FSHXP)ning 7-moddasida hech kim azob-uqubatga yoki vahshiylarcha, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlaydigan muomala va jazoga mustahiq bo'lmasligi kerakligi belgilangan. Konstitutsiyamizning 26-moddasi 2-bandida ham bu qoida mustahkamlab qo'yilgan. Jinoyat kodeksida bunday harakatlar og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Deklaratsiya va FSHXP har kimning o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va turarjoy daxlsizligi huquqini belgilab beradi. Konstitutsiyamiz ham ushbu huquqlarni o'zida mujassamlashtirgan. Jinoyat kodeksi tuhmat uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan mazkur harakatning qayta sodir etilishiga nisbatan jinoiy javobgarlik kelib chiqishini belgilaydi. Kodeksda shaxsning qadr-qimmatini qasddan yerga urganlik uchun ham (ma'muriy jazo chorasi qo'llangandan so'ng qayta sodir etilsa) jinoiy javobgarlik belgilanadi. Jinoyat kodeksiga binoan, uy-joyga u yerda yashovchilarning erkiga qarshi, zo'rlik ishlatib noqonuniy tarzda kirish 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari bilan yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanishi mumkin.

Deklaratsiyaning 15-moddasi har bir insonning fuqarolik huquqi mavjudligini belgilaydi. Konstitutsiyamizning 21-moddasi va "Fuqarolik to'g'risida"gi qonun (1992-yil 2-iyulda qabul qilingan) yuqoridagi qoidalarni o'zlarida mujassamlashtirgan. Prezidentimiz I.A. Karimov fuqarolik masalalariga to'xtalar ekan, shunday fikrlarni bildiradi: *"Shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir"*¹. Prezident I.A. Karimov yagona fuqarolik haqida to'xtalib: *"Ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bewatanlik bilan barobar-dir"*², – deb ta'kidlagan edi.

Deklaratsiya hamda FSHXPda mavjud so'z va fikr, axborot olish erkinligi masalasi Konstitutsiyamizning 29, 30-moddalarda yoritib berilgan. Bu qoidalar "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida" (2003-yil),

1 Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: "O'zbekiston", 1993. – B. 9.

2 O'sha manba. – B. 10.

“Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida” (1997-yil), “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida” (1993-yil), “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” (1997-yil) qonunlarda, shuningdek, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida o‘z ifodasini topgan.

Deklaratsiyaning 20-moddasi hamda FSHXPning 21-, 22-moddalarida har bir insonning osoyishta yig‘ilishlar o‘tkazish va uyushmalar tuzish huquqi mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning 33-, 34- va 57-moddalarida yuqoridagi masalaga doir asosiy me‘yorlar belgilab qo‘yilgan. Fuqarolarning ushbu huquqi “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida” (1991-yil 15-fevral), “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” (1992-yil 2-iyul), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” (1996-yil 26-dekabr), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999-yil) qonunlarda o‘z ifodasini topgan.

Deklaratsiya hamda FSHXPda mavjud insonlarning bevosita va vakillar vositasida mamlakat boshqaruvida ishtirok etish, davlat xizmatiga kirish huquqi va xalq hokimiyati to‘g‘risidagi qoidalarini Konstitutsiyamizning 32-moddasida, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr), “O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr), 2002-yildagi “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari to‘g‘risida”, 2002-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”, 2002-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”, 2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida” (yangi tahrirda), 2004-yildagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a‘zosini chaqirib olish to‘g‘risida”gi qonunlarda uchratishimiz mumkin.

Ijtimoiy himoya va ta‘minot to‘g‘risidagi me‘yorlar Deklaratsiyaning 22-moddasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (bundan buyon IIMHXP)ning 9-moddasida belgilab qo‘yilgan. Bu masala Konstitutsiyaning 39-moddasida, shuningdek, “Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunlarda ham o‘z ifodasini topgan. Prezidentimiz Islom Karimov ham bu xususda “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” kitobida: *“Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash... eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi”*¹, – deb ta‘kidlagan.

1 Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1993, – B. 74.

Deklaratsiya hamda IIMHXPda har bir insonning mehnat qilish, teng mehnatga teng haq olish, kasaba uyushmalari tuzish, dam olish va haq to'lanadigan ta'tillar olish huquqlari ham belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning 37-moddasi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va kafolatlari to'g'risida" (1992-yil 2-iyul), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (1998-yil 1-may), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar ham shaxsning mehnat qilish va u bilan bog'liq boshqa huquqlarini kafolatlaydi. XMTning 1935-yil 22-iyundagi Konvensiyasida ish haftasining 40 soatlik muhlati va qoidasi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ham haftalik ish vaqtining davomiyligi 40 soatdan oshmasligi, ta'tilning eng kam muddati 15 ish kunidan kam bo'lmasligi ko'zda tutilgan.

Bilim olish huquqi Deklaratsiyaning 26-moddasi hamda IIMHXPning 13-, 14-moddalarida, 1960-yil 14-dekabrda Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya moddalarida, shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ham yuqoridagi me'yorlarni o'zida aks ettirgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Birinchi Fakultativ protokoliga 1995-yilda qo'shilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari o'zlarining Paktda ko'zda tutilgan huquqlari va erkinliklarining buzilish holatlari bo'yicha, Protokolda ko'zda tutilgan shartlarga muvofiq ravishda BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga murojaat qilish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1-yanvaridan o'lim jazosining bekor qilinishi, unga Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir, ushbu o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchi Fakultativ protokolga qo'shilishga imkon berdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2008-yilning 10-dekabrda mamlakatimizning ushbu hujjatga qo'shilganligini tasdiqladi¹.

1 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir, o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchi Fakultativ protokol (Nyu-York, 1989-yil 15-dekabr)ga qo'shilishi haqida"gi Qonuni. //Xalq so'zi. 2008-yil 11-dekabr.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill deganda nimani tushunasiz?*
2. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi va uning qabul qilinish tarixini tushuntirib bering.*
3. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tuzilishi va mazmuni haqida so'zlab bering.*
4. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tarixiy ahamiyatini tushuntirib bering.*
5. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarning ishlab chiqilishi va ularning qabul qilinish tarixini tushuntirib bering.*
6. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning mazmun-mohiyati to'g'risida nima deya olasiz?*
7. *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
8. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokolning mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.*
9. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga 2-Fakultativ protokolning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.*
10. *O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill hujjatlariga qo'shilishi va ularning normalarining milliy qonunchilikka implementatsiyasini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2010. – 368 b.
2. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
3. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 312.
4. UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari: to'plam / L. Saidova tahriri ostida. – T.: Adolat, 2004.
5. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. – 520 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalar. – T.: Adolat, 2002. – 270 b.

7. Balog‘atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/ Международные документы по правам несовершеннолетних. – T.: Adolat. 2002. – 231 b.

8. Jeneva konvensiyalari to‘plami. / A.X. Saidov tahriri ostida. – Toshkent, 2002.

9. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O‘zbekcha nashri uchun mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 240 b.

10. UNESCO and Human Rights. Standart-setting instruments. Major mettings. Publications. UNESCO. 2007

8-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro (mintaqaviy) mexanizmi

1. Inson huquqlarini himoya qilishda universal hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlikka.
2. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimi.
3. Inson huquqlarini himoya qilishning Amerika tizimi.
4. Inson huquqlarini himoya qilishning Afrika tizimi.
5. Inson huquqlarini himoya qilishning Osiyo-arab tizimi.
6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tizimning tavsifi

1. Inson huquqlarini himoya qilishda universal hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlikka

Xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, turli tadbirlar hamda ushbu tashkilot va davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati kabi muhim masalalar ushbu sohani mukammal o'rganishni va har tomonlama chuqur tahlil etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmlarni ko'rib chiqish va ularni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Chunki, turli mintaqalarda inson huquqlarini himoya qilishni universal himoya qilishga nisbatan mukammal va samaraliroq amalga oshirish mumkin. Butun dunyodagi davlatlarning bir-birini o'zaro tushunishidan ko'ra, biror mintaqadagi davlatlar bir-birini tushunishi tezroq kechishi mumkin.

Ma'lumki, davlatlarning inson huquqlariga oid xalqaro hamkorligi turli shakllarda ifodalanadi: ya'ni, davlatlar insonning qanday huquq va erkinliklari hurmat qilinishi va amal qilinishi lozimligi bo'yicha yagona universal standartlar ishlab chiqadilar; davlatlar xalqaro kelishuvlar bo'yicha majburiyatlar olishida, o'zining milliy tartibotini o'rnatishi doirasida ushbu standartlarga rioya qiladilar; davlatlar o'zlariga olgan majburiyatlariga rioya qilishlarini nazorat qilish bo'yicha maxsus nazorat mexanizmini tuzadilar. Hamkorlikning bunday shakllari, odatda, xalqaro tashkilotlar doirasida amalga oshiriladi.

Xalqaro tashkilotlar, odatda, xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlarga bo'linadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar esa, o'z navbatida, universal va mintaqaviy tashkilotlarga bo'linadi. Universal xalqaro tashkilotlarga BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari kiradi. Bu

tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyati xususida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning faoliyati katta ahamiyatga egadir. Chunki, bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga, avvalambor, umumbashariy masala sifatida qaralmoqda.

Umumbashariy darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi va uning Nizomini ta'sis etilishi insoniyat tarixida muhim siyosiy voqea bo'ldi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida ushbu xalqaro Tashkilotning asosiy maqsad va tamoyillaridan biri – insonning barcha huquq va erkinliklarini ta'minlash, samarali amalga oshirish va ularga rioya qilishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadlaridan biri – insonning barcha huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirish va ularga rioya qilishdan iborat. Shu maqsadda BMT o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va uni hurmat qilish tamoyili asosida amalga oshirmoqda. BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati, tashkilot doirasidagi mexanizmlar to'g'risida "Inson huquqlarini himoya qilishda BMTning o'rni va roli" mavzusidagi bobda batafsil to'xtalib o'tgan edik.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson huquqlari va erkinliklarining amalga oshishini nazorat qiluvchi universal xalqaro tashkilotlar bilan bir qatorda mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, uning a'zolari ma'lum geografik mintaqa davlatlari bo'lishlari mumkin. Bunday tashkilotlarning faoliyati xavfsizlik, iqtisod, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalaridagi mintaqaviy xalqaro hamkorlikka qaratilgan bo'ladi.

BMT Nizomida bunday tashkilotlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Jumladan, ularning tashkil etilish maqsadlari va faoliyati BMT Nizomini maqsad va tamoyillariga to'g'ri kelishi va bu tashkilotlar BMTning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalaridagi huquqiy muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatiga ko'maklashishi lozim.

Barcha a'zo-davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi BMT Nizomi asosida tashkil etilgan hamda BMT tomonidan qabul qilingan shartnomalar asosida ta'sis etilgan universal tizimlarni e'tirof etish bilan bir qatorda, Amerika, Afrika va Yevropa qit'alaridagi ko'plab davlatlar huquqiy jihatdan mintaqaviy darajada bajarilishi majburiy bo'lgan inson huquqlariga doir shartnomalar qabul qilgan bo'lib, bu shartnomalarning bajarilishi yuzasidan xalqaro monitoring olib boruvchi idoralar vakolatlarini tan olganlar. Inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy shartnomalar va ularning amalga tatbiq etilishi bo'yicha monitoring olib boruvchi yagona mintaqaviy mexanizm Osiyo va Tinch okeani mintaqasida hanuzgacha ishlab chiqilgani yo'q.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida inson huquqlarini himoya qilishning o'ziga xos modellari vujudga keldi. Bunday modellar ko'p jihatdan universal tizimdan o'zining samaradorligini ham ko'rsatdi. Bunday mintaqaviy tashkilotlarga Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimi, Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Amerika tizimi, Inson huquqlari va xalqlar huquqini himoya qilish bo'yicha Afrika tizimi, Inson huquqlari bo'yicha Doimiy arab komissiyasi, MDH doirasida qabul qilingan 1995-yil 26-maydagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha MDH konvensiyalarini kiritish mumkin.

Demak, inson huquqlariga oid xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi bu boradagi universallikni e'tirof etish bilan bir qatorda mintaqaviy darajada himoya qilish tizimining shakllanishi va uni yanada tezlik bilan takomillashishiga sabab bo'lmoqda.

2. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimi

Hozirda alohida mamlakatlarda inson huquqlari himoyasini ko'rib chiqish borasidagi xalqaro hamjamiyat huquqlarining kengayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu, ayniqsa, umumyevropa jarayoni doirasida ko'zga tashlanadi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hujjatlarida, xususan, 1991-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Insoniylik mezonlari to'g'risidagi konferensiya hujjatlarida "inson huquqlari, asosiy erkinliklari, demokratiya va qonun ustuvorligi xalqaro xarakterga ega, chunki, ushbu huquq va erkinliklarga rioya qilish xalqaro huquqiy tartibot asoslaridan birini tashkil qiladi", – deb ta'kidlanadi. Shu hujjatning o'zida ishtirokchidavlatlar to'g'risida "ular tomonidan YeXHT insoniylik mezonlari bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar har bir ishtirokchi-davlat uchun bevosita va qonuniy manfaatga ega bo'lgan masala hisoblanadi" deb ta'kidlanadi va inson huquqlari masalasi tegishli davlatning mutlaq ichki vakolatiga taalluqligina masala bo'lib qolmayotganini va bu masala har bir davlat xalqaro hamkorligining obyektiga aylanganligini ko'rsatib o'tadi.

Yevropa Kengashi inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida. Yevropada inson huquqlari va erkinliklarini himoya etish bilan shug'ullanuvchi eng mo'tabar va nufuzli tashkilot Yevropa Kengashi hisoblanadi. 1949-yilning 5-may kuni London shahrida qabul qilingan Statut (Nizomning)ning 1-moddasiga binoan, mazkur Kengashning maqsadi o'z a'zolarining "mushtarak merosi bo'lgan hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy ravnaq topishini kuchaytirishga yordam beradigan" g'oyalari bilan tamoyillarini saqlab qolish hamda bunday g'oya va tamoyillarni ro'yobga chiqarish muddaosini ko'zlab, a'zolar birligiga erishishdan iborat.

Yevropa Kengashi 1949-yil 5-mayda 10 mamlakatdan kelgan ish-tirokchi-davlatlar tomonidan tashkil etildi. Uning a'zolari soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2012-yilga kelib, ularning soni 47 taga yetdi. Uning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat: inson huquqlari himoyasi, plyuralistik demokratiyani targ'ib etish; ozchilikni tashkil qiluvchi hamda boshqa millat va diniy guruh vakillariga nisbatan notolerantlik munosabat va ksenofobiya bilan bog'liq muammolar yechimini izlash; buyuk Yevropa birlashuviga xizmat qilish hamda mustaqillik va matbuot plyuralizmini mustahkamlashdir.

Kengash ikki asosiy organdan iborat: Vazirlar Qo'mitasi va Parlament Assambleyasi. Vazirlar Qo'mitasi qarorlar qabul qiladigan organ bo'lib, a'zo-davlatlarning tashqi ishlar vazirlaridan iborat. Yilda ikki marotaba yig'iladi va maxsus sessiyalar ham o'tkazilishi mumkin. Rais har olti oyda almashadi. Parlament Assambleyasi a'zo-davlatlarning milliy parlamentlari tomonidan tayinlangan vakillaridan iborat.

Bugungi kunda Yevropa Kengashi jahondagi yirik tashkilotlardan biri bo'lishi bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya etish borasida nufuzli tuzilma ham hisoblanadi. Shuni e'tiborga loyiqki, inson huquqlariga rioya etish tamoyili Yevropa Kengashi Nizomi (Statuti)da mustahkamlab berilgan. Mazkur hujjatning 3-moddasida ta'kidlab ko'rsatilishicha, "Yevropa Kengashining har bir a'zosi qonun ustuvorligi tamoyilini hamda har qanday shaxs qaysi tamoyilning yurisdiksiyasi ostida bo'lganda inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanadigan bo'lsa, xuddi shu tamoyilni e'tirof etadi"¹. Inson huquqlarini va uning asosiy erkinliklarini jiddiy tarzda buzish Yevropa Kengashiga a'zolikni to'xtatib qo'yish va hatto, a'zolikdan chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. Mazkur Tashkilot tomonidan bu yo'nalishda olib borilgan ishlarning amaliy samarasi shuki, Yevropa Kengashining faoliyati mobaynida 200 ga yaqin konvensiya, shu jumladan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi qabul qilingan². Yevropa miqyosida qabul qilingan 10 ta konvensiya va bitim, shu jumladan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va Ijtimoiy xartiya yopiq hujjatlar hisoblanadi. Boshqa hujjatlar esa, ochiq yoki qisman ochiq xususiyatga ega.

Yevropa Kengashining nazoratni amalga oshirish mexanizmi tarkibiga Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va Yevropa Vazirlar qo'mitasi kiradi. Yevropa konvensiyasiga muvofiq tashkil topgan inson huquqlarini himoya

1 Устав Совета Европы // Международное сотрудничество в области прав человека: Документы и материалы. – М.: 1993. Вып.2. – С. 121.

2 Право Совета Европы и Россия (сборник документов, материалов). – Краснодар, 1996.

etish mexanizmi Yevropa Kengashiga a'zo-davlatlarning davlat suverenitetini mutlaqlashtirishda qaror topgan andozalardan voz kechishni taqozo etadi.

1950-yilda qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi o'zida ko'pgina huquqlarni, chunonchi, yashash huquqi, qiynoqlarga duchor etilmaslik huquqi va qullikdan ozod bo'lish huquqini kafolatlagan edi.

Yevropa konvensiyasida qo'shimcha protokollar, shu jumladan, mol-mulkka egalik qilish huquqi va ta'lim olish huquqi to'g'risidagi protokol (1-protokol) qabul qilinishi natijasida huquqlar doirasi yanada kengayib bordi. Hozirgi paytgacha mazkur Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasiga 14 ta qo'shimcha protokol qabul qilingan.

1961-yilda qabul qilingan Yevropa ijtimoiy xartiyasi ham Yevropa konvensiyasi singari Yevropa Kengashi rahnamoligi ostida ishlab chiqilgan. Mazkur Xartiya fuqarolik va siyosiy huquqlarni kafolatlovchi konvensiyani iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoya etish uchun mintaqaviy yevropacha tizim yaratish yo'li bilan to'ldiradi. Shu Xartiyaga muvofiq, davlatlarning ular o'z majburiyatlariga qanday rioya etayotganligini nazorat etib borishni ta'minlaydigan ma'ruzalarni taqdim etish tizimi ishlab chiqilgan.

Yevropa Kengashi tomonidan shaxsiy ma'lumotlar va axborotlarni himoya qilish, mehnatkash-migrantlar, ozchilikka mansub xalqlar va shaxslar, qiynoqlardan foydalanish amaliyotining oldini olish hamda biotibbiyot sohasiga tegishli bir qator maxsus shartnomalar qabul qilingan.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha Yevropa konvensiyasi nafaqat inson huquqlari doirasidagi asosiy huquqlarni e'lon qildi, balki ularni himoya qilishning o'ziga xos mexanizmini ham tashkil etdi. Dastlab, ushbu mexanizm uchta organdan iborat edi: Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va Yevropa kengashining Vazirlar qo'mitasi. 1998-yilning 1-noyabridan Yevropa konvensiyasining 11-sonli protokoli kuchga kirishi bilan Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi bitta, doimiy faoliyat yurituvchi organ – Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga birlashtirildi. Uning joylashgan joyi sifatida Strasburgdagi Inson huquqlari saroyi (Fransiya) tanlandi, Yevropa Kengashi ham shu yerda joylashgan.

Dastlabki tizimga muvofiq, individlar yoki Konvensiya a'zolari bo'lgan davlatlar tomonidan taqdim etilgan shikoyatlar dastlab Inson huquqlari bo'yicha Yevropa komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan va u shikoyatlarni maqbulligi bo'yicha ko'rib chiqqach, u maqbul deb topilsa,

yakuniy, majburiy hal qiluvchi qarorini qabul qilish uchun Sudga berilgan. Agar ish Sudga berilmasa, u Vazirlar qo'mitasi tomonidan hal etilgan. 1994-yilning 1-oktabridan boshlab, Komissiya tomonidan maqbul deb topilgan shikoyatlarni murojaat qiluvchilarning o'zlari Sudga berishlari mumkinligi huquqi berildi. Konvensiyaga qo'shimcha 11-Protokol kuchga kirgandan boshlab, mazkur Komissiya faoliyatiga dahldor barcha vazifalar Sudning o'ziga yuklatildi va hozirda individlar to'g'ridan-to'g'ri Sudga murojaat qilishi mumkin. Sudning o'zi shikoyatning daxldorligi va maqbulligini ko'rib chiqadi.

Yevropa konvensiyasiga binoan, Sud dastlab faqat taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha yurisdiksiyaga ega edi, xolos. 1970-yilda Konvensiyaga doir Protokol kuchga kirganligi natijasida mazkur Sud maslahat yurisdiksiyasiga ham ega bo'lgan. Konvensiyaga muvofiq, bu Sudga individlar, ya'ni ayrim shaxslar murojaat qilish huquqiga ega. Umuman, bu sud insonni xalqaro huquqning cheklangan subyekti sifatida e'tirof etishga asos bo'ladigan yurisdiksiyaga ega. Ya'ni, bilamizki, xalqaro huquqqa muvofiq, individlar o'z davlati ustidan BMTning Xalqaro sudiga murojaat qilish huquqiga ega emaslar, chunki ushbu Xalqaro sudning Statuti individlarni Sudning tomonlari sifatida e'tirof etmaydi. Ammo, Yevropa sudi, birinchi o'rinda, individlarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan bo'lib, bu sohada samarali sudlov tizimi hisoblanadi. Sudga, shuningdek, boshqa davlatlarning fuqarolari ham murojaat etishi mumkin, agar ularning huquqlari Sudning yurisdiksiyasini tan olgan davlatlar hududida buzilgan bo'lsa.

Bugungi kunda Yevropa konvensiyasi davlatlar yurisdiksiyasidan-da huquqiy jihatdan ustuvor bo'lgan inson huquqlari bo'yicha monitoring olib borishning ilg'or tizimi sifatida e'tirof etiladi. Sud tomonidan qabul qilinadigan qarorlar yakuniy bo'lib, ularning ishtirokchi-davlatlar tomonidan bajarilishi huquqiy jihatdan majburiydir. Ushbu qarorlarning bajarilishi ustidan Yevropa Kengashining oliy siyosiy idorasi hisoblanmish Vazirlar qo'mitasi monitoring olib boradi.

1998-yili kuchga kirgan Yevropa Ijtimoiy xartiyasiga qo'shimcha Protokolga muvofiq, ayrim tashkilotlarga Ijtimoiy huquqlar bo'yicha Yevropa qo'mitasiga ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi berilgan. Shikoyat yoki ariza taalluqli deb topilgan taqdirda, taomil harakatga kelib, ish bo'yicha Qo'mita tomonidan tegishli qaror qabul qilinadi. Qaror ma'ruza orqali ishga aloqador tomonlarga va Vazirlar qo'mitasiga yuborilib, to'rt oy ichida jamoatchilikka ma'lum qilinishi shart. Va nihoyat, Vazirlar qo'mitasi tomonidan mavjud holatning Xartiya talablariga

mos kelishini ta'minlash borasida tegishli tomonga maxsus chora-tadbirlar ko'rishi tavsiya etiladigan rezolyutsiya qabul qilinadi.

Hozirgacha Yevropa kengashi doirasida inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan eng muhim xalqaro shartnomalar ro'yxatini quyidagicha berish mumkin:

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950–1953) va unga qo'shimcha 14 ta Fakultativ protokol;

Yevropa Ijtimoiy xartiyasi (1961–1965), unga qo'shimcha Fakultativ protokollar va yangi tahrirdagi Yevropa Ijtimoiy xartiyasi (1996–1999);

Mehnatkash-migrantlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1977–1983);

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Yevropa konvensiyasi (1987–1989);

Mintaqaviy yoki ozchilikka mansub xalqlar so'zlashadigan tillar to'g'risidagi Yevropa xartiyasi (1992–1998);

Milliy ozchilikka mansub shaxslarni himoya qilish bo'yicha namunaviy konvensiya (1995–1998);

Bolalarning huquqlarini amalga oshirish bo'yicha Yevropa konvensiyasi (1996–2000);

Inson huquqlari va Biotibbiyot bo'yicha konvensiya (1997–1999);

Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1997–2000).

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. 1975-yilda imzolangan Xelsinki Yakunlovchi hujjati Yevropada xavfsizlik va Hamkorlik konferensiyasi olib borgan ishlar samarasining cho'qqisi bo'lgan. Sharqiy va G'arbiy Yevropadagi barcha suveren davlatlar, shuningdek, AQSh va Kanada ishtirokidagi Kengash tomonidan qabul qilingan Yakunlovchi hujjat hukumatlar uchun yuridik jihatdan majburiy shartnoma emas edi. Shunga qaramay, u siyosiy ahamiyatga molik g'oyat muhim hujjat hisoblanadi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi tomonidan qabul qilingan keyingi muhim hujjatlar orasida Vena (1989-yil) va Kopengagen (1990-yil) uchrashuvlarining yakuniy hujjatlarini, shuningdek, Yangi Yevropa uchun mo'ljallangan Parij xartiyasini (1990-yil)¹ alohida ta'kidlash kerak.

Budapesht kengashining 1994-yildagi qaroriga muvofiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YeXHK) Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT) sifatida qayta tashkil etildi. Qarorda YeXHTning quyidagi maqsadlari belgilab berildi:

1 Qarang: Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. – Toshkent, 2002.

1) yalpi xavfsizlik hududlarini yaratish yo'lida norma va standartlardan qat'iyat bilan foydalanish;

2) YeXHKning barcha majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

3) maslahatlashish, qarorlar qabul qilish va hamkorlik qilish uchun forum vazifasini o'tash;

4) preventiv diplomatiyani kuchaytirish;

5) nizo va mojarolarni tartibga solish va tinchlik o'rnatish operatsiyalarini amalga oshirish layoqatini yanada oshirish;

6) qurollar va qurolsizlanish bo'yicha nazoratni amalga oshirish yo'li bilan xavfsizlikni mustahkamlash;

7) inson huquqlari sohasidagi faoliyatni rivojlantirish.

Mustahkam bozor iqtisodiyotini joriy etish yo'lida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat maqsad, ayniqsa, e'tiborga sazovordir.

YeXHTga Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, shuningdek, MDHning barcha davlatlari, shu jumladan, Osiyoda joylashgan MDH davlatlari ham a'zo hisoblanadi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, dastlab, ya'ni 1970-yillarning boshida Sharq va G'arb o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik va o'zaro munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi nomi bilan tashkil qilingan.

1975-yil 1-avgustda Xelsinkida yig'ilgan 35 davlat boshliqlari Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining Xelsinki Yakunlovchi Aktini imzoladilar. Bu yakunlovchi akt Xelsinki Kelishuvi¹ nomi bilan mashhur bo'lib, unda ishtirok etuvchi davlatlar o'rtasidagi munosabat va hukumatlarning o'z fuqarolari o'rtasidagi munosabatlarning tamoyillari belgilandi.

Xelsinki Yakunlovchi Akti bilan YeXHKning rivojlanish jarayoniga asos solindi. Uning mazmuni bo'yicha uchta asosiy hujjat ishlab chiqildi:

1. Yevropa xavfsizligiga bog'liq masalalar;

2. Iqtisodiyot, fan va texnika hamda atrof-muhit sohalarida hamkorlik;

3. Gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlik.

O'tgan asrimizning 90-yillarida xalqaro maydonda ro'y bergan tub siyosiy o'zgarishlar YeXHKning davlatlararo munosabatlardagi rolining oshishiga, uning huquq va majburiyatlarining yanada kengayishiga olib keldi. Shunga ko'ra, bu YeXHK a'zolarining 1994-yil Budapeshtda bo'lgan Oliy darajadagi uchrashuvi, uni shunchaki oddiy Kengash emas, balki Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti deb atashga qaror qildi.

¹ O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. // Murodov H. va boshqalar. – T.: "Adabiyot va san'at", 2000. – B. 43.

1990-yilda Parijda imzolangan Yangi Yevropa uchun xartiya mazkur Tashkilot tarixida muhim burilish bo'ldi. Unda bu Tashkilotning kelajak faoliyati uchun yangi yo'nalishlari belgilandi va doimiy harakatdagi yangi institutlar, ya'ni Venada Nizolarni (kelishmovchiliklarni) bartaraf qilish bo'yicha markaz; Varshavada Erkin saylovlar bo'yicha byuro; Pragada Kotibiyat tashkil qilindi. Xartiyaga asosan tashkilotning uchta asosiy siyosiy maslahatlashuv organi tasdiqlandi.

Jumladan, *YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi* quyidagilarni amalga oshiradi:

- saylovlarda kuzatuvchilik vazifasini bajaradi va milliy saylov organlarining vujudga kelishida ko'maklashadi;
- inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning rivojlanishiga ko'maklashadi va texnikaviy yordam beradi;
- turli mamlakatlarda nodavlat tashkilotlarining tashkil etilishi va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga yordam beradi;
- a'zo-mamlakatlarda inson huquqlarining ahvolini o'rganadi, bu mamlakatlardagi saylovlarga o'z kuzatuvchilarini, jurnalistlarni jo'natadi.

Doimiy kengashning iltimosiga ko'ra, YeXHT seminarlarini o'tkazishda texnikaviy yordam ko'rsatadi va Tashkilot maxsus loyihalarining amalga oshirilishida ko'maklashadi.

Nizolarning oldini olish va tugatilishida YeXHTning kam sonli mil-latlar bo'yicha Oliy Komissari institutining ham roli katta. Oliy komissar nizolarning iloji boricha barvaqt tahlil qilinishi va bartaraf etilishi choralari ko'radi. Konsultatsiyalar o'tkazish va tavsiyalar berish yo'li bilan nizodagi tomonlarni to'qnashuvlarga bormaslikka chaqiradi.

Hozirgi kunda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – tarkibiga 57 mamlakat a'zo bo'lgan xavfsizlik masalalari bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy tashkilotidir. Uning ta'sis etuvchi hujjatlari: 1975-yilda Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjat; 1990-yilda Parijda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun xartiya va unga qo'shimcha hujjat; 1992-yil Xelsinkida qabul qilingan "O'zgarishlar vaqti chaqirig'i" deklaratsiyasi – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining asosiy faoliyat yo'nalishlari va tuzilishini belgilovchi paket hisoblanadi. Shunga muvofiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining asosiy faoliyat sohalari: xavfsizlik, qurolsizlanish, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya, inson huquqlari, erkinliklari va boshqa masalalarda hamkorlik qilishdan iborat.

YeXHT Nizomiga ko'ra, Yevropadagi nizolarning oldini olish va ularning yechimini topish maqsadida mintaqaviy tashkilot sifatida tashkil etilgan. Ushbu tashkilot tomonidan uning amal qilish hududida Albaniya,

Bosniya va Gersegovina, Chernogoriya, Serbiya, Albaniya, Kosovo, Moldovada missiyalari, Belarus, Ozarbayjon, Armanistonda Ofislari, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'izistonda Markazlari va Ukraina, O'zbekistonda Loyihalar koordinatorlari ochilgan.

YeXHTning oliy organi – Davlatlar va hukumatlar boshliqlari kengashidir. Tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topgan Vazirlar kengashi qarorlar qabul qilish va YeXHTni boshqarishda muhim o'rin tutadi. *Boshqaruv kengashi* siyosatni muhokama etadi va shakllantiradi, budjetga oid umumiy masalalarni hal etadi, shuningdek, iqtisodiy masalalarni muhokama etishda o'ziga xos forum bo'lib xizmat qiladi.

Doimiy kengash siyosiy konsultatsiyalar o'tkazish va qarorlar qabul qilish organidir. U a'zo-davlatlarning doimiy vakillaridan tashkil topgan. Ijro faoliyati uchun yalpi javobgarlik amaldagi rais zimmasiga yuklangan bo'lib, u o'z vazifasini vakillar "uchligi" (oldingi rais, amaldagi rais va keyin bo'lishi lozim bo'lgan rais) asosida amalga oshiradi. YeXHT Bosh kotibi asosiy ma'muriy shaxs hisoblanadi.

1991-yilda a'zo-davlatlarning parlamentlararo hamkorlik organi bo'lmish YeXHT Parlament Assambleyasi ta'sis etilgan.

YeXHT Parlament Assambleyasining har yili o'tkaziladigan sessiyalarida tashkilot faoliyatiga tegishli masalalar muhokama etiladi, mintaqada xavfsizlik va hamkorlikni kuchaytirish borasida deklaratsiya, tavsiya va takliflar tayyorlanadi.

YeXHT tashkil topgandan hozirgi kunga qadar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan hududlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilish borasida ham muhim ishlarni amalga oshirmoqda. U BMT tomonidan inson huquqlari va ularni himoya qilishga doir barcha hujjatlarni e'tirof etish hamda ularda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishga intilmoqda. Uning BMT bilan bu boradagi hamkorligi inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamining oshib borishiga yordam bermoqda.

YeXHTning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatida undagi barcha a'zo-davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining o'rni va roli ham alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 30-yanvarda mazkur Tashkilotga a'zo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'sha yilning 26-fevralida 1975-yil 1-avgustda Xelsinkida qabul qilingan Yakunlovchi hujjatni, 1993-yil 27-oktabrda esa, 1990-yil 21-noyabrda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasini imzoladi¹.

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – 282 b.

1995-yilning oktabr oyida Toshkentda YeXHTning Markaziy Osiyo bo'yicha byurosi ochildi. Mazkur Byuroning O'zbekistondagi hozirgi maqomi YeXHTning O'zbekistondagi Loyihalari Koordinatori maqomiga almashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1996-yil 3-dekabr kuni YeXHTning Lissabonda bo'lib o'tgan sammitida ishtirok etib, ushbu anjumanda quyidagi mulohazalarni bildirgan edi:

"O'zbekiston – YeXHTning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan xavfsizlik yaxlitligini to'la qo'llab-quvvatlaydi. Xavfsizlikning, shu jumladan, Yevropa xavfsizligining chegarasi yo'q. Shunga asoslanadigan bo'lsak, bizning nazarimizda, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti – YeXHTning o'rni va ahamiyati, agar ta'bir joiz bo'lsa, mas'uliyati Yevropa doirasi bilangina cheklanib qolishi mumkin emas, balki uning tashqarisidan kelayotgan mavjud xavfni ham, albatta, hisobga olishi kerak bo'ladi.

Mintaqa mojarolari tobora tez-tez terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va g'ayriqonuniy qurol savdosi, inson huquqlarini ommaviy ravishda buzish kabi xavfli xatti-harakatlarning doimiy manbaiga aylanmoqda. Bunday holatlar davlat chegarasi nimaligini bilmaydi. Shu sababli, xalqaro xavfsizlik tizimi geografik belgilarga qarab emas, balki mintaqalararo darajada muvofiqlashtirilgan birgalikdagi harakatlar bilan belgilanishi lozim.

Shu munosabat bilan biz Afg'onistonda 18 yildan buyon urush davom etayotganligidan, bu mamlakat faqat Markaziy Osiyodagi emas, balki butun dunyodagi xavfsizlik uchun hozir o'ta xatarli xavfga, xalqaro terrorizmning, Yevropaga ko'plab miqdorda narkotik moddalar yetkazib berilishining manbaiga – o'ta xatarli markazga aylanib qolganidan YeXHT va boshqa Yevropa tuzilmalari tashvishlanayotgani va xavfsirayotganini mutlaqo asosli, deb bilamiz"¹.

Ushbu anjuman doirasida O'zbekiston o'zining xavfsizlik muammolariga oid nuqtayi nazarini ifoda etish imkoniga ega bo'ldi.

1999-yil 18–19-noyabr kunlari Turkiyaning Istambul shahrida YeXHTga a'zo-mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Anjumanda shu kunning dolzarb muammolari muhokama qilindi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning XXI asrdagi yangi tamoyillari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mazkur uchrashuvdagi nutqi – aniq taklif va mulohazalari bilan yig'ilganlar e'tiborini qozondi. Jumladan, unda YeXHT homiyligida terrorizmga qarshi

1 Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T.: "O'zbekiston", 1997. – B. 249–252.

kurash bo'yicha xalqaro markaz tuzish taklifi o'rta tashlandi. Xalqaro terrorizm bugungi kunda insoniyat xavfsizligiga, mamlakatlar tinchligi va osoyishtaligiga tahdid solayotganligini hisobga olsak, bunday markaz tashkil etilishi naqadar dolzarbligini his etishimiz mumkin. Mamlakati-miz rahbari o'z nutqida terrorchilarni moliyaviy jihatdan ta'minlab, ularning qabih niyati harakatlariga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligini alohida ta'kidladi¹.

YeXHTga a'zo-mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarining Istambuldagi oliy darajadagi uchrashuvida bu nufuzli xalqaro tashkilotning keyingi yillardagi faoliyatiga baho berildi hamda bu boradagi yangi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi va unda Istanbul hujjatlari qabul qilindi.

YeXHTga a'zo-mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarining oliy darajadagi navbatdagi sammiti Ostona (Qozog'iston) shahrida 2010-yilda bo'lib o'tdi va unda Ostona hujjatlari qabul qilindi.

"Insoniylik mezonlari" va "YeXHT huquqi". "Insoniylik mezonlari" atamasi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti ishtirokchi davlatlarining o'z zimmalariga olgan inson huquqlari va asosiy erkinliklari hurmat qilinishini ta'minlash, qonun ustuvorligiga rioya qilish, demokratiya prinsiplari qaror topishiga ko'maklashish va shu bilan bog'liq holda demokratik institutlarni barpo etish, mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek, butun YeXHT mintaqasida bag'rikenglik muhitini yaratish majburiyatlarini anglatadi².

Xelsinki Yakunlovchi hujjatining VII prinsipida qayd qilinganki, ishtirok etuvchi davlatlar irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar hamma uchun "inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, shu jumladan fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligini hurmat qiladilar".

YeXHT normalari barcha ishtirokchi-davlatlarga nisbatan amal qiladi: barcha qarorlar konsensus (kelishuv) asosida qabul qilinganligi tufayli birona ishtirokchi-davlat o'ziga taalluqli bo'lmagan qandaydir majburiyatlarni tasdiqlashga haqli emas. YeXHTning insoniylik mezonlari masalalaridagi strategiyasi shu bilan universalki, uning xavfsizlikni ta'minlashga nisbatan hamkorlikka asoslangan yondashuvi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajara olmaydigan davlatni yakkalab qo'yishga emas, balki unga ko'mak berishga qaratilgandir. Xelsinki Yakunlovchi hujjatida

1 O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. /H.Murodov va boshqalar. – T.: "Adabiyot va san'at", 2000. – B. 43.

2 Qarang: Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar. Uchinchi nashr. /Mas'ul muharrir: A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012.

bayon etilgan majburiyatlar va rahbariy prinsiplar YeXHT kelgusi uch-rashuvlarida qariyb chorak asr davomida o'z rivojini topgan.

Insoniylik mezonlari nuqtayi nazaridan Madrid va Vena uchrashuvlari muhim ahamiyatga ega. Vena uchrashuvida (1986-yil 4-noyabr – 1989-yil 19-noyabr) bu sohadagi ishlarning ahvolini ko'rib chiqish maqsadida YeXHT Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasini chaqirishga qaror qilingan. Konferensiya uch bosqichda Parijda (1989-yil 30 may – 23-iyul), Kopengagenda (1990-yil 5–29-iyun) va Moskvada (1991-yil 10-sentabr – -oktabr) o'tkazildi. Kopengagen hamda Moskva bosqichlari insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlar qabul qilish bilan yakunlandi.

1990-yilgi Kopengagen hujjati (YeXHT Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Kopengagen kengashining hujjati) insoniylik mezonlari bo'yicha birinchi to'liq hujjat bo'lib, u YeXHT doirasida insoniylik mezonlari bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning muhim majmui hisoblanadi. Unda e'lon qilinganidek, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash ishtirokchi-davlatlarning asosiy maqsadlaridan biri hamda ularni e'tirof etish erkinlik, adolat va tinchlik asosi hisoblanadi. Kopengagen hujjati insoniylik mezonlari qamrovini ularga saylovlariga oid majburiyatlarni kiritish bilan kengaytirgan.

1991-yilgi Moskva hujjati (YeXHK Insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Moskva kengashining hujjati) YeXHTning insoniylik mezonlari bo'yicha majburiyatlarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi.

Unda YeXHKning insoniylik mezonlari sohasida qabul qilingan majburiyatlari barcha ishtirokchi-davlatlar uchun qonuniy manfaat hisoblanadi hamda tegishli davlatning mutlaq ichki ishlari sirasiga kirmaydi, deya bayon qilingan. Mazkur prinsip 1992-yilda Xelsinki oliy darajadagi uchrashuvida va 1997-yilda Kopengagenda vazirlar darajasida tasdiqlangan.

Shunday qilib, 1975-yilgi Xelsinki Yakunlovchi hujjati imzolangan paytdan boshlab YeXHTning bir qancha muhim hujjatlari qabul qilingan. Xalqaro huquqqa muvofiq YeXHT hujjatlari yuridik majburiy hujjatlar qatoriga kirmaydi. Shunga qaramasdan, ular konsensus orqali ma'qullangan, barcha ishtirok etuvchi davlatlar uchun ijro etish zarur bo'lgan siyosiy majburiyatlar hisoblanadi¹.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, YeXHTning "Insoniylik mezonlari"ni tashkil etuvchi normalarini tahlil qilish, bugungi kunda xalqaro huquqda "YeXHT huquqlari" deb atalmish, alohida "yumshoq huquq" (soft law) normalarining shakllanganligini ko'rsatmoqda.

¹ Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar. Uchinchi nashr. / Mas'ul muharrir: A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012.

Quyida YeXHTning “Insoniylik mezonlari”ni tashkil etuvchi hujjatlarning ro‘yxati keltirilmoqda:

Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha kengashning Yakunlovchi hujjati, Xelsinki, 1975-yil 1-avgust;

1980-yilgi Madrid uchrashuvining Yakunlovchi hujjati – keyingi qadamlar doirasidagi Ikkinchi uchrashuv, Madrid, 1983-yil 6-sentabr;

1986-yilgi Vena uchrashuvining Yakunlovchi hujjati – keyingi qadamlar doirasidagi Uchinchi uchrashuv, 1989-yil 15-yanvar;

Atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha kengashning xulosalari va tavsiyalari to‘g‘risidagi ma‘ruza, Vena, 1990-yil 5-noyabr;

Yevropada iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha Bonn konferensiyasining hujjatlari, Bonn, 1990-yil 11-aprel;

YeXHKning insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiyasi Kopengagen kengashining hujjati, Kopengagen, 1990-yil;

Yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi, Parij, 1990-yil 21-noyabr;

YeXHK ishtirok etuvchi davlatlarining madaniy meros bo‘yicha Krakov simpoziumi hujjati, Krakov, 1990-yil 6-iyun;

Kam sonli millatlar masalalari bo‘yicha YeXHK ekspertlari kengashining ma‘ruzasi, Jeneva, 1991-yil 19-iyul;

YeXHKning insoniylik mezonlari bo‘yicha konferensiyasi Moskva kengashining hujjati, Moskva, 1991-yil 3-oktabr;

YeXHK Kengashi Ikkinchi uchrashuvining hujjati, Praga, 1992-yil 30–31-yanvar;

1992-yilgi Xelsinki uchrashuvining Yakunlovchi hujjati – keyingi qadamlar doirasidagi To‘rtinchi uchrashuv, Xelsinki, 1992-yil 10-iyul;

YeXHK Kengashi Uchinchi Uchrashuvining hujjati, Stokgolm, 1992-yil 14–15-dekabr;

YeXHK Kengashi To‘rtinchi uchrashuvining hujjati, Rim, 1993-yil 30-noyabr – 1-dekabr;

Budapesht hujjati, Budapesht, 1994-yil 6-dekabr;

Lissabon hujjati, Lissabon, 1996-yil 3-dekabr;

Vazirlar kengashi Oltinchi uchrashuvining hujjati, Kopengagen, 1997-yil 18–19-dekabr;

Vazirlar kengashi Yettinchi uchrashuvining hujjati, Oslo, 1998-yil 2–3-dekabr;

Istambul hujjati, Istanbul, 1999-yil 19-noyabr;

Vazirlar kengashi Sakkizinchi uchrashuvining hujjati, Vena, 2000-yil 27–28-noyabr;

Vazirlar kengashi To‘qqizinchi uchrashuvining hujjati, Buxarest, 2001-yil 3–4-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘ninchi uchrashuvining hujjati, Portu, 2002-yil 6–7-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘n birinchi uchrashuvining hujjati, Maastrixt, 2003-yil 1–2-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘n ikkinchi uchrashuvining hujjati, Sofiya, 2004-yil 6–7-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘n uchinchi uchrashuvining hujjati, Lyublyana, 2005-yil 5–6-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘n to‘rinchi uchrashuvining hujjati, Bryussel, 2006-yil 4–5-dekabr;

Vazirlar kengashi O‘n beshinchi uchrashuvining hujjati, Madrid, 2007-yil 29–30-noyabr;

Vazirlar kengashi O‘n oltinchi uchrashuvining hujjati, Xelsinki, 2008-yil 29–30-noyabr;

Vazirlar kengashi O‘n yettinchi uchrashuvining hujjati, Afina, 2009-yil 1–2-dekabr;

Ostona yubiley deklaratsiyasi, Ostona, 2010-yil 2-dekabr.

3. Inson huquqlarini himoya qilishning Amerika tizimi

Inson huquqlarining Amerika mamlakatlariaro tizimi quyidagi huquqiy manbalarga tayanadi: Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) xartiyasi (ba’zi adabiyotlarda Ustav deyiladi, 1948-yil qabul qilingan va 1951-yil kuchga kirgan), Inson huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risidagi Amerika deklaratsiyasi (1948-y.), Inson huquqlari bo‘yicha Amerika Konvensiyasi (“San-Xose pakti”, 1969-yil qabul qilingan va 1978-yil kuchga kirgan.), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha Amerika konvensiyasiga Protokol (1988-y.), O‘lim jazosini bekor qilish bo‘yicha Amerika konvensiyasiga Protokol (1990-y.), Qiynoqning oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1985-yil qabul qilingan va 1987-yil kuchga kirgan.), Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, uning uchun jazolash va bunday holatlarga barham berish bo‘yicha Amerika davlatlararo Konvensiyasi (“Belem do Para konvensiyasi”, 1994-yil qabul qilingan va 1995-yil kuchga kirgan.), Majburan yo‘qolayotgan inson to‘g‘risidagi Amerikalararo Konvensiya (1994-yil qabul qilingan va 1996-yil kuchga kirgan).

Amerika davlatlari tashkilotining 1951-yilda kuchga kirgan Xartiyasida inson huquqlariga bag'ishlangan qoidalar ko'p emas. Shulardan biri 3 j-modda (endilikda 5 j-modda) bo'lib, unga muvofiq, Ustavni imzolagan davlatlar individlarning asosiy huquqlariga, irqi, millati, dini yoki jinsiga ko'ra biron-bir tarzda farqlamagan holda rioya etish majburiyatini zimmalariga oladilar. Inson huquqlariga tayanadigan yana bir muhim norma 13-moddada (hozirgi 16-modda) mujassam bo'lgan.

Amerika davlatlari tashkiloti xartiyasi tasdiqlangan konferensiyaning o'zida Amerika inson huquqlari va majburiyatlari deklaratsiyasi ham qabul etilib, unda insonning 27 ta huquqi va 10 ta majburiyati e'lon qilingan.

1969-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi fuqarolik va siyosiy huquqlarning o'n ikkita umumiy toifasini, masalan, huquq subyekti ekanligini e'tirof etish huquqi, yashash huquqi, insoniy muomalada bo'lishning ta'minlanishi huquqi, ishni sudda adolatli tarzda muhokama etish huquqi, mulk huquqi, uyushmalar tuzish va ularga kirish erkinligi huquqini kafolatlaydi¹.

Umuman olganda, Amerika davlatlari tashkiloti doirasida qabul qilingan xalqaro shartnomalar ro'yxatini quyidagicha keltirish mumkin:

- Inson huquqlari bo'yicha Amerika Konvensiyasi (1969–1978) va unga qo'shimcha Fakultativ protokollar;

- Qiynoqning oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1985–1987);

- Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, uning uchun jazolash va bunday holatlarga barham berish bo'yicha Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1995);

- Shaxslarning zo'rlik ostida g'oyib bo'lishi to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1996);

- Balog'atga yetmagan bolalar xalqaro traffigi bo'yicha Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1997);

- Nogironlarga qarshi kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1999–2001).

Inson huquqlari bo'yicha Amerika mamlakatlariaro komissiya. Mazkur Komissiya asosiy vazifalari Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika Konvensiyasining 41-moddasida mujassamdir. Bu moddada Komissiya Amerika davlatlari tashkilotining organi sifatidagi vazifalari belgilangan hamda uning Konvensiyaning 44–51-moddalarida ta'rif-

¹ Qarang: Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып. 2. – С. 157–180.

langan “vakolat doirasiga muvofiq petitsiyalar va boshqa xabarlar yuzasidan choralar ko‘rish”ga vakil qilinganligi aytilgan. Komissiya ADTning maslahat organi sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Komissiya a‘zo-davlatlarning so‘roviga ko‘ra yoki uning roziligi bilan joylarga tashriflarni amalga oshirishi, maxsus tadqiqotlarni tayyorlashi, hukumatlarga inson huquqlari himoyasi bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish yuzasidan tavsiyalar berishi va ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida hisobotlarni taqdim etishini so‘rab davlatlarga murojaat qilishi mumkin.

Komissiya Amerika deklaratsiyasida va a‘zo-davlatlarga nisbatan Amerika konvensiyasida mustahkamlab qo‘yilgan huquqlarning buzilishi bilan bog‘liq hollarda jismoniy shaxslardan, bir guruh shaxslardan va nohukumat tashkilotlaridan shikoyatlarni qabul qilishi mumkin. Favqulodda holatlarda esa, Komissiya insonlarni himoya qilish bilan bog‘liq ehtiyot choralarini ko‘rishni talab qilishi mumkin.

Inson huquqlari bo‘yicha Amerika mamlakatlariaro sud, ADT a‘zo-davlatlari tomonidan saylanadigan yetti sudyadan iborat xalqaro tribunal hisoblanib, Kosta-Rikaning San-Xose shahrida joylashgan va taraflar o‘rtasidagi nizolar bo‘yicha yurisdiksiyaga ega. Boshqacha qilib aytganda, bu Sud qatnashchi davlatlardan birini Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasini buzganlikda ayblash bilan bog‘liq ishlarni hal etish vakolatiga ega. Mazkur Sud Konvensiya normalarini qo‘llash bilan bir qatorda, Konvensiya va inson huquqlari bo‘yicha muayyan shartnomalar yuzasidan maslahat tarzida xulosalar berishi ham mumkin. Sud, agar a‘zo-davlatlar tomonidan taqdim etilgan yoki davlatlar sudning yurisdiksiyasini e‘tirof etgan bo‘lsa, Amerika mamlakatlariaro komissiyasi tomonidan taqdim etilgan ishlarni ko‘rib chiqishi mumkin. Sudning qarori davlatlar uchun majburiydir. Sud, buzilgan huquqlarni hamda qonunbuzarlik munosabati bilan davlatlar tomonidan belgilanishi lozim bo‘lgan choralarni ko‘rsatgan holda, zararni pul bilan qoplash uchun kompensatsiya qilish (tovon to‘lash) to‘g‘risida, shuningdek, aniqlangan da‘vo bo‘yicha qarorlar chiqarish vakolatiga ega. Favqulodda holatlarda va yanada ko‘proq zarar yetkazib qo‘ymaslik uchun Sud vaqtinchalik chora-tadbirlar to‘g‘risida ham qaror chiqarishi mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Sud muhim maslahatchi rolini bajaradi va a‘zo-mamlakatlarning so‘rovi bilan Konvensiya moddalarini sharhlash bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishi mumkin. 1998-yilning iyulida Sud tomonidan chop etilgan 15 ta sharh amerikalalararo yurisprudensiya tizimining tarkibiy qismiga aylandi.

4. Inson huquqlarini himoya qilishning Afrika tizimi

1963-yilda qabul qilingan Afrika birligi tashkiloti (ABT) xartiyasi dastlabki mintaqaviy shartnomalardan hisoblanadi. Afrika birligi tashkiloti xartiyasining inson huquqlariga taalluqli boshqa qoidalarida Afrika davlatlari barcha shakl va ko'rinishdagi mustamlakachilikni tag-tomiri bilan tugatishga tarafdor hamda Afrika xalqlarini rivojlantirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish ishiga sodiq ekanligi ta'kidlanadi.

1981-yilda qabul qilingan va 1986-yilda kuchga kirgan Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi Muqaddimadan va 68 moddani o'z ichiga olgan uchta qismdan iborat. Uning huquqlar va majburiyatlarga bag'ishlangan I qismi ikkita bobga bo'lingan bo'lib, ularda inson va xalqlarning huquqlari (1–26-moddalar) va majburiyatlari (27–29-moddalar) bayon etilgan. Kafolatlarga bag'ishlangan II qism to'rtta bobdan iborat bo'lib, ularda Afrika inson va xalqlar huquqlari komissiyasini tuzish (30–44-moddalar), mazkur Komissiyaning vakolatlari, faoliyat ko'rsatish taomillari va tamoyillari (45–63-moddalar) ta'riflab o'tiladi¹. Afrika mintaqasida inson huquqlari bo'yicha huquqiy hujjatlarga, yana shuningdek, Bola huquqlari va farovonligi bo'yicha Afrika xartiyasi (1990-yilda qabul qilingan) ham kiradi.

Afrika Ittifoqi (sobiq Afrika birligi tashkiloti) doirasida qabul qilingan inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar ro'yxati:

- Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi (1982–1986);
- Afrikada qochoqlar muammosining ayrim jihatlarini boshqarish to'g'risidagi Konvensiya (1969–1974);
- Afrika bolalarining huquqlari va farovonligi to'g'risidagi Konvensiya (1990–1999).

Afrika inson va xalqlar huquqlari komissiyasi. 1987-yilda tashkil etilgan hamda a'zo-davlatlar tomonidan tayinlanib, ABT davlatlari va hukumatlari boshliqlari tomonidan saylanadigan 11 a'zodan iborat mazkur Komissiyaning asosiy vazifasi inson va xalqlar huquqlarini rag'batlantirish hamda shu yo'nalishda tegishli normalar ishlab chiqishga qaratilgan. Komissiya davlatlardan axborotlar va boshqa xabarlar olishi hamda ko'rib chiqishi mumkin. Boshqa xabarlar jumlasiga ayrim shaxslar yoki bir guruh shaxslardan, shuningdek, inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar yoki muassasalardan olinadigan xabarlar ham kiradi. Afrika komissiyasi, yana shuningdek, "asosida Afrika mamlakatlari hukumatlari

¹ Qarang: Африканская хартия прав человека и народов // Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып. 2. – С. 225–240.

o'z qonunchiligini ishlab chiqishi mumkin bo'lgan inson va xalqlar huquqlari va asosiy erkinliklari bilan bog'liq bo'lgan huquq muammolarini hal qilishga qaratilgan tamoyillar va normalarni shakllantirish va belgilash" vakolatiga ham ega (Afrika xartiyasi, 45-modda, 1 (b) qismi). 1992-yili Komissiya Afrika xartiyasida ko'zda tutilgan odil sudlovni kengaytirish va mustahkamlashni ko'zda tutuvchi "Regress va odil sud protsedurasiga bo'lgan huquq to'g'risida"gi rezolyutsiyani (Afrika komissiyasi Rezolyutsiyasi) qabul qildi.

Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi. 1998-yilning fevralidagi ABTning Vazirlar kengashi majlisida Afrika xartiyasiga Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudini tashkil etish bo'yicha Protokol qabul qilindi. Afrika sudi Afrika komissiyasining huquqni himoya qilish mandatini to'ldiradi. Sud Afrika xartiyasi a'zo-davlatlari, Afrika komissiyasi va ABT organlarining so'rovlari bo'yicha maslahatlar berishi mumkin. Sud 2004-yilda, Protokolni 15 davlat ratifikatsiya qilgani-dan so'ng ta'sis etildi.

5. Inson huquqlarini himoya qilishning Osiyo-arab tizimi

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi inson huquqlari masalalari bo'yicha eng murakkab mintaqalardan biri hisoblanib, ushbu mintaqaga BMT tomonidan, inson huquqlarini himoya etishning o'z tizimiga ega bo'lmagan yagona geografik mintaq, deya ta'rif berilgan. Ana shunday tizim yo'qligining aniq-ravshan ko'rinib turgan sabablaridan biri shuki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi Amerika qit'asidagi Amerika davlatlari tashkiloti, Yevropa qit'asidagi Yevropa Kengashi va Afrika qit'asidagi Afrika birligi tashkiloti singari mintaqaviy miqyosda siyosiy guruhga ega emas. Holbuki, har uchala qit'a (Amerika, Afrika, Yevropa qit'asi)da inson huquqlari tizimi yaratilishiga hamda bu huquqlarga rioya etilishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yishga aynan siyosiy guruhlar turtki bergan.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasida inson huquqlari tizimi yo'qligi boshqa omillar, xususan, mintaqaning kengligi va rang-barangligi bilan ham izohlanadi. Bu mintaq mamlakatlari yagona din, madaniyat yoki tarix bilan bog'lanmagan, ulardagi siyosiy va ijtimoiy sharoitlar ham turlicha. Osiyo manfaatlarini bir butun, yaxlit holda ifodalashi mumkin bo'lgan asos, ya'ni mushtaraklikning real negizlari yo'q. BMT ro'yi zaminning bu qismida mintaqaviy bitim tuzilishiga madadkor bo'lish borasida ulkan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Biroq, bunday sa'y-harakatlar biron sezilarli samara beradi, xususan, yaqin kelajakda muayyan bir

natijaga erishiladi, deb aytish qiyin. Ba'zi mutaxassislar torroq mintaqaviy tuzilmalar, aytaylik, janubi-sharqiy Osiyo tuzilmasining shu yo'nalishdagi harakatlari samaraliroq bo'ladi, deb hisoblaydilar va ayni shu doirada tizim tuzish zarur, degan fikr bildiradilar. Boshqa mutaxassislar esa, jahonning bu qismida inson huquqlariga rioya etish tizimini tashkil toptirishga qaratilgan harakatlardan foyda yo'q, degan xulosaga kelganlar. Ularning aytishicha, hatto bu borada yutuqqa erishilgan taqdirda ham, vujudga kelgan tuzilma juda zaif va kam samarali bo'ladi¹.

Inson huquqlarini himoya etishning arab tizimi. Arab davlatlari ligasini (ADL) ta'sis etgan pakt 1952-yilda kuchga kirdi hamda mintaqaviy shartnomani BMT Nizomining VIII bobida nazarda tutilgan ma'noda rasman mustahkamlab berdi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur shartnoma BMT Nizomi tamoyillariga muvofiq, davlatlarning mintaqada tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mintaqaviy hamkorligi maqomini olishini ta'minladi. Liga o'z oldiga anchagina ko'lamdor maqsadlar qo'ygan. Asosiy maqsad esa, qatnashchi davlatlarning siyosiy yo'lini "ular o'rtasida chinakam hamkorlikni ta'minlagan, ularning mustaqilligi va suverenitetini saqlab qolgan tarzda" muvofiqlashtirib borishdan iboratdir.

Shuning oqibatida hamkorlik shakllari asosan iqtisodiy xususiyat kasb etdi yoki moliya sohasi, bojxona va valyutani tartibga solish, qishloq xo'jaligi, aloqa, sanoat, ijtimoiy soha va sog'liqni saqlash kabi sohalar bunday hamkorlik shakllari bilan qamrab olindi. Ligada Kengash bor, unga barcha a'zo-davlatlarning vakillari kiritilgan. Bosh kotib tomonidan boshqariladigan Kengash, odatda, qarorlar qabul qilishda murosasozlik taomiliga amal qilish payida bo'ladi. Agar qaror shunday asosda qabul qilingan bo'lsa, qatnashchi-davlatlar bu qarorning o'z konstitutsiyalari doirasida milliy qonun hujjatlariga singdirilishini ta'minlashlari shart. Ular tinchlikka va Ligaga a'zo-davlatlarning xavfsizligiga tahdid bilan bog'liq masalalarni hal etishda murosasozlikka majburiy shart deb qaraydilar. Boshqa masalalar, aytaylik, budget, muayyan mansabdorni lavozimga tayinlash va shu kabi masalalar ko'pchilik ovoz bilan hal etilishi mumkin².

1994-yil 15-sentabrda ADL a'zo-davlatlari tomonidan Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasi qabul qilingan bo'lsa-da, Ligaga a'zo bo'lgan 22 davlatdan birortasi ham bu hujjatni imzolamagan. 2003-yil

1 Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006. – B. 177.

2 O'sha manba. – B. 177–178.

martda ADL Kengashi ushbu Xartiyani inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq va standartlarga muvofiq ravishda qayta ishlab chiqishga qaror qilgan edi. Mutaxassislar tomonidan taklif etilgan loyiha ADLning Inson huquqlari bo'yicha doimiy qo'mitasi tomonidan xartiyani qayta ko'rib chiqish davomida maqbul deb topildi. Shundan so'ng loyiha 2004-yil may oyida bo'lib o'tgan ADL sammitiga yakunlovchi bahs-munozaralar o'tkazish va qabul qilish uchun taqdim etilib, sammit davomida ma'qullandi. 2008-yil 15-martda yetarli arab davlatlari Xartiyani ratifikatsiya qilgandan so'ng ushbu Xartiya yuridik kuchga kirdi. Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasida aks ettirilgan yangi qoidalar favqulodda holatlar, odil sudlov kafolatlari, qullik, jismoniy zo'ravonlik, nogironlik va trafik kabi masalalarda eski variantdagidan ko'ra anchayin ilg'or g'oyalarni o'zida ifoda etganini ta'kidlash o'rinlidir.

Inson huquqlari masalasi bir davlatning chegarasidan tashqariga chiqib ulgurgan XXI asrda bu sohadagi muammolar davlatlarni birlashishga majbur qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, davlatlarning turli shakllardagi hamkorlik aloqalarini o'rnatishiga olib kelmoqda. Shu tariqa, universal darajadagi hamkorlik, mintaqaviy darajadagi hamkorlik va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarining rivojlanishiga olib kelmoqda.

Inson huquqlari sohasidagi mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy kelib chiqishi, madaniyati va boshqa masalalarda bir-biriga yaqin bo'lgan davlatlarning bu sohadagi hamkorligi nisbatan ko'proq samara bermoqda. Bu esa, turli mintaqalarda hamkorlikning samaradorligi ham turlicha ekanligini ko'rsatmoqda. Yevropaning bugungi kundagi integratsiyasi bu mintaqadagi inson huquqlari sohasidagi muammolarni birgalikda samarali yechishga imkon bermoqda. Bunga sabab esa, barcha Yevropa davlatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, geografik va boshqa omillar bo'yicha ancha yaqinligidir. Ammo, Osiyodagi turli iqtisodiy-ijtimoiy omillar, turli madaniy va diniy omillar bu mintaqada samarali mexanizm yaratishga to'siq qilmoqda. Amerika va Afrika mintaqasining tajribasi esa, bu boradagi ahvolning nisbatan mo'tadil ekanligini ko'rsatmoqda. Bu mintaqalarda zaruriy huquqiy va institutsional asos yaratilgan va davlatlar o'zaro kelishuvga kelishgan. Ammo ularda ham bu mexanizm Yevropa mexanizmi kabi samarali ishlamoqda, deyishga yetarli asos yo'q.

6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tizimning tavsifi

Tashkilot	Inson huquqlari bo'yicha tashkilot asosiy hujjatining nomi	Nazorat organlari
Amerika davlatlar tashkiloti	Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi, 1969-yil qabul qilingan va 1978-yil kuchga kirgan	Inson huquqlari bo'yicha Amerika mamlakatlariaro komissiyasi; Inson huquqlari bo'yicha Amerika mamlakatlariaro sudi
Afrika Ittifoqi	Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi, 1982-yil qabul qilingan va 1986-yil kuchga kirgan	Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasi; Inson huquqlari bo'yicha Afrika sudi
Yevropa Kengashi	Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi, 1950-yil qabul qilingan va 1953-yil kuchga kirgan	Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi; Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Kengashining komissari
Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti	YeXHTning "Insoniylik mezonlari" hujjatlari	YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi; Milliy ozchiliklar ishlari bo'yicha oliy komissar
Yevropa Ittifoqi	Asosiy huquqlar to'g'risidagi Xartiya	Yevropa Ittifoqi Ombudsmani; Asosiy huquqlar bo'yicha Yevropa Ittifoqi Agentligi
Arab davlatlar ligasi	Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasi, 2004-yil qabul qilingan va 2008-yil kuchga kirgan	Inson huquqlari bo'yicha Doimiy arab komissiyasi
Mustaqil davlatlar hamdo'stligi	Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha MDH konvensiyasi, 1995-yil qabul qilingan	Inson huquqlari bo'yicha komissiya

Inson huquqlari bo'yicha eng muhim bo'lgan mintaqaviy shartnomalar

Yevropa Kengashi:

1. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (1950–1953) va unga qo'shimcha Fakultativ Protokollar;
2. Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi (1961–1965), unga qo'shimcha Fakultativ Protokollar va yangi tahrirdagi Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi (1996–1999);
3. Ko'chmanchi mehnatkashlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (1977–1983);
4. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Yevropa Konvensiyasi (1987–1989);
5. Mintaqaviy yoki ozchilikka mansub xalqlar so'zlashadigan tillar to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi (1992–1998);
6. Milliy ozchilikka mansub shaxslarni himoya qilish bo'yicha Namunaviy Konvensiya (1995–1998);
7. Bolalarning huquqlarini amalga oshirish bo'yicha Yevropa Konvensiyasi (1996–2000);
8. Inson huquqlari va Biomeditsina bo'yicha Konvensiya (1997–1999);
9. Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (1997–2000).

Amerika davlatlari Tashkiloti:

1. Inson huquqlari bo'yicha Amerika Konvensiyasi (1969–1978) va unga qo'shimcha Fakultativ Protokollar;
2. Qiynoqning oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1985–1987);
3. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, uning uchun jazolash va bunday holatlarga barham berish bo'yicha Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1995);
4. Shaxslarning zo'rlik ostida g'oyib bo'lishi to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1996);
5. Balog'atga yetmagan bolalar xalqaro traffigi bo'yicha Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1994–1997);

6. Nogironlarga qarshi kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Amerika davlatlararo Konvensiyasi (1999–2001).

Afrika Ittifoqi (sobiq Afrika Birligi Tashkiloti):

1. Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika xartiyasi (1982–1986);
2. Afrikada qochoqlar muammosining ayrim jihatlarini boshqarish to'g'risidagi Konvensiya (1969–1974);
3. Afrika bolalarining huquqlari va farovonligi to'g'risidagi Konvensiya (1990–1999).

Arab davlatlari Ligasi:

Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasi (2004–2008).

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi:

Inson huquqlari va asosiy erkinliklari bo'yicha MDH konvensiyasi (1995).

Takrorlash uchun savollar:

1. *Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hamkorlik deganda nimani tushunasiz?*
2. *Inson huquqlarini himoya qilishga oid mintaqaviy mexanizmlar deganda nimani tushunasiz?*
3. *Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.*
4. *Yevropa Kengashi tashkilotining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi mexanizmini tushuntirib bering.*
5. *Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining vakolatlari nimalardan iborat?*
6. *Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining inson huquqlari bo'yicha mexanizmini tushuntirib bering.*
7. *Inson huquqlarini himoya etish bo'yicha Amerika tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.*
8. *Inson huquqlarini himoya etish bo'yicha Afrika tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.*

9. Inson huquqlarini himoya etish bo'yicha Osiyo-arab tizimining mohiyatini va uning boshqa mintaqaviy tizimlarga nisbatan farqini tushuntirib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. – T.: 2002. – 164 b.

2. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar. Uchinchi nashr. /Mas'ul muharrir: A.X. Saidov – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012.

3. Африканская хартия прав человека и народов // Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып. 2.

4. Глушкова С.И. Права человека в России: теория, история, практика. Учебное пособие. – М.: Права человека, 2003.

5. Право Совета Европы и Россия (сборник документов материалов). – Краснодар, 1996.

6. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

7. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.

8. Inson huquqlari: parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2007.

9-mavzu. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar

1. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining xalqaro huquqiy asoslari.
2. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi.
3. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro shakllari.

1. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining xalqaro huquqiy asoslari

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning suddan boshqa shakllariga xalqaro darajada ham, milliy darajada ham e'tibor ortib bormoqda. Dastlab, bunday institutlarga 1946-yili BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS)ning ikkinchi sessiyasida e'tibor berilgan. Mazkur sessiyada Inson huquqlari bo'yicha komissiya faoliyatini rivojlantirishda hamkorlik qilish uchun a'zo-davlatlarga axborot guruhlarini, inson huquqlari bo'yicha milliy qo'mitalar tuzish tavsiya etilgan¹.

XX asrning 60, 70-yillarida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining samarasini oshirish yo'llarini qidirish ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. 1978-yili BMT Inson huquqlari komissiyasi inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bilan shug'ullanuvchi milliy institutlar bo'yicha seminar o'tkazgan.

XX asrning 80-yillarida ham BMT mazkur masalaga e'tibor qaratib keldi va Bosh Assambleyaga Bosh kotib tomonidan turkum ma'ruzalar tayyorlab taqdim qilingan. 1991-yili 7–9-oktabrda Parijda o'tkazilgan inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha milliy institutlarga bag'ishlangan birinchi xalqaro seminar bu borada qo'yilgan katta amaliy qadam bo'ldi. Ushbu xalqaro seminarda 32 mamlakat vakillari ishtirok etdi va unda milliy institutlarning maqomi va funksiyalariga oid qator tavsiyalar va tamoyillar ishlab chiqildi².

Ushbu tavsiyalar va tamoyillar Inson huquqlari komissiyasi tomonidan 1992-yil 3-martda 1992/54-sonli rezolyutsiya bilan, 1993-yil 20-dekabrda esa, 48/134-sonli rezolyutsiya bilan Bosh Assambleya tomonidan qo'llab-quvvatlangan va Parij tamoyillari nomini olgan³.

1 Qarang: Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002. – С. 119.; Общая теория прав человека. – М.НОРМА, 1996.

2 Qarang: Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки. № 4, ООН, Нью-Йорк и Женева, 1995.

3 Qarang: o'sha manba. – B. 23.

Parij tamoyillarining ishlab chiqilishi bilan milliy institutlarni yaratish jarayoni to'xtab qolgani yo'q, aksincha, mazkur holat BMT va mintaqaviy doirada bahs va munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, Parij tamoyillari Venada Butunjahon inson huquqlari konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish qo'mitasiga topshirilgan. Natijada, Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturida milliy institutlarning konstruktiv roli alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, mazkur hujjatda Parij tamoyillarini e'tiborga olib, milliy institutlarni tashkil etish va ularni qo'llab-quvvatlash ma'qullangan.

Butunjahon konferensiyasi har bir davlat inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish ishlarini yaxshilash borasidagi tadbirlarni o'z ichiga oladigan milliy harakat dasturini ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqishni tavsiya qilgan. Konferensiya hukumatlarni milliy institutlarning tuzilishini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashga da'vat qilgan.

Parij tamoyillariga ko'ra, milliy institutlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- inson huquqlarini himoya qilish borasida keng vakolatlarga ega;
- faoliyati qonun hujjatlarida mustahkamlangan;
- davlat organlaridan mustaqil;
- muassasa tarkibida keng vakillikning ta'minlanganligi;
- fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqish mumkinligi.

Shuningdek, *Parij tamoyillariga* ilova qabul qilingan bo'lib, unda quyidagi masalalar o'z aksini topgan:

- milliy institutning vakolatlari va javobgarlik sohasi;
- milliy institutlarda a'zolikning xarakteri, faoliyatida mustaqillik kafolati va fikrlar xilma-xilligi, jumladan, rahbarlarni saylash, tayinlash mezonlari;
- milliy institutlarning ishlash uslubi, jumladan, u yoki bu masalalarni ko'rib chiqish vakolati, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligi;
- suddan tashqari organlar, ya'ni shikoyatlar, da'volarni qabul qilish va ko'rib chiqish, ularni tegishli instansiyaga yuborish va ular bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lish¹.

Milliy institutlarni tashkil etish va rivojlantirish borasida BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), YeXHT, Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar yordam ko'rsatib kelmoqdalar. Chunonchi, BMTTD milliy institutlarni tashkil etayotgan mamlakatlarga xalqaro konferensiyalar o'tkazish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish, tegishli qonun

¹ Qarang: Принципы, касающиеся статуса национальных учреждений поощрению и защиты прав человека. Резолюция 48/134 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 г.

loyihalarini tayyorlash, mutaxassislarni o'qitish va boshqa texnikaviy ko'mak ko'rsatish bilan yordam beradi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur institutlar belgilangan xalqaro standartlarga mos bo'lishi lozim. Parij tamoyillariga muvofiq, milliy institutlar quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- davlat hokimiyati organlariga inson huquqlariga doir masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar, tavsiyalar, takliflar taqdim qilish;

- milliy qonunchilikni xalqaro talablarga moslashtirish jarayoniga ko'maklashish va rag'batlantirish;

- xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilishga ko'maklashish hamda xalqaro majburiyatlarning bajarilishini kuzatib borish;

- xalqaro konvensiyalarning bajarilishi bo'yicha xalqaro nazorat organlariga milliy ma'ruzalar tayyorlashga ko'maklashish;

- inson huquqlari sohasida faoliyat yurituvchi BMT organlari, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlarning milliy institutlari bilan hamkorlik qilish;

- inson huquqlarini o'qitish va ularni tadqiq etishga doir dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ularni amalga oshirishda qatnashish;

- inson huquqlariga oid axborotlarni tarqatish va barcha shakldagi kamsitishlarga qarshi kurashish.

Parij tamoyillariga muvofiq, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni tashkil etishning uch xil yo'li mavjud:

1. Konstitutsiya yoki konstitutsiyaviy o'zgartirishlar kiritish bilan;
2. Qonun yoki parlament akti bilan;
3. Prezident farmoni bilan.

Nisbatan samarali variantlardan biri milliy institutlarni mustahkamlash hisoblanadi, vaholanki, ko'p mamlakatlarda konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qonunlarga o'zgartirishlar kiritishga nisbatan murakkabroqdir. Mazkur institutlarni konstitutsiyalarda mustahkamlash demokratik rivojlanish yo'liga o'tgan va konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirayotgan mamlakatlarda qo'llanilmoqda (Filippin, Gana, Uganda, Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Polsha, JAR, Argentina, Meksika). Ba'zi davlatlarda mazkur institut maxsus qonunlar yoki parlament akti bilan ta'sis etilgan (Avstraliya, Benin, Hindiston, Kanada, Latviya, Yangi Zelandiya, Nepal, Senegal). Prezident farmoni bilan ta'sis etilgan milliy institutlar Indoneziyada, Kamerunda, Qozog'istonda, Marokashda, Nigeriyada faoliyat ko'rsatmoqda. Qayd etish lozimki, parlament akti yoki prezident farmoni asosida institutning tashkil etilishi ushbu institutning ijro etuvchi organlardan mustaqilligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Parij tamoyillarining qabul qilinishi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarga oid xalqaro standartlarni yaratish bo'yicha faol norma ijodkorligi faoliyatining boshlanishi bo'lib xizmat qildi. Keyinchalik, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning samarali faoliyat yuritishiga oid qoidalar qator xalqaro konvensiyalarda, deklaratsiyalarda, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalarida, shartnomaviy qo'mitalarning umumiy sharhlarida va xulosaviy kuzatuvlarda o'z aksini topdi.

1993-yil 13–17-dekabrda Tunisda bo'lib o'tgan inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar bo'yicha xalqaro seminarda, uning ishtirokchilari barcha mintaqalar mamlakatlarining vakillaridan iborat Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro muvofiqlashtiruvchi qo'mitasini (XMQ) tashkil etishdi. Hozirgi vaqtda XMQ tarkibiga dunyoning turli mamlakatlaridagi 67 ta inson huquqlari milliy institutlari kiradi. Asosiy ish shakli – milliy institutlar mustaqil institutlar sifatida ishtirok etuvchi BMTning Inson huquqlari bo'yicha sessiyalari o'tkazilishi davrida yig'ilish o'tkazishdir. XMQga a'zolik uch guruhga bo'linadi: "A" maqomi – milliy institut *Parij tamoyillariga* muvofiq; "B" maqomi – kuzatuvchi; "C" maqomi esa, *Parij tamoyillariga* ushbu institutning nomuvofiqligini anglatadi.

XMQ global va mintaqaviy darajada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar konferensiyalarini doimiy ravishda o'tkazib turadi.

1991-yildan boshlab har ikki yilda BMT XMQ bilan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha institutlar faoliyatining dolzarb muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar tashkil etadi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar konferensiyalari		
1.	Birinci xalqaro seminar	Parij (Fransiya), 1991-y.
2.	Ikkinchi xalqaro seminar	Tunis (Tunis), 1993-y.
3.	Uchinchi xalqaro seminar	Manila (Filippin), 1995-y.
4.	To'rtinchi xalqaro seminar	Merida (Meksika), 1997-y.
5.	Beshinchi xalqaro seminar	Rabat (Marokash), 2000-y.
6.	"Irtiy kamsitilishlarga qarshi kurashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning roli" mavzusida oltinchi xalqaro konferensiya	Lund – Kopengagen (Daniya-Shvetsiya), 2002-y.
7.	"Terrorizmga qarshi kurash hamda qurolli mojarolar davrida inson huquqlarini ta'minlash" mavzusida yettinchi xalqaro konferensiya	Seul (Koreya), 2004-y.

8.	“Migratsiya va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar” mavzusida sakkizinchi xalqaro konferensiya	Santa-Kruz (Boliviya), 2006-y.
9.	“Odil sudlovni amalga oshirish va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar” mavzusida to'qqizinchi xalqaro konferensiya	Nayrobi (Keniya), 2008-y.
10.	“Biznes va inson huquqlari: inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning roli” mavzusida o'ninchi xalqaro konferensiya	Edinburg (Buyuk Britaniya), 2010-y.
11.	“Ayollar va qiz bolalar huquqlari: inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning roli” mavzusida o'n birinchi xalqaro konferensiya	Ommon (Iordaniya), 2012-y.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning mintaqaviy darajada ham muvofiqlashtiruvchi organlari tuzilgan: Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar forumi (1996-yilda tashkil etilgan), Amerika inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tarmog'i (2000-yil), Afrika inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar muvofiqlashtiruvchi qo'mitasi (2002-yil).

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish hamda shartnomaviy organlarning tavsiyalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadlarida BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va maxsus protseduralari, shartnomaviy organlari bilan faol o'zaro hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Undan tashqari, milliy institutlar Universal davriy hisobot mexanizmining – hujjatlarni topshirishdan boshlab, tavsiyalarni bajarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lдилar. Milliy institutlar faoliyati, yana shuningdek, Kengashning Maslahat organi va shikoyatlarni ko'rib chiqish protsedurasiga rioya qilinishi nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda BMT shartnomaviy qo'mitalari'ning 3 ta Umumiy sharhlari qabul qilingan, ya'ni: Irqiy kamsitishlarni bartaraf etish qo'mitasi

1 Qarang: General Comments adopted by United Nations Human Rights Treaty Bodies: Volume III. Committee on the Elimination of Racial Discrimination/ 2nd edition. Lund, 2000; Volume II: Committee on Economic, Social and Cultural Rights/ 3rd edition. Lund, 2000; Committee on the Rights of the Child – General Comments.

bo'yicha (1993-yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi bo'yicha (1998-yil) va Bola huquqlari qo'mitasi bo'yicha (2002-yil). Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan 2012-yilda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar bilan o'zaro aloqalar to'g'risida tegishli hujjat qabul qilindi¹.

Inson huquqlari bo'yicha qo'mitalar va milliy institutlarning faoliyati keyingi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Bu faoliyat: davlatlarning davriy ma'ruzalarini tayyorlashga yordam berish; shartnomaviy organlar tomonidan davriy ma'ruzalarni ko'rib chiqishda ishtirok etish; shuningdek, shartnomaviy organlarning xulosaviy fikrlariga muvofiq ravishda o'z vaqtida mamlakat darajasida choralar ko'rilishini ta'minlab berish yo'llari bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, milliy institutlar xalqaro hujjatlarning ratifikatsiya qilinishiga yoki ularga qo'shilishga va shuningdek, ularning maksimal darajada keng miqyosda amalga oshirilishini ta'minlashga yordam berishadi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni tuzish va ularning faoliyat yuritishi bo'yicha xalqaro standartlarni o'rganish quyidagilarni aniqlashga imkon berdi:

Birinchidan, inson huquqlari milliy institutlar faoliyatining xalqaro-huquqiy asosini, ularning funksiyasini, shakllanishini, moliyalanishini hamda mustaqilligi va ishlashini ta'minlab berishning boshqa mezonlarini belgilab beruvchi 1991-yilgi Parij tamoyillari hisoblanadi.

Ikkinchidan, Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturida har bir davlatning, uning ehtiyojlariga ko'proq darajada muvofiq keluvchi milliy institut tuzilmasini tanlab olishi e'tirof etiladi. Ushbu qoida shundan darak beradiki, davlatlar o'rtasidagi mavjud farqlar, har doim ular tomonidan inson huquqlari sohasida xalqaro normalarga rioya etish uchun tashkil etilayotgan tuzilmalarda o'z aksini topadi.

Uchinchidan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning tuzilishi va rivojlanishi xalqaro tashkilotlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqdaki, bu qo'llab-quvvatlash seminarlarni tashkil etishda, qonun loyihalarini ishlab chiqishda, muassasalar xodimlarini o'qitishda, shuningdek, bu borada tegishli texnikaviy yordam ko'rsatilishida namoyon bo'lmoqda.

¹ Qarang: Paper on the relationship of the Human Rights Committee with national human rights institutions, adopted by the Committee at its 106th session (15 October – 2 November 2012).

2. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi

Huquqiy adabiyotlarda quyidagicha ta'riflar uchraydi: "inson huquqlari bo'yicha milliy muassasa", "inson huquqlari bo'yicha milliy institut" yoki "inson huquqlari bo'yicha milliy tashkilot". Atamalarining tanlanishi mamlakat huquqiy tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Rus tilidagi BMT hujjatlarida ko'pincha "inson huquqlari bo'yicha milliy muassasa" atamasi qo'llaniladi¹. Ingliz tilida "National human rights institution", fransuz tilida – "Institution nationale des droits de l'Homme", ispan tilida – "la Institucion nacional de los derechos humanos", nemis tilida – "Nationales Institut für Menschenrechte" atamalarining ishlatilishini hisobga olgan holda, fikrimizcha, "inson huquqlari bo'yicha milliy institut" atamasini ishlatish ko'proq maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuni qayd etish lozimki, Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida², qator ilmiy ishlarda ushbu atama ishlatilmoqda. Misol uchun, professor A. Saidovning ilmiy ishlarida "inson huquqlari bo'yicha milliy institut" atamasi ishlatiladi³.

Rus tilida "milliy" so'zi boshqacha ma'no kasb etgani uchun va uni "davlat" bilan birga ishlatish to'g'ri bo'lganligi uchun ham, rossiyalik tadqiqotchi A. Sungurov "inson huquqlarini himoya qilishning davlat instituti" atamasini ishlatishni taklif etadi⁴.

"Inson huquqlari bo'yicha milliy institut" atamasi ostida hukumat tomonidan konstitutsiya yoki qonun, yo dekretga muvofiq tashkil etilib, vazifasi inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishdan iborat bo'lgan organ tushuniladi. B. Burdekin qayd etganidek, "milliy institut davlat va fuqarolik jamiyatining o'rtasida joylashgan bo'lib, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning foydali mexanizmi hisoblanadi. Ushbu ta'rifga ombudsmanlar va inson huquqlari bo'yicha komissiyalarning ayrim turlarini ham qo'shgan holda turli xil institutsional tuzilmalar mos tushadi"⁵.

1 Qarang: Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки № 4. ООН. – Нью-Йорк и Женева, 1995. – 150 с.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997-yil, 9-son. – B. 244–257.

3 Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: ИГП РАН, 2002. – С. 115.

4 Сунгуров А. Государственные институты защиты прав человека: международный опыт. // Комиссии и Уполномоченные прав человека: опыт российских регионов. /Под ред. А.Ю. Сунгурова. – СПб: Норма, 2002. – С. 55.

5 Burdekin B., Gallagher A. The United Nations and National Human Rights Institutions. // International human rights monitoring mechanisms. /Edited by G.Alfredsson...-martinius Nijhoff Publishers. 2001. – P. 816.

“Milliy institut” tushunchasining turli ta’riflariga suyanan holda, uni quyidagicha shakllantirish mumkin: inson huquqlari bo’yicha milliy institut – Parij tamoyillarini hisobga olgan holda, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini ta’minlash, rag’batlantirish va himoya qilish maqsadlarida Konstitutsiya yoki qonunga muvofiq ta’sis etilgan mustaqil organ hisoblanadi¹.

Hozirgi paytda ko’plab institutlar inson huquqlari bo’yicha komissiyalar, ombudsman institutlari va ixtisoslashgan muassasalarga bo’linadi. Ko’p hollarda ombudsman institutlari va inson huquqlari bo’yicha komissiyalar turli xil, ammo muhimligi jihatidan bir xil vazifalarni amalga oshiradilar. Ombudsmanning asosiy vazifasi davlat hokimiyati organlari harakatining qonuniyligini ta’minlab berishdan iborat. Inson huquqlari bo’yicha komissiyalarning vakolatiga inson huquqlari masalalari bo’yicha ijro etuvchi hokimiyat vakolatlarini muvofiqlashtirish kirs, ixtisoslashgan muassasalar esa, muayyan guruh (kam sonli xalqlar, bolalar, ayollar, invalidlar va boshqalar) vakillarining huquqlarini himoya qilish uchun ta’sis etiladi.

Ayrim mamlakatlarda ombudsmanga inson huquqlari sohasida keng vakolatlarni berish yo’li bilan ularning funksiyalarini birlashtirish bo’yicha qarorlar qabul qilindi. Jumladan, ma’rifiy faoliyatni o’tkazish, odatda, komissiyaga yuklatiladi. Ayrim mamlakatlarda ombudsman institutini ham, shuningdek, inson huquqlari bo’yicha komissiya yoki shunga o’xshash organlar (Daniya, Fransiya, Avstraliya, Rossiya, Yangi Zelandiya, JAR, Marokash va boshqalarda)ni ham ta’sis etishadi.

Ko’pchilik hollarda ombudsman institutlari va inson huquqlari bo’yicha komissiyalari tabiiy hamkorlar hisoblanadi, chunki ushbu ikki turdagi institutlar inson huquqlarining himoyasi va ularning ta’minlanishi bilan keng ma’noda shug’ullanadilar va inson huquqlari madaniyatini milliy miqyosda rivojlantirishda muhim rol o’ynaydilar. Ba’zi mamlakatlarda ombudsman institutiga inson huquqlari sohasida kengroq vakolat berish uchun ularning vazifalarini birlashtirishga qaror qilishgan. Ba’zi mamlakatlarda esa, ham ombudsman instituti, ham inson huquqlari bo’yicha komissiyalarni tuzishgan bo’lib, ular inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo’lida bir-birlari bilan o’zaro munosabatga kirishadilar va hamkorlik qiladilar.

Hozirgi paytda inson huquqlari bo’yicha komissiyalar yoki ularga o’xshash organlar dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarida tashkil etilgan va Germaniya, Daniya, Fransiya, Avstraliya, Kanada, Meksika, Gonduras, Hindiston, Indoneziya, Filippin, Yangi Zelandiya, Uganda, Tanzaniya, Mon-

¹ Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

goliya, Koreya, Nepal va shu kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. 1947-yil 27-martda Inson huquqlari bo'yicha maslahat komissiyasini birinchi bo'lib ta'sis etgan mamlakat Fransiya bo'ldi. 1984-yilda Komissiya o'z faoliyatini qayta boshlagan bo'lsa, 1993-yilda esa, konstitutsiyaviy dekret bilan mustaqil tashkilot maqomini oldi¹.

2000-yil 7-dekabrda Bundestag Germaniya hukumati tomonidan kiritilgan Inson huquqlari bo'yicha institutni tashkil etish to'g'risidagi taklifni tasdiqladi. Institut BMT va Yevropa Kengashi tavsiyalariga binoan tashkil etildi va inson huquqlari masalasi bo'yicha hukumatga maslahatlar taqdim etish, inson huquqlari bo'yicha axborot va ma'rifiy ishlar olib borishga haqlidir².

1978-yilda Kanadada 1977-yilgi Inson huquqlari to'g'risidagi aktga binoan Inson huquqlari bo'yicha komissiya tashkil etildi. Inson huquqlari bo'yicha birinchi komissiya Ontario provinsiyasida 1962-yilda ta'sis etilgan edi. O'tgan asrning 60–70-yillarida inson huquqlari bo'yicha komissiyalar Kanadaning barcha provinsiyalarida tashkil etildi. Inson huquqlari bo'yicha qonunlar Kanadada 1947-yildan, ya'ni Saskatchewan provinsiyasida Huquqlar to'g'risidagi bill qabul qilingandan buyon mavjuddir. O'tgan asrning 50-yillarida irqiy va diniy kamsitishlarga qarshi qonunlar boshqa provinsiyalarda ham qabul qilindi. Biroq, mazkur qonunlarga rioya etilishini nazorat qilishga qaratilgan maxsus organlarni tashkil etmasdan turib, bu qonunlar qiyinchilik bilan hayotga jalb etilar edi va bunday qonun normalarini hayotga samarali jalb etish maqsadida inson huquqlari bo'yicha komissiyalar tashkil etildi³.

Sud tizimidan tashqarida faoliyat ko'rsata oluvchi va fuqarolar murojaat qila oladigan mustaqil organga bo'lgan ehtiyoj natijasida bunday organ Rossiya Federatsiyasida ham tashkil topdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1993-yil 26-sentabrdagi 1458-sonli Farmoyishi bilan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzurida Inson huquqlari bo'yicha komissiya tashkil etildi. Unga fuqarolar shikoyatlarini tekshirish va hisobotlarni chop etish vakolati yuklatildi. 2004-yilda mazkur Komissiya Rossiya Federatsiyasi huzuridagi Inson huquqlari va fuqarolik jamiyatlari institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha kengashga aylantirildi⁴.

1 Qarang: National Consultative Commission of Human Rights. – Paris, 2000.

2 Einrichtung eines Deutschen Instituts für Menschenrechte. // Drucksache 14/4801. Deutscher Bundestag 14. Wahlperiode. 28.12.2000.

3 Qarang: Canadian Human Rights Commission. Annual Report 1999. Ottawa.

4 Qarang: Указ Президента Российской Федерации № 1411 от 6 ноября 2004 г. “О Совете при Президенте Российской Федерации по содействию развитию институтов гражданского общества и правам человека”. // Собрание законодательства Российской Федерации. № 46. 15 ноября 2004 г. (Часть II). Ст. 4511. – С. 10369–10372.

1981-yilda Inson huquqlari bo'yicha komissiya Avstraliyada tashkil etildi. Komissiya Kanberrada joylashgan bo'lib, shikoyatlarni ko'rib chiqar, qonunchilikni o'rganar va 1975-yildagi Irqiy kamsitishlar to'g'risidagi aktga binoan ma'rifiy va tadqiqotchilik dasturlarini olib borar edi. Ushbu Komissiya 1986-yil 10-dekabr kuni Inson huquqlari bo'yicha komissiyaga aylantirildi va u teng imkoniyatlar bilan Sidneyda joylashgan.

Hindiston Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha aktga muvofiq, 1993-yil oktabrda tashkil etilgan. Indoneziyada Inson huquqlari bo'yicha komissiya 1993-yil 7-iyunda Prezident Farmoyishi bilan tashkil etilgan. Yangi Zelandiyada Inson huquqlari bo'yicha komissiya inson huquqlarini targ'ibot qilish va inson huquqlarining buzilganligi bo'yicha tekshiruvlarni o'tkazish maqsadida 1993-yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi aktga binoan tashkil etilgan.

1987-yilgi Filippin Konstitutsiyasiga muvofiq, inson huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil organ sifatida Inson huquqlari bo'yicha komissiya tashkil etilgan. 1999-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq, Tailandda Inson huquqlari bo'yicha komissiya ta'sis etilgan. 2001-yil fevral oyida Mongoliyada Inson huquqlari bo'yicha komissiya o'z faoliyatini amalga oshirishni boshladi, ushbu komissiya 2000-yil 7-dekabrda qabul qilingan Qonun asosida tashkil etildi. 2001-yil noyabr oyida Koreya Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi tashkil etildi. Barcha komissiyalar Osiyo va Tinch okeani mintaqasining Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar forumining a'zolari hisoblanadi.

2000–2004-yillarda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar Misr, Iordaniya, Yaman, Kongo, Qatarda tashkil etildi. Hozirda Yaponiya va Shveysariyada shunday institutlarni tashkil etish bo'yicha muhokamalar bo'lib o'tmoqda.

Davlat boshqaruvi organlari boshboshdoqligi va amaldorlar tomonidan hokimiyatni suiiste'mol qilishlaridan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlar orasida o'ziga xos o'miga ega bo'lgan institut – bu ombudsman institutidir. Ombudsman instituti ilk bor Shvetsiyada ta'sis etilgan bo'lsa-da, ba'zi olimlar ushbu institutga o'xshash organ Arab xalifaligida ham faoliyat yuritganligini ta'kidlab o'tadilar¹.

Arab xalifaligida Umar xalifaligi davrida Muxtasib mansabi ta'sis etilgan bo'lib, uning vazifasiga fuqarolarning davlat mansabdorlari faoliyatiga tegishli bo'lgan shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish kirgan edi. Shvetsiya qiroli Karl XII Turkiyaga keladi va u yerda “Qozi al-Quzot” mansabi to'g'risida va unga amaldorlarning xatti-harakatlari

1 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Dunyo ombudsmanlari. To'plam /Mas'ul muharrir S. Rashidova. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

ustidan fuqarolarning shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish vazifasi yuklatilganligi to'g'risida eshitadi. Karl XII vataniga qaytib kelganidan keyin ombudsman mansabini joriy etadi (1713-yil). Yevropada bu institut birinchi marta 1809-yili Shvetsiyaning Konstitutsiyaviy aktlarida mustahkamlangan edi. Parlamentga hokimiyat va boshqaruv organlari, sudlar tomonidan parlamentning qonunchilik aktlariga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun maxsus parlament komissari (ombudsman)ni saylash huquqi berildi¹. 2009-yilda xalqaro hamjamiyat jahonda ilk ombudsman institutining 200 yilligini Stokgolm shahrida 9–13-iyun kunlari bo'lib o'tgan 9-xalqaro ombudsmanlar konferensiyasida tantanali ravishda nishonladi. Ushbu anjumanda dunyoning 85 dan ortiq mamlakatlari, jumladan, O'zbekistondan, ombudsman delegatsiyalari ishtirok etib, ushbu institutning turli modellari va jamiyatda tutgan o'rni haqida keng qamrovli fikrlar va tajriba almashuvi bo'lib o'tdi.

S. Anderson va V. Boysovalar ushbu tushuncha nemis tilidan kelib chiqqanligini va uning o'zagi ibtidoiy german qabilalariga borib taqalishini qayd etadilar. Ularda Ombudsman deb, jinoyatchilardan qotillik uchun pul ko'rinishidagi penya (vira) yig'ib oluvchi shaxs atalgan. Ombudsman instituti sensor, tribun, provinsial prokurorlar kabi qadimgi rimdagi lavozimlardan boshlangan bo'lishi ham mumkin². Ba'zi bir olimlar bunga o'xshash institutlar Qadimgi Gretsiyada, o'rta asrlardagi Yevropa va Xitoyda ham mavjud bo'lganligini qayd etadilar. Misol uchun, Ispaniyadagi Aragon qirolligida ham shunga o'xshash lavozim – Justicia de Aragon ta'sis etilgan³.

“Ombudsman” tushunchasi “umbud” so'zidan kelib chiqib, u o'rta asr shved tilida kuch yoki mo'tabar shaxs degan ma'noni berib, vositachi yoki boshqa shaxslarning vakili hisoblangan. Shvedcha “ombudsman” so'zi vakil, delegat, agent, muxtor vakil, ishonchli shaxs ma'nosini beradi⁴. Hozirgi kunda Shvetsiyada parlament to'rtta ombudsmanni saylaydi va ularning biri Bosh parlament ombudsmani hisoblanadi. Shvetsiyada sudlar va ma'muriyatning noqonuniy qarorlari ustidan kafolat sifatida ombudsmanlar tizimi juda ham muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning sudlar va boshqa organlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga faol ko'maklashadi.

1 Qarang: Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

2 Qarang: Anderson S. Ombudsman papers: American experience and proposals, with a comparative analysis of ombudsman offices by Kent. M., Weeks. Berkeley, 1969; Бойцова В.В. Служба защиты прав человека и гражданина. Мировой опыт. – М.: БЕК, 1996. – С. 39.

3 Qarang: Lundvik. U. A Brief Survey of the History of the Ombudsman. // The Ombudsman Journal. Edited by the IOI. Volume 2. 1982. P. 85–94.; Kelly M. New and not so new notions: The Parallel socio-cultural evolution of Ombudsing systems. //http://www.sa.ucs.edu/ombuds.

4 Qarang: Шведско-русский словарь. /Сост. Д.Э.Миланова. – М., 1973. – С. 406

Finlyandiya ham 1919-yili ombudsman institutini tashkil etdi. 1952-yili ombudsman instituti Norvegiya parlamenti tomonidan ham kiritildi. 1952-yilda o'tkazilgan konstitutsiyaviy islohot natijasida Daniyada ham ombudsman instituti joriy etildi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, ombudsmanning Daniya modeli dunyoda ko'proq darajada tan olindi.

Ombudsman instituti Daniya modeli asosida 1962-yili Yangi Zelandiyada tashkil etildi. 1967-yildi Buyuk Britaniyada ombudsman institutini tashkil etish to'g'risida Qonun qabul qilindi (parlament vakili – Parliament Commissioner). G'arbiy Avstraliyada ombudsman tizimi 1971-yili, Janubda – 1972-yili, Viktoriyada – 1973-yili joriy etildi.

AQShdagi ombudsman instituti tajribasi, ombudsmanlarning har xil turlari vujudga keltirdi: ijro etuvchi, maxsus, shahar, mintaqaviy ombudsmanlar 1969-yildan – Gavay orollarida, 1971-yildan – Nebraskada, 1972-yildan – Ayova shtatida, 1975-yildan boshlab esa – Alyaskada faoliyat yuritib kelmoqda. 1976-yildan beri ombudsman instituti – Provedor (Provedor de Jistica) Portugaliyada mavjuddir. Xuddi shunday voqea Ispaniyada ham vujudga keldi. 1981-yilgi qonun portugal va fransuz elementlaridan foydalangan holda “xalq himoyachisi” (Defendor del Pueblo) institutini Ispaniyaning siyosiy tizimiga kiritdi.

1982-yili mamlakatda parlamentning quyi va yuqori palatalarida shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha qo'mitalar bo'lishiga qaramay, Niderlandiya ombudsmani (National Ombudsman) mansabi joriy etildi¹.

Ombudsmanlarning har xil turlari Shveysariyada, Belgiyada, Italiyada, Fransiya, Germaniyada, Avstriyada faoliyat ko'rsatmoqda. Bu institut, shuningdek, Isroil, Hindiston, Kipr, Gayana, Mavrikiy, Fidji orollari va boshqalarda ham tashkil etilgan.

Fransiya, yaxshi rivojlangan ma'muriy adliya tizimiga ega bo'lishiga qaramay, 1973-yili Mediator mansabini kiritdi. Fransiya'dagi bu mansab ma'muriy organlar kategoriyasiga tenglashtirilgan bo'lib, uning malakasi Davlat kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mediatorning roli parlamentariy-larga tushadigan davlat organlari va muassasalari harakatlari ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqishdan iborat. Bu jihatdan u bamisoli parlament komissari rolini bajaradi.

Fransiya Beshinchi Respublikaning siyosiy institutlarini modernizatsiya qilish to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonuni Huquqlar himoyachisi lavozimini ta'sis etdi. 1958-yilgi Konstitutsiya 71–1-modda bilan to'ldirildi va Fuqarolarning huquqlari himoyachisiga konstitutsiyaviy maqom berildi.

¹ Qarang: Dunyo ombudsmanlari. To'plam /Mas'ul muharrir S. Rashidova. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

Organik qonun va Huquqlar himoyachisi to'g'risidagi Qonun Himoyachi maqomiga aniqlik kiritishga va uning vazifalarini amalga oshirish uchun zarur vakolatlar berishga dav'at etilgan. Huquqlar himoyachisi lavozimi ta'sis etilishi institutsional tusdagi bir qancha masalalarni o'rta qo'yadi. Gap, eng avvalo, Himoyachining Respublika Mediatori, Bolalar himoyachisi, Ozodlikdan mahrum etish joylari ustidan nazorat qilish milliy komissiyasi singari huquqni himoya qiluvchi organlar bilan nisbati haqida boradi. Har holda Huquqlar himoyachisi to'g'risidagi Qonun mohiyat e'tibori bilan Respublika Mediatori, Bolalar huquqlari himoyachisi, xavfsizlik deontologiyasi bo'yicha milliy komissiya lavozimlari tugatilishini nazarda tutadi¹.

Ombudsman instituti konsepsiyasi boshqa mintaqalarda ham keng rivojlana boshladi. 1983-yili Pokiston Prezidentining Farmoyishiga ko'ra Vafaki Moxtasib (ombudsman) lavozimi ta'sis etildi, mintaqaviy darajada esa, mazkur institut 1991-yili Sindh provinsiyasida, 1992-yili Azad Jammu va Kashmir provinsiyasida, 1996-yili – Panjob provinsiyasida ta'sis etildi².

Janubiy Koreyada 1994-yili ombudsman lavozimi Ma'muriy boshqaruv va fuqarolar petitsiyalari ishlari bo'yicha asosiy qonunga muvofiq ta'sis etildi. Koreyaning Bosh ombudsmanni d-r Vun Lining "konfutsianlik" falsafasiga suyanan holda qayd etishicha, bunday amaliyot Koreya uchun yangilik emas. Koreya o'zining boshqaruv falsafasini, Maxfiy qirol nazoratchisi (Amhaeng osa) va tizimi "shinmungo" tashkil etilgan Choseon sulolasi davridan boshlangan mashhur "Insonlar uchun yaxshi bo'lgan qoidalar"-dan boshlagan. Markazlashtirilgan tizimda Maxfiy qirol nazoratchisi "inkognito", mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslari faoliyatini tekshirish va tegishli ta'sir choralari amalga oshirish uchun qishloq joylariga jo'natilar edi. "Shinmungo" tizimida fuqarolar yordam so'rab qirolga murojaat qilishi yoki uning saroyi oldida o'rnatilgan katta do'mbira ni urish yo'li bilan shikoyatlarini ro'yxatdan o'tkazishi mumkin bo'lgan³.

Janubiy Afrikada aparteid siyosatining barham topishi bilan partiyalar o'rtasidagi muzokaralarda ombudsman lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qilingan. 1993-yildagi vaqtinchalik Konstitutsiya bilan ta'sis etilgan Jamoatchilik himoyachisi ((Public Protector) lavozimi 1996-yildagi Konstitutsiyada yana mustahkamlab qo'yildi. Ushbu institut 1995-yil 1-oktabrdan faoliyat ko'rsata boshladi⁴.

1 Saidov A.X. Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi o'zbek yuristi nigohida. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011. – 22-b.

2 Qarang: Mohtasib (Ombudsman)'s Annual Report 1997. Islamabad. 1998. – P. X.

3 The Ombudsman of Korea. Annual Report 2002. – Seoul, 2003. – P. 1-2.

4 Qarang: Public Protector. South Africa. Annual Report. 1999.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida ombudsman institutining tashkil etilishida Ispaniyaning Xalq himoyachisi instituti modelining ta'siri katta bo'ldi va bu institut hozirgi kunda Argentina, Kolumbiya, Salvador, Gvatemala, Paragvay va Venesuela konstitutsiyalarida, Ekvador, Kosta-Riko va Panamada esa – maxsus qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Mintaqaning qator mamlakatlarida ombudsman instituti dastlab ijro etuvchi hokimiyat doirasida, keyin esa – qonunchilik hokimiyati doirasida ta'sis etildi. Jumladan, Argentina, Gonduras, Venesuela va Panamada aynan shunday bo'lgan edi. Lotin Amerikasi ombudsmanlari vakolatiga, inson huquqlarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, ular oldingi urushlarda inson huquqlarining ommaviy buzilishlaridan keyin mintaqadagi demokratlashtirishning muhim qismi sifatida ko'riladi.

XX asrning oxirgi 15 yilida va XXI asrning boshlarida ombudsman instituti sobiq sotsialistik mamlakatlarda ham ta'sis etilganligini alohida qayd etish lozim. 80-yillarning oxirigacha Sharqiy Yevropaning hech bir mamlakatida ombudsman mavjud emas edi. Faqat 1988-yil 1-yanvardan boshlab Polshada inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyat yurita boshladi, keyinroq esa, ombudsman Vengriya Respublikasida joriy etildi. Hozirgi kunda ombudsman institutlari sobiq SSSR hududida – Boltiqbo'yi respublikalarida, Moldovada, Ukrainada, Gruziyada, Rossiyada va O'zbekistonda faoliyat ko'rsatmoqda.

2000-yili uzoq davom etgan munozaralardan so'ng Chexiya Respublikasida, 2001-yilda esa – Slovakiya ombudsman institutlari ta'sis etildi. 2002-yil 31-iyunda Qirg'iziston Respublikasining Ombudsman (Akiykatchi) to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi. 2001-yil 19-sentabrda Qozog'iston Prezidentining Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha vakil lavozimi ta'sis etildi.

2003-yil may oyida Bolgariya parlamenti Ombudsman to'g'risidagi qonunini qabul qildi va u 2004-yil 1-yanvarda kuchga kirdi. 2003-yil noyabrida Armaniston parlamenti Inson huquqlari bo'yicha vakil to'g'risida qonun qabul qildi va 2004-yil 19-fevralida birinchi ombudsmanni sayladi. 2003-yil dekabrda Lyuksemburg parlamenti 2003-yil 16-iyuldagi Ombudsmanni ta'sis etish to'g'risidagi qonuniga muvofiq birinchi ombudsmanni tayinladi. 2009-yilda Tojikistonda Ombudsmanni ta'sis etish to'g'risidagi qonun qabul qilingan¹.

Hozirgi vaqtda dunyoning 140 mamlakatida 950 dan ortiq ombudsman institutlari mavjud². Bir xil davlatlarda bu mansabdor shaxs ombudsman

1 Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Сайдов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

2 Qarang: The International Ombudsman Institute. Directory, 2012.

deyiladi, boshqalarida – vositachi (mediator), uchinchilarida – parlament vakili, to'rtinchisida esa – fuqarolar huquqlari bo'yicha vakil va shu kabi boshqa nomlarda atalishi mumkin. Ularning turlicha nomlanishi, birinchi o'rinda, turli muhit, bir xil bo'lmagan huquqiy madaniyat, har xil tarixiy va falsafiy yondashuvlar va konstitutsiyaviy-siyosiy tizimlarga ta'siri orqali belgilanishi bilan bog'liqdir.

Butun dunyoda Ombudsman instituti fuqarolar shikoyatlarini suddan tashqarida ko'rib chiqadigan qo'shimcha institut sifatida nafaqat ayrim adolatsizlik hollarining oldini olishga, balki hokimiyat idoralari faoliyatini mexanizmidagi kamchiliklarni topishga va uning ishini yanada samaraliroq tashkil etishga ham imkon beradi, shuningdek, bu institut huquqiy davlatning o'z maqsad va vazifalariga erishishiga ko'maklashadi va shu tariqa, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga yordam beradi. Turli mamlakatlardagi ombudsman institutlarining funksiyalari va vazifalari ushbu davlatlarning o'ziga xos tomonlari va ularning tarixiy an'analari hamda huquqiy tizimini hisobga olgan holda o'ziga xos xususiyatlariga egadir.

3. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro shakllari

Jahonning turli davlatlarida ombudsman institutining asta-sekinlik bilan tarqalish jarayoni inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ularga huquqiy va texnikaviy yordam ko'rsatish uchun xalqaro va mintaqaviy ombudsmanlar tuzish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu bilan bir qatorda, mazkur institutlar milliy ombudsmanlarning xalqaro hamkorligi masalalarini muvofiqlashtirish, o'zaro maslahatlashuv forumlari sifatida maydonga chiqadi.

Hozirgi kunda xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi "xalqaro ombudsman instituti" tushunchasi shakllangan. Odatda, xalqaro ombudsmanlarni, ularning xalqaro maqomidan kelib chiqqan holda, ikki guruhga bo'lish mumkin: milliy ombudsman institutlarini birlashtirgan ombudsmanlarning xalqaro tashkilotlari va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasida tashkil etilgan ombudsman institutlari.

Shu nuqtayi nazardan, milliy ombudsmanlarni birlashtirgan birinchi guruhga, ya'ni xalqaro ombudsman institutiga Xalqaro ombudsmanlar instituti (XOI), Yevropa ombudsmanlari instituti (YeOI), Osiyo ombudsmanlari assotsiatsiyasi (OOA) kabilarni misol keltirish mumkin. Ikkinchi guruhga esa, BMT Ombudsmani, Yevropa Ittifoqi Ombudsmani kabi xalqaro hukumatlararo tashkilotlar doirasida tashkil etilgan ombudsman institutlarini kiritish mumkin.

Mazkur maqsadlarda, 1976-yili **Xalqaro ombudsman instituti (XOI)** tashkil etildi. XOIning qarorgohi Kanadaning Edmonton shahrida joylashgan edi, 2009-yilda – Avstriyaning Vena shahriga ko‘chirildi. XOIning maqsadlari, uning Nizomiga ko‘ra, quyidagilarni tashkil etadi: ombudsman ofislarining tadqiqotchilik va ta‘lim sohasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; ombudsmanlar to‘g‘risida axborotlarni yig‘ish, saqlash va tarqatish; ombudsmanlar xodimlari uchun o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish; ombudsman institutlari o‘rtasida axborotlar va tajribalarni almashish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va rivojlantirish. XOI faoliyatining asosiy shakllari quyidagichadir: ombudsmanlarning xalqaro konferensiyalarini o‘tkazish; ombudsman institutini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish; nashriyot faoliyati – byulletenlar, yillik ma‘lumotnomalar, kitoblar chiqarish va boshqa shu kabi ishlarni amalga oshirish.

Nizomga ko‘ra, XOI olti mintaqada: Afrika, Osiyo, Avstraliya va Tinch okeani mintaqasi, Yevropa, Karib orollari va Lotin Amerikasi, Shimoliy Amerikada faoliyat ko‘rsatadi. XOIning a‘zolari dunyoning 120 dan ortiq mamlakatlarining 170 ga yaqin ombudsmanlaridan tashkil topgan. 1998-yilning aprelidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili ham XOI a‘zosi hisoblanadi¹.

1988-yilda Yevropa ombudsman instituti (YeOI) tashkil etildi. Bugungi kunda Yevropaning deyarli barcha ombudsmanlari uning a‘zosi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi: ombudsman instituti faoliyati va inson huquqlarini himoya qilish masalalarini o‘rganish; ombudsman g‘oyalarini tarqatish; ombudsmanlarning milliy, mintaqaviy va xalqaro muassasalari bilan hamkorlik qilish. YeOlda doimiy va assotsiatsiyaviy a‘zolik qabul qilingan. YeOIning qarorgohi Insbruk shahrida (Avstriya) joylashgan². U o‘z faoliyatini nafaqat Yevropa mintaqasiga yoydi, balki boshqa mintaqalardagi milliy ombudsmanlar bilan ham yaqindan hamkorlik aloqalarini olib boradi. 2002-yil may oyida O‘zbekiston Ombudsmani mazkur tashkilotga a‘zo bo‘ldi.

Yana bir xalqaro mintaqaviy tashkilot – **Osiyo ombudsmanlari Assotsiatsiyasi (OOA)** hisoblanadi. OOA 1996-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning qarorgohi Islomobod shahri (Pokiston)da joylashgan. OOA mustaqil, nosiyosiy, demokratik tashkilot bo‘lib, o‘z oldiga Osiyoda ombudsman konsepsiyasini rivojlantirish maqsadini qo‘ygan. Osiyo, Okeaniya va Avstraliya mintaqalarining 15 mamlakatidan 23 ombudsman uning

1 Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 21–22.

2 Qarang: O‘sha manba.

a'zolari bo'lib, O'zbekiston mazkur tashkilotga to'la huquqli a'zo sifatida 2009-yilda a'zo bo'ldi.

OOAning vazifalari quyidagilardan iborat: Ombudsman konsepsiyasini rivojlantirish va uni Osiyoda rivojlantirishga ko'maklashish; ombudsmanlarning malakaviy ko'nikmalarini rivojlantirish; ombudsman instituti faoliyati sohasidagi ta'lim va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga ko'maklashish va rivojlantirish; mintqa ombudsman institutlari uchun treninglar va o'qitish dasturlarini tashkil etish; ombudsman instituti faoliyati sohasida tadqiqotchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga stipendiyalar va grant yordamlarini taqdim etish; ombudsman instituti to'g'risida axborotlar va materiallar yig'ish, saqlash va tarqatish; mintqa ombudsmanlari orasida axborot va tajriba almashishni tashkil etish; Osiyo mamlakatlari ombudsmanlarining davriy konferensiyalarini rejalashtirish va tashkil etish; Assotsiatsiya vazifalariga muvofiq ravishda boshqa faoliyatni amalga oshirish¹.

Ikkinchi guruhga kirgan ombudsman institutlari ichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ombudsmani instituti muhim o'rin tutadi.

BMT Ombudsman instituti Bosh Assambleyaning 2001-yil 14-iyundagi 55/258 va 2001-yil 24-dekabrda 56/253-rezolyutsiyalariga asosan ta'sis etilgan. 2002-yili Ombudsman o'z faoliyatini boshladi va shu yili BMT Ombudsmani devonxonasi ta'sis etildi va bu devonxonaning asosiy vazifasi Ombudsmanga o'z vazifalarini samarali bajarishi uchun ko'maklashish hisoblanadi. BMT Ombudsmanining asosiy vazifasiga Tashkilot Kotibiyati xodimlarining BMT mansabdor shaxslari va organlari orasida kelib chiqadigan nizolarini ko'rib chiqishda betaraf va mustaqil shaxs sifatida ko'maklashish kiradi.

BMT Ombudsmani nizolarning adolatli va obyektiv ravishda tartibga solinishiga ko'maklashadi va agar u yoki bu muayyan nizo yoxud muammoli vaziyatlar kelib chiqqan hollarda, ular ishlab chiqarish bo'limidagi xodimlarning noroziligiga sabab bo'lsa hamda mazkur holat mehnat jamoasida ziddiyatlarni keltirib chiqarsa, ulardagi mavjud vaziyatni o'zgartirish zarurligi to'g'risidagi o'z tavsiyalarini kiritadi.

Ombudsman Birlashgan Millatlar Tashkilotida mavjud bo'lgan barcha idora va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda ish yuritadi. Ombudsman Tashkilot va uning xodimlarining huquq va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, muayyan vaziyatda adolat tamoyillariga rioya etgan holda mojarolarning oldini olish uchun zarur bo'ladigan maslahatlarni berish

1 Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008. – С. 68.

va taklif yoki tavsiyalarni kiritish huquqiga ega. Ombudsman o'z funksional majburiyatlarini bajarar ekan, zarur holatlarda bevosita Bosh kotibga murojaat etadi hamda o'z faoliyati to'g'risida unga hisobot berib boradi.

Yevropa Ittifoqi ombudsmani (Mediator). Yel Ombudsmani Maastricht shartnomasi asosida tashkil etilgan. Uning maqomi, faoliyat usullari va vakolatlari Yevropa Parlamentining 1994-yil martdagi 94/262-sonli qarori¹ va Yevropa Parlamenti Ichki reglamentining 159–161-moddalari bilan belgilangan.

Birinchi Mediator 1995-yil may oyida tayinlandi va u hozirga qadar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mediatorga barcha fuqarolar va rezidentlar murojaat qilish huquqiga ega. Biroq uning vakolatlari Hamjamiyatlar va Ittifoq vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar bilangina cheklangan: u Ittifoq institutlari va organlari tomonidan o'z hokimiyatlarini suiiste'mol qilish oqibatida kelib chiqadigan nizolarni hal etishga qaratilgan nosudlov mexanizmidir².

Mediatorga shikoyatlar yozma ravishda, shikoyatchi to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ko'rsatilgan tarzda bevosita yoki Parlament deputatlari orqali topshiriladi.

Mediator shikoyatlar bo'yicha tekshirishlar olib boradi, tegishli institutlarga murojaat qiladi. Savol ostiga olingan institutlar uch oylik muddat ichida Mediatorga tegishli tafsilotlar va hisobotlarni berishi kerak. Mediator har yili yillik hisobotlarni e'lon qiladi. Hisobotlar Yevropa Parlamenti tomonidan muhokama qilinadi. Mediator hisobotlari tavsiyaviy maqomda bo'lishiga qaramay, yildan-yilga uning ta'siri oshib borayotgani kuzatilmoqda.

Parlament tashqi aloqalarda, uchinchi mamlakatlar bilan tuzilayotgan bitimlarda va ularning bekor qilinish jarayoniga o'zining muqobil fikri bilan ishtirok etar ekan, inson huquqlari va demokratik mezonlarga nisbatan qat'iy munosabatini namoyon etadi. Chunonchi, a'zo-davlatlar va uchinchi mamlakatlardagi inson huquqlari holati va demokratiya masalasi parlament muhokamalarining doimiy mavzusi hisoblanadi. Bu borada u, boshqa institutlar bilan qo'shma yoki o'zi mustaqil holda rezolyutsiyalar qabul qilishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati tarmoqlari doirasida hamda nodavlat tashkilotlari tashabbusi ostida tuzilgan ombudsmanlar ham

¹ Parlament qarori uchun qarang: JOCE L 113 du 9 mai 1994. – P. 15.

² Yunusov X. Yevropa Ittifoqi huquqi (Yevropa Ittifoqi va hamjamiyatlari huquqi): Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – B. 374.

mavjud. Ya'ni, milliy darajadagi ombudsmanlarni ham ularning tuzilishi, maqomi, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tasniflashtirib, turli guruhlariga bo'lish mumkin. Shuning uchun ham, turli mamlakatlarda milliy institutlarning nomlanishini, huquqiy tizimlarda ularning faoliyat yuritishining turli xilligini hisobga olib, mazkur institutlarning quyidagi asosiy modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- *inson huquqlari bo'yicha komissiya* (Gretsiya, Hindiston, Indoneziya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Meksika, Mongoliya, Tailand, Kamerun, Nigeriya, Uganda, JAR va boshqalar);
- *inson huquqlari bo'yicha maslahat komissiyasi (kengashi)* (Fransiya, Marokash, Rossiya, Lyuksemburg va boshqalar);
- *kamsitishlarga qarshi komissiya* (Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada);
- *inson huquqlari bo'yicha institut (markaz)* (Germaniya, Daniya, Norvegiya, Iordaniya, O'zbekiston);
- *ombudsman inson huquqlari bo'yicha vakil, xalq himoyachisi, parlament komissari, parlament advokati sifatida turli xil nomlarda* (Avstriya, Argentina, Ozarbayjon, Belgiya, Gruziya, Ispaniya, Polsha, Moldova, Peru, Sloveniya, Ukraina, O'zbekiston, Shvetsiya va boshqalar).

Takrorlash uchun savollar:

1. *Inson huquqlari sohasidagi milliy institutlarning zaruriyati va ahamiyati nimada?*
2. *Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning vujudga kelish tarixini tushuntirib bering.*
3. *"Ombudsman" so'zining ma'nosi nima?*
4. *Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi haqida so'zlab bering.*
5. *Inson huquqlariga oid milliy institutlar tasnifini tushuntirib bering.*
6. *Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro tashkilotlari va ularning vazifalarini tushuntirib bering.*
7. *"Parij tamoyillari" nima?*
8. *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro ombudsman institutlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering*
9. *Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning qaysi modellarini bilasiz?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Венская декларация и Программа действий // Права человека: Учебник-хрестоматия. – Т.: 2001.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки. № 4, ООН, Нью-Йорк и Женева, 1995.
4. Принципы, касающиеся статуса национальных учреждений. Резолюция 48/134 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 г.
5. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
6. Сунгуров А.Ю. Институт Омбудсмана: эволюция традиций и современная практика (опыт сравнительного анализа). – СПб.: Норма, 2005.
7. Тамбовцев В.В. Комментарий к Федеральному конституционному закону "Об Уполномоченном по правам человека в Российской Федерации". – М.: Юриспруденция, 2006.
8. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2010.
10. Омбудсманы мира. Сборник статей. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

MAXSUS QISM

O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI

10-mavzu. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga yondashuv

1. O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
2. O'zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimining shakllanishi.
3. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi.
4. O'zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlari.
5. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim – inson huquqlari madaniyatini shakllantirishning asosi.

1. O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillarini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin bo'lib, bu ikki bosqichning har birida inson huquqlari ham o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega.

Birinchi bosqich – 1991–2000-yillar: birinchi darajali islohotlar va o'tish davri islohotlari va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish. Bu davrda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning huquqiy va tashkiliy asoslari, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan asoslari barpo etildi, inson huquqlari va erkinliklarini rag'batlantirish, ularga rioya etish va himoya qilish tizimi shakllantirildi. Ayni shu yillarda O'zbekiston BMTning inson huquqlariga oid oltita asosiy hujjatlariga qo'shildi, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, inson huquqlari sohasida uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etildi.

Keyingi bosqich – 2001-yildan – hozirgacha: faol demokratik yangilanish va mamlakatni modernizatsiyalash davri. Bu davr, *birinchidan*, umumdavlat va mintaqalar manfaatlarini ifodalovchi ikki palatali parlamentning tashkil etilishi va faol ishlashi asosida qonunchilik hokimiyati roli va ta'sirining kuchayishi; *ikkinchidan*, davlat miqyosidagi muhim qarorlar qabul qilinishida siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ta'sirining oshishi, davlat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazorati va monitoringini amalga oshirish borasida nodavlat

notijorat tashkilotlari nufuzi va ahamiyatining oshishi; *uchinchidan*, sud-huquq tizimini liberallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan tub islohotlarning amalga oshirilishi, jazo tizimidan o'lim jazosining chiqarib tashlanishi, sud hokimiyati mustaqilligi va samaradorligining mustahkamlanishi; va *to'rtinchidan*, inson huquqlari ta'limi sohasida keng axborot-ma'rifiy ishlarining amalga oshirilishi, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Inson huquqlarini himoya qilish – Konstitutsiyaning asosiy prinsipi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi va pirovard maqsadi hisoblanadi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XIV sessiyasida so'zlagan nutqida inson huquqlarini muhofaza qilish sohasida milliy institutlar tizimini tuzish, YeXHT/DIHB bilan insoniylik mezonlari masalasida hamkorlikni kuchaytirish, nohukumat huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish zarurligini uqtirib o'tgan edi¹. Mustaqillik yillarida inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar tizimi shakllandi. Konstitutsiya, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan xalqaro normalar va andozalar inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston qonunlarining negizi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid yuzdan ortiq qonunlar qabul qilingan. Ayni paytda mamlakatimiz inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro shartnoma va konvensiyalarga qo'shilgan. Ular inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tashkil etadi va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning faoliyati, ularning huquqiy maqomi, vakolatlari va majburiyatlari, shuningdek, qator boshqa jihatlarini ham tartibga soladi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Konstitutsiyada inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga ustuvor e'tibor berilishini ta'kidlab, O'zbekiston Prezidenti I. Karimov o'z chiqishlarida inson huquqlarini ta'minlashning quyidagi beshta asosiy tamoyillarini ko'rsatib berdi:

birinchi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta'minlash;

ikkinchi, inson huquqlariga oid milliy qonunchilikni xalqaro normalar asosida takomillashtirish;

uchinchi, qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.

to'rtinchi, sud islohotlarini amalga oshirish yo'li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;

*beshinch*i, aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish¹.

Mazkur tamoyillar mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash borasida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda va aynan shu tamoyillar asosida inson huquqlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, hozirgi kunda O'zbekistonda inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi va ularni himoya qilishning milliy mexanizmi shakllangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasidagi o'z siyosatini quyidagi tamoyillar negizida qurmoqda:

birinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan g'oyalar va qadriyatlarga hamda inson huquqlari sohasida o'zining xalqaro majburiyatlariga sodiqlik;

ikkinchi tamoyil – inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asoslangan asosiy milliy manfaatlardan kelib chiqishi;

uchinchi tamoyil – shaxs manfaatlari ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining muvozanati tamoyili;

to'rtinchi tamoyil – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va sud-huquq sohalaridagi barcha islohotlarning tadrijiy bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va tizimlilik xususiyati;

*beshinch*i tamoyil – alohida toifadagi shaxslar: bolalar, yoshlar, ayollar, nogironlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishning ustuvorligi;

oltinchi tamoyil – ochiqliq va oshkoralik;

yettinchi tamoyil – davlatning fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan ijtimoiy hamkorligi;

sakkizinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida faol xalqaro hamkorlik.

2. O'zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimining shakllanishi

O'zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlariga oid yaxlit qonunlar tizimi shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, In-

1 Saidov A.X., Sultonov S.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Inson huquqlari. – T.: Adolat. 1998. – B. 6.

son huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va boshqa xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan xalqaro andozalar inson huquqlari sohasidagi milliy qonunlarning negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi katta miqdordagi normativ-huquqiy hujjatlar (Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar, qonunlar, qonunosti hujjatlari)dan tashkil topgan. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada inson huquqlari bo'yicha alohida bo'lim mavjud bo'lib, unda Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan inson huquqlarining barcha turlari, barcha qirralari o'z aksini topgan. Konstitutsiyaga muvofiq kompleks qonunlar qabul qilingan bo'lib, ularda insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari tasdiqlanmoqda va aniqlashtirilmoqda. Ularga: Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Xo'jalik-protsessual, Jinoyat-ijroiya, Mehnat, Oila, Yer, Uy-joy, Soliq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks kabi 15 ta kodeks va 600 dan ziyod qonunlar kiradi.

Hech bir alohida qonunning qoidasi Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan insonning asosiy huquqlarini cheklab qo'yishi mumkin emas, agar bunday cheklash holati mavjud bo'lsa, bu masala Konstitutsiyaviy sudga bunday cheklashning konstitutsiyaviyligini aniqlash uchun berilishi mumkin. Inson huquqlari cheklanishi xalqaro normalarga muvofiq (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi), milliy va davlat xavfsizligini ta'minlash, millatning ma'naviy va ruhiy sog'lig'ini himoya qilish maqsadlarida amalga oshirilishi mumkin va u qonunchilikda aniq belgilab qo'yilishi kerak.

Yuqorida qayd etganimizdek, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid yuzdan ortiq qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston qo'shilgan inson huquqlariga oid 70 ga yaqin xalqaro shartnoma va konvensiyalarning normalarini o'zida aks ettiradi.

Professor A.X. Saidov O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi qonunchilik tizimini besh tarkibiy qismga bo'ladi. Bular:

birinchisi, fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar – vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, fuqarolarning murojaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish, umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat, muqobil xizmat to'g'risidagi va boshqa qonunlar;

ikkinchisi, fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar – jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, saylovlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish, kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari, ommaviy axborot vositalari, axborot olish erkinligi va kafolatlari, referendum to'g'risidagi va boshqalar;

uchinchisi, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar mulkchilik, tadbirkorlik, yer, ijara, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, garov, sug'urta, dehqon xo'jaligi, bankrotlik, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar, fuqarolik, mehnat, soliq, bojxona kodekslari;

to'rtinchisi, insonning madaniy-ma'naviy huquqlariga oid qonunlar – fan, ta'lim, madaniyat, muzeylar, madaniy merosni himoya qilish, davlat tili to'g'risidagi va boshqa qonunlar;

beshinchisi, inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar (ko'p tomonlama va ikki tomonlama) – milliy tizimning tarkibiy qismi sifatida¹.

O'zbekiston Respublikasi o'z Konstitutsiyasida inson huquqlariga oid quyidagi muhim xalqaro huquqiy qoidalarni mustahkamlagan:

birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlat majburiyatidir;

ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklari tizimining xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqlidir, ya'ni tabiiylik g'oyasi va nazariyasining e'tirof etilishi;

to'rtinchidan, hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;

beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishi;

oltinchidan, fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

yettinchidan, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarining buzilmasligi zarurligi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlariga:

birinchidan, inson huquqlarini to'la amalga oshirishning huquqiy kafolatlarini ta'minlash;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy adliya (sudlov)ni rivojlantirish;

uchinchidan, inson huquqlariga oid xalqaro va milliy institutlarni shakllantirish va ular faoliyatini takomillashtirish;

1 Saidov A.X. Inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi: ahvol, muammolar va istiqbollar // "Inson manfaatlari: qonun hujjatlarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman hujjatlari. – T.: Ijtimoiy fikr, 1998. – B. 19.

to'rtinchidan, yangi demokratik institutlarni, jumladan, ombudsman institutini taraqqiy ettirish kiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi-ning 1992-yildagi Konstitutsiyasida xalqimiz, millatimiz, davlatchiligimizning va insoniyat huquqiy madaniyatining barcha ilg'or qadriyatlari chambarchas uzviy bog'liq ekanligi o'z aksini topdi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha barcha me'yorlarni bajarish barcha davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyati hisoblanadi. Unda jamiyat keng qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning huquq va erkinliklari haqidagi bilimlarni o'rganish va ularni tarqatish muhim ahamiyatga egadir.

3. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi

O'zbekistonda qurilayotgan demokratik insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari va vositalari, ilg'or fan va madaniyat barpo etish, xalq farovonligini oshirish, takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qulay sharoitlar vujudga keltirayotgan jamiyatdir.

Adolatli fuqarolik jamiyati mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligi, ularning qardoshlarcha hamkorligi asosida fuqarolarning do'stligi va birligini yaratib, g'oyat uyushgan, yuksak ongli va ma'rifatli kishini kamol toptirmoqda, har bir fuqaroning baxt-saodati to'g'risida hammaning g'amxo'rlik qilishi va hammaning baxt-saodati to'g'risida har bir fuqaroning g'amxo'rlik qilishini o'z hayotiy qonuni qilib oladigan baynalmilal jamiyatdir.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi, bu aloqalar ularning o'zaro huquqlari va burchlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqarolik huquqiga ega. Insonning fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan o'zboshimchalik bilan mahrum qilinishi, kamsitilishi qonun bilan man etiladi.

Har bir inson, shu davlat fuqarosimi, chet el fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsmi, baribir o'zi istiqomat qilayotgan davlat hududida shu davlat bilan huquqiy aloqada bo'ladi. Barcha fuqarolar istiqomat qilayotgan shu davlat qonunlariga, ijtimoiy va huquqiy tartibotga to'la rioya qilishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va fuqaroligi to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat bilan fuqarolarning siyosiy-huquqiy munosabatlarini, bu munosabatlar ularning o'zaro huquqlari, erkinliklari va burchlarini ifodalashi orqali kelib chiqishi aniq ifodalangan.

"O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganidan qat'i nazar, hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir shaxsga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida mumkin qadar to'laroq ishtirok etish imkonini beradi. Chunonchi, shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi"¹.

O'zbekiston davlati o'z organlari, mansabdor shaxslari orqali fuqarolar oldida, fuqarolar esa, davlat oldida mas'uldirlar. Davlat mamlakatimiz hududida va uning tashqarisida o'z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Fuqarolik deganda, insonning huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining davlat ichida va uning tashqarisida qo'llanishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro normalarga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar", deyilib, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomi qonuniy ifoda etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi mamlakat hududida chet el fuqarolarining doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilish jarayonidagi demokratik huquq, erkinlik va burchlarini aniq-ravshan belgilab bergan. Ularga O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan demokratik huquq, erkinlik va burchlar berilib, mamlakat fuqarolari bilan teng foydalanadilar.

1 Karimov I. Konstitutsiya to'g'risida. – T.: Akademiya, 2000. – B. 54.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining shaxsiy, mulkiy, oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mehnat qilish, dam olish, salomatligini mustahkamlash, malakali tibbiy yordam olish, ijtimoiy ta'minot olish, uy-joyli bo'lish, bilim olish, tarixiy, madaniy yodgorliklardan foydalanish kabi huquq va erkinliklardan ham keng foydalanadilar. Ularga mulkdorlik, fan, adabiyot, san'at, ixtiro, ratsionalizatorlik huquqlari berilgan. Shuningdek, ular vijdon erkinligi, tijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalariga birlashish huquqidan ham foydalanishlari mumkin. Bu huquq va erkinliklarga to'sqinlik qilingan taqdirda ular ma'muriy va sud organlariga himoya qilinish uchun murojaat etish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston qonunchiligi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga keng demokratik erkinliklar berilishi bilan ulardan o'zbek jamiyati va davlati o'rnatgan tartib-qoidalariga zid xatti-harakat qilmasliklarini talab etadi.

Ayni paytda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga davlatimiz fuqarolari bilan demokratik huquq va erkinliklarda hayotning hamma jabhalarida tenglik berilgan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Qator huquq va erkinliklar borki, ular xarakteri jihatidan faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy huquq va erkinliklar har bir insonga, har bir fuqaroga taalluqli bo'lib, ular barcha uchun teng va barobardir. Konstitutsiyaning Muqaddimasida inson huquqlariga sodiqlik tantanali ravishda e'lon qilingan, unda hozirgi zamon konstitutsiyalariga xos bo'lgan umumiy yo'nalishlar aks etgan, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari birinchi o'ringa qo'yilgan, unda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, ularning kafolati hamda fuqarolarning burchlari mustahkamlangan.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. *"Davlat organlari va mansabdor shaxslar, – deyiladi Asosiy Qonunimizning 2-moddasida, – jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar"*. Bu fuqarolarning huquq va manfaatlari ustunligini va ular konstitutsiyaviy darajada kafolatlanishini anglatadi. Inson, uning hayoti, erki, sha'ni va qadr-qimmatini hamda boshqa huquq va erkinliklari muqaddas bo'lib, ular davlat tomonidan himoyalanaadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinlik va burchlari ularning jamiyat va davlat o'rtnasidagi munosabatlarini o'zida ifodalaydi, davlat manfaati bilan shaxs manfaati birligida o'z aksini topadi, shuning uchun ham, bu erkinliklardan fuqarolar keng foydalanib, o'zlariga yuklatilgan burchlarni vijdonan bajarishga intiladilar.

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari uch guruhga bo'linadi:

O'zbekiston fuqarolari, erkinlik va burchlarining ***birinchi guruhiga*** ularning uy-joy daxlsizligi, shaxsiy xatlarining sir saqlanishi, vijdon erkinligi, mulk, vorislik kabi huquqlari kiradi. Bu huquq va erkinliklar o'zbek jamiyati va davlatida shaxs kamolotining asosiy omilidir.

Ikkinchi guruh O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarining siyosiy huquqlari va demokratik erkinliklariga asosan jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalarga uyushish, saylash va saylanish, so'z, matbuot erkinligi, majlis va mitinglar o'tkazish huquqlaridan iborat.

Uchinchi guruh ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar bo'lib, ular mehnat qilish, dam olish, moddiy ta'minot kabi huquqlardan iborat.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning sha'ni, qadri, obro'-e'tiborini himoya qiluvchi qator qonunlarning joriy etilishi xalqaro normalarga to'la mos keladi va haqiqiy demokratik, insonparvar, adolatli davlat tuzumining insoniy mohiyatidan kelib chiqadi.

Konstitutsiyaning 25-moddasida: "har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega" ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-moddasida "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyining daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari tarzda bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas", deb fuqarolarning bu boradagi demokratik huquq va erkinliklari qonuniy ifoda etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga asosan har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

Respublikamiz fuqarolari mansabdor shaxslar, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining nojo'ya harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga egadir. Fuqarolarning shikoyatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi va hal qilinishi lozim. Mansabdor shaxslarning qonunni buzib, vakolat doirasidan chiqib qilgan g'ayriqonuniy harakatlari, shuningdek,

fuqarolarning haq-huquqlarini kamsitadigan harakatlari ustidan qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bobi fuqarolarning burchlari (majburiyatlari)ga bag'ishlangan bo'lib, shunga ko'ra, O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning eng muhim burchlari (majburiyatlari)dan biri Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, Asosiy qonunda belgilab qo'yilgan burchlarni bajarishdir (47- va 48-moddalar). Mazkur konstitutsiyaviy talab zamirida mamlakatda qat'iy qonunchilik rejimini ta'minlash maqsadi yotibdi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish – nafaqat ularning qoidalarini buzmaslik, balki fuqarolar o'z faoliyati, hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy tamoyil va asoslarni, qonunchilik normalarini real voqelikka aylantirishga ko'maklashishlari demakdir. *“Fuqarolar, – deb ta'kidlanadi Konstitutsiyaning 48-moddasida, – Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”*¹.

Xalqaro me'yorlar talabiga muvofiq, O'zbekistonda nafaqat inson huquqlari va erkinliklarini konstitutsiyaviy-huquqiy himoyalash asoslari va kafolatlari shakllantirildi, balki uni rag'batlantirish, himoya qilish yuzasidan tashkiliy mexanizm hamda tegishli milliy infratuzilma ham vujudga keltirildi.

4. O'zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlari

Huquqiy davlatga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurishni bugungi kunda aksariyat demokratik jamiyatlar kabi bizning jamiyatimiz ham o'zining pirovard maqsadi qilib olgan bo'lib, bu yo'lda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ichida sud-huquq tizimini isloh qilish dolzarb va doimiy vazifa hisoblanadi. Chunki, “Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir”².

Shuning uchun ham, mustaqillikka erishilgan dastlabki davrdanoq mamlakatimizda bu sohadagi islohotlar sobitqadamlik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Jinoyat qonunchiligi liberallashtirilmoqda va sud tizimida ixtisoslashuvlar amalga oshirilmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2009. – B. 18.

2 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 16.

Sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarning mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini yanada yaxshiroq ta'minlashdagi ahamiyati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: *"Sud islohotlarini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish – huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir. Ijtimoiy turmushimizning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati jiddiy oshirilishi zarur.*

Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog'i lozim.

*... Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim"*¹.

Davlat boshlig'ining mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq sud hokimiyatiga bunday jiddiy e'tibor qaratishi va mamlakatda sud-huquq islohotlariga katta ahamiyat berishidan maqsad, avvalambor, huquqiy fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlat qurish edi.

Chunki, mustabid davri sud hokimiyatining faoliyat yuritish tamoyillari bu hokimiyatni ko'proq jazolovchi organ sifatida namoyon qilgan edi. Bu davrning sud hokimiyati siyosiy partiya hukmronligi ostida va asosan, yuqori lavozimli partiya amaldorlari tayziqi ostida ish olib borganliklari natijasida mustaqil faoliyat ko'rsata olmagan hamda amalda o'zining "adolat tarozisi" sifatidagi rolini to'liq bajara olmagan. Hatto, nosudlov organlari tomonidan insonlarni jazoga tortish hollari yuz bergan. Bunga tarixdan juda ko'plab misollar keltiriladi. Bu davrda yetarli darajada adolatli ish olib borilmaganligi oqibatida qanchadan-qancha shaxslar, hamyurtlarimiz siyosiy qatag'on qurbonlari bo'lgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab Prezidentimiz tashabbusi bilan kun tartibiga, eng avvalo, Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyani qabul qilish masalasi qo'yildi. 1992-yil 8-dekabrda o'z urf-odatlarimiz, milliy tariximizdan kelib chiqib hamda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, 1991-yil 30-sentabrda O'zbekiston qo'shilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi talablariga mos keluvchi Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Konstitutsiyamizda hokimiyatlar bo'linish tamoyiliga asoslanib sud, alohida mustaqil hokimiyat, ya'ni sud hokimiyati darajasiga olib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasida O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqqa-

¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: "O'zbekiston", 1997.

ruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilab qo'yildi. Shunga asoslanib, hozirda ham respublikamizda sud-huquq islohotlari jadallik bilan davom ettirilmoqda. Bu borada keyingi yillarda sudlarning takomillashuvi yuzasidan bir qancha Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, qonunlar qabul qilindi.

Jumladan, 1995-yil 30-avgustda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida", 1999-yil 23-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil etish to'g'risida", 1993-yil 2-sentabrda "Sudlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, 2001-yil 14-dekabrda ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning 2000-yil 14-dekabrda 164-11-sonli "Sudyalar malaka hay'atlari to'g'risida"gi, "Sud xodimlarining malaka darajasi to'g'risida"gi, "Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizomlarga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 23-sentabrda 383-sonli "O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 24-sentabrda Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha Oliy malaka komissiyasi" tashkil etildi. Mazkur farmonga ko'ra, 2001-yil 19-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarni tanlash va lavozimga tavsiya etish bo'yicha "Oliy malaka komissiyasi to'g'risida"gi Farmon asosida tashkil etilgan komissiya yangi tahrirdagi nizomi tasdiqlanib, komissiya zimmasiga sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan takomillashtirish, barcha bo'g'indagi sudyalarni tanlash va lavozimiga taqdim etish vazifalari yuklatildi. Endilikda har bir viloyat, shuningdek, unga tenglashtirilgan sudlardagi malaka hay'atlarining o'zi sud kadrlarini uning layoqati, axloqiy va ishchanlik sifatleri, bilim darajasi, dunyoqarashi, amaliy ish tajribasiga jiddiy e'tibor bergan holda tanlaydigan bo'ldi va bu malaka hay'atlariga ulkan mas'uliyat yuklaganligidan ham dalolat beradi¹.

Sud hokimiyati sud qarorlarini ijro etish kabi ijro hokimiyatiga xos bo'lgan vazifalardan ozod qilindi. Bu hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlar bo'linish tamoyilining mazmun-mohiyatini yana bir qaror topishi bo'ldi. Sud tizimidagi mazkur o'zgarishlar yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topdi.

¹ Usmonov A. Mustaqillik yillarida sud hokimiyatini odil sudlovni amalga oshiruvchi yaxlit tizim sifatida shakllantirish// "Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007. – B. 18.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida "Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti" tashkil etildi. Bu tuzilmaning tashkil etilishi sudlarning butun diqqat-e'tiborini o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan xalos qilib, asosan, odil sudlovni amalga oshirishga qaratish imkonini berdi.

Sud hokimiyatida amalga oshirilgan eng katta o'zgarishlardan biri umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashtirilgani bo'ldi. Avvallari bir vaqtda ham jinoyat, ham fuqarolik ishini ko'rgan sudya endilikda faqatgina yo fuqarolik yoki jinoyat ishini ko'radigan bo'ldi. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlarning tashkil etilishi jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda sifatli ko'rib chiqish orqali inson huquq va erkinliklarining to'la va har tomonlama himoya qilinishiga yordam bermogda.

Islohotlar davrida fuqarolarning sud orqali himoyalaniish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirilib, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaytirilganligi xususida Yurtboshimiz, 2010-yilning 12-noyabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi qilgan ma'ruzasida shunday deydi: "Aynan ushbu davrda kassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning appelyasiya tartibi joriy etilgani ham muhim yangilik bo'ldi. Mazkur o'zgarishlarga muvofiq endilikda appelyasiya instansiyasi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uni o'zi to'la hajmda ko'rib chiqishi mumkin.

Bugungi kunda fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini kassatsiya instansiyasida, o'z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo'lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko'rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta'kidlash lozim. Amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo'l qo'yimaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Shu borada quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa, 2009-yil yakunlariga ko'ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig'i apellatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etilgan"¹.

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 18.

O'zbekistonda sud hokimiyatini isloh qilishda "Xabeas korpus" instituti, ya'ni sanksiya berish vakolatining sudlarga o'tkazilishi bilan bog'liq jinoyat-protsessual huquqi institutining bugungi jinoyat-protsessual jarayoniga kiritilishi bilan odil sudlovni amalga oshirishda adolatlilik, insonparvarlik prinsiplarining haqiqiy tantana qilishi uchun yana bir huquqiy kafolat yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmonidan kelib chiqqan holda, 2007-yilning iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bilan 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab qamoqqa olishga sanksiya berish vakolati sudlarga o'tkazildi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi inson huquq va erkinliklarini himoyalashning protsessual kafolatlarini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldiki, unga ko'ra, dastlabki tergovga xolislik, tortishuvchilik, sudga murojaat qilish erkinligi va sud orqali himoyalalanish prinsiplari kuchaytirildi. Ya'ni, tergovchi va prokuror gumon qilinuvchi va ayblanuvchini qamoqqa olishga yoki dastlabki tergov muddatini uzaytirishga faqat sudning qarori bilan haqli bo'ldilar¹. Buning amaliy natijasi to'g'risida gapirganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2010-yil 12-noyabr-dagi qo'shma majlisida keltirgan dalillarini aytish ayni muddao bo'ladi: *"Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning dahlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq mazkur ehtiyoj chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi"*².

Demak, sud majlisida ayblov va himoya taraflarining tengligini ta'minlashning yana bir huquqiy asosi yaratilishi bilan milliy qonunchilimiz nafaqat rivojlanish bosqichiga chiqdi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning yanada samarali mexanizmi yaratildi.

1 Inog'omjonova Z.F. Dastlabki tergovda sud nazoratini amalga oshirish mexanizmi.//Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007. – B. 6–7.

2 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 22.

Shuningdek, 2008-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligini nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni'da ham mamlakatdagi demokratik islohotlarni, shu jumladan, sud hokimiyatidagi islohotlarni, ya'ni uning chin insonparvar va adolatli hokimiyat sifatidagi mavqeini yanada oshirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyundagi "Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori ham sud hokimiyati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qilingan muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Ushbu Markazni tashkil etishdan maqsad, mamlakatdagi sud hokimiyatida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish va uning adolatparvarlik rolini yanada kuchaytirishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud hokimiyatini yanada mustahkamlash va sudyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 2012-yil 3-avgustdagi va 2012-yil 30-noyabrdagi farmonlari qabul qilindi. Ularda sudyalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularning yoshiga nisbatan senzlar o'zgartirildi. Ushbu farmonlar sud organlarining davlat boshqaruvidagi roli va o'rmini oshirishga, sud organlarining mustaqil ish yuritishda va sud xodimlarining ijtimoiy maqomini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda, sudyalik lavozimiga zaxiraga olingan shaxslar hamda ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlangan (saylangan) sudyalarni Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudida majburiy tayyorgarlik va stajirovka o'tashlari ko'zda tutilgan.

Sud tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda jinoyat qonunchiligi kundan-kunga takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi Ikkinchi chaqiriq 6-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jinoyat qonunchiligining insonparvarlik va adolat tamoyillaridan kelib chiqib, jazoni liberallashtirish to'g'risidagi qonunchilik tashabbusi bilan chiqdi. Bunga ko'ra, Oliy Majlis tomonidan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun qabul qilindi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni.//Xalq so'zi, 2008-yil 2-may.

Mazkur qonunga ko'ra, jinoyatlarning tasnifi o'zgartirildi. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish natijasida Jinoyat kodeksida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlarning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi.

Mamlakat qonunchiligidagi insonparvarlik tamoyillariga sodiqlikning yana bir belgisi esa, jinoiy qonunchiligimizdan o'lim jazosini butunlay chiqarib tashlash bo'ldi. 2005-yilning 1-avgustidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga hamda ushbu Farmonning mantiqiy davomi sifatida 2007-yilning iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga binoan, O'zbekistonda 2008-yilning 1-yanvaridan o'lim jazosi jazo turi sifatida chiqarib tashlandi va u endi qo'llanilmaydi. Uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etildi.

O'zbekistonda o'lim jazosi bekor qilinishining ahamiyati xususida Prezident I. Karimov shunday deydi: *"Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi xalqaro hamjamiyatning katta e'tibor va e'tirofiga sazovor bo'lgani, albatta, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik o'ta muhim voqeadir. Nufuzli xorijiy ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, ushbu chora va bu sohada yuqorida ko'rsatilgan boshqa bir qator ishlarning amalga oshirilishi bilan O'zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratildi. Xalqaro ekspertlarning bu boradagi qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi Germaniya va Polshada 5 ta, Belgiya va Rossiyada 6 ta, Daniyada 9 ta, Shvetsiyada 13 ta, Fransiya 18 ta, Gollandiyada 19 ta jinoyat turi bo'yicha tayinlanishi mumkin.*

*O'zbekistonda esa umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, faqat ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun tayinlanadi. Ushbu jazo turi bizning mamlakatimizda xotin-qizlarga, jinoyat sodir etgan paytda 18 yoshga yetmagan shaxslarga va yoshi 60 dan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas"*¹.

Jinoyat qonunchiligini liberallashtirishda iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo'yicha qamoq va ozodlikdan mahrum etish jazolari o'rniga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiyani qo'llash imkoniyati ancha

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 21.

kengaytirilishi bu qonunchilikni yanada insonparvarlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Jinoiy jazo tizimidan insonparvarlik tamoyillariga mutlaqo zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish tarzidagi jazo turi chiqarib tashlandi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 11 ta moddasiga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi haqidagi qoidalar kiritildi¹.

Ya'ni, jinoyat sodir etgan shaxs yetkazilgan moddiy zararni to'liq qoplagan taqdirda, sud tomonidan unga nisbatan ozodlikdan mahrum etish tariqasida jazo tayinlanishiga yo'l qo'ymaydigan me'yorlar kengaytirildi. Jazo tizimida muqobil jazo turlari ko'paytirildi. Bu bilan esa, sodir etilgan jinoyatlar uchun jazolar odilona bo'lishi ham ta'minlanmoqda.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQShda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir².

Jinoyat qonunchiligida ko'zda tutilgan ushbu yengilliklarni kiritishdan maqsad, insonni imkoni boricha jamiyatdan ajratmaslikka, unga o'z axloqini o'z vaqtida tuzatib olishi uchun yanada ko'proq va muqobil imkoniyatlar yaratib berishga qaratilgandir.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar jarayonida huquqni qo'llash va sud amaliyotiga 2001-yildan boshlab yarashuv insituti kiritilishi va bu institutning samarali faoliyat ko'rsatishini islohotlarning ijobiy natijalari sifatida alohida qayd etib o'tish lozim. Mazkur institutning ahamiyati to'g'risida Prezidentimiz shunday deydi: *“Yarashuv institutining talabiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoiy qilmishni sodir etgan shaxs jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplab bergan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.*

Mazkur institutning samaradorligi hamda o'zbek xalqining rahmdillik va kechirimlilik kabi ko'p asrlik an'analariga mosligi uning izchillik bilan kengayib borishiga asos bo'ldi. Hozirgi kunda 53 ta jinoyat tarkibi bo'yicha

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 20.

2 O'sha joyda.

yarashuv institutini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan"¹. Bugungi kunga kelib yarashuv institutining joriy etilishi natijasida 130 ming nafarga yaqin fuqaro jinoiy javobgarlikdan ozod etildi.

O'zbekiston Oliy sudi Plenum majlislarida sud amaliyotini ko'rib chiqar ekan, inson huquqlarining barcha turlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratadi. Oliy sud Plenumi tomonidan chiqariladigan qarorlar huquqni sharhlash akti hisoblanadi va barcha huquqni muhofaza qilish va sud organlari uchun umummajburiy xususiyat kasb etadi. Oliy sud plenumlari insonlarning shaxsiy daxlsizligini ta'minlash va qiynoqqa qarshi kurashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunga Oliy sud Plenumining 2003-yil 19-dekabrda "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-sonli va 2004-yil 24-sentabrda "Dalillar maqbulligiga oid Jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 12-sonli Qarorlarini misol qilib keltirish mumkin.

2005-yil 1-iyuldan tadbirkorlik subyektlariga qator huquqiy ta'sir choralari, jumladan, moliyaviy sanksiyalarning faqat sud tartibida qo'llanish tartibi kiritildi. Ushbu mexanizmning joriy qilinishi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni qo'shimcha kafolatlash imkoniyatini yaratishga va tadbirkorlik faoliyatini asossiz cheklashga yo'l qo'ymaslikka yordam berdi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2007-yil 1-yanvardan fuqarolarga buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini nafaqat fuqarolik va xo'jalik sudlari orqali, balki hakamlik sudlariga murojaat qilish yo'li bilan himoya qilish imkoniyatini bergan O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Doimiy yoki vaqtinchalik asosda tashkil etiladigan hakamlik sudlari fuqarolik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan xo'jalik nizolarini hal etishga qaratilgan.

2008-yil dekabrda ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxslarga va mahkumlarga amnistiya aktini qo'llash bo'yicha vakolatini sudga o'tkazish yo'li bilan amnistiya aktini qo'llash tartibi qonun darajasida takomillashtirildi va bu omil bugungi kunda insonning huquq va erkinlarini sud tomonidan himoya qilish kafolatlarini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, 2009-yil yanvarda sud hujjatlarini majburiy ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish hamda sud hujjatlarini ijro etmaslik uchun

1 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 22–23.

javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu o'zgartirishlar sud qarorlarini ijro etishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu, shubhasiz, insonning huquq va erkinliklari hamda yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi bayon qilingan holatlarni hisobga olsak, huquqiy demokratik davlat qurish davrida olib borilayotgan sud-huquq islohotlarida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Davlatimiz rahbari Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida "Og'ir jazo, ayniqsa, fuqarolarni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish samaradorligi jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki, birinchi navbatda, qonunni buzgan shaxsning jazoning muqarrarligini nechog'li anglashiga bog'liq", – deya ta'kidlaganlaridek, jazoning qayta tarbiyalash va ogohlantirish ta'siri aslo uning og'irligida emas, balki qanchalik muqarrar va adolatli ekanligidadir¹.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar erishilgan yutuqlar bilan to'xtab qolgani yo'q. Balki bu islohotlar yanada yangi bosqichga chiqmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusida qilgan ma'ruzasida sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish yuzasidan quyidagi yo'nalishlarda aniq-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha o'z takliflarini ilgari surdi:

Birinchi. Amaldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish, uni qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta'minlashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo'lishini taqozo etishi ta'kidlandi.

Mazkur tashabbusning amaliy natijasi sifatida 44 modddan iborat mazkur Qonunning yangi loyihasi 2012-yilning 5-dekabr kuni Senat tomonidan maqullangan va 24-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi

1 O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami: Rasmiy nashr /O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2007. – B. 3.

Prezidenti tomonidan tasdiqlangan va u bugungi kunda kuchga kirdi. Ushbu hujjat qonun ijodkorligi jarayonini yanada takomillashtirish, xalqaro va milliy qonun ijodkorligi amaliyotini hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishning yanada samarali mexanizmlarini yaratish hamda sifatini oshirish maqsadida tayyorlangan. Ushbu Qonunning qabul qilinishi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini, ularning loyihalarini tayyorlashda qatnashadigan organlarning mas'uliyatini oshirishga, qabul qilingan qonun hujjatlari ijro etilishini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Ikkinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29- va 31-boblariga o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish. Ya'ni, sudga qadar ish yurituv bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibini o'rnatish orqali, Habeas corpus institutini qo'llash sohasini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yilning iyulida qabul qilingan, Senat tomonidan 30-avgustda ma'qullangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 18-sentabrda tasdiqlangan hamda bugungi kunda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra mazkur tashabbus o'zining qonuniy shaklini topdi.

Uchinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 439-moddasiga o'zgartish kiritish va unga muvofiq birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklash. Mazkur normani o'rnatish sudning mustaqilligi, xolisligi va beg'arazligini ta'minlashga, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra mazkur tashabbus o'zining qonuniy shaklini topdi.

To'rtinchi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321-moddasidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish. Sudni jinoiy ta'qib ishtirokchilari toifasidan chiqarish va sudni shaxsga qo'yilgan ayblovning qonuniy va asosli ekanini xolis baholovchi organ sifatidagi rolini mustahkamlab qo'yish.

Mazkur tashabbus O‘zbekiston Respublikasining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra o‘zining qonuniy shaklini topdi.

Beshinchi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, asoslari, shakl va uslublari, uni olib boradigan organlar tizimini belgilab beradigan “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish. Ushbu qonunning maqsadi tezkor-qidiruv xususiyatidagi tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, qonuniylikka rioya qilishning real huquqiy kafolatlarini yaratishga yo‘naltirilgan. Bu qonunning qabul qilinishi demokratik davlatlarning umume’tirof etilgan amaliyotiga mos keladi.

31 moddadan iborat bo‘lgan mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2012-yil 7-noyabr kuni qabul qilingan, 5-dekabr kuni Senat tomonidan ma‘qullangan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 25-dekabr kuni tasdiqlandi.

Qonunning asosiy maqsadi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tezkor-qidiruv faoliyatining qonunchilik va huquqiy asoslarini, shuningdek, tezkor-qidiruv xususiyatiga ega bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirish vaqtida qonuniylikka rioya etilishi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari ta‘minlanishining real huquqiy kafolatlarini yaratishdan iborat. Ushbu Qonun tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga soladigan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan amaldagi normalarni muntazam holga keltirish, surishtiruv va dastlabki tergov sifatini, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga o‘z vaqtida chek qo‘yish choralari-ning samaradorligini oshirish imkonini beradi, shuningdek, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini liberallashtirishga yordam beradi.

Oltinchi. Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish. Bunda, avvalambor, jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya‘ni ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoiy yurisdiksiyadan ma‘muriy yurisdiksiyaga o‘tkazishni ko‘zda tutish zarur.

Unda, shuningdek, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta‘minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo‘yicha choralarni ham mazkur kodeksda ko‘zda tutish lozim. Bugungi kunda mazkur kodeksni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Yettinchi. Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini inobatga olgan holda, davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha adliya organlarining rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan yangi huquqiy mexanizmlarni o'rnatadigan hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 17-iyundagi PQ-1555-son "Davlat organlari faoliyatida qonuniyligni ta'minlash sohasida adliya organlarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2011-yil 23-avgustdagi PQ-1602-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga asosan Adliya vazirligi tizimida davlat hokimiyati idoralari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar, shu jumladan, prokuratura faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha bosh boshqarma va uning mintaqalarda bo'limlari tashkil etildi.

Sakkizinchi. Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqligini, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichi ekanligini hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. Ushbu dasturning amalga oshirilishi aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada ortishini ta'minlaydi¹.

5. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim – inson huquqlari madaniyatini shakllantirishning asosi

Demokratik tamoyillarga asoslangan yangicha fikrlovchi jamiyatni qurish, albatta, yangi davlat uchun har tomonlama chuqur o'ylangan tashkiliy, huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu jarayonda o'z huquq va erkinliklari hamda majburiyatlarini nafaqat yaxshi biluvchi, bu huquq va erkinliklarini amalga oshira oladigan va o'z majburiyatlariga

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 28.

vijdonan yondashadigan, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qila oladigan ko'nikmaga ega bo'lgan yuksak huquqiy madaniyatli, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan insonlardan tashkil topgan jamiyatni shakllantirish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida mamlakat ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Nafaqat ta'lim tizimida, balki hamohang ravishda davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlarda demokratik tamoyillar asosidagi yangi fanlar yosh avlodning dunyoqarashini o'zgartirishda katta rol o'ynamoqda.

Ana shunday fanlar qatorida, mustabit tuzum paytida ta'lim tizimimiz uchun notanish bo'lgan inson huquqlari masalasi va uning uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilishi mamlakatdagi islohotlarda, davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hal qiluvchi omil bo'ldi.

Inson huquqlari hamda erkinliklarini ta'minlash amaliyotining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning samarali ro'yobga chiqarilishi muayyan omillar majmuiga bog'liq bo'lib, ular orasida fuqarolarning huquqiy madaniyati muhim o'rin tutadi. Binobarin, madaniyat, bu bevosita jamiyatdagi muayyan jarayonlar asosida doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boruvchi hayotiy bilimlar va ko'nikmalar hamda ularning majmuini tashkil etar ekan, "Insonning o'z huquq va erkinliklari, ularning milliy va xalqaro organlar tomonidan himoya qilinish usullari va vositalari to'g'risidagi bilimlari majmui, ularga o'z xavfsizligini ta'minlashning muhim omili sifatida munosabatda bo'lish "inson huquqlari madaniyati" tushunchasi"¹ni tashkil etadi.

Ko'p hollarda jamiyatda "huquqiy madaniyat" va "inson huquqlari madaniyati" tushunchalari bir xil tushunchalar, degan fikrlar mavjud.

"Huquqiy madaniyat" tushunchasini aniqlash uchun bir necha yondashuvlar mavjud. Huquqiy adabiyotda bu tushuncha huquq, huquqiy ong, huquqiy munosabatlar, qonuniylik, huquqiy tartib, huquqqa rioya etishni qamrab oladi.

Huquqiy madaniyat shartli ravishda ikki madaniyatga bo'linadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati – huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyat turi. Jamiyatning huquqiy madaniyati

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 286.

shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta'minlash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin hisoblanadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy bo'yishi sodir bo'ladi. Shubhasiz, shaxsning yuksak huquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Huquqiy madaniyat tushunchasini tahlil qilish asnosida, bu tushuncha bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "inson huquqlari madaniyati" tushunchasini alohida ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu tushuncha huquqiy madaniyatni ham qamrab olishi bilan birga, huquqshunoslikdan ham kengroq darajadagi munosabatlar, g'oyalar, qarashlarni qamrab oladi va jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida "Inson huquqlari madaniyati", degan yangi kategoriyani muomalaga kirib kelganligini bildiradi.

O'z navbatida, inson huquqlari madaniyati faqatgina yuridik tushuncha bo'lib qolmaydi. Inson huquqlari madaniyati asosida inson shaxsiyatining qadr-qimmati g'oyasi yotadi, bu ko'proq ma'naviy kategoriya bo'lib, uni tavsiflaganda, unda axloqiy-ma'naviy jihatlar ustunlik qiladi. Inson huquqlari madaniyati shaxs, jamiyat va xalqaro munosabatlarni yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarining ko'rsatkichi hisoblanadi.

"Madaniyat" (lotincha "cultura" so'zidan olingan bo'lib – "ishlov bermoq", "qayta ishlamoq" ma'nosini beradi) – muhitni qayta o'zgartirishga yo'naltirilgan turmush va ongning barcha sohalaridagi insoniyatning ijtimoiy-progressiv ijodiy faoliyatidir¹.

Inson huquqlari madaniyati – muayyan davlat va jamiyatda ya-shovchi har bir shaxsning, shaxslar guruhining, bu jamiyatning to'la huquqli a'zosi va a'zolari sifatida mamlakatda amal qiluvchi xalqaro va milliy huquqiy normalarda o'z aksini topgan huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini mukammal darajada bilishi, ularni tegishli ravishda talab eta olishi va qonuniy mexanizmlar vositasida amalga oshira olish ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda boshqa shaxslarning tegishli huquq va erkinliklariga hurmat munosabatida bo'lishi, shuningdek, o'zining va boshqalarning inson huquqlarini buzadiganlarga nisbatan murosasiz xulq-atvorda bo'lishda ifodalanadigan faoliyatidir.

Demak, birinchi navbatda, insonning jamiyatdagi mavjudotlar ichida eng ulug'i ekanligini his etishi, yashashi, munosib hayot kechirishi uchun

¹ Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт /Отв.ред. А.Х.Саидов. – Т.:НЦПЧ, SMI-ASIA, 2011. – С. 53.

muayyan mezonlarga amal qilishi lozimligini anglab yetishi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun ma'lum talablarga javob berishi muhimligini idrok etishi natijasida shaxsning umumiy madaniyati yuzaga keladi.

Inson huquqlari madaniyati o'z mohiyatiga ko'ra inson huquqlariga doir normalarni mukammal bilishni, amaliy faoliyatda ularga og'ishmasdan rioya qilishni, shaxs huquqlariga hurmat munosabatida bo'lishni, inson huquqlarini buzuvchilarga murosasiz xulq-atvorda bo'lishni ko'zda tutadi.

Inson huquqlari madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jamiyatda huquqiy ongning holati, ya'ni huquqqa oid bilim va tushunishning, qonun talablarini talabchanlik bilan bajarilishining zaruriyatini anglashning darajasi;

- qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlashning holati;
- qonunchilikning holati, uning mazmun va shaklini takomillashtirish;
- sud, prokuratura va huquqni qo'llash bilan shug'ullanuvchi organlarning huquq sohasidagi amaliy faoliyatining holati;
- inson huquqlari ta'limining darajasi.

Bugungi kunda mamlakatda inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi salbiy holatlarning oldini olish, inson huquqlarini mukammal darajada himoya qilish, inson uchun eng munosib turmush tarzini, farovon hayot sharoitini yaratib berish maqsadida davlat tomonidan inson huquqlari madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur masalaga "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham alohida e'tibor qaratildi va unda shunday deyiladi: "...Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak"¹.

Demak, mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish barobarida inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Mamlakatda inson huquqlarining himoya qilinishi bilan bog'liq ishlarning nechog'lik samaradorligi, uning o'ziga xosligi, birinchi

1 Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011.

navbatda, davlat organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolar va ularning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga bo'lgan munosabatida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, aholi mazkur holatga baho berishi, birinchi navbatda, davlat organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga e'tibor qaratadi.

Shuning uchun ham, davlat va nazorat organlari faoliyatida inson huquqlariga nisbatan hurmatni shakllantirishda, davlat organlarining mansabdor shaxslari, shu jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish, ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda, mamlakatdagi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada kengaytirish va faollashtirish, ular tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining yangi shakllari va usullarini yaratish, ularni takomillashtirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarning inson huquqlarini amalga oshirishda nechog'lik qonuniy harakatlanayotganligini, bu boradagi muammolar o'rganiladi va natijalar asosida bu muammolarni hal qilish yo'llarini, bu sohadagi faoliyatni yanada takomillashtirishning istiqbollari ko'rsatib beruvchi qarorlar qabul qilinadi.

Huquqiy madaniyat va uning tarkibiy qismi hisoblangan inson huquqlari madaniyati, demokratik, huquqiy davlatning ajralmas qismi hisoblanar ekan, O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni qurish va uni yanada mustahkamlash, ko'p jihatdan, fuqaroviy-huquqiy ta'lim, shu jumladan, inson huquqlari bo'yicha ta'lim qay darajada tashkil etilganligiga bog'liqdir.

Chunki, inson huquqlari madaniyati, insonning sha'ni, qadr-qimmatini hamda inson shaxsiga oid qadriyatlarni o'rnatish bo'yicha tizimli, bosqichma-bosqich va to'xtamaydigan sa'y-harakatlar hisoblanar ekan, inson huquqlari sohasidagi ta'lim, bu – ta'lim inson huquqlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni singdirish va nuqtayi nazarni shakllantirish; bu bilimlardan habardor qilish, ularni o'qitish va tarqatish yo'li bilan inson huquqlari bo'yicha umumiy madaniyatni yaratish tizim va maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakat hisoblanadi¹.

Inson huquqlari sohasida ta'lim quyidagilarga qaratilgan:

- inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatda bo'lish munosabatini mustahkamlash;

1 Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт /Отв.ред. А.Х. Сандов. – Т.: НЦПЧ, SMI-ASIA, 2011. – С. 5.

- inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, fuqarolarda inson sha'ni, qadr-qimmatini hissinini shakllantirish;
- erkaklar va ayollarning va barcha millatlar, tub aholi, irqiy, milliy, etnik, diniy va til guruhlarini o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik, tenglik va do'stlik munosabatlariga yordam berish;
- barcha insonlar uchun jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida samarali ishtirok etishiga imkoniyatlarni ta'minlab berish;
- tinchlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar faoliyatiga ko'maklashish.

Inson huquqlari sohasida ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, inson huquqlari sohasida ta'limning maqsadi va mazmunini umumiy tushunishga yordam berish;

ikkinchidan, inson huquqlari sohasida ta'limga taalluqli minimal standartlarni birinchi o'ringa chiqarishni ilgari surish;

uchinchidan, inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha milliy rejalar ishlab chiqish, amalga oshirish, baholash va o'zgartirish uchun zarur bo'lgan jarayonlar, qadamlarni belgilash;

to'rtinchidan, inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha milliy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan inson, moliya va texnika resurslariga e'tiborni jalb etish;

beshinchidan, inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi milliy va xalqaro tashkilotlarning samarali o'zaro hamkorligini rag'batlantirish va milliy darajada inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni amalga oshirishga yordam berish;

oltinchidan, inson huquqlari sohasida ta'limning maqbul bo'lgan maqsadlari va ularga erishishning darajalarini baholash uchun mexanizmlarni yaratish¹.

Inson huquqlari bo'yicha ta'lim quyidagilarga imkon tug'dirishi kerak:

- irqi, milliy yoki etnik kelib chiqishi, jinsi, dini, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy yoki ruhiy sog'lig'i va boshqa shu kabi belgilarga asoslangan kamsitishlarga qarshi kurashni hamda bunday belgilar asosidagi turfa xillikni hurmat qilish va tushunishga;
- kamsitmaydigan tillar bo'yicha ifodalash va kamsitmaydigan hulq-atvorni ishlatishga;
- fikrlardagi turfa xillikni hurmat qilish va tushunishga;

¹ Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт /Отв.ред. А.Х. Саидов. – Т.: НЦПЧ, SMI-ASIA, 2011. – С. 5.

- kundalik hayotda inson huquqlariga oid normalarni joriy etishga;
- o'qituvchilarni malakali tayyorlashga;
- inson huquqlari sohasida ta'limni samarali amalga oshirish uchun zarur milliy imkoniyatlar va bilimni rivojlantirish va mustahkamlashga.

Umuman olganda, XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida inson huquqlari ta'limi masalasiga nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyat qaratila boshlandi. Chunki, inson huquqlarining umuminsoniy qadriyat sifatidagi ahamiyatiga katta e'tibor bilan qaray boshlandi. Ayniqsa, 1993-yili Vena shahrida bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi va uning natijalari bo'yicha qabul qilingan Vena Harakat rejasi, BMT tomonidan 1995–2004-yillarni inson huquqlari ta'limining o'n yilligi, 2008-yili Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining keng miqyosda nishonlanishi, BMT tomonidan 2009-yil – Inson huquqlari bo'yicha ta'lim xalqaro yili, deb deb e'lon qilishi va bu sohalarda xalqaro va milliy miqyoslarda olib borilgan chora-tadbirlar buning yaqqol dalili hisoblanadi. Xalqaro huquq ustuvorligini e'tirof etgan va xalqaro huquqiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi suveren mamlakatimiz ham mazkur xalqaro jarayonlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil), O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997-yil), "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (1997-yil) umummilliy ko'lamdagi asosiy hujjatlar sifatida belgilab olingan bo'lsa, shu jumladan, huquqiy madaniyatni shakllantirish, inson huquqlari ta'limi sohasida "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" (1997-yil), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi muhim, spetsifik xususiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishdagi dastlabki qadamlardan biri sifatida, 1996-yilning 29-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning bu jarayondagi muhim masalalardan biri sifatida "Inson huquqlari" o'quv kursini barcha oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritish g'oyasini ilgari surganligini alohida qayd etish kerak¹.

Mamlakatda inson huquqlari madaniyatini yanada yuksaltirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yilda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" va O'zbekiston

1 Qarang. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: "O'zbekiston", 1997. –B.136

Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishining ahamiyati nechog‘li yuksak ekanini alohida e‘tirof etish lozim. Chunki, mazkur Milliy dastur va farmoyishning asosiy vazifasi, mamlakatda uzluksiz konstitutsiyaviy huquqiy ta‘lim tizimi yaratish orqali, jamiyat a‘zolarining huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, demokratik qadriyatlarga asoslangan fuqarolik jamiyatining to‘g‘ri fikrlaydigan, komil a‘zosini shakllantirish hisoblanadi.

Albatta, o‘tgan davr mobaynida, O‘zbekistonda inson huquqlari ta‘limi sohasida ko‘p yutuqlarga erishildi va bu yutuqlar, o‘z navbatida, aholining huquqiy ongi va madniyatini yuksaltirishda katta yordam bermoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi jarayonlar, xususan, yangi axborot texnologiyalari va axborot makoni, integratsiyaviy jarayonlar va boshqalar inson huquqlari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, inson huquqlari sohasidagi ta‘lim tizimida ham bugungi kunda:

- inson huquqlarini o‘qitishda yangi sifat darajasiga erishishga;
- inson huquqlari sohasidagi amaliy muammollarni ilmiy jihatdan tanqidiy o‘rganishga;
- inson huquqlari bo‘yicha ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga;
- ta‘lim tizimini yangi axborot texnologiyalari asosiga qurishga;
- inson huquqlari bo‘yicha yangi avlod darsliklarini yaratish, inson huquqlariga oid fanlar bo‘yicha elektron darsliklar va elektron resurslarni yaratish va ularni doimiy ravishda yangilab borishga e‘tibor qaratilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan inson huquqlari sohasida davlatning besh strategik yo‘nalishlarini tushuntirib bering.

2. Inson huquqlari sohasidagi qonunchilik tizimining tarkibiy qismlarini izohlab bering.

3. O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida o‘z aksini topgan inson huquqlariga oid muhim xalqaro-huquqiy qoidalar nimalardan iborat?

4. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid qonunchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bering.

5. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi tamoyilini qonunchilikda qanday aks etganligi haqida so‘zlab bering.

6. *O'zbekistondagi sud-huquq islohotlarining asosiy bosqichlarini bilasizmi? Ularni aytib bering.*
7. *O'zbekistonda sudlarning ixtisoslashuvini qanday tushunasiz?*
8. *O'zbekistonda Habeas corpus institutining kiritilishi nima bilan izohlanadi?*
9. *O'zbekistonda jinoiy jazolarni liberallashtirish va o'lim jazosini bekor qilishning tarixiy ahamiyatini tushuntirib bering.*
10. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan e'lon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da sud-huquq sohasidagi islohotlarning istiqbollari tushuntirib bering.*
11. *Inson huquqlari madaniyatining tushunchasi va asosiy belgilarini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – 56 b.
2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997-yil, 9-son.
3. Саидов А. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Тошкент: ЖИДУ, 2001.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: "Konsau-ditinform-Nashr", 2006.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010.
6. Mingboyev U. Sud – fuqarolar himoyachisi. Toshkent, 2001.
7. Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007.
8. Rustamboyev M., Nikiforova Ye. Huquqni muhofaza qilish organlari. – T.: "Adolat", 2006.
9. Saidov A.X., Sultonov S.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. – T.: Adolat.1998.

10. Saidov A., Tadjixanov U. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Ikki tomli. 1-tom // Mas'ul muharrir akademik Sh.Z. O'razayev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998

11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2010.

12. O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami: Rasmiy nashr /O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2007.

13. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт /Отв.ред. А.Х. Саидов. – Т.: НЦПЧ, SMI-ASIA, 2011.

11-mavzu. Shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar

1. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlar tushunchasi, tizimi, mohiyati va xususiyatlari.
2. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.
3. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarning xalqaro va milliy mexanizmlar asosida himoya qilinishi.

1. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlar tushunchasi, tizimi, mohiyati va xususiyatlari

Odatda, inson huquqlari va erkinliklari masalalari o'rganilganda ularni tasniflash tartibi qabul qilingan. Inson huquqlari tasnifining bir necha darajalari mavjud:

Birinchi daraja, huquqlar inson huquqlari tizimida o'rganilib, ularning maqomiy holatini belgilashga qaratilgan. Shunga ko'ra, ular ikki guruhga bo'linadi: negativ va pozitiv huquqlar. Negativ huquqlar sifatida huquqlar amalga oshirilishida davlat ularga aralashuvlardan va shaxs erkinligini buzadigan cheklashlarni kiritishdan voz kechishi kerak. So'z erkinligi va e'tiqod erkinligi xususida fikr yuritadigan bo'lsak, bu masalalarga davlat hokimiyati tomonidan aralashuv taqiqlanadi. Pozitiv huquqlar deganda, ushbu huquqlarni amalga oshirishni ta'minlab berishda davlatning majburiyati va kafolati talab etiladigan huquqlar tushuniladi.

Ikkinchi daraja, inson huquqlarini amalga oshirish doirasini belgilab beradi. Shunga muvofiq, huquqlar fuqarolik, jamoaviy (kollektiv), iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy huquqlarga bo'linadi¹.

BMT Nizomida va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga Fakultativ protokollarni o'z ichiga olgan inson huquqlari bo'yicha xalqaro billda huquqlarning quyidagi beshta asosiy guruhlari ajratib ko'rsatiladi: fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy.

Fuqarolik huquqlari – bu tabiiy xarakterda bo'lgan, ya'ni insonga tug'ilishi bilan beriladigan huquqlar. Ular insonning individual erkinligini kafolatlashga, shaxsni boshboshdoqlikdan va davlat hamda uning organlarining aralashuvidan himoya qilishga qaratilgan. Bunday huquqlar sirasiga yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, shaxsning sha'ni,

¹ Права человека. Теория и практика. – Бишкек. 1998. – С. 32–33.

qadr-qimmati, adolatli va mustaqil ommaviy sud, e'tiqod erkinligi, ko'chib yurish erkinligi kabi huquqlar kiradi.

Siyosiy huquqlar – fuqarolarning davlat va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini belgilab beradi. Ularning ichida eng muhimlari: turli davlat organlariga saylash va saylanish huquqi, partiyalarga, assotsiatsiyalar, uyushmalar kabi turli jamoat birlashmalariga birlashish huquqi, namoyishlar, mitinglar va yig'ilishlar o'tkazish huquqi, fuqarolarning murojaatlari, so'z erkinligi kabi huquqlar kiradi.

2. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

Shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning huquqiy asoslari deganda bu huquqlar o'z aksini topgan xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar nazarda tutiladi. Fuqarolik va siyosiy huquqlarning xalqaro huquqiy asoslariga xalqaro hujjatlar kiradi va ularni ham shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Xalqaro universal hujjatlar: BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga Fakultativ protokollar, 1979-yildagi "Irqiy kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risida", 1989-yildagi "Bola huquqlari to'g'risida", 1984-yildagi "Qiynoqqa hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya", 1979-yildagi "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyalar, shuningdek, 1979-yildagi "Huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha mansabdor shaxslar xulq-atvori kodeksi", 1989-yildagi "Huquq-tartibotni ta'minlash bo'yicha mansabdor shaxslar xulq-atvori kodeksini samarali amalga oshirishning asosiy tamoyillari", 1985-yildagi "Sud mustaqilligini ta'minlovchi tamoyillar" va 1990-yildagi "Sud organlarining mustaqilligini ta'minlab beruvchi asosiy tamoyillarni samarali amalga oshirish haqidagi hujjat" kabi ko'plab turli hujjatlar¹dir.

2. Mintaqalararo hujjatlar: YeXHTning Xelsinki yakunlovchi akti hamda "Insoniylik mezonlari"ni tashkil etuvchi hujjatlar² (ushbu hujjatlar ko'rincha, xalqaro "yumshoq" hujjatlar sifatida talqin qilinadi).

1 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat, 2004. 520-bet.

2 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. /Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2005. – 168-bet.

3. Mintaqaviy hujjatlar (*O'zbekiston bu hujjatlarda ishtirok etmasada, ularni mintaqaviy hujjat sifatida qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir*): "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Yevropa konvensiyasi (1950-yil) va unga qo'shimcha 14 ta protokol, "Inson huquqlari to'g'risida"gi Amerika konvensiyasi (1969-yil), "Inson va xalq huquqlarining Afrika xartiyasi" (1981-yil), MDH davlatlarining "Inson huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi (1995-yil) kiradi.

4. Shaxsiy huquq va erkinliklarni amalga oshirishga qaratilgan milliy qonunchilik: Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi kabi kodekslar va qonunlar (maxsus qonunlarning ro'yxati quyida beriladi).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo'lim va V–IX boblari, ya'ni 18–52-moddalari Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlanadi. Shulardan VII bob "Shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlanadi va u 24–31-moddalarni qamrab oladi. VIII bob esa, "Siyosiy huquqlar"ga bag'ishlanib, bu huquqlar 32–35-moddalarda o'z aksini topgan.

Shaxsiy huquq va erkinliklar – tabiiy huquq va erkinliklar bo'lib, insonning hayoti, sog'lig'i, or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan huquqlar guruhi hisoblanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi	
Shaxsiy huquqlar	Shaxsiy erkinliklar
<i>Yashash huquqi</i>	<i>Fikr erkinligi</i>
<i>Shaxsiy daxlsizlik huquqi</i>	<i>So'z erkinligi</i>
<i>Qonun tomonidan teng muhofaza etilish huquqi</i>	<i>Vijdon erkinligi</i>
<i>Aybsizlik prezumpsiyasi (Aybsiz deb hisoblash huquqi)</i>	<i>Din (E'tiqod erkinligi)</i>
<i>O'zining va yaqin kishilarining o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqi</i>	
<i>Odil sudlovga va sud himoyasiga bo'lgan huquq</i>	
<i>Sir saqlash huquqi</i>	
<i>Turar joy daxlsizligi huquqi</i>	

<i>Erkin ko'chib yurish va turar joy tanlash huquqi</i>	
<i>O'z davlatidan erkin chiqishi va qaytib kelish huquqi</i>	

Shaxsiy huquqlar ichida eng aziz huquqlardan biri – bu **yashash huquqi**dir. Ushbu huquq 1948-yilning 10-dekabridagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida belgilab qo'yilgan, unga ko'ra, "Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir". Bu qoida 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1976-yil 23-martdan e'tiboran kuchga kirgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktning 6-moddasida yanada takomillashtirildi. Ushbu moddaning 1-bandida "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanaadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi", deb ko'rsatib qo'yildi. Ammo, ushbu modda o'lim jazosini butunlay bekor qilmasa-da, barcha davlatlarni o'lim jazosini bekor qilishga hamda 18 yoshga to'lmagan va homilador ayollarni oliy jazoga tortmaslikka chaqiradi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro paktning o'lim jazosini bekor qilishni ko'zlovchi Ikkinchi qo'shimcha protokoli BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 15-dekabrda 44/128-sonli Rezolyusiya bilan qabul qilingan Paktga qatnashuvchi barcha davlatlar uchun ochiqdir. Ikkinchi protokol o'lim jazosini butunlay taqiqlashni ko'zlasada, ayni paytda, ishtirok etuvchi davlatlarga urush paytida oliy jazoni qo'llashga izn beradi (2-modda). Buning uchun davlatlar Protokolni imzolayotgan paytda o'zlarining irodasini ochiq bayon qilishi kerak bo'ladi. Ikkinchi protokol hozirga qadar 75 ta davlat tomonidan to'la qabul qilingan.

Insonning yashash huquqi kafolatlangan ushbu xalqaro normalar, xalqchil konstitutsiya deb e'tirof etilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida ham o'z aksini topgan, ya'ni unda "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", deb ko'rsatib o'tilgan.

Yashash huquqining kafolati sifatida yuqoridagi normalarni hayotga jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni muhim rol o'ynadi. Ushbu Farmonga ko'ra, 2007-yil 15-iyunda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 29-iyunda Senat tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "O'lim jazosi bekor qilini-

shi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, 2008-yil 1-yanvardan boshlab bu o'zgartish va qo'shimchalar kuchga kirdi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida avval o'lim jazosi ko'zda tutilgan moddalardagi jazo turlari umrbod yoki uzoq muddatli jazo turlariga almashtirildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Vijdon erkinligi insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Bunday munosabat uch xil bo'lishi mumkin:

birinchidan, inson xudoga ishonishi va biron-bir dinga e'tiqod qilishi;

ikkinchidan, xudoga ishonmasligi va dinga betaraf munosabatda bo'lishi;

uchinchidan, dahriy (ateist), ya'ni nafaqat hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar, balki xudoning mavjudligini va umuman dinni inkor etuvchi inson bo'lishi mumkin

Fikrlash, vijdon va din erkinligining mohiyati "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 18-moddasida hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 18-moddasida ochib berilgan bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- o'z ixtiyoriga ko'ra din va e'tiqodni qabul qilish;
- din yoki e'tiqodga ega bo'lish;
- din yoki e'tiqodni o'zgartirish;
- dinga yakka yoki jamoa tarzda, ommaviy yoki xususiy tartibda ta'limot orqali yoxud toat-ibodatda e'tiqod qilish;
- ibodat qilish yoki diniy va an'anaviy marosimlarni bajarish;
- ota-onalar va qonuniy vasiylarga o'z e'tiqodlaridan kelib chiqqan holda farzandlarini diniy va axloqiy tarbiyalash imkoniyatini kafolatlash va hokazo.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunida (1998-yil) vijdon erkinligi kafolatlari belgilangan va ular quyidagilardan iborat:

- din va diniy birlashmalarni davlat va maktabdan ajratish;

¹ O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami: Rasmiy nashr /O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2007. – B. 8–18.

- dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, fuqarolarning teng huquqliligi;
- din va diniy birlashmalarning qonun oldida teng huquqliligi;
- "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunni buzganlik uchun javobgarlik;

Jinoyat qonuni yashash huquqini himoya qilish sohasida alohida o'ringa ega bo'lib, u yashash huquqini himoyalash choralaridan iborat tizimni tashkil etadi. Jinoyat kodeksining maxsus qismidagi normalarning 26 foizi u yoki bu darajada fuqarolar hayotiga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutishini ta'kidlash yetarli. Jabrlanuvchining u yoki bu biologik xususiyatlari va ijtimoiy sifatlaridan qat'i nazar, fuqarolar hayoti jinoyat qonunlari bilan muhofazalanadi.

Inson o'limiga u yoki bu darajada sabab bo'ladigan qilmishlar jinoyat qonunlari tomonidan ijtimoiy xavfli deb tan olinadi, chunki har bir inson hayoti ijtimoiy qadriyat hisoblanadi.

Jinoyatlar orasida eng xavflisi odam o'ldirish bo'lib, u boshqa odamni qonunga xilof ravishda va qasddan hayotidan mahrum qilishdan iboratdir.

Konstitutsiyaning 25-moddasiga ko'ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, unga tug'ilganidan boshlab taalluqli bo'ladi. Har kimga o'z ixtiyoriga ko'ra, uni individual ravishda qoniqtiruvchi, shaxsiy erkinligi va daxlsizligini cheklamaydigan xatti-harakatlarni tanlash va sodir etish imkoniyati berilgan. Biroq shuni nazarda tutish joizki, shaxs erkinligi jamiyatda umume'tirof etilgan axloq normalari doirasida va qonun asosida amalga oshirilishi kerak, ya'ni shaxs qonunlar va qonuniy aktlardagi huquqiy ko'rsatmalarga zid bo'lmagan har qanday qilmishlarni sodir etishi mumkin. Binobarin, shaxsiy erkinlik daxlsiz bo'lib, shaxs daxlsizligi davlat va hokimiyat tizimlari tomonidan kafolatlanadigan shaxsiy erkinlik sifatida tushunilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi Farmoni asosida 2007-yil 15-iyunda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 29-iyunda Senat tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, 2008-yil 1-yanvardan boshlab bu o'zgartish va qo'shimchalar kuchga kirdi. Jumladan, ushbu Qonunning 1-moddasi 1-qismida O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 18-moddasining 2-qismida “Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi” qoidasi belgilab qo’yildi¹. Ushbu qoida, odatda, “Habeas Corpus” instituti deb ataladi.

“Habeas Corpus” institutining mohiyati “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt” 9-moddasining 3- va 4-bandlarida belgilab qo’yilgan. Xususan, 9-moddaning 3-bandida “jinoiy ayblov bilan qamalgan yoki ushlangan har bir shaxs zudlik bilan sudya yoki qonun bo’yicha sud hukmronligini amalga oshirish huquqi bo’lgan boshqa mansabdor shaxs huzuriga keltiriladi va ayblanayotgan shaxs oqilona muddat ichida ishi sudda ko’rilishi yoki ozod qilib yuborilishi huquqiga ega. Ishi sudda hal etilishi kutilayotgan shaxslarni hibsdan tutib turish umumiy qoida bo’lmasligi, biroq ozod qilish, sudga kelish, sudda ish ko’rib chiqilayotganda uning har qanday bosqichiga kelish kafolatlarini berishga, zarur hollarda hukmni ijro etish uchun kelishga bog’liq qilib qo’yilishi mumkin”. Ushbu moddaning 4-bandida esa, “Qamoqqa olinishi yoki hibsdan ushlanib turishi tufayli ozodlikdan mahrum etilgan har bir shaxs o’z ishinin sudda ko’rib chiqilishi huquqiga ega, toki sud darhol uning ushlanishi qanchalik qonuniy ekanligi borasida qaror chiqara olsin va agar uning ushlanishi noqonuniy bo’lsa, ozod qilish haqida farmoyish bersin”².

Inson huquqlari sohasidagi 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarga qo’shilgan O’zbekiston Respublikasi o’z milliy qonunchiligini ilg’or xorijiy tajriba va xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirib bormoqda. “Boshqa demokratik davlatlar kabi O’zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish va boshqa protsessual majburlash choralarini qo’llash uchun sanksiya berish huquqlarini sudlarga o’tkazish kerak deb o’ylayman”³.

“Habeas Corpus” instituti O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o’zining konstitutsiyaviy maqomini topdi, ya’ni uning 19-moddasida “Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo’yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo’yishga hech kim haqli emas”⁴, deb ko’rsatib qo’yilgan.

1 O’lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o’tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to’plami: Rasmiy nashr /O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O’zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. –T.: Adolat, 2007. – B. 20.

2 Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar: to’plam /A.X. Saidov tahriri ostida. – T.: Adolat, 2004. – B. 40.

3 Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. T.13. – T.: O’zbekiston. – B. 187.

4 O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O’zbekiston, 2012. – B. 6.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2007-yilda qabul qilingan "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatimizning nafaqat demokratik yo'ldan borayotgani, balki u o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini sobitqadamlik bilan bajarib borishdan manfaatdor ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi inson huquq va erkinliklarini himoyalashning protsessual kafolatlarini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldiki, bu o'z o'rnida sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va liberallashtirishning yaqqol dalilidir. Bu qonunga ko'ra, dastlabki tergovga xolislik, tortishuvchilik, sudga murojaat qilish erkinligi va sud orqali himoyalaniish tamoyillari kirib keldi. Ya'ni, tergovchi va prokuror gumon qilinuvchi va ayblanuvchini qamoqqa olishga yoki dastlabki tergov muddatini uzaytirishga faqat sudning qarori bilan haqli bo'ldilar¹. Demak, sud majlisida ayblov va himoya taraflarining tengligini ta'minlashning yana bir huquqiy asosining yaratilishi bilan milliy qonunchilik o'zi rivojlanishining yangi bosqichiga chiqdi.

Shaxs erkinligini ta'minlashning kafolatlaridan biri Jinoyat kodeksining 234-moddasida nazarda tutilgan qonunga xilof ravishda ushlab turilganlik va hibsga olish uchun jinoiy javobgarlikning belgilanganligidan iborat.

Bila turib, qonunga xilof ravishda, ya'ni qonuniy asoslarsiz amalga oshirilgan bu kabi noqonuniy ushlab turish, hibsga olish yoki qamoqda ushlab turish jinoyat deb tan olinadi. Shuningdek, mazkur qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini hamda odil sudlovni amalga oshirish sohasida faoliyat ko'rsatadigan va shaxs daxlsizligini kafolatlaydigan munosabatlar jinoyat huquqiga oid himoyalash zaruriyatini aniqlab beradi.

Jinoyat kodeksining 234-moddasida xususiyati va ijtimoiy xavfliligiga ko'ra ikkita alohida jinoyatlarga ta'rif berilgan bo'lib, ular o'zining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi bilan bir-biridan ajralib turadi, bular: bila turib qonunga xilof ravishda ushlab turish (1-qism) va bila turib qonunga hilof ravishda hibsdan saqlash (2-qism).

Jinoyat kodeksi 234-moddasining 1-qismida bila turib qonunga xilof ravishda ushlab turish, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror

1 Inog'omjonova Z.F. Dastlabki tergovda sud nazoratini amalga oshirish mexanizmi. //Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007. – B. 6-7.

tomonidan qonuniy asosga ega bo'lmagan holda shaxs erkinligining qisqa muddatga cheklanishi uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin: 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa; 2) jinoyat shohidlari, jumladan, jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar; 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa.

O'zbekiston Respublikasining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 29 va 31-boblariga sudga qadar ish yuritish bosqichida qo'llanadigan choralar, ya'ni lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibini nazarda tutuvchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 321- va 439-moddalariga sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarishni hamda birinchi instansiya sudida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklashni nazarda tutuvchi o'zgartishlar kiritildi.

Sudga qadar ish yurituv bosqichida lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralari qo'llash bo'yicha prokuror (surishtiruvchi, tergovchi) vakolatining sudlarga o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga mos keladi va ushbu masalani xolis va beg'araz organ, ya'ni sud tomonidan tegishli sud protseduralaridan foydalangan holda hal qilish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratadi.

Qulchilik va qul savdosini bekor qilish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qulchilik va majburiy mehnatni taqiqlashning barcha tamoyillariga rioya qilingan. Odam savdosi muammosining ham xalqaro miqyosda, ham milliy darajada qanchalik keskin ekanligini tushungan holda, 2008-yil iyul oyida O'zbekiston parlamenti tomonidan BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi "Odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqida"gi Protokoli ratifikatsiya qilingan.

2008-yil 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi yangi qonun ayollar va bolalar savdosiga qarshi kurash

ishiga katta hissa qo'shdi. Qonun insonlar savdosiga qarshi kurash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari ro'yxatini belgilab berdi, ularga: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligi kiradi.

Odam savdosi jabrdiydalariga yordam ko'rsatish va himoya qilish maqsadlarida qonunda inson savdosi jabrdiydalariga yordam ko'rsatish va himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan muassasalar tashkil etildi. Ularning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: inson savdosi jabrdiydalarini qulay yashash sharoitlari va shaxsiy gigiyena, oziq-ovqat, belgilangan dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlab berish; inson savdosi jabrdiydalariga shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, yuridik va boshqa yordamni ko'rsatish; inson savdosi jabrdiydalarining xavfsizligini himoya qilish va boshqalar.

2008-yil 8-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan odam savdosi bo'yicha sotsiologik va kriminologik tadqiqotlar o'tkazishni, shuningdek, odam savdosi guvohlari va jabrdiydalarini himoya qilish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi 2008–2010-yillarga mo'ljallangan Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha milliy harakat rejasi tasdiqlandi va bugungi kunda unda begilangan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha Respublika va hududiy Idoralararo komissiyalar tuzilib, o'z faoliyatlarini boshladilar.

O'zbekistondagi barcha uchta hokimiyat organlari qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qoralaydi. Ushbu siyosat parlament nazoratida, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatida, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va prokuratura tuzilmalarida tashkil etilgan fuqarolar shikoyatlari va murojaatlari bilan ishlash tizimida o'z aksini topgan.

2002-yil noyabr oyida O'zbekiston Hukumatining taklifi bilan mamlatga BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Qiynoqlar bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Teo Van Boven tashrif buyurdi. Uning tashrifi davomida davlat organlarining yuqori lavozimdagi vakillari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar elchixonalarining vakillari bilan qator rasmiy uchrashuvlar tashkil etildi. Tashrif natijalari bo'yicha, u 2003-yil fevralda O'zbekiston Hukumatiga qiynoqqa qarshi kurashning ahvolini yaxshilash bo'yicha tegishli tavsiyalarni ko'rsatib o'tgan o'z xulosasini taqdim etdi. Ushbu tavsiyalar asosida esa, 2004-yil 9-martda O'zbekiston Hukumati tomonidan Milliy harakat rejasi qabul qilindi.

Sud tizimini takomillashtirish va mustahkamlash, uni moddiy-texnikaviy ta'minlashni kuchaytirish, sudning huquqiy maqomi va mustaqilligini ta'minlash Oliy sud Plenumining 2003–2006-yillarda qabul qilingan qator qarorlarida o'z aksini topdi. Ularda, shuningdek, Jinoyat kodeksining 235-moddasiga sharh berilib, ushbu moddaga va Qiynoqqa qarshi konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, tergov olib borishning mumkin bo'lmagan usullarini qo'llashga yo'l qo'yib bo'lmashligi belgilab qo'yildi.

So'z, fikrlash, e'tiqod erkinligi. Demokratik jamiyatda so'z erkinligi inson huquqlarining, shaxsiy huquq va erkinliklarning eng muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina fuqarolik huquqlarini to'liq amalga oshirish imkoniyati davlatda so'z erkinligi va o'z-o'zini ifodalashning samarali kafolatlari mavjudligi bilan shartlanadi.

So'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi huquqiga quyidagi asoslar dalil bo'la oladi:

So'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi har bir insonga bayon qilish va kerakli ma'lumotlarni olish imkonini ta'minlaydi va bu bilan o'zining xususiyati, qobiliyati, dunyoqarashi va e'tiqodini kerakli tarzda rivojlanishga yetkazadi. O'z-o'zini ifodalash erkinligi bo'lmasa, haqiqiy badiiy ijodkorlik ham bo'lmaydi.

So'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi haqiqatni aniqlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, "g'oyalar bozoridagi erkin raqobat" huquqning borishida uning noto'g'riligi va xatoligi aniqlanmaguncha, noto'g'ri tasdiq boshidan oxirigacha haqiqatga xizmat qilishi mumkin.

So'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi demokratiyaning mavjud bo'lishi uchun zarurdir. Mamlakat fuqarolari o'z rahbarlarini saylash va tanqid qilishning haqiqiy imkoniga ega bo'lishlari uchun fikrlar, g'oyalar va ma'lumotlar bilan almashish erkinligi zarurdir.

So'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi majbur qilinmagan o'zgarishlar, xatolarni tuzatish va nizolarni hal qilish imkonini ta'minlaydi. Bu bilan so'z, fikrlash va o'z-o'zini ifodalash erkinligi ijtimoiy formatsiyalar barqarorligi va mukammalliklarga xolis ehtiyojlar o'rtasidagi zarur muvozanatni saqlab turishga yordam beradi.

O'z fikrini erkin ifoda etishni amalga oshirishda boshqa fuqaroning, fuqarolar guruhining va hatto, davlatning (shu jumladan, davlat xavfsizligini ta'minlash manfaatlari bilan) manfaatlariga qarama-qarshi bo'lgandagina, o'z-o'zini ifodalash cheklanishi mumkin.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasida "Har bir inson hech qanday to'siqsiz o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega; bu o'ziga davlat chegaralariga bog'liq bo'lmagan

ravishda, o'z tanlovi bo'yicha rasmiy yozma yoki matbuot vositasi bilan, yoki badiiy shaklda ifodalashning boshqa usullari bilan har xil ma'lumotlar va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi", deb ko'rsatib o'tilgan.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) erkinligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar asta-sekinlik bilan ham qonunchilik darajasida, ham amaliyotda amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda rasmiy ravishda ro'yxatga olingan turli xil OAV, jumladan, davlatga qarashli va xususiy nashrlar, shuningdek elektron OAV, OAVni qo'llab-quvvatlovchi assotsiatsiyalar va jamg'armalar tuzilmoqda. O'zbekistonda jurnalistlar ijodiy uyushmasi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Elektron OAV Milliy assotsiatsiyasi, Elektron OAVni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Mustaqil bosma OAV va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi o'z faoliyatini olib bormoqda.

Bunga mustaqil OAVni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ularning ishtirokini kengaytirishga qaratilgan tizimli hamda bosqichma-bosqich ishlar ham yordam bermoqda. Bu borada "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berish to'g'risida"gi Qarori sohani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining ham sifat, ham son jihatidan ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 1991-yildan buyon ularning soni 395 dan 1326 taga ko'paydi, ularning qariyb 60 foizi nodavlat OAV hisoblanadi. Joylardagi dolzarb muammolarni aniqlash va yoritishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda, birinchi navbatda, hududiy OAVning roli, shuningdek, ularning tanqidiy materiallari ta'sirchanligi oshdi va ushbu materiallar bo'yicha tegishli choralar ko'rilmogda.

Vijdon (din) erkinligi. Diniy e'tiqod erkinligi u yoki bu dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik erkinliklarini o'z ichiga oladi.

Ushbu holatda din negizida, xuddi shunday u yoki bu mintaqaviy konvensiya (nazariy qarashlar tizimi) bilan birlashgan dunyoviy umumiylikni tushunish mumkin.

Diniy e'tiqod erkinligi negizlariga muvofiq, fuqaro diniy marosimlar, udumlar, urf-odatlar va boshqa shu kabilarga qatnashishga majbur qilinishi mumkin emas.

Har bir inson o'z ixtiyori bo'yicha dinga bo'lgan munosabatini aniqlab olishi lozim, bu uning vijdon amri bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bir dinning boshqa din oldidagi afzalligini ko'rsatishga yo'naltirilgan diniy harakatlar, diniy fanatizm va ekstremizm – bu ko'rinishlarning barchasi jamiyatning rivojlanishiga putur yetkazadi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-moddasi).

O'zbekistonda 16 ta turli konfessiyalarga qarashli 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar, ya'ni musulmon masjidlari, pravoslav, katolik, lyuteran, baptistlar va boshqa xristian cherkovlari, shuningdek, Buxoro va Yevropa yahudiylarining diniy jamoalari, baxaillar, krishnaitlar va buddistlar, jami bo'lib, 179 ta islom bo'lmagan diniy tashkilotlar va 2050 ta islom tashkilotlari faoliyat ko'rsatishmoqda. Har yili islom bo'lmagan diniy jamoalarning 120 dan ortiq vakillari chet elga chiquvchi e'tiqod qiluvchilar uchun yaratilgan barcha imtiyozlardan foydalangan holda Isroil, Gretsiya va Rossiyadagi o'z dinlarining muqaddas joylarini ziyorat qilib kelmoqda.

Sud himoyasiga bo'lgan huquq. Konstitutsiyaviy negizlarning asoslaridan biri aybsizlik prezumpsiyasi hisoblanadi. Ushbu negizga asosan, aybdorni, toki uning aybi sud tartibida isbot qilinmaguncha, aybdor deb hisoblab bo'lmaydi.

Demokratik mamlakatlardagi sud aybsizlik prezumpsiyasini asosiy konstitutsiyaviy negiz sifatida baholaydi.

Konstitutsiya aybsizlik prezumpsiyasi negizini mustahkamlab, fuqarolarga ma'lum qiladiki, hech kim biron-bir asossiz ayblanishi va qiynoqlarga solinishi mumkin emas. Asossiz ayb qo'yilgan taqdirda esa, har bir inson sud himoyasi huquqiga ega. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 23-moddasida ta'kidlanganidek, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha begunoh deb sanalish huquqiga ega.

2012-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining asosiy maqsadi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tezkor-qidiruv faoliyatining qonunchilik va huquqiy asoslarini, shuningdek, tezkor-qidiruv xususiyatiga ega bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish vaqtida qonuniylikka rioya etilishi, fuqarolarning

huquqlari va erkinliklari ta'minlanishining real huquqiy kafolatlarini yaratishdan iborat. Ushbu Qonun tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga soladigan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan amaldagi normalarni muntazam holga keltirish, surishtiruv va dastlabki tergov sifatini, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga o'z vaqtida chek qo'yish choralarining samaradorligini oshirish imkonini beradi, shuningdek, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini liberallashtirishga yordam beradi.

Siyosiy huquqlar. Siyosiy huquqlarning turlari quyidagilardan iborat: fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi; jamiyat a'zolarining qonunlarga binoan mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazishda qatnashish huquqi; fuqarolar kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish huquqi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi; har bir shaxsning vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi va boshqalar.

Siyosiy huquqlar – fuqaroning subyektiv huquq va erkinliklarining muhim kategoriyasini tashkil etadi. Bu huquqlar qonun tomonidan ta'minlangan insonning davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok eta olishi (individual va jamoa holda) va shu bilan davlat hokimiyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan ommaviy hokimiyatga ega bo'lish imkoniyatidir. Siyosiy huquqlar inson huquqlarining boshqa turlari mavjudligining bevosita sharti hisoblanadi, chunki ular organik ravishda bir-biridan ajralmas bo'lib, demokratiya tizimining asosini tashkil etadi va hokimiyatni cheklaydigan hamda o'z faoliyatini yo'naltiradigan qadriyat sifatida maydonga chiqadi.

Siyosiy huquq va erkinliklar hokimiyat ustidan nazorat vositasi bo'lib, mavjud demokratik rejim mezonini baholash bilan birga, davlatning tabiatini belgilab beruvchi omil sifatida ham madaniyatli jamiyatning ajralmas atributi hisoblanadi. Ular huquqiy adabiyotlarda quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1) davlat faoliyatini tashkil etishda, davlat va uning organlari faoliyatida vakillik va bevosita demokratiya (saylov huquqi, murojaat qilish huquqi)ning turli shakllari yordamida ishtirok etish vakolati;

2) jamiyat hayotida faol ishtirok eta olish vakolati (so'z va fikr bildirish erkinligi, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish erkinligi, jamoalarga birlashish huquqi).

Siyosiy huquqlar shaxsiy huquqlardan farq qilib, insonning mustaqilligini ta'minlab berishga emas, balki, shaxsning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga yo'naltirilgan. Bu kategoriyadagi huquqlarning farqli tomonlari shundaki, ular fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Siyosiy erkinlik, mohiyatan olganda, shaxsiy erkinlikning

bir qirrasini hisoblanadi, inson aqlli mavjudot, siyosiy ong va siyosiy iroda-ning egasi sifatida jamiyat hayotida siyosiy jarayonlarning mustaqil va erkin ishtirokchisi sifatida qatnashishga haqli hisoblanadi.

Faqat fuqarolargina siyosiy huquqlarga ega bo'lishi mumkinligi-ni alohida ta'kidlab o'tish joiz bo'lar edi. Chunki, siyosiy huquqlarga ega bo'lish fuqaroning muayyan davlatga tegishli ekanligini belgilab beradi. Inson huquqlariga nisbatan, fuqaro huquqlari individning davlat bilan aloqalarining barcha sohalari (ommaviy manfaatlar sohasi)ni qamrab oladi.

Siyosiy huquq va erkinliklar har bir fuqaroning mamlakat hayotiga, uning boshqaruviga faol qo'shilishiga qaratilgan bo'lib, ular inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun sharoitlar yaratib beradi. Siyosiy huquq va erkinliklarning qay darajada ekanligi ko'proq konstitutsiyaviy tuzumning mustahkamligiga, uning demokratiyasidagi haqqoniylik hamda aholi siyosiy madaniyatida uning qay darajada aks etganiga bog'liq. Ayni paytda, siyosiy huquqlar, alohida rivojlanadigan huquqlar bo'lib qolmasdan, balki ular shaxsiy huquq va erkinliklar asosida, ular bilan o'zaro ta'sirda rivojlanadigan huquqlar hamdir.

Ammo, shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, sovet totalitar tuzumi davrida siyosiy huquqlar va erkinliklar davlat hokimiyatini xaspo'shlash uchungina berilgan edi. Ko'ppartiyaviylikka yo'l qo'yilmagan va mamlakat hayotida fikrlar xilma-xilligiga keskin to'sqinlik qilingan edi. Davlat hokimiyati, umuman olganda, bir partiya vakillari tomonidan tashkil etilar, unda ham partiya ichida sof demokratiya qo'llanilmas edi. Kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlariga partiya-davlat mashinasi uchun yordamchi kuch sifatida qaralar edi. Bunday sharoitlarda siyosiy huquqlar davlatni xalqqa yaqinlashtirish o'rniga undan uzoqlashtirar edi.

Siyosiy huquqlar va erkinliklar avvaliga burjua konstitutsionalizmi tomonidan e'lon qilindi va asta-sekinlik bilan keng konstitutsiyaviy-huquqiy maqomga ega bo'ldi va bora-bora, dastlab muhim milliy huquq instituti sifatida, keyinroq esa – xalqaro huquq instituti sifatida mustahkamlanib bordi. Hozirgi davrda, inson huquqlariga oid ko'plab universal va mintaqaviy hujjatlar o'zlarining qoidalarida so'z va e'tiqod erkinligi, tinch yig'ilishlar va assotsiatsiyalar erkinligi, davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi kabi siyosiy huquqlarni ko'rsatib o'tadilar.

Siyosiy huquqlar – bu fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishi bilan bog'liq huquqlardir.

Konstitutsiyaning 32-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi ko'rsatib o'tilgan. Bunday ishtirok

etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2012-yil 19-dekabrda qabul qilingan "Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni saylovlarni yanada liberallashtirish, ularning ochiqqligini ta'minlash, fuqarolarning o'z xohish-irodalarini erkin va mustaqil bildirishi uchun yanada qulay shart-sharoit yaratadi.

Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi va hududiy saylov komissiyalarining a'zolari, vazirliklar va idoralar, siyosiy partiyalar, O'zbekiston Ekologik harakati, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining vakillari va saylov huquqi sohasi bo'yicha xorijiy mutaxassis-olimlar ishtirokida keng muhokamadan, xalqaro ekspertizadan o'tkazildi. Jumladan, Yevropa Kengashi, Venetsiya komissiyasi va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining birgalikda taqdim qilgan xulosasida qonunga ijobiy baho berildi.

Qonunning asosiy maqsadi saylovning oshkoraligi va ochiq-oydinligi prinsiplarini mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, unda ovoz berish kuniga qadar qolgan uch kun ichida, shuningdek, ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalari taxminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga, shuningdek, ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, internetga) joylashtirishga yo'l qo'yilmasligi kabi yangi me'yorlar o'z ifodasini topgan.

Yana bir e'tiborli jihat – endilikda kuzatuvchilarga O'zbekiston Ekologik harakatining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarini saylash bo'yicha konferensiyasida ishtirok etish huquqi berildi. Ushbu huquqiy mexanizm parlament quyi palatasi deputatlari saylovining oshkoraligi va ochiq-oydinligini ta'minlaydi.

Aybdorlik masalasi sudda hal etilmagan yoki turli sabablar bilan ehtiyot chorasi sifatida qamoqda vaqtincha ushlab turilgan shaxslar ham saylash huquqiga ega. Ularning ushbu huquqini ro'yobga chiqarish maqsadida qonunga qamoqda saqlash joylarida ham saylov uchastkalari tashkil etilishi to'g'risidagi norma kiritildi. Bu qo'shimcha mamlakatimizda inson huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilishning yana bir yorqin

namunasidir. Shuningdek, qonunga ko'ra, saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganda saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmaydi. Binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallari saylovga bir kun qolganda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan olib qo'yiladi. Taraqqiy etgan davlatlar qonunchiligida mavjud bunday normaning qonunchiligimizga kiritilishi saylovchilarga o'z qarashlarini, siyosiy xayrixohligini aniqlab olish, kim va qanday siyosiy dastur uchun ovoz berish masalasida aniq bir qarorga kelishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu ovoz berish kuni arafasida turli suiiste'mollik holatlari va qonun buzilishlarining oldini oladi.

Saylov qonunchiligiga kiritilgan yangi normalar saylov kampaniyasi mobaynida siyosiy partiyalarga va deputatlikka nomzodlarga teng shart-sharoitlar yaratish mexanizmlarini rivojlantirish bilan bir qatorda fuqarolarga o'z saylov huquqlarini erkin amalga oshirishlari uchun huquqiy kafolatlar ta'minlanishi yanada mustahkamlandi.

33-moddada fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Konstitutsiyaning 34-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoa birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Har bir shaxsning bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi Konstitutsiyaning 35-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar Konstitutsiya va kodekslarda o'z aksini topishi bilan bir qatorda, mamlakatda ushbu huquqlarga oid maxsus qonunlar bazasi ham shakllangan bo'lib, quyida fuqarolik va siyosiy huquqlarga oid ba'zi maxsus qonunlarning ro'yxati keltirilmoqda:

- “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”. 1991-yil 15-fevral.

- “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”, 1992-yil 2-iyul.

- “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, 1994-yil 5-may.

- “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”, 1995-yil 30-avgust.

- “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida” (yangi tahriri), 1995-yil 21-dekabr.

- “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”, 1996-yil 26-dekabr.

- “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”, 1997-yil 24-aprel.

- “Jumalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, 1997-yil 24-aprel.

- “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2007-yil 15-yanvar.

- “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (yangi tahriri), 1998-yil 1-may.

- “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”, 1998-yil 25-dekabr.

- “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” (yangi tahriri), 1999-yil 14-aprel.

- “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, 1999-yil 14-aprel.

- “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”, 2000-yil 14-dekabr.

- “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2001-yil 30-avgust.

- “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, 2002-yil 4-aprel.

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” (Konstitutsiyaviy Qonun), 2002-yil 12-dekabr.

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida” (Konstitutsiyaviy Qonun), 2002-yil 12-dekabr.

- “Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to‘g‘risida”, 2002-yil 12-dekabr.

- “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2002-yil 13-dekabr.

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”, (yangi tahriri). 2003-yil 29-avgust.

- “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”, 2004-yil 29-aprel.

- “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”, 2004-yil 30-aprel.

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2004-yil 27-avgust.

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”, 2004-yil 2-dekabr.

- “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”, 2004-yil 2-dekabr.

- “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”, 2007-yil 3-yanvar.

- “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” (Konstitutsiyaviy qonun), 2007-yil 11-aprel.

- “Homiylik to‘g‘risida”, 2007-yil 2-may.

- “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”, 2010-yil 1-iyun.

- “Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligi tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”, 2010-yil 28-sentabr.

- “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”, 2011-yil 14-sentabr.

- “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”, 2011-yil 29-sentabr.

- “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”, 2012-yil 19-sentabr.

- “Saylov erkinligi yanada ta‘minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”, 2012-yil 19-dekabr.

- “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” (yangi tahriri), 2012-yil 24-dekabr.

- “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”, 2012-yil 25-dekabr.

3. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarning xalqaro va milliy mexanizmlar asosida himoya qilinishi

Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha mexanizmlarni ham uch turga bo'lish mumkin:

1. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan universal mexanizmlar.
2. Mintaqaviy mexanizmlar.
3. Milliy mexanizmlar.

Universal mexanizmlarga BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari kiradi.

BMT mexanizmi: BMT Nizomi bo'yicha tashkil etilgan organlar va konvensiyaviy organlardan iborat.

Nizom bo'yicha tashkil etilgan organlar: Bosh Assambleya, EKOSOS, Inson huquqlari bo'yicha kengash.

Shartnomaviy organlar: Inson huquqlari qo'mitasi (bu qo'mita, Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt va unga I protokol asosida tashkil etilgan) va boshqa asosiy konvensiyalar asosida tashkil etilgan organlar (Irqi kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya va boshqalar).

Mintaqaviy mexanizmlar: Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo sudi.

Milliy mexanizmni biz shartli ravishda ikki guruhga ajratamiz. Ya'ni, inson huquqlarini himoya qiluvchi davlatning an'anaviy shakldagi tizimi va noan'anaviy shakldagi tizimi.

An'anaviy shakldagi tizimiga quyidagi tuzilmalar kiradi: sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari. Bu organlarni an'anaviy organlar deb aytilishimizga sabab, davlatchilik vujudga kelishi bilan bu organlar ham shakllanib kelgan va har bir davlatning muhim belgilaridan biriga aylandi.

Noan'anaviy shakldagi tizimga quyidagilarni kiritish mumkin, ya'ni:

- a) milliy institutlar;
- b) nodavlat notijorat tashkilotlari;
- d) ommaviy axborot vositalari.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni noan'anaviy shakl deyishimizga sabab, bu institutlar davlatchilik vujudga kelishi bilan paydo bo'lmagan va davlatchilikning keyingi davrlariga, ayniqsa, XX asrlarga

kelib keng miqyosda shakllanib, o'z o'rniga va ahamiyatiga ega bo'layotgan institutlardandir. Birinchi shakldagi organlar jahonning barcha davlatlarining muhim belgisi sifatida e'tirof etilsa, bu institutlar davlatning muhim belgisi sifatida e'tirof etilmaydi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, XX asrning oxiriga kelib, inson huquqlarini himoya qilishda davlat organlari orasida muhim o'rinni egallamoqda. Bu institutlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi kiradi.

Nohukumat tashkilotlari inson huquqlarini himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Ularning o'rni va roli, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini qurishda katta ahamiyatga egadir. Chunki, bu tashkilotlar o'z faoliyatini amalga oshirishda hech qanday ko'rsatmalarga qaramay, mustaqil amalga oshiradilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar natijasida jamoat birlashmalarining o'rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ular sonining o'sib borayotgani buning isbotidir. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yilda respublika va xalqaro ahamiyatga molik, davlat ro'yxatidan o'tgan jamoat birlashmalari soni 1500 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilga kelib ularning soni 5277 tani tashkil etdi, 2013-yilga kelib esa, ularning soni 6000 dan oshib ketdi. Bundan tashqari, faoliyat yuritib kelayotgan boshqa jamoat birlashmalari quyidagicha: jamiyatlar, assotsiatsiyalar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, harakatlar, jamg'armalar, federatsiyalar, markazlar, uyushmalar va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari bugungi kunda nafaqat davlat va jamiyat hayotiga har tomonlama kirib borganligi, balki inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etganligi uchun ham norasmiy ravishda "to'rtinchi hokimiyat" nomini olgan. Ularga bugungi kundagi barcha bosma va elektron ommaviy axborot vositalari kiradi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, shuningdek, siyosiy huquqlari tushunchasiga izoh bering.*
- 2. Inson huquqlari tasnifining qanday darajalari mavjud?*

3. *Shaxsiy huquq va erkinliklar va siyosiy huquqlarni himoya qilishga oid xalqaro hujjatlar va ularning mohiyatini tushuntirib bering.*

4. *O'zbekiston Konstitutsiyasida aks etgan shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarning mazmun-mohiyati nimada?*

5. *Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishga oid milliy huquqiy hujjatlar va ularning mohiyati haqida nima deya olasiz?*

6. *Shaxsiy huquq va erkinliklarga qaysi huquqlar kiradi?*

7. *Aybsizlik prezumpsiyasi nima?*

8. *Siyosiy huquqlarga qaysi huquqlar kiradi?*

9. *Fuqarolarning murojaatlari deganda nimani tushunasiz?*

10. *Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishga oid xalqaro mexanizmlarni ko'rsatib bering.*

11. *Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishga oid milliy mexanizmlarni ko'rsatib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Гражданские права человека: современные проблемы теории и практики /Под ред. Ф.М.Рудинского. – М.: МИР, 2006.

2. Саидов А. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Тошкент: ЖИДУ, 2001.

3. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: "Konsau-ditinform-Nashr", 2006.

4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010.

5. Исмаилов Б.И. Международные стандарты личных прав и национальное законодательство Республики Узбекистан. – T.: Центр правового просвещения при ТГЮИ, 2002.

6. Mingboyev U. Sud – fuqarolar himoyachisi. Toshkent, 2001.

7. Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2010.

9. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: "Adolat", 2004. – 520 b.

10. Права человека. Учебник. /Отв. ред. Е.А. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999.

11. O‘zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo‘yicha universal shartnomalar. – T.: “Adolat”, 2002.

12. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo‘yicha hujjatlari. – T.: 2012.

13. Jeneva konvensiyalari to‘plami. /A.X. Saidov tahriri ostida. – Toshkent, 2002.

14. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.

12-mavzu. Insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari

1. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari va ularning xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning kafolati.

3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmi.

1. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari va ularning xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar "ikkinchi avlod" huquqlariga taalluqlidir. Ushbu huquqlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi turmush sharoitini belgilab beruvchi huquqlar hisoblanadi. Bu sohada inson mehnat qiladi, dam oladi, mulkka egalik qiladi va uni tasarruf qiladi, kasbiy bilimlarini oshiradi va tajriba orttiradi.

"Ikkinchi avlod" huquqlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ushbu huquqlarni ta'minlab berishda davlatlar birinchi galda o'zining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Shu bois, bunday huquqlarni barcha davlatlar ham bir xil darajada ta'minlab bera olmaydi. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qatnashuvchi davlatlar ulardan foydalanishda turli cheklashlar o'rnatishi mumkin. Cheklashlar shu davlatning qonunida belgilanib, ular umumiy farovonlik maqsadlariga va mamlakatda amalda bo'lgan tartib-qoidalar tabiatiga mos bo'lishi shart.

Ayni vaqtda davlatlar ushbu huquqlarni, ularni birinchi avlod huquqlaridan kamsitmagan holda ta'minlab berishi kerak.

1986-yili Limburg universiteti (Gollandiya)da Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning qoidalaridan a'zo-davlatlar uchun kelib chiqadigan yuridik majburiyatlarning tabiati va darajasi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan yirik ekspertlar yig'ildilar. Ular uzoq tortishuv-munozalar asosida quyidagi asosiy hulosalarga keldilar:

1. Insonning barcha huquq va erkinliklari, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari ham bo'linmas va o'zaro bog'liq bo'lib, ular xalqaro huquqning ajralmas qismini tashkil etadi.

2. Pakt o'z ishtirokchilari zimmasiga yuridik majburiyatlar yuklaydi. A'zo-davlatlar ushbu xalqaro hujjatga kiritilgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha choralarni, shuningdek, qonunchilik va ma'muriy choralarni ham tezda ko'rish shart. Har bir insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari sud tomonidan ham himoya qilinishi nazarda tutilishi shart.

3. Paktga a'zo-davlatlar, ularning iqtisodiy taraqqiyotidan qat'i nazar, hech bo'lmaganda minimal darajada barchaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarini ta'minlab berishi kerak¹.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning majburiylik xarakteri BMTning ko'plab hujjatlarida ham qayd etilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish to'g'risidagi BMTning tadqiqotlarida shunday deyiladi: "Pakt xalqaro va mintaqaviy darajada harakat qilish uchun, shuningdek, uning normalarini mamlakatlarda hayotga tatbiq qilish uchun bevosita asos yaratib beradi. Uning birdan-bir kamchiligi shundaki, aksariyat kam rivojlangan mamlakatlar o'zlarining taraqqiyot darajalaridan, resurslari va aholisining sonidan kelib chiqib, Paktning qoidalarini sekinlik bilan amalga oshiradilar"². Paktga ko'rsatib o'tilgan ayrim huquqlargina, shu jumladan har bir insonning kasaba uyushmalariga birlasha olish huquqi kabi huquqlari, ushbu mamlakatning rivojlanishi darajasidan qat'i nazar ta'minlab berilishi kerak.

2008-yil dekabr oyida BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga Fakultativ protokol qabul qilindi va u 2013-yil may oyida kuchga kirdi. Unda Paktga mustahkamlab qo'yilgan huquqlari buzilgan taqdirda fuqarolarning o'z davlati ustidan shikoyat qilish huquqi mustahkamlab qo'yilgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va unga Fakultativ protokol bilan birga, qayd etish kerakki, bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar o'z aksini topgan bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar shakllangan bo'lib, quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga oid BMTning asosiy hujjatlari:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil).
- Irqiy kamsitishlarning barcha ko'rinishlariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1965-yil).
- Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil).

1 The Limburg Principles in the Implementation of the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. Human Rights Quarterly. 1987. Vol. 9. 2. – R.122–135.

2 Doc. UN E/CN 4/1108/ Add 5/para 56

- Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979-yil).

- Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989-yil).

- Mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (1990-yil. 2013-yil yanvariga kelib, O'zbekiston a'zo emas).

- Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006-yil. O'zbekiston Respublikasi imzolagan, ammo 2013-yil yanvariga kelib, uni O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ratifikatsiya qilmagan).

Shuningdek, O'zbekiston mamlakatlar fuqarolarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilish maqsadida BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari, xususan UNESCO, XMT, BIMT doirasida muhim xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'shilganki, bu hujjatlarning normalari mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari sifatida e'tirof etiladi.

Quyida bu tashkilotlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga taalluqli hujjatlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi inson huquqlariga taalluqli UNESCOning O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan muhim xalqaro-huquqiy hujjatlari sirasiga quyidagilar kiradi:

1966-yilgi "Xalqaro madaniy hamkorlik prinsiplari" Deklaratsiyasi;

1960-yilgi "Ta'lim sohasida kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya;

1989-yilgi "Texnikaviy va kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Konvensiya;

1972-yilgi "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiya ("Umumjahon madaniy konvensiyasi");

1952-yilgi "Mualliflik huquqi haqida butunjahon konvensiyasi" (Jeneva);

1954-yilgi "Qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risida"gi Konvensiya;

1970-yilgi "Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga egalik huquqini o'zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Konvensiya;

1971-yilgi "Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, asosan, suvda suzadigan qushlar uchun yashash joylari hisoblanadigan suvlar va botqoqliklar to'g'risida"gi Konvensiya;

1995-yilgi "Bag'rikenglik tamoyillari" Deklaratsiyasi;

2003-yilgi "Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risida"gi Konvensiya;

2005-yilgi “O‘z madaniyatini namoyon qilishning turfa xilligini muhofaza qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Konvensiya va boshqalar¹.

Mehnat va ijtimoiy huquqlarni himoya qilish sohasida Xalqaro mehnat tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan muhim hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1930-yilgi “Zo‘raki yoki majburiy mehnat to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1935-yilgi “Ish vaqtini haftasiga qirq soatgacha qisqartirish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1936-yilgi “Haq to‘lanadigan yillik ta‘til to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1949-yilgi “Kollektiv shartnomalarni uyushtirish va tuzish huquq tartiblarining qo‘llanishi to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1951-yilgi “Teng ahamiyatli mehnat uchun erkak va ayollarni teng taqdirlash to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1952-yilgi “Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1957-yilgi “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1958-yilgi “Mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1964-yilgi “Ish bilan ta‘minlash sohasidagi siyosat to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1971-yilgi “Korxonalarda mehnatkashlar vakillarining huquqlarini himoya qilish va ularga beriladigan imkoniyatlar to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1973-yilgi “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1981-yilgi “Jamoat muzokaralariga ko‘maklashish to‘g‘risida”gi Konvensiya;

1999-yilgi “Bolalar mehnatining eng og‘ir shakllarini tugatish to‘g‘risida”gi Konvensiya.

Fuqarolarning intellektual huquqlarini himoya qilishda Butunjahon intellektual mulk tashkilotining quyidagi hujjatlari xalqaro huquqiy manba bo‘lishi mumkin:

1886 yilgi “Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida”gi Bern konvensiyasi;

1996-yilgi “BIMTning mualliflik huquqi bo‘yicha shartnomasi”;

1971-yilgi “Ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va efir orqali uzatuvchi tashkilotlar huquqlarini himoya qilish haqida”gi Jeneva konvensiyasi;

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – B. 278–279.

1996-yilgi “Yerning sun’iy yo‘ldoshi orqali uzatiladigan dasturlarni tashuvchi signallarni tarqatish to‘g‘risida”gi 1974-yilgi Bryussel Konvensiyasi; BIMTning “Ijrochilar va fonogrammalar bo‘yicha” Shartnoma;

1979-yilgi “Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish haqida”gi Madrid konvensiyasi va boshqalar.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro mintaqaviy shartnomalar ham shakllanganki, ularga O‘zbekiston a‘zo bo‘lmasa-da, ammo ro‘yxatini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-yil), unga Birinchi protokol (1952-yil).

- Yevropa sotsial xartiyasi (1961-yil, 1996-yilda qayta ko‘rib chiqilgan).

- Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi (1969-yil) va Amerika konvensiyasiga iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga taalluqli Qo‘shimcha protokol (San-Salvador protokoli, 1988-yil).

- Inson va xalqlar huquqlari bo‘yicha Afrika xartiyasi (1981-yil).

- Bola huquqlari va farovonligi asoslari to‘g‘risidagi Afrika xartiyasi (1990-yil).

- Inson va xalqlar huquqlari bo‘yicha Afrika xartiyasiga Afrikadagi ayollar huquqlariga taalluqli protokol (2003-yil)¹.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning kafolati

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq insoniy shaxs ideali, qo‘rquvdan holi bo‘lgan holdagina va tegishli sharoit yaratilgandagina, har qanday inson o‘zining fuqarolik va siyosiy huquqlari singari iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida keng demokratik huquq va erkinliklar berilgan. Ular orasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklar muhim ahamiyat kasb etib, fuqarolarning boshqa huquq va erkinliklariga zamin yaratadi. Mazkur kategoriyadagi huquqlar jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan quyidagi huquqlar kiradi:

mulkdor bo‘lish (36-modda);

mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi (37-modda);

¹ Albatta, bu mintaqaviy konvensiyalarga O‘zbekiston Respublikasi a‘zo emas, ammo O‘zbekiston fuqarolari mazkur shartnomalardan kelib chiqadigan huquqlarini mazkur shartnomalarga a‘zo bo‘lgan mintaq davlatlarida amalga oshirishlari mumkin.

haq to'lanadigan mehnat ta'tili (38-modda);
ijtimoiy ta'minot olish huquqi (39-modda);
malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (40-modda);
bilim olish huquqi (41-modda);
ijod erkinligi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi (42-modda).

Konstitutsiyaning 36-moddasida belgilab qo'yilgan "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi", degan qoida mamlakatda turli shakldagi mulkdorlar sinfining yanada ko'payishiga huquqiy zamin yaratdi. Mamlakatda bank tizimi tobora takomillashib bormoqda. Mamlakatdagi bank tizimi va banklarga fuqarolar o'z omonatlarini qo'yishlari va ulardan foydalanishlari uchun milliy qonunchilik ham takomillashtirib borilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlab o'tganidek, "O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budget, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash zarur. Mamlakatimizda esa, birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori, "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 13 trillion 360 milliard so'mdan oshadi. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jalb qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir"¹.

Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash, mehnat jarayonida xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlarining kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda, erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligini ta'minlash uchun quyidagi imkoniyatlar yaratib beriladi:

- a) barcha insonlarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilish;
- b) ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga, ishga yollashda bir xil tanlash mezonlarini qo'llash;
- d) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etilish kafolatiga ega bo'lish, shuningdek, shogirdlik, yuqori darajadagi kasb bo'yicha tayyorgarlik va muntazam suratda malaka oshirishni o'z ichiga olgan holda mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitidan to'liq foydalanish, kasb bo'yicha tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tish;
- e) imtiyozlar olishni ham hisobga olgan holda teng mukofotlash, bir xil qimmatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarda, shuningdek, ish sifatini baholashga teng yondashish;

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 8–9.

f) nafaqaga chiqish, ishsiz qolish, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan iborat boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqi, shuningdek, haq to'lanadigan ta'til.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida mustahkamlangan mehnat qilish huquqi insonning barcha huquq va erkinliklarining asosiysidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan bu huquq:

birinchidan, fuqarolarga o'zlari xohlagan kasb-hunarni erkin tanlash;

ikkinchidan, o'z qobiliyatiga yarasha ish bilan ta'minlanish;

uchinchidan, mehnatining hajmi va sifatiga qarab haq olish;

to'rtinchidan, adolatli mehnat sharoitida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih;

beshinchidan, mehnatni muhofaza qilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlanishini anglatadi. U davlatga fuqarolarga qobiliyatlari, bilimlari va malakalariga qarab ish bilan ta'minlash vazifasini yuklaydi.

O'zbekiston fuqarolarining **mehnat qilish huquqi** mustaqillik va istiqbol sharoitida bilan yangi-yangi imtiyoz va qoidalar bilan boyitildi. Har bir fuqaro mehnat qilish va uning natijalaridan foydalanish, shu jumladan, unumli va ijodiy mehnat uchun o'z qobiliyatlarining tasarruf etilish imkoniyati huquqiga, ishni erkin tanlash, qulay mehnat sharoitlari, davlat tomonidan kafolatlangan mehnat haqi minimumi va ishsizlikdan himoyalanih, teng mehnati uchun hech bir kamsitishsiz teng haq olish huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida davlat va jamiyatni rivojlantirishning zarur sharti, jamiyat boyligini ko'paytirish manbai bo'lmish insonlarga Konstitutsiyada va amaldagi qonunlarda kafolatlangan mehnat qilish huquqining berilganligidadir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining **dam olish huquqi** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida o'z ifodasini topgan. Fuqarolarning dam olish huquqi qonun tomonidan ish kunini ma'lum muddatga chegaralashda, ish muddati davrida dam olish, ovqatlanish uchun tanaffus o'rnatilishida har hafta va bayram kunlari dam olish kunlarini belgilashda, har yili ish joyi saqlangan holda asosiy va qo'shimcha ta'tillar berilishida o'z qonuniy ifodasini topadi.

Fuqarolarning dam olish huquqi Konstitutsiyada kafolatlangan va yangicha talqin etilgan. Uning 38-moddasida: "Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi", deb qonunan mustahkamlangan.

Dam olish huquqi O'zbekiston fuqarolariga mehnat to'g'risidagi qonunchilikda ishchi va xizmatchilar uchun 41 soatdan oshmaydigan ish haftasi belgilanishi bilan birga kasblar va ishlab chiqarishlar uchun qisqartirilgan ish kuni, tungi paytlarda qisqartirilgan ish vaqti, har yili haq to'lanadigan ta'tillar berish, har haftada dam olish kunlari berilishi bilan, shuningdek, madaniy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish muassasalari shoxobchalarini kengaytirish, ommaviy sport, fizkultura va turizmni rivojlantirish bilan, istiqomat joyida dam olish uchun qulay imkoniyatlar hamda bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish uchun boshqa sharoitlar yaratish bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida xodimlarning ko'pchiligi uchun ikki dam olish kuni bo'lgan ish haftasi joriy etilgan, bu esa ishdan bo'sh vaqtlardan oqilona foydalanish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekistonda fuqarolarga dam olishni mazmunli o'tkazish uchun sanatoriylar, dam olish uylari, klublar, o'yingohlar, sport maydonlari, madaniyat va istirohat bog'lari, kutubxona shoxobchalari barpo etilgan va ular borgan sari kengayib bormoqda. Har yili millionlab fuqarolar sanatoriy, dam olish uylarida salomatliklarini tiklab dam oladilar. Qonunga ko'ra, sanatoriy, dam olish uylariga yo'llanma narxi imtiyozli bo'lib, ijtimoiy sug'urta mablag'idan qoplanadi. Ko'pchilik xodimlarga yo'llanmalar bepul beriladi.

Fuqarolarning mehnat qilish huquqi qarigan chog'ida, betob bo'lib, mehnat layoqatini yo'qotganda moddiy ta'minot olish huquqi bilan chambarchas bog'langan. Bu Konstitutsiyaning 39-moddasida mustahkamlangan: "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilanib qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas".

O'zbekistonda demokratik insonparvar fuqarolik jamiyati barpo qilish jarayonida O'zbekiston jamiyati va davlati faoliyatining asosiy yo'nalishi har bir fuqaroning layoqatini har tomonlama rivojlantirish, uni jamiyat manfaatlari uchun istifoda etishga qaratilgandir. Mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti jamiyat a'zolarini har tomonlama bilimli qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Shuning uchun ham, mustaqillikka erishgan mamlakatimizni rivojlangan ma'rifatli davlatga aylantirish asosiy vazifalardan biridir. O'zbekiston fuqarolari **bilim olish huquqining** mohiyati shundaki, ularning millati, irqi, jinsi, o'tmishi, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, bilim olish teng asosda, ona tilida amalga oshiriladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Kons-

titutsiyasining 41-moddasida o'z ifodasini topgan. Unda har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi, maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi qayd etiladi.

Umumiy majburiy bepul ta'limning joriy qilinishi, o'qishni turmush bilan, ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish asosida o'rta umumiy, kasb-hunar, o'rta maxsus va oliy ta'limning keng yo'lga qo'yilganligi, ta'limning har tomonlama rivojlantirilganligi, davlat stipendiyalari berish tizimining joriy qilinganligi, maktablarda o'qitishning ona tilida olib borilishi, shahar va qishloqlarda fuqarolarga ishlab chiqarish, texnika va agromiya bilimlarini o'rgatish uyushtirilganligi ilm olish huquqini kafolatlamogda.

Mustaqil mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlar yurtboshimiz tashabbusi va boshchiligida yaratilib, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ro'yobga chiqarilmoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 9672 ta umumta'lim maktablarida 6 mln.ga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda. O'quvchilarga yarim millionga yaqin pedagoglar dars bermoqda.

O'zbekistonda 60 dan ortiq oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Milliy dasturga muvofiq, to'rt yillik bakalavriat va ikki yillik magistratura orqali oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning zamonaviy tizimi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining demokratik, insonparvarlik mohiyati fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilishda ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bu sohada belgilangan ijtimoiy tadbirlari davlatning insonparvarlik tabiatining yorqin namoyishidir.

Mamlakatimizda fuqarolarning sihat-salomatligini saqlash, malakali **tibbiy yordam olish huquqi** endilikda alohida mustaqil huquq bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqini mustahkamlash bilan cheklanib qolmay, balki bu muhim huquqni ta'minlashning aniq-ravshan tadbirlarini ham belgilab beradi. Bu davlat sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan bepul va pulli malakali tibbiy yordam berilishi, fuqarolarni davolash va sog'liqni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan muassasalarni ko'paytirish, xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish gigiyenasi va sanitariyasining rivojlantirilishi va

takomillashtirilishi, keng profilaktika tadbirlarini o'tkazish, atrof muhitni sog'lomlashtirish tadbirlarini ko'rish, yosh avlodning sihat-salomatligi to'g'risida alohida g'amxo'rlik qilish, shu jumladan, o'qitishga va mehnat tarbiyasiga taalluqli bo'lmagan bolalar mehnatini taqiqlash, kasallikning oldini olish va kamaytirishga, fuqarolarning uzoq yil faol hayot kechirishlarini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning keng avj olishi bilan ta'minlanadi. O'zbek xalqi sog'liqni saqlashda erishilgan yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Xalqning sihat-salomatligi – O'zbekistonning asosiy boyligidir.

Sog'lom avlodni tarbiyalash va umuman tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi pog'onaga ko'tarishda davlat rahbari tomonidan 1998-yil 10-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish borasidagi davlat dasturi to'g'risida"gi Farmon muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning **uy-joyli bo'lish huquqini** qonuniy ifoda etdi va unga keng yo'l ochib berdi. Zero, uy-joy inson uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarning boshqa konstitutsiyaviy huquqlari bilan birga, bu huquq jamoat uy-joy fondini rivojlantirish va qo'riqlash bilan kooperativ va yakka tartibdagi uy-joy qurish rejasi keng ko'lamda amalga oshirila borgan sari berib boriladigan uy-joy maydonini jamoatchilik nazorati ostida odilona taqsimlash bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ilm-fan bilan texnikaviy ijodiyotdan, osori-atiqalar, tarixiy yodgorliklar va madaniyat yutuqlaridan keng foydalanilmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlanganidek: "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi".

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod huquqi va erkinligi berilgan. Bu huquq va erkinliklar ilmiy tadqiqotlar, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini keng avj oldirish, adabiyot va san'atni rivojlantirish, rag'batlantirish, mukofotlash bilan ta'minlanadi.

O'zbekistonda buning uchun zarur moddiy shart-sharoitlar yaratib berilmoqda, ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar qo'llab-quvvatlanib turilibdi, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflarini xalq xo'jaligi va jamiyat hayotining qator sohalarida joriy etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Fuqarolarning mualliflik, ixtirochilik va ratsionalizatorlik huquqlari davlat tomonidan rag'batlantirilmoqda va qo'riqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari **tarixiy yodgorliklar, madaniy yutuqlardan keng foydalanish huquqiga** egadirlar. Ushbu huquq mamlakatimiz va jahon madaniyatining davlat va jamoat fondlarida saqlanayotgan madaniy-ma'naviy boyliklaridan barcha fuqarolarni bahramand qilish, mamlakatimiz hududida madaniy-ma'rifiy muassasalarni rivojlantirish, televideniye, radio, kitob nashr qilish ishini va vaqtli matbuotni, tekin kutubxonalar shoxobchalarini rivojlantirish, chet el davlatlari bilan madaniy aloqalarni kengaytirish bilan ta'minlanmoqda. Fuqarolarning yuqorida qayd etilgan huquqlaridan foydalanishida 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyatga egadir.

Madaniy taraqqiyotga va madaniy hayotda aholining ishtirok etishiga yordam berish maqsadida ko'plab jamg'armalar ishlab turibdi. "O'zbekteatr" ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida "Artmadad", "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi tarkibida esa, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi jamg'arma faoliyat ko'rsatmoqda. Madaniyat ishlari bo'yicha vazirlik doirasida 85 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston fuqarolarining intellektual ehtiyojlari, xilma-xil talablari oshib bormoqda va ular hokimiyat hamda boshqaruv organlari tomonidan tobora to'la qondirilmogda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 13-, 14-moddalarida, 1960-yil 14-dekabrda Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya moddalarida, Konstitutsiyamizning 41-moddasida mustahkamlab qo'yilgan **bilim olish huquqi** 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham mustahkamlangan. Ta'lim sohasida mamlakatimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston aholisi yuqori darajada (99,34%) savodli mamlakat hisoblanadi. Maktablarda ta'lim, tegishli tarzda yetti tilda olib boriladi.

Yuqorida qayd etilganidek, 1997-yili "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktabrdagi Farmoni bilan ushbu Milliy dasturni amalga oshirish Respublika komissiyasi tuzildi hamda uning dolzarb vazifalari belgilab berildi. Bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqti samarasiz o'tmasligi va mazmunli dam olishni ta'minlash maqsadlarida davlat organlari, mulkchilikning turli shakllariga mansub korxonalar, jamoat birlashmalari madaniy-estetik, tibbiy, ilmiy va boshqa yo'nalishlardagi maktabdan tashqari muassasalarni

tuzishlari mumkin. Davlat iqtidorli yoshlar haqida alohida g'amxo'rlik qiladi. Davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar iqtidorli yoshlarning oyoqqa turishlariga ko'mak-lashishlari zarur. Eng muhtoj bo'lgan ijodkor yoshlarga uy-joy berish, mualliflarning eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlarini rag'batlantirish uchun Davlat mukofotini ta'sis etish, respublika maktab olimpiadalari, ijodkor yoshlarning xalqaro va respublika tanlovlari g'oliblarini moddiy rag'batlantirish, maxsus oliy o'quv yurtlariga imtihonlarsiz qabul qilish kabi bir qator tadbirlar ko'zda tutiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, fuqarolarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan ijtimoiy huquqlarini ta'minlashga davlat tomonidan katta ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" nomli kitobida bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib, shunday deydi: "Ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab tubdan qayta ta'mirlandi. Shular qatorida, 184 ta bolalar sport inshooti, 26 ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr turar joy binolari va boshqa obyektlar qurildi"¹.

2012-yilda qabul qilingan "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda mulk egasining huquqi ustuvor ahamiyatga ega ekani haqidagi hal qiluvchi prinsip mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bundan buyon qonunchilikda mulk egasi bilan davlat organlari munosabatlarida paydo bo'ladigan barcha ziddiyat va tushunmovchiliklar mulkdorning foydasiga hal etiladi.

2012-yil mobaynida qabul qilingan "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonunlar va ular asosida imzolangan "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, shuningdek, "Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmonlari va boshqa qarorlar mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish va bu-

1 Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 20–21.

ning uchun zarur ishbilarmonlik muhitini shakllantirish hamda yurtimizda investitsion muhit jozibadorligini va qulayligini oshirishning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan ana shu barcha qonun hujjatlari va huquqiy normalarning ijrosini monitoring qilish va nazoratga olish tashqi va jahon bozorlarida global inqiroz avj olib borayotgan bir sharoitda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolarning iqtisodiy huquqlari to'g'risida fikr yuritganimizda, iste'molchilarning huquqlari to'g'risida alohida to'xtalib o'tish lozim. Hozirgi davrda mamlakatimizda nodavlat tashkiloti sifatida Iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi uyushmalar tashkil etilgan. Iste'molchilar huquqlari to'g'risidagi qonunga ham alohida to'xtalib o'tish lozim.

Quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga oid ba'zi maxsus qonunlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida" (yangi tahriri). 2008-yil 18-iyun.

- "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida". 1992-yil 2-iyul.

- "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida". 1993-yil 6-may.

- "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida". 1998-yil 1-may.

- "Ta'lim to'g'risida". 1997-yil 29-avgust.

- "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida". 1997-yil 29-avgust.

- "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" (yangi tahriri). 2006-yil 20-iyul.)

- "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida". 1996-yil 26-aprel.

- "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida". 1996-yil 29-avgust.

- "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida". 2006-yil 12-aprel.

- "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida". 1998-yil 30-aprel.

- "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" (yangi tahriri). 2000-yil 26-may.

- "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida". 2001-yil 30-avgust.

- "Fermer xo'jaligi to'g'risida" (yangi tahrirda) 2004-yil 26-avgust.

- "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida". 2004-yil 2-dekabr.

- “Ipoteka to‘g‘risida”. 2006-yil 4-oktabr.
- “Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”. 2010-yil 22-dekabr.
- “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”. 2010-yil 27-dekabr.
- “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”. 2011-yil 13-aprel.
- “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”. 2011-yil 5-oktabr.
- “Raqobat to‘g‘risida”. 2012-yil 6-yanvar.
- “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”. 2012-yil 26-aprel.
- “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi” (yangi tahrir). 2012-yil 2-may.
- “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”. 2012-yil 17-dekabr.
- “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”. 2012-yil 20-dekabr.

Umuman bu ro‘yxatni yana kengaytirish mumkin bo‘lib, unda baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtalanish to‘g‘risidagi va boshqa qonun nomlari bilan ham kengaytirish mumkin.

O‘zbekiston Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturida mustahkamlangan, inson huquqlari universal, bo‘linmas, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqadadir va shuning uchun ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar ham fuqarolik va siyosiy huquqlar kabi muhim hisoblanadi, degan yondashuv tarafdoridir. 2000-yildan so‘ng budjetdan ijtimoiy sohaga: ta‘lim, sog‘liqni saqlash, nogironlar va kam ta‘minlanganlarga ajratilayotgan mablag‘larning barqaror ko‘payib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Keyingi yillarda budjetning 50 foizidan ortig‘i ijtimoiy sohani rivojlantirishga, shu jumladan, 30 foizidan ortig‘i ta‘lim sohasiga ajratilmoqda.

Shuni ta‘kidlash lozimki, 2006-yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy muhofaza etishga davlat budjetining 51 foizi sarflangan bo‘lsa, 2009-yilda bu ko‘rsatkich 55,6 foizni tashkil etdi, 2012-yilda esa – 60 foizga yetdi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlariga bunday e‘tibor, bunday munosabatda bo‘lish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitlarida juda kam uchraydigan holatdir.

O‘zbekiston mamlakatda tizimli va jo‘shqin harakat va o‘zgarishlarga boy iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy siyosatni o‘tkazish tarafdoridir. Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan ijtimoiy rivojlantirishning yillik va uzoq muddatli milliy dasturlari esa, uning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘zbekistonda har yilni inson huquqlarining muhim ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini hal etishga bag‘ishlash amaliyoti mavjud. Jumladan, 2005-yil – “Sixat-salomatlik yili”, 2006-yil – “Homiylar va shifokorlar yili”, 2007-yil –

“Ijtimoiy himoya yili”, 2008-yil – “Yoshlar yili”, 2009-yil – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010-yil – “Barkamol avlod yili”, 2011-yil – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012-yil – “Mustahkam oila yili”, 2013-yil – “Obod turmush yili” deb e’lon qilingan.

Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotdagi tuzilmaviy qayta qurishlar hozirgi bosqichda davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishidagi o’ziga xos jihatlaridan hisoblanadi va ular o’tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning muayyan xususiyatini ko’rsatib beradiki, bu xususiyat, o’z navbatida, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta’minlab berishga ta’sir ko’rsatadi.

Asosida qishloq xo’jaligini qayta qurish hisoblangan qishloq joylarida o’tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar qishloq aholisining madaniy farovonlik darajasini oshirishga, o’rta va kichik biznesning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga, ta’lim va sog’liqni saqlash xizmatini hammabop qilishga, yangi ish joylarini qurishga va umuman, insonlar hayotini farovonlashtirishga hamda shaharliklar va qishloq aholisi imkoniyatlarini tenglashtirishga qaratilgandir. Iqtisodiy islohotlar xo’jalik subyektlariga qarashli mulk shakllarining o’zgarishi, xususiy mulk sohasini kengaytirish, fermer xo’jaliklarini ko’paytirish bilan birga olib borildiki, bu jarayon umuman aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy ongining oshishiga olib keldi. Mazkur jarayonlar esa, o’z navbatida, faoliyati qishloq joylarida inson huquqlarining buzilishiga yo’l qo’ymaslikka qaratilgan Adliya vazirligi va Bosh prokuraturada inson huquqlarini himoya qilish bo’yicha maxsus tuzilmalarni tashkil etish ehtiyojini tug’dirdi.

Hukumat tomonidan 2013-yilga mo’ljallangan **Ish joylarini yaratish va bandlikni ta’minlash dasturi** ishlab chiqilgan va parlament tomonidan tasdiqlangan. Dasturda 2013-yilda 972,7 mingta ish o’rni tashkil etish nazarda tutilmoqda. Bu ish o’rinlari yangi yirik sanoat obyektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni, xizmat ko’rsatish hamda servis sohaslarini rivojlantirishni bundan buyon ham rag’batlantirish, kasanachilik mehnatini kuchaytirish hisobiga tashkil etiladi. Dasturning yana bir ustuvor jihatı fuqarolarning ijtimoiy jihatdan kam ta’minlangan toifalarini ishga joylashtirishdan iborat. Nogironlar hamda mehnat bozorida qiyinchilikka duch kelayotgan boshqa shaxslar uchun kamida 100 mingta ish o’rni zaxiralash (kvotalash) belgilangan.

Dasturda ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini ishga joylashtirishga muhim o’rin ajratilgan. Bo’sh va zaxiralanadigan ish o’rinlari hisobiga kasb-hunar kollejlarning 500 mingdan ziyod bitiruvchisini ishga

joylashtirish mo'ljallangan. Shu maqsadda "kollej – korxona" tizimi bo'yicha kasb-hunar kollejlari iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi 90 mingdan ziyod korxona va tashkilot biriktirib qo'yiladi, bitiruvchilarning ish qidirishga sarflaydigan vaqtini qisqartirish uchun esa, barcha yirik shaharlar va tumanlarda kamida 900 ta bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi o'tkaziladi. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilariga o'z tadbirkorlik ishini tashkil etishi hamda yo'lga qo'yishi uchun imtiyozli mikrokreditlar ajratishni davom ettirish nazarda tutilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kredit bilan salmoqli ravishda qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 5,1 trillion so'm miqdorida kreditlar ajratish ko'zda tutilmoqda. Bu kredit mablag'lari, asosan, olis qishloq tumanlarida va mehnat bozorida vaziyat keskin bo'lgan hududlarda ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Dastur fuqarolarning ishbilarmonlik faolligini bundan buyon ham rag'batlantirishni, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikka, qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hamda saqlashga, issiqxona xo'jaliklarini tashkil etishga ixtisoslashgan fermer va dehqon xo'jaliklarini, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va kengaytirishni hamda boshqalarni nazarda tutadi.

3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmi

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishning xalqaro mexanizmi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishning xalqaro mexanizmi to'g'risida fikr yuritilganda, avvalambor, universal mexanizm sifatida BMT tizimida shakllangan mexanizmni ta'kidlab o'tish lozim.

BMTning inson huquqlari bo'yicha mexanizmining umumiy tavsifiga oldingi boblarimizda batafsil to'htalib o'tgan edik. BMT doirasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bilan shug'ullanuvchi asosiy organ uning Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi (EKOSOS) hisoblanadi. Mazkur organ BMTning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtirish uchun xalqaro hukumatlararo organ sifatida ta'sis etilgan. EKOSOS quyidagi masalalar uchun mas'ul hisoblanadi:

- yuqori turmush darajasini, to'liq ish bilan bandlikni, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash;

- xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy va sog'liqni saqlash muammolarini hal qilish yo'llarini aniqlash;

- madaniy va ta'lim sohalarida xalqaro hamkorlikka ko'maklashish;

- asosiy inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini rag'batlantirish¹. Ya'ni, mazkur yo'nalishlarda organ a'zo-mamlakatlar va Tashkilotning boshqa organlari hamda ixtisoslashgan tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasidagi xalqaro nazorat organi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt doirasida tashkil etilgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitani alohida ta'kidlab o'tish lozim. Qo'mita Paktga a'zo-davlatlarning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqadi. Qo'mitaning tarkibi, faoliyati va uning ish yuritish jarayoni to'g'risida BMT mexanizmiga bag'ishlangan bobda to'xtalib o'tilgan.

Shu yerda, BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 2008-yil dekabrda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Fakultativ protokoli 2013-yil 5-may kuni kuchga kirganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Protokolning kuchga kirishi alohida shaxslarga Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda kafolatlangan huquqlari buzilgan shaxslarga buning uchun maxsus tashkil etilgan Qo'mitaga murojaat qilishiga imkon berdi. Murojaatlar a'zo-davlat yurisdiksiyasidagi Paktda bayon qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari buzilgan shaxs yoki shaxslar guruhi yoki ularning nomidan mazkur huquqlarni buzgan a'zo-davlat ustidan taqdim etilishi mumkin. Bu esa, Paktda belgilab qo'yilgan huquqlarni himoya qilish borasida xalqaro organga individual murojaat qilish huquqini yanada kengaytiradi.

Quyida BMT doirasida muayyan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha maxsus taomillar ro'yxati keltirilmoqda:

- Ta'limga bo'lgan huquqqa oid masalalar bo'yicha maxsus ma'ruzachi (1998-yildan buyon);

- Oziq-ovqatga bo'lgan huquqqa oid masalalar bo'yicha maxsus ma'ruzachi (2000-yildan buyon);

- Yetarli hayotiy darajaga bo'lgan huquqning va bu sohada kam-sitilmaslikka bo'lgan huquqning tarkibiy qismi sifatida Yetarli uy-joy masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi (2000-yildan buyon);

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 252.

- Har bir shaxsning eng yuqori darajada jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishga bo'lgan huquqi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi (2002-yildan buyon);

- Xavfsiz ichimlik suvlari va sanitariya xizmatlarining imkoniyatlari bilan bog'liq huquqni himoya qiluvchi majburiyatlar to'g'risidagi masala bo'yicha mustaqil ekspert (2008-yildan buyon).

Bugungi kunda BMT tizimi doirasida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha ixtisoslashgan tashkilotlar tizimi shakllangan bo'lib, ularga UNESCO, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) kiradi. Mazkur tashkilotlar orasida UNESCO va XMT doirasida tashkilotlarning xalqaro hujjatlaridan belgilab qo'yilgan huquqlari a'zodavlat tomonidan buzilgan taqdirda, buzgan davlat ustidan individual murojaat qilish huquqini e'tirof etuvchi hamda xalqaro hujjatlardan kelib chiquvchi majburiyatlarini bajarishi bo'yicha monitoring qiluvchi mexanizmlar (qo'mitalar) shakllangan.

Jumladan, UNESCOning Konvensiyalar va tavsiyalar bo'yicha qo'mitasiga ham shikoyatlar bilan murojaat qilish mumkin. Murojaatlar alohida shaxslar yoki nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan quyidagi masalalar yuzasidan berilishi mumkin: ta'lim olish huquqi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etish, san'atdan bahramand bo'lish, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish huquqi, axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan izlash, olish va tarqatish erkinligi, vijdon va so'z erkinligi.

Xalqaro mehnat tashkiloti doirasida bu Tashkilot xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilgan davlatlar tomonidan konvensiya va tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazoratni 20 nafar yuristdan iborat mustaqil ekspert qo'mitasi va Konferensiyalarning konvensiya va tavsiyalarning bajarilishi bo'yicha uch tomonlama qo'mitasi olib boradi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishning milliy mexanizmi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirishning milliy mexanizmi to'g'risida fikr yuritilganda, bu huquqlar, avvalombor, shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni amalga oshirish va ularni himoya qilish masalalariga bag'ishlangan oldingi bobda ta'kidlab o'tilgani kabi, an'anaviy va noan'aviy shakldagi tizimlar yordamida amalga oshiriladi va himoya qilinadi. Ya'ni, ularga ana'naviy shakldagi tizimga: sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari va noan'anaviy shakldagi tizimga: inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari kiradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering.*

2. *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga oid xalqaro standartlarni belgilab beruvchi xalqaro hujjatlar va ularning mohiyatini tushuntirib bering.*

3. *O'zbekiston Konstitutsiyasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*

4. *Iqtisodiy huquqlarga qaysi huquqlar kiradi?*

5. *Ijtimoiy huquqlarga qaysi huquqlar kiradi?*

6. *Madaniy huquqlarga qaysi huquqlar kiradi?*

7. *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga oid milliy qonunchilik hujjatlarini ko'rsatib bering.*

8. *Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlab berishdagi o'rnini ko'rsatib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010.

2. Комитет по экономическим, социальным и культурным правам. – Женева, 1996.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2013.

4. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: "Adolat", 2004.

5. Права человека. Учебник. /Отв. ред. Е.А. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА, 1999.

6. Саидов А. Права человека. Учебник-хрестоматия. – Т.: УМЭД, 2001.

7. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. – T.: "Konsau-ditinform-Nashr", 2006.

8. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar. – T.: "Adolat". 2002.

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. — T.: “O‘zbekiston”. 2009.

10. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik. — T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.

13-mavzu. Ayollar huquqlari

1. Ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchasi.
2. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro-huquqiy himoya qilish.
3. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik asoslari.
4. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning milliy mexanizmi.

1. Ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchasi

Inson huquqlari muammosi bugungi kunda jahon hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, terrorizm, ekstremizm xurujlari kuchaygan XXI asrda bunday huquqlarni ta'minlash nafaqat alohida davlatlar uchun, balki keng xalqaro hamjamiyat uchun ham birinchi darajali vazifalarga aylanmoqda. Shu maqsadda xalqaro hujjatlar ishlab chiqilmoqda va qabul qilinmoqda, davlatlar xalqaro mexanizmlarni yaratmoqdalar. Chunki, bugun kun voqeligi davlatlar va xalqaro tashkilotlarga mazkur muammolarga yanada jiddiy yondashish lozimligini ko'rsatmoqda.

Inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi vaziyat ham jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda. Ayollarning erkaklar bilan tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ba'zi jamiyatlardagi ayollar uchun haqiqiy tenglik hali-hamon orzulgicha qolib kelmoqda. Ular huquqlarining cheklanishi va xo'rlanishida namoyon bo'layotgan diskriminatsiya qilish hollari ana shundan dalolat beradi.

Xotin-qizlar siyosiy hayotda va ijtimoiy turmush faoliyatida o'z huquqlarining kamsitilishiga duch keladilar. Oilada qiz bolaning o'qishi, o'quv yurti yoki oliy o'quv muassasasini bitirishi hamda ijtimoiy hayotda qatnashishini taqiqlash va cheklash, ayolning homiladorligi yoki ko'p bolaliligi sababli ishga qabul qilmaslik, ayol bilan erkakning kasbiy qobiliyat va bilimdonlik darajalari baravar bo'lgani holda, ayolni emas, erkakni yuqori xizmat pog'onasiga ko'tarish, ayolni davlatni boshqarish ishlariga yaqinlashtirmaslik kabi hollarning barchasida ayol kishining insoniy huquqlariga putur yetkazilgan bo'ladi.

Har qanday shaklda amalga oshiriladigan kamsitilish ayolni erkaklar ega bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qilib, muqarrar ravishda uning amaldagi tengsizligiga olib boradi. Ayolning insoniy qadr-qimmatini poy-

mol qiladigan zo‘ravonlik xotin-qizlar huquqlarini kamsitishning eng xavfli shakli hisoblanadi.

BMTning ma’lumotlariga qaraganda, dunyoda millionlab ayollar jismoniy zo‘ravonlik xavfi ostida yashaydilar. Xotin-qizlar shafqatsiz zo‘ravonlik natijasida nafaqat mayib bo‘ladilar, hattoki hayotdan ko‘z yumadilar. Xotin-qizlarga qarshi zo‘ravonlik “haddan tashqari chetga og‘ish” sifatida baholandi, u xotin-qizlarga jismoniy, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Holbuki, inson huquqlari, erkakmi yoki ayolmi, o‘g‘il bolami yoki qiz bola ekanligidan qat’i nazar, har bir shaxs ega bo‘ladigan huquqlardir. Davlatlar o‘zlarining demokratik tusda ekanligi haqidagi nufuzni saqlab qolishni xohlar ekan, ularga inson huquqlarini e’tirof etish va rioya qilish borasida qo‘yiladigan zamonaviy talablarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Bu ularning haqiqiylikini sinaydigan mezondir. Xotin-qizlarga nisbatan namoyon qilinadigan kamsitish va zo‘ravonlik muammosi hozirgi vaqtda ham jamiyatning diqqat-e’tiborini jalb qilib turgan eng keskin ijtimoiy muammolardan biridir.

O‘zbekistonda xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat, ularning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Prezident I. Karimov o‘zining turli chiqishlarida bu masalaga doimiy ravishda e’tibor qaratib kelgan. Xususan, u 1998-yil 5-dekabrda Konstitutsiya qabul qilinishining olti yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali majlisda qilgan nutqida 1999-yilni “Ayollar yili” deb e’lon qilar ekan, shunday degan edi: *“Insoniyat tarixi guvohlik beradiki, ming yillar jarayonida har jamiyatning madaniy va ma’naviy hayoti ularning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilangan. Bizga bu qadriyat yanada qimmatlidir, chunki biz ayollarga sharqona hurmat bilan munosabatda bo‘lamiz”*.

Mamlakat qonunchiligida shaxsni kamsitadigan qoidalariga yo‘l qo‘yilmagan. Aksincha, barcha qonunchilik hujjatlari Konstitutsiyadagi barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi haqidagi qoidalarni rivojlantiradi va aniqlashtiradi.

Ayollar huquqlari tushunchasi. Ayollar huquqlari inson huquqlarining tarkibiy va ajralmas qismi hisoblanib, ayollarning jinsiy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, maxsus xalqaro va milliy hujjatlarda aks etgan huquqlari hisoblanadi. Ayollarning huquqlari bo‘linmasdir va u alohida huquqlar bilan birga fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarning barchasini o‘z ichiga oladi va ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bunga BMT Nizomining 55-moddasi s bandida: “inson

huquqlariga, kishilarning irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutlaridan qat'i nazar, hammaning asosiy erkinliklariga umumhurmat bilan qarash va ularga rioya qilishga ko'maklashadi"¹ deb aytilgan qoidani misol keltirish mumkin.

Inson huquqlari muammosi hozirgi vaqtdagi eng jiddiy muammolar qatoriga kiradi. Bunday huquqlarning universal tusga egaligi ushbu muammoni dunyodagi barcha mamlakatlar uchun ham umumiy ahamiyatga molik qilib qo'yadi, chunki inson huquqlari buzilmaydigan mamlakatning o'zini topish qiyindir. Xotin-qizlarning huquqlariga rioya qilinishi sohasida vujudga kelgan vaziyat jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda. Ayollarning erkaklar bilan huquqiy tengligiga erishish borasidagi muayyan yutuqlarga qaramasdan, ayollar uchun haqiqiy tenglik hali ham baribir orzuligicha qolib kelmoqda. Ular huquqlarining cheklanishi va xo'rlanishida namoyon bo'layotgan kamsitish hollari ana shundan dalolat beradi².

1993-yil Venada bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasi o'z Deklaratsiyasi va Harakat dasturida insoniyat tarixida birinchi marta "inson, ayollar va qizlar huquqlari insonning umumiy huquqlarining ajralmas, tarkibiy va bo'linmas qismi ekanligini e'lon qildi. Shuning uchun ichki (milliy), mintaqaviy va xalqaro darajalarda siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, jamoatchilik va madaniy hayotda ayollarning to'liq va tengma-teng ishtirokiga erishishi, shuningdek, jinsiga qarab diskriminatsiya (kamsitish)larning barcha ko'rinishlariga barham berish xalqaro jamoatchilikning birinchi galdagi maqsadlari hisoblanadi"³.

Ko'p hollarda, ayollarning huquqlari bo'lsa, ular inson huquqlaridan nima uchun ajratib ko'rsatiladi, yoki ular inson emasmi, degan kinoyali gaplar tez-tez uchrab turadi. Bu, albatta, noto'g'ri tushuncha hisoblanadi. Chunki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan boshlab, aksariyat xalqaro⁴ va milliy huquqiy hujjatlar barcha ayol va erkaklarga, qizlar va o'g'il bolalarga ularning barchasi insonlar bo'lgani uchun ham bir xil huquqlar va teng mas'uliyat beradi. Ularning jamiyatdagi o'rni va mavjud munosabatlari bu yerda hech qanday ahamiyatga ega emas. Faqatgina, yuqorida aytganimizdek, ayollarning jinsiy va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda, ularning jamiyatning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotidagi ishtirokini yanada faollashtirish va bu sohada ularning teng darajada ishtirok etish imkoniyatlarini yaratib berish uchun

1 Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud Statuti. – T. 2002. – B. 31.

2 Tansiqboyeva G. Ayollarning diskriminatsiya qilinishini bartaraf etish – ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti //Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: Adolat, 2002. – B. 8.

3 <http://www.ohchr.org>

4 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar: to'plam /mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004

ham ularga qo'shimcha maxsus huquqlar va imtiyozlar yaratib beriladiki, ushbu qo'shimcha huquq va imtiyozlar ayollar huquqlarining o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Ayollar huquqlari buzildi, degan tushuncha inson huquqlari buzildi, degan tushunchani beradi. Vaholanki, ayollarning huquqlari buzilganda, inson huquqlari buzildi, deb ko'rib chiqilmagan taqdirda, ayollarning inson zotiga mansubligi inkor qilingan bo'lar edi.

Umuman olganda, ayollar huquqlari degan tushuncha ayollarga nisbatan zo'ravonlik, ayollarning aynan ayol bo'lganligi bois ham ba'zi huquqlarda kamsitilayotganligi uchun inson huquqlarining alohida huquqlari sifatida shakllanishiga olib keldi. Afsuski, barcha jamiyatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik mavjud. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik zo'ravonlikning bir turi bo'lib, so'z bilan haqorat qilishdan boshlab, og'ir tan jarohatini yetkazish, tahdid va nomusga tegish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayollarga nisbatan zo'ravonlik psixologik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy kabi ko'rinishlarga ega¹.

Ayollarga nisbatan siyosiy, fuqarolik va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada, shuningdek, jins belgisi bo'yicha kamsitishning barcha shakllariga barham berish jamiyatning birinchi galdagi vazifalaridir.

Gender tengligi tushunchasi bugungi kunda ayollar huquqlarini ta'minlash sohasida turli mamlakatlarda bo'lgani kabi, bizning mamlakatimizga ham kirib kelgan va bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tengligi deganda, turli jins vakillarining huquqlar va imkoniyatlardan teng darajada foydalanishga bo'lgan huquqi tushuniladi. Masalan, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida ishtirok etish, iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish, mehnatga teng haq olish kabi huquqlar. Gender tengligi masalasi, odatda, ijtimoiy hayotda, ya'ni oilada, jamiyatni boshqarishda tenglik tamoyilini joriy etishda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolar, ayniqsa, XXI asrga kelib insoniyatni ko'proq tashvishga solmoqda.

Gender tengligi masalasini hal etish jamiyat uchun ayollar huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Chunki, jamiyatning barcha sohalarida, ya'ni iqtisodda, siyosatda, ijtimoiy hayotda jamiyat barcha a'zolarining, shu jumladan, ayollarning erkaklar bilan teng imkoniyatlari ta'minlab berilmas ekan, bu jamiyatda ayollar huquqlarini ta'minlashga oid vazifalar ijobiy hal etilmoqda, deb bo'lmaydi.

1 Tinchlik va bag'rikenglik atamaları izohli lug'ati. /Mas'ul muharrir Q.A. Jo'rayev. – T.: JIDU, 2005. – B.8

Shuning uchun ham, XXI asrga kelib, xalqaro maydonda ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadida turli xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda. Ularda ayollar huquqlariga oid muammolar o'rganilmoqda va ayollarning jamiyatdagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlash hamda ularning barcha huquqlariga amal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday taklif va tavsiyalar asosida esa davlatlar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar ishlab chiqilmoqda va davlatlar tomonidan imzolanmoqda. Ularga 1967-yilgi "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya", 1979-yilgi "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya", Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya, BMTning 1993-yilgi "Ayollarga nisbatan zo'rliklar va jabr-zulmlarga barham berish to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlarning hujjatlarini misol keltirish mumkin.

Shuni yana alohida qayd etish lozimki, yuqorida aytib o'tilgan xalqaro hujjatlardan tashqari, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlar ham shakllanmoqda. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya asosida tashkil etilgan BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning Fakultativ protokoli 2000-yil 22-dekabrda kuchga kirdi. Unda ikkita protsedura mavjud: alohida shaxs yoki shaxslar guruhining Konvensiyada bayon qilingan huquqlar buzilganligi bilan bog'liq shikoyatlarini qamrab olgan axborotni Qo'mitaga taqdim etish protsedurasi; tergov o'tkazish protsedurasi bo'lib, unga ko'ra Konvensiyada bayon qilingan huquqlar jiddiy va tizimli ravishda buzilishi holatlari bo'yicha Qo'mitaning o'zi tashabbus bilan tergovni qo'zg'atishi mumkin. Demak, mazkur Fakultativ protokol protsedurali protokol bo'lib, unga ko'ra Konvensiyani amalga oshirishga va ayollar huquqlari buzilishi masalalariga taalluqli ikki yangi protsedura: alohida shaxslarning shikoyat taqdim etish protsedurasi va tergov protsedurasi kiritilmoqda.

Shu bilan birga, milliy miqyosda ham ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik tizimi shakllanmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi Konstitutsiyamizning 18- va 46-moddalarida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan

qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo'lishi shart"¹ deb belgilab qo'yilgan bo'lsa, 46-moddasida esa, yanada aniq va ravshan qilib, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar", deb gender tengligi tamoyili mustahkamlab qo'yilgan².

Konstitutsiyaning bu normalari boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlari bilan takomillashtirib borilmoqda hamda ayollar huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan mexanizmlar tashkil etilmoqda (masalan, O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi). Ayollarga munosabat davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1999-yilni "Ayollar yili", 2001-yilning "Onalar va bola yili" deb e'lon qilinishi va maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi, davlatimizda bu sohada izchil va maqsadli siyosat olib borilayotganligining isbotidir.

Yuqorida qayd etilgan ayollar huquqlarini maxsus himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy huquqiy asos hamda mexanizmlar, bugungi kunda ayollar huquqlari tushunchasi vujudga kelganligini hamda bu tushuncha asosida inson huquqlarining alohida sohasi shakllanganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ayollar huquqlari nafaqat inson huquqlarining alohida turi sifatida ajralib chiqmoqda, balki, shu bilan birga, inson huquqlarining ajralmas huquqlari sifatida bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro-huquqiy himoya qilish

Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro huquqiy himoya qilishga, bu ayollar muammolarini muhokama qilish va ularni hal etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar kiradi.

Ayollar harakatlarining muhim bosqichlari:

- 1975-yil I Butunjahon Ayollar Konferensiyasi va Xalqaro Xotin-qizlar yili deb e'lon qilinishi (Mexiko, Meksika.);
- 1976-1985-yillar BMT tomonidan "Tenglik, Taraqqiyot, Tinchlik" shiori ostida Ayollar o'n yilligining e'lon qilinishi;
- 1979-yil "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya"ning qabul qilinishi;
- 1980-yil II Butunjahon Ayollar konferensiyasi (Kopengagen, Daniya);
- 1985-yil III Butunjahon Ayollar konferensiyasi (Nayrobi, Keniya);

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012. – B. 6.

² O'sha joyda. – B. 10.

- 1995-yil Ayollar holati bo'yicha IV Butunjahon konferensiyasi (Xitoy, Pekin), Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi;

- 1995–2004-yillar BMT Bosh Assambleyasining 49-sessiyasida “Inson huquqlari ta’limining o’n yilligi” e’lon qilinishi.

Gender tenglik uchun kurash 1945-yil BMTning tashkil topishi bilan boshlandi. Tashkilotning dastlabki 51 a’zosidan 30 tasi ayollarga erkaklar bilan tenglikda saylov huquqi va davlat ishlari bilan shug’ullanish huquqini berdi. BMT Nizomida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi e’tirof etildi. Gender tenglikka erishish uchun dastlabki qilingan ishlar ayollarning yuridik va fuqarolik huquqlaridagi muammolarni yechish, dunyo bo’ylab ayollarning ahvoli bo’yicha ma’lumotlar yig’ishga qaratildi. Vaqt shuni ko’rsatdiki, faqatgina qonunlar bilan teng huquqlilikni ta’minlashga erishib bo’lmagan ekan. Shundan keyin gender tengligi uchun kurashning ikkinchi bosqichi boshlandi. Shu maqsadda ayollar ahvolini yaxshilash borasida reja va strategiyalarni ishlab chiqish uchun BMT tashkilotining tashabbusi bilan 4 ta xalqaro konferensiya chaqirildi. Bu konferensiyalar BMT tomonidan jahon miqyosida tashkil qilingan bo’lib, butun dunyo e’tiborini “Gender tengligi muammosi”ga qaratishga muvaffaq bo’ldi. Konferensiyalar butun dunyo aholisini bir maqsad yo’lida birlashtirdi va rejalar tuzish, yo’nalishlarni belgilash, ayollarning jamiyatdagi va shaxsiy hayotidagi ahvollarini yaxshilash uchun asos bo’ldi.

Mexiko konferensiyasi. I Xalqaro konferensiya 1975-yilda Mexikoda boshlandi. Unda 1975-yil xalqaro miqyosda “Ayollar yili” deb e’lon qilindi va xalqaro hamjamiyatga yana bir bor ayollarga nisbatan munosabatda kamsitishga yo’l qo’yilayotganligi ko’p davlatlarda yechilmas muammo sifatida qolib kelayotgani eslatib o’tilib, konferensiya malaka almashish, munozara, kelishuv, maqsadlar qo’yish, mavjud ahvolni tahlil etish bilan boshlandi. BMT Bosh Assambleyasi Konferensiya ishtirokchilari oldiga quyidagi uch masalani qo’ydi:

- Gender tenglikni ta’minlash va jinsga bog’liq belgilarda kamsitishni yo’qotish;

- Ayollarni rivojlanish jarayoniga jalb qilish va ularning bu jarayondagi ishtirokini to’liq ta’minlash;

- Ayollarning butun dunyo bo’yicha tinchlikni ta’minlashdagi hissasini oshirish.

Yuqoridagi uchta masala yuzasidan butun dunyoda amalga oshirilishi lozim bo’lgan faoliyatning asosiy yo’nalishlari ko’rsatilgan dastur qabul qilindi. Ko’tarilgan masalalarni hal etish uchun 10 yillik muddat belgilandi. Dastur ayollarni ta’lim olish, bandlik, siyosiy faoliyat, sog’liqni saqlash, uy-

joy bilan ta'minlash, oziq-ovqat va oilani rejalashtirish sohalarida tenglikni ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalarni o'z ichiga olgan.

Konferensiya ishtirokchilari boshqaruv organlarini milliy strategiyani ishlab chiqish va rivojlanish jarayonida ayollarning teng huquqli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniqlashga chaqirdilar. 10 yillikning oxirida BMTning 127 ta a'zo-davlati mazkur yo'nalish bo'yicha milliy mexanizmi va institutlarini tashkil qilishganligi hamda u borada tegishli, tadqiqotlar o'tkazilayotganligi haqida ma'lumotlar berdi.

Ayollar ahvolini yaxshilashga qaratilgan BMT Departamentiga Mexikodagi konferensiyada qo'shimcha qilib, Ayollar ahvolini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tadqiqot instituti va BMT jamg'armasi tashkil qilindi. Mexikodagi uchrashuvning asosiy belgisi shu bo'ldiki, unda ayollarning o'zlari muhokamada ishtirok etdilar. Delegatlarning 133 nafaridan 113 nafari ayollar edi. Bu anjumanga parallel ravishda nodavlat tashkilotlarining forumi o'tkazildi va unda 4000 nafar atrofida vakillar qatnashdi. Forumda ishtirok etgan ayollarning fikrlari xilma-xil bo'lib, ular o'z mintaqasidagi muammolardan kelib chiqqan edi. Masalan, Sharq ayollari o'z qiziqishlarini dunyoda tinchlik o'rnatishga qaratgan bo'lsalar, G'arb ayollari tenglikni saqlashga, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayollari esa, o'z e'tiborlarini o'tish davri muammolariga qaratdilar. Forum turli davlatlarning ayol va erkaklarini yig'ib, ayollar harakatini birlashtirishga bevosita yordam berdi.

Kopengagen konferensiyasi 1980-yilda II Xalqaro konferensiya sifatida o'z ishini boshladi. Unda 145 davlat vakillari ishtirok etdi va bu sohada rivojlanish mavjudligini e'tirof etishdi. Konferensiya qatnashchilari Mexikoda 5 yil avval bo'lib o'tgan konferensiyada qo'yilgan maqsadlar amalga oshganining guvohi bo'lishdi. Eng asosiy qilingan ishlardan biri 1979-yilda Bosh Assambleya tomonidan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya"ning qabul qilinishi bo'ldi. Konvensiya "Ayollar huquqlari bilimi" nomini oldi va u hozirda BMTning 165 a'zo-davlatlarini birlashtirgan. 1999-yil 10-dekabrda Konvensiyaga qo'shimcha protokol qabul qilindi va bu jinsiy kamsitishga yo'l qo'yilayotganligi yuzasidan xalqaro organga shikoyat bilan murojaat qilish imkonini berdi.

Kopengagendagi konferensiya turli xil fikrlar va bahslar bilan o'tdi va dastur qabul qilindi. Unda ayollar huquqlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilayotgan quyidagi bir qancha omillar sanab o'tildi:

- ayollarning jamiyatdagi rolini oshirishda erkaklar ishtirokining yetishmasligi;

- siyosiy xohishlarning yo‘qligi (yetishmasligi);
- rejalashtirishda ayollarning asosiy ehtiyojlarini hisobga olmaslik;
- boshqaruv organlarida ayollar sonining kamligi;
- davlat hayotida ayollar ishtirokini ta‘minlovchi xizmatlarning yetishmasligi;

- moliya resurslarining yetishmasligi;
- ayollar o‘z imkoniyatlarini anglab yetmasliklari.

Nayrobi konferensiyasi. Gender tenglik yuzasidan III konferensiya “BMT 10 yilligi – ayollar yutuqlarini sharhlash va baholash xalqaro konferensiyasi: tenglik, taraqqiyot va tinchlik” deb nomlanib, 1985-yilda Nayrobida o‘tkazildi. 15000 nafar vakillarning ko‘pchiligi nodavlat notijorat tashkilot (NNT)laridan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida NNTlar forumining ishtirokchilari edi. Mexikoda siyosiy va iqtisodiy tarmoqlardagi huquqlar yuzasidan birlashgan ayollar harakati endilikda tenglik, rivojlanish, tinchlik bayrog‘i ostida birlashdi, xalqaro kuchga aylandi. Bahs-munozara va qilingan ishlar tahlili ma‘lumotlar, yangiliklar hamda bilim va tajribani oshirdi. BMT to‘plagan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kamsitishlarning yo‘qolishi va kamayishi faqatgina kam ta‘minlangan ayollar o‘rtasida yuz bergan. Rivojlanayotgan davlatlarda ayollar ahvolidan yaxshilanishi sezilmas darajada amalga oshirilgan. Qisqacha qilib aytganda, ikkinchi o‘n yillikda qo‘yilgan masalalar oxirigacha hal etilmagan. Yuqoridagi faktlar inobatga olinib, masalaga yangicha qarash talab etildi. Nayrobi delegatlari o‘n yillik maqsadlarini tenglik, rivojlanish va tinchlikka erishish borasidan yangi yo‘llarni izlashdan boshladi.

Nayrobi statistikasi 2000-yilgacha rejalashtirilgan bo‘lib, BMTning 157 ishtirokchi-davlatlari tomonidan ishlab chiqildi va bir ovozdan qabul qilindi. Ayollar insoniyat faoliyatining hamma sohalaridagi boshqaruv ishlarida ishtirok eta olishi nafaqat ularning qonuniy huquqlariga, balki ijtimoiy-siyosiy zarurat omiliga ham aylandi. Hujjatga asosan milliy doirada turli tadbirlar rejalashtirildi. Ularni uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- Konstitutsiya va qonunchilikni takomillashtirish me‘yorlari;
- siyosiy hayotda va qaror qabul qilishda teng ishtirokchilik;
- ijtimoiy dasturlarda tenglik.

Nayrobi konferensiyasining qarori shundan iborat bo‘ldiki, endilikda vakolatli delegat har bir davlat tashkiloti va dasturlarida ayollar muammosini hal qilishda ishtirok etadigan bo‘ldi.

Pekin platformasi. 1975-yilda Mexikoda boshlangan konferensiyadan keyin ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarda tengsizlik ma‘lum darajada kamaydi. Konferensiya qarorlari barcha insonlarga, ayniqsa, erkaklar hayotiga katta ta‘sir o‘tkazdi. Qarorlar qabul qilishda tenglikning tan olinishi BMT tomonidan 90-yillarda o‘tkazilgan bir qancha xalqaro

konferensiyalarda o'z isbotini topdi: atrof-muhit, inson huquqlari, aholi ijtimoiy rivojlanishi va boshqa turdagi bir qancha konferensiyalarda, qarorlar qabul qilishda ayollarning to'liq ishtiroki muhimligi ta'kidlandi.

Qayd etish lozimki, 1995-yilda Pekinda chaqirilgan Konferensiyada gender tengligi bo'yicha kurashning yangi sahifasi ochildi.

1995-yilda BMTning Ayollar ahvoli bo'yicha IV Umumjahon konferensiyasida qabul qilingan Pekin Harakatlar platformasi alohida muhim o'rin tutadi. Konferensiya bir ovozdan Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasida 12 yo'nalishdagi alohida sohalarga ahamiyat berildi. Uning muqaddimasi va 12 bo'limi ayollar huquqlari bo'yicha ayollar ahvolini global darajada baholash va butun dunyoda ayollar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha strategiyalar, siyosat va choralar tadqiq etilgan eng to'liq dastur hisoblanadi. Bu sohalarda hukumatlar va jamiyatlar tomonidan quyidagi maxsus me'yorlar qabul qilinishi kerakligi ta'kidlandi:

- ayollar va qashshoqlik;
- ta'lim va ayollarning kasbiy tayyorgarligi;
- ayollar va sog'liqni saqlash;
- ayollarga nisbatan zo'ravonliklar;
- qurolli mojarolar davrida ayollar;
- ayollar va iqtisod;
- ayollarning boshqaruv organlarida va qaror qabul qilishdagi ishtiroki;
- ayollar holatini yaxshilashda institutsional mexanizm;
- ayollar va inson huquqlari;
- ayollar va ommaviy axborot vositalari;
- ayollar va atrof-muhit;
- qizlar.

Pekin konferensiyasi juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Unda 189 davlatning 17000 delegati ishtirok etdi.

Qilingan ishlarning tahlili Pekin Harakat platformasi qabul qilingandan keyin besh yildan so'ng, BMT Bosh Assambleyasining maxsus sessiyasida ko'rib chiqildi.

Pekin platformasida ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash to'g'risida shunday normalar bor: "Ayollarga nisbatan o'tkazilgan har qanday zo'ravonlik – har qanday jinsiy belgiga asoslangan tazyiq o'tkazish, ayol salomatligiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy putur yetkazadigan, yoki unga azob-uqubat, iztiroblar chekishga olib keladigan, shuningdek, shaxsni yoki jamoa erkinligidan mahrum qilingan yoki mahkum etilgan harakatlarining sodir etilishi tushuniladi". Demak, ayollarga yetkaziladigan zo'ravonlik quyida keltirilgan hodisalarga muvofiq keladi, shu bilan birga, ular bilan cheklanib qolmaydi:

a) oiladagi jismoniy, jinsiy va ruhiy zoʻravonliklar, jumladan, kaltaklash, sep bilan bogʻliq muammolar, er tomonidan xotiniga zulm oʻtkazilishi, ayollarga ziyon keltiradigan, ayollar jinsiy aʼzolarini mayib qiluvchi operatsiyalar va boshqa turdagi hayotiy amaliyotda kuzatiladigan anʼanaviy hodisalar, shuningdek, nikohdan tashqari boʻlgan zoʻravonlik va ayollarning nomus-nafsoniyatiga zoʻravonlik qilish bilan bogʻliq boʻlgan tazyiqlar;

b) jamiyatda alohida oʻrin tutgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zoʻravonlik, jumladan, zoʻrlab nomusga tegish, jinsiy aloqaga majburlash va ish joylarida, oʻquv yurtlarida va hokazo joylarda ayollarga nisbatan kuzatiladigan tovlamachilik, qoʻrqitishlar, ayollarni fohishalik qilish uchun sotishlar hamda fohishabozlikka majbur qilishlar, yaʼni odam savdosi bilan bogʻliq huquqbuzarliklar;

d) ayolga nisbatan qoʻllaniladigan jismoniy, jinsiy va ruhiy zoʻrliklar qayerda sodir etilayotganligidan qatʼi nazar, davlat tarafidanmi yoki davlatning layoqatsizligidanmi, baribir ayollarning kamsitilishiga kiradi (IV Ayollar ahvoli boʻyicha Jahon konferensiyasi Harakatlar dasturi, 113-bandidan).

Nyu-Yorkda 2000-yil 5–9-iyun kunlari “Ayollar 2000-yilda: ayollar va erkaklar oʻrtasidagi tenglik, taraqqiyot va tinchlik” deb nomlangan maxsus sessiya oʻtkazildi. Ushbu sessiya hukumat va fuqarolik jamiyatiga foydali tajribalar bilan oʻrtoqlashish, joriy muammolarni koʻrib chiqish, erkaklar va ayollar tengligiga erishish borasidagi siyosiy yoʻnalishlarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1993-yil iyun oyida Venada boʻlib oʻtgan Inson huquqlari boʻyicha II Butunjahon konferensiyasida “Oiladagi zoʻravonliklar” mavzusi muhokama qilindi. Mazkur muammoning dolzarbligi jahondagi koʻplab mamlakatlarda uydagi zoʻravonliklar keng tarqalganligi bilan izohlanadi.

Ayollar muammosi boʻyicha 1995-yil sentabrda Pekinda boʻlib oʻtgan BMT IV anjumanida uydagi zoʻravonlikni koʻpgina mamlakatlar uchun xos boʻlgan “yuqumli kasallik” deb eʼlon qildi.

Ayollar huquqlariga oid xalqaro huquqiy normalar. Ayollar huquqlarining kafolatiga qaratilgan BMTning universal standartlariga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt va bu Paktga ikkita qoʻshimcha protokol, Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro Pakt kabi xalqaro standartlar belgilab beruvchi universal xalqaro hujjatlar kiradi. Ushbu hujjatlarda ayollar teng huquqliligining xalqaro huquqiy asoslari koʻrsatib oʻtilgan.

Masalan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 23-moddasida “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy yacheykasi hisoblanadi va jamiyat va davlat tomonidan himoya qilinish huquqiga ega.

Nikoh yoshiga yetgan erkak va ayollar nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar.

Hech bir nikoh nikohdagilarning o'z ixtiyori va to'liq roziligisiz tuzilmaydi", deb ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga, ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy normalarga BMT hujjatlari ichida ayollarning muayyan huquqlariga taalluqli bir qator hujjatlar ham mavjud. "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi 1967-yilgi deklaratsiya, "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi 1979-yilgi konvensiya, "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi 1952-yilgi konvensiya, "Oilali (turmushga chiqqan) ayollarning fuqaroligi to'g'risida"gi 1957-yilgi konvensiya, "Nikohga kirishga rozilik, eng quyi nikoh yoshi va nikohlarni qayd etish to'g'risida"gi 1961-yilgi konvensiya, "Ayollarga nisbatan qiynoqlarga qarshi kurash to'g'risida"gi 1993-yilgi deklaratsiyalar shular jumlasidandir¹.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1967-yil 7-noyabrda e'lon qilingan "Ayollar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi deklaratsiya BMTning ayollarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan faoliyatida muhim bosqich bo'ldi.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagilar e'lon qilingan:

- ayollarga nisbatan kamsituvchi ruhda bo'lgan mavjud qonunlar, urf-odatlar, amaliyotni bekor qilish;
- erkaklar va ayollar teng huquqliligining tegishli yuridik muhofazasini o'rnatish;
- ichki qonunlarga erkaklar va ayollar teng huquqliligi tamoyilini kiritish;
- ayollarning noto'laqonliligi g'oyasiga asoslangan xurofiy tasavvurlarni tag-tomiri bilan quritish hamda shunday ruhdagi urf-odatlar va boshqa amaliyotga qarshi jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy intilishlarni shularga qarshi yo'naltirish va boshqa shu kabilar.

Hukumatlar, nohukumatlar, ixtisoslashtirilgan muassasalar va nohukumat tashkilotlari deklaratsiyani targ'ib-tashviq qilish borasida o'zlari amalga oshirgan chora-tadbirlar, unda bayon qilingan tamoyillarga mos ravishda qilgan xatti-harakatlari xususida BMTga hisobot berib turadilar².

1 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/ O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004.; Human rights of women: A Collection of International and Regional Normative Instruments / prepared by J. Symonides, V. Volodin. UNESCO, 1999.

2 Inoqova M. Hayotning barcha sohalarida ayol huquqi muhofazasining huquqiy kafolatlari // Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: Adolat, 2002. – B. 77–78.

Ushbu deklaratsiyadagi normalar keyinchalik, kengaytirilib, 1979-yil 18-dekabrda "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya"da majburiy yuridik kuchga ega bo'ldi. Bu konvensiya 1981-yil 3-sentabrda boshlab kuchga kirdi. Bundan ko'zlangan maqsad – ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va hayotning boshqa jabhalarida erkaklar bilan teng huquqliligini inkor etuvchi yoki uni cheklab qo'yuvchi kamsitishga uzil-kesil barham berish edi¹.

Ushbu konvensiyaga binoan, ishtirokchi-davlatlar bunday kamsitishlarni qoralaydilar va unga barham berish siyosatini yuritishni o'z zimmlariga oladilar.

Konvensiyaning 1-moddasiga binoan, "ayollarga nisbatan kamsitish" tushunchasi ayollarni ular aynan ayol bo'lganligi uchun har qanday farqlash, ro'yxatlardan o'chirish yoki huquqlarini cheklab qo'yishni anglatadi. Bu esa ayollarni, ularning oilaviy ahvolidan qat'i nazar, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosida turmushning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa jabhalarida, ularga tegishli bo'lgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini e'tirof etmaslikni, ayollarning bunday huquq va erkinliklardan foydalanishlari yoki ularni amalga oshirishlariga to'sqinlik qilishni bildiradi.

Konvensiyaning qabul qilinishi besh yildan ortiq vaqt mobaynida davom etgan har xil ishchi guruhlar, xotin-qizlar ahvolini o'rganuvchi komissiyalar faoliyati, shuningdek, Bosh Assambleyaning maslahatlari natijasi bo'ldi.

Keng qamrovli Konvensiya xotin-qizlarga nisbatan faqat jinsiy belgisi asosida qo'llanuvchi istisno va cheklashlarning har xil ko'rinishlarini jamlab, ayollarning oilaviy holatidan qat'i nazar, barcha sohalarida – siyosatda, iqtisodda, ijtimoiy hayotda, madaniyatda, fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini ta'minlashga chaqiradi. U davlatlarni xotin-qizlar kamsitilishiga qarshi milliy qonunchilik choralarini hamda erkaklar va ayollar o'rtasida amaldagi tenglikni tezlik bilan o'rnatishga qaratilgan vaqtinchalik maxsus choralarni qabul qilishga chaqiradi, shuningdek, ayollarning huquqlari kamsitilishini saqlab qolishga imkon beruvchi ijtimoiy va madaniy modellarni o'zgartirish choralarini ko'rishni tavsiya qiladi².

Ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish maqsadida ish bilan band bo'lish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning boshqa soha-

1 Inoqova M. Hayotning barcha sohalarida ayol huquqi muhofazasining huquqiy kafolatlari // Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: Adolat, 2002. – B. 77–78.

2 Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya. – T.: 2005. – B. 6.

larida erkak va ayollar tengligi asosida ularning teng huquqlarini ta'minlash borasida tegishli barcha choralarni ko'radilar. Jumladan, Konvensiya 11-moddasining 1-qismida shunday deyiladi:

Ishtirokchi-davlat xotin-qizlarning ish bilan band bo'lish sohasidagi huquqlari kamsitilishini bartaraf etish, ayni vaqtda, erkaklar bilan ayollarning teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi bir qator zarur choralarni ko'radi:

a) barcha insonlarning ajralmas huquqi sifatida mehnat qilishi;

b) ishga yollashda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lish, shu bilan birga, ishga yollashda bir xil tanlash mezonlarini qo'llashi;

d) kasb yoki ish turini erkin tanlash, lavozim bo'yicha ko'tarilish va ish bilan band etish kafolatiga ega bo'lish, shuningdek, shogirdlik, yuqori darajadagi kasb bo'yicha tayyorgarlik va muntazam sur'atda malaka oshirishni o'z ichiga olgan holda mehnat qilishning barcha imtiyozlari va shart-sharoitidan to'liq foydalanish, kasb bo'yicha tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tishi;

e) imtiyozlar olishni ham hisobga olgan holda teng mukofotlash, bir xil qimmatga ega bo'lgan mehnatga nisbatan teng sharoitlarda, shuningdek, ish sifatini baholashga teng yondashishi;

f) jumladan nafaqaga chiqish, ishsiz qolish, kasallik, nogironlik, qarilik va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan iborat boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot huquqi, shuningdek, haq to'lanadigan ta'til huquqi;

g) sog'liqni saqlash va xavfsiz mehnat sharoitlariga ega bo'lish, shuningdek, naslni davom ettirish vazifasini saqlab qolish huquqi¹. Konvensiyaning ushbu normalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar Konstitutsiyada o'z e'tirofini topgan.

Ushbu Konvensiyaga muvofiq, ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning nikoh va oila munosabatlari doirasidagi masalalarda kamsitilishini bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'radilar, jumladan, erkak va ayollarning tengligi asosida quyidagi huquqlarni ta'minlaydilar:

a) nikohda bir xil huquqlar;

b) turmush o'rtog'ini erkin tanlash va o'zining to'liq roziligi bilan nikohdan o'tishda teng huquqlilik;

d) nikohdan o'tish hamda uni bekor qilish paytida bir xildagi huquq va burchlar.

Ushbu konvensiyaga binoan, ishtirokchi-davlatlar xotin-qizlarning kamsitilishini bartaraf etish, ayollarning erkaklar bilan tengligi asosida ta'lim

¹ Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya. – T. 2005. – B. 14.

olish sohasida erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

O'zbekiston ushbu konvensiyaga 1995-yil may oyida qo'shildi va Konvensiya qoidalaridan kelib chiqqan holda, ayollarga nisbatan kamsitishlarning turli shakllariga qarshi kurash borasida o'zining milliy qonunchiligi va mexanizmlari vositasida faoliyat olib bormoqda.

Iqtisodiy va moliyaviy resurslardan foydalanish hamda ular ustidan nazorat qilish jihatidan ayollarning teng imkoniyatlari gender tenglikni ta'minlash, ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish hamda teng huquqli va barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishga erishish nuqtayi nazaridan prinsipial ahamiyatga ega. Iqtisodiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash sohasida gender tenglik ayollarning farovonligi darajasini oshirishga hamda ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashibgina qolmay, balki rivojlanish, shu jumladan, qashshoqlik ko'lamini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash sohasida bir qator muhim maqsadlar uchun ijobiy samara beradi. Tengsizlik muammosini hal etish uchun chora-tadbirlar ko'rayotgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar, korporatsiyalar, ayollar tashkilotlari, ishchilar harakati va fuqarolik jamiyatining boshqa segmentlari soni oshmoqda. Ayollarning holati bo'yicha to'rtinchi Butunjahon konferensiyasining Sa'y-harakatlar Pekin Dasturida ayollarning huquq va erkinliklarini kengaytirish qashshoqlikni tugatish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etildi.

Bir qancha muhim masalalarni hal etish jarayonida ayollarning ishtirok etishi amaliy rol o'ynaganligining ko'plab isbotlari mavjud. AQShning katta rahbar xodimlar toifasiga kiradigan ming nafar yuqori lavozimli davlat xizmatchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov hukumat muassasalarida ishlayotgan ayollarning soni bilan ushbu muassasaning gender tenglikni ta'minlashga intilishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatdi. Hindistonning mahalliy davlat boshqaruvi organlarida ishlayotgan ayollar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijasida saylangan ayol rahbarlar turli ijtimoiy ne'matlar (shu jumladan yo'llar, kasalxonalar, sanitariya, transport sohasidagi obyektlar, bolaga qarash markazlari va akusher-kalar tayyorlash) qurish, ta'mirlash va ularni foydalanishga berishga resurslarni ishtiyoq bilan ajratganligi hamda kam xarajatlar bilan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishganliklari aniqlandi. Ular, shuningdek, ayollar tomonidan talab qilinadigan ijtimoiy ehtiyojlarga resurslarni ko'proq ajratgan.

Butunjahon parlamentlarida ayol-parlamentariylar soni o'smoqda. Ayrim mamlakatlarda parlamentda ayollar vakilligining o'sishi gender kvotalar joriy etilishining natijasi hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa

mamlakatlarda bu boshqa omillarga, shu jumladan jamiyatda ayollarning rolini yangicha tushunish bilan bog'liq. Parlamentga saylanadigan ayollar sonining o'sishi qonun ijodkorligi jarayonida ayollarning manfaatlari va fikrini hisobga olish imkoniyatini beradi. Mamlakatlarning tobora ko'pchiligi kvotalar strategiyalar tizimini o'z ichiga oladigan ijobiy sa'y-harakatlar siyosatiga o'tmoqda, ayol-yetakchilar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqmoqdalar, erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi amaldagi tenglikni ta'minlash choralari ko'rmoqdalar. Statistika o'z parlamentlari va hukumatlarida ayollar 25–30 foizdan kam bo'lgan davlatlar onalik va bolalikni muhofaza qilish, bola huquqlari, ijtimoiy muhofaza muammolarini hal etishda qiyinchiliklarga duch kelayotganli-gidan dalolat beradi.

BMTning statistika ma'lumotlariga ko'ra parlamentlarda ayollarning vakilligi butun dunyoda asta-sekin o'sib bormoqda va 2010-yilga kelib rekord ko'rsatkichga – 19 foizga yetgan. Parlamentariylarning faqat 11 foizi ayollar bo'lgan 1995-yilga taqqoslaganda jahonda o'sish 67 protsentga yetgan. Ayollar faqat 26 mamlakatda parlamentlarning quyi palatalarida 30 foizdan ortiq o'rinni egallaydi va faqat 7 mamlakatda ushbu ko'rsatkich 40 foizdan yuqori. 2010-yil yanvar oyidagi holatiga ko'ra parlamentlarning 269 palatasidan faqat 35 tasida ayollar rais o'rindig'ini band qilgan (bu 13 foizni tashkil etadi), bu 1995-yildagiga qaraganda sezilarli darajada ko'pdir. O'shanda faqat 24 nafar ayol rais bo'lgan.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida ayollarning vakilligi ko'payishi sur'atlari qonun chiqaruvchi hokimiyatdagi vakillikka qaraganda past. 2010-yildagi ma'lumotlar bo'yicha saylangan 151 nafar davlat boshliqlaridan faqat to'qqiz nafari (6 foiz), 192 hukumat boshliqlaridan 11 nafari (6 foiz) ayollardir. Ushbu ko'rsatkichlar 2008-yildagiga qaraganda yuqori. 2008-yilda faqat yetti ayol davlat boshlig'i va sakkiz ayol hukumat boshlig'i bo'lgan. Ayol vazirlarning o'rtacha ulushi 16 foizni tashkil etadi va faqat 30 mamlakatda 30 foizdan ortiqni tashkil etadi. Boshqa jihatdan, jahonning 16 mamlakatida birorta ham ayol vazir yo'q.

Jahonning bir qancha mamlakatlarida ijobiy sa'y-harakatlar yo'li bilan siyosiy jarayonlarda ayollarning ishtirokini kengaytirishning muvaffaqiyatli strategiyasi ishlab chiqilgan. Kvotalash, proporsional vakillik, siyosiy partiyalarda ayollar maqomini mustahkamlash choralari, ayollar siyosiy partiyalarini shakllantirish, partiyalar ichida ayollar birlashmalarini tashkil etish va partiyalararo birlashmalar tuzilishiga ko'maklashish singari strategiya ayollarning muayyan soni yoki foizini taklif etish kafolati maqsadida ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini ta'minlash ishida muhim ekanligini ko'rsatdi. Kvotalar nomzodlar ko'rsatish jarayonida yoxud saylovlar tamom bo'lgandan keyin qo'llaniladi. Keyingi holatda kvotalash partiya egallagan

Ayrim davlatlar parlamentida ayollar soni

O'zni	Mamlakat	Quyi palata yoki bir palatali parlament				Yuqori palata yoki senat			
		Saylov sanasi	Deputatlar soni	Ayollar	Foizda	Saylov sanasi	Deputatlar soni	Ayollar	Foizda
1	Ruanda	09.2008	80	45	56.3	10.2003	26	9	34.6
2	Shvetsiya	09.2010	349	157	45.0	---	---	---	---
3	JAR	04.2009	400	178	44.5	04.2009	54	16	29.6
4	Kuba	01.2008	614	265	43.2	---	---	---	---
5	Niderlandiya	06.2010	150	61	40.7	05.2007	75	26	34.7
19	Germaniya	09.2009	622	204	32.8	---	69	15	21.7
53	Buyuk Britaniya	05.2010	650	143	22.0	---	733	147	20.1
—	O'zbekiston	12.2009	150	33	22.0	01.2010	100	15	15.0
63	Fransiya	06.2007	577	109	18.9	09.2008	343	75	21.9
72	AQSh	11.2010	435	73	16.8	11.2010	100	17	17.0
84	Rossiya	12.2007	450	63	14.0	---	169	8	4.7
96	Yaponiya	08.2009	480	54	11.3	07.2010	242	44	18.2

o‘rinlar soniga bog‘liq. Kvotalar ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Tanlangan tizimlar, kvotalar ajratish va siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rilayotgan boshqa maxsus choralar hokimiyat organlarida ayollar vakilligi ko‘payishining asosiy sabablari bo‘lib qolmoqda. 2009-yil yakunlari bo‘yicha bunday chora-tadbirlar ko‘rilgan mamlakatlarda ayol deputatlar soni o‘rtacha 27 foizga yetdi, maxsus choralar qo‘llanmaganda parlamentlarga saylangan ayollar ulushi faqat 14 foizni tashkil etdi¹.

Ayollar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro mexanizmlar. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mita Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyaning amalga oshirilishini nazorat etib borish maqsadida ta‘sis etilgan. Qo‘mita 23 ekspertdan tashkil topadi. Ular yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan, xotin-qizlar huquqlari sohasida bilim va tajribasi bilan ajralib turadigan va nomzodi Konvensiya qatnashchisi bo‘lgan davlatlar tomonidan ko‘rsatiladigan shaxslardan tarkib topgan ro‘yxatdagi nomzodlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi².

Qo‘mita o‘z faoliyatida ishtirokchi-davlatlarning konvensiya normalarini milliy qonunchilikka va amaliyotga tatbiq etishlari yuzasidan davriy ma‘ruzalarini, boshqa bir davlatning muayyan davlat tomonidan konvensiyaga oid o‘z majburiyatlarini qanday bajarayotganligi yuzasidan xabarlari, turli nodavlat tashkilotlarining muayyan davlat yuzasidan xabarlari, shikoyatlari va yakka tartibdagi individual shikoyatlarni o‘rganib chiqadi hamda ushbu muayyan davlatga uning konvensiya qoidalarini bajarishi yuzasidan tegishli tavsiya va xulosalarini beradi.

Qatnashchi-davlatlar tomonidan taqdim etilgan ma‘ruzalar va boshqa har qanday axborotlarni Qo‘mita o‘z sessiyalarida o‘rganib boradi. Qo‘mita ana shu ma‘ruzalarni ko‘rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda taklif va tavsiyalar tayyorlaydi. U umumiy tavsiyalar chiqarishi ham mumkin. Bu tavsiyalardagi tadbirlarni qatnashchi-davlatlar Konvensiya bo‘yicha zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish maqsadida ko‘pincha o‘z dasturlariga kiritadilar.

Xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha komissiya Iqtisodiy va ijtimoiy kengash tomonidan 1946-yilda ta‘sis etilgan bo‘lib, ushbu Komissiyaning faoliyati to‘g‘risida oldingi mavzularimizda to‘xtalib o‘tganmiz³.

1 2010-yil uchun Mingyillik Deklaratsiyasida ifodalangan rivojlanish sohasidagi maqsadlarni amalga oshirish to‘g‘risida ma‘ruza. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Nyu-York, – B. 25.

2 Qarang: Дискриминация в отношении женщин: Конвенция и комитет. Женева, ООН, 1995.

3 Batafsilroq ma‘lumotlar uchun o‘quv qo‘llanmaning “Inson huquqlarini himoya qilishda BMTning o‘rni va roli” mavzusidagi bobiga qarang.

*BM*Tning ixtisoslashgan tashkilotlarida ayollar huquqlarini himoya qilish. 1919-yilda tuzilgan va hozirgi vaqtda *BM*Tning ixtisoslashgan tashkiloti bo'lgan Xalqaro Mehnat Tashkiloti kishilarning mehnat faoliyati va mehnat muhofazasi masalalari bilan shug'ullanadi. Ayollar mehnatini muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar ilk bor ayollarni ishga qabul qilish, ularni ish bilan ta'minlash va hokazolar bilan bog'langan masalalarda ayollarning teng huquqliligi to'g'risidagi qonunlar paydo bo'lguncha qabul qilingan edi. Bu me'yorlar ayollarni og'ir jismoniy mehnatdan, tungi vaqtda, zararli sharoitlarda ishlashdan va hokazolardan muhofaza qilishni ko'zda tutadi. Ushbu tashkilot doirasida 1951-yilgi "Teng ahamiyatli mehnat uchun erkak va ayollarni teng taqdirlash to'g'risidagi 100-konvensiya, 1926-yilgi "Qullik to'g'risida konvensiya", 1956-yilgi "Qullik va qul savdosini, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to'g'risida qo'shimcha konvensiya", 1949-yilgi "Odamlar savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida konvensiya", 1981-yilgi "Erkak va ayol mehnatkashlar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar to'g'risida 156-konvensiya", 1921-yilgi "Qishloq xo'jaligida tungi ishlarga ayollarni jalb etmaslik to'g'risidagi 13-konvensiya", 1935-yilgi "Yer osti shaxtalarida qazish ishlariga ayollarni jalb etmaslik to'g'risidagi 45-konvensiya", 1948-yilgi "Ayollarning tungi mehnati to'g'risidagi konvensiya", "Ayollarning tungi mehnati to'g'risidagi konvensiyaga 1990-yildagi protokol" kabi hujjatlar¹ ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bu hujjatlar turli sohalarda ayollar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgandir.

Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan *BM*Tning ixtisoslashtirilgan tashkilotlaridan biri, bu *BM*Tning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti – UNESCOdir. Ushbu tashkilot ayollar huquqlari sohasida, birinchi o'rinda, ta'lim, fan va madaniyat sohasida ayollarning kamsitilishlariga qarshi kurash faoliyatini olib boradi. Bu yo'nalishda xalqaro hujjatlar, deklaratsiyalar, konvensiyalar ishlab chiqadi. Masalan, "Ta'lim sohasida kamsitishlarga qarshi kurash to'g'risida"gi 1961-yilgi konvensiya hamda ushbu konvensiyaga 1962-yilgi qo'shimcha protokol shular jumlasidandir. Xususan, mazkur konvensiya 1-moddasining 1-qismida shunday deyiladi: "Ushbu Konvensiyada "kamsitish" iborasi ta'lim sohasida munosabat tengligini yo'q qilish yoki buzishni maqsad yoki natija qilib qo'yadigan irq, tana rangi, jins, til, din, siyosiy yoki boshqacha

¹ Qarang: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam / O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: Adolat. 2004.; Human rights of women: A Collection of International and Regional Normative Instruments /prepared by J.Symonides, V.Volodin. UNESCO. 1999.

e'tiqodlar, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy holat yoki tug'ilishi belgisi bo'yicha har qanday tafovut, istisno, cheklash yoki ustunlikni qamrab oladi..."

BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari ichida keyingi tashkilot bu Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti bo'lib, ushbu Tashkilotning faoliyati asosan ayollarning sog'ligi, ularning reproduktiv salomatligiga oid masalalarni hal etishga yo'naltirilgan. Ushbu tashkilot doirasida keyingi paytlarda OITSGa qarshi kurash, ayollarning reproduktiv salomatligini tiklash va yaxshilash kabi masalalarni hal etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

3. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik asoslari

O'zbekiston BMTning ayollar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi va ma'qullaydi. Mamlakatimizda ayollarning millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoli hamda turar joyidan qat'i nazar, barcha huquqlarini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Davlat tomonidan ham shahar, ham qishloq joylarida yashaydigan ayollarning turmushini yaxshilashga mutanosib yondashuv ta'minlanmoqda.

Davlat mustaqilligining ilk kunidan boshlab, mamlakatimiz ayollarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoya qilinishini, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalasini davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilab olgan.

O'zbekistonda ayollar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha izchil va tizimli siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

birinchidan, ayollar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlash hamda huquqiy asosni yanada takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish;

ikkinchidan, ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarning ahvolini doimiy ravishda va kompleks monitoring qilish, ularning oilada, jamiyatda hamda jamoat va davlat ishlarini boshqarishdagi rolini oshirish;

uchinchidan, ayollarning bandligini ta'minlash bo'yicha samarali choralar ko'rish va amalga oshirish, ularni ishga joylashtirish uchun har tomonlama yordam ko'rsatish, ayollar orasida, ayniqsa, qishloq joylarida tadbirkorlikning turli shakllarini rivojlantirish;

to'rtinchidan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarining mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ham inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar singari erkaklar va xotin-qizlar huquqlarining tengligini ta'minlaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi nazarda tutilgan. Konstitutsiyaning 46-moddasiga muvofiq, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbek jamiyati qadimdan ayollarni doimiy ravishda e'zozlab kelgan. Ushbu an'analarga sodiq qolgan holda, mustaqillikka erishilgandan keyin ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. 1998-yilning "Oila yili", 1999-yilning "Ayollar yili", 2001-yilning "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilinishining o'ziyoq bunga yorqin misol bo'la oladi.

Zamonaviy davlatlar o'zlarining qonun hujjatlarida kishilarning qandaydir asoslar bo'yicha kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik tamoyilini mustahkamlab qo'yishga harakat qiladilar. O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirishning butun jarayoni mana shu tamoyilga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida qayd etilgan 18-moddasida barcha fuqarolarning tengligi belgilab qo'yilgan. Unda aytilishicha, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar". Bu qoida davlatimizning ko'pgina qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan. Umuman, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-, 46-, 63-, 64-, 65-, 66-moddalari bevosita ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatidir. Xalqaro hujjatlarda bo'lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jinsiy belgi bo'yicha kamsitmaslik to'g'risidagi qoida birinchi o'ringa chiqarilgan.

Konstitutsiyada ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati o'z aksini topgan. Quyida Konstitutsiyada qayd etilgan ushbu huquqlarning ayrimlariga to'xtalib o'tsak.

Konstitutsiyaning 18-moddasiga binoan, ayollarimizning teng huquqliligi e'tirof etiladi. Unda, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart", deb ko'rsatib o'tilgan. Konstitutsiyadagi bu tushuncha ayollarning barcha turdagi kamsitilishlarining oldini oladi va ularni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida konstitutsiyaviy e'tirof etadi. Ushbu e'tirof Konstitutsiyaning keyingi, ya'ni 7-, 8-, 9-boblaridagi huquqlardan xotin-qizlarning teng huquqli foydalanishi uchun kafolatdir.

Ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklari. Bu kategoriyadagi huquqlar ayollarimizning ajralmas huquqlari sifatida e'tirof etiladi hamda ularning boshqa kategoriyadagi huquqlariga ega bo'lishi uchun birlamchi huquqlar hisoblanadi. Konstitutsiyaning 7-bobi shaxsiy huquq va erkinliklarga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, ya'ni jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmasligi, sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tayziqqa duchor etilishi mumkin emasligi huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish huquqi, sir saqlash huquqi, fikr, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, vijdon huquqi kabi masalalar o'z aksini topgandir.

Siyosiy huquqlar tushunchasi ayollarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok eta olish huquqini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasi). Shuningdek, 8-bobda, yana fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish huquqi, ularning kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi, ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilish huquqi kabi ayollarimizning siyosiy huquqlari o'z aksini topgan.

Ayollarning siyosiy huquqlarini ta'minlab berishda, siyosiy partiyalarga parlament saylovlarida ishtirok etishi uchun deputatlikka nomzodlar-

ni ilgari surayotganida, nomzodlarning umumiy sonidan kamida 30 foizini ayollar tashkil etishi kerakligi qonuniy mustahkamlab qo'yilishini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari. Bu huquqlar ayollarimizning jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'zlarining iqtisodiy, ma'naviy va boshqa har tomonlama kamol topishi uchun muhim bo'lgan huquqlarni tashkil etadi. Bu huquqlar orqali ayollarimiz xalq xo'jaligida, ta'limda, madaniy hayotda faol ishtirok etadilar. Bu huquqlar Konstitutsiyaning 9-bobida o'z aksini topgan. Mazkur bobda, ayollarning mulkdor bo'lish huquqi, bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va mero's huquqi, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalalanish huquqi, dam olish huquqi, har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqi, pensiyalar hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi, har bir inson tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, shuningdek, bepul bilim olish huquqi kabi huquqlarga ega ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyadagi normalar O'zbekiston qo'shilgan xalqaro hujjatlar qoidalariga muvofiq keladi.

Ayollarning madaniy huquqlari. O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonuni respublika fuqarolarining madaniy huquqlarini: bilim olish huquqini (41-modda), ilmiy va texnikaviy ijod, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini (42-modda) kafolatlaydi.

Ayollarning bilim olish huquqi insonning asosiy va eng muhim huquqlaridan bo'lib, bu huquq tenglik, taraqqiyot, tinchlik kabi maqsadlarga erishish uchun vositadir. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi sur'atlari shu qadar ildamki, bu holat muttasil bilim olish muammosini yuzaga keltirmoqda. Kamsitishlarga yo'l qo'ymay bilim berish nafaqat qizlarga, balki o'g'il bolalarga ham foyda keltiradi va, shu bilan birga, erkaklar va ayollar orasida yanada teng huquqli munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi. Bilim olishda tenglik va uni olish imkoni ko'p sonli ayollarning jamiyat hayotidagi turli islohotlarning faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarurdir.

Hozirgi ayolga shunchaki savodli bo'lish, ya'ni o'qish, yozish va hisobni bilishning o'zigina yetarli emas. Uning oldida ta'limning sifati muammosi paydo bo'lib, bu holat undan doim mustaqil ta'lim ustida ishlashni, o'z bilimlarini orttirib, chuqurlashtirib borishni talab qiladi. Xotin-

qizlar orasida yuqori darajadagi savodxonlik oilada sog'liqni saqlash, ovqatlanish va ta'lim olish sohasidagi ahvolni yaxshilash, shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayonida ayollar ishtirokini kengaytirish uchun eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Qizlar va ayollarning o'qishlariga hamda kasb egallashlariga mablag' ajratish yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samara keltirib, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishishning eng yaxshi vositalaridan biridir.

Ayollarning fan va texnika sohasida kasb egallashlari, ta'lim olishlari va muttasil bilim olishlarini kengaytirish, yoshlikda to'plagan bilim va ko'nikmalarini uzluksiz mustahkamlab borishlari uchun ta'lim hamda kasbiy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qizlar va ayollarning o'rta va oliy maktabdan tortib, hamma darajalarda ta'lim olishlariga keng yo'l ochish va o'qishni tashlab ketishlariga yo'l qo'ymaslik ularning kasb sohasida doim muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun ko'maklashuvchi omillardan biridir.

Ta'lim sohasi xodimlari, hukumat va nohukumat muassasalari, ommaviy axborot vositalaridan o'qitish vositasi sifatida ayollar ahvolini yaxshilash maqsadida foydalanishi mumkin.

Ayollarning reproduktiv huquqlari. Erta nikohga kirish va erta ona bo'lish munosabati bilan reproduktiv huquqlar masalasi dolzarb masalaga aylanib qolmoqda. Reproductiv huquqlar – "xotin-qizlar, shuningdek, erkaklarning o'z hayotlaridagi reproduktiv jarayonlarni o'zlari tasarruf qilishlariga oid tamoyilni aks ettiradigan yuridik kategoriyalardir"¹.

Xotin-qizlarning reproduktiv huquqlari hamda salomatligini himoya qilish xalqaro harakatlari negizida paydo bo'ldi. Yer yuzi, xususan, janubiy mintaqalar aholisining tez o'sib borishidan tashvishlanish hissi reproduktiv qoidalarni ishlab chiqishga undadi. Mazkur qoidalar tug'ilishni mutanosiblashtirish (bolalar miqdori va ular orasidagi muhlat)ni nazarda tutadi².

Reproduktiv huquq har bir kishining asosiy huquqiga kiradi, u necha yoshda, qanday vaqt oralig'ida nechta bola ko'rishi, kutilmagan homiladorlikdan saqlanish va reproduktiv salomatlikning yuqori darajada bo'lishiga erishish kabi erkin va ongli ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi. Reproductiv huquq, shuningdek, har bir insonning turli kamsitish va majburlashdan himoya qilinish hamda erkin ravishda reproduksiyaga tegishli qaror qabul qilish huquqini o'z ichiga oladi.

1 Qarag'ang: Доклад о человеческом развитии. – М.: 1998. – С. 8.

2 Valiyeva B.S., Cherkashina I.A. O'zbekistonda xotin-qizlar: qonun va jamiyat muammolari. – T.: 1999. – B. 131.

Reproduktiv huquqlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inson qadr-qimmatini hurmatlash;
- tenglikni hurmatlash, kamsitishlarga chek qo'yish;
- shaxsga nisbatan daxlsizlik huquqi;
- shaxsiy hayotga nisbatan daxlsizlik huquqi;
- shaxs erkinligi va xavfsizligi huquqi;
- yuqori darajadagi jismoniy va psixologik (ruhiy) sog'liqqa ega bo'lish huquqi.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat dasturlarini amalga oshirish chog'ida, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, tug'ishlar orasidagi tanaffusni cho'zish, erta yoshdagi va yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, nomaqbul homiladorlikning oldini olish, tibbiyot xodimlarining malakalarini oshirish, homiladorlarga va tug'adigan xotinlarga yordam ko'rsatuvchi va bolalar muassasalarining moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, reproduktiv salomatlik masalalari bo'yicha aholi bilimini oshirishga qaratilgan maqsadli ishlar o'tkazilmoqda. Mamlakatning barcha viloyatlarida tez tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tug'ish yoshidagi ayollarni ko'rikdan o'tkazish hamda nomaqbul homiladorlikning oldini olish va tug'ishlar orasidagi tanaffusni cho'zish maqsadida muhtoj ayollarni kontratseptiv vositalar bilan qamrab olish yo'lga qo'yilgan. Bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar va zarur sa'y-harakatlar oqibatida onalar o'limi kamaydi. Agar 2002-yilda onalar o'limi 100.000 yangi tug'ilganlarga nisbatan 26–32 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda bu ko'rsatkich 23,8 nafarga tushdi. 2010-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida BMTning Mingyillik taraqqiyot maqsadlariga bag'ishlangan sammitda ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov mamlakatda sog'liqni saqlash sohasini tubdan isloh qilish natijasida onalar o'limini 2 marta, bolalar o'limini 3 marta qisqartirishga erishilganligi, aholining o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarniki – 75 yoshgacha uzayganligi, mamlakatda ishlayotganlarning 48 foizini ayollar tashkil etishini qayd etdi¹.

2010-yil 20-yanvarda Jenevada BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mitasining 45-sessiyasi davomida O'zbekiston Respublikasining Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalarining bajari-lishi yuzasidan To'rtinchi davriy ma'ruzasi ko'rib chiqildi. Uni tayyorlashda mamlakatning 22 ta davlat organi va 14 ta nodavlat tashkiloti ishtirok etgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning "Mingyillik taraqqiyot maqsadlari" BMTning sammitining yalpi majlisida so'zlagan nutqidan. <http://www.press-service.uz>

O'zbekistonda jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitlarida davlat siyosati insonlar, shu jumladan, ayollar turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, moliyaviy inqiroz ta'sirining salbiy omillaridan himoya qilish va aholining, barcha inson huquqlarining asosi hisoblangan normal turmush kechirishini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatda ta'lim, gender tenglik va sog'liqni saqlash sohalarida boshqa masalalarga nisbatan jiddiy natijalarga erishilgan, bu esa, ayollar farovonligi to'g'risidagi g'amxo'rlik bilan bevosita bog'liq. Ana shu barcha choralar, birinchi navbatda, Konvensiya, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi 23-maxsus sessiyasining "Ayollar 2000-yilda: erkaklar va ayollar o'rtasida tenglik, XXI asrda rivojlanish va tinchlik" yakuniy hujjatining qoidalarini so'zsiz bajarishga qaratilgan.

O'zbekiston **Mingyillik taraqqiyot maqsadlarini** amalga oshirishda birinchi navbatda, qashshoqlikni kamaytirish, odamlarning hayotini yaxshilash, jamiyatning barqaror rivojlanishida ayollarning rolini oshirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlashga qaratilgan choralarni izchillik bilan amalga oshirmoqda.

2000-yildan boshlab, OITSga qarshi kurash bo'yicha ishlar yanada kuchaytirildi. 2007-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida 2007–2011-yillarda OITS epidemiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha strategik dastur" ta'sis etildi.

Ayollar huquqlarini ta'minlashga oid O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro hujjatlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan qoidalar va tamoyillar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida o'z aksini topgan va yanada takomillashtirilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan demokratik o'zgarishlar va bozor iqtisodining rivojlanishi milliy qonunlarimizni isloh etish zarurligini taqozo etdi. Ayollar huquqlari masalalari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi kabi kodekslarda hamda boshqa qonunlar va maxsus qonunosti hujjatlarida mukammallashtirilgan. Shu o'rinda ayrim kodekslarga to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ayollar huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan normalar mavjud. Jinoyat kodeksining alohida qismining birinchi bo'limi shaxsga qarshi, ya'ni inson hayotiga qarshi jinoyatga qaratilgan bo'lib, ushbu 97-modda ikki qismdan iborat: 1-qismi – qasddan odam o'ldirish, 97-moddaning 2-qismi – javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish. 97-modda 2-qismining "b" bandida homilador ayollarni qasddan o'ldirish jinoyatiga jazo nazarda tutilgan.

Bu xildagi qasddan odam o'ldirishdan iborat jinoyat turi ijtimoiy xavfli holatini oshiradi, chunki subyekt, ya'ni jinoyatchi ikki shaxsga – ayol va homila hayotiga tajovuz qilib, inson hayotini davom ettirishga zomin bo'lgan hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 103-moddasida o'zini o'zi o'ldirishgacha olib borgan holat uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur modda ikki qismdan iborat. Uning ikkinchi qismida o'ziga moddiy tomondan yoki boshqa jihatlar bilan qaram bo'lgan shaxsning or-nomusi va qadr-qimmatini muntazam ravishda kamsitish, unga shafqatsizlarcha munosabatlarda bo'lish ko'zda tutilgan. Insonga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, uning qadr-qimmatini muntazam ravishda kamsitish va shaxsni o'limgacha olib borish jiddiy va eng og'ir jinoyat hisoblanadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksida tan jarohatining turli ko'rinishlari uchun javobgarlik ko'zda tutiladi. Jinoyat kodeksining tan jarohati to'g'risidagi moddalar tahlil qilinganda, ularning asosiy tasnifiga ko'ra, sog'liqqa zarar yetkazganlar og'ir jazo oladilar. Jinoyat kodeksining 104-, 105-moddalarida qasddan tan jarohati yetkazgan va qasddan o'rtacha og'irlikda jarohat yetkazganlar uchun jazo va javobgarlik og'irlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ayollarni abort qilishga majburlovchilar uchun javobgarlikni belgilovchi modda bor. Bu modda 1994-yilda birinchi marta kiritildi.

Jinoyat kodeksining bir necha moddalarida noqonuniy jinsiy erkinlikka, jumladan, zo'rlash, ko'p xotinlilik, o'n olti yoshga yetmaganlarga axloqsizlik qilish va boshqalarga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekistonda qizlar va ayollarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik qoralanadi. U oila ichida yoki yaqin insonlar orasida sodir etiladigan jinoyat sifatida ko'riladi. O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'rlash, ularni sotish, jinsiy tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan: Jinoyat kodeksining 118-, 119-, 121-moddalaridagi "Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar", 128-, 129-, 131-moddalaridagi "Oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar", 135-, 136-moddalaridagi "Erkinlik, sha'n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlar"; Oila kodeksi bilan er-xotin o'rtasidagi, shuningdek, otionalarning bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Mamlakat mintaqalarida zo'ravonlik jabrdiydalari bo'lgan – ayollarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus tuzilmalar: "Krizis markazlari", "Ishonch telefonlari", "Ayollar markazlari", Salomatlik markazlari va boshqa ko'plab ijtimoiy-psixologik markazlar tuzilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 5-bobida er-xotinning mulkiy munosabatlari, ularning me'yorlari, mulkning qonuniy tizimi,

shartnomaviy mulk rejimi tartibga solinadi. Qonuniy rejimda er-xotinning birgalikdagi mulklari tushuniladi. Er-xotinning birgalikdagi mulkiga nikohdan keyin yig'ilgan mulklari kiradi, bu mulklar ularning har ikkisiga tegishli va ular ana shu mulkka egalik qilishga, undan foydalanishga va uni boshqarish huquqiga egadirlar. Bu mulklar kimning nomiga olinganligi yoki ro'yxatdan o'tkazilganligi, er-xotinning qaysi biridan kimning nomiga mablag' o'tkazganligi jiddiy huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikohdan keyin uy-ro'zg'or ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan, kasalga yoxud qari ota-onalarga qaragan, shuningdek, boshqa bir sabablarga ko'ra mustaqil pul topmagan er yoki xotin ham mulkka egalik qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 30-moddasining 3-qismi-da nikoh shartnomasi, albatta, yozma shaklda tuzilishi va u notarial tartibda tasdiqlangan bo'lish nazarda tutilgan. Agar bunday tartibga rioya etilmasa, nikoh shartnomasi haqiqiy emas, deb topiladi. Nikoh shartnomasi, ayniqsa, ayollarga katta huquqlar beradi. Shartnomada qo'shimcha shartlar va ba'zi bir o'zgarish-lar bilan er-xotin mol-mulkining qonuniy rejimi o'z ifodasini topadi.

Birgalikdagi mulk rejimi shartnomasida er-xotinning barcha mol-mulklariga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mulkiga nisbatan birgalikdagi umumiy yoki alohida egalik qilish tartibini o'zgartirishga haqli ekanligi ko'rsatiladi.

Agar shartnomada har bir mulk egasining ulushi belgilanmagan bo'lsa, ulardan har biri umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqli bo'lib, demak ulushlar ham teng bo'linishi kerak. Er-xotinning umumiy mulkida har birining ulushi belgilangan bo'lishi mumkin.

Nikoh shartnomasi barcha fuqarolik kelishuvlariga muvofiq keladi. Er-xotin sog'lom bo'lishi zarur, bunda ularning ma'lum huquqiy natijaga erishuviga yo'naltirilgan xohish-istaklari inobatga olinishi talab etiladi. Nikoh shartnomasi er-xotin huquqlari va salohiyatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat qilishlarini, o'z farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini cheklamasligi, shuningdek, unda er-xotindan birini og'ir vaziyatga tushiradigan shartlar qo'yilmasligi lozim.

Moddiy qo'llab-quvvatlash va o'zaro g'amxo'rlik oilaning asosiy konstitutsiyaviy tamoyili hisoblanadi. Qarindoshlik burchlarini ado etib, muhtoj er-xotingga, bolalarga, ota-onaga moddiy yordam ko'rsatiladi. Bunday majburiyat qonun kuchi bilan amalga oshirilsa, aliment nomini oladi. Qonun aliment to'lovining ikki xil tartibini ko'zda tutadi: sud qarori asosida va tomonlar kelishuviga ko'ra.

Kelishuv asosida aliment to'lash ilgari ham qonuniy hisoblangan. Hozirgi vaqtda, Oila kodeksida aliment munosabatlari subyektlariga to'lov-larni kelishuv asosidami yoxud qonun me'yorlari asosidami, o'zlari hal qilish huquqi berilgan. Aliment to'lovlari haqidagi kelishuv mavjud bo'lsa, uning ijrosi sud tartibida qanoatlantirilmaydi. Aliment to'lovi haqidagi kelishuv ayollar uchun ishonchli hisoblanadi. Ayollarning ijro varaqasi orqali aliment olishidan ko'ra, bevosita eridan aliment olishi ancha kafolatlangan hisoblanadi.

Qonun kelishuv uchun majburiy notarial tartibni belgilaydi va, binobarin unga amal qilmaslik Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlariga olib keladi. Kelishuv aliment to'lovi bilan uni oluvchi o'rtasida tuziladi. Ular belgilayotgan aliment miqdori voyaga yetmagan bolalar uchun qonunda belgilanganidan kam bo'lmasligi kerak. Aliment to'lovi o'z boquvida bo'lgan bolalarini boqish uchun ayollarning iqtisodiy manfaatlarini ko'zlaydi. Oila kodeksi er-xotinning mulkiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi o'zgartirishlar kiritdi, er-xotinning mol-mulkka oid shartnomaviy rejimi va aliment to'lovi to'g'risida kelishuv shartnomasi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnatga oid munosabatlarda imkoniyatlarning tengligi va kamsitishlarning taqiqlanishiga jiddiy e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik hujjatlari Konstitutsiyaning yuqorida keltirilgan qoidalarini yanada aniqlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnatga oid munosabatlarda imkoniyatlarning tengligi va kamsitishlarning taqiqlanishiga jiddiy e'tibor qaratadi. Xususan, mazkur Kodeksning 6-moddasi 1-qismiga binoan, "Barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek, xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va uning mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan boshqa jihatga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi".

Mehnat kodeksining 6-moddasi 3-qismi mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxsning kamsitilishini bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkinligini nazarda tutadi.

Mehnat insonning o'zini, yaqinlarini boqishi uchun zamin yaratadi va o'z qobiliyatini hamda iste'dodini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Har bir inson, agar uning faoliyati jinoyat bilan bog'liq bo'lmasa va jamiyat

manfaatlariga xilof bo'lmagan holda, o'ziga yoqqan ish bilan shug'ullanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi fuqarolarning mehnat munosabatlarini tartibga soladi va mehnat muhofazasini kafolatlaydi. Mehnat muhofazasi to'g'risidagi qonunlar ayollar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular reproduktiv salomatlik va onalikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Ayollar mehnatini muhofaza qilishga oid dastlabki me'yoriy hujjatlar ayollarni ishga qabul qilish, ularni ish joyi bilan ta'minlash va hokazolar bilan bog'liq masalalarda teng huquqlilik to'g'risidagi qonunlar paydo bo'lgunga qadar qabul qilingan edi. Bu me'yorlar ayollarni tungi vaqtda og'ir mehnatda ishlashdan, zararli sharoitlarda ishlashdan va hokazolardan muhofaza qilishni ko'zda tutadi. Keyinchalik esa, qonunchilik takomillasha borib, yuqorida qayd etilgan holatlar bilan bir qatorda, ayollarning mehnati uchun adolatli haq to'lash, erkin kasb tanlash huquqi kabi boshqa masalalarni ham qamrab ola boshladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda ayollar huquqlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik va ularni mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga jalb qilish uchun huquqiy asos yaratilgan. Mamlakatdagi inson huquqlariga oid 100 ga yaqin qonunlarda ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi e'tirof etilgan. Shu bilan bir qatorda, ayollar huquqlarini to'la amalga oshirish uchun maxsus qonunlar ham qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 1999-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi Qonuni shular jumlasidandir.

4. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning milliy mexanizmi

Ayollar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlari deganda o'z faoliyati davomida ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat va nodavlat organlarini tushunamiz.

Davlat organlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, hukumatni, mahalliy hokimiyat organlarini, huquqni muhofaza qilish organlarini, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni kiritishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inson huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining konstitutsiyaviy kafili¹ sifatida ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda-

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O'zbekiston. 2001. – B. 422.

gi roli juda kattadir. Bunga Prezident tomonidan 1997-yilning “Inson manfaatlarini yili”, 1998-yilning “Oila yili”, 1999-yilning “Ayollar yili”, 2000-yilning Sogʻlom avlod yili”, 2001-yilning “Onalar va bolalar yili” deb eʼlon qilinishi, shuningdek, mamlakatda ayollarning ijtimoiy rolini oshirishga oid qabul qilinayotgan farmonlarini misol keltirish mumkin. Ayni paytda, Prezident oʻz faoliyati davomida ayollarga katta eʼtibor qaratayotgani toʻgʻrisida deyarli har kungi ommaviy axborot vositalarida berib borilayotgan axborotlardan ham xulosa chiqarishimiz mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining bu sohadagi faoliyatiga quyidagilar kiradi: ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ishlab chiqish va takomillashtirib borish; ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish; ayollar huquqlariga oid qonunlarni hamda Oʻzbekiston qoʻshilgan xalqaro hujjatlarning bajarilishi yuzasidan parlament nazoratini olib borish.

Oʻzbekiston Respublikasi hukumatining vazifasiga parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni ijro etish, ayollar huquqlariga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va, umuman olganda, ayollar huquqlarini taʼminlab berish bilan bogʻliq ravishda olib borilayotgan boshqa keng koʻlamdagi ishlar kiradi.

1995-yil 2-martda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida ayollar rolini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni eʼlon qilindi.

Ushbu Farmon bilan davlatda ayollarning faoliyat doirasi koʻrsatib oʻtildi va shu asnda, ularning yuqori fuqarolik maqomi belgilab berildi. Bu Farmon bilan respublika ayollari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalarini hal etishga jalb etildi, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki faollashtirildi.

Ayollar huquqlarini taʼminlab berish boʻyicha hukumat va mahalliy darajalardagi faoliyatni muvofiqlashtirish doirasida faoliyatlarni muvofiqlashtirishning institutsional bazasi tashkil etildi. Yuqorida qayd etilgan Farmonga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xotin-qizlar qoʻmitasi raisi bir vaqtning oʻzida Bosh vazir oʻrinbosari maqomiga tenglashtirildi. Viloyatlardagi xotin-qizlar qoʻmitalari raislari esa – tegishli hududlarning hokim oʻrinbosarlari hisoblanadi. Qoʻmitaning maqsadi ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdir. Ayollar huquqlarini himoya qilish milliy tizimining muhim unsurlari boʻlishi ayollar nodavlat tashkilotlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar shakllantirildi. Ayollarning davlat hokimiyati organlaridagi vakilligini koʻpaytirish va siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy

Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlari ilgari surilayotgan nomzodlar umumiy qismining 30 foizi miqdorida ayollarga kvota belgilab qo'yildi. 2007–2008-yillarda mamlakat siyosiy hayotida ikkita muhim voqea sodir bo'ldi: O'zbekiston tarixida birinchi marotaba ayol kishining nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzod sifatida ilgari surildi va birinchi marotaba ayol kishining nomzodi Parlamentning quyi palatasi Spikeri lavozimiga saylandi. Ijro hokimiyati organlaridagi 15,3 foiz rahbarlik lavozimlarini ayollar egallab kelmoqda, ya'ni Vazirlar Mahkamasida – 16,7 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashida – 12,5 foiz, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlarida hokimlar va hokim o'rinbosarlari – 11,9 %.

1991-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Xotin-qizlari qo'mitasi quyidagilarni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlari qilib belgiladi:

- ayollar ahvolini, ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ishtiroki darajasini, xotin-qizlarning mehnat sharoitini, oiladagi ma'naviy sharoitni, shuningdek, jamiyatda ayollarning ijtimoiy muhofazasi darajasini tahlil etish, ushbu sohadagi muammolarni yechish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xotin-qizlar faol kadrlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular rezervini tayyorlashda faol qatnashish, ayollarni aktiv mehnat faoliyatiga jalb etish;

- oila, onalik va bolalik manfaatlariga taalluqli masalalarda qonunlar yaratish ishida ishtirok etish¹.

Mahalliy hokimiyatlar doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, barcha viloyatlar hamda tumanlarda ayollar masalalari bo'yicha hokim muovirlari mansablari joriy etilgan. Ularning asosiy vazifasi hududdagi ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalaridagi ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Mahallalarda mahalla oqsoqolining ayollar bilan ishlash bo'yicha maslahatchilari o'rni joriy etildi. Bu esa, bugungi kunda mamlakatda ijro hokimiyatining barcha bo'g'inlarida ayollar masalasi davlat siyosatining dolzarb masalasi darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidan tashqari, ayollar huquqlari va erkinliklari masalasi huquqni muhofaza qilish organlarining ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilishda milliy institutlarning roli va ahamiyati kattadir. Bunday milliy institutlarga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)

¹ Inson huquqlari monitoringi. / To'plam. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 168–169.

instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazini kiritish mumkin.

Milliy institutlar faoliyatlari davomida xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, qonunlar va qonunosti hujjatlarining joylarda qanday bajarilayotganligi yuzasidan monitoring ishlarini olib boradilar. Ombudsman instituti bu sohadagi xalqaro hujjatlar va qonunchilik hujjatlari bo'yicha parlament nazoratini olib boradi.

Ombudsman instituti va Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz ayollar huquqlarining buzilishi fakti bo'yicha fuqarolarning murojaatlarini qabul qiladilar va ko'rib chiqadilar. Jumladan, Ombudsman devoniga kelib tushayotgan murojaatlarning ko'p qismini ayollardan kelib tushayotgan murojaatlar tashkil etadi¹.

Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy mexanizmga mamlakatimizda tashkil etilgan ayollar huquqlari bilan shug'ullanuvchi nodavlat tashkilotlari ham kiradi. Ularga Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, "Sog'lom avlod uchun" nodavlat tashkiloti, "Ijtimoiy fikr", "Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi" kabi jamiyatning barcha a'zolarini qamrab oluvchi nodavlat tashkilotlari, "Mehri" Xotin-qizlar jamiyati, "Tadbirkor ayollar" nodavlat tashkiloti, Samarqanddagi "Sabr" ishonch markazi kabi faqatgina ayollar huquqlari bo'yicha ixtisoslashgan nodavlat tashkilotlarini kiritishimiz mumkin.

Bunday nodavlat tashkilotlarining ayollar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati juda kattadir. Chunki, ayollar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va ularni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida e'tirof etish fuqarolik jamiyatining asosiy talabi bo'lsa, bunday huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan nodavlat tashkilotlari esa, fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ayollar boshiga tushadigan kulfatlar, ular huquqlarining buzilishiga ko'proq ayollarning huquqiy bilimsizligi, o'zlarining shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini bilmasligi sabab bo'ladi. Shu sababdan ham, ayollar huquqlarini ta'minlashdagi muhim vazifa birinchi o'rinda, ayollarning, shu jumladan, erkaklarning ham huquqiy savodxonligini oshirish hisoblanadi. Chunki, har bir shaxsning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishining birinchi garovi – bu ularning o'z huquqlari va erkinliklari hamda majburiyatlari xususida yetarli bilimlarga va ularni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishdir. Bu vazifani hal etish jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat sohasidagi muammolarni hal etadi.

1 Женщина. Право. Общество. – Т.: 1999. – С. 70.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Ayollar huquqlari tushunchasi nima va uning o'ziga xos xususiyati nimada?*
2. *Gender tengligi tushunchasi nima?*
3. *Ayollar harakatlarining muhim bosqichlarini ko'rsatib bering.*
4. *Ayollar huquqlariga oid xalqaro konferensiyalar va ularning mazmuni haqida hikoya qilib bering.*
5. *Ayollar huquqlari o'z aksini topgan xalqaro huquqiy normalarni ko'rsatib bering.*
6. *1979-yil 18-dekabrda "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
7. *Ayollar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro mexanizmlar va ularning vakolatini tushuntirib bering.*
8. *Ayollar huquqlari va ularning milliy qonunchilik hujjatlarida aks etganligini ko'rsatib bering.*
9. *Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy mexanizmlar va ularning vakolatlarini ko'rsatib bering.*
10. *Ayollar huquqlarini himoya qilishga oid nodavlat tashkilotlari va ularning faoliyatini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. *Ayol huquqi va erkinliklari.* – T.: "Adolat", 2002.
2. *Valiyeva B.S., Cherkashina I.A. O'zbekistonda xotin-qizlar: qonun va jamiyat muammolari.* – T.: 1999.
3. *Дискриминация в отношении женщин: Конвенция и комитет.* – Женева, ООН, 1995.
4. *Женщина. Право. Общество.* – T.: 1999.
5. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov.* – T.: "O'zbekiston", 2010.
6. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot.* – T.: 2013.
7. *Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov.* – T.: "Adolat", 2004. – 520 b.
8. *Human rights of women: A Collection of International and Regional Normative Instruments / prepared by J.Symonides, V.Volodin.* – UNESCO. 1999

14-mavzu. Bola huquqlari

1. Bola huquqlari tushunchasi.
2. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik.
3. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar.
4. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmlar.

1. Bola huquqlari tushunchasi

Bola huquqlarini ta'minlab berish, bolalarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash masalalari jamiyatimizda qadimdan muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida ham bu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Shuning uchun ham, 2008-yil mamlakatimizda "Yoshlar yili", 2010-yil "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilindi.

Inson huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat deb e'lon qilingan bugungi kunda ham, bu huquqlar va erkinliklarning buzilish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Dunyoning turli mintaqalari va alohida davlatlarda bu holatlar qo'pol va tizimli xususiyat kasb etmoqda. Bunga ushbu mintaq va davlatlarda bo'layotgan qurolli mojarolar, ochlik, jinoyatchilik kabi turli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar sabab bo'lmoqda. Shu tufayli ham, inson huquqlari masalasi, XXI asrga kelib jahonning dolzarb muammoriga aylanib ulgurdi va xalqaro hamjamiyatning barcha davlatlarini bunday muammoga qarshi birgalikda kurashishga majbur qilmoqda. Bu kurash inson huquqlarining buzilishiga qarshi va buzilgan huquqlarni tiklashga oid xalqaro huquqiy normalar va mexanizmlarni shakllantirish orqali amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan ham, bugungi kunda shakllanib bo'lgan inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlari yanada takomillashib bormoqda. Huquqning alohida sohasi sifatida shakllanib bo'lgan inson huquqlarining o'zi ham bugungi kunda yanada ixtisoslashib bormoqda. Uning ixtisoslashuvi, alohida xalqaro huquqiy himoyaga muhtoj subyektlarning o'ziga xos himoya tizimi shakllanib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, inson huquqlari sohasida "Ayollar huquqlari", "Nogironlar huquqlari", "Mahkumlar huquqlari", "Bemorlar huquqlari" kabi alohida kategoriyadagi shaxslar huquqlari shakllanmoqda. Bunday alohida kategoriyadagi huquqli individlar, o'zining jismoniy va ijtimoiy ahvolidan kelib chiqqan holda, alohida e'tibor talab etishi tufayli jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida rivojlana olishi, o'z va manfaatlarini

himoya qila olishi, jamiyatning barcha farovonligi va imkoniyatlaridan teng darajada foydalana olishi uchun barcha insonlarga tegishli bo'lgan huquqlar bilan bir qatorda, alohida huquqlar, imtiyozlar hamda kafolatlardan foydalanishadi. Bunday huquqlar, imtiyozlar va kafolatlar davlat tomonidan, shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham taqdim etiladi. Shu nuqtayi nazardan ham, jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bolalarga taqdim etilayotgan alohida huquqlar, imtiyozlar va kafolatlarni qamrab oluvchi xalqaro va milliy huquqiy asos va mexanizmlarni o'z ichiga qamrab olgan – "Bola huquqlari" degan inson huquqlarining alohida sohasi shakllandi. Bola huquqlari o'zining alohida xalqaro va milliy me'yoriy bazasi va himoya mexanizmi bilan ham boshqa ayrim kategoriyadagi inson huquqlaridan farq qiladi.

Bola, agar jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilgunga qadar va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bo'ladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra, "18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha, agar u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi".

Bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va atrof-muhit uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari, sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolotga yetishi uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi, jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, huquq va erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim.

Har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamchiliklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy-etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-bir holatlardan qat'i nazar, hurmat qilinishi va huquqlari ta'minlanishi kerak.

Bularning amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga e'tibor berilishi lozim.

Ma'lumki, huquqiy hujjatlar asosida har bir bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan aytilish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek, iloji boricha o'z ota-onasini bilish va ular g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlariga egadir.

Shuningdek, bola o'zining fikrini erkin ifodalash, vijdon va din erkinligi, bilim olish, dam olish hamda ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola, alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga haqli hisoblanadi.

Hozirgi zamonning dolzarb muomalalaridan biri – bola huquqlari va erkinliklarining har tomonlama ta'minlanishi va himoyalaniishini amalda qonunlar asosida bajarilishini ta'minlashdir.

Yuvenal adliya tushunchasi. *Yuvenal yustitsiya (Juvenile Justice)* – bolalar huquqbuzarligi, bolalar sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin jinoyat turlari va sud, huquqbuzar bolalar uchun mo'ljallangan muassasalar tomonidan bolalarga qilinadigan muomala usullari va huquqbuzarlikning oldini olish yo'llari kabi mavzular qamrab olinadigan keng tushunchadir¹.

Yuvenal yustitsiya masalalariga oid har qanday yondashuv zamidida quyidagi tamoyillar yotadi:

- aybsizlik prezumpsiyasi;
- voyaga yetmagan shaxs qo'lga olingan zahotiyoq uning ota-onalarining hozir bo'lish huquqini ta'minlash maqsadida ota-ona yoki vasiyni zudlik bilan xabardor qilish;
- imkoni bo'lsa, sud jarayoni boshlanmasdan turib ularni ushlab turishdan saqlanish va bunday ushlab turish eng qisqa muddatlardagina amalga oshirilishini ta'minlash;
- inson salomatligi va qadr-qimmatining ta'minlanishi uchun barcha talablarga javob beradigan muassasalar barpo etilishi va ham davolash, ham oldini olishga mo'ljallangan yetarli, lozim darajadagi tibbiy xizmatning ko'rsatilishi;
- tegishli voyaga yetmagan shaxsning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan jismoniy jazolash usullaridan iborat qattiq, shafqatsiz, g'ayriinsoniy va inson qadr-qimmatini oyoqosti qiladigan barcha tarbiyaviy usullarning taqiqlanishi;
- yaqinlar bilan uchrashish, shaxsiy daxlsizlik, tashqi dunyo bilan aloqa va kundalik yumushlarni bajarish uchun yetarlicha vaqtga ega bo'lish kabi huquqlar, odil va insoniy muomalaga bo'lgan huquqlar;

¹ Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. – B. 163.

- ozodlikdan mahrum qilish muassasasidan tashqarida malakali o'qituvchilar tomonidan ta'lim berilishi bolalarning ehtiyojlariga mos bo'lishi va ularni jamiyatga qaytishga tayyorlashi;

- bolalarning katta yoshdagi mahbuslardan alohida saqlanishini ta'minlash, ular bolaning oila a'zosi hisoblangan hollar, bundan mustasno.

Yuvenal yustitsiya masalalariga doir maqsadga muvofiq yondashuvning mavjudligi, birinchi navbatda, bolalarning qonun bilan ziddiyatga boshlashining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi. Bu hukumatdan tortib to jamoalar va oilalargacha barcha darajalarda amal qilinishi lozim bo'lgan majburiyatdir¹.

Jahon parlamentlarining tashkiloti hisoblangan Parlamentlararo Ittifoq turli mamlakatlar parlamentlariga yuvenal yustitsiyaga aloqador qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ilgari surgan. Ushbu takliflarda quyidagilar ta'minlanishi maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan:

- balog'atga yetmagan bolalarning jinoyat sifatida baholanmaydigan harakatlari (harakatsizligi) uchun ularga jinoyatchidek muomala qilinmasligi;

- jinoyat sodir etishda ayblanayotgan balog'atga yetmagan bolalar sud jarayoniga taalluqli Bola huquqlari to'g'risida konvensiyaning 40-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan barcha kafolatlardan foydalana olishga qodir bo'lishi;

- jinoyat sodir etishda ayblanayotgan balog'atga yetmagan bolalarning huquqiy yordam olishga bo'lgan huquqlari;

- ishni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida maxfiylikning huquqiy tan olinishi.

Yuvenal yustitsiyaga dahldor qonun hujjatlari, lozim topilganda, Bola huquqlari qo'mitasining quyidagi takliflariga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida qayta ko'rib chiqilishi zarur:

- balog'atga yetmagan bolalarni jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha minimal yosh 15 yosh yoxud shu yoshga imkon qadar yaqinroq qilib belgilanishi lozim;

- jinoiy javobgarlikka tortishning muqobillari tan olinishi va javobgarlikka tortishga daxldor tegishli standartlar qonunchilikka kiritilishi lozim;

- jinoyat sodir etishda ayblanayotgan 18 yoshga to'lmagan barcha shaxslarga balog'atga yetmaganlardek muomala qilish zarur.

¹ Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. – B. 167–168.

Balog'atga yetmagan bolalarning ushlab turilishiga tegishli qonun hujjatlarida quyidagilar ta'minlanishi maqsadida qayta ko'rib chiqilishi shart:

- milliy qonunchilikning tegishli qoidalariga "oxirgi zarurat" tamoyilining inkorporatsiya qilinishi;

- ota-ona yoki vasiyni xabardor qilish majburiyatining tan olinishi;

- balog'atga yetmagan shaxslarning eng yaxshi manfaatlarini amalga oshirilgan taqdirda uning katta yoshdagilar bilan birga saqlanishiga yo'l qo'yish yoxud, aksincha, uning eng yaxshi manfaatlaridan kelib chiqib, ularning katta yoshdagilar bilan birgalikda saqlanishini taqiqlash.

Jinoyat sodir etishda ayblangan o'smirlarni hukm qilishga doir qonun hujjatlarida quyidagilar ta'minlanishi uchun ish qayta ko'rib chiqilishi lozim:

- "oxirgi zarurat" va "imkon qadar eng qisqa muddatlarga" tamoyillarining oshkora tan olinishi;

- o'lim jazosining qo'llanilmasligi yoxud jismoniy jazolash usullaridan foydalanilishiga yo'l qo'yilmasligi¹.

Yuvenal yustitsiyaga oid xalqaro huquqiy hujjatlar va ularning mazmuni to'g'risida quyida yanada batafsilroq to'xtalib o'tiladi.

2. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik

Yurtboshimiz I.A. Karimovning "Bizning kelajagimiz, eng asosiy ishonchimiz, madad-tayanchimiz – bu o'sib kelayotgan yosh avlodidir. Men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'raman", degan so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Bola huquqlariga oid milliy qonunchilik deganda, avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-, 65-moddalariga e'tibor qaratish lozimdir. Jumladan, 64-moddada, "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi" deb ko'rsatib o'tilgan. 65-moddada esa, "Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada ko'rsatilgan onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi O'zbekiston

¹ Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. – B. 175–176.

Respublikasining bir qator qonunlari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi "Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi va 1994-yil 23-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida"gi va boshqa farmonlar mamlakatimizda va bolalikni muhofaza qilish, bolalarning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kamol topishi uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Bolalarning to'la sog'lom rivojlanishi uchun, birinchi o'rinda, yosh bolali ayollarning huquqlari ham ta'minlab berilishi kerak. Jumladan, mehnat qonunchiligiga ko'ra, homilador ayollarni, bolasi uch yoshga yetmagan ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga, ish vaqtidan tashqari ishlashga, dam olish kunlarida ishlatishga va xizmat safarlariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Homilador ayollarni yengilroq ishga ko'chirish. Bu imtiyoz homilador ayolning va kutilayotgan go'dakning salomatligini himoya qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, onasiz qolgan bolalarni tarbiyalovchi shaxslarga imtiyozlar va kafolatlar berilishi, ularning sog'lom bo'lib o'sishi, tarbiyalanishi va yaxshi sharoitda yashashining kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunida esa, ayollar mehnat sharoitidagi alohida imtiyoz va kafolatlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonunining V bo'limi "Onalik va bolalikni muhofaza qilish" deb nomlanib, unda onalikni rag'batlantirish, onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash kafolatlari, homilador ayollarga va yangi tug'ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash to'g'risidagi g'amxo'rlik, bola boqishda fuqarolarga davlat yordami, bola kasal bo'lib qolganida onalarga beriladigan imtiyozlar (61-modda), o'smirlarning mehnat va ishlab chiqarish ta'limini hamda mehnat sharoitlarini nazorat qilish (62-modda), o'smirlarni majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish (63-modda) kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Bola huquqlariga oid maxsus qonunchilik to'g'risida gapirilganda quyidagi hujjatlarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining 1991-yildagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi; 2008-yildagi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston qo'shilgan "Bola huquqlari konvensiyasi"ning milliy qonunchilikka to'liq implementatsiyasi hisoblanadi. Mazkur qonunda sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va

har tomonlama rivojlantirish sohalarida bola huquqlarining kafolatlari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qonunda ijtimoiy zaif bolalar va alohida ehtiyojlarga muhtoj bolalarning huquqlari alohida e'tibor qaratilgan.

Bola huquqlarining tizimli ta'minlab berilishi ham qonunchilik darajasida, ham institutsional darajada amalga oshirilmoqda. Tizimli yondashuv ham davlat organlari va muassasalari, ham nodavlat tashkilotlari va jamg'armalar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olgan milliy dasturlarni qabul qilish va amalga oshirishdan iboratdir. Bola huquqlarini ta'minlab berish bo'yicha nodavlat tashkilotlarining o'sishi va faollashuvi kuzatilmoqda. Bola huquqlarini ta'minlab berish va himoya qilishning turli sohalarida bo'yicha ixtisoslashgan umummilliy darajadagi nodavlat tashkilotlarining tarmog'i ishlab turibdi, ularga quyidagilar kiradi: "Kamolot" – yoshlar tashabbuslarini, yoshlarning siyosiy va liderlik faolligini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston yoshlari harakati, "Sen yolg'iz emassan" yetim bolalar, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalar, nogiron bolalar, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalarni qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma, O'zbekiston Bolalar jamg'armasi – bolalarning bevosita ishtiroki bilan ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi jamg'arma (Bolalar parlamenti), "Sog'lom avlod uchun" – tibbiy, ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha jamg'arma, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi" – qobiliyatli bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bo'yicha jamg'arma.

Bolalarning malakaviy tibbiy ko'rikka bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning muayyan mexanizmi "Fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qonunga ko'ra, davlat sog'liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanish va bolalar sog'lig'ini tiklash uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Respublika reproduktiv salomatlik markazi va O'smirlar reproduktiv salomatligi markazi va ularning viloyatlardagi filiallari faoliyat ko'rsatib turibdi. Har yili barcha bolalarni tibbiy dispanserizatsiyalash amalga oshirilmoqda. 90-yillardan buyon go'daklar o'limining darajasi kamayishi kuzatilmoqda.

3. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar

Bolalar saodati va ularning huquqlari doimo xalqaro hamjamiyatning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. 1924-yildayoq Millatlar ligasi tomonidan Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan edi. Shu davrda bolalar huquqlari asosan qullik, bolalar mehnati, bolalar bilan savdo qilish va voyaga yetmaganlarning pornografiyasiga qarshi choralar ko'rish bilan cheklangan.

Bola huquqlariga oid universal normalar:

BMTning universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalari va konvensiyalari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari.

Ularda bayon etilgan huquqlar barcha insonlar kabi bolalarga ham taalluqlidir. Deklaratsiya va paktlarda bola huquqlari va manfaatlariga bevosita taalluqli bo'lgan quyidagi qoidalar shakllantirilgan: bolalarning tengligi tamoyili, onalik va bolalikni himoya qilish to'g'risida, bolalarni ekspluatatsiya qilish to'g'risida, bolalarning ta'lim olish huquqi. Deklaratsiya va paktlarda bolalarning tengligi tamoyili e'lon qilingan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktida har bir bola irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli yoki tug'ilishidan qat'i nazar, hech bir kamsitilishsiz uning oila, jamiyat va davlat tomonidan balog'atga yetmagan shaxs sifatidagi himoya qilinishiga bo'lgan huquqi mustahkamlab qo'yilgan (24-moddaning 1-bandi). Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 10-moddasining 3-bandida barcha bolalar va o'smirlarga hech bir kamsitishsiz, oilaviy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar, alohida himoya choralari va yordam ko'rsatilishi shart. Unga ko'ra, bolalar va o'smirlar iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoyalangan bo'lishi kerak, ularning mehnatini axloqi va salomatligi uchun zararli bo'lgan yoki hayot uchun xavfli sohalarda yoki ularning normal o'sishi uchun zarar keltirishi mumkin bo'lgan sohalarda qo'llash qonun bilan jazolanishi, bundan tashqari, davlat tomonidan belgilab qo'yilgan yoshdan quyi yoshdagi bolalarning mehnatidan foydalanish taqiqlanishi va jazolanishi kerak.

BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjatlari: UNESCO hujjatlari: 1960-yildagi Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, XMT hujjatlari: 1973-yilda qabul qilingan va 1976-yilda kuchga kirgan Ishga qabul qilishning eng kichik yoshi to'g'risidagi 138-sonli konvensiya, 1999-yilda qabul qilingan va 2000-yilda kuchga kirgan Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularni tugatish bo'yicha tezlik bilan chora-tadbirlar ko'rish to'g'risidagi 182-sonli konvensiya, Mehnat sohasida asosiy tamoyillar hamda huquqlar va ularni amalga oshirish mexanizmi to'g'risidagi XMTning 1998-yil 19-iyundagi deklaratsiyasi. Shuningdek, 1946-yilda qabul qilingan 77- va 78-sonli konvensiyalar bolalar va o'smirlarning sanoatdagi va sanoat bilan bog'liq bo'lmagan korxonalarda ishlashga yaroqli ekanligini aniqlash uchun ularni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishni nazarda tutadi. Ularda, agar bola 18 yoshdan kichik bo'lsa va ular tibbiy ko'rik natijasida ishlatilishi lozim

bo'lgan sohalarda ishlashi uchun ishga yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, bunday bolalar ishga qabul qilinmaydi. 79- va 90-sonli konvensiyalar bolalar va o'smirlarning tungi mehnatini va sanoatdagi sanoat bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni cheklashga qaratilgan.

Bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar. Masalan, qurolli mojarolar davrida bolalarni himoya qilishga qaratilgan hujjatlar, urush paytida aholini himoya qilishga qaratilgan 1949-yildagi IV – Jeneva konvensiyasi va Jeneva konvensiyalariga 1977-yildagi I-II Qo'shimcha protokollarda bolalarga harbiy harakatlar oqibatlaridan maxsus himoya taqdim etishni ko'zda tutadi. 1974-yildagi Favqulodda holatlar va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiyada davlatlarga bolalarga alohida himoya taqdim etish tavsiya qilinadi.

Muayyan huquqiy munosabatlar sohasini (jinoyat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi) qamrab oluvchi universal hujjatlar: Xalqaro farzandlikka olish sohasida bolalarni himoya qilishga oid 33-sonli Gaaga konvensiyasi; “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida”gi BMT konvensiyasiga “Insonlar, xususan, ayollar, bolalar traffigining oldini olish, taqiqlash va jazolashga doir Palermo protokoli, 2000-yilda qabul qilingan va 2003-yilda kuchga kirgan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiyaga oid hujjatlar: 1985-yil 29-noyabrda qabul qilingan Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”), 1990-yil 1-dekabrda qabul qilingan Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy tamoyillari (“Ar-Riyod dasturiy tamoyillari”); 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Ozodlikdan mahrum etilgan balog'atga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalar; 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga doir minimal standart qoidalari (“Tokio qoidalari”).

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1985-yil 29-noyabrda 40/33-qaror asosida “Birlashgan Millatlar Tashkilotining balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari” qabul qilingan.

Minimal standart qoidalarida ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardir:

- ishtirokchi-davlatlar, o'z umumiy manfaatlariga muvofiq holda, balog'atga yetmagan o'g'il yoki qiz bola va uning oilasi farovonligiga ko'maklashish uchun intilishi zarur.

- a'zo-davlatlar o'smirning jamiyatda mazmunli hayot kechirishini ta'minlash imkonini beruvchi tegishli shart-sharoit yaratishga intilishi kerakki, hayotining ayni shu davrida nojoiz xulqqa ko'proq moyilligi bo'lgan o'g'il yoki qiz bolaning imkon qadar jinoyat va huquqbuzarlikni sodir etish ehtimolidan xoli shaxs sifatida kamolga yetishi va ta'lim olishi bilan bog'liq jarayonda bunday sa'y-harakatlarni amalga oshirish.

- imkon qadar mavjud barcha zaxiralarni, shu jumladan, oila, ko'n-gillilar va jamiyatning boshqa guruhlarini, shuningdek maktablar va shu kabi bir qator ijtimoiy institutlarni to'la jalb etgan holda o'smirning farovonligiga ko'maklashish va shu bilan uning hayotiga qonun tomonidan aralashuv zaruriyatini kamaytirish, qonun bilan ziddiyatda bo'lgan o'smirlarga samarali, adolatli va insoniy muomala qilinishini ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutuvchi maqbul choralarni qo'llashga yetarlicha e'tibor qaratish lozim bo'ladi;

- balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan sudlov harakatlari barcha balog'atga yetmagan bolalar uchun har tomonlama ijtimoiy adolatni ta'minlash va ayni chog'da, shu yo'l bilan yoshlarni himoyalash hamda jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlab turish doirasida har bir mamla-katda milliy taraqqiyot jarayonining uzviy qismiga aylanishi zarur;

- mazkur qoidalar har bir a'zo-davlatning mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Balog'atga yetmaganlarga nisbatan odil sudlov harakatlari bilan shu-g'ullanuvchi xizmatlar xodimlarining malakasini, shu jumladan ularning uslub, yondashuv va tajribasini oshirish va tegishli darajada saqlab turish maqsadida ana shu xizmatlarni muntazam ravishda rivojlantirib va muvo-fiqlashtirib borish zarur bo'ladi.

Minimal standart qoidalarida balog'atga yetmagan bolalar huquqlari-ni asosiy protsessual kafolatlari, xususan, aybsizlik prezumpsiyasi, ayb qo'yilganlik haqida xabardor etilish huquqi, guvohlik berishdan bosh tortish huquqi, advokat olish huquqi, ota-ona yoki vasiyning hozir bo'lishi huquqi, guvohlar bilan yuzlashish va ularning ikki yoqlama tergovida bo'lish huqu-qi va yuqori instansiyaga apellatsiya berish huquqi sudlov harakatlarining barcha bosqichlarida kafolatlangan bo'lishi zarur, deb qayd etilgandir.

Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 1-dekabrda 45/112-qarori bilan qabul qilingan va e'lon etilgan "Balog'atga yetmagan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan dasturiy tamoyillari" ham mavjud.

Mazkur hujjatda asosiy tamoyillar hamda dasturiy tamoyillarning qo'llanish doirasi jinoyatchilikning oldini olishning umumiy yo'nalishlari,

jamiyat hayotiga tayyorlash jarayonlari, ijtimoiy siyosat, qonunchilik va balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritish, tadqiqotlar, siyosatni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Voyaga yetmaganlar muammolarining ayrim holatlariga tegishli 1990-yil 1-dekabrda 45/112-sonli rezolyusiya bilan qabul qilingan huquqiy hujjat BMTning "Balog'atga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan asosiy tamoyillari" mavjud. U "Ar-Riyod rahbariy tamoyillari" nomi bilan ham mashhur bo'lib, mazkur qoidalarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishning eng muhim shartlaridan biridir. Qonuniy, ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etib va jamiyat hamda hayotga nisbatan insonparvar qarashlarni hosil qilgan holda, yoshlar jinoiy faoliyatga yo'l qo'ymaydigan tamoyillar asosida tarbiyalanishi mumkin.

2. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish samarali bo'lishi uchun o'smirlarning komil inson bo'lib yetishishlari, ularning shaxsiga hurmat va bolalikdan boshlab ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida butun jamiyatning sa'y-harakatlari zarur bo'ladi.

3. Mazkur rahbariy tamoyillarni sharhlash maqsadini ko'zlab, bolalar ehtiyojlariga e'tibor qaratilishi kerak. Yoshlar jamiyatda faol ishtirok etishlari va uning to'laqonli ishtirokchilari bo'lishlari lozim. Va aksincha, jamiyat hayotiga tayyorgarlik ko'ruvchi yoki nazorat obyekti sifatida qaralmasligi kerak.

4. Ushbu rahbariy tamoyillarni amalga oshirishni ko'zlab, milliy huquqiy tizimlarga muvofiq ravishda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan har qanday dasturning diqqat markazi yoshlarning erta bolalikdan boshlab farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

5. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan rivojlanib boruvchi siyosatni amalga oshirish va doimiy tarzda tahlil etib borish hamda izchillik bilan ushbu yo'nalishda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim va zarurligini e'tirof etish kerak. Shu bilan birga, bolani o'z-o'ziga yoki boshqalarga jiddiy ziyon yetkazmaydigan xatti-harakati uchun jazolashdan qochish kerak. Bunday siyosat va chora-tadbirlar quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- imkoniyatlar yaratish, xususan, ta'lim olish sohasida imkoniyatlar yaratish, yoshlarning turli ehtiyojlarini qondirish hamda barcha yoshlarning shaxsini kamol toptirishda va, ayniqsa, xavf ostida turuvchi yoki ijtimoiy xavfli holatga kelib qolgan hamda alohida e'tibor va himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

- jinoyatchilikning kelib chiqishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarning oldini olishga qaratilgan qonunlarni, jarayonlarni, muassasalarni, vosita va xizmat tizimlarini qo'llashga asoslangan voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan maxsus nazariyalar va ushbu masalaga yondashuvlarni ishlab chiqish;

- birinchi navbatda voyaga yetmaganing umumiy manfaatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy adolatga asoslanib va xolis tarzda rasmiy organlarning aralashuvi;

- barcha yoshlarning baxt-saodati, rivojlanishi va manfaatlarini ta'minlash;

- yoshlarning umumiy ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga mos kelmaydigan xatti-harakatlari ko'pincha voyaga yetish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, odatda, ular katta bo'lgani sari o'z-o'zini anglab borishini inobatga olish;

- ko'pchilik ekspertlarning fikricha, voyaga yetmagan shaxsga "buzg'unchi", "huquqbuzar" yoki "yosh jinoyatchi" tamg'asini bosish ularda nomaqbul xatti-harakatlarning rivoj topishiga asos bo'ladi.

6. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish uchun, ayniqsa, hali hech qanday muassasalar tashkil etilmagan hududlarda jamoaviy xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish lozim. Ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi rasmiy muassasalar xizmatidan faqatgina so'nggi chora sifatida foydalanilishi kerak.

Bu kategoriyadagi hujjatlar yuvenal yustitsiya sohasidagi xalqaro standartlarning asosi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni yuvenal yustitsiya sohasidagi xalqaro standartlar – balog'atga yetmagan bola to'g'risida, u sodir etgan huquqbuzarliklar to'g'risida, uning jinoiy va boshqa xil yuridik javobgarligi, davlatning bunday huquqbuzarlikka nisbatan jazolash yoki shu kabi majburiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash ko'rinishidagi munosabati va nihoyat, jinoiy yustitsiya ta'sir doirasiga tushib qolgan balog'atga yetmagan bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilish konsepsiyasining asosiy me'yorlari to'g'risidagi yuridik doktrinaning asosiy qoidalarini tashkil etadi.

Bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiyalar va konvensiyalar: 1924-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi Jeneva deklaratsiyasi, 1959-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya, 1989-yildagi Bola huquqlari konvensiyasi va ushbu konvensiyaga 2002-yildagi ikkita: Qurolli mojarolarda ishtirok etuvchi bolalar to'g'risidagi Qo'shimcha protokol va Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli Qo'shimcha protokol.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlari bo'yicha asosiy hujjat hisoblanadi hamda uni bola huquqlariga oid o'ziga xos kodifikatsiyalash desa ham bo'ladi. Konvensiya 54 moddani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni 4 ta kategoriyadagi huquqlarga bo'lish mumkin: *a) yashay olish huquqi*: bola talablarini qondirish va hayotiy huquqlarini o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli me'yorlarni o'z ichiga oladi; *b) rivojlana olish huquqi*: bolalar o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari zarur. Masalan, bilim olish, o'yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlar; *d) bolalar zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan himoyalangan bo'lishlari shart*. Bu borada quyidagi muammolarga, ya'ni: qochoq bolalar masalasidagi muammolarga, sudlovni amalga oshirish tizimidagi zo'ravonliklarga va qiynoqlarga, bolalarni qurolli mojarolarga jalb etish muammolariga, bolalar mehnatiga, balog'at yoshiga yetmaganlarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammolariga alohida e'tibor berilgan bo'lishi kerak; *e) ishtirok etish huquqi*: bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu kategoriya bolalarning hayotga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshumul yig'ilishlarda va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarini belgilaydi. Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun barcha paydo bo'lib boruvchi imkoniyatlarning hammasiga ega bo'lib borishlari hamda hayotiy muhim yechimlarning mas'uliyatini his qilgan holda ularni o'z zimmlariga olishga tayyor bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari, Konvensiyada ishtirokchi-davlatlar tomonidan bola huquqlarining himoyalaniishi va kafolatlanishining ta'minlanishi borasida sharoit va imkoniyat yaratilishi uchun ular zimmasiga majburiyatlar belgilangandir. Masalan, uning 29-moddasida:

1. Ishtirokchi-davlatlar bolaga ta'lim berish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozimligiga rozilik bildiradilar:

a) bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishi;

b) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, BMT Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga hurmatni tarbiyalash;

d) bolada ota-onasiga, uning madaniy o'ziga xosligi, tili va qadriyatlariga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning milliy qadriyatlariga, o'zinikidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

e) bolani erkin jamiyatda, tinchlik, sabr-toqatli bo'lish, erkaklar bilan ayollarning tinchligi hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida tarbiyalash;

f) atrof-tabiatega hurmat ruhida tarbiyalash.

2. Ushbu moddaning yoki 28-moddaning hech qaysi bandi alohida shaxslar va organlarning o'quv yurtlarini ochish hamda ularga ushbu moddaning 1-bandida bayon etilgan tamoyillarga rioya qilgan holda rahbarlikni amalga oshirish hamda bunday o'quv yurtlarida beriladigan ta'lim davlat tomonidan o'rnatilgan minimal me'yorlarga javob berishi kerak, degan talabning bajarilishidagi erkinligini cheklash sifatida talqin qilinmaydi.

Mazkur Konvensiyada bayon qilingan huquqlarning amalga oshirishini kafolatlash va ko'maklashish maqsadida ishtirokchi-davlatlar ota-ona va qonuniy vasiylarga bola tarbiyasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishlariga tegishli yordam ko'rsatadilar hamda bolalar muassasalari tarmog'ining rivojlanishini ta'minlash va bu borada zarur chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi ishtirokchi-davlatlarga yuklatiladi.

Ushbu konvensiya ijodkorlari bola huquqlari bo'yicha o'z konsepsiyalarini liberal, paternalizm nazariyasi asosida ishlab chiqishgan. Mazkur konsepsiya g'oyalari tufayli, bolalar jamiyatning to'la huquqli a'zosi deb e'tirof etilgan. Bu konsepsiya bilan bola ota-onaga yoki ularning o'rmini bosuvchi boshqa shaxslarga tegishliligi to'g'risida yuz yillar davomida mavjud bo'lib kelgan qoidaga chek qo'yilgan. Hozirgi kunga kelib esa, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya eng universal hujjatlardan biri bo'lib, Somali va AQShdan tashqari 191 davlat uning ishtirokchisidir. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yilda qo'shilgan, 2008-yili esa, uning 2002-yilda qabul qilingan ikkita qo'shimcha protokoliga: Qurolli mojarolarda ishtirok etuvchi bolalar to'g'risidagi Qo'shimcha protokol va Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va pornografiyasiga taalluqli Qo'shimcha protokolga qo'shildi. 2013-yilgacha mazkur Konvensiya normalarini bajarishi bo'yicha O'zbekiston BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga o'zining uchinchi va to'rtinchi Milliy ma'ruzasini va qo'shimcha protokollar bo'yicha esa, birinchi Milliy ma'ruzasini taqdim etgan.

Bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hujjatlar:

Yevropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar: Bolalarga homiylik qilish va ularga homiylik qilishni tiklash borasidagi qarorni tan olish va ularni bajarish to'g'risidagi 1980-yilgi Yevropa konvensiyasi, Bolalar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha Yevropa konvensiyasi, 1996-yilda qabul qilingan va 2000-yilda kuchga kirgan.

Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar: Bola huquqlari va baxt-saodati to'g'risida Afrika konvensiyasi 1991-yilda qabul qilingan va 1999-yilda kuchga kirgan; Afrika yoshlari xartiyasi 2006-yilda qabul qilingan, 2009-yilda kuchga kirgan.

Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar: Balog'atga yetmagan bolalar xalqaro traffigi bo'yicha Amerika davlatlari konvensiyasi, 1994-yilda qabul qilingan, 1997-yilda kuchga kirgan; Qaytib kelgan bolalar to'g'risidagi Amerika davlatlari konvensiyasi, 1989-yilda qabul qilingan va 1994-yilda kuchga kirgan, Balog'at yoshini o'rnatish bo'yicha qonunlar kolliziyasi bo'yicha Amerika davlatlari konvensiyasi, 1984-yilda qabul qilingan va 1988-yilda kuchga kirgan. Amerika qit'asiga tegishli xalqaro hujjatlarning o'ziga xosligi, ularning ko'proq muayyan huquqiy munosabatlar sohasini tartibga solishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Bola huquqlarini himoya qilishga oid mintaqaviy hujjatlar xususida fikr yuritilganda, yuqoridagi manzaradan ko'rish mumkinki, hozirgacha mavjud hujjatlar asosan Yevropa, Amerika va Afrika qit'alarigagina taalluqli, xolos. Afsuski, bolalar huquqlarini ta'minlash murakkab va muammoli bo'lgan Osiyo mintaqasiga oid bunday hujjat xali ishlab chiqilmagan. Bu esa, mazkur mintaqada inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmning yo'qligi va bu sohada davlatlararo mintaqaviy hamkorlik juda ham sust ekanligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlarning tasnifi shuni ko'rsatmoqdaki, birinchidan, ular bola huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, bola huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy baza, ham universal miqyosda, ham mintaqaviy miqyosda rivojlanib borayotganligini, ammo bu rivojlanish barcha mintaqalarda ham bir xil ketmayotganligi to'g'risidagi manzarani ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turli mintaqalardagi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy tuzumidagi farqlar, ularning diniy va madaniy xilma-xilligi kabi omillar bu sohadagi davlatlarning mintaqaviy integratsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar ekanligini tushunishga yordam beradi.

4. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmlar

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy mexanizmlar. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor islohotlari izchil amalga oshirilishi, "Oila yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Sihat-salomatlik yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" singari ko'lamli davlat ijtimoiy

dasturlari amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda bolalarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilish hamda ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan¹.

Bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning keng institutsional mexanizmi shakllangan. Ushbu mexanizmni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, shuningdek, viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijroiya hokimiyatiga qarashli boshqa davlat tuzilmalari, shuningdek, hokimiyatlar, sud, prokuratura organlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi davlat organlari, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlari tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha maxsus komissiyalar. Jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligida, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalariga muvofiq keluvchi voyaga yetmaganlarga oid odil sudlovni amalga oshirishning batafsil qoidalari o'z aksini topgan. Bolalarni nazoratsiz qoldirish, qarovsizlikni bartaraf etish maqsadida, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2000-yildan buyon voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentabrdagi 360-sonli "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi qarori ushbu komissiyalarning ma'suliyatini yanada mustahkamladi va ijtimoiy og'ir ahvoldagi oilalar bilan profilaktika ishlarini olib borishni yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, tuman va shahar hokimiyatlari huzurida 246 dan ortiq bunday maxsus komissiyalar tashkil etilgan. Ushbu komissiyalar xalq ta'limi, o'rta va o'rta-maxsus ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, prokuratura, ichki ishlar, mehnat organlari, ayollar qo'mitasi, kasaba uyushmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mudofaaga ko'mak jamiyatlari, mehnat jamoalari, madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalarning vakillaridan tashkil etiladi.

Komissiyalarning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- voyaga yetmaganlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash, voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishi, ular

¹ Mingyillik taraqqiyot maqsadlari – amalda /Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 3-son, 2010. – B. 3.

tomonidan huquqbuzarlik va jamoatga noloyiq bo'lgan harakatlarning sodir etilishiga olib keluvchi sabablarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishi va huquqbuzarligi bo'yicha profilaktika, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha davlat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

- voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishi va huquqbuzarliklarini profilaktika qilish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash va boshqa masalalar.

Komissiyalar o'z vazifalarini amalga oshirishida quyida keltirilgan keng huquqlarga egadir:

- komissiya ishi uchun davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

- komissiya majlislarida bolalar va o'smirlarning tarbiyasi va yashash sharoitlariga tegishli masalalar bo'yicha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining xabarlarini eshitish;

- voyaga yetmaganlar, ota-onalar bilan shaxsan qabul o'tkazish, ularning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish, ularning shaxsiy ishlari bilan tanishib chiqish va boshqa shu kabilar.

Komissiyalar o'z vakolatlaridan kelib chiqib, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qarorlarni qabul qiladi.

Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlar.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo'lib o'tgan. Qo'mita o'n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag'batlantirish uchun kurashayotgan, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlash vazifasi topshirilgan¹.

Qo'mita jahon bolalarining tinchligi va farovonligiga tahdid soluvchi omillarni aniqlab, muayyan muammolarning amaliy yechimini izlamoda va ularni hal qilish uchun odamlarni va moliya resurslarini safarbar etish choralari ko'rmoqda hamda jamoatchilikning xabardorlik darajasini oshirishga, shuningdek, bola huquqlarini himoya etish va rag'batlantirishdagi ishtirokini kengaytirishga ko'maklashmoqda. Qo'mita ana shu maqsadda mazkur sohada jo'shqin faoliyat olib borayotgan boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

¹ Qarag: Права ребенка. Женева, ООН, 1992.

Qo'mita 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi ma'ruzalarni muntazam ravishda shu Qo'mitaning o'ziga taqdim etadilar. Bu ma'ruzalarning milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta'minlanadi.

BMTning Bolalar fondi (UNICEF). Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropada va Xitoyda bolalarning oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechakka bo'lgan kundalik zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida 1946-yilda BMT Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasida UNICEF ta'sis etilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi mazkur Fond faoliyatining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar bolalarining manfaatlarini ko'zlangan dasturni amalga oshirishdan iborat, deya qaror qabul qildi. Uch yildan keyin BMT Bosh Assambleyasi UNICEFning faoliyatini nomuayyan muddatga uzaytirishga qaror qilgan.

UNICEF insonparvarlik, muruvvat yordami ko'rsatgan holda rivojlanishga hamkorlik qilar ekan, bolalarni himoya etish va ularning barcha qobiliyatlarini o'stirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik doirasini kengaytirishga harakat qilib kelmoqda. Bunday hamkorlik bolalarni kamol toptirish sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda. Ana shu hamkorlik mohiyatan jahondagi har bir bolaga uning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada e'lon qilingan tayanch huquqlari hamda imtiyozlari imkon qadar ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy va Sharqiy Yevropada, shuningdek sobiq Sovet Ittifoqi hududida bolalarning eng zarur talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida UNICEF ba'zi davlatlarga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda. UNICEF bola huquqlarini rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Bola huquqlari qo'mitasi bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, ayni bir vaqtda Konvensiyaning amalga oshirilishini kuzatish hamda Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki bu hujjatga qo'shilgan davlatlarga zimmalaridagi vazifalarini bajarishlarida har tomonlama yordam ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda. UNICEF o'z faoliyatida bolalarning omon qolishini ta'minlash, ularni himoya etish va kamol toptirish to'g'risidagi Umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar rejasiga amal qiladi. Mazkur Deklaratsiya bolalar manfaatlarini ko'zlab 1990-yilning sentabrida Nyu-Yorkda ko'pgina davlatlar va hukumatlarning rahbarlari hamda oliy martabali boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazilgan oliy darajadagi umumjahon uchrashuvida qabul qilingan.

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi – UNICEFning bolalar huquqlari hamda ularning xavfsizligi, salomatligi va ta‘lim masalalarini ilgari surishdagi faoliyatida dasturilamal vazifasini bajaradi.

Bu jarayonda bolalarning o‘zlari faol ishtirok etishlari muhimdir. 2002-yil may oyida bo‘lib o‘tgan BMTning Bolalar masalalari bo‘yicha maxsus sessiyasida bolalarning dunyoqarashlari ifoda etildi. Unda 7000 ish-tirokchidan 600 nafarini bolalar tashkil etgan bo‘lib, bolalar forumini ifoda etish imkoniyatini berdi. Buning natijasida davlat rahbarlari “Bolalarga maqbul dunyo” yaratish majburiyatini oldilar.

“Bolalarga maqbul dunyo” bolalar salomatligi, ta‘limi va himoyasini bolalar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha maqsad-vazifalarni hamda ularni amalga oshirish vaqtini belgilaydi.

UNICEFning O‘zbekistondagi faoliyati bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilashga qaratigan bo‘lib, quyidagi huquqlarni amalga oshirishga yordam beradi:

- yuqori sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, xususan, onalar salomatligi, bolalar o‘limini qisqartirish hamda OITV/OITS to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish huquqi;

- yuqori sifatli va bepul bo‘lgan boshlang‘ich ta‘lim olish hamda yuqori sifatli va imkon qadar bepul bo‘lgan o‘rta ta‘lim olish huquqi;

- bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va hordiq chiqarish huquqi;

- o‘z fikr-mulohazalarini erkin ifoda etish huquqi;

- jinsi, dini yoki irqidan qat‘i nazar, hamma uchun teng imkoniyatga ega bo‘lish huquqi.

Bolalar huquqlariga tayziq o‘tkazish ehtimoli hamma yerda ham bo‘lishi mumkin.

UNICEF o‘zining O‘zbekiston hukumati bilan hamkorlik dasturi doirasida ana shu masalalarga e‘tibor beradi. 2005-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va UNICEF tashkiloti o‘rtasidagi 2005–2009-yillarga mo‘ljallangan Mamlakat Harakat Rejasi dasturi imzolandi. Ushbu Rejada bola huquqlarini kafolatlash va himoya qilishga qaratilgan yagona (umumlashtirilgan) huquqiy hujjat ishlab chiqish va qabul qilish borasidagi Hukumat tomonidan olib borilayotgan sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash, bolalar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq institutsional tizimni yanada takomillashtirish, jumladan, bolalarning oila hayoti muhitiga bo‘lgan huquqlarini keng targ‘ib qilish, bolalarga mo‘ljallangan muassasalarning muqobil ko‘rinishlarini yaratish va ular bilan bog‘liq bir qator masalalarga oid qoidalar o‘z aksini topgandi.

UNICEF ushbu maqsadlarga erishish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Hukumati, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va bevosita bolalarning o'zlari bilan ham yuqorida qayd etib o'tilgan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish borasida hamkorlik qilib kelayotir¹. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, jabrdiyda guvohlar himoyasi, shuningdek, ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyaga topshirishning muqobil ko'rinishlari bo'yicha ko'plab aniq tadbirlar ushbu hamkorlikning muayyan natijalaridandir.

Umuman, bola huquqlari, ularning kafolatlari to'g'risida xulosa qilib aytish mumkinki, aholisining katta qismi yoshlarni tashkil etuvchi mamlakatimiz uchun bola huquqlarini ta'minlash va ularni himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, Prezident I. Karimov ta'kidlaganidek, "Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"².

Takrorlash uchun savollar:

1. *Bola huquqlari tushunchasi nima?*
2. *Yuvenal yustitsiya tushunchasi nima?*
3. *Bola huquqlari O'zbekiston Konstitutsiyasida qanday aks ettirilganligini ko'rsatib bering.*
4. *Bola huquqlariga oid milliy qonunchilik asoslari va maxsus qonunlarni ko'rsatib bering.*
5. *Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalarni ko'rsatib bering.*
6. *BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiyaga oid hujjatlar mohiyatini tushuntirib bering.*
7. *"Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya va uning qo'shimcha protokollarining mazmun-mohiyatini izohlab bering.*
8. *Bola huquqlari sohasidagi mintaqaviy xalqaro hujjatlarni ko'rsatib bering.*

1 Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. – B. 3.

2 Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. –T.: O'zbekiston, 2001. – B. 187.

9. *Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy mexanizmlarning vazifalari va vakolatlari nimalardan iborat?*

10. *Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlarning vakolatlari haqida nimalarni bilasiz?*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Mo'minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. JIDU, 2011.

2. Abdumajidov G'.A., Bakayeva F.H., Tansiqboyeva G.M. Bola huquqlari. / Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Prof. G'. Abdumajidov tahriri ostida. – T.: TDYul nashriyoti, 2008.

3. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/ Международные документы по правам несовершеннолетних. – T.: "Adolat". 2002.

4. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.

5. Права ребенка. Учебное пособие /Абдумаджидов Г., Тансикбаева Г. и др. – Т.: ТДЮИ, 2009.

6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010.

7. Комментарий к Закону Республики Узбекистан "О гарантиях прав ребенка" /А. Саидов и др. – Т.: Vektor-Press, 2009.

8. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar" / Mas'ul muharrir A.X. Saidov – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.

15-mavzu. Fuqarolarning majburiyatlari

1. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining o'zaro bog'liqligi.
2. Yuridik majburiyatlar va ularning ko'rinishlari: faol va passiv yuridik majburiyatlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning burchlari va majburiyatlari.

1. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining o'zaro bog'liqligi

Huquq va majburiyatlarning uzviy bog'liqligi. Inson va fuqaroning huquqiy maqomi faqat huquqlar va erkinliklardangina iborat emas, balki unga majburiyatlar majmui ham kiradi. Shubhasiz, inson huquqlari mo'tabar va muqaddasdir. Biroq, turli-tuman huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lgan inson (fuqaro) faqat huquq va imtiyozlardan foydalanibgina qolmasdan, balki jamiyat, davlat hamda boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlarni ham o'taydi. Demak, bu o'rinda huquqlar haqida gapirilsayu, majburiyatlar esga olinmasa, mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.

Huquq va majburiyatlar birligini nihoyatda aniq ifodalab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni ta'kidlagan edi: *"Demokratik jamiyat qurish uchun, demokratik tamoyillarni to'la qaror toptirish uchun, eng avvalo, shu mo'tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o'zini aynan shu yurt farzandi deb bilguvchi inson o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak. Har qaysi fuqaro, har birimiz: Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?" deb emas, balki "Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?" deb o'ylashimiz va shu aqida bilan yashashimiz kerak"*¹.

Har qanday subyektiv huquqning ro'yobga chiqishi muayyan yuridik majburiyatning ado etilishi bilan bog'liqdir. Fuqaroning huquqiy layoqati va o'zga huquqlar amalga oshishi boshqa shaxslarning bunga monelik qilmaslik majburiyati bilan ta'minlanadi. Masalan, fuqaroning qonunda belgilangan doirada o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lish imkoniyati, o'ziga yoqqan kasbni tanlash va turar joy tanlash huquqi, davlat hokimiyat idoralariga saylash va saylanish huquqi, mehnat qilish huquqi va boshqa huquqlari barcha shaxslar va tashkilotlarning bu huquqlar amalga oshishiga qarshilik ko'rsatmaslik majburiyati bilan ta'minlanadi.

¹ Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: "Sharq", 1993. – B. 272.

Inson majburiyatlari va fuqaroning majburiyatlari masalasida so'ngi bir necha o'n yilliklar davomida olimlar orasida yakdillik yo'q. Ba'zi olimlarning guvohlik berishicha, o'tmishda inson huquqlari haqida baralla va tinimsiz gapirilardi-yu, ammo inson va fuqaro majburiyatlari xususida jimlik hukm surardi. Zero, bunga nazariy jihatdan ham (ya'ni tabiiy ta'limotida), amaliy-yuridik jihatdan ham (o'tmishdagi konstitutsiyalar va qonunchilik hujjatlarida) asos yo'q edi. Masalan, venger akademigi Imre Saboning yozishicha, burjua inqiloblari g'alabasi davrida "huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar haqida gapirish na ahamiyatga, na munozaraga loyiq bo'lmadi". Boz ustiga, olimning fikricha, "tabiiy huquq bo'yicha mavjud adabiyotlarda inson majburiyatlari to'g'risidagi masala hech qachon tilga olinmagan; bunday tushunchani umuman bilishmasdi"¹.

Mazkur fikrga rus professori B.S. Ebzeev raddiya bildiradi. Uning ta'biricha, yuqoridagi nuqtayi nazar huquqiy adabiyotda keng tarqalgan bo'lsa-da, ammo bu holat haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Inson va fuqaroning majburiyatlari g'oyasi nafaqat tabiiy huquq maktabi namoyandalari tomonidan talqin etilgan, balki inson huquqlari bilan bir qatorda qaror topayotgan g'arb demokratiyasining konstitutsiyaviy amaliyotida ham o'z ifodasini topgan².

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar rivojining keyingi bosqichlarida ham inson va fuqaroning majburiyatlari muammosi e'tibordan chetda qolgani yo'q. Biroq endi majburiyatlar sekin-asta huquqlar bilan uzviy bog'lana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va burchlarining uzviy bog'lanishi demokratik asosda hal qilingan. Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng fuqarolar o'z huquq va burchlarini ixtiyoriy, ongli, vijdonan bajarish ruhida tarbiyalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishi jarayonida shaxs manfaatlari birligi fuqarolar demokratik huquqlari va burchlarining o'zaro bog'liqligi yorqin ifodasini topmoqda. Fuqarolarning jamiyat va davlat oldida mas'uliyati, birligi, uyushqoqligi bo'lmasa, haqiqiy demokratik huquqlar va erkinliklar ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar, mamlakat qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda jamiyat axloq va odob normalari, turmush qoidalarini o'z aksini topgan. Qonun tomonidan berilgan yurish-turish qoidalarini bajarish barcha fuqarolar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida fuqarolarning aksariyati o'z burchlarini to'g'ri tushunib, ixtiyoriy ravishda

1 Сабо И. Идеологическая борьба и права человека. – М.: 1981. – С. 128.

2 Эбзеев Б.С. Конституция, демократия, права человека. – М.: 1992. – С. 64.

bajarmoqda. Ularning demokratik huquqlari ularning asosiy burchlariga mos tushadi. Mazkur burchlar ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining qonuniy ifodasini topib, o'zbek davlati faoliyatining muhim qismini tashkil etadi. Ular Konstitutsiyaga to'la rioya qilish, qonunlarni og'ishmay bajarish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, mehnat intizomiga bo'ysunish, jamoat burchiga vijdonan munosabatda bo'lish, jamiyat qoidalariga to'la rioya qilish, davlat, jamoat, shaxsiy mulkni ko'z qorachig'idek saqlash, ko'paytirish, qo'riqlash, harbiy majburiyatni bajarish, Vatanni himoya qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidir", deb uqtiriladi.

Fuqarolarning asosiy huquqlari singari asosiy burchlari ham ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, butun jamiyat manfaatlarini ifodalab, fuqarolarning shaxsiy manfaatiga ham to'la mos keladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy burchlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Ularning birinchisi, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlashga qaratilgan burchlar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya qilish, qonunlarni bajarish, mehnat intizomini saqlash, jamoat burchiga vijdonan qarash, davlat mulki shakllarini saqlash va mustahkamlash, turmush qoidalarini hurmat qilishdan iborat.

Ikkinchisi, Vatan qudratini oshirish va himoya qilish burchi hisoblanib, Vatanni himoya qilish, umumiy harbiy xizmat qonuniga rioya etishdir.

O'zbekiston fuqarolarining asosiy burchlari orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, axloq normalari va turmush qoidalarini hurmat qilish, ularni to'la bajarish birinchi o'rinda turadi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z qonuniy ifodasini topgan. Konstitutsiya davlatning Asosiy qonuni bo'lib, o'zbek xalqining istiqlol yo'lidagi tarixiy g'alabalarini qonuniy aks ettiradi, keng xalq manfaati va erkinligini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga to'la rioya qilish mustaqil davlatning kuch-qudratini oshirishga, gullab-yashnashiga, ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlashga olib keladi.

O'zbek jamiyatining ijtimoiy tartib-qoidalari fuqarolarning mehnatga munosabatlari, oilaviy hayoti, turmushdagi xatti-harakatlari kabi masalalarni tartibga soluvchi qoidalardan iborat.

O'zbekiston fuqarolari o'z burchlari bo'lmish istiqlol turmush qoidalarini ongli ravishda bajaradilar, unga hurmat bilan qaraydilar.

O'zbekiston fuqarolarini qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shaxs huquqlarini muhofaza etish davlat va jamiyat butun siyosiy tizimi-

ning eng muhim vazifalaridan biridir. Ijtimoiy burchni halollik bilan bajarish fuqarolarning qonunlarga og'ishmay rioya etishlarinigina emas, balki har bir kishining jamiyatimiz qonunlari boshqa shaxslar tomonidan buzilmasligi uchun chora-tadbirlar ko'rish burchini ham nazarda tutadi. O'zbekiston fuqarolari boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilishlari, jamiyat manfaatlariga zid xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz bo'lishlari va jamoat tartibini saqlashga butun choralar bilan ko'maklashishlari kerak. Hozirgi yangi ijtimoiy munosabatlar shakllangan bizning jamiyatimizda boshqa shaxslarning jamiyat manfaatlariga zid xatti-harakatlariga va qilayotgan jinoyatlariga nisbatan sust kuzatuvchi bo'lib turish mumkin emas. O'zbekiston qonunlarini buzuvchilarga qarshi kurash jamiyatimizning har bir a'zosi uchun or-nomus va vijdon ishi bo'lgan taqdirdagina katta natijalarga olib kelishini fuqarolar yaxshi biladilar.

Sodir bo'layotgan jinoyatga loqayd qaragan, o'z burchini unutgan, o'z tinchini buzishdan qochib, jinoyatchining yonidan indamay o'tib ketgan kishi qattiq qoralanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash va respublika qonunlarini mustahkamlashda huquq-tartibot organlari, prokuratura va sud tomonidan ko'p ishlar amalga oshirilayotir. Biroq huquq-tartibotni qo'riqlovchi organlarga jamoatchilik yaqindan faol yordam bergandagina, qonunbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash ko'proq samara beradi.

Davlat manfaatlariga zid harakatlarga murosasiz bo'lish, jinoyat sodir bo'lmasligi uchun jamoat tartibini saqlashga butun choralar bilan ko'maklashish har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchidir. Yangi kishini tarbiyalash vazifasini amalga oshirishda oilada bolalarni tarbiyalash markaziy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan iborat burchi fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi ekanligini e'lon qildi. Asosiy qonunimiz fuqarolarning bolalarni tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashlari, jamiyatning munosib a'zolari qilib o'stirishlari lozimligini nazarda tutadi.

Millatlar teng huquqliligi mamlakatimizdagi barcha millatlar va elatlarni har tomonlama rivojlantirish va yaqinlashtirish siyosati bilan fuqarolarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalash bilan ta'minlanadi. Boshqa fuqarolarning milliy qadr-qimmatini hurmat qilish, millatlar va elatlarning do'stligini mustahkamlash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchlaridandir.

O'zbekistonda milliy adovat tuyg'usini uyg'otishga uringan shaxslar qattiq jazolanadi. Irqiy yoki milliy mumtozlik, irqiy yoki milliy adovatni mensimaslikni har qanday targ'ib qilish qonunga muvofiq jazolanadi.

O'zbekistonning jinoyat qonunchiligiga muvofiq, milliy yoki irqiy adovat yoxud nizo qo'zg'atish maqsadida targ'ibot yoki tashviqot yuritish, shuningdek, fuqarolarning millati yoki irqiga qarab ularning huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa yo'llar bilan chegaralab qo'yish yoki imtiyozlar berish – tegishli ravishda ma'muriy va jinoiy jazolar bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi munosabatlarda mustahkam tinchlik, do'stlik va hamkorlik siyosatini izchillik bilan o'tkazib, xalqaro xavfsizlik va keng xalqaro hamkorlik uchun sobitqadamlik bilan kurashib kelmoqda. Uning tashqi siyosati xalqning milliy ozodlik va sotsial taraqqiyot uchun olib borayotgan kurashini qo'llab-quvvatlash hamda turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashashini izchil amalga oshirish uchun qulay xalqaro shart-sharoitlar yaratilishiga qaratilgan. Shu tufayli, O'zbekistonning xalqaro mavqei mustahkamlanmoqda, jahon siyosatiga ko'rsatayotgan ta'siri beqiyos darajada oshmoqda. Boshqa mamlakatlarning xalqlari bilan do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga, yalpi tinchlikni saqlash va mustahkamlashga ko'maklashishni fuqarolarning baynalmilal burchi deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolar tinchligini mustahkamlash, urushga yo'l qo'ymaslikni amalga oshirish birinchi galdagi vazifalardandir. Mamlakatimizda urushni targ'ib qilish qat'iy taqiqlangan. U qanday shaklda olib borilmasin, baribir jinoyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida insoniyat asrlar davomida orzu qilib kelgan demokratiya, erkinlik va burchlar amalga oshmoqda. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu – insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir"¹.

Inson va fuqaroning huquqiy maqomi faqat huquqlar va erkinliklarning iborat emas, balki unga majburiyatlar majmui ham kiradi. Shubhasiz, inson huquqlari mo'tabar va muqaddasdir. Shu tariqa, turli-tuman huquqiy munosabatlar ishtirokchisi bo'lmish inson (fuqaro) faqat huquq va imtiyozlardan foydalanibgina qolmasdan, balki jamiyat, davlat hamda boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlarni ham o'taydi. Binobarin, shu o'rinda huquqlar haqida gapirilsa-yu, majburiyatlar esga olinmasa, mantiqan ham to'g'ri bo'lmaydi.

Yuridik va siyosatshunoslikka oid adabiyotlarda "inson majburiyatlari" va "fuqaroning majburiyatlari" degan iboralar uchraydi.

Masalaning ibtidosiga e'tibor beradigan bo'lsak, shuni aytish lozimki, tabiiy huquq maktabi, u yaratgan konsepsiyada insonning majburiyatlari

1 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – B. 15–16.

haqida umuman gap ko'tarilmagan. Shuningdek, 1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi fransuz deklaratsiyasida ham majburiyatlar haqida hech narsa deyilmagan. Umuman olganda, avval ham, hozirgi vaqtda ham "inson majburiyatlari" degan ibora rasm bo'lmadi. To'g'ri, "Jamiyatda yashovchi insonga ma'lum majburiyatlar yuklanadi" deb gapiriladi, biroq shu chog'gacha rasmiy hujjatlarda bunday majburiyatlar ta'rifi va ko'lami aniq belgilangan emas. Insonning, shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlari ko'proq ma'naviy-axloqiy, umumijtimoiy ma'noga ega. Bu yerda "majburiyat" so'zi o'rniga "burch" iborasini ishlatish to'g'riroqdir.

Shu bois, "ijtimoiy shartnoma" (J. Lokk, J.J. Russo) ta'limoti shakllanib, u asosda inson huquqlari va fuqaro huquqlari g'oyasi tug'ilgan davrda ham insonning boshlang'ich va ajralmas huquqlariga muvofiq insonning "abadiy va ajralmas" majburiyatlarini ko'rsatib berish mumkin bo'lmadi. Ijtimoiy shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlar inson majburiyatlari emas, balki fuqaroning davlat bilan bog'liq majburiyatlari edi. Siyosiy jamiyatda fuqaroning huquqlari bilan majburiyatlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Fuqaroning huquqlari bo'lmasa, uning majburiyatlari haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Hozirgi zamon davlatlarida fuqarolik nisbatan qat'iy qonunlashtirilgan, ularda fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili e'lon qilingan. Mazkur tamoyil asosida shaxsning muayyan davlat bilan fuqarolik munosabatlarida bo'lishi uning qonunlar bilan aniq belgilangan huquqlari va majburiyatlari orqali ifodalanadi. Demak, faqat fuqaroning majburiyatlari to'g'risida gapirish mantiqiy ma'noga ega bo'ladi. Biroq, shu o'rinda, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasidagi bir muhim qoidaga izoh berish lozim. Ushbu moddada: "Har bir inson jamiyat oldida majburiyatlarga ega, zero, uning shaxsi shu jamiyatda to'la va erkin kamol topishi mumkin", deyilgan. Bu qoida asosan ma'naviy mazmunga ega bo'lib, jamiyatdagi boshqa insonlar huquq va erkinligining kafolati sifatida yozilgan¹.

Fuqaroning majburiyatlari yuridik mazmunga ega. Yuridik majburiyatlar uch variantda namoyon bo'ladi: birinchidan, shaxsning faol xatti-harakatlar sodir etish majburiyati; ikkinchidan, shaxsning sust harakatlanish majburiyati; uchinchidan, davlat majburlov chorasiga itoat etish majburiyati, ya'ni yuridik javobgarlikni o'tash majburiyati. Masalan, oldi-sotdi shartnomasini olaylik. Bunda xaridor shartnomada ishtirok etuvchi bir taraf sifatida olingan tovar uchun kelishilgan pulni to'lashga majbur; sotuvchi pulni (chekni) olgach, belgilangan haqi to'langan tovarni xaridorga berishga majbur, ayni vaqtda, u xaridorga nisbatan noo'rin xatti-harakatdan o'zini tiyi-

¹ Общая теория права и государства: Учебник (Под. ред. В.В.Лазарева. – М.: Юрист, 1994. – С. 317.

shi shart (xaridorga qo‘pol muomala qilmaslik, uni haqoratlamaslik, tovarni tanlab olishiga e‘tiroz bildirmaslik va h.k.); mabodo sotuvchi xizmat intizomini buzishga yo‘l qo‘ysa, u intizomiy javobgarlikka tortiladi.

2. Yuridik majburiyatlar va ularning ko‘rinishlari: faol va passiv yuridik majburiyatlar

Majburiyatlarning mohiyatini ko‘rib chiqish davomida ularning tasnifiga to‘xtalib o‘tmaslikning iloji yo‘q. Masalan, V.D. Perevalovning fikriga ko‘ra, majburiyatlar egalari inson va jamiyat bo‘lgan tabiiy majburiyatlarga va egalari fuqaro, davlat va uning organlari bo‘lgan yuridik majburiyatlarga bo‘linadi¹. Bunda, *tabiiy majburiyatlar* deganda, huquqiy rasmiylashmagan majburiyatlar ham, va u yoki bu mamlakatlar qonunchiligida mustahkamlangan majburiyatlar ham tushuniladi².

Yuridik majburiyatni ta‘riflashda zaruriyat mohiyatga oid muhim hisoblanadi. Shu bois, yuridik majburiyat qonun bilan belgilangan muayyan zaruriy xatti-harakatdir.

Yuridik majburiyat – bu, bir tomondan, ijtimoiy zaruriyatning qonun bilan belgilangan aniq me‘yori, ikkinchi tomondan, jamiyat, davlat va shaxsning manfaatlarini qondirishga qaratilgan oqilona va maqsadga muvofiq xulq-atvorning qat‘iy me‘yoridir. Bu yerda gap fuqaroning (yuridik shaxsning) huquq normasida rasman belgilangan majburiy xulq-atvori (faoliyati)ning yo‘nalishi to‘g‘risida bormoqda. Ushbu majburiyatdan chetga chiqish qonun bilan taqiqlanadi va jazolanadi. Yuridik majburiyat lozim bo‘lgan huquqiy xulq-atvor (faoliyat)ning etaloni, ya‘ni uning andozasi yoki namunasi hisoblanadi. Bu xulq-atvor (faoliyat) nafaqat huquqi bor shaxsning manfaatini ta‘minlashga, balki majburiyat o‘tayotgan shaxsning o‘zini, umuman, butun jamiyat manfaatlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgandir. Qonun chiqaruvchi yuridik majburiyatlarni belgilashda ana shu majburiyatlar mushtarakligidan kelib chiqiladi.

Inson va fuqaroning majburiyatlarini farqlash lozim bo‘ladi, chunki insonlar barchasi ham biror-bir davlatnig fuqarosi maqomiga ega emas (masalan, apatridlar). Demak, insonning davlat bilan ushbu huquqiy aloqasidan, muayyan davlat fuqarolari uchungina xarakterli bo‘lgan qo‘shimcha majburiyatlar kelib chiqadi (masalan, Vatanni himoya qilish – O‘zbekiston Konstitutsiyasining 52-moddasi, shunday moddalar boshqa mamlakatlar, ya‘ni Rossiya Konstitutsiyasining 59-moddasida, Meksika

1 Перевалов В.Д. Обязанности человека и гражданина // Теория государства и права, 1995. – С. 502–503.

2 Матузов Н.И. Актуальные проблемы теории права. Монография. – Саратов, 2003. – С. 305.

Qo'shma Shtatlari Siyosiy konstitutsiyasining 31-moddasi, Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi, Fransiya Konstitutsiyasining IV moddasi 2-bo'limining 3-qismi).

Huquqiy norma dispozitsiyasida qanday xatti-harakat, xulq-atvor turi ko'rsatilishiga qarab, yuridik majburiyatlar **"faol"** yoki **"passiv"** ko'rinishga ega bo'ladi. Faol majburiyatlar sodir etilishi zarur bo'lgan xatti-harakatni mustahkamlaydi. Passiv majburiyatlar esa, huquqiy normada taqiqlangan xatti-harakatni sodir etishdan o'zini tiyish zaruriyatini nazarda tutadi¹.

"Passiv" majburiyatlar "bir tomonlama amal qiluvchi", ya'ni huquqiy munosabatning boshqa ishtirokchisi uchun yuridik oqibatlar keltirib chiqaruvchi huquqlarga nisbatan rioya etish majburiyati, da'vogar va javobgarning nafaqat sud muhofazasidan foydalanish huquqi, balki tomonlarning ishni ko'rishda belgilangan tartibga rioya etish majburiyati va sudning qonuniy kuchga kirgan barcha qaror va ajrimlariga rioya etish majburiyati muvofiq keladi. Taraflarning sud muhofazasidan foydalanish huquqiga sudning tomonlar tavsiyanomalarini ko'rib chiqish, kassatsiya shikoyatlarini qabul qilish va tegishli yuridik choralarni ko'rish majburiyati muvofiq keladi. Bundan xulosa shuki, har qanday subyektiv huquqqa muayyan bir shaxsning yuridik majburiyati muvofiq keladi.

L.Sh. Berekashvili va V.P. Ignatov quyidagi yuridik majburiyatlarni ta'kidlaydi: muayyan harakatni sodir etish, taqiqlangan harakatni sodir etishdan voz kechish, boshqa shaxslardan harakatni sodir etishni yoki sodir etmaslikni talab etish, buyurilgan harakatlarni bajarmanlik uchun javobgarlikni o'tash².

Umuman yuridik majburiyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- biror davlatga nisbatan fuqaroligi borligi yoki yo'qligidan qat'i nazar, inson majburiyati va fuqaro majburiyati;
- o'z xarakteriga ko'ra faol va passiv majburiyatlar;
- muayyan huquqiy munosabatlarda amalga oshiriladigan majburiyatlar va huquqiy munosabatlardan tashqarida amalga oshiriladigan majburiyatlar (amalga oshirish xususiyati bo'yicha);
- individual va jamoaviy majburiyatlar (bajarish shakli bo'yicha);
- biror-bir huquq sohasi – konstitutsiyaviy, jinoiy, fuqarolik, mehnat, ekologik va boshqa shu kabilardan kelib chiqadigan majburiyatlar (sohaviy belgilari bo'yicha).

¹ Qarang: Гойман-Червонюк В.И. Очерк теории государства и права. – М.: 1996. – С. 238.

² Беракашвили Л.Ш., Игнатов В.П. Обеспечение прав человека и законности в деятельности правоохранительных органов. – М.: 2003. – С. 149.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning burchlari va majburiyatlari

Fuqarolarning majburiyatlari qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan o‘rnatiladi. Ularning eng asosiy majburiyatlari Konstitutsiyada belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi fuqarolarning burchlari (majburiyatlari)ga bag‘ishlangan. Jami olti moddada fuqarolarning asosiy majburiyatlari mustahkamlangan.

Barcha fuqarolarning, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har bir insonning eng muhim majburiyatlaridan biri, Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan burchlarni bajarishga (47-modda), Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga (48-modda) majburlirlar. Mazkur konstitutsiyaviy talab zahirida mamlakatda qat’iy qonuniylik rejimini ta’minlash maqsadi yotibdi.

Qonuniylik muhiti – davlatda, jamiyatda mustahkam tartib va barqarorlik asosi, har bir fuqaro hayotida tinchlik va osoyishtalik bo‘lishining garovidir.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish majburiyati huquqiy munosabatlarning barcha subyektlari uchun umumiy, universal talabdir. Buning ma’nosi shundaki, har bir inson, har bir fuqaroda hayotiy faoliyatning barcha jabhalarida muvofiq xatti-harakat qilishdek ichki ruhiy “dastur”, ya’ni e’tiqod mavjud bo‘lishi nazarda tutiladi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish – nafaqat ularning qoidalarini buzmasliklari, balki fuqarolar o‘z faoliyati va hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy tamoyil va asoslarni, shuningdek, qonunchilik normalarini real voqelikka aylantirishga ko‘maklashishlari demakdir.

Konstitutsiya va qonunlarda jamiyat va davlatning ijtimoiy-siyosiy asoslari, mamlakatda o‘rnatilgan huquqiy tartibot, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi eng mujassam tarzda ifoda etiladi. Shu sababli, ularga har bir fuqaro qat’iy rioya etishga majbur. Bu qoidalarni har qanday ko‘rinishda buzish davlat, jamiyat va fuqarolarning manfaatiga putur yetkazadi.

Konstitutsiya fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburlirlar, deb ko‘rsatadi (49-modda). O‘zbek xalqi chindan ham boy tarixiy, ma’naviy va madaniy meros sohibidir. Asrlar mobaynida shakllangan, jamlangan bu meros nafaqat o‘zbek davlatchiligi rivojiga, balki butun jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilgan ulkan hissadir. O‘zbekistonning har bir fuqarosi bu bilan

faxrlanibgina qolmasdan, balki mazkur madaniy va ma'naviy "xazina"ni ko'z qorachig'idek asrashi, uni kelgusi avlodlarga yetkazib berishni o'zi uchun ham farz, ham qarz deb bilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatini mustahkamlaydi (Konstitutsiyaning 50-moddasi).

Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi asrimizda insoniyatning hayot kechirish maskani bo'lgan tabiiy atrof-muhit alohida muhofazaga muhtoj. Bunday muhofaza mutasaddi davlat idoralari va jamoatchilik tuzilmalari bo'g'ini (masalan, "EKOSAN" jamg'armasi, "Orolni qutqarish" jamg'armasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatda tabiat in'omlaridan bahramand bo'luvchi har bir fuqaro (inson) ishtirok etishi shart.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Yer to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi bir qator muhim qonunlari qabul qilindi. Ularning ko'pchilik normalari fuqarolarning tabiat bilan bo'ladigan muloqotidagi majburiyatlarini belgilaydi. Tabiatga tegishli qonunlardagi har bir qoidaga rioya etish, ularning buzilishiga faol qarshi turish har bir fuqaroning yuridik majburiyatidir.

Fuqarolarning qonunlar bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash majburiyati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan (Konstitutsiyaning 51-moddasi).

Sobiq sovet tuzumi davridagi konstitutsiyalarda fuqarolarning bunday majburiyatiga e'tibor qaratilmagan edi. Sababi, sotsialistik davlat mulkchiligi hukmronlik qilgan sharoitda budjet asosan davlat korxonalari va tashkilotlari hisobidan to'ldiriladi, chunki bu jamiyatda xususiy mulk yo'q bo'lmagan. Undagi asosiy mulk – davlat mulki bo'lgan va undan keladigan daromad faqat davlat budjetiga tushar va davlat barcha daromadni o'zi taqsimlar edi. Mazkur sotsialistik iqtisodiyot esa, erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotini inkor etar edi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'ta boshlaganligi munosabati bilan Konstitutsiyamizda birinchi marta fuqarolarning soliq to'lash majburiyati qonunlashtirildi. Bu haqli ravishda qonuniy holatdir. Xususiy mulkchilikning joriy etilishi, erkin tadbirkorlikka yo'l ochilishi, iqtisodiyotda davlat mulkchiligi sohasining qisqarishi soliq tizimida yangicha yondashuvni taqozo etdi. Soliq to'lovchi subyektlar tarkibi sifat jihatidan o'zgarib, soliqqa tortiladigan daromadlar turi kengaydi. Shu bois, davlat budjetida yuridik shaxslar va fuqarolardan olinadigan soliqlar ahamiyati oshdi.

Erkin iqtisodiy faoliyat kengaygan sharoitda, tabiiyki, fuqarolarning, xususiyl tadbirkorlarning davlat nazoratiga olinmagan daromad manbalari ko'payishi mumkin. Bunday vaziyatda daromadlarni deklaratsiya qilish tartibi yo'lga qo'yilib, fuqarolar o'z ixtiyori va tashabbusi bilan soliq to'lashlari lozim bo'ladi. Fuqarolarning soliqlarni to'lash majburiyati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganligining boisi ham ana shunda.

Konstitutsiyaning 52-moddasida O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir, deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekistonning har bir fuqarosi, 2002-yil 12-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunga muvofiq, harbiy (muqobil) xizmatni o'taydi. Ushbu qonun har bir fuqaroning Vatanni himoya qilish to'g'risidagi majburiyatini ado etish tartibi, muddatlari, shart-sharoitlari hamda imtiyozlari masalalarini tartibga soladi.

Konstitutsiya fuqarolarning sog'lig'i, diniy e'tiqodi imkon bermagan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda muqobil xizmat o'tashlari mumkinligini ham nazarda tutgan.

Shunday qilib, fuqarolarning majburiyatlari jamiyat, davlat va barcha fuqarolarning o'z manfaatlari yo'lida amalga oshiriladi. Har bir fuqaro o'z majburiyatlarini vijdonan o'tash orqali boshqa insonlarning, fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshishiga ko'maklashayotganini anglab yetishi lozim.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Huquq va majburiyatlarning uzviy bog'liqligini tushuntirib bering.*
2. *Fuqarolarning majburiyatlari va burchlari tushunchalarini tushuntirib bering.*
3. *O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday majburiyatlari va burchlari o'z aksini topgan?*
4. *"Faol" majburiyatlar deganda nimani tushunasiz?*
5. *"Passiv" majburiyatlar deganda nimani tushunasiz?*
6. *Majburiyatlarni tasniflashni amalga oshiring.*
7. *O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qanday majburiyatlar aks ettirilganligini tushuntirib bering.*
8. *O'zbekiston Respublikasini himoya qilish nima uchun har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi ekanligini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Берекашвили Л.Ш., Игнатов В.П. Обеспечение прав человека и законности в деятельности правоохранительных органов. – М.: 2003. – С. 149.
2. Общая теория права и государства: Учебник (Под. ред. В.В. Лазарева. – М.: Юрист, 1994.
3. Перевалов В.Д. Обязанности человека и гражданина // Теория государства и права, 1995.
4. Права человека. Учебник для вузов / Под.ред. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА. 1999.
5. Права человека: Учебник-хрестоматия / Под ред. Саидова А.Х. – Т.: УМЭД, 2001.
6. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
7. Saidov A., Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. – T.: "Adolat", 1998.
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: "O'zbekiston", 2009.
9. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik / H.T. Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.

16-mavzu. Inson huquqlarini ta'minlash usullari

1. Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlash me'yorlari.
2. Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli.
3. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rni va roli.
4. Inson huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'rni va roli.

1. Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlash me'yorlari

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o'z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta'minlash va uni qo'riqlashdir. Bu vazifa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Uning X bobi "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari"ga bag'ishlangan bo'lib, 43-moddasida: "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangan moddalar aniq-ravshan tus olgan va birmuncha kengaytirilgan.

Mamlakatimiz fuqarolari demokratik huquq va erkinliklarning yangidan-yangi tamoyillari Konstitutsiyada o'z o'rnini egallashi bilan bir qatorda amalga oshirilishi kafolatlangan. Ular orasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi" ekanligi (24-modda), "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega"ligi, "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdaagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"ligi (25-modda), "O'zbekiston Respublikasi hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega"ligi (28-modda), "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi" (29-modda), "O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatlarini yaratib berishi" (30-modda), "Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referen-

dumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshirilishi" (32-modda), O'zbekiston Respublikasida "Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini respublika qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega"ligi (33-modda), "Kasaba uyushmalariga siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega"ligi (34-modda) alohida qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolarning shaxsiy hayoti qonun bilan qo'riqlanadi. Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir, har bir fuqaro erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo'lib, uning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat hisoblanadi. O'zbekiston fuqarosi qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, qamoqda saqlanishi mumkin emas. Bular respublika qonunlari bilan mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 234-moddasi "Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish" deb nomlanib, unda: "Bila turib, qonunga xilof ravishda ushlab turish, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qonuniy asosga ega bo'lmagan holda shaxs erkinligining qisqa muddatga cheklanishi – eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Bila turib, qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlash – eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi", deyiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklarini kafolatlovchi qator konstitutsiyaviy tamoyillarni o'zida aks ettirgan: masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir", deyiladi. Bu Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan boshqa qonunlarda ham mustahkamlangan.

Umuman olganda, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning asosiy usullari va vositalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35- va 44-moddalarida o'z aksini topgan, ularda inson huquqlarini sud orqali va suddan tashqari himoya qilish shakllari ko'zda tutiladi¹.

Istiqlolga erishilgandan so'ng vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzumining mustahkamlanib borilishi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi./Mualiflar jamoasi: A.X. Saidov, F.X. Bakayeva, K.Sh. Arslanova va boshq. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 70.

taraqqiyot rejaları bajarila borgan sari fuqarolarning huquq va erkinliklari kengaytirilishi hamda ularning turmush sharoiti uzluksiz yaxshilanib borilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlari orasida eng muhimi – ularning davlat vakillik organlariga va boshqa hokimiyat organlarini tuzishda faol ishtirokini ta'minlovchi saylov tizimidir. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylov va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi", deb uqtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risidagi qonunlarda saylovchilarning saylash va saylanish, saylovoldi tashviqoti olib borish huquqlarini amalga oshirishga zo'ravonlik, aldash, tahdid qilish yoki boshqa yo'l bilan qarshilik ko'rsatayotgan shaxslar, shuningdek, soxta saylov hujjatlari tuzgan, ovozlarni atayin noto'g'ri sanab chiqqan, yashirin ovoz berishni buzgan yoki saylov qonunchiligining boshqa tarzda buzilishiga yo'l qo'ygan saylov komissiyalarining a'zolari, boshqa mansabdor shaxslar va siyosiy partiyalarning vakillari O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq, belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. Deputatlikka nomzod to'g'risida soxta ma'lumotlarni e'lon qilgan yoki o'zgacha tarzda tarqatgan shaxslar ham javobgarlikka tortiladi.

1994-yil 5 mayda O'zbekistonda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. U 21 moddadan iborat bo'lib, mazkur qonunga asosan fuqarolar o'z saylov huquqini buzuvchi va ularga e'tibor bermaydigan tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar ustidan saylov komissiyasi, tegishli davlat organi, jamoat uyushmasi, mansabdor shaxslar va sudlarga murojaat qilishi mumkin. Bu huquqni buzuvchilar O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida jazolanadilar.

Doimiy rivojlanishda bo'lgan inson huquqlari bo'yicha milliy qonunchilikning yana bir o'ziga xos xususiyati Konstitutsiya va qonunlarda ko'rsatib o'tilgan huquqlarni alohida kafolatlovchi qonunlar bilan yanada mustahkamlab borishdan iborat. Shu maqsadda, mamlakatda "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida" (1995-yil), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" (1996-yil), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997-yil), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" (1997-yil), "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" (1998-yil), "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"

(yangi tahriri, (2002-yil), “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” (2007-yil), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” (2008-yil)gi kabi inson huquqlari va erkinliklari borasidagi kafolatlarni belgilab beruvchi maxsus qonunlar guruhi shakllangan va ular doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari O‘zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi tamoyillari doirasini aniq-ravshan kafolatlagan. Unda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, turli irq va millatga mansub fuqarolarning teng huquqliligi, respublika fuqarolari o‘z naslinasabidan, ijtimoiy va mulkiy mavqeidan, irqi va millatidan, jinsi, ma‘lumoti, tili, yashash joyi va boshqa holatlaridan qat‘i nazar, tengligi kafolatlangan. O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotining hamma sohalarida fuqarolarning teng huquqliligi to‘la ta‘minlangan. Fuqarolarning huquq va erkinliklari ularning shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun xizmat qilish bilan birga, jamoa, davlat va jamiyat manfaatdorligini ham o‘zida yaqqol aks ettiradi.

2. Inson huquqlarini ta‘minlashda davlat organlarining o‘rni va roli

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ijtimoiy va davlat qurilishida real demokratiyani har tomonlama kengaytirib, rivojlangan, ma‘rifatli davlatlar safiga kirishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan davrda inson erkinligi, fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy qonunlarda ifoda etibgina qolmay, uning rivojini hamda takomillashuvini shu maqsadda tuzilgan va tuzilayotgan davlat organlari, jamoat uyushmalari va ko‘ngilli tashabbuskor tashkilotlar o‘zlari olib borayotgan ko‘p qirrali faoliyatlar bilan ham amalga oshirmoqda va kafolatlamoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllandi. Bu tizimda an‘anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlaridan iborat bo‘lgan sudlov organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo‘lgan inson huquqlari bo‘yicha nosudlov organlari ham shakllandi.

Inson huquqlarini himoya qilishning sudlov organlariga, birinchi navbatda, sud hokimiyati tizimiga kiruvchi sudlar, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, umumiy sudlar, xo‘jalik sudlari kiradi. Sudlar tizimi bilan bir qatorda huquqni muhofaza qilish organlari, ya‘ni prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi kabi nafaqat inson huquqlarini, balki mamlakatdagi huquq-tartibotni ham himoya qilish bilan

shug'ullanuvchi vazirliklar va davlat idoralari ham inson huquqlarini himoya qilish tizimida va odil sudlovni ta'minlab berishda muhim halqani tashkil etadi. Bugungi kunda ushbu huquqni muhofaza qilish organlari tizimlarida inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi alohida tuzilmalar tashkil etilgan.

Inson huquqlarini **sud orqali himoya qilish** inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki, sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, har bir shaxs huquq va erkinliklarining sud tomonidan muhofaza etilishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlaridan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining 106-moddasida O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida O'zbekiston sud tizimining huquqiy asoslari ko'rsatilgan. Bu moddaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy va xo'jalik sudlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor

shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini, shaxsiy erkinligi va mol-mulki hamda boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga egadir. Hamma sudlarda ishlarning ko'rilishi ochiq hisoblanadi. Faqat qonunda belgilangan hollardagina ishlarni yopiq sud majlisida ko'rib chiqishga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni bilan favqulodda sudlar tuzish taqiqlangan.

Shunday qilib, O'zbekistonda quyidagilarni o'z ichiga oluvchi sud tizimi yaratildi va faoliyat yuritib kelmoqda:

1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, shuningdek, harbiy sudlardan iborat umumiy yurisdiksiya sudlari. Harbiy sudlar tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan tashkil topadi.

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarini o'z ichiga olgan xo'jalik sudlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatini amalga oshirishning bir necha tartibi shakllantirilgan, jumladan, konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat, xo'jalik va ma'muriy sud ish yurituvchi, ularning har biri maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga mosligi haqidagi ishlarni ko'rish bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi – xo'jalik sudi ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

Sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega.

Sudlarning mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishning oldini olishga

qaratilgan kafolatlar qonun normalari bilan mustahkamlangan. Jumladan, davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar sudyalarni hurmat qilishi va ularning mustaqilligiga rioya etishi shart. Muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishga to'squinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday bo'lmasin biron-bir tarzda ta'sir etish qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyadan ko'rilgan yoki ish yuritishidagi ishlar mohiyati bo'yicha biron-bir tushuntirishlar berishni, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari, kimga bo'lmasin, tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi.

Mustaqillik yillarida sud hokimiyati isloh qilinib, odil sudlovni amalga oshirish mexanizmlari doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Sud hokimiyatini, umuman, sud-huquq sohasini isloh qilishning birinchi bosqichi 1991–2000-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davrda sud-huquq sohasini tubdan isloh qilish milliy strategiyasi sud hokimiyatining yaxlit tizimini shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga imkon berdi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarning birinchi bosqichi 2000-yil 14-dekabrda sudlar faoliyatini demokratlashtirish va takomillashtirishda muhim qadam bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan yakunlandi.

2001-yildan mazkur sohaning muhim vazifalaridan biri sud tizimining mustaqilligini yanada mustahkamlash, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirishga yo'naltirilgan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish jarayoni boshlandi. Bu bosqichda huquqiy davlatni shakllantirishda muhim jihatlarni tashkil etadigan sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirishning yangi konsepsiyasi amalga oshirildi.

2001-yilda mamlakatda fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlararo sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) sudlari ish boshladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish hamda odil sudlov sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan muhim choralar qabul qilindi. Jumladan, dastlabki tergov va ayblanuvchilarni qamoqda ushlab turishning maksimal muddatlari qisqartirildi, ishlarni ko'rib chiqishning apellatsiya tartibi kiritildi, kassatsiya instansiyalari isloh qilindi, sud qarorlarini ijro etish tartibi takomillashtirildi.

Apellatsiya institutining kiritilishi sud qarorlarining qonuniyligini tekshirish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan xatolarni o'z vaqtida tuzatishning samarali mexanizmini yaratadi.

Kassatsiya instansiyasining isloh qilinishi natijasida fuqarolar qonuniy kuchga kirgan sud qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z huquqlarini kassatsiya instansiyasi sud majlisida himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Sud jarayonida himoya va ayblov huquqlarining tenglashtirilishi tomonlar orasidagi tortishuvchanlik tamoyilining amaliy timsoli bo'ldi.

Sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'ziga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi. Bu vazifalarning O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud departamentiga o'tkazilishi sud hujjatlarini ijro etishning mustaqil samarali tizimini yaratishga imkon berdi.

2007-yil iyulda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish munosabati bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlashda va inson huquqlari hamda erkinliklarini ta'minlashning samaradorligini oshirishda yana bir muhim qadam bo'ldi.

Sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi va uni amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmi belgilab berilganligi jinoyat protsessining sudga qadar bosqichida jinoiy ta'qibga duchor bo'lishda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatleri samarali himoya qilinishining muhim kafolatlaridan bo'ldi.

2005-yil 1-iyuldan tadbirkorlik subyektlariga qator huquqiy ta'sir choralari, jumladan, moliyaviy sanksiyalarni faqat sud tartibida qo'llash tartibi kiritildi. Ushbu mexanizmning joriy qilinishi tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qo'shimcha kafolatlarini yaratishga va tadbirkorlik faoliyatini asossiz cheklashga yo'l qo'ymaslikka yordam berdi.

2007-yil 1-yanvardan fuqarolarga buzilgan yoki nizolashayotgan huquqlarini nafaqat fuqarolik va xo'jalik sudlari orqali, balki hakamlik sudlariga murojaat etish yo'li bilan himoya qilish imkoniyatini bergan O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi. Doimiy yoki vaqtinchalik asosda tashkil etiladigan hakamlik sudlari fuqarolik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan xo'jalik nizolarini hal etishga qaratilgan.

2008-yil iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi

mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi tashkil etildi va mazkur tuzilmaga sudning obro'si va mustaqilligini hamda odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni ta'minlash, sudlar faoliyatiga aralashishga hamda g'ayriqonuniy sud qarorlari chiqarilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashish vazifasi yuklatildi.

2008-yil dekabrda ishni sudga qadar yuritish bosqichida shaxslarga va mahkumlarga amnistiya aktini qo'llash bo'yicha vakolatni sudga o'tkazish yo'li bilan amnistiya aktini qo'llash tartibi qonun darajasida takomillashtirildi va ushbu holat inson huquqlari va erkinliklarining sud tomonidan himoya qilinish kafolatlarini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda prokuratura organlari huquqni muhofaza qiluvchi, shu jumladan, inson huquqlarini himoya qilish tizimida muhim va asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 2001-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni hamda faoliyatiga daxldor bo'lgan boshqa qonunlar asosida olib boradi. Mazkur qonunga binoan, prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hisoblanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotga rioya etish ustidan nazorat qiladigan davlat organi bo'lgan prokuratura nafaqat davlat hokimiyatini mustahkamlash vazifasini, balki inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Aynan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini davlat organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilish O'zbekistonda ijtimoiy va huquqiy davlat barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 12-apreldagi 3-sonli buyrug'iga binoan **Fuqarolar huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi** tashkil etilgan. Ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizomga binoan, boshqarmaning asosiy vazifalari qonunlar ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat va jamiyatning qonunda belgilangan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.

1 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F.X. Bakayeva, K.Sh. Arslanova va boshq. – T.: O'zbekiston, 2010. – 242.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga binoan, Boshqarma inson huquqlari bo'yicha o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

- fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqarolarning shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish;

- qonuniylikning ahvoli va qonunlar buzilishi to'g'risidagi xabarlar haqida ma'lumot to'plash va tahlil qilish.

Boshqarma huzurida qishloq xo'jaligi sohasidagi xo'jalik subyekt larining huquqlarini himoya qilish bo'yicha bo'lim tashkil etilgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar, harbiy va transport prokuraturasida fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish bo'yicha alohida bo'limlar tashkil etilgan.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish samaradorligini ta'minlash maqsadida Boshqarma tomonidan barcha prokurorlar uchun mo'ljallangan "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun ijro etilishi ustidan nazoratni uyushtirish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 22-iyundagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ishni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining vazifalari to'g'risida"gi 25-sonli buyrug'iga asosan quyidagilar prokuratura organlarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- qonun ustuvorligini ta'minlash, ijtimoiy adolat va qonuniylikni mustahkamlash, inson va fuqaroning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquq hamda erkinliklarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi va qonun bilan himoya qilinadigan davlat manfaaatlarini himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlari hamda erkinliklari, xususan, jamiyat va davlat ishlarida bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish huquqi hamda jamoatchilik harakatlarida ishtirok etish huquqi himoya qilinishini ta'minlash;

- davlat organlari, muassasalar, jamoat tashkilotlari tomonidan fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F.X. Bakayeva, K.Sh. Arslanova va boshq. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 244.

kafolatlaydigan qonunlardagi talablarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- fuqarolarning mehnat qilish huquqi, kasb tanlash erkinligi, xavfsiz va adolatli sharoitlarda ishlash, o'z mehnati uchun vaqtida ish haqi olish, mehnat ta'tiliga chiqish hamda ishsizlikdan himoya qilinish huquqlarini himoya qilish;

- qariyalar, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning har birining ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash, eng kam ijtimoiy himoyalangan aholi qatlamlarining, jumladan, yolg'iz, nogiron va kam ta'minlanganlarning nafaqa olish huquqini himoya qilishga alohida e'tibor qaratish;

- bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida sog'liqni saqlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, tibbiy xizmatdan bepul foydalanish huquqlarini ta'minlash;

- fuqarolarning ta'lim olish huquqi, ilmiy va texnikaviy ijod qilish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash¹.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning joylardagi xizmatlari huquqni muhofaza qilish idoralari tizimiga kiradi. Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish va tartibga solish yuzasidan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, barcha huquqni muhofaza qilish idoralari qatori, ichki ishlar idoralari faoliyatida ham ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi IIV Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi 16-sonli "Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tash tartibi haqidagi vaqtinchalik Nizom" asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ichki ishlar idoralarining asosiy vazifalariga konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash, fuqarolarning hamda korxona, muassasa va tashkilotlarning mulkini, huquq va erkinliklarini har xil jinoiy tajovuzlardan va boshqa huquqbuzarliklardan himoya qilish, jinoyatchilikning oldini olish va sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatda to'liq ochilishini ta'minlash, jinoyatni sodir etish sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish, sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish, pasport tizimi faoliyatini ta'minlash (fuqarolarga pasport berilishini, ularning ro'yxatdan o'tishi va chiqishini, vizalarini rasmiylashtirish), yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash,

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi./Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F.X. Bakayeva, K.Sh. Arslanova va boshq. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 244–245.

ma'muriy javobgarlik va jinoiy jazolarning bajarilishini ta'minlash, yong'in xavfsizligini saqlash, voyaga yetmaganlar bilan ishlash, fuqarolar tomonidan o'qotar qurollarni sotib olish, saqlash va olib yurish tartibini nazorat qilish va rasmiylashtirish kabi ko'plab vazifalar kiradi.

2001-yil 27-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu Farmon Vazirlar Mahkamasining shu masalaga bog'liq bir nechta qarorining qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Mazkur Farmon va qarorlar asosida IIVning yetakchi xizmatlarining deyarli hammasida islohotlar amalga oshirilmogda.

2008-yil sentabr oyida Ichki ishlar vazirligi tizimida "Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash boshqarmasi" hamda uning joylardagi tuzilmalari tashkil etildi deb Ichki ishlar organlari tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish va ularni himoya qilish ustidan nazorat olib borish mazkur boshqarmaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ichki ishlar idoralarining mansabdor shaxslari fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish chog'ida ularning mazmunini diqqat bilan o'rganib chiqishlari lozim, shuningdek, xatlarni har taraflama mufassal va xolisona ko'rib chiqish uchun qo'shimcha axborotlar, ma'lumotlar va materiallarga zarurat paydo bo'lsa, ularni to'plash, xodimlarni murojaatda bayon etilgan holatni tekshirish uchun joylarga yuborishlari, shikoyatni keltirib chiqargan sabablarni, sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish uchun barcha tegishli choralarni ko'rishlari shart. Murojaatlarni tekshirish uchun ichki ishlar idoralarining shtatsiz xodimlari, shuningdek, jamoatchilikning boshqa vakillari jalb qilinishi mumkin.

Murojaatlarni tekshirish natijalari bo'yicha to'plangan hujjatlarni obyektiv tahlil etishni o'z ichiga olgan asosli xulosa tuzilishi kerak. Agar tekshiruv paytida fuqarolarning huquqlari va qonun bilan himoyalangan manfaatlar buzilganligi, ichki ishlar idoralari faoliyatidagi kamchiliklar va nuqsonlar, mansabdor shaxsning o'z vakolati yoki mansabini suiiste'mol qilish hollari aniqlansa, xulosada fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini tiklash, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha, shuningdek, aybdor shaxslarga nisbatan qanday choralar ko'rilgani ko'rsatilishi kerak.

Murojaatlar bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar asoslangan bo'lishi lozim. Hal etish natijalari haqida davlat va hukumat idoralari, radio, televideniye, gazeta va jurnallar tahririyatlariga javob berilishi lozim bo'lgan xatlar alohida nazoratga olinadi va birinchi navbatda hal etiladi.

Murojaatlarni tekshirish natijalari yuzasidan, ular kelib tushgan ichki ishlar idorasi rahbari tomonidan tegishli idoralarga hamda xat mualliflariga javob beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, insonning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2011-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1602-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga muvofiq, Adliya vazirligi davlat boshqaruv organi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatning alohida masalalari bo'yicha – bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi.

Adliya vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, qonun ustuvorligini, davlat va jamiyat qurilishi sohasida qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini izchil amalga oshirish;

- qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishi ustidan samarali nazorat va kontrol qilishni, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari, shu jumladan, prokuratura organlarining norma ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida qonuniylikni ta'minlash;

- ular tomonidan suiiste'molliklarga, qonunbuzarliklarga, qonun hujjatlari talablarini ijro qilmaslik holatlariga, huquqiy normalarni o'zbo-shimchalik bilan, noto'g'ri talqin qilinishiga, qonunni qo'llashda subyektivlikka, tor idoraviy, tanlov asosida yondashishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan huquqiy ta'sir choralari amalga oshirish;

- demokratik, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarning qonunchilik bazasini izchillik bilan takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

- amaldagi qonun hujjatlaridagi "oq dog'lar"ni, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida korrupsiyaning kelib chiqishiga, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratayotgan qoidalar va normalarni aniqlash;

- markazda va joylardagi davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat tuzilmalari faoliyatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash;

– sud hokimiyati mustaqilligini yanada mustahkamlashga, sud hujjatlarining soʻzsiz ijro qilinishiga, sudlar faoliyatini har tomonlama moddiy-texnik va moliyaviy taʼminlashga yoʻnaltirilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish boʻyicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– nodavlat notijorat tashkilotlar, boshqa fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat koʻrsatishining qonuniyligini, tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni, ularning aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashda faol ishtirokini taʼminlash;

– mamlakatda roʻyxatdan oʻtgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoring oʻtkazish;

– kichik biznes, xususiylar tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlar va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini taʼminlash;

– shartnomaviy-huquqiy intizomni mustahkamlash, shartnomalarni tuzish va bajarishda xoʻjalik yurituvchi subyektlarga amaliy huquqiy yordam koʻrsatish, ularning moliya-xoʻjalik faoliyatiga noqonuniy aralashishlarga, kichik biznes, xususiylar tadbirkorlik subyektlari, fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish sohasida maʼmuriy toʻsiq va gʻovlarni yaratishga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– notariat, advokatura, FHDYo organlari hamda fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat koʻrsatuvchi boshqa tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirishga yoʻnaltirilgan davlat tomonidan tartibga solish tizimining samarali faoliyat koʻrsatishini taʼminlash;

– tegishli davlat organlari bilan birgalikda xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasida Oʻzbekiston Respublikasi manfaatlarining ishonchli huquqiy himoya qilinishini taʼminlash;

– jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniyligni mustahkamlashga yoʻnaltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targʻibot va maʼrifat sohasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

– davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirishning zamonaviy talablari va jarayonlarini hisobga olgan holda huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish boʻyicha faoliyatni nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Adliya vazirligi inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlash tizimida muhim ahamiyat kasb etib, anʼanaviy tarzda huquqni qoʻllovchi va huquqni

muhofaza qiluvchi organlar sirasiga kiradi¹. Adliya vazirligi tomonidan ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat tuzilishini, shu jumladan, sud-huquq sohasini erkinlashtirish, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va O'zbekiston Hukumatining qarorlari ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlikning bevosita ishtirokida inson huquqlarini, tadbirkorlar va xususiy mulk egalari qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlari yaratildi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy ishlari takomillashtirilmoqda, huquqni qo'llash amaliyotini doimiy tahlil etib borish va monitoring qilish hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqish tizimi joriy qilindi².

Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekanligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoida Adliya vazirligi faoliyatining barcha jabhalarida ustuvor bo'lishi belgilangan. Adliya organlari va muassasalarining ishi bevosita inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilmagan bo'lsa-da, vazirlik tarkibida bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklarining himoyasi bilan shug'ullanadigan alohida maxsus tarkibiy bo'linmalar mavjud.

Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi, Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish boshqarmasi, Shartnomaviy-huquqiy ishlarni nazorat qilish boshqarmasi, Xorijiy investitsiyalarni va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi kabi bo'linmalari – inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi, barcha davlat organlari, shu jumladan Adliya vazirligining faoliyati ularni har tomonlama takomillashtirishga qaratilganligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidalarni izchil ravishda amaliyotga tatbiq etish natijasi hisoblanadi.

Inson huquqlarini himoya qilishda Adliya vazirligi bo'linmalari orasida Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2003-yilda tashkil etilgan va joylarda hududiy bo'linmalarga ega bo'lgan Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi muhim o'rin tutadi. Xususan, Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasi va hududiy adliya boshqarmalarining inson huquqlarini himoya qilish bo'limlari fuqarolarning davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari hamda harakatlari

1 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 221.

2 O'sha joyda.

ustidan shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Fuqarolarning o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qilish zarur bo'lganda adliya organlariga murojaat qilish imkoniyati vazirlik faoliyatining eng muhim tamoyili, inson huquqlarini himoya qilish vazifasini amaliyotga tatbiq etish esa, kelib tushayotgan murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hisobga olish tizimini yaratish orqali ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 23-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1602-sonli qaroriga asosan Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash hamda Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi ahvolini o'rganish bo'yicha Idoralararo ishchi guruh tuzilgan.

Huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

jamiyatda aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni oshirishga va qonuniylikni mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalarining huquqiy targ'ibot va ma'rifat sohasidagi ishini muvofiqlashtirish;

huquqshunos kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini yaxshilash, shuningdek ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalarining huquqiy bilim darajasini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish;

aholi bilan huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha ishlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, shu jumladan bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ushbu ishga fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish.

Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi ahvolini o'rganish bo'yicha Idoralararo ishchi guruhining asosiy vazifalaridan biri etib, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek BMTning asosiy Konvensiyalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash belgilandi.

Mazkur yo'nalishda Idoralararo ishchi guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha BMT shartnomaviy organlarining yakuniy tavsiyalari va e'tiroz-

larini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu yakuniy tavsiya va e'tirozlarning ijrosi yuzasidan Milliy harakat rejalarini tasdiqlash va monitoring qilish ishlari olib borilmoqda. Ta'kidlash kerakki, 2004-yildan boshlab hozirgi kunga qadar Ishchi guruhi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro ekspertlarining tavsiyalarini ijro qilinishi bo'yicha 10 ta milliy harakat rejaları tasdiqlanib, ularning ijrosi monitoring qilinmoqda.

Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun va Adliya vazirligining "Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish to'g'risida"gi Nizomida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Adliya vazirligi fuqarolar tomonidan yozma va og'zaki ravishda berilgan murojaatlarni ko'rib chiqadi. Fuqarolarni shaxsan qabul qilish vazirlik rahbariyati, boshqarmalar boshliqlari va vazirlikning vakolatli boshqa mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Inson huquqlarini himoya qilishda ayniqsa, advokatura institutining roli katta hisoblanadi. Advokatura o'z nomi bilan, avvalambor, inson huquqlarining himoyachisi hisoblanadi. O'zbekistonda advokatura institutini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Advokatura instituti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida konstitutsiyaviy institut sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, unda ayblanuvchi himoyalani huquqi bilan ta'minlanishi, tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida uning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, fuqarolar, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi hamda advokaturani tashkil etish va uning ish tartibi qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi, 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan demokratik o'zgarishlar, sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida fuqarolar huquq va erkinliklarining samarali himoyasini ta'minlash kafolati sifatida, advokaturaning jamiyatdagi roli va mavqeini oshirish, advokatlarning kasbiy mustaqilligini ta'minlash hamda ularning protsessual vakolatlarini kengaytirish, advokaturaning o'z-o'zini boshqarish vakolatini takomillashtirish va advokatura institutini yanada isloh qilish hamda uni rivojlantirishning asosiy va muhim shartlari ekanligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 225.

Prezidentining 2008-yil 1 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–3993-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2008-yil 12-sentabrda bo‘lib o‘tgan Ta‘sis konferensiyasida O‘zbekiston Advokatlar Assotsiatsiyasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil etish haqida qaror qabul qilingan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1 mayda e‘lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta‘minlashga qaratilgan sud-huquq tizimi sohasidagi islohotlarning bugungi kundagi eng muhim vazifasi – advokaturani yanada isloh qilish deb bejiz aytilmadi, chunki advokatura inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda fuqarolik jamiyatining asosiy institutidir.

2009-yilning 1-yanvaridan “Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirdi. Bugungi kun voqeligi shundan dalolat beryaptiki, shiddat bilan rivojlanayotgan hayot advokatura oldiga yanada keng ko‘lamli vazifalarni qo‘ymoqda va bu holat uning imkoniyatlari kengaytirilishini taqozo etmoqda. Bu borada xalqaro amaliyotlarda sinovdan o‘tgan va deyarli barcha rivojlangan davlatlarning huquqiy tizimlarida qo‘llanilayotgan qonun-qoidalar bizning qonunchiligimizga ham tatbiq etilishi mamlakatimiz huquqiy tizimi o‘z taraqqiyot davrining yangi bosqichiga chiqqanidan darak bermoqda.

Advokaturani halol va kasb mahorati yuqori darajadagi mutaxassislar bilan ta‘minlash, advokatlik tuzilmalarining vakolatlarini aniqlashtirish va huquqiy maqomini belgilash, jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligini ta‘minlash, advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritish tizimini, taraflar vakilligi institutini takomillashtirish – advokatura institutining yanada isloh qilinishi lozim bo‘lgan asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi negizida nafaqat huquqiy maqomi, balki ta‘sir doirasi jihatidan ham ancha keng qamrovga ega bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqaradigan markazlashtirilgan tizim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining tashkil etilishi va mamlakatdagi barcha advokatlarning ana shu tizimga birlashishi hayotiy zarurat bo‘ldi. Bugun O‘zbekiston advokaturasi o‘z taraqqiyot davrining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Uning eng muhim jihati

shundan iboratki, har bir advokat alohida va barcha advokatlik tuzilmalari bilan birgalikda, bahamjihat tarzda mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb masala – huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish va ana shu vazifani bajarish yo‘lida alohida g‘ayrat qilishi lozim bo‘ladi.

Sud-huquq sohasida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlar, xususan, advokatura institutining jamiyatdagi mavqei oshirib borilishi, eng avvalo, adolat tamoyillariga asoslangan demokratik huquqiy jamiyat qurishga, har bir fuqaroning huquq va manfaatlari samarali himoya qilinishiga qaratilganidan dalolatdir.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, sud ishini yuritishning har qanday bosqichida fuqarolarning malakali yuridik yordam olishini ta‘minlash, advokaturaning tashkiliy mustaqilligiga erishish va advokatlarning malakasini oshirish kabi qator dolzarb masalalar aks etgan. Unda, shuningdek, O‘zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi negizida mamlakatimizdagi barcha advokatlarning majburiy a‘zoliciga asoslangan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil etish vazifasi belgilab qo‘yildi.

Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, 2008-yil 12-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Ta‘sis konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan delegatlar, shuningdek, Oliy Majlis Senati a‘zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, Fuqarolik jamiyatini o‘rganish instituti, Toshkent davlat yuridik instituti, turli nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining vakillari ishtirok etgan anjumanda qator masalalar qizg‘in muhokama qilindi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasining faoliyatini tugatish va uning negizida mamlakatimizdagi barcha advokatlarning majburiy a‘zoliciga asoslangan, o‘zining hududiy boshqarmalariga ega bo‘lgan mustaqil tashkilot – O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Ta‘sis konferensiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Nizomi tasdiqlanib, unda palataning huquqiy maqomi, maqsad-vazifalari, a‘zolarining huquq va majburiyatlari belgilab berildi. Shuningdek, konferensiyada qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi advokatlar

kasb etikasi qoidalarida advokatlar o'z faoliyatlarini qanday talablar asosida amalga oshirishlari, jumladan, advokatlarning himoyasida bo'lgan shaxslar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, davlat va boshqa jamoat tashkilotlari hamda Advokatlar palatasi organlari, uning hududiy boshqarmalari va Malaka komissiyalari bilan o'zaro munosabatlari tartibga solingan.

Tizim takomillashuvining muhim jihati shundaki, endilikda, bugungi kun advokati taraqqiyotning asosiy pallasiga qadam qo'ygan Advokatlar palatasining shunchaki a'zosi bo'libgina qolmay, mustaqil, butun bir "oilaning farzandi" sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demakki, yuksak ishonchni oqlash bilan birga, undan o'z ishiga yuksak mas'uliyat bilan yondashish ham talab etiladi.

Advokat o'zi qatnashayotgan "ish"da xolislik bilan dalillarga haqqoniy baho bera bilishi, uni qonuniy asoslar bilan himoya qila olishi adolat mezonini belgilab beradi. Adolatni to'g'ri, xolis va qonuniy asoslar bilan himoya qila olish esa, mahorat deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, jar yoqasida turgan kishini ustalik bilan, mahorat va abjirlik bilangina qutqarib qolish mumkin.

Demakki, advokat zimmasida ham xuddi ana shunday og'ir vazifa, jiddiy mas'uliyat turadi. O'xshatishimiz unchalik o'rinli bo'lmasa-da, shuni aniq aytish mumkinki, jinoyat ishida bo'ladimi, fuqarolik yoki xo'jalik ishida bo'ladimi, advokat, avvalo, chuqur huquqiy bilimga, boy hayotiy tajribaga, lo'nda qilib aytganda, advokatlik mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda advokatlik faoliyati bu sohadagi xalqaro huquqiy normalar va tamoyillar, jumladan, BMTning 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlari bo'yicha xalqaro pakti (14-modda, 3-bandi) hamda 1990-yilgi "Yuristlar roliga taalluqli asosiy tamoyillari"da belgilab qo'yilgan standartlar asosida rivojlanib bormoqda.

Advokatura institutini takomillashtirish bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar himoyachiga qo'shimcha protsessual imkoniyatlar berilishi hisobiga jinoat protsessi tortishuvida tomonlarning protsessual huquqlari tengligini ta'minlashga qaratilgan.

Jumladan, himoyachiga dalillar sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda; shaxslarni so'rovdan o'tkazish orqali ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish, tegishli hujjatlar olish uchun so'rovlar yuborish hamda tushuntirish berish uchun mutaxassisni jalb qilish huquqi berildi. Bunda himoyachining ko'rsatilgan materiallarni

ishga qo'shib qo'yish haqidagi iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan albatta qanoatlanirilishi kerak, bu esa, himoya tomoni pozitsiyasini sezilarli darajada mustahkamlash demakdir. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda bo'lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlar soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli. Himoyachining ish bilan tanishish jarayonini tezlatish va qisqartirish hamda uni sifatli o'rganish uchun unga zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish huquqi beriladi.

Jinoyat protsessida himoyachining haqiqiy mustaqilligiga erishish maqsadida himoyachi tomonidan ishda ishtirok etishga ruxsat berish haqidagi yozma tasdiq hamda himoya ostidagi shaxs bilan uchrashish uchun ruxsatnoma olish zaruriyati belgilangan normalar chiqarildi. Bunda himoyachining vakolatini belgilaydigan va uning ishda ishtirok etishiga yo'l qo'yadigan hujjatlar advokatlik guvohnomasi va order hisoblanadi.

Hatto guvohga ham jinoyat protsessida o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda zarur yuridik yordam olishi uchun tergov harakatlarida advokat bilan ishtirok etish huquqi beriladi.

Ta'kidlash lozimki, advokat so'roviga javob taqdim etmaslikda ifodalangan advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish, shuningdek, advokatning ishda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid bo'lgan vaziyatni majburan egallashiga erishish maqsadida advokatga qanday bo'lmasin ta'sir o'tkazganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Advokatura instituti vakolatlarining tobora kengayib va faoliyatining rivojlanib borishi inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov mexanizmi yanada takomillashib borayotganidan va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

3. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rni va roli

Inson huquqlari bo'yicha nosudlov organlar tizimida yana bir asosiy o'rinni egallab turgan fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri nodavlat notijorat tashkilotlaridir.

Mamlakatdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati va tutgan o'rni haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" yuzasidan qilgan ma'ruzasida shunday deydi: "Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda"¹.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolarning inson huquqlarini himoya qilishda nosudlov organlari hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashishi uchun xalqaro va milliy huquqiy kafolatlar yaratilgan. Bugunga kelib, O'zbekiston BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948-yil), "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966-yil), "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966-yil) kabi xalqaro hujjatlari, shuningdek, XMT va UNESCO tashkilotlarining bu sohaga taalluqli qator xalqaro hujjatlariga qo'shildi hamda milliy qonunchilik tizimi yaratildi va bu institut doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu tizimga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy fondlar to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Homiylik to'g'risida"gi qonunlari kabi qonunlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Jamoat birlashmalarini ro'yxatdan o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi hududida jamoat birlashmalari nizomlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi kabi qonunosti hujjatlari kiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro hamkorligi, xalqaro nodavlat tashkilotlarining O'zbekistondagi faoliyatining qonunchilik asoslarini tahlil qilishda, nodavlat tashkilotlarining ayrim turlari faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun hujjatlarining bu sohadagi xalqaro hamkorlikka oid qoidalarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lib, uning tahlili esa, bu sohadagi qonunlarni quyidagi guruhlarga bo'lishga imkon beradi: birinchidan, Konstitutsiya, ikkinchidan, nodavlat tashki-

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 42.

lotlari bo'yicha maxsus qonunlar, uchinchidan, muayyan soha bo'yicha qonunlarda shu soha vakillarining nodavlat tashkilotlariga birlashish huquqini ko'rsatib beruvchi qonunlar.

O'zbekistonda nodavlat tashkilotlari faoliyatining dastlabki huquqiy asosi, albatta, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi va bu holat uning "Jamoat birlashmalari" deb nomlangan maxsus 13-bobida belgilab qo'yilgan bo'lib, uning 56–62-moddalarida, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat yo'nalishlari turlari, ularni tashkil etish tartibi, maqsadlari va faoliyat yuritishining huquqiy holatlari belgilab berilgan¹.

Maxsus qonunlar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, ularning birinchisi O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunidir. 1991-yilning 15-fevralida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunining² 3-moddasida jamoat birlashmalarini tuzishning maqsadlari to'g'risida so'z borar ekan, unda jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish, kasbukor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish, aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish, tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish, vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi, respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadlarida tuzilishi ko'rsatib o'tilgan.

Jamoat birlashmalari davlatdan mustaqil bo'lgan, alohida faoliyat yuritadigan va, ayni vaqtda, davlat institutlariga ta'sir o'tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotga, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo'naltirilgan tashkilotlar bo'lib, ularning davlatga nisbatan mustaqilligi quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, ular o'z ichki va tarkibiy tuzilishi hamda faoliyatining yo'nalishlarini mustaqil belgilaydilar;

ikkinchidan, o'z irodalarini o'zlari ifoda etadilar va bu normativ iroda tashkilot a'zolariga majburiy bo'ladi;

1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. – B. 11–12.

2 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, 4-son, 76-modda; 1992-yil, 9-son, 363-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 4–5-son, 126-modda; 1998-yil, 3-son, 38-modda; 2004-yil, 1–2-son, 18-modda, 5-son, 90-modda, 3-dekabr).

uchinchidan, mazkur ijtimoiy tuzilmalar o'z ustavlari vositasida tashkilot a'zolarining huquq va burchlarini mustaqil belgilaydilar;

to'rtinchidan, o'z mulki va mablag'lariga ega bo'lib, ularni o'z ixtiyori va ehtiyojiga qarab tasarruf etadilar¹.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi va faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi asosiy qonunlardan biri, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonundir². Ushbu qonun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy holati, ularni tashkil etish, faoliyatini amalga oshirish va tugatish, tashkilotning mulkini shakllantirish va undan foydalanish, uning ta'sischi (ishtirokchilari) va majburiyatlari, boshqaruvni tashkil qilish asoslari bilan bog'liq masalalarini va nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqa har qanday tur va shakllari uchun umumiy munosabatlarni tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasining maxsus qonuni hisoblanadi³.

Ushbu qonunning 2-moddasiga binoan, nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foyda)ni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti ekanligi hamda bu tashkilot jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuzilishi belgilab qo'yilgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy kafolatlari to'g'risidagi yana bir maxsus qonun 2007-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni⁴ hisoblanadi. Ushbu qonunda NNTlar faoliyatiga kafolatlar berish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilinganligi ko'rsatib o'tilgan.

1 Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2002. – B. 175–176.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 115-modd, 2004-yil, 5-son, 90-modd.

3 Комментарий к Закону Республики Узбекистан "О негосударственных некоммерческих организациях" /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Ташкент, 2001. – С. 7.

4 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 1–2-son, 2-modd.

Ushbu qonunning 4-moddasida davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlashi, ularni qo'llab-quvvatlash shakllari va shartlarini belgilashi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini moliyaviy yoki boshqa jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Qonunning 2-bobida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy kafolatlari sifatida, ularning faoliyat erkinligi kafolatlari, axborotdan foydalanish kafolatlari, mulk huquqi kafolatlarining mazmuni belgilab berilgan.

Qonunda, nodavlat notijorat tashkilotlarining ishchanlik obro'sini himoya qilish, intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish, davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilish kabi ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan, nodavlat tashkilotlari davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda davlat boji to'lashdan ozod etiladi. Shuningdek, davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida nodavlat notijorat tashkilotiga yetkazilgan zararining o'rnini sudning qarori asosida qoplanishi kerak.

Qonunda, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini sub-sidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlashi mumkinligi, shuningdek, davlat qonun hujjatlariga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini boshqa jihatdan ham qo'llab-quvvatlashi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan¹.

Homiylilik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining 2007-yilda qabul qilingan "Homiylilik to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasida xalqaro homiylilik faoliyatini amalga oshirish masalalari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, homiylar, ko'ngillilar hamda homiylilik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida hamda xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda xalqaro homiylilik faoliyatini amalga oshirishga haqlidirlar.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-yil, 1–2-son, 2-modda.

Yana bir toifadagi qonunchilik aktlari to'g'risida gapirilganda, quyidagilarni keltirish mumkin. Jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari-ning huquqiy asoslarini tartibga solishga bag'ishlangan normalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 40-moddasida notijorat va tijorat tashkilotlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash, shuningdek, 73–78-moddalarida jamoat birlashmalari, ijtimoiy jamg'armalar, muassasalar, yuridik shaxslar (assotsiatsiya va ittifoqlar)ning birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mohiyati va xususiyatlarini belgilaydigan normalar aks etgan¹.

Fuqarolik kodeksi bilan solishtirganda, unda belgilangan tartib-qoidalar, alohida turdagi nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunlarda belgilangan umumiy normalarda aks etgan. Qonun yuridik shaxslarning huquqiy holatini tartibga soluvchi Fuqarolik kodeksi normalarini (39–57-moddalar), shuningdek, bir necha turdagi nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va ularning maqomini belgilash asoslari to'g'risidagi normalarini (73–78-moddalar) yanada aniqlashtirgan hamda takomillashtirgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 239-moddasida nodavlat notijorat tashkilotlarining o'z faoliyatini amalga oshirish tartibini buzishiga nisbatan ma'muriy javobgarlik qoidasi belgilab qo'yilgan. Ya'ni, uning birinchi qismida nodavlat notijorat tashkilotlari (diniy tashkilotlar bundan mustasno), shuningdek, ularning vakolatxonalari va filiallarining davlat ro'yxatidan o'tmasdan (hisobga olinmasdan) faoliyatni amalga oshirishi eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa, xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallarining hamda ularning xodimlarining siyosiy faoliyatda, shuningdek, Nizomdagi maqsad va vazifalarga to'g'ri kelmaydigan boshqa faoliyatda qatnashishi, xuddi shuningdek, ularning siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlar tomonidan o'tkaziladigan amaliy harakatlarni hamda tadbirlarni moliyalashtirishi, bunday tashkilotlarni tuzish tashabbusi bilan chiqishi va shunday tashkilotlarni tuzishni qo'llab-quvvatlashi fuqarolarga eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan.

¹ Гражданский кодекс Республики Узбекистан. – Т.: “Адолат”. 1996. – С. 22, 42–45.

NNTlar bo'yicha qonunchilikni tahlil qilish, ana shu tashkilotlarning maqsadlariga qarab, ularni quyidagi kategoriyalarga bo'lishga imkon bermoqda:

birinchidan, keng miqyosda madaniy maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil etiladigan (ta'lim, ilmiy-texnikaviy yo'nalishlarda);

ikkinchidan, aholining sihat-salomatligini mustahkamlash va muhofaza qilish maqsadlarida tashkil etiladigan (sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadigan tashkilotlar, kasalliklarni davolash va profilaktikaning ilg'or usullarini targ'ib qilishga yo'naltirilgan tashkilotlar);

uchinchidan, huquqni himoya qilish bilan shug'ullanadigan har xil yo'nalishdagi tashkilotlar (masalan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkiloti);

to'rtinchidan, fuqarolarning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tuziladigan tashkilotlar (siyosiy birlashmalar, ijtimoiy jamg'armalar va boshqalar);

beshinchidan, xayriya faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotlar¹.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar doirasida fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun qonunchilik, tashkiliy, moddiy shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Kuchli fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni ko'zda tutuvchi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalashning maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha dastur amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 23-iyunda qabul qilingan "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida ko'zda tutilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ushbu ijobiy jarayonni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda fuqarolik institutlari rolini kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy, sotsial va ishbilarmonlik faolligini oshirishga yordam bermoqda.

2005-yili O'zbekistonda NNTlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tashkil etildi. Turli xil yo'nalishlarda (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy, ayollar, yoshlar, ekologik va boshqalar) faoliyat ko'rsatib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi O'zbekistonning 320 dan ortiq NNTlari, bugungi kunda Assotsiatsiyaning a'zolari hisoblanadi. Assotsiatsiya huzurida NNTlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan.

1 Комментарий к Закону Республики Узбекистан "О негосударственных некоммерческих организациях" /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Ташкент, 2001. – С. 15–16.

2008-yilning iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi kengashi va Senati Kengashining birgalikdagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qo'shma qarori fuqarolik jamiyati institutlarini yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlatning yana bir jiddiy qadami bo'ldi.

Ushbu qo'shma qarorga binoan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni taqsimlashni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida:

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik jamg'armasi;

Jamoatchilik jamg'armasi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etildi.

Jamoatchilik jamg'armasi mablag'lari bevosita fuqarolik jamiyati institutlariga ularning murojaatlari asosida va Parlament komissiyasining qarorlariga muvofiq, subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar tarzida ajratiladi. 2008–2012-yillarda davlat budjetidan Jamoat fondiga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tomonidan turli jabhalarda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun 22,4 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Parlament komissiyasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari, Senat a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Adliya va Moliya vazirliklari tegishli tuzilmalari, respublika nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan shakllantiriladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mustaqil, eng demokratik tamoyillarga asoslangan tizimi tashkil etilgan. Jamoatchilik jamg'armasi va Parlament komissiyasining faoliyati eng yuksak demokratik talablar hisobga olingan holda oshkoralik, shaffoflik, xolislik tamoyillari asosida yo'lga qo'yilgan. Ushbu jamg'arma mablag'lari nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan taklif etilgan, mintaqalarning aniq ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan sotsial va ijtimoiy muhim loyihalarni moliyalashtirishga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning 2-chaqiriq 1-sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda demokratik institutlar va jamoat

tashkilotlarining rolini kuchaytirish to'g'risidagi uzoq yillarga mo'ljallangan dasturni bayon qildi:

"Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayoni ni yanada chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish, uning izchilligi va samarasini ta'minlash – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Bu borada quyidagi muhim masalalarga alohida e'tibor berishimiz zarur:

Birinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish.

Bu jarayonda, avvalo, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozim.

Bunda odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, nodavlat tuzilmalari va hukumatga qarashli bo'lmagan jamoat tashkilotlarining hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat tuzilmalari faoliyatini muayyan ma'noda to'ldirishi, ya'ni ularga nisbatan ma'lum bir muvozanatni ta'minlovchi vosita vazifasini bajarishi kerak.

Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat o'z vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur"¹.

Nodavlat notijorat tashkilotlari respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarni o'z a'zolari ishtirokida tahlil qilishlari va ularga nisbatan o'z fikrlarini bildirishlari, islohotlar natijasida o'z oldilarida turgan vazifalarni aniqlab olishlari va jamiyatning barcha a'zolarini ularni bajarishga jalb etishlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi barcha kuchlarni yagona maqsad – vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi va yurt tinchligi yo'lida birlashtiradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatlari kengayib va faoliyati rivojlanib borishi inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov mexanizmi yanada takomillashib borayotganidan va

1 Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T.: O'zbekiston, 2005. – B. 181–182.

kuchli fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

4. Inson huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'rni va roli

Biz yuqorida mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning davlat va nodavlat mexanizmlari to'g'risida to'xtalib o'tdik. O'zbekistondagi mazkur tizimda bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar munosib o'z o'rnini topdi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov tizimiga kiradi. O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tizimi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutlari kiradi. Ularning faoliyati biz oldingi mavzularda ko'rib chiqqan inson huquqlari bo'yicha xalqaro andozalar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tashkil etilgan va doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Quyida ularning huquqiy maqomi va faoliyatiga to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)

O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning tashkil topishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning xizmatlari kattadir. Binobarin, I. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevralda bo'lgan birinchi majlisida qilgan ma'ruzasida Oliy Majlis tarkibida inson huquqlari masalasi bilan shug'ullanuvchi va hozirgi kunda amaliy faoliyat olib borayotgan bu institutni tashkil qilishning zarurligi va ahamiyatini xalq noiblari e'tiboriga havola qilgan edi: "Parlamentimiz – Oliy Majlisning inson huquqlari va erkinligini himoya qilish, uni amalga oshirish, unga kafolat berish borasidagi ta'siri xususida so'z yuritar ekanmiz, qator demokratik mamlakatlar tajribasidan kelib chiqish, Oliy Majlis tarkibida inson huquqlari masalasi bilan shug'ullanuvchi vakillik tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylayman. Bu oliy qonunchilik organimiz maqomiga mos keladi, muhimi, u jamiyatimizda inson huquqlari muammosini hal etishni yangi sifat darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi"¹.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston, 1995. – B. 24.

Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995-yil 6-mayda Oliy Majlis qaroriga binoan, uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko'maklashish uchun Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995-yil 29-avgustdagi Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi nizom bilan tartibga solingan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) haqidagi qonun loyihasi ilk bor umumxalq muhokamasi uchun "Xalq so'zi", "Народное слово" gazetalarida 1997-yil 14-fevralda e'lon qilindi. 1997-yil 24-aprelida esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. O'zbekistonda Parlament islohotlari o'tkazilib, bir palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o'tilganidan keyin ushbu Qonun 2004-yil 27-avgustda yangi tahrirda qabul qilindi. "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi 22 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasining mazkur yangi tahrirdagi qonunining har bir qoidasi inson huquqlari himoyasi uchun xizmat qiladi.

Mazkur qonun Inson huquqlari bo'yicha vakilning huquqiy holatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo'shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyatini olib borishda uning faoliyatini tartibga soluvchi Qonungagina emas, balki boshqa normativ huquqiy hujjatlarga ham asoslanadi. Bunday hujjatlar qatoriga Ombudsman Kotibiyati faoliyati to'g'risidagi nizom, Vakil qoshidagi Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish komissiyasi reglamenti kabilar kirib, bular Vakil faoliyatining barcha yo'nalishlarini batafsil belgilab beradi.

Vakil o'z vazifalarini bajarishda "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari hamda inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga amal qiladi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi 2003-yil 29-avgustdagi O'zbekiston

Respublikasi Qonunining 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilini saylash tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining nomzodi Qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilini saylash masalasi yuzasidan qarori Senatga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ko'rib chiqilganidan keyin ushbu masala yuzasidan qabul qilingan uzil-kesil qaror qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekistondagi Vakil keng huquqiy vakolatlarga ega bo'lib, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon jamiyatining hayoti va faoliyatining Vakilga taaluqli bo'lmagan birorta sohasi yo'q, chunki inson va uning haq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar Vakilning asosiy diqqat obyekti hisoblanadi¹.

Bir tomondan, Vakil zimmasiga tarbiyaviy va ma'rifiy funksiyalar yuklatilgan: u inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tizimlar qatori inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish zaruratini yalpi tan oldirish va tushunishga keng ko'lamda ko'maklashadi, jamiyatga O'zbekiston qonunlari va xalqaro normalarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari, kafolatlari va burchlari haqida atroflicha axborot beradi.

Ikkinchi tomondan, Vakil fuqarolar huquqlarining beg'araz va insonparvar himoyachisidir: u inson huquqlari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan xatoliklarni tugatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolarning huquqlari tiklanishiga yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy ravishda buzilishiga sababchi bo'lgan shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to'g'risida tavsiya qilishga ham haqlidir.

Uchinchi tomondan, Vakil faoliyati chuqur analitik ish bilan bog'liq: u mamlakatda inson huquqlariga qanday rioya qilinayotganligini o'rganishi va tahlil etishi, inson huquqlari buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashi, O'zbekiston normalarining shu sohadagi xalqaro shartnomalarga qanchalar muvofiqligini tekshirishi, inson huquqlariga amal qilishni

¹ Qarang: Dunyo ombudsmanlari. To'plam /Mas'ul muharrir S. Rashidova. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.

ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqishi va boshqa tashkilotlar tayyorlagan analitik dasturlarning hayotga tatbiq etilishida ishtirok etishi lozim.

Vakil faoliyatining *to'rtinchi yo'nalishi* inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash borasida mavjud chet el tajribasini o'rganish va, shu bilan birga, jahon jamoatchiligini respublikamizdagi inson huquqlarini ta'minlash va himoyalash ahvolidan xabardor qilib turishdan iboratdir.

Shunday qilib, Vakil faoliyatining biz ta'riflagan to'rt asosiy yo'nalishi O'zbekistonda inson huquqlari umumiy holatining yaxshilanishi inson va uning huquqlarining jamoatchilik tomonidan hurmat qilinishiga hissa qo'shadi, zero mamlakatning muvaffaqiyatli demokratik taraqqiyotini siyosat, iqtisod, ekologiya va madaniyat sohasida jahon sivilizatsiyasi tomonidan tan olingan inson huquqlari tantanasisiz amalga oshirish mumkin emas. Jamiyatda inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoyalash muammosi qanchalik samarali hal etilsa, u demokratiyaga va fuqarolik jamiyati shakllanishiga shunchalik yaqinlashadi.

*"Biz uchun, – deb yozadi Prezident Islom Karimov, – fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni, erkinlik va qonunga bo'ysunish ayni bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart"*¹.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyati davomida jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ana shu asosiy tamoyillarini taraqqiy ettirish va ularning hayotga tatbiq etilishi uchun xizmat qiladi.

Ombudsman har yili o'zining faoliyati bo'yicha yillik hisobotini e'lon qiladi. Ushbu hisobotida Ombudsman o'z faoliyati yo'nalishlarida olib borgan ishlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berib boradi. Fuqarolarning shikoyatlari bilan ishlash ombudsman institutining asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Fuqarolarning turli davlat organlariga murojaat qilishga bo'lgan o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangan holda Ombudsmaniga yo'llayotgan shikoyatlari yildan-yilga ko'payib bormoqda. 2012-yilda

1 Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997. – B. 173.

Inson huquqlari bo'yicha vakilga 12826 ta murojaat kelib tushdi, shundan Ombudsmanning markaziy ofisiga – 7658 ta, mintaqaviy vakillarga – 895 ta shikoyat va arizalar kelib tushgan¹.

Quyida Ombudsmanning besh yilgi faoliyati bo'yicha berilgan hisobotdan olingan ma'lumotlar, ombudsman institutining fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash bo'yicha besh yilda olib borgan faoliyati bo'yicha ma'lumot berilgan.

№	Kelib tushgan murojaatlar	2012-yil	2011-yil	2010-yil	2009-yil	2008-yil
1.	Ombudsmanning markaziy ofisiga, Shundan:	7658	7134	7124	7394	5676
	Mamlakat mintaqalaridan	6511	6862	6753	6671	5383
	Chet ellik fuqarolardan	792	26	299	666	207
	Jazoni ijro etish muassasalaridan	168	155	49	48	69
	Manzili ko'rsatilmay jo'natilganlar	29	20	6	-	11
	Internet bo'yicha	138	50	17	9	6
2.	Takroran	3710	2653	1983	1516	2370
3.	"Ishonch telefoni" bo'yicha	563	702	624	205	770
4.	Ombudsmanning mintaqaviy vakillariga	895	749	888	1294	1146
	Jami	12826	11238	10619	10409	9962

Fuqarolar shikoyatlarining xususiyati va ularda ko'tarilgan masalalar o'ziga xos indikator vazifasini bajaradi va bu, o'z navbatida, jamiyatdagi mavjud muammolarni va davlat organlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali choralarini ko'rish imkoniyatini beradi. Inson huquqlari qonunchiligining buzilish hollarini aniqlash va fuqarolar murojaatlarini hal qilish maqsadida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Ombudsmanning faoliyat yo'nalishlaridan biri – bu xalqaro hamkorlikdir. Bunday hamkorlik chet ellarda o'tkazilgan konferensiyalar, seminarlar, treninglarda ma'ruzalar bilan qatnashish, shuningdek, mamlakatimizga va uning mintaqalariga kelgan xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan uchrashuvlar va suhbatlar tashkil etish shaklida amalga oshiriladi. Misol uchun, 2012-yilda Ombudsman tomonidan rasmiy delegatsiyalarni, chet davlatlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2013.

va xalqaro tashkilotlarning vakillarini kutib olishga, xalqaro nohukumat va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning vakillari bilan uchrashuvlar va suhbatlar yuzasidan salkam 30 ta qabul o'tkazildi. Yil mobaynida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Chexiya, Shvetsiya, Fransiya, Sloveniya, Xitoy davlatlaridan rasmiy delegatsiyalar, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, UNICEF xalqaro tashkilotlarining vakillari qabul qilindi. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar va chet mamlakatlarning nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Koreya, Ukraina, Polsha va Niderlandiyaga tashrif buyurdi, ombudsmanlarning xalqaro konferensiyasida (Finlyandiya) ishtirok etdi¹.

O'zbekistonda inson huquqlarini monitoring qilishning milliy tizimi shakllandi. O'tgan davr uchun Ombudsman tomonidan respublikaning barcha viloyatlarida quyidagi: ayollar va bolalar huquqlariga, fuqarolarning sudlarga bo'lgan huquqi va davlat organlariga murojaat qilish huquqlariga, uy-joy mulkdorlari huquqlariga, fermerlar va tadbirkorlar huquqlariga, nogironlar va bemorlar huquqlariga rioya etilishi kabi dolzarb muammolar bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazildi. Xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda Maslahat-tahlil kengashi tashkil etildi. Ushbu Kengash ayollar huquqlari, bola huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyalariga va ushbu shartnomalar bo'yicha tashkil etilgan qo'mitalarning qarorlariga rioya etilishi bo'yicha monitoringni amalga oshiradi.

Ombudsmanning mintaqaviy vakillari 2000-yildan buyon O'zbekistonning barcha mintaqalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular fuqarolarning kelib tushgan murojaatlari bo'yicha joylarga, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylariga ham chiqib, o'z tekshiruvlarini amalga oshirish, yana shuningdek, tegishli mintaqalardagi Xalq deputatlari kengashlari majlislarida joylardagi inson huquqlariga rioya etilishi bo'yicha axborotlarni taqdim etish yo'li bilan Ombudsman ishining samaradorligini ancha kuchaytirmoqda.

Ombudsmanga kelib tushayotgan murojaatlar sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari va Inson huquqlari bo'yicha vakil o'rtasida inson huquqlarini haqiqiy (amalda) ta'minlash maqsadida, ularning faoliyatini xalqaro normalarga muvofiq ravishda takomillashtirish bo'yicha konstruktiv muloqotni rivojlantirish zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Ombudsmanning davlat va sud organlari bilan muvaffaqiyatli o'zaro hamkorligiga ular bilan tuzilgan bitimlar yordam bermoqda. Masalan, Ombudsmanning Konstitutsiyaviy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar, Adliya, Sog'liqni saqlash

¹ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2013.

vazirliklari, Sudyalar assotsiatsiyasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi bilan inson huquqlariga oid muammolarni hal qilish bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolangan. Shikoyatlarni tezkorlik bilan hal etish maqsadida markaziy darajada ham, joylarda ham birgalikdagi ishchi guruhlar muvaffaqiyatli ishlab kelmoqda.

Davlat boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishda ombudsman rolini kuchaytirish doirasida O'zbekistonda katta e'tibor ixtisoslashgan ombudsmanlarni tashkil etishga qaratilmoqda. Mamlakatning to'rtta oliy o'quv yurtida universitet ombudsmanlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlik doirasida penitensiar muassasalarda mahkumlar huquqlari bo'yicha ombudsman lavozimini ta'sis etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tibbiy muassasalarda fuqarolar huquqlarining ta'minlanishini nazorat qilishni amalga oshirish maqsadida bemorlar huquqlari bo'yicha ombudsmanlar lavzomi ta'sis etildi. Bolalar ombudsmanini ta'sis etish to'g'risidagi g'oyalar jamiyat tomonidan keng darajada qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xorijiy mamlakatlar ombudsmanlari bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish o'zbek parlament ombudsmani faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2013-yilgacha O'zbekiston parlamenti, Ombudsmani xorijiy hamkorlar, xususan, Rossiya, Polsha, Shvetsiya, Latviya, Ozarbayjon, Slovakiya, Ispaniya, Fransiya, Bolgariya, Portugaliya, Koreya ombudsmanlari bilan 11 ta bitim imzolagan. O'zbekistonning parlament ombudsmani ombudsmanlarning ikkita xalqaro tashkiloti – MDH mamlakatlari orasida birinchi bo'lib, 1998-yil apreldan Xalqaro ombudsman institutining va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib, 2002-yilning mayidan Yevropa ombudsman institutining to'la huquqli a'zosi. 2009-yilning 5-noyabrida esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib 15 mamlakatdan 23 a'zoni o'ziga birlashtirgan Osiyo ombudsmanlari assotsiatsiyasi (OOA)ning a'zoligiga qabul qilindi.

"Ombudsman to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra, Vakil O'zbekistonda inson huquqlariga rioya etilishining ahvoli to'g'risida BMTning tegishli qo'mitalariga O'zbekiston Respublikasining Milliy ma'ruzalarini tayyorlashda ishtirok etadi. Amaldagi qonunchilikni va davlat organlari faoliyatini tahlil qilish asosida, Ombudsman Milliy ma'ruza matni mazmunini yaxshilash va uni BMT qo'mitalari talablariga muvofiq keltirish bo'yicha o'z takliflarini kiritadi. O'tgan davrda BMT qo'mitalariga taqdim etilgan O'zbekistonning barcha Milliy ma'ruzalari Ombudsman Kotibiyatida ekspertizadan o'tdi. O'zbekistonning milliy ma'ruzalari ko'rib chiqilishi-

ning natijalari bo'yicha qabul qilingan BMTning shartnomaviy qo'mitalarining xulosaviy tavsiyanomalari doimiy ravishda Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyasi majlislarida muhokama qilib boriladi.

*O'zbekiston Resublikasi Prezidenti huzuridagi
Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti*

1997-yil 15-yanvarda Oliy Majlis huzurida tashkil etilgan Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti 2005-yilning 2-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan yangi maqomda qayta tashkil etildi. Ya'ni, ushbu institut boshqaruv jihatidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvchi institutga aylantirildi. Bundan maqsad, qonunlarni amalda qo'llashda, O'zbekistonning xalqaro hujjatlariga qanday rioya etilayotganligi bo'yicha Prezidentning yaqindan xabardor bo'lishi va qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tomonidan mavjud normalarga rioya etilishi bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirishni kuchaytirish edi.

Monitoring – lotincha “monitor” so'zidan olingan bo'lib kuzatish, o'rganish, eslatish, baholash, istiqbolni belgilash va nazorat qilish demakdir.

Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti dunyoda birinchi tashkil etilgan parlament va, keyinchalik, prezidentlik institutlaridan biri bo'lib, uning faoliyati qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni takomillashtirish yo'li bilan inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti – demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, inson huquqlari sohasidagi huquqiy normalarga rioya etilishi ustidan monitoring hamda samarali nazoratni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan davlat tashkilotidir.

Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- amaldagi qonun hujjatlarini hamda ularning inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarga muvofiqligini o'rganish;
- qonun hujjatlarini demokratiya va inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar va standartlarga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy normalarni amaldagi qonun hujjatlariga joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- qonunchilik ishi mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha huquqiy tatbiqiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- institutlar va xalqaro tashkilotlar bilan O'zbekistonda inson huquqlari monitoringi sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash;

- qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish;

- amaldagi qonunlarning ro'yobga chiqarilishi va ularning ijrosini nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- qonunchilik ishlari yuzasidan joriy va istiqbolga mo'ljallangan rejalar hamda dasturlarga doir takliflar ishlab chiqish¹.

Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining faoliyat yo'nalishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'mitalari bilan, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan qonunlarni takomillashtirish va ularni xalqaro huquq normalariga moslashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, rag'batlantirish va qonunlarning ijrosini ta'minlash borasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- xalqaro tashkilotlar, xorijiy ilmiy-tadqiqot, maslahat va o'quv markazlari, olimlar va mutaxassislar bilan ilmiy va amaliy aloqalar o'rnatish;

- xalqaro huquqning amaldagi normalari, shu jumladan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar haqidagi ma'lumotlarni to'plash;

- xalqaro huquq normalarining o'rganilishi va taqqoslanishi hamda inson huquqlari sohasidagi davlatlararo shartnomalarga O'zbekistonning qo'shilishi yuzasidan takliflar tayyorlash;

- qonun loyihalari yuzasidan takliflar tayyorlash hamda O'zbekistonning xalqaro majburiyatlariga rioya etishi nuqtayi nazaridan qonunlarning ekspertizasini o'tkazish.

Institutning huquqlari;

- institut o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqiy munosabatlarga o'z nomidan kirishish;

- institutning vakolat doirasiga kiruvchi muammolar yuzasidan muvofiqlashtiruvchi, ilmiy-maslahat va boshqa kengashlar, idoralararo ekspert komissiyalarini tuzish, shuningdek, maxsus yig'ilishlar chaqirish;

¹ Рахмонкулов Х, Рахманов А. Права человека: история и современность. – Т.: Изд. "Мир экономики и право", 1998. – С. 217.

- amaldagi qonun hujjatlari monitoringi sohasida takliflar, xulosalar va tahliliy materiallar tayyorlash uchun zaruratga qarab olimlar va mutaxassislardan muvaqqat ishchi guruhlarini tuzish;

- tegishli xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda muqobilik asosida kerakli axborot almashuvini o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlarini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlaridan, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, konsernlar, korxonalar va tashkilotlar hamda hokimliklardan yo'riqnoma yo'sinidagi hisobot, axborot va tahliliy materiallarni belgilangan tartibda olish va boshqalar.

Institut tomonidan qonun hujjatlari monitoringini amalga oshirish bo'yicha AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganib borilmoqda. Institutning xalqaro hamkorligi, xususan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasining YevropaEyd dasturi, K. Adenauer va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari, Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzuridagi Qonunchilik va qiyosiy huquqshunoslik instituti, Ukraina Oliy Radasi Qonun hujjatlari instituti kabi ilmiy va o'quv markazlari bilan davom etmoqda.

Institut qayta tashkil etilganidan so'ng qator ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar o'tkazildi, parlamentning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan, hukumat tomonidan taqdim etilgan qonun loyihalariga xulosalar tayyorlandi, shuningdek, qonunchilik va monitoring o'tkazishning takomillashtirish masalalari bo'yicha adabiyotlar nashr qilindi. Institut tomonidan advokatura to'g'risida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida, joylardagi davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonunlar qoidalariga rioya etilishi bo'yicha monitoring o'tkazildi va monitoring natijalari bo'yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

BMTning shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini amalga oshirish maqsadida Institut tomonidan amaldagi qonunchilikning ekspertizasi o'tkazilmoqda. Misol uchun, gender yuzasidan o'tkazilgan ekspertiza mustaqillik yillarida mamlakatda ayollarning huquqiy maqomini mustahkamlash, jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilganligini ko'rsatdi.

Institut faoliyati jarayonida inson huquqlari bo'yicha qonun hujjatlari ijrosining monitoringini olib boradi va bugungi kunda bu sohada muayyan tajriba shakllandi. Monitoringlarni amalga oshirishda Institut xodimlari bevosita viloyatlarga chiqadilar. O'tkazilgan monitoringlar natijalari bo'yicha

tegishli davlat organlari va jamoat tuzilmalarining vakillari ishtirokida seminarlar o'tkaziladi.

Institut qonunchilikni monitoring qilish, advokatura institutini rivojlantirish, o'lim jazosini bekor qilish va "Xabeas korpus" institutini joriy etish masalalari¹ga bag'ishlangan qator ilmiy-amaliy qo'llanmalar, to'plamlar va sharhlar nashr qildi. Aholi va mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirish, davlat-huquqiy, sudlov va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolarini muhokama qilish maqsadlarida Institut tomonidan "Fuqarolik jamiyati" jurnali nashr qilinmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi² davlat idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi, ya'ni mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonda inson huquqlari himoyasi bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa, inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi va tashviqot ishlarini olib boradi.

Markazning asosiy maqsadi – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini – huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishdan iborat:

1. Inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
 2. Huquqiy yordam ko'rsatish va inson huquqlarini sud yo'li bilan himoya qilish;
 3. Inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish;
 4. Quyida keltirilgan turli toifadagi shaxslar huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish:
- aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlari;
 - ekologik ofat mintaqalarida yashovchi aholi;
 - dindorlar, turli din vakillari;
 - ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar;
 - harbiy xizmatchilar.

1 Qarang: Право на жизнь и гарантия неприкосновенности личности (научно-практическое пособие) / Отв. ред. д.ю.н., проф. Ш.Х.Файзиев. – Т.: ИМДЗ, 2008, – С. 224.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni bilan 1996-yil 31-oktabrda tashkil etilgan.

5. Nohukumat huquqni himoya etish tashkilotlari faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish;

6. Inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta'minlash;

7. Inson huquqlari sohasidagi ta'limning ko'p maqsadli tizimini – alohida ixtisoslashgan kurslardan tortib ommaviy ma'lumot – tanishuv dasturlarigacha tashkil etish;

8. Ijro hokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo'mitalar, idoralar va muassasalarning inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

9. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari tizimi-ning rivojlanishi asosida xalqaro hamjamiyatga kirish yo'llarini shakllantirish.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

- fuqarolarning huquq va erkinliklari sohasida milliy harakat rejasini ishlab chiqish;

- inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish;

- O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash;

- inson huquqlarini muhofaza qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli bo'lmagan, ya'ni nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- inson huquqlari sohasida davlatlararo ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni ekspert baholash hamda ana shu bitimlar yuzasidan tomonlarning kelishuvida qatnashish;

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berib turish faoliyatini amalga oshirish;

- davlat organlarining inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida ta'lim berish, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlarning axborot bazasini barpo etish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini rivojlantirish yuzasidan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va ularda qatnashish;

- davlat organlarining inson huquqlariga rioya etish va bu huquqlarni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ularga tavsiyalar tayyorlash;

- inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish;

- aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;

- inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida jamoatchilik tashabbuslarini rag'batlantirish va muvofiqlashtirish;

- inson huquqlari bo'yicha adabiyotlar, teleko'rsatuvlar va radio-eshittirishlar, shuningdek, "O'zbekistonda demokratlashtirish va inson huquqlari" ilmiy-ommabop jurnalini tayyorlash va chiqarish;

- milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda inson huquqlariga rioya etish va ularni muhofaza qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar tashkil etish;

- inson huquqlari sohasida hukumatga qarashli bo'lmagan jamoat tashkilotlari, huquqni muxofaza qilish organlari va siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining inson huquqlari va asosiy erkinliklariga rioya qilish, muhofaza qilish va rag'batlantirish bo'yicha faoliyati to'g'risida aholini, shuningdek, xalqaro jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish.

Markaz faoliyat dasturining g'oyaviy asosi – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bayon etilgan huquqiy madaniyatni rivojlantirishning umumbashariy tamoyillaridir.

Huquqiy davlat mafkurasini rivojlantirishni ilmiy rejalashtirish Inson huquqlarini himoya qilish milliy konsepsiyasini yaratishni ko'zda tutadi. Bu konsepsiyada Sharqning ko'p asrlik huquqiy madaniyat tajribasi hamda buyuk ajdodlarimizning turmush tarzi an'analari aks etishi lozim. Markazning inson huquqlarini himoya qilish milliy konsepsiyasini yaratish faoliyati inson huquqlari sohasidagi harakatlar milliy dasturining muhim nazariy qismi ekanligi bilan bir vaqtda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bosqichining boshlanishi ham hisoblanadi.

Markaz BMTning inson huquqlari bo'yicha tegishli shartnomaviy organlariga taqdim etish uchun BMTning inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarining O'zbekistonda bajarilishi to'g'risida davriy milliy ma'ruzalarni tayyorlaydi.

Markaz vazifalaridan biri fuqarolarga maslahat yordamini ko'rsatish hisoblanadi. Fuqarolardan Markazga yiliga 1500 dan ziyod ariza va shikoyatlar kelib tushadi hamda telefon orqali 3000 ga yaqin murojaatlarga huquqiy maslahat beriladi. Murojaatlar xolis sudga bo'lgan huquqni ta'minlash masalalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan dastlabki tergovning noqonuniy o'tkazilishi, sud qarorlarining ijrosi bilan bog'liq, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni buzilishi, ya'ni ijt-

moiy ta'minot, mehnatga bo'lgan huquq, adolatli mehnat sharoitlariga bo'lgan huquq, ta'lim olish huquqi, oilani, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, maqbul hayot tarziga bo'lgan huquq, yashash joyini tanlashga bo'lgan huquq va boshqa shu kabi masalalar bo'yicha murojaat qilishmoqda¹.

Markazning muvofiqlashtiruvchi faoliyatining yana bir turi O'zbekiston qo'shilgan xalqaro hujjatlardagi normalarning bajarilishi to'g'risida Milliy ma'ruzalarni tayyorlashdan iboratdir. O'tgan davr moaynida BMTning shartnomaviy organlariga inson huquqlari bo'yicha 6 ta asosiy hujjatning barchasi bo'yicha milliy ma'ruzalar taqdim etildi va Markaz vakillari BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalari majlislarida O'zbekiston ma'ruzalarining ko'rib chiqilish jarayonida bevosita ishtirok etishdi.

Markaz o'z faoliyati davomida milliy ma'ruzalarni tayyorlashning 15 bosqichdan iborat maxsus tartib-qoidalarini ishlab chiqqan bo'lib, ular qatoriga Milliy ma'ruzani taqdim etish lozimligi to'g'risida BMT tegishli qo'mitasining xabarnomasini olish, ma'ruza loyihasini ishlab chiqish uchun ishchi guruhni tashkil etish, ma'ruza loyihasini tayyorlash, uni tegishli qo'mitaga jo'natish va uning ko'rib chiqilishi, shuningdek, BMT qo'mitasi tavsiyasini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejasi qoidalarining bajarilishi yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirishni kiritish mumkin².

O'tgan davr mobaynida Milliy markaz tomonidan BMTning shartnomaviy organlariga inson huquqlari bo'yicha asosiy oltita shartnoma qoidalarining bajarilishi bo'yicha O'zbekistonning 30 dan ortiq milliy ma'ruzasi taqdim etilgan. Milliy ma'ruzaning BMTning tegishli qo'mitasida ko'rib chiqilishi uchun o'rtacha 2–3 yil vaqt ketadi.

Bundan tashqari, Markaz BMT shartnomaviy organlari tavsiyalarining bajarilishini muvofiqlashtiradi ham. Masalan, ushbu qo'mitalarning tavsiyalarini bajarish maqsadlarida Milliy markaz tomonidan "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Teng huquqlar va imkoniyatlar to'g'risida", "Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) to'g'risida", XMTning bola huquqlariga oid konvensiyalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi kabi qonun loyihalari ishlab chiqilgan.

1 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2011 году. – Т.: НЦПЧ, 2012.

2 Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека: становление и развитие / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т., 2007. – С. 28–29.

O'zbekiston Hukumati tomonidan 2004-yil 9-martda "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyani bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejası" tasdiqlandi. Ushbu chora-tadbirlar rejası amalga oshirilishining monitoringini huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlash bo'yicha Idoralararo ishchi guruh amalga oshiradi. Milliy markaz Adliya vazirligining Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha boshqarmasi bilan birgalikda ushbu guruhning ishchi organi vazifasini bajaradi. Milliy markaz BMTning Inson huquqlari qo'mitasi tomonidan tavsiya qilingan vaqtinchalik choralarga nisbatan davlat organlarining e'tibori amaliyotini o'rganib chiqqan bo'lib, buning natijalari bo'yicha Markaz tomonidan milliy qonunchilikka o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun loyihasi tayyorlangan.

Markaz vakillari huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson huquqlariga rioya qilinishi bilan bog'liq ahvolni o'rganish bo'yicha Idoralararo ishchi guruhda faol ishtirok etishadi. Bundan tashqari, Markaz direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008-yil 8-iyuldagi PQ-911-sonli Qarori bilan tashkil etilgan Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyasining a'zosi ham hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 18-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik jurnallar tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Markaz tomonidan nashr qilinadigan "Demokratlashtirish va inson huquqlari" jurnalining ishini faollashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Milliy markaz "Ijtimoiy fikr, Inson huquqlari" jurnalining hammuassisi ham hisoblanadi. Mansabdor shaxslar va davlat organlari xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida Markaz tomonidan inson huquqlari masalalari bo'yicha 200 nomda kitoblar, darsliklar, qo'llanmalar, to'plamlar, uslubiy qo'llanmalar, shu jumladan, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining o'zi 500 ming nusxada chop etilgan.

Markaz o'z faoliyatini amalga oshirishda BMT, YeXHT, UNESCO kabi qator xalqaro tashkilotlar, AQSh, Fransiya, Angliya, Italiya, Chexiya, Polsha, Koreya, Xitoy kabi davlatlar elchixonalari, qator xalqaro nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, Milliy markaz oliy o'quv yurtlarida inson huquqlari bo'yicha darslar, ma'ruzalar va seminarlar o'tkazilishini amalga oshirmoqda¹.

¹ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2011 году. – Т.: НЦПЧ, 2012.

Markaz xalqaro shartnomalar, xalqaro tashkilotlarning materiallari va qo'llanmalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etishni ham amalga oshiradi. O'tgan davr mobaynida Markaz tomonidan Parlamentlararo ittifoqning "Inson huquqlari: parlament a'zolari uchun qo'llanma", "Bolalarni himoya qilish: parlament a'zolari uchun qo'llanma" nomli qo'llanmalari, Xalqaro mehnat tashkilotining shartnomalari va "Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga barham berish" nomli qo'llanmasi tarjima qilinib, chop etildi. Milliy markaz tomonidan inson huquqlari bo'yicha 110 ta xalqaro shartnomalar matnlarini o'z ichiga olgan 10 ta to'plam chop etildi.

O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri inson huquqlari va erkinliklari masalalari bo'yicha huquqiy ma'rifiy ishlar hisoblanadi. Bu ishlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: inson huquqlari bo'yicha tadbirlar tashkil etish va ularda ishtirok etish; sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, nodavlat tashkilotlari vakillarini inson huquqlari bo'yicha o'qitish; inson huquqlari va erkinliklari masalalari bo'yicha nashr qilinadigan mahsulotlarni chop etish; inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilishning dolzarb masalalari bo'yicha OAVda chiqishlar qilish.

O'zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarning bajarilishi yuzasidan nazoratni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirmoqdalar:

- qonunchilikka rioya etilishini monitoring qilish;
- qonunchilikka oid takliflarni tayyorlash;
- BMT tuzilmalariga milliy ma'ruzalarni tayyorlash va taqdim etish;
- inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha milliy rejani amalga oshirish;

- BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini bajarish bo'yicha milliy harakat rejalarini tayyorlash va amalga oshirish;

- inson huquqlari sohasida texnikaviy yordam dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashish. O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasidagi o'ziga xosligi ularning O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi doirasida hukumat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlarda faol ishtirok etishi hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar "O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi" Parlamentlararo hamkorligi qo'mitasi va adliya, inson huquqlari, ichki ishlar va boshqa masalalar bo'yicha kichik qo'mitasi majlislarida doimiy ravishda ishtirok etishmoqda. Ba'zi olimlar milliy institutlarning xalqaro faoliyatini inson huquqlari

sohasidagi davlat tashqi siyosiy faoliyatining bir qismi sifatida ko'rish-moqda.

Inson huquqlarini ta'minlash masalalarini hal etishga davlat organlari tomonidan milliy institutlar faol jalb etilmoqda. Xususan, Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi bilan, masalan, inson huquqlariga rioya etilishini monitoring qilishni amalga oshirish sohasida o'zaro hamkorlik qilish hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning shakllanishi mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonlari doirasida, davlat va jamiyatning barcha sohalarida demokratik islohotlar o'tkazish doirasida amalga oshirildi. Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning huquqiy maqomini mustahkamlash yo'lida yana bir muhim qadam bo'ldi.

Prezident Farmonida inson huquqlarini himoya qilish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnikaviy bazani mustahkamlash, Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va boshqa institutlar bo'linmalarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish ko'zda tutilgan edi. 2008-yil 20-sentabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu masalaga qaratilgan maxsus qaror qabul qilindi. Shuningdek, 2008-yil noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan milliy qonun hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq keltirish bo'yicha qonuni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar Fuqarolik jamiyatini o'rganish instituti bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuraturasida tuzilgan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha bo'limlar faoliyatini tanqidiy tahlil qilishni o'tkazish va ularning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida takliflar kiritilgan. Ushbu ish fuqarolik jamiyati institutlarining keng darajadagi ishtirokida amalga oshirildi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, shuningdek, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadlarida milliy institutlarning qonunchilik va institutsional asoslarini takomillashtirish O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini yana bir marotaba namoyish qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasidagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning amaliy faoliyati quyidagilarni alohida qayd etishga imkon bermoqda:

Birinchidan, bir necha milliy institutlarning tashkil etilishi inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish sohasidagi imkoniyatlarni anchagina ko'paytirishga imkon berdi, chunki ular amaliy ishlari bilan huquqni qo'llash amaliyotida inson huquqlarini amalga oshirishga, davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligi tamoyilining qaror topishiga, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda, inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishga faol ta'sir ko'rsatishmoqda.

Ikkinchidan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar respublikada inson huquqlari bo'yicha qonunchilikka rioya etilishini tekshirishda faol hamkorlik qilishmoqda, doimiy ravishda inson huquqlari va ularni O'zbekistonda himoya qilish mexanizmlari masalalari bo'yicha seminarlar va konferensiyalar tashkil etishmoqda.

Uchinchidan, ushbu institutlar mamlakatda inson huquqlariga rioya etish masalalarini hal etishda, inson huquqlariga oid qonunchilikni takomillashtirishda o'z faoliyatlarini nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish asosiga qurishmoqda, chunki, xalqaro tajribaning guvohlik berishicha, plyuralistik fuqarolik jamiyati paydo bo'lmaguncha, huquqiy va adolatli davlat qurib bo'lmaydi. Faqatgina to'la huquqli fuqarogina davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari uchun teng hamkor bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, milliy institutlar inson huquqlari sohasida xalqaro-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish yuzasidan xalqaro nazorat jarayonida, xalqaro organlarga yakka tartibda (individual) murojaat qilishga bo'lgan huquqni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, O'zbekistonning BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy organlaridagi faoliyatida hamda inson huquqlari sohasida BMT organlari bilan hamkorlik qilishda muhim rol o'ynovchi Milliy institutlar bo'yicha xalqaro muvofiqlashtiruvchi qo'mita bilan hamkorlik qilishida katta ahamiyat kasb etadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. *Inson huquqlarini ta'minlash usullari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Inson huquqlarini konstitutsiyaga mustahkamlash yo'li bilan ta'minlash usulini tushuntirib bering.*
3. *Inson huquqlarini ta'minlashda qonunchilikning o'rni va rolini tushuntirib bering.*
4. *Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining vazifalarini tushuntirib bering.*
5. *Inson huquqlarini himoya qilishda nosudlov organlari va ularning vakolatlarini tushuntirib bering.*
6. *Inson huquqlarini himoya qilishda advokaturaning o'rnini tushuntirib bering.*
7. *Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarining o'rni va rolini tushuntirib bering.*
8. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) institutining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.*
9. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.*
10. *Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.*
11. *O'zbekistondagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston xalqaro hamkorligini amalga oshirishida tutgan o'rni va rolini tushuntirib bering.*

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: “O'zbekiston”, 2010.
2. “Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007.
3. Rustamboyev M., Nikiforova Ye. Huquqni muhofaza qilish organlari. – T.: Adolat, 2006.
4. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

5. Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека в 2012 году. – Т., 2013.

6. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: Адолат, 2008.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. – Т.: 2010.

8. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining 2003-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. – Т.: 2004.

9. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека: становление и развитие / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: 2007.

10. Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2011 году. – Т.: НЦПЧ, 2012.

17-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi

1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik – O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi.
2. O‘zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi.
3. O‘zbekistonning YeXHT bilan inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi.
4. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi.

1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik – O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir”, deb ko‘rsatib qo‘yilishi, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi qismida “Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”, degan qoida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu O‘zbekistonning dunyodagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga to‘la huquqli a‘zo bo‘lib kirishi hamda uning xalqaro hamjamiyat tomonidan har tomonlama tan olinishi va xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarga jadal kirib borishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O‘zbekiston o‘zining xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli a‘zosi ekanligi to‘g‘risidagi maqomiga 1991-yil 31-avgustda o‘z mustaqilligini e‘lon qilishi orqaligina erishdi. O‘zbekistonning 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunida mustaqilligimizning asosiy negizi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va tamoyillariga, respublikaning tashqi siyosatni tartibga soluvchi qonunchiligiga, harbiy sohadagi qonunchilikka, BMT hamda YeXHTning tamoyillari va maqsadlariga, shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvorliklardan kelib chiqadi:

Birinchidan, o‘zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo‘lgani holda o‘zaro manfaatlarni to‘liq hisobga olish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston insonlar va davlatlar orasidagi o‘zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda;

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati o‘zaro tinchlik, o‘zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydigan tamoyil-larga asosan quriladi;

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik tamoyilini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchlik-sevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o‘rnatmoqda;

Beshinchidan, O‘zbekiston xalqaro normalarning milliy qonunchilik-dan ustunligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarni hurmat qiladi¹.

O‘zbekiston 2013-yil yanvariga kelib, turli sohalarga oid 6000 ga yaqin ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar tuzgan, 70 ga yaqin inson huquqlariga oid muhim xalqaro konvensiyalar va shartnomalar-ga qo‘shilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 17-moddasi 2-qismida “Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’min-lash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlar-aro tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”, deb ko‘r-satilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati-niing asosiy tamoyillari to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida “O‘zbekis-ton Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston davlatining, xalqining oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ko‘zlab, ittifoqlar tuzishi, ham-do‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin”, deyilgan.

Mamlakatimiz ushbu konstitutsiyaviy normalarga rioya qilgan holda hozirgi kungacha 50 dan ortiq turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda. Jahondagi eng yirik universal tashkilot – Birlashgan Millat-lar Tashkilotiga a‘zolik mamlakatimizni xalqaro huquqning to‘la huquqli subyektiga rasman aylantirdi. Shundan so‘ng mamlakatimiz qator xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi va ular bilan qizg‘in hamkorlik olib bormoqda. Ularning O‘zbekistondagi faoliyati mamlakatimizda huquqiy-demokratik

1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O‘zbekiston, 2001. – B. 67–68.

davlat qurilishida katta ahamiyatga ega bo'lmog'da. Bunday tashkilotlar orasida, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning ixtisoslashgan muassasalari, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, kabi xalqaro tashkilotlar va xalqaro jamg'armalarga alohida to'xtalib o'tish joizdir. Mazkur tashkilotlarning asosiy faoliyati inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan O'zbekistonda qator loyihalar, dasturlar va boshqa tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xalqaro hamjamiyatda katta aks-sado bergan, 2012-yilning sentabr oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, mazkur konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy prinsiplari, strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va O'zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaaning mantiqiy davomidir.

O'zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo'lgan o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlagan holda:

turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo'lishi haqida; o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishi haqida va o'z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo'l qo'ymasligi haqida; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplarini aniq-ravshan bayon etadi.

O'zbekiston mafkuraviy tamoyillar sababli ro'y berayotgan turli to'qnashuvlarga o'zining jalb etilishiga hamda qo'shni davlatlar va hududlar bilan chegaralardagi qurolli mojarolar va keskinlik o'choqlarida mamlakatimizning ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi, yaxshi qo'shnichilikning, yuzaga keladigan nizolarni faqatgina tinch yo'l bilan bartaraf etishning qat'iy tarafdoridir.

Mintaqamizda murakkab vaziyat vujudga kelayotgan sharoitda, uzoq va yaqin atrofimizda turli qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va farovonligini saqlash, yon-atrofimizdagi davlatlar va xalqlar bilan o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikda yashash uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ana shunday tashqi siyosatgina xalqimizning asl orzu-umid va intilishlariga mos keladi.

2. O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi

O'zbekiston va BMTning inson huquqlari sohasidagi hamkorligi. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi barcha davlatlar bilan xalqaro tashki-

lotlar doirasida ko'p tomonlama asosda hamkorlikni rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasining BMTning teng huquqli a'zosi bo'lishi mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi hamda o'z milliy xavfsizligini saqlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

1992-yilning 20-yanvarida BMTning Xavfsizlik kengashi ovoz berishsiz o'zining 737-rezolyutsiyasini qabul qildi. Unda Xavfsizlik kengashi O'zbekiston Respublikasining murojaatini ko'rib chiqib, Bosh Assambleyaga O'zbekistonni a'zolikka qabul qilishni tavsiya qildi. 1992-yil 2-martda O'zbekiston BMT a'zoliciga qabul qilindi. Shundan so'ng mamlakatimizning bu xalqaro tashkilot bilan aloqalari tobora kengaya bordi. 1993-yili Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi. Ko'p o'tmay BMTning Rivojlanish dasturi, Qochoqlar ishi bo'yicha vakolatli Oliy Komissari, Bolalar jamg'armasi (UNICEF), Sanoat taraqqiyoti dasturi, Narkotiklarni nazorat qilish dasturi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Aholining joylashish jamg'armasi kabi ixtisoslashgan organlar O'zbekistonda o'z faoliyatini boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur Tashkilotga yuqori baho berib, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha davlatlarning, mintaqalarning, butun jahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir", degan edi¹.

1992-yil 8–13-sentabr kunlari BMT Bosh kotibi o'rinbosari Uilyam Dreylarning O'zbekistonga tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif davomida Toshkentda BMTning mintaqaviy vakolatxonasini ochish to'g'risidagi masala muhokama qilindi. O'sha yilning 16-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida Toshkentda BMTning doimiy vakolatxonasini ochish to'g'risidagi Bitim imzolandi. 1993-yil 24-oktabrda respublikada BMTning vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov vakolatxona ochilishi marosimida so'zlagan nutqida: "Bu tarixiy voqea bo'lib, shunday obro'li tashkilot doirasida vaqti-vaqti bilan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha seminar chaqirib turish ko'zda tutiladi, buning uchun Toshkent barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga tayyor"², deb ta'kidladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi BMT doirasida faoliyat olib bormoqda va o'z tashabbuslari bilan BMTning sessiyalarida faol ishtirok etib kelmoqda.

1 Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruza /Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 47.

2 "Xalq so'zi". 1993-yil 26-oktabr.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 1993-yil 28-sentabrda Bosh Assambleyaning 48-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek: "BMTning eng muhim organi Xavfsizlik kengashi hozirgi dunyoning iqtisodiy-ijtimoiy, etnik-madaniy, diniy, ma'naviy jihatdan g'oyat xilma-xilligini bab-baravar tarzda aks ettirishi, o'zining tarkib topgan konservativ tuzilmasini qayta ko'rib chiqishi uchun ham samarali choralar ko'rish zarurati nihoyatda yetildi".

BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so'zladi va quyidagi tashabbuslarni kiritdi:

- BMT Xavfsizlik kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish, birinchi qadam sifatida Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari tarkibiga jahon siyosatida muhim rol o'ynayotgan Germaniya va Yaponiyani kiritish;

- Global va mintaqaviy tahdidlarga munosabat bildirishda tezkorlikni oshirish uchun Bosh kotib vakolatlarini kengaytirish;

- Xavfsizlik kengashining qurolli mojarolarning oldini olish, ziddiyatlar va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari hamda mexanizmlaridan, shu jumladan, uzoq vaqt davom etayotgan mojarolarni bartaraf etishda "tinchlikka majbur qilish" deb ataluvchi mexanizmdan samarali foydalanish masalalaridagi o'rni va mas'uliyatini kuchaytirish¹.

Xalqaro tajribalardan foydalanish va BMTning qo'llab-quvvatlashi asosida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha quyidagi institutlar tashkil qilinib, faoliyat ko'rsatmoqda: Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) (1995-yil); Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti (1996-yil); Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (1996-yil); Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi (1997-yil).

O'zbekiston Respublikasi BMT tomonidan qabul qilingan bir qator inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan bo'lib, ularning orasida Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro billni tashkil etuvchi hujjatlar muhim o'rin tutadi. BMT Nizomidan keyin turadigan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini O'zbekiston 1991-yil 30-sentabrda ratifikatsiya qildi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Paktning Fakultativ protokolini 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qildi. Ushbu Paktning o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchi fakultativ protokolini 2008-yil 10-dekabrda ratifikatsiya qildi.

¹ I.A. Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasida so'zlagan nutqi, 2000-yil 8-sentabr

BMTning Rivojlanish dasturi O'zbekistonda 1996-yildan buyon faoliyat olib bormoqda. Mamlakat bilan hamkorlik dasturi BMT Rivojlanish dasturining har bir mamlakat bilan amalga oshiradigan hamkorligi yo'nalishini belgilab beradigan asosiy hujjat hisoblanadi. Mamlakat bilan hamkorlik dasturi Hukumat bilan uzviy hamkorlikda ishlab chiqiladi va amal-dagi tartibga ko'ra, besh yillik muddatga mo'ljallanadi. Dastur milliy rejalarga va ustuvorliklarga asoslanadi, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini hamda hamkorlikning ilgari tajribalarini hisobga oladi. 2000–2004-yillarga mo'ljallangan hamkorlik borasidagi ikkinchi Dastur ijtimoiy boshqaruvni takomillashtirish va islohotlarni amalga oshirish uchun aholini yanada kengroq jalb qilish vositasida mamlakatda islohotlar jarayonini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Jumladan, BMT Rivojlanish dasturi o'z sa'y-harakatlarini ikki asosiy soha – aholi uchun barqaror daromadlar manbaini yaratish va inson imkoniyatlarini kengaytirishga qaratadi. Dasturning umumiy maqsadi aholining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va davlat boshqaruvida aholining yanada kengroq ishtirok etishi vositasida islohotlar jarayonini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishdan iborat bo'ldi. Mufassal mavzu sifatida esa, inson huquqlari va gender masalalariga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston BMTning inson huquqlari sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamoqda. 1998-yili Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 50 yilligi doirasida BMTRDning qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekistonda "O'zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv" loyihasi amalga oshirildi. Loyiha doirasida qator mintaqaviy ma'rifiy seminarlar, to'plamlar shaklida xalqaro shartnomalar, risolalar, plakatlar nashr qilindi. 2003-yili Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturining 10 yilligiga bag'ishlangan qator tadbirlar amalga oshirildi. Inson huquqlari sohasida xalqaro shartnomalarni nashr qilish, inson huquqlari bo'yicha ta'lim tizimini yaratish BMTning inson huquqlari ta'limi 10 yilligida amalga oshirildi.

"O'zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish" loyihasi BMTning Rivojlanish dasturi va O'zbekiston hukumati o'rtasida 1997-yil 12-iyulda imzolandi¹.

Loyihaning asosiy maqsadlari:

- Inson huquqlari va demokratik jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha yangi milliy institutlarni mustahkamlash;

¹ "O'zbekistonda demokratlashtirish, Inson huquqlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish" loyihasi: maqsad, natija, istiqbol // Demokratlashtirish va Inson huquqlari. – 1999, 1-son. – B. 25.

- Inson huquqlariga hamda hukumat va nohukumat tashkilotlarining fuqarolar huquqlari hamda erkinliklarini rag'batlantirish va himoya qilishga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;

- Inson huquqlari bo'yicha ma'lumotlar to'planadigan axborot banki tarmog'ini yaratish, xarajatlarni birgalikda qoplash hamda milliy va xalqaro xaziralarni birlashtirish orqali hamjihatlikda harakat qilish edi.

BMTning Rivojlanish dasturi va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Memo-randumda "Ushbu dasturni amalga oshirish zarurati demokratlashtirish va inson huquqlarini himoya qilishda eski boshqaruv institutlarini o'zgartirishda ehtiyojni yuzaga keltirgan". Ushbu dastur doirasida Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman)ni tashkil qilish yuzasidan maslahat ko'magi amalga oshirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida 1997-yil 24-aprelda "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida ushbu institutning tashkil etilishi BMT takliflari va xalqaro normalari asosida amalga oshirildi.

2008-yil may oyida BMT Bosh kotibi va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarning chaqirig'ini qo'llab-quvvatlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 60 yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Dastur: inson huquqlari bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish; monitoring; inson huquqlari sohasida axborot ta'minoti, ta'lim va xalqaro hamkorlik singari 5 bo'limdan iborat tadbirlarni o'z ichiga olgan. Ushbu Dasturga muvofiq, Parlament Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Ikkinchi fakultativ protokolini va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ikkita fakultativ protokolini ratifikatsiya qildi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va inson huquqlari sohasida O'zbekiston siyosatini tushuntirib berish bo'yicha axborot-ma'rifiy materiallar katta miqdorda chop etildi va qayta chop etilmoqda; O'zbekistonning barcha mintaqalarida 60 yillikka bag'ishlangan chora-tadbirlar o'tkazishni qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi maxsus davlat komissiyasi tashkil etildi.

O'zbekiston inson huquqlari sohasida BMTning Nizomiy organlari bilan ham, shartnomaviy organlari bilan ham, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalari bilan ham faol xalqaro hamkorlik olib bormoqda. O'zbekiston delegatsiyasi BMT Bosh Assambleyasining Uchinchi qo'mitasi majlislarida, Inson huquqlari bo'yicha kengashning Oliy darajadagi majlisida (segment) inson huquqlari sohasida ta'lim to'g'

risida, o'lim jazosi bo'yicha moratoriy to'g'risida, inson huquqlari bo'yicha teng huquqli va o'zaro hurmatga asoslangan muloqotni rag'batlantirish to'g'risida turli tashabbuslarni ilgari surib va qo'llab-quvvatlab, doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda.

BMTTD bilan hamkorlikda 1997-yildan buyon quyidagi loyihalar amalga oshirildi: O'zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv (1997–1999), Huquqiy yordam jamiyati (1999–2003), Hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash (2003–2005), Inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha loyiha (2004–2005). 2006–2007-yillarda O'zbekiston Parlamentining qonunchilik va institutsional imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni rivojlantirish hamda ayollarning imkoniyatlari va rolini kuchaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlangan BMTTDning 2010–2015 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda mamlakatlararo dasturni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasi amalga oshirilmoqda.

2010-yil aprel oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Munning O'zbekistonga tashrifi doirasida hozirgi xavf-xatar va tahdidlarning oldini olish, ekologik muammolarni bartaraf etish, Orol dengizi halokati oqibatlarini yengillashtirish masalalari, shuningdek, zamonaviy xalqaro munosabatlarning boshqa ko'plab yo'nalishlari muhokama qilindi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi raislik qilayotgan davrida BMT va ShHTning hamkorligi to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Bunday nufuzli xalqaro tashkilotlarning ulkan tajriba va salohiyatini samarali tarzda birlashtirish xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda yangi istiqbollar ochilishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi bilan yaqindan hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, uning maxsus ma'ruzachilari, ya'ni mandatariylari bilan hamkorlik olib bormoqda.

Mandat egalari inson huquqlari sohasida milliy darajadagi vaziyatni tekshirish uchun mamlakatga tashrif buyurishi mumkin. Odatda, mandatariylar mamlakatga tashrif buyurishga ruxsat so'rab, hukumatga xat yuborishadi. Misol uchun, O'zbekiston hukumati Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning maxsus protseduralari bilan, xususan, muayyan mavzu bo'yicha ma'ruzasi bilan hamkorligini 2002-yilda boshladi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining taklifiga binoan ilk bor 2002-yil noyabr oyida Inson huquqlari bo'yicha komissiyaning maxsus ma'ruzachisi Teo Van Boven mamlakatga tashrif buyurdi. Uning tashrifi davomida davlat organlarining

yuqori martabali xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, xalqaro tashkilotlar va chet el elchixonalarining vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Shuningdek, Teo Van Boven ozodlikdan mahrum etilganlar saqlanadigan muassasalarni ham borib ko'rdi.

Teo Van Boven o'zining 2003-yil fevraldagi tashrif natijalari bo'yicha o'z ma'ruzasini taqdim etdi, unda O'zbekiston Respublikasi hukumatiga qiynoqlarga qarshi kurashish sohasidagi vaziyatni yaxshilash bo'yicha o'z tavsiyalarini berdi. Shu tavsiyalar asosida Milliy harakat dasturi qabul qilinib, 2004-yil 9-martda O'zbekiston hukumati tomonidan tasdiqlandi. Ushbu dasturning barcha bandlari davlat tomonidan 2006-yilda bajarildi. 2010-yili esa, mazkur tavsiyalarning bajarilishi bo'yicha axborotlar yangilandi.

Boshqa mavzular bo'yicha ham BMTning ma'ruzachilari bilan hamkorlik olib boriladi. Masalan, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Milliy ozchilik masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi, Ta'lim masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachi, Terrorizmga qarshi kurash jarayonida maxfiy qamoqda saqlash masalalari bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi, Fuqarolarning suv resurslari va sanitar xizmatlarga imkoniyatlari to'g'risida Maxsus ma'ruzachisi, Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasi bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi, Qullikning yangi shakllari to'g'risidagi masalalar bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi, Madaniy masalalar bo'yicha Mustaqil eksperti murojaatlariga bo'yicha javoblar muntazam ravishda berilib kelmoqda¹.

O'zbekistonning BMT nazorat organlari bilan hamkorligi masalalari. O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asosini mamlakatimiz tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnomalarda ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro billni imzoladi. 1996-yildan O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasiga Billdagi hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yuzasidan hukumat faoliyati to'g'risida milliy ma'ruza yo'llashni boshladi.

O'zbekiston Inson huquqlari qo'mitasiga ikki qismdan tashkil topgan, mamlakatda huquqlarning amalga oshirilishi va ularning qo'llanish samaralari yuzasidan hisobotlar topshiradi. Ushbu hisobotlar tuzilishi jihatidan:

- umumiy holat;
- fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktda qayd etilgan huquqlar bo'yicha alohida axborotdan iborat.

¹ Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2011 году. – Т.: НЦПЧ, 2012.

Ushbu hisobotlarning salbiy jihatlarini asosida amalga oshiriladigan xalqaro protseduralar davlat majburiyatlarini nazorat qilishning eng yaxshi vositasi bo'lib kelmoqda¹.

O'zbekiston hozirgacha BMT Kotibiyati tomonidan alohida ajratib ko'rsatiladigan 22 ta asosiy konvensiyalardan 19 tasini ratifikatsiya qilgan. Respublikaning inson huquqlari sohasida qo'shilgan hujjatlari soni esa, bugungi kunda 70 dan ortgan.

O'zbekiston va BMTning inson huquqlari bo'yicha konvensiyaviy organlari bilan ham hamkorlik o'rnatilgan. O'zbekiston qo'mitalarga tegishli konvensiyalardagi qoidalar bajarilishi yuzasidan davriy ma'ruzalar taqdim etadi. Hozirgacha O'zbekiston qo'mitalarning barchasiga mam-lakatimizda konvensiya qoidalariga amal qilinishi yuzasidan ma'ruzalar taqdim etgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan har bir davlat Qo'mitaga ma'ruzalar taqdim etishi shart bo'ladi. Ushbu jarayonlarning huquqiy asosini konvensiyalar tashkil etadi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irtiqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Qiynoqqa hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar bo'yicha BMTning tegishli qo'mitalariga ular yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar, mavjud kamchiliklar hamda ularni tugatish chora-tadbirlari to'g'risidagi milliy ma'ruzalarni taqdim etadi.

Hozirgi kunda ham O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha nazorat organlari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekiston BMTning o'zi qo'shilgan oltita shartnomasidan kelib chiqadigan milliy ma'ruzalarini o'z vaqtida qo'mitalarga taqdim etib kelmoqda.

1998-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi BMT shartnomaviy qo'mitalariga quyidagi konvensiyalar bo'yicha o'zining birinchi ma'ruzalarini tayyorladi va taqdim etdi:

1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (1998).

1 Ismoilov B. O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlarini ta'minlashdagi xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarish amaliyoti. //O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T.: TDYuL. – B. 76.

2. Qiynoqqa hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi va Ikkinchi milliy ma'ruza (1999–2000).

3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (1999).

4. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (1999).

5. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (1999).

6. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (1999)¹.

2001–2002-yillarda BMT qo'mitalariga O'zbekistonning quyidagi hujjatlar bo'yicha milliy ma'ruzalari jo'natildi va eshitildi:

1. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (ma'ruza 2001-yil yanvarida eshitildi).

2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning bajarilishi bo'yicha Birinchi Milliy ma'ruza (ma'ruza 2001-yil martida tinglandi).

3. Qiynoqqa hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi va Ikkinchi milliy ma'ruza (birinchi ma'ruza 1999-yilda, ikkinchisi – 2002-aprel–may oylarida tinglandi).

4. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza (2001-yilning oktabrida tinglandi)².

2003-yilda Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz tomonidan quyidagi milliy ma'ruzalar tayyorlandi:

1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning bajarilishi bo'yicha Ikkinchi davriy ma'ruza.

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning bajarilishi bo'yicha ikkinchi davriy ma'ruza.

2004-yilda esa, quyidagilar tayyorlandi:

1. BMTning shartnomaviy organlari uchun mamlakat ma'ruzasi (2004-yil yanvarida taqdim etilgan).

1 Бакаева Ф. Выполнение Республикой Узбекистан международных обязательств в сфере прав человека: опыт и проблемы // O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T.: TDYuL. – B. 36

2 O'sha manba. – B. 37.

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha Birinchi va Ikkinchi milliy ma'ruzalar;

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha Ikkinchi milliy ma'ruza;

4. Qiynoqqa hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha Uchinchi milliy ma'ruza;

5. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha Uchinchi va To'rtinchi milliy ma'ruzalar;

6. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha Uchinchi ma'ruza;

7. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha Ikkinchi Milliy ma'ruza¹.

2005-yilda quyidagi ma'ruzalar qo'mitalar tomonidan ko'rib chiqildi:

1. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha Ikkinchi milliy ma'ruza BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqildi (2005-yil 21–22-martda Nyu-Yorkda);

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha Birinchi milliy ma'ruza Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita tomonidan ko'rib chiqildi (2005-yil 11–14-noyabrda Jenevada).

2010-yili esa:

- Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha Uchinchi va To'rtinchi Milliy ma'ruza; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha Ikkinchi milliy ma'ruza BMTning tegishli konvensiyaviy qo'mitalariga taqdim etildi².

- Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha uchinchi milliy ma'ruza, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha to'rtinchi milliy ma'ruza, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qoidalarining bajarilishi

1 Бакаева Ф. Выполнение Республикой Узбекистан международных обязательств в сфере прав человека: опыт и проблемы // O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T.: TDYuI. – B. 38

2 Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2010 году. – Т.: НЦПЧ, 2011. – С. 13.

bo'yicha oltinchi-yettinchi milliy ma'ruzalar tegishli BMTning tegishli konvensiyaviy qo'mitalarida ko'rib chiqildi¹.

2011–2013-yillarda Qiynoqqa qarshi konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha to'rtinchi milliy ma'ruza, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarining bajarilishi bo'yicha to'rtinchi milliy ma'ruza, Irtiqy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qoidalarining bajarilishi bo'yicha sakkizinchi-to'qizinchi milliy ma'ruza, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ikkita Qo'shimcha protokollar qoidalarining bajarilishi bo'yicha ikkita birlamchi ma'ruzalar BMTning tegishli shartnomaviy qo'mitalariga taqdim qilindi. Shuningdek, 2013-yilda BMT Inson huquqlari kengashiga Universal davriy hisobot doirasida O'zbekistonning ikkinchi milliy ma'ruzasi ham taqdim qilinib, ko'rib chiqildi.

Umuman olganda, 2013-yilga kelib, BMTning tegishli qo'mitalariga O'zbekiston Respublikasining 32 ta milliy ma'ruzalari yuborilgan, ulardan 25 tasidan ortig'i ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston BMTning konvensiyaviy organlariga taqdim qilgan milliy ma'ruzalari xususida qo'mitalar tomonidan bildirilgan fikr va takliflar inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarda, nodavlat tuzilmalarida muhokama qilinadi.

1995-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya (CEDAW)ni ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar singari, Konvensiya imzolangach, bir yildan keyin, so'ngra har to'rt yilda CEDAW Qo'mitasida hisobot beradi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Milliy ma'ruzani 1999-yilda BMTning CEDAW Qo'mitasiga taqdim etgan. Qo'mita ma'ruzani 2001-yil yanvar oyidagi sessiyada ko'rib chiqdi. 2006-yil 6–13-avgustda Nyu-York shahrida BMTning CEDAW Qo'mitasida O'zbekiston Respublikasining Ikkinchi va Uchinchi milliy ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Davra suhbatlari davomida BMTning 36-sessiyasida CEDAW Qo'mitasida 2001–2006-yillar mobaynida Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ijrosi bo'yicha ko'rib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy ma'ruzasi natijalari muhokama etilib, ushbu sessiyada ishtirok etgan NNT vakillari axboroti tinglandi².

1 Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр по правам человека в 2010 году. – Т.: НЦПЧ, 2011. – С. 23.

2 Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ijrosiga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining milliy ma'ruzasi natijalar. // Demokratlashtirish va Inson huquqlari. – 2006, 4-son. – B. 47.

Shartnomaviy organlar bilan hamkorlik milliy ma’ruzalarni doimiy ravishda taqdim etish, qo’shimcha savollarga javoblar berish va ma’ruzalarni ko’rib chiqishda delegatsiyaning ishtirok etishida o’z aksini topgan. O’zbekiston Inson huquqlari bo’yicha qo’mitaning fuqarolarning yakka tartibdagi (individual) murojaatlarini qabul qilish vakolatini ham e’tirof etadi.

BMT shartnomaviy organlarining xulosaviy mulohazalarini bajarish maqsadida O’zbekistonda milliy harakat rejalarini ishlab chiqish va qabul qilish amaliyoti shakllangan. Bunday harakat rejalarida inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalarni implementatsiya qilish bo’yicha va shartnomaviy qo’mitalar tavsiyalarini samarali amalga oshirish bo’yicha batafsil chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan. Shu bilan birga, qayd etish lozimki, mazkur rejalarining ijrochilari sifatida nafaqat davlatning huquqni muhofaza qilish organlari, balki nodavlat tashkilotlari ham ishtirok etadi.

Inson huquqlari bo’yicha xalqaro majburiyatlarni ta’minlab berish zaruriyati muvofiqlashtiruvchi idoralararo organ – Adliya vaziri rahbarligi ostida Inson huquqlarini ta’minlab berish bo’yicha Idoralararo ishchi guruhni tuzishga olib keldi. Ushbu organ BMT shartnomaviy organlari tavsiyalarini bajarish bo’yicha milliy harakat rejalarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va ijro etishni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-iyuldagi 227-sonli qarori bilan “Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishining holatini o’rganish bo’yicha Idoralararo ishchi guruhi to’g’risida”gi Nizom ham tasdiqlandi.

Idoralararo ishchi guruhining asosiy vazifalaridan biri etib, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek BMTning asosiy Konvensiyalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo’llash amaliyotiga implementatsiya qilish bo’yicha takliflar tayyorlash belgilandi.

Mazkur yo’nalishda Idoralararo ishchi guruhi tomonidan O’zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma’ruzalarini ko’rib chiqish natijasi bo’yicha BMT konvension organlarining yakuniy tavsiyalari va e’tirozlarini ko’rib chiqish, shuningdek, ushbu yakuniy tavsiya va e’tirozlarning ijrosi bo’yicha Milliy harakat rejalarini tasdiqlash va monitoring qilish ishlari olib borilmoqda.

Bunga misol tariqasida, O’zbekistonning ikkinchi va uchinchi davriy ma’ruzasini ko’rib chiqish natijasi bo’yicha BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish bo’yicha Qo’mitasi tavsiyalarini bajarish yuzasidan tasdiqlangan Milliy harakat rejasiga asosan “Odam savdosiga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan, O’zbekiston Respublikasining

Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligini keltirishimiz mumkin.

Ta'kidlash kerakki, 2004-yildan boshlab hozirgi kunga qadar Ishchi guruhi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro ekspertlarining tavsiyalari ijro qilinishi bo'yicha 10 ta milliy harakat rejalari tasdiqlanib, ularning ijrosi monitoring qilinmoqda.

Oxirgi to'rt yil davomida esa, ishchi guruhi tomonidan bir qator milliy harakat rejalari, ya'ni:

- 2008-yil 23-sentabrda BMTning qiynoqlarga qarshi Qo'mitasining tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakat rejas;

- 2009-yil 30-sentabrda BMTning Inson huquqlari Kengashi tavsiyalarini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejas;

- 2009-yil 9-sentabrda O'zbekistonning universal davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha BMTning Inson huquqlari Qo'mitasi tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakat rejas;

- 2010-yil 20-sentabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt talablarini bajarilishi to'g'risida"gi O'zbekistonning Uchinchi davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha Inson huquqlari Qo'mitasi tomonidan berilgan tavsiyalar ijrosiga yuzasidan (Nyu-York. 2010-yil 11-12-mart, 98-sessiya) Milliy harakat rejas;

- 2011-yil 30-martda O'zbekiston Respublikasining Oltinchi va Yettinchi davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra BMTning Irqiy kamsitishlarni tugatish bo'yicha Qo'mitasi tavsiyalarini bajarish yuzasidan Milliy harakat rejalari tasdiqlandi.

Hozirgi vaqtda jami tasdiqlangan milliy harakat rejalari 6 tasi-ning ijrosi davom ettirilmoqda. Shu bilan birga, Idoralararo ishchi guruhi tomonidan milliy harakat rejalari ijrosi doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquqlariga rioya etilishi ahvoli bilan bog'liq masalalar ham ko'rib chiqilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston taqdim etayotgan milliy ma'ruzalar va ularning bajarilishi yuzasidan mamlakatda olib borilayotgan chora-tadbirlardan xulosa qilish mumkinki, BMT bilan inson huquqlari sohasida hamkorlik qilishni O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida muhim vazifa sifatida baholaydi va O'zbekiston qo'shilgan hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini sidqidildan bajarib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining BMT bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi BMTning Mingyillik taraqqiyot maqsadlarini bajarish yuzasidan ham faol amalga oshirilmoqda.

BMT doirasida inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish masalalariga oid yana bir eng muhim katta tadbirlardan biri 2000-yildagi Mingyillik sammitidir. Mazkur Sammit va unda ko'tarilgan Mingyillik taraqqiyot maqsadlari (MTM) va uning natijalari hamda kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan 2010-yildagi Sammit to'g'risida inson huquqlari bo'yicha konferensiyalarga bag'ishlangan 4 bobda batafsil to'xtalib o'tgan edi.

BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik sammiti nomini olgan mazkur tarixiy sammitlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirok etgan, bu sammitlarda kun tartibiga qo'yilgan masalalarga yuqori baho bergan. Jumladan, 2000-yili bo'lib o'tgan BMTning tarixiy sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov so'zga chiqib, sessiyada muhokama etilayotgan masalalar "globallashuv davrining asosiy muammolari" ekanligini alohida ta'kidlagan holda, BMT Bosh kotibi ma'ruzasi hamda jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammolar to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.

Oradan o'n yil o'tib, ya'ni 2010-yil sentabr oyidagi Sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov so'zga chiqib, O'zbekistonda Mingyillik taraqqiyoti maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar to'g'risida xalqaro hamjamiyatni yaqindan xabardor qildi. Jumladan, u mamlakatdagi iqtisodiy yuksalish natijasida aholi turmush tarzining muttasil ravishda yaxshilanib borayotganligi, davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratilayotganligi, jumladan, har yili ijtimoiy sohaga Davlat budjetining 50 foizi ajratilayotganligi, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash 82,5 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash 83,5 foizni tashkil etayotganligi, sog'liqni saqlash sohasini tubdan isloh qilish natijasida onalar o'limini 2 baravar, bolalar o'limini esa, 3 baravar qisqartirishga erishilganligi, insonlarning o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarniki – 75 yoshgacha uzayganligi, mamlakatda ishlayotganlarning 48 foizini ayollar tashkil etishini qayd etdi. Prezident o'z nutqida yana shuningdek, 2008–2009-yillarda jahonda yuz bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish tegishli ravishda 9 va 8,1 foizni tashkil etganligini va 2010-yilda 8,5 foiz o'sish kutilayotganligini, har yili yalpi umumiy mahsulotning 10–12 foizi ta'limga sarflanayotganligini ta'kidladi¹.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi (2010-yil 20 sent.); Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari /I. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 9–11.

O'zbekiston Mingyillik deklaratsiyasini imzolagan davlat sifatida MTM maqsadlariga erishish bo'yicha o'z majburiyatlarini izchil bajar-moqda. Ularning milliy taraqqiyot doirasida muhimligi va dolzarbligini e'tirof etgan holda, O'zbekiston hukumati fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda MTM bo'yicha o'z milliy vazifalari va ko'rsatkichlarini belgilab oldi. Bu ko'rsatkich va vazifalar qator davlat strategiyalari va dasturlariga kiritilgan.

O'zbekiston XXI asrning tarixiy bosqichida taraqqiy topayotgan, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida rivojlangan infratuzilmalarga ega bo'lgan demokratik davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahonning boshqa davlatlari qatori mamlakatimiz jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga va o'z xalqining tinchligi hamda farovonligini izchillik bilan ta'minlashga intilmoqda. Mamlakatda tez o'zgarib borayotgan hozir-gi zamon talablariga to'la javob beradigan aniq, chuqur o'ylangan harakat dasturi amalga oshirilmoqda. Ko'rilayotgan tashkiliy-huquqiy va amaliy, izchil va tizimli choralar o'zini oqlagan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni, ijtimoiy o'zgartishlarni amalga oshirish, jamiyatda tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, tinchliksevar siyosat olib borish va jahon global jarayonlariga integratsiyalashuvni ta'minlamoqda.

Iqtisodiyot, siyosat va davlat-huquqiy sohalaridagi barcha islohot-lar pirovard natijada insonning munosib turmush kechirishi, aholining daromadlari va farovonligini oshirish, musaffo ekologik muhitni yaratish hamda fuqaro va, umuman, jamiyatning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyatlarini to'la namoyon etishi uchun keng imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgandir.

Davlatimiz tomonidan so'nggi o'n yil davomida amalga oshirilgan bu keng ko'lamli ishlar O'zbekiston o'z taraqqiyotining tegishli bosqichida BMTning Mingyillik taraqqiyoti maqsadlarining to'la hajmda bajarili-shini ta'minlashga xizmat qildi. Masalan, so'nggi yillarda ijtimoiy jihatdan muhim dasturlar davlat budjetida ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Davlatning ijtimoiy sohalaridagi va aholini ijtimoiy muhofaza qilishga ajratilgan xarajatlari 2000-yilga nisbatan qiyosiy qiymat ko'rsatkichlarida ikki barobardan ham ko'proqqa ortdi.

O'zbekiston Respublikasida o'z mohiyati va mazmuni bo'yicha no-yob hisoblangan, o'n ikki yillik yaxlit uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlari sifatini tubdan va tizimli oshirish yuzasidan maxsus choralarni ko'rish ko'zda tutilgan Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ta'lim jarayoni sohasida muvaffaqiyatli

amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekistonning BMTning Mingyillik taraqqiyoti maqsadlarida belgilangan boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish rejalarini muddatidan ilgari to'la-to'kis bajarganligini tasdiqlaydi.

Aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha belgilangan choralar tizimida sog'liqni saqlash va odamlar salomatligini muhofaza qilish muhim o'rin tutadi. So'nggi vaqtlarda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'la qayta ko'rib chiqildi. Aholiga bepul shoshilinch, yuqori malakali tibbiy xizmat ko'rsatishning eng yuksak talablariga javob beradigan ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va bo'limlar shoxobchalarining tashkil etilishi bu sohadagi islohotlarning eng muhim va amaliy natijasi bo'ldi. Sog'liqni saqlash sohasida hamda "Sog'lom avlod", "Ona va bola" va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirish yuzasidan ko'rilgan tizimli choralar natijasida MTM rejalarida bolalar o'limini qisqartirish, onalar salomatligini yaxshilash bo'yicha belgilangan vazifalarni ham hal etishga muvaffaq bo'lindi.

O'zbekistonda shu maqsadlarda ayollarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi rolini faollashtirish bo'yicha izchil ish olib borilmoqda. Bunda BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasini, Xalqaro mehnat tashkilotining "Onalikni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish to'g'risida"gi konvensiyalarining ratifikatsiya qilinganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur xalqaro shartnomalar va bu sohada O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalarning normalari milliy qonunchilikka implementatsiya qilib borilmoqda. Bu borada, mamlakatda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini qonuniy ta'minlashning barcha zarur asoslari yaratilganligini, ayollarga nisbatan davlat siyosatini yanada rivojlantirish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini shakllantirish maqsadlariga qaratilgan 100 dan ortiq qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shuningdek, islohotlar jarayonida ayollar rolini oshirishda markazda va joylarda hokimiyatning vakillik organlariga nomzodlar ko'rsatishda kvotalash institutini joriy etish bo'yicha qabul qilingan qonun ham, ayollar huquqlariga oid xalqaro shartnomalarda hamda MTMda belgilab qo'yilgan qoidalarni bajarishda muhim qadam bo'ldi¹.

¹ Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi (2010-yil 20-sentabr); Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari / I. Karimov. – T.: O'zbekiston, 2010.

O'zbekiston boshqa sohalarda ham BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bu yo'nalishda BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti – UNESCO bilan hamkorlik keng ko'lamda olib borilmoqda. “Biz, – degan edi Islom Karimov UNESCOning 1996-yilda bo'lib o'tgan Ijroiya kengashi sessiyasida, – avvalo, ma'naviy sohada, fan, madaniyat, ta'lim va axborot sohalarida integratsiyalashuvni yoqlab chiqamiz”¹. O'zbekiston 1993-yil 29-oktabrda Parijda tantanali ravishda UNESCOga a'zo bo'ldi. UNESCO bilan O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni faollashtirish uchun 1996-yilda Toshkentda UNESCOning O'zbekistondagi Vakolatxonasi ochildi.

Mazkur tashkilotning asosiy maqsadi jahon xalqlari o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat, axborot sohalarida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Tashkilotga a'zo mamlakatlarda Tashkilot vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Tashkilot bilan a'zo-davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirish bo'yicha milliy organ – UNESCO ishlari bo'yicha milliy komissiyalar tuziladi. Shuningdek, 1994-yili UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tashkil etilgan.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib, hamkorlikda ta'lim, fan va madaniyat sohalarida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklash, o'rganish va targ'ib etish, madaniy yodgorliklarni, tarixiy obidalarni, muqaddas qadamjolarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, ta'mirlash va kelgusi avlodlarga yetkazish hamda ajdodlardan qolgan madaniy va ma'naviy merosni chuqur ehtirom va mehr-muhabbat bilan qadrlash borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yilligi, “Alpomish” xalq dostoni yaratilganining 1000 yilligi, “Avesto”ning 2700 yilligi, Shahrisabz shahrining 2700 yillik, Samarqandning 2750, Marg'ilonning 2000 va Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyleri nishonlangani ana shunday ulug'vor ishlardandir. Ushbu tadbirlar UNESCO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

UNESCO yurtimizda o'tadigan ko'plab madaniy tadbirlarning mehmoni, tashkilotchisi va ishtirokchisidir. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida ham tashkilot muntazam qatnashib keladi.

¹ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 23.

UNESCOning Birlashgan maktablar dasturi tarmog'i ta'lim sohasidagi asosiy dastur hisoblanadi. Dunyodagi olti mingdan ziyod maktab Birlashgan maktablar dasturi a'zosi. Ushbu dasturning asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqot va barqaror taraqqiyot g'oyalarini targ'ib etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish bo'yicha faol ish olib bormoqda. 1996-yildan buyon mazkur tarmoqqa yurtimizning 45 ta'lim muassasasi a'zo bo'lgan. Mazkur ta'lim muassasalari bir qator xalqaro dasturlarda muvaffaqiyatli qatnashib, "Ta'lim barcha uchun" maqsadlarini va BMTning barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligini targ'ib etmoqda.

UNESCO tomonidan 2003-yilda "Barqarorlik va taraqqiyot uchun ta'lim 10 yilligi" e'lon qilindi. Bu borada mamlakatimizda ham ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda. Ushbu dastur doirasida aholining til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish, ma'naviyat va ma'rifat yo'nalishlari bo'yicha ta'limni rivojlantirish, fan-texnika yutuqlaridan yanada keng foydalanishni ta'minlash kabi vazifalar izchillik bilan amalga oshirilmocda.

UNESCOning fan dasturlari doirasida biologik xilma-xillikni asrash va tabiiy manbalardan oqilona foydalanish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan loyihalar amalga oshirildi.

Madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash UNESCO faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. UNESCOning sa'y-harakatlari tufayli Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Samarqand kabi dunyoga mashhur shaharlar, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sharq qo'lyozmalari kolleksiyasi hamda noyob Mushafi Usmon "Umumjahon merosi ro'yxati"ga kiritilgan.

O'zbekiston bilan UNESCO o'rtasidagi hamkorlik qamrovi kengayib bormoqda. Ushbu xalqaro tashkilot bilan faol hamkorlik, nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini oshiradi va dunyoga tanitadi, balki ta'lim, fan va madaniyat sohalariga oid inson huquqlarini yanada samarali ta'minlab berishga va himoya qilishga yordam beradi.

O'zbekiston va UNESCO hamkorligining yana bir muhim yo'nalishi – bu UNESCO hujjatlariga O'zbekistonning qo'shilishi va ularni bajarishi hisoblanadi. Qator xalqaro konvensiya va deklaratsiyalarga qo'shilish O'zbekistonning jahon madaniy hamjamiyatiga integratsiyalashuvining huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston UNESCOning 10 ga yaqin xalqaro-huquqiy hujjatlariga qo'shilgan bo'lib, ular orasida quyidagi eng muhimlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- Ta'lim sohasida kamsitishlarga qarshi konvensiya (1960-yil);
- Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (Umumjahon madaniy konvensiyasi, 1972-yil);
- Qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi konvensiya (1954-yil);
- Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga egalik huquqini o'zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi konvensiya (1970-yil);
- Nomoddiy madaniy merosni asrash to'g'risidagi konvensiya (2003-yil) va boshqalar.

UNESCO doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan ko'plab xalqaro konvensiyalarning asosiy vazifasi madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonning ularga qo'shilishi madaniy boyliklarimizning jahon hamjamiyati tomonidan huquqiy himoya qilinishiga va ularni keng targ'ib qilishga imkon beradi.

UNESCONing normativ hujjatlariga qo'shilish O'zbekistonning ilmiy salohiyati, fani, madaniyati va tarixiy durdonalarini targ'ib qilishga va bu sohadagi ishlarning samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar ochib beradi hamda bu sohadagi qonunchiligimizning yanada rivojlanishiga, umuman, ta'lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va informatika sohasida O'zbekistonning yanada rivojlanib, jahondagi eng ilg'or mamlakatlar qatoriga qo'shilishiga yordam beradi.

1998-yil 6-noyabrda O'zbekistonga UNESCONing Ijroiya kengashi tashrif buyurdi hamda Toshkentda o'zining 155-sessiyasi yakuniy majlisini o'tkazdi va unda "Tinchlik madaniyati va UNESCONing a'zo-davlatlardagi faoliyati" deb nomlangan maxsus Deklaratsiya qabul qilindi. Ushbu sessiyaning yakunlovchi majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov nutq so'zlab, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Tinchlik madaniyati g'oyasi XXI asrdagi umuminsoniy taraqqiyot falsafasining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya o'tgan asrlarda ham ko'p qirrali va betakror insoniyat sivilizatsiyasi rivojining o'zagi, yuksak ma'naviyat va insonparvarlik g'oyalarining asosi bo'lib xizmat qilgan. Bu g'oya bugun ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish yo'lida xalqlarni birdamlik va hamkorlikka da'vat etishi lozim. Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o'ziga xosligining o'zaro uyg'unlashuvida deb bilaman"¹.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston. 1999. – B. 194.

Shuningdek, u o'z nutqida O'zbekiston bilan UNESCO hamkorligini rivojlantirish va chuqurlashtirish istiqbollarini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirib borishni taklif etgan edi:

birinchidan, mintaqamizda tinchlik va barqarorlik o'rnatishga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirish;

ikkinchidan, UNESCOning "Umr bo'yi ta'lim hamma uchun" dasturida bundan keyin ham faol ishtirok etish;

uchinchidan, o'zbek xalqining boy o'tmishi va madaniyatini UNESCO bilan birgalikda targ'ib qilishni kuchaytirish;

to'rtinchidan, o'zbekona bag'rikenglik tamoyillarini, bu borada o'zbek xalqining boy tajribasini UNESCO yordamida butun dunyoga tarqatish orqali turli millatlar, etnik va diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish va o'zaro hurmat g'oyalariga asoslangan tinchliksevar siyosatni targ'ib qilish;

beshinchidan, Orol muammosi kabi, mintaqadagi mavjud ekologik muammolarni yechishda UNESCO bilan yaqindan hamkorlik qilish¹.

UNESCO bilan hamkorlik tufayli butun dunyo O'zbekistonning nihoyatda boy moddiy va nomoddiy merosi to'g'risida xabar topmoqda, O'zbekiston uchun ta'lim, fan, madaniyat sohasida yangidan-yangi istiqbollar, xalqaro ilmiy va madaniy markazlar bilan keng aloqalar o'rnatish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

UNESCOning xalqaro hujjatlariga qo'shilish va ulardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish, avvalambor, mamlakatimizning ta'lim, fan va madaniyatini xalqaro standartlar asosida yanada rivojlantirishga, bu sohadagi moddiy va nomoddiy boyliklarimizni asrab-avaylashda, keyingi avlodlarga yetkazib berishda, va nihoyat, O'zbekistonning jahon madaniy hamjamiyatiga yanada chuqurroq integratsiyalashuvi uchun huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, alohida qayd etish kerakki, UNESCO O'zbekistonda ta'limni qo'llab-quvvatlashga ham katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida 10 ga yaqin UNESCO kafedralari ochilgan bo'lib, ular UNESCOning YUNITVIN dasturi doirasida jahon UNESCO kafedralari tarmog'iga kiritilgan. Shuningdek, 30 dan ortiq UNESCO maktablari faoliyat yuritadi. Mazkur kafedralar va maktablar UNESCO tashkiloti bilan hamkorlikda va uning qo'llab-quvvatlashi asosida tashkil etilgan.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston. 1999. – B. 205.

Inson huquqlari sohasidagi BMTning yana bir *ixtisoslashgan tashkiloti* – *Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)* bilan O'zbekiston Respublikasining hamkorligi mamlakatimizning 1992-yil 13-iyulda ushbu Tashkilotga a'zo bo'lganidan boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalqaro mehnat tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi va, o'z navbatida, bu faoliyat dunyodagi hozirgi vaziyatni aks ettirishi hamda a'zo-davlatlar bilan to'rtta strategik masala (asosiy prinsiplar va mehnat sohasidagi huquq masalalari, bandlik, ijtimoiy himoya va ijtimoiy muloqot hamda shunga bog'liq boshqa masalalar) doirasida hamkorlik olib boradi. Shu o'rinda, O'zbekiston XMT e'tiboridagi gender tenglik, umumiqtisodiy va ijtimoiy rivoj, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish, bolalar mehnatining eng yomon shakllariga yo'l qo'ymaslik sohasidagi muammolarni tan oladi va ularning muhimligini e'tirof etadi¹.

Bugunga kelib, O'zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan XMTning 13 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilingan. Bu hujjatlarning normalari milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilinmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston va Xalqaro mehnat tashkiloti o'rtasida Hamkorlik dasturi imzolangan. Hamkorlik dasturi hozirgi xalqaro va milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qiyinchiliklari va shu bilan bog'liq muammolarini anglashga asoslangandir. Bu muammolarni yechishda esa, bir tomondan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati, ish beruvchilar va mehnatkashlarning milliy tashkilotlari, ikkinchi tomondan, Xalqaro mehnat tashkiloti manfaatdordir.

Hamkorlik dasturida hamkorlikning quyidagi asosiy yo'nalishlari kelishib olinan:

- Xalqaro mehnat tashkilotining tegishli tajribasi va mexanizmini ishlatish orqali aholining ijtimoiy zaif qatlamlari ishtirokida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;

- mehnat himoyasining boshqaruv tizimi va mehnat himoyasining axborot bazasini takomillashtirish hamda mehnat xavfsizligi va himoyasi sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish;

- mehnat sohasida OITS/OITV tarqalishining oldini olish;

- korxonalarni ijtimoiy mas'uliyatli qayta shakllantirishda ko'maklashish;

- ijtimoiy-adolatli mehnat haqi to'lanishini yo'lga qo'yishga va maoshlarni to'lashda ushlab qolinishlarga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashish;

¹ Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. / O'zbekcha nashri uchun mas'ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – B. 15–16.

- ishsizlarga, Xalqaro mehnat tashkilotining “O‘z ishingni boshla va takomillashtir!” dasturidan foydalangan holda shaxsiy tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirish asoslarini o‘rgatishga ko‘maklashish.

Shunday qilib, hozirgi paytda O‘zbekistonda Hamkorlik dasturi jadallik bilan amalga oshmoqdaki, uning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-mehnat sohasi islohotiga ko‘maklashishdir¹.

Bugungi kunda O‘zbekiston ham XMTning inson huquqlarini ta‘minlashda ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan konvensiyalariga qo‘shilgan. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- Majburiy yoki zo‘raki mehnat to‘g‘risidagi 1930-yilgi konvensiya;
- Qirq soatlik ish haftasi to‘g‘risidagi 1935-yilgi konvensiya;
- Haq to‘lanadigan ta‘til to‘g‘risidagi 1936-yilgi konvensiya;
- Jamoa muzokaralarni olib borish va birlashish huquqi to‘g‘risidagi 1949-yilgi konvensiya;
- Teng haq to‘lash to‘g‘risidagi 1951-yilgi konvensiya;
- Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi 1952-yilgi konvensiya;
- Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risidagi 1957-yilgi konvensiya;
- Mehnat va ish turlari sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi 1958-yilgi konvensiya;
- Ish bilan ta‘minlash sohasidagi siyosat to‘g‘risidagi 1964-yilgi konvensiya;
- Mehnatkashlarning vakillari to‘g‘risidagi 1971-yilgi konvensiya;
- Jamoa muzokaralari olib borish to‘g‘risidagi 1981-yilgi konvensiya;
- Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1973-yilgi konvensiya;
- Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi 1999-yilgi konvensiya.

O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan hamkorligi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasida ham faol olib borilmoqda.

3. O‘zbekistonning YeXHT bilan inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi

O‘zbekiston Respublikasi uchun keng ma‘nodagi xavfsizlik bilan bog‘liq masalalar mustaqillikdan so‘ng juda muhim bo‘lib qoldi. Bu O‘zbekiston Respublikasining ham mintaqaviy, ham mintaqalararo xavfsizlikni muzokaralar yo‘li bilan ta‘minlash hamda mojarolarning ol-

¹ Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O‘zbekcha nashri uchun mas’ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – B. 16.

dini olish maqsadida tuzilib, faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilot – Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YeXHK, 1992-yildan buyon Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti YeXHT)ning a'zosi bo'lishga intilishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 30-yanvarda Pragada YeXHKning ikkinchi uchrashuvida katta mansabdor xodimlar qo'mitasining majlisida MDH tarkibiga kiruvchi davlatlarni YeXHKning teng huquqli a'zolari qilib qabul qilishni Xelsinki jarayonida ishtirok etuvchi mamlakatlarning Tashqi ishlar vazirlari kengashiga tavsiya qilishga qaror qilindi. Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi 1992-yilning 26 fevral kuni Finlandiya poytaxti Xelsinki Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining 1975-yilgi Yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. O'sha davrdan buyon O'zbekiston o'zining umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlariga sodiqligini yana bir bora tasdiqlagan holda, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining to'laqonli a'zosi hisoblanadi.

1992-yil 26-fevralda Xelsinki Yakunlovchi hujjatga imzo qo'ya turib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday dedi: *“Xelsinki yakunlovchi aktiga imzo qo'yar ekanmiz, biz tinch, odilona xalqaro tartibni qurish majburiyatini olgan davlatlar hamdo'stligiga kirdik”*¹.

O'zbekiston Respublikasi ushbu obro'li xalqaro tashkilot a'zosining barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oldi. Bu esa, suveren O'zbekiston Respublikasining mazkur xalqaro forumning 48 a'zosi tomonidan xalqaro e'tirof etilishida muhim bosqich hisoblandi. Shu orqali O'zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari, shuningdek, AQSh va Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yo'l ochildi.

1992-yil 27-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasini imzoladi. Yakunlovchi marosimda Islom Karimov o'z mamlakatining Umumyevropa jarayoniga qo'shilish irodasi va xohishini tasdiqladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, biz Yevropada ehtiyotkorlik bilan tarbiyalangan inson qadr-qimmatlarini e'tirof etamiz va ma'qullaymiz. Ular orasida: inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ozchilikni tashkil qilgan millatlarni himoya qilish, har bir fuqaroga, uning millati, diniy e'tiqodlari, ijtimoiy maqomi va kelib chiqishidan qat'i nazar, maqbul turmush sharoitlarini yaratishni aytib o'tish kerak. “O'zbekiston Umumyevropa jarayoniga qo'shib, yadrosiz dunyoga sodiqligini bayon etadi va o'zaro davlatlararo munosabatlarda kuch bilan tahdid solish, har qanday kuch ishlatish usullari istisno etilishiga umid qiladi. Barcha masalalar faqat siyosiy, o'zaro kelishuv vositalari yordamida

¹ Республика Узбекистан: рождение независимого государства. – Т.: 1992. – Б. 86.

hal etiladi. Biz YeXHTga rasmiy ravishda qo‘shilib, millatlar va xalqlar oldida o‘z zimmamizga olayotgan yuqori mas‘uliyatni anglaymiz”, – deb ta’kidlab o‘tdi Prezident¹. Shuni ta’kidlash lozimki, bu yirik xalqaro tashkilot o‘z mavqei, ko‘rib chiqayotgan masalalar ko‘lami, unga a‘zo-davlatlarning soni va nufuzi jihatidan Birlashgan Millatlar Tashkilotidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi YeXHTning oliy darajadagi uchrashuvlarida faol qatnashmoqda. Ular quyidagilar:

- YeXHT ishtirok etuvchi davlatlari boshliqlari sammitida (har yili bir marta o‘tkaziladi);

- Ishtirok etuvchi davlatlar tashqi ishlar vazirlarining har yilgi uchrashuvlarida;

- YeXHTning Parlament Assambleyasi sessiyalarida (Kopengagenda)².

Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasining Varshavadagi YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi bilan hamkorligi rivojlanmoqda.

Hamkorlik aloqalari jarayonida, 1995-yil iyul oyida Toshkentda YeXHTning Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalar bo‘yicha byurosi ochildi. Byuro faoliyatining azaliy maqsadi 1992-yilda tasdiqlangan integratsiya strategiyasi doirasida yaqinda qabul qilingan Markaziy Osiyodagi beshta davlat, ya’ni Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikiston bilan YeXHT o‘rtasida yaqinroq aloqalarni o‘rnatish edi. 1998-yilda YeXHT Olmota, Ashhobod, Bishkekda o‘z markazlarini ochdi. YeXHTning Dushanbedagi Markazi esa, 1993-yilda ochilgan edi. Mintaqadagi faoliyatning kengayishi natijasida Byuroning asosiy faoliyati O‘zbekistonga qaratildi.

YeXHTning Doimiy kengashi ushbu o‘zgarishlarga 2000-yil 14-dekabrda qarori bilan yuridik kuch baxsh etdi, unga binoan YeXHTning Markaziy Osiyodagi aloqalar byurosi YeXHTning Toshkentdagi markazi deb nomlana boshlandi.

2006-yil 1-iyulda YeXHTning Doimiy kengashi O‘zbekistonda YeXHTning O‘zbekistondagi loyihalari Koordinator lavozimini ta’sis etdi, bu bilan YeXHTning O‘zbekistondagi loyihaviy faoliyatini yanada rivojlantirish va birlashtirish maqsadida YeXHT bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida hamkorlikning yangi shakli joriy etildi³.

1 Xalq so‘zi, 1992-yil 28-fevral.

2 YeXHT “Insoniylik mezonlari”, Xelsinki –1975–1999. Toshkent, 2002. – B. 5–9.

3 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. – B. 282.

O'tgan vaqt mobaynida YeXHT doirasida juda ko'p hujjatlar imzolandi. Ular 1975-yil 1-avgustda qabul qilingan Xelsinki yakunlovchi hujjati va 1990-yil 21-noyabrda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi negizida tayyorlangan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ushbu ikki hujjat O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan imzolangan bo'lib, ularni bajarish bo'yicha ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, YeXHTning oliy anjumani har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Ana shunday uchrashuvlardan biri – 1996-yilning dekabridagi Lissabon anjumanida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ham qatnashib, nutq so'zlagan edi. Prezident o'z nutqida YeXHTning a'zosi bo'lgan davlatlar rahbarlarining e'tiborini Markaziy Osiyodagi g'oyat muhim muammolarga qaratdi. O'zbekiston Prezidenti o'shanda “Xavfsizlikning, shu jumladan, Yevropa xavfsizligining chegarasi yo'q, shu nuqtayi nazardan qaraganimizda, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining o'rni va mas'uliyati Yevropa doirasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas, balki uning tashqarisida mavjud xavfni ham hisobga olishi lozim”, degan edi.

YeXHTning 1999-yilda Istambul shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvi ham diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mazkur uchrashuvdagi nutqi aniq taklif va mulohazalari bilan yig'ilganlarning e'tiborini qozondi. Jumladan, unda YeXHT homiyligida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tuzish taklifi o'rtaqa tashlandi. O'zbekiston Prezidentining taklifi nechog'liq haq ekanligini keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan voqealar ham yaqqol ko'rsatib turibdi. O'zbekiston rahbarining Istambul sammiti minbaridan turib aytgan, terrorchilarni moliyaviy jihatdan ta'minlab, ularning qabih niyatlardagi harakatlariga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo'qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta'minlash mumkinligi haqidagi mulohazalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

O'zbekiston Respublikasi bilan YeXHT o'rtasida inson huquqlari sohasida o'zaro hamkorlikning asosi sifatida 1997-yilda Memorandum imzolandi. Memorandumning to'liq nomi “Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasidagi O'zaro tushunish memorandumi”. Unda hamkorlikning asosiy sohasi sifatida inson huquqlari sohasi olingan.

YeXHT nafaqat hukumat, balki parlamentimiz bilan ham qizg'in hamkorlik qilmoqda. Ma'lumki, YeXHT Parlament Assambleyasi O'zbekiston parlamenti bilan yaqin hamkorlik o'rnatgan. Shu bois, O'zbekiston Oliy Majlisi raisi YeXHT Parlament Assambleyasining Ottavadagi IV sessiyasida rais o'rinbosari etib saylangan edi. YeXHTning bir qancha xalqaro seminarlari Toshkentda o'tkazildi. "Orol dengizi havzasida atrof-muhitni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish" mavzusidagi seminar, "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar" mavzusidagi xalqaro kengash, "Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida" mavzusidagi seminarlar bunga misol bo'la oladi. Bu esa, O'zbekistonning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotida tutgan o'rni va mavqei yuqori ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Toshkentga tashrif buyurgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining sobiq raisi, Bolgariya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Salomon Passini qabul qilishi ham hamkorlikni rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi. 2004-yilning mart oyida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida ikki tomonlama aloqalar va turli sohalaridagi hamkorlikning holati va istiqbollari, xavfsizlik, inson huquqlari, terrorizmga qarshi kurash masalalari har tomonlama muhokama qilindi. O'zbekiston va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik oxirgi vaqtda izchil rivojlanib borayotganligi qayd etildi.

O'zbekiston YeXHTning inson huquqlari bo'yicha maxsus organi bo'lgan Demokratik institutlar, inson huquqlari byurosi (DIIHB) bilan ham hamkorlik olib bormoqda.

YeXHT mamlakatimiz bilan sud-huquq sohasida ham faol hamkorlik olib bormoqda. Ayniqsa, 2004-yilning sentabrida YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining qonun ustuvorligi masalalari bo'yicha ekspertlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi a'zolari bilan uchrashuvini alohida ta'kidlab o'tish darkor.

Uchrashuvda yurtimizda sud-huquq sohasini isloh qilish jarayonlari aynan demokratik huquqiy davlat talablariga mos ravishda olib borilayotganiga e'tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan qonunlar, o'tkazilayotgan sud-huquq islohoti insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Bu muhim yo'nalishda xalqaro andozalar va xorij tajribasini o'rganish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini yanada kengroq ta'minlash yo'llarini ishlab chiqish borasida rivojlangan mamlakatlar sud tizimi va sud boshqaruvi tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan saylovlar, tabiiyki, jahon hamjamiyatining e'tiboridan chetda qolmayapti. Misol uchun, mamlakatimizda 2004-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rilganligi ta'kidlandi. Ikki palatali parlamentning ilk sayloviga tayyorgarlik doirasida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirilganligi ham ta'kidlab o'tildi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti raisining shaxsiy vakili Marti Axtisaari rahbarligidagi YeXHT delegatsiyasi Toshkentga kelganda O'zbekistonda saylovlarga tashkiliy moliyaviy jihatdan, ayniqsa, puxta tayyorgarlik ko'rilayotganini e'tirof etdi. Saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni yoritish uchun ommaviy axborot vositalariga tegishli shart-sharoit yaratilayotganligini qo'llab-quvvatlashini aytdi. Bo'lajak saylovlarda YeXHT kuzatuvchilari missiyasiga ko'maklashishga tayyorligi uchun O'zbekiston tomoniga o'z minnatdorchiligini izhor qildi.

Prezident bilan bo'lib o'tgan suhbatda Marti Axtisaari O'zbekiston va YeXHT o'zaro hamkorlikda chegaralar xavfsizligini ta'minlash, inson huquqlari, qurol-yarog' savdosiga qarshi kurashish, terrorchilik va uni moliyalashtirishning oldini olish masalalariga alohida e'tibor berib kelinayotganligini ta'kidladi. Oqsaroydagi uchrashuvda hamkorlikning ahvoli tahlil etilib, kelgusida uni har tomonlama rivojlantirishga doir masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi¹.

2005-yil 4-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11- va 46-moddalariga muvofiq, 2004-yil 26-dekabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari ko'rib chiqildi.

Markaziy saylov komissiyasining majlisida ta'kidlandiki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylov ochiq, oshkoralik ruhida, ham mahalliy, ham xorijiy kuzatuvchilarning keng ishtirokida o'tdi. Parlament saylovida 40 ta davlatdan 228 nafar xorijiy kuzatuvchi, shu jumladan, MDH, YeXHT kuzatuvchilar komissiyalari qatnashdi. Saylov saylov qonunchiligiga muvofiq holda o'tdi. Bo'lib o'tgan saylov

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy veb-sayti: www.gov.uz

O'zbekistonda inson huquqlari ta'minlangan huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida demokratik jarayonlar yanada rivojlanayotganligidan dalolatdir.

YeXHTning kuzatuvchilari 2007-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga bo'lgan saylovda hamda 2009-yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lgan saylovda ham ishtirok etishdi.

YeXHT atamashunosligida inson huquqlari va demokratiya bilan bog'liq normalar kompleksi va faoliyat turlarini belgilash uchun "insoniylik mezonlari" degan maxsus atama ishlab chiqilgan bo'lib, u harbiy-siyosiy va iqtisodiy-ekologik mezonlar bilan birgalikda xavfsizlik mezonlari sirasiga kiradi. Ushbu atama YeXHTning insoniylik mezonlariga oid normalari, inson huquqlari bo'yicha an'anaviy huquqqa qaraganda kengroq sohani qamrab olishidan dalolat beradi¹.

Bugungi kunda insoniylik mezonlari sohasida O'zbekistonda YeXHT bilan birgalikda quyidagi loyihalar amalga oshirilmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Inson huquqlarini himoyalash bo'limi salohiyatini rivojlantirish;

- O'zbekistonning nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining salohiyatini kuchaytirishga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) institutining rivojlanishiga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining rivojlanishiga ko'maklashish;

- Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatiga ko'maklashish;

- noqonuniy migratsiya, mehnatni ekspluatatsiya qilish, odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirishga ko'maklashish;

- O'zbekistonda yuridik ta'limni takomillashtirishga ko'maklashish².

4. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida keng

1 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq.; mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: O'zbekiston, 2010. – B. 281–282.

2 O'sha manba. – B. 282–283.

doiradagi masalalar bo'yicha amalga oshiriladi. Inson huquqlari bo'yicha muloqot Yevropa Ittifoqida alohida qiziqish uyg'otadi. 2004-yildan boshlab sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va boshqa masalalar bo'yicha "O'zbekiston-YeI" kichik qo'mitasi darajasida muntazam uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Kichik qo'mita doirasida O'zbekiston va YeI o'rtasida inson huquqlari bo'yicha qizg'in muloqot olib boriladi. Muloqotda O'zbekistonda va YeI mamlakatlarida demokratik rivojlanish, inson huquqlari va erkinliklari, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash hamda ushbu yo'nalishdagi hamkorlik istiqbollariga oid keng doiradagi savollar qamrab olinadi. Muloqot teng huquqlilik, o'zaro hurmat va ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga asoslanadi.

Yevropa tomoni O'zbekistondagi sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan sud-huquq islohotlarini, jumladan, "Xabeas korpus" institutining joriy qilinishi, taraflar tortishuvi, sud jarayonida himoyalovchi va ayblovning tengligi ta'minlanishini yuksak baholamoqda.

Yevropa Ittifoqi komissiyasining deyarli barcha vakillari sud-huquq tizimini liberallashtirish va davlat boshqaruvini modernizatsiyalash sohasida Respublikada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni ijobiy baholashdi. Yevropa tomoni sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha ko'rilayotgan amaliy choralarni yuksak baholab, ushbu yo'nalishda ko'mak ko'rsatishga tayyor ekanligini bildirdi. YeI vakillari "Xabeas korpus"ning amalga oshirilihi, sud tizimining mustahkamligini ta'minlash choralari, shu jumladan, advokatura va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni rivojlantirishga qiziqish bilan qarashdi¹.

Takrorlash uchun savollar:

- 1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib bering.*
- 2. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro hujjatlarni ko'rsatib o'ting.*
- 3. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasida hamkorlik qilayotgan xalqaro tashkilotlarni ko'rsatib o'ting.*
- 4. O'zbekiston va BMTning inson huquqlari sohasidagi hamkorligining yo'nalishlarini ko'rsatib bering.*
- 5. O'zbekistonning BMTning Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlik aloqalarini tushuntirib bering.*

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 284–285.

6. O'zbekistonni BMT nazorat organlari bilan olib borayotgan hamkorligini tushuntirib bering.

7. O'zbekistonning BMT nazorat organlari taqdim etayotgan milliy ma'ruzalarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

8. O'zbekistonning YeXHT tashkiloti bilan inson huquqlari sohasida olib borayotgan hamkorligini tushuntirib bering.

9. YeXHTning Demokratik institutlar, inson huquqlari byurosi (DIHIB) ning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.

10. O'zbekistondagi saylovlar bo'yicha O'zbekiston va YeXHTning hamkorlik aloqalarini tushuntirib bering.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar:

1. Гулямова И. Основные деятельности ООН в области прав человека. – Т. НЦПЧ, 2002.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. /Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: O'zbekiston, 2010.

3. Исмаилов Б.И. Международные стандарты личных прав и национальное законодательство Республики Узбекистан. – Т.: Центр правового просвещения при ТГЮИ, 2002.

4. Mo'minov A. O'zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T.: "Yangi asr avlodi", 2003.

5. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека: становление и развитие / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: 2007.

6. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.

7. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: "Адолат", 2008.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2010.

9. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashr uchun mas'ul A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.

10. O'zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to'plami. 2006-yil 16-mart. – T.: TDYuI.

“Inson huquqlari” fanidan tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 368 b.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 384 b.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 368 b.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.4. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. – 348 b.
5. Karimov I.A. T.5. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – 384 b.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. – T.: “O‘zbekiston”, 1998. – 428 bet.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. – 416 bet.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: “O‘zbekiston”, 2000. – 528 bet.
9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. – 432 b.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: “O‘zbekiston”, 2002. – 432 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – T.: “O‘zbekiston”, 2003. – 320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T.12. – T.: “O‘zbekiston”, 2004. – 400 b.
13. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. T.13. – T.: “O‘zbekiston”, 2005. – 448 b.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 280 b.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. – 294 b.

16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yoʻlida. T.16. – T.: “Oʻzbekiston”, 2008.

17. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – T.: “Maʼnaviyat”, 2008.

18. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: “Oʻzbekiston”, 2009.

19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.: “Oʻzbekiston”, 2009.

20. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini taʼminlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. – T.: “Oʻzbekiston”, 2009. – 280 b.

21. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga koʻtarilish sari. T.18. – T.: “Oʻzbekiston”, 2010. – 280 b.

22. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011. – 360 b.

23. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qoʻshma majlisidagi maʼruza. 2010-yil 12-noyabr. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011. – 56 b.

24. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2010-yil 7-dekabr kuni Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 18 yilligi munosabati bilan “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yoʻlini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir” mavzusida qilgan maʼruzasi. /Xalq soʻzi, 2010-yil 8-dekabr.

25. Karimov I.A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “Oʻzbekiston”, 2011. – 440 b.

26. Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini taʼminlash hayotimizning yanada erkin va obod boʻlishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2012. – 32 b.

2. Xalqaro-huquqiy hujjatlar

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam/O'zbekcha nashrining mas'ul muharriri A.X. Saidov. – T.: “Adolat”, 2004. – 520 b.

2. O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar. – T.: “Adolat”. 2002. – 270 b.

3. Balog'atga yetmagan bolalar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar/Международные документы по правам несовершеннолетних. – T.: “Adolat”. 2002. – 232 b.

4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari. – T.: 2002. – 164 b.

5. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar /Mas'ul muharrir: A.X. Saidov – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012. – 460 b.

6. Jeneva konvensiyalari to'plami. /A.X. Saidov tahriri ostida. – T.: 2002.

7. UNESCOning xalqaro me'yoriy hujjatlari. To'plam. /Mas'ul muharrir L. Saidova. – T.: “Adolat”, 2004. – 304 b.

8. Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari. /O'zbekcha nashri uchun mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 240 b.

9. UNESCO and Human Rights. Standart-setting instruments. Major mettings. Publications. UNESCO, 2007.

3. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va qonunosti hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2012.

2. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida. 1991-yil 15-fevral (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, 4-son, 76-modda).

3. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida. 1991-yil 31-avgust. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, 11-son, 246-modda)

4. “O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqida. 1991-yil 30-sentabr. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, 9–12-son, 268-modda).

5. O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida. 1991-yil 18-noyabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 2-son, 78-modda).

6. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida. 1991-yil 20-noyabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 2-son, 80-modda).

7. O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida. 1992-yil 4-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 3-son, 146-modda).

8. "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqida. 1992-yil 14-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 4-son, 181-modda).

9. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida. 1992-yil 2-iyul (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 192-yil, 9-son, 338-modda).

10. Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida. 1992-yil 2-iyul (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, 9-son, 344-modda).

11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida. 1992-yil 8-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 1-son, 4-modda).

12. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida. 1993-yil 6-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 5-son, 223-modda).

13. Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida. 1993-yil 7-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 5-son, 230-modda).

14. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida. 1993-yil 2-sentabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda).

15. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida. 1994-yil 5-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, 5-son, 125-modda).

16. Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida. 1994-yil 5-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-yil, 5-son, 127-modda).

17. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, 1-son, 1-modda).

18. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994-yil 22-sentabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, 2-son, 4-modda).

19. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 1994-yil 22-sentabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, 3-son, 6-modda).

20. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida. 1995-yil 30-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 178-modda).

21. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida. 1995-yil 30-avgust. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 183-modda).

22. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida. 1995-yil 21-dekabr. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 1-songa ilova)

23. Гражданский кодекс Республики Узбекистан. – Т.: Адолат. 1996.

24. O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida (yangi tahriri). 1995-yil 21-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 12-son, 257-modda).

25. O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalari to'g'risida. 1995-yil 22-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 12-son, 262-modda).

26. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida. 1996-yil 26-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 5–6-son, 59-modda).

27. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida. 1996-yil 26-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 5–6-son, 61-modda).

28. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida. 1996-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 9-son, 128-modda).

29. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida. 1996-yil 26-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 35-modda).

30. Siyosiy partiyalar to'g'risida. 1996-yil 26-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 36-modda).

31. Notariat to'g'risida. 1996-yil 26-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 42-modda).

32. Advokatura to'g'risida. 1996-yil 27-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 48-modda).

33. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (yangi tahriri) 2007-yil.

34. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida. 1997-yil, 24-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 4-5-son, 108-modda).

35. Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida. 1997-yil 24-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 4-5-son, 110-modda).

36. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997-yil 25-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 6-son, 175-modda).

37. Ta'lim to'g'risida. 1997-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda).

38. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida. 1997-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 11-12-son, 295-modda).

39. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 1997-yil 30-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 9-songa ilova).

40. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (yangi tahrirda). 2007-yil 15-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2007-yil, 1-son, 4-modda).

41. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda 26.08.2004-y.). 1998-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 86-modda).

42. Dehqon xo'jaligi to'g'risida. 1998-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 88-modda).

43. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 1998-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-songa ilova).

44. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida. 1998-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 93-modda).

45. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida. 1998-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 95-modda).

46. Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida. 1998-yil 1-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-son, 97-modda).

47. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). 1998-yil 1-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5–6-son, 99-modda).

48. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida. 1998-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 9-son, 178-modda).

49. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998-yil 24-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son, 4-modda).

50. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida. 1998-yil 25-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son, 12-modda).

51. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida (yangi tahriri). 1999-yil 14-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 110-modda).

52. Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida. 1999-yil 4-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 112-modda).

53. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida. 1999-yil 14-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 115-modda).

54. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida. 2000-yil 25-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, 5–6-son, 140-modda).

55. Psixiatriya yordami to'g'risida. 2000-yil 31-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil, 7–8-son, 215-modda).

56. Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida. (yangi tahriri) 2012-yil 24-dekabr (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, 52-son, 583-modda).

57. Sudlar to'g'risida (yangi tahriri). 2000-yil 14-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 1–2-son, 10-modda).

58. Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida. 2000-yil 14-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 1–2-son, 14-modda).

59. Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida. 2000-yil 14-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 1–2-son, 15-modda).

60. Mudofaa to'g'risida (yangi tahriri). 2001-yil 11-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 5-son, 80-modda).

61. Prokuratura to'g'risida (yangi tahriri). 2001-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, № 9–10, 168-m.).

62. O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida (yangi tahriri). 2001-yil 30-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 176-modda).

63. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida. 2001-yil 30-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9–10-son, 180-modda).

64. Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari to'g'risida. 2002-yil 4-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 4–5-son, 60-modda).

65. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida (Konstitutsiyaviy Qonun). 2002-yil 12-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 12-son, 213-modda).

66. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida (Konstitutsiyaviy Qonun). 2002-yil 12-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 12-son, 215-modda).

67. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida. 2002-yil 12-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, 12-son, 217-modda).

68. Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida. 2002-yil 12-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 1-son, 2-modda).

69. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida (yangi tahriri). 2002-yil 13-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 1-son, 7-modda).

70. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. 2003-yil 24-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 3–4-son, 27-modda).

71. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida. 2003-yil 25-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 3–4-son, 34-modda).

72. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida. 2003-yil 25-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 5-son, 65-modda).

73. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida (yangi tahriri). 2003-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 132-modda).

74. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida (yangi tahriri). 2003-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 138-modda).

75. Jamoat fondlari to'g'risida. 2003-yil 29-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, 9–10-son, 141-modda).

76. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida (yangi tahriri). 2013-yil 22-aprel (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil, 17-son, 220-modda).

77. Qizil yarim oy va qizil xoch timsollaridan foydalanish hamda ularni himoya qilish to'g'risida. 2004-yil 29-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 5-son, 84-modda).

78. Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida. 2004-yil 30-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 5-son, 86-modda).

79. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida (yangi tahriri). 2004-yil 27-avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 9-son, 169-modda).

80. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida. 2004-yil 2-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 1-son, 6-modda).

81. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida. 2004-yil 2-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 1-son, 8-modda).

82. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida. 2004-yil 2-dekabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, 1-son, 10-modda).

83. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida. 2006-yil 12-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 4-son, 158-modda).

84. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida. 2006-yil 20-iyul (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 7-son, 372-modda).

85. Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida. 2006-yil 11-oktabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 10-son, 537-modda).

86. Hakamlik sudlari to'g'risida. 2006-yil 16-oktabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 10-son, 541-modda).

87. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida. 2007-yil 3-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 1-son, 2-modda).

88. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (yangi tahriri). 2007-yil 15-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 1-son, 4-modda).

89. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida (Konstitutsiyaviy qonun). 2007-yil 11-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 4-son, 161-modda).

90. Homiylik to'g'risida. 2007-yil 2-may (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 5-son, 218-modda).

91. O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. 2007-yil 11-iyul (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 6-son, 248-modda).

92. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. 2007-yil 11-iyul (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 6-son, 249-modda).

93. Soliq maslahati to'g'risida. 2006-yil 21-sentabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 9-son, 497-modda).

94. Hakamlik sudlari to'g'risida. 2006-yil 16-oktabr (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, 10-son, 541-modda).

95. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida. 2007-yil 3-yanvar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 1-son, 2-modda).

96. Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida (Konstitutsiyaviy qonun). 2007-yil 11-aprel (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, 4-son, 161-modda).

97. Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida. 2008-yil 7 yanvar (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 1–2-son, 1-modda)

98. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

99. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni.

100. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagi "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni.

101. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2008-yil 1-may.

102. O'lim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami: Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2007.

4. Darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, risolalar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

2. Abu Iso at-Termiziy. Ash-Shamoyil an-nabaviya. – T.: Cho'lpon, 1993.

3. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutining 2003-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2004.

4. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: UNICEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.

5. BMT – asosiy omillar. – Toshkent. 2001.

6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va Xalqaro sud Statuti. – Toshkent, 2002.

7. Valiyeva B.S., Cherkashina I.A. O'zbekistonda xotin-qizlar: qonun va jamiyat muammolari. – T.: 1999.

8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. / Mualliflar jamoasi: A.X. Saidov, F. Bakayeva, K. Arslanova va boshq. Mas'ul muharrir A.X. Saidov. – T.: "O'zbekiston", 2010. – 368 b.

9. Imom Ismoil al-Buxoriy, Al-adab al-Mufrad (Adab durdonalari). – T.: O‘zbekistan, 1990.
10. Ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-Sahih. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
11. Imomov R. Jinoyat qonunchiligida insonparvarlik va odillik tamoyillari. – Andijon, 2004.
12. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. X. Boboyev tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston. 1997.
13. Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill // Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: “Adolat”. 1992.
14. Mingboyev U. Sud fuqarolar himoyachisi. – Toshkent, 2001.
15. Mo‘minov A. O‘zbekiston va UNESCOning xalqaro-huquqiy munosabatlari. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2003
16. Nersesyans V.S. Huquq falsafasi. /Mas’ul muharrir A.X. Saidov. – T.: “Adolat”, 2003.
17. Rustamboyev M., Nikiforova Ye. Huquqni muhofaza qilish organlari. – T.: “Adolat”, 2006.
18. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
19. Saidov A., Sultonov S. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari. – T.: “Adolat”, 1998.
20. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: Adabiyot jamg‘armasi, 2001.
21. Saidov A.X., Juzjoniy A.Sh. Sharq sivilizatsiyasi: inson va huquq. – T.: “Adolat”, 2005.
22. Tadjixanov U., Odilqoriyev X., Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. – Toshkent, 2001.
23. To‘raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy: ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. – T.: O‘qituvchi, 1992.
24. Temur tuzuklari. / Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarj.; B. Ahmedov tahr. ostida. – T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1996.
25. Fitrat A. Amir Olimxonning hukmronlik davri. – T.: 1992-y.
26. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi. Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari. / Mas’ul muharrir. H. Karamatov. – T.: Islom universiteti, 2001.
27. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning 2007-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. – T.: 2008.
28. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ning 2009-yildagi faoliyati to‘g‘risida hisobot. – T.: 2010.

29. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2010-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2011.
30. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. – T.: 2013.
31. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O'zbekiston. 2009.
32. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi: Darslik/ H.T. Odilqoriyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005.
33. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. Murodov H. va boshqalar. – T.: Adabiyot va san'at, 2000.
34. Xamidova K.T. Konstitutsiya va jamoat birlashmalari. / Mas'ul muharrir Saidov A.X. – T.: TDYuI, 2005.
35. Tinchlik va bag'rikenglik atamaları izohli lug'ati. /Mas'ul muharrir Q.A. Jo'rayev. – T.: JIDU, 2005.
36. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya. – T.: 2005.
37. UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari: to'plam / L. Saidova tahriri ostida. – T.: "Adolat". 2004.
38. Alston L. Human Rights in context. – L.: 1998.
39. Bedjaoui M. The Right to Development // International Law: Achievements and Prospects/Ed. By M. Bedjaoui/UNESCO, 1992.
40. Law and Force in the New International Order. 1991.
41. Mayer A.E. The Dilemmas of Islamic Identity // Human Rights and the World's Religions. Ed. By L.S. Rouner (Boston University studies in philosophy and religion. – Notre Dame, 1988.
42. Mbaye K. Human Rights and Rights of Peoples // International Law: Achievements and prospects. Yed. By M Bedjaoui. – Paris, UNESCO, 1992.
43. Nowak, Introduction to the international Human Rights Regime,- martinus Nijhoff Publishers, – Leiden, 2003.
44. Jayawickrama N. Hong Kong and the international Protection of Human Rights in Hong Kong. 1992.
45. A Guide to Human Rights. Janusz Simonides and Vladimir Volodin, UNESCO, 2001.
46. Human rights of women: A Collection of International and Regional Normative Instruments / prepared by J.Symonides, V.Volodin. – UNESCO. 1999.
47. Африканская хартия прав человека и народов // Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып. 2.

48. Берекашвили Л.Ш. Обеспечение прав человека и законности в деятельности правоохранительных органов. – М.: 1998.
49. Билль о правах (десять поправок к Конституции США приняты в 1791 г. в целях обеспечения права граждан и штатов)// Права человека: основополагающие принципы. – Вена. 1997.
50. Бируни. Минералогия. – М.: 1963.
51. Венская декларация и Программа действий// Право человека: Учебник-хрестоматия. – Т.: 2001.
52. Гражданские и политические права: Комитет по правам человека. – Женева, ООН, 1992.
53. Гулямова И. Основные деятельности ООН в области прав человека. – Т.: НЦПЧ, 2002.
54. Глушкова С.И. Права человека в России: теория, история, практика. Учебное пособие. – М.: Права человека, 2003.
55. Мюллерсон Р. Права человека: идеи, нормы, реальность. – М.: 1991.
56. Бюргенталь Т. Международные права человека. – Алматы, 1999.
57. Действующее международное право. Учебник-хрестоматия. – М.: 2–3 том.
58. Декларация независимости Соединенных Штатов Америки// Международное сотрудничество в области права человека: документы и материалы. – М.: 1993. Вып.2.
59. Дискриминация в отношении женщин: Конвенция и комитет. – Женева, ООН, 1995.
60. Женщина. Право. Общество. – Т.: 1999.
61. История политических и правовых учений: Учебник/Под ред. О.Э. Лейста. – М.: 1997.
62. История политических учений / Под ред. О.В. Мартышина. – М.: 1996. Вып.2.
63. Исмаилов Б.И. “Международные стандарты личных прав и национальное законодательство национальной Республики Узбекистан”. – Т.: Центр правового просвещения при ТГЮИ, 2002.
64. Ковлер А.И. Антрология права. – М.: 2002.
65. Комитет по экономическим, социальным и культурным правам. – Женева, 1996.
66. Комитет по ликвидации расовой дискриминации. – Женева, ООН, 1992.
67. Комитет против пыток. – Женева, ООН, 1994.
68. Лапаева В. Социология права. – М.: 2000.

69. Лунеев В.В. Преступность XX века: мировые, региональные российские тенденции. – М.: Волтерс Клувер, 2005.
70. Международное сотрудничество в области прав человека. – М.: 1993. Вып. 2.
71. Международное право. Под. ред. Бекашева К.А. – М.: Проспект. 1999. С. 2000.
72. Международные акты о правах человека. Сборник документов. – М.: 1998.
73. Международное право прав человека. ООНовская система защиты. / Сборник раздаточных материалов. – Т.: 2004.
74. Международные документы о правах человека. Сборник документов. – М.: Норма-М, 1999. – 784 с.
75. Национальные учреждения по правам человека. Серия публикаций по вопросам профессиональной подготовки. № 4, ООН Нью-Йорк и Женева, 1995.
76. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека: становление и развитие / Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: 2007
77. Саидов А., Бакаева Ф., Тиллабаев М. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека в 2010 году. – Т.: НЦПЧ, 2010.
78. Права человека. Учебник для вузов. / Под.ред. Лукашева. – М.: НОРМА-ИНФРА. 1999
79. Общая теория права и государства: Учебник (Под. ред. В.В. Лазарева. – М.: Юрист, 1994.
80. Общая теория прав человека. – М.: НОРМА. 1996.
81. Права человека // Политология: Энциклопедический словарь/ Общ.ред.и сост. Ю.И. Аверьянов. – М.: 1993.
82. Права человека: Учебник-хрестоматия. / Под ред. Саидов А. – Т.: УМЭД, 2001.
83. Право Совета Европы и Россия (сборник документов материалов). – Краснодар, 1996.
84. Принципы, касающиеся статуса национальных учреждений. Резолюция № 48/134 Генеральной Ассамблеи ООН от 20 декабря 1993 г.
85. Права человека: практикум / Н.Н. Беякович. – Мн.: Амалфея, 2006.
86. Рахмонкулов Х, Рахманов А. Права человека: история и современность. – Т.: Изд. Мир экономики и право, 1998.
87. Гражданские права человека: современные проблемы теории и практики /Под ред. Ф.М. Рудинского. – М.: МИР, 2006.

88. Саидов А.Х. Международное право прав человека. – М.: 2002.
89. Саидов А. Конституция Республики Узбекистан: правовая основа независимого развития. – Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2012.
100. Соединенные Штаты Америки: Конституция и законодательные акты. – М.: 1993.
101. Словарь-справочник по правам человека: основные понятия и институты. – М.: 2006. – 468 с.
102. Сунгуров А.Ю. Институт омбудсмана: эволюция традиций и современная практика (опыт сравнительного анализа). – СПб.: Норма, 2005.
103. Тамбовцев В.В. Комментарий к Федеральному конституционному закону “Об Уполномоченном по правам человека в Российской Федерации”. – М.: Юриспруденция, 2006.
104. Теория и практика защиты прав человека / Под общ. ред. О.О. Миронова. – М.: Юриспруденция, 2004. – 240 с.
105. Тиллабаев М.А. Национальные институты по правам человека: Международная, зарубежная и национальная практика /Отв. ред. А.Х. Саидов. – Т.: “Адолат”, 2008. – 312 с.
106. Устав Совета Европы // Международное сотрудничество в области прав человека: документы и материалы. – М.: 1993. Вып. 2.
107. Узбекистан: Венская Декларация и Программа действий. – Т.: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 1998.
108. Хакимов Р. Республика Узбекистан и Организация Объединенных Наций. – Т.: Ўзбекистон, 2006.

5. Journallar, ilmiy to‘plamlar

1. Inog‘omjonova Z.F. Dastlabki tergovda sud nazoratini amalga oshirish mexanizmi //Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Т.: TDYuI, 2007.
2. Ismoilov B. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar tashkilotining inson huquqlarini ta’minlashdagi xalqaro-huquqiy majburiyatlarini bajarish amaliyoti //O‘zbekiston va BMT: tajriba va hamkorlik istiqbollari. Konferensiya materiallari to‘plami. 2006-yil 16-mart. – Т.: TDYuI.
3. Saidov A.X. Inson huquqlari sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi: ahvol, muammolar va istiqbollar //Inson manfaatlari: qonun hujjatlarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman hujjatlari. – Т.: Ijtimoiy fikr. 1998.

4. Tansiqboyeva G. Ayollarning diskriminatsiya qilinishini bartaraf etish – ularning amaldagi tengligining zaruriy sharti // Ayol huquqi va erkinliklari. – T.: “Adolat”, 2002.

5. Odilqoriyev X. Sud-huquq sohasidagi islohotlar: yutuqlar va muammolar // Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007.

6. Tixonov A. Inson huquqlari bo'yicha BMT Oliy komissari: inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish // Demokratlashtirish va inson huquqlari. № 2/2003.

7. Usmonov A. Mustaqillik yillarida sud hokimiyatini odil sudlovni amalga oshiruvchi yaxlit tizim sifatida shakllantirish //Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuI, 2007.

8. Inson huquqlari monitoringi. / To'plam. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.

9. O'zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlari va boshqaruv tizimini takomillashtirish” loyihasi: maqsad, natija, istiqbol // Demokratlashtirish va inson huquqlari. № 1/1999.

10. Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya ijrosiga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining milliy ma'ruzasi natijalari. // Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma'rifiy jurnal. 4/2006.

11. Жамалиева Н. Узбекистан и права женщин в XXI веке / Узбекистан и права человека в XXI веке: Сборник научных работ. – Т.: ТГЮИ, 2002.

12. Бакаева Ф. Выполнение Республикой Узбекистан международных обязательств в сфере прав человека: опыт и проблемы./ Узбекистон ва БМТ: тажриба ва ҳамкорлик истикболлари. Конференция материаллари тўплами. 2006 йил 16 март. – Т.: ТДЮИ.

13. Тиллабаев М.А. Всеобщая декларация прав человека и правозащитный механизм ООН: опыт сотрудничества Узбекистана// Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2008. № 4. – Б. 106–112.

14. Омбудсманы мира. Сборник статей. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.

15. Inson huquqlari monitoringi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003.

16. “Yashash huquqi va shaxs daxlsizligi kafolati” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi birlashgan tahririyati, 2006.

6. Elektron manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi davlat sayti: www.gov.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari: www.press-service.uz/rus/knigi/
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti sayti: www.imal.uz
6. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti: www.humanrights.gov.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) sayti: www.ombudsman.gov.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari Milliy bazasi: www.lex.uz
10. BMT sayti: www.un.org
11. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari sayti: www.ohchr.org
12. UNESCO sayti: www.unesco.org
13. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti sayti: www.osce.org
14. Inson huquqlari va gumanitar huquq bo'yicha Raul Vallenberg institutining veb sayti: www.rwi.lu.se
15. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi sayti: www.coe.int/T/R/Human_Rights_Court
16. Moskva inson huquqlari maktabi sayti: www.mshr-ngo.ru
17. Yevropa Kengashining inson huquqlari bo'yicha Komissari sayti: www.coe.int/T/R/CommissionerHR
18. Bola huquqlari bo'yicha resurs sayti: www.childrenrights.net/
19. Inson huquqlari bo'yicha saytlarga kirish: www.law.wits.ac.za/humanrts//links/Ralllinks.html
20. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi sayti: www.icrc.org
21. Xalqaro shartnomalar sayti: www.untreaty.un.org
22. Xalqaro huquq komissiyasi sayti: www.un.org/law/ilc
23. BMTning Xalqaro sudi sayti: www.icj-cij.org
24. Xalqaro jinoyat sudi sayti: <http://www.icc.int>

MUNDARIJA

Kirish soʻzi	3
--------------------	---

UMUMIY QISM. INSON HUQUQLARI ASOSLARI

1-mavzu. “Inson huquqlari” fanining mavzusi, tizimi, usullari va ahamiyati	8
1. Mustaqillik va inson huquqlari	8
2. “Inson huquqlari” fani tushunchasi, obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari	12
3. “Inson huquqlari” fanini oʻrganish metodologiyasi	16
4. “Inson huquqlari” fanining ijtimoiy-gumanitar va huquqiy fanlar tizimida tutgan oʻrni	18
5. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va inson huquqlari	26
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida “Inson huquqlari” fanining gʻoyaviy-nazariy asoslari	31
2-mavzu. Inson huquqlari toʻgʻrisidagi gʻoyalarning paydo boʻlishi va rivojlanishi	38
1. Qadimgi dunyoda inson huquqlari gʻoyasining paydo boʻlishi va rivojlanishi	38
2. Oʻrta asrlar Yevropasida inson huquqlari gʻoyasining rivojlanishi	48
3. Uygʻonish davrida inson huquqlarining rivojlanishi	52
4. Yangi davrda inson huquqlarining rivojlanishi va inson huquqlari avlodlarining shakllanishi	55

3-mavzu. Sharq va inson huquqlari	67
1. Qadimgi Sharqda inson huquqlari	67
2. Sharq mutafakkirlari inson huquqlari to'g'risida.....	70
3. Islom ta'limotlarida inson huquqlari g'oyasi.....	85
4-mavzu. Inson huquqlari va xalqaro huquqning rivojlanishi	95
1. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning ahamiyati.....	95
2. Inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning roli.....	100
3. Inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyalari	102
4. Globallashuv va XXI asrda inson huquqlari rivojlanishining dolzarb masalalari	110
5-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'rni va roli	122
1. BMTning inson huquqlari sohasidagi umumiy faoliyati.....	122
2. BMTning inson huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlari.....	127
3. BMT Nizomidan kelib chiqib tashkil etilgan organlarning inson huquqlariga oid nazorat funktsiyasi.....	130
4. BMTning inson huquqlari doirasidagi shartnomaviy (nazorat) organlari faoliyatining huquqiy asoslari	145
5. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlarida inson huquqlari masalasi	164
6-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishga oid asosiy xalqaro hujjatlar	176
1. Inson huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilishning zarurligi, ularning turlari va ahamiyati.....	176
2. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid BMT tomonidan ishlab chiqilgan asosiy xalqaro hujjatlar	179

3. BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining hujjatlari.....	185
4. O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar	187
7-mavzu. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati	198
1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati	198
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati	202
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokollar	205
4. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Bill	206
8-mavzu. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro (mintaqaviy) mexanizmi	212
1. Inson huquqlarini himoya qilishda universal hamkorlikdan mintaqaviy hamkorlikka.....	212
2. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa tizimi	214
3. Inson huquqlarini himoya qilishning Amerika tizimi	226
4. Inson huquqlarini himoya qilishning Afrika tizimi	229
5. Inson huquqlarini himoya qilishning Osiyo-arab tizimi	230
6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro (mintaqaviy) tizimning tavsifi	233
9-mavzu. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar	237
1. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining xalqaro huquqiy asoslari	237
2. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning jahon tajribasi	243
3. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning xalqaro shakllari	251

MAXSUS QISM

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI

10-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlariga yondashuv	257
1. O‘zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari	257
2. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimining shakllanishi	259
3. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqliligi.....	262
4. O‘zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlari	266
5. Inson huquqlari sohasidagi ta’lim – inson huquqlari madaniyatini shakllantirishning asosi	278
11-mavzu. Shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar	288
1. Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlar tushunchasi, tizimi, mohiyati va xususiyatlari.....	288
2. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarni himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari.....	289
3. Shaxsiy huquq va erkinliklar hamda siyosiy huquqlarning xalqaro va milliy mexanizmlar asosida himoya qilinishi	307
12-mavzu. Insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari.....	311
1. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari va ularning xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishi	311
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning kafolati	315
3. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmi	326

13-mavzu. Ayollar huquqlari.....	331
1. Ayollar huquqlari va gender tengligi tushunchasi	331
2. Ayollar huquqlari va erkinligini xalqaro- huquqiy himoya qilish	336
3. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga oid milliy qonunchilik asoslari	350
4. Ayollar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning milliy mexanizmi.....	360
14-mavzu. Bola huquqlari.....	365
1. Bola huquqlari tushunchasi	365
2. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy qonunchilik.....	369
3. Bola huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar.....	371
4. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro mexanizmlar	379
15-mavzu. Fuqarolarning majburiyatlari	386
1. Fuqarolar huquqlari va majburiyatlarining o'zaro bog'liqligi	386
2. Yuridik majburiyatlar va ularning ko'rinishlari: faol va passiv yuridik majburiyatlar.....	392
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning burchlari va majburiyatlari	394
16-mavzu. Inson huquqlarini ta'minlash usullari	398
1. Konstitutsiya, qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarda inson huquqlarini ta'minlash me'yorlari	398
2. Inson huquqlarini ta'minlashda davlat organlarining o'rni va roli.....	401
3. Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarning o'rni va roli.....	418
4. Inson huquqlarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'rni va roli	427

17-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorligi	447
1. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik – O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi.....	447
2. O‘zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi.....	449
3. O‘zbekistonning YeXHT bilan inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorligi.....	470
4. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan inson huquqlari sohasidagi hamkorligi.....	476
“Inson huquqlari” fanidan tavsiya etilayotgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.....	479

**Mo‘minov Abdulxay Rashidovich
Tillabayev Mirzatillo Alisherovich**

INSON HUQUQLARI

Darslik

Ikkinchi nashr

(o‘zbek tilida)

Mas’ul muharrir:

A.X. Saidov

Muharrirlar:

**A. Omonov,
G. Ortiqxo‘jayeva**

Texnik muharrir:

A. Ahmedov

**Kompyuterda
sahifalovchi:**

Sh. Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
“Adolat” nashriyoti. Nashr. lits. AI № 228, 16.11.2012.
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.
Telefon: (371) 236-05-97, 233-81-53.
Faks: (371) 233-84-80, 233-67-65.
veb sayt: www.adolatnashr.uz
e-mail: info@adolatnashr.uz
adolatnashr@inbox.uz

Bosishga ruxsat etildi 25.09.2013-y.
Qog'oz bichimi 60x90 1/16. “Times” garniturası.
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 31,5.
Nashriyot hisob tabog'i 33,0. Adadi 24000 nusxa.
3201-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

**“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik
kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
100000. Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.**